

**O'ZBEKISTON-FINLANDIYA TA'LIMI VA
BARKAMOL AVLOD TARBIIYASI MUAMMOLARI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**O'ZBEKISTON-FINLANDIYA TA'LIMI
VA BARKAMOL AVLOD TARBIIYASI
MUAMMOLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLAR TO'PLAMI**

**2024-yil 24-25-may
O'ZBEKISTON, SAMARQAND**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA
TA‘LIMI VA BARKAMOL AVLOD
TARBIYASI MUAMMOLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

2024-yil 24-25-may

O‘ZBEKISTON, SAMARQAND

Samarqand – 2024

UO‘K: 316.74.796

O‘zbekiston-Finlandiya ta’limi va barkamol avlod tarbiyasi muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand: “SamDCHTI” nashriyoti, 2024. – 628 bet.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy anjuman “O‘zbekiston-Finlandiya ta’limi va barkamol avlod tarbiyasi muammolari” mavzusida o‘tkazilishi mamlakatimida barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistonni yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqish maqsadiga qaratilgan. Bu ta’lim sohamizdagi olib borilayotgan islohotlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida “Men doimo ta’lim, ta’lim, muallim, muallim”, deb ta’kidlashi bejiz emas edi.

Yangilanayotgan O‘zbekiston ta’lim islohatlarini yanada jadalashtirish, uning sifati va mazmunini oshirish, ta’lim jarayonini rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslarini ishlab chiqarish, ta’limda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish - ustuvor ahamiyat kasb etayotgan eng muhim omillardir. Shuningdek, sohaga xorij tajribasini keng joriy etish, xususan, ta’limda O‘zbekiston-Finlandiya hamkorligining umumnazariy va amaliy masalalarni ilmiy asoslash va yoritish mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarning pirovard maqsadini ifodalaydi.

Ushbu to‘plam barkamol avlod tarbiyasidek ezgu jarayonning faol ishtirokchilari bo‘lmish pedagoglar, olim va mutaxassislar, magistrlar, talaba yoshlar va barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: **J.Ya.Yaxshilikov** – falsafa fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Taqrizchilar: **K.D.Haydarov** – falsafa fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

L.N.Jo‘rayev – falsafa fanlari doktori, professor, Sharof
Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tahrir hay’ati: Q.N.Nazarov, G.Sultonova, A.R.Samadov, O.M.G‘aybullayev,
N.Shodiyev, M.Allayarova, A.Saitqosimov, A.Xaydarov,
T.Xo‘jamova, U.Nurmatova, M.Axrorova, R.Amonov,
S.Quvvatov, I.Sattarov, M.Xoliqulov.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

© “O‘zbekiston-Finlandiya ta’limi va barkamol avlod tarbiyasi muammolari”, 2024
© “SamDCHTI” nashriyoti, 2024

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotining eng asosiy omillaridan biri shak-shubhasiz, to‘g‘ri tashkil etilgan muvaffaqiyatli ta’lim tizimi hisoblanadi. Chunki jamiyatning qaysi bo‘g‘inida muammolar ko‘paysa, demak, u yerda bilim yetishmayapti, o‘sha soha kadrlariga ta’lim berishda xatoliklar bor. Aksincha, qayerdagi yuksalish, rivojlanish bor ekan, u sohada bilimli kadrlar faoliyat ko‘rsatmoqda, demakki, ta’lim sifatiga e’tibor qaratilgan. Ta’lim har bir davrda, har qanday davlatning mentaliteti, tarixi, madaniyati, mavjud imkoniyatlari va shart-sharoitlariga mos ravishda rivojlangan.

Zamonaviy dunyoda esa, rivojlanish yo‘lidagi tub texnologik o‘zgarishlar, manfaatimizga yoki zararimizga xizmat qilayotgan qadriyatlar transformatsiyasi, ilgari tasavvur qilmaganimiz, bugun hayotimizning muhim atributiga aylanayotgan turli innovatsion yangiliklar, bundan buyog‘iga ta’lim sohasida shitob o‘zgarishlarni amalga oshirish davri kelganidan dalolatdir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “bugungi shiddatli zamon barcha sohalar qatorida ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish bo‘yicha ham oldimizga g‘oyat muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. ...farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta’lim-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o‘qituvchilarni tayyorlash – bu eng og‘ir vazifa bo‘lib, juda katta mehnat va mas’uliyatni talab etadi. Shu ma’noda, bugungi kun o‘qituvchisi universal mutaxassis, ham o‘rgatuvchi, ham o‘rganuvchi bo‘lishi, ya’ni o‘z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak.”¹

Ta’lim sohasida ilg‘or tajribaga ega davlatlarning maktabgacha va maktab ta’limidagi yangiliklari, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonidagi interaktiv yondashuvlari hamda o‘qituvchilar malakasini oshirishning zamonaviy metodlari borasida integrativ hamkorlikni amalga oshirish ko‘plab muammolarga yechim topib beradi. Shu ma’noda, mazkur anjuman ayni vaqtida tashkil etilgan bo‘lib, unda o‘rganilgan masalalar, ko‘tarilgan muammolar va ularning yechimlariga doir ilgari surilgan qimmatli fikrlar, nazariy xulosa va tavsiyalar Uchinchi Renessansni barpo etishga, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishda ta’lim sohasidagi dolzarb vazifalarimizni oydinlashtirish, ilmiy jamoatchilikning e’tiborini yanada jalb qilish va ko‘plab savollarning javoblarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Negmatova Sh.Sh. – O‘z-FinPI rektori, professor, f.f.d.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T.: O‘zbekiston, 2020. 329-b.

I-SHO‘BA
O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA TA‘LIMINING UMUMNAZARIY
VA AMALIY MASALALARI

TA‘LIM FALSAFASI – UCHINCHI RENESSANS SHAKLLANISHI VA
RIVOJLANISHINING METODOLOGIK ASOSI

Negmatova Shaxzoda Shuxratovna

O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti rektori

Annotatsiya

Ma‘rifatli jamiyatni barpo etish, buyuk allomalarimizning azaliy orzusi bo‘lganligini mustaqillik sharofati tufayli va uni amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlar yuzaga kelganligini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “ma‘naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta‘lim-tarbiyani rivojlantirish, ma‘rifatli jamiyatni barpo etish asosida taraqqiyot strategiyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi shaxsni voyaga yetkazish – pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta‘minlash bo‘lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir”² degan ko‘rsatmalari demokratik jamiyatni barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: “ma‘naviy yetuk, barkamol avlod, tafakkur, renessans.

Abstract

Considering that building an enlightened society was the eternal dream of our great scholars thanks to the honor of independence and that all the conditions for its realization were created, the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. , development of education, raising a new person who realizes the development strategy based on the establishment of an enlightened society is one of the most important tasks of our reforms, the ultimate goal of which is to ensure human interests" are important in the establishment of a democratic society becomes important.

Key words: "spiritually mature, perfect generation, thinking, renaissance.

Darhaqiqat, XXI asrga kelib jahonda ilm-fan jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, uning so‘nggi natijalari esa tezlikda bevosita ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilmoqda. Bunday holatning vujudga kelishi ilm-fan bilan ishlab chiqarish jarayoni o‘rtasidagi dialektik munosabatlarni falsafiy jihatdan to‘g‘ri va teran anglab olishni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida ilm-fanni taraqqiy ettirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarining yangi avlodini yetishtirish vazifasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Bu vazifani esa tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqida haqiqatligi hayotda tasdiqdangan aniq, ishonchli dalillardan tashkil topgan, metodologik ahamiyatga molik bo‘lgan bilimlarni o‘zida aks ettirgan fundamental falsafiy nazariya zaminiga qurilgan ta‘lim tizimigina amalga oshirishi mumkin. Ta‘lim tizimini ana shunday fundamental falsafiy nazariyaga asoslangan holda vujudga keltiruvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi sohalaridan birini ta‘lim

² Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022-yil, 290-bet.

falsafasi tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda Uchinchi Renessansning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun "mayoq" vazifasini o'taydi.

Globalashuv sharoitida ta'lim jarayonining shiddatli kechishi, uni Uchinchi Renessans yo'lida xizmat qildirishda qiyinchilik tug'diradi. Qachonki uning mohiyatini falsafiy jihatdan to'g'ri anglab yetish, vaziyatni ham to'g'ri baholay olish imkonini beradi, ya'ni ta'lim falsafasiga bo'lgan ehtiyojni dolzarblashtiradi. Shu sababli, ta'lim falsafasiga bo'lgan ehtiyoj o'z vaqtida qondirilmas ekan, u holda mavjud ta'lim Uchinchi Renessansga intilish jarayonida uzluksiz, rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum tarzda hayotdan orqada qolib ketadi va oxir-oqibatda jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qilib qoladi. Buni to'la anglash uchun "renessans" tushunchasini bilish lozim.

Xo'sh, Renessans nima? Renessans fransuzcha "*Renaissance*", italyanacha "*Rinascimento*" va lotincha "*renasci*" so'zlaridan olingan bo'lib "tug'ilmoq, qayta tug'ilish" degan ma'nolarini anglatadi.³ Renessans (Uyg'onish) davrining asosiy belgilari tafakkur va ilm-fandagi dogmatizm, jaholat va aqidaparastlikdan uzoqlashishga, insonni ulug'lashga, iste'dod va aqliy faoliyat imkoniyatlarini ochishga, hayot ohanggi va dunyoviy go'zallikni qizg'in kuylashda namoyon bo'ladi. Natijada ijodkorlik va fikr kuchini namoyish etadigan ajoyib san'at asarlari yaratiladi, muhtasham me'moriy inshootlar quriladi va fan rivojlanadi⁴.

Uchinchi Renessans – bu mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroning o'z aqliy va jismoniy qobiliyatlarini erkin rivojlantirish natijasida ilm-fan, adabiyot va san'at, ma'naviyat va ma'rifatning yuqori darajada shakllangan bir davridir. Bunda eng asosiy omil – insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash, moddiy va ma'naviy manfaat va ehtiyojlarini to'lig'icha qondirishdan iboratdir. Demak, jamiyat Uchinchi Renessans sari qanchalik taraqqiy topsa falsafa ilmiga bo'lgan ehtiyoj ham shunchalik ortib boradi. Falsafa ilmi qanchalik rivoj topsa, jamiyat ham shunchalik taraqqiy etib, gumanistik mazmunga ega bo'ladi. Jamiyatning gumanistik mazmunga ega bo'la borishi unda mavjud bo'lgan ta'lim jarayonini to'g'ri, tizimli asosda tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Chunki, har qanday ta'lim jarayonining mazmuni - muayyan falsafiy nazariyalar asosiga qurilgan ta'lim tizimining real ijtimoiy voqelikdagi o'rni va uni o'zgartira olish imkoniyatlarining mavjudligi bilan ifodalanadi. Bu holatda ta'lim to'g'risidagi falsafiy nazariya qanchalik insonparvar bo'lsa, ta'lim jarayonining mazmuni va mohiyati ham shunchalik progressiv ahamiyat kasb etadi.

Demak, jamiyat hayotida falsafa ilmi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro integrallashuv jarayoni sodir bo'ladi. Buning natijasida esa ta'lim va falsafa o'zaro qaytadan birlashib, sifat jihatdan tabiat va jamiyat sirlarini bilishning Uchinchi Renessans davridagi yangi shakli bo'lgan ta'lim falsafasining paydo bo'lishiga imkoniyat yaratib beradi.

Mazkur imkoniyatning voqelikka aylanishi, birinchidan, mavjud ta'lim tizimining ob'yekti va sub'yekti o'rtasidagi nisbatga; ikkinchidan, uning shunday konseptual ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy g'oyaga asoslangan holda tashkil etilishiga; uchinchidan, odamlarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlariga;

³ Online Etymology Dictionary. Запнопа С. В. Ренессанс: точка отсчета. История западноевропейского искусства XIV - XVI веков. По материалам частной коллекции. –М.: Стентр Искусств. Москва, 2020.- 115 с.

⁴ Саидов А.Х. Новый Узбекистан и Третий Ренессанс// rated 3 stars out of 5

to'rtinchidan, ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatga bog'liqdir. Ana shu imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ta'lim falsafasi, bir tomondan, ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi, ikkinchi tomondan, kelgusida ta'lim jarayonini rivojlantirishning - nazariy-konseptual asoslarini tashkil etuvchi; uchinchi tomondan, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida mantiqiy izchillikni ta'minlashga xizmat qiluvchi bilim sohasi; to'rtinchidan, ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish asosida, uning insonparvarlik mohiyatini yaqqol namoyon qiluvchi kuch sifatida ilm-fan sohasida real voqelikka aylana boradi. Bu xususda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: "Hamмамizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq"⁵.

Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi, degan so'zlari bor va ushbu fikrlar miloddan avval aytilgan. *Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda*⁶.

Ta'kidlaganlarimiz, mamlakatimizda Uchinchi Renessansga boshlab boruvchi milliy ta'lim falsafasini yaratish zaruratining mohiyatini tashkil etadi. Shu ma'noda, Uchinchi Renessansga eltuvchi omillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Jahon falsafasi ilmi va ajdodlarimizning falsafiy tafakkurining hosilasi bo'lmish - yangicha ta'lim falsafasini ishlab chiqish va uni Uchinchi Renessansning metodologik asosi sifatida amalda qo'llash.

2. Falsafa tarixini yangi tarixiy ma'lumotlar asosida yaratib, tarix fanining metodologik asosini tashkil qiluvchi tarix falsafasini yaratish, uning qonuniyatlarini kashf qilgan holda Uchinchi Renessansning tarixiy ildizlarini asoslab berish.

3. Uchinchi Renessansning falsafiy asoslari, ijtimoiy-iqtisodiy zaminlari, siyosiy-huquqiy jihatlari, ma'naviy-madaniy qirralarini ochib beruvchi falsafiy tadqiqotlar dasturini ishlab chiqish.

4. Har bir ta'lim muassasida Uchinchi Renessansning falsafiy mohiyatini ochib berishni targ'ib-tashviq qiluvchi bilimdonlar guruhini tuzish, ularning faoliyat olib borishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish.

Xulosa o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur. Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>

⁶ Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir// <https://president.uz/uz/lists/view/3864>

Biz maktabgacha va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini hamda, ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lgusi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa, yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman - hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, ustuni bo'ladilar. Va, bu ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustuni bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar to'la qo'llab-quvvatlaysizlar"⁷.

Xulosa qilib aytganda, har qanday millatning, davlatning tarixiy rivojlanish istiqbollari, bevosita uning ma'rifiy yuksalishi bilan belgilanadi. Bu esa, millatning intellektual potensialiga bog'liq. Shuning uchun ham kishilar ongiga, hayot tarziga ma'rifat nurini singdirishning targ'iboti va tashviqotida pedagogika, falsafa va ma'naviy-ma'rifiy soha kadrlar salohiyati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent, "O'zbekiston", 2022-yil, 290-bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir//<https://president.uz/uz/lists/view/3864>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>

4. Яхшиликков, Ж. Я., and Н. Э. Мухаммадиев. "Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси." *Тошкент. Чўлпон номидаги наириёт-матбаа ижодий уйи* (2018): 503-504.

5. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.

MA'NAVY BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH OMILLARI

Qiyom Nazarov,
f.f.d., professor

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni ma'naviy-axloqiy barkamol etib tarbiyalash, ularga gumanitar ta'lim-tarbiya berishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, sifatli ta'lim, gumanitar tarbiya, yosh avlod tarbiyasi

Annotation

The article analyzes topical issues related to the upbringing of the spiritually developed young generation and the role of humanitarian education in this process.

⁷ Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar – Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir// <https://president.uz/uz/lists/view/3864>

Keywords: education and upbringing, quality education, humanitarian education, upbringing of the younger generation.

Bugungi globallashib borayotgan dunyoning barqaror va tinch yashayotgan xalqning mustahkam takomil topishiga rahna soladigan, uning madaniyatiga, milliy qadriyatlariga madaniy tarbiya tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tahdidlarning ko'payib borayotganligi har birimizni yuragimizda hadikni uyg'otmoqda. Nega deganda, yurtimizdagi mavjud uzluksiz ta'lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamragan xolos. Mazkur tizimni qamrab olgan yoshlardan tashqari aholining juda katta qismi orasida ta'lim va tarbiya sohasini tizimli yo'lga qo'yishni, bunda milliy qadriyatlarga sodiqlikka erishish zarurati bugungi kunning talabiga aylandi.

Aynan shu jihatdan ta'lim-tarbiya bir tomondan, yuksak madaniyatli jamiyatni barpo etishda asosiy negizi, ikkinchidan esa, barkamol avlodni shakllantirishning ma'rifiy vositasi bo'lib hisoblanadi. Bu sohada yurtimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan "Yangi O'zbekiston 2030 strategiyasi"da bu boradagi amalga oshirilishi zarur bo'lgan faoliyat yo'nalishlari aniq-tiniq belgilab berilgan.

Mazkur strategiyada kelgusi 7 yillik muddati ichida, ya'ni 2030 yilgacha erishilishi ko'zda tutilgan maqsadlar islohotlarning bardavom bo'lishidan dalolat beradi. Bu yo'nalishda bog'chalarga bo'lgan ehtiyoj 2030 yilgacha 100 foizga qondiriladi. Maktab etishmovchiligi muammosi esa 7 yil davomida har yili 500 mingtadan o'quvchi o'zni, jami 2,5 millionta qo'shimcha o'rin yaratish orqali hal qilinishi aytilyapti. O'zbekistondagi bog'cha va maktablarning hammasi filtrlangan ichimlik suvi bilan ta'minlanishi va'da qilindi. Keyingi 7 yilda har bitta bog'chada kompyuter sinfi, har bitta maktabda esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining hammasiga etadigan ta'lim planshetlari bo'ladi. Informatika fanini o'qitish 1-sinfdan boshlanadi. Barcha maktablarga chet eldan chet tili o'qituvchilari olib kelinadi. Chekka hududlarda bepul maktab avtobuslari qatnay boshlaydi.

Bularning barchasi mamlakatimizda sifatli ta'limni amalga oshirish va ma'rifatli avlodni tarbiyalash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi, albatta.

Ammo Prezident asarlari hamda mazkur yo'nalishdagi qaror va farmonlarda ushbu sohadagi ishlar tahlili bilan birga, quyidagi muammolar saqlanib qolayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan:

birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar etarli darajada samara bermayapti;

ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining

etishmasligi bolalarning sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

to‘rtinchidan, o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

beshinchidan, yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, etakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik etarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi malakali kadrlarning etishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishilmasligiga sabab bo‘lmoqda;

oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli sarflanishida nazoratning etarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Bularning barchasi esa o‘z navbatida, bir tomondan, yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonlariga faol jalb etish, ularning huquq va erkinligi hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash, ikkinchidan esa, ularning ma’naviy, ma’rifiy va intellektual darajasini yuksaltirish, madaniy saviyasini oshirish, milliy qadriyatlarga sodiqligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi faoliyatni izchil davom ettirishni talab qiladi. Ayni paytda yosh avlodni yuksak ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash, huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, “ommaviy madaniyat” va yot g‘oyalar ta’siridan asrash, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biridir.

Afsuski, keyingi yillarda ta’lim tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, dunyoqarashi keng, o‘z fuqarolik pozitsiyasida sobit turadigan, har tomonlama barkamol va ma’naviy etuk yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan ayrim ijtimoiy-tarbiyaviy fanlarning o‘quv rejalaridan chiqarib tashlanishi, o‘quv soatlarining keskin qisqartirilishi milliy taraqqiyot jarayonlariga daxldorlik hissi va faol vatanparvarlik tuyg‘usi susayishiga olib kelmoqda.

Ayrim ta’lim muassasalarida bu soha bilan bog‘liq ishlarga ikkinchi darajali vazifa sifatida qaralayotgani, ushbu yo‘nalishdagi ba’zi fakultet va kafedralarning qo‘shib yuborilgani, ularning soni qisqarib, tarkibi esa haddan ziyod kengayib ketgani natijasida mazkur tuzilmalarni boshqarish hamda faoliyatini tashkil qilish samaradorligi pasayib ketgan.

Ijtimoiy-tarbiyaviy fan vakillari, professor-o‘qituvchilar faoliyatini tashkil qilishda ushbu soha xususiyatlari va metodologiyasi talablari etarli darajada hisobga olinmagan, bu boradagi o‘quv yuklamalarida dars soatlari ortib ketgan. Bu esa mazkur sohadagi o‘qituvchilar faoliyatining samarasi keskin pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Milliy o‘zlikni anglash va mustahkamlash jarayonlariga turli yot g‘oyalarning salbiy ta’siri ortib borayotgan bugungi kun voqeligi Taraqqiyot strategiyasi bilan bog‘liq yangilanish sur’atlari, jamiyatimizning rivojlangan davlatlarga xos zamonaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar bilan birgalikda ijtimoiy-tarbiyaviy fanlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishni talab qilmoqda.

Bugungi voqeliklar nuqtai nazaridan ijtimoiy fanlarning o‘tgan davri ortda qoldi,

soxta tushuncha va tamoyillarga ehtiyojmand voqelik yo‘qoldi. Endilikda nima oq va nimaning qoraligi ham ayon bo‘ldi. Aslida, masala bunda emas, chunki u davr o‘tdi, uning ijtimoiy fanlari o‘tmishga aylandi. Ammo ijtimoiy fanlarning o‘zi o‘zgardimi? U hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yangilanib borayotgan jamiyatimiz manfaatlariga xizmat qiladigan, zamonga mos, davr bilan hamnafas va bugungi hayot talablariga javob bera oladigan fanlarga aylana oldimi? Shu sohada xizmat qilayotganlar, ya’ni biz o‘z tafakkurimiz, hayotga va fanga munosabatimizni bugungi kun talablariga mos tarzda o‘zgartira oldikmi? Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar va himoya qilinayotgan dissertatsiyalarning “foydali ish koeffitsenti” qanday? Ularning qanchasi hozirgi davr talablariga, yangilanayotgan jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladi? Bu muhim savollar barchamizni o‘ylantiradi, bezovta qiladi, albatta.

Mazkur savollar bilan bog‘liq masalalarning bir necha jihati borki, bu avvalo, shu yo‘nalishdagi inkor va yangilanish dialektikasini to‘g‘ri tushunish, ijtimoiy fanlarni davr talablari darajasida o‘rgatish, tadqiqotlarni samarali tashkillashtirish va ilmiy kadrlarning salohiyati, eng asosiysi, bu sohada xizmat qilayotgan kishilar, ya’ni barchamizning dunyoqarashimiz va mas’uliyatni his qilishimiz bilan bog‘liqligi, shubhasiz.

Hozirgi kunda jahon taraqqiyotining ustuvor xususiyatlariga aylanayotgan globallashuv jarayonlari, keng miqyosli integratsiya, fan-texnika hamda axborot texnologiyasining beqiyos rivojlanishi ham sohaga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy o‘zlikni saqlash, xalqimizning azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga omon-eson etkazish, miqyosi har yili ikki marta ko‘payib borayotgan son-sanoqsiz axborotlar dunyosida adashib qolmaslik, bu borada ham “oq va qora”ni ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, bugungi dunyo nafaqat globallashib yoki axborotlashib, balki texnokratlashib ham bormoqda. Mutaxassislar fikricha, buning natijasida shakllanayotgan texnokrat inson robotga o‘xshaydi, u ko‘proq virtual dunyoda yashaydi, asta-sekin boshqalardan uzoqlashib, jamiyatdan ajrala boshlaydi. Unga tarix nidolari, bobolar yodi, xalqi va yurtining o‘tmishi hamda kelajagi oldidagi qarzdorlik hissi begona, qalbida bokira tuyg‘ularga o‘rin yo‘q. U xalq dostonlarini o‘qimaydi, baxshilarning xonishlarini tushunmaydi, milliy qo‘shiqlarimizni hirgoyi qilolmaydi, mumtoz musiqalarimizni tinglab, “sel bo‘lib oqmaydi”. U qaerda yaxshi yashasa, o‘sha er uning vatani, unga hech kim tegmasa, o‘z telefoni va komp’yuterlari dunyosiga “ko‘milib” o‘tirish uchun sharoit bo‘lsa, bas.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar bu bilan kelisha olmaydi. Agar u o‘z tushuncha va tamoyillarini xalq maqsadlariga moslashtira oladigan, qonun va kategoriyalar echimini davr talablaridan izlaydigan hushyor va ogoh insonlarni tarbiyalash davr ehtiyoji ekanini anglamasa, haqiqiy ijtimoiy fanlarga aylana olmaydi.

Shu munosabat bilan ta’kidlash joizki, jahon xalqlari ijtimoiy tafakkurida gumanitarizm va texnokratizmning o‘zaro munosabati, ularning hayotdagi o‘rni va ahamiyati masalasiga doir turli xil qarashlar tarixi uzoq asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Bu borada “Texnik bilimlar va aniq fanlarning ko‘lami va ta’siri haddan ortib ketmayaptimi?”- degan xavotirlar bilan birga “Ijtimoiy fanlar mavhum va amaliy

ahamiyatga ega emas, shuning uchun ularning keragi yo‘q”, kabi iddaolarning tarixi ham xuddi shunday olis o‘tmishdan boshlangan.

Aslida, bu ikkala jabha bir tananing ikki qismi, bir yaproqning ikki tomoni, qushning ikki qanoti kabi bir butun, uzviy bog‘liq va ajralmasdir. Aniq fanlar rivoji va texnik taraqqiyotsiz har qanday jamiyat hayoti va uning kelajagini tasavvur etib bo‘lmagani kabi, ma’naviyat tamoyillari, axloqiy qadriyatlar va ezgu g‘oyalar asosida barkamol avlodni voyaga etkazadigan, uning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantiradigan ijtimoiy fanlar, xususan falsafiy bilimlarsiz hushyor va ogoh, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan voqealar mohiyatini to‘g‘ri anglaydigan, ularga daxldorlik hissi bilan yondoshadigan zamonaviy insonni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Bu esa, o‘z navbatida, soha mutasaddilari va mutaxassislarining davr ehtiyojlarini chuqur anglashi, uning talablarini to‘g‘ri tushunishi lozimligini ko‘rsatadi. Ayni paytda, mazkur sohadagi faoliyatning barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan va 2023-2030 yillarga mo‘ljallangan maxsus Dastur ishlab chiqish va unda quyidagilarni belgilash zarurati etilgan:

o‘quv dasturlarida nazarda tutilgan milliy qadriyat va an‘analarga oid tushunchalarni mustahkamlash, axloqiy me‘yor va tamoyillarni o‘zlashtirish bo‘yicha ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqot ishlarini tizimli tashkil qilish, bu borada faoliyat usullarini bosqichma bosqich takomillashtirib borish;

o‘quvchi va talabalarni milliy o‘zlikni anglash, xalqimizning o‘ziga xos urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash choralarini belgilash;

yoshlarni turli ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish va ularga qarshi kurashishda ma’naviy-ma’rifiy va g‘oyaviy-tarbiyaviy omillardan samarali foydalanish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan mexanizmni shakllantirish;

ta’lim tizimida ijtimoiy-tarbiyaviy fanlar mazmunining real hayot, yoshlar ma’naviy ehtiyojlari va faoliyat sohalari bilan bog‘liqligini ta’minlash, o‘quv rejalari va dasturlarini uzviylik va uzluksizlik asosida tayyorlash, mazkur fanlarni o‘qitishga tizimli yondashish;

ta’lim muassasalaridagi ilmiy-pedagogik faoliyat samaradorligini yanada oshirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning g‘oyaviy asoslarini mustahkamlash hamda ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar tizimining akademik ilm-fan taraqqiyoti bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish,;

ijtimoiy-tarbiyaviy fanlar bo‘yicha yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tizimli tatbiq etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik, ilmiy va yordamchi adabiyotlar bilan ta’minlash;

ta’lim tizimi va undan tashqaridagi faoliyatda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi tadbirlarni tashkil etish, talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini ta’minlash.

Ushbu masalalarning ijtimoiy fanlarni yangi bosqichga ko‘tarish ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlili soha mutaxassislari mas’uliyatini oshirish bilan uzviy bog‘liq ekanidan dalolat beradi. Bu borada ham nafaqat jamiyat, balki ilm-fan, xususan ijtimoiy fanlar yangilanishi o‘z-o‘zidan va muqarrar tarzda, inson modernizatsiyasini taqazo etayotgani, shubhasiz. Shu ma’noda, alloma Suqrotning “O‘zgalarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan inson, avval o‘zini o‘zgartirishi lozim” degan fikri bejiz

aytilmagan.

Bu esa, asl ijtimoiy fanlarning asoslarini o'rganish qanchalik zarur bo'lsa, ularning bugungi globallashuv, texnokratlashuv va axborotlashuv jarayonlari bilan bog'liq zamonaviy masalalari ham dolzarb vazifalarini bilib olish va erishilgan natijalarni hayotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish ham shunchalik muhimligidan dalolat beradi. Ijtimoiy fanlarning ayrim kategoriya va qonunlari mavhum bo'lib qolgan, deya uni o'rganmay qo'yish yoki undan foydalanmaslik xato bo'lgani kabi, ba'zi mutaxassislarining davr talablarini aks ettirmaydigan, hayotdan yiroq tushunchalarga yopishib olishi va bunday pozitsiyadan voz kechmasligi ham, xuddi shunday yanglishligi, shubhasiz.

Keyingi yillarda boshqa sohalar qatori, bu jabhadagi yangilanish va o'zgarish, mavjud masalalar mohiyatini anglash, dolzarb vazifalarni aniqlash va ularning echimini topish masalasida ham yangicha ilmiy paradigmalarda shakllanmoqda. Xalqimizning milliy tafakkuri, ijtimoiy fanlarning evolyusiyasi va dinamikasi, umumiy qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini ana shu asosda chuqur va har tomonlama o'rganish, uning tushuncha va tamoyillari, rivojlanish yo'llari va samarali vositalarini aniqlash imkoni paydo bo'ldi.

Bu esa, xalqimizning asl tarixi va mustaqillikka erishish jarayoni, milliy taraqqiyot yo'lining mohiyati va ahamiyatini chuqur o'rganish, aholi, ayniqsa yosh avlod tafakkurida istiqloq g'oyalari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash eng ustivor va mas'uliyatli vazifamizga aylanganidan dalolat beradi. Davr talabi shunday, ijtimoiy fanlarning modernizatsiyasi va ularni milliy taraqqiyotning muhim omiliga aylantirish ehtiyojlari ham barchamizdan shuni talab qilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2022 yil
2. “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. <http://www.president.uz/uz/lists/view/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>

YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA FINLANDIYA TA'LIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI VA OMILLARI

Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti professori

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqalamizda, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xosligi tahlillar yordamida ochib berilgan. Unga qo'shimcha ravishda, Fin ta'lim tizimining ta'lim tizimlaridan alohidaligi hamda xususiyatlari shuningdek imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: dunyo, qarash, ijtimoiy hayot, Fin ta’limi, ta’limdagi strategiya, Razi Ragunaton, Timoti Uoker.

SPECIFICITY AND FACTORS OF FINNISH EDUCATION IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE

Annotation: in this scientific proverb, the specificity of the Finnish educational system in shaping the worldview of young people is revealed using analysis. In addition to it, the isolation and features of the Finnish education system from educational systems are also described.

Keywords: World, Vision, social life, Finnish education, strategy in education, Razi Ragunaton, Timothy Walker.

Ijtimoiy hayotda inson dunyoqarashsiz bo‘lishi mumkin emas, chunki insonga tabiat tomonidan ato qilingan ong va tafakkurga ega. Inson ong bilan fikrlaydi, tafakkur qiladi. Islom diniy ta’limotlarida ham ifodalanganidek, xudo insonni barcha tirik mavjudotlardan ustun qilib yaratilgani, insonga tafakkur, aql berilganligi bayon qilingan. Inson tevarak atrofdagi harakatlanayotgan, o‘zgarayotgan narsa va hodisalar bilan munosabatda, aloqada, bog‘lanishda bo‘ladi. Shu jarayonda tabiiy ijtimoiy borliqdagi harakatlanayotgan va o‘zgarayotgan narsa va hodisalarning ta’sirida inson miyasida aks etib turli – tuman jarayonlarning obrazlari hosil bo‘lib boradi. Chunki inson dunyoni o‘rganib, bilib olishdan boshlanadi, ya’ni dunyoqarashning mazmunini “dunyo” va “qarash” so‘zlari birikmasidan tashkil topgan, ya’ni sodir bo‘layotgan narsa va hodisalarning mazmunini bilib olishdan boshlanadi.

Dunyoqarashda butun olamning mohiyati va xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar va ularning echimi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bu muammolar olamning kelib chiqishi va uning nechtaligi, strukturasi va tashqi shakli, o‘zgarish va rivojlanish qonuniyatlari, katta kichikligi va nimadan tashkil topgani va shu kabi murakkab ilmiy-nazariy masalalarni o‘z ichiga oladi”⁸ deb ta’kidlangan.

Hozirgi davrda maktab yoshlari turli-tuman tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganishi jarayonida ularning dunyoqarashi uzluksiz va davomli tarzda rivojlanib boradi. Bu dunyoqarashning shakllanishi jarayoni, yoshlarda o‘qituvchilar tomonidan o‘tiladigan darslarning o‘qituvchilar tomonidan qanday tashkil etilishi darajasiga ham bog‘liqdir.

Amerikalik olim, Razi Ragunaton dunyoqarashni shunday tariflaydi: “dunyoqarash shakllanishida inson ko‘ngliga taskin beruvchi, uni hayotdan mamnun bo‘lishiga hissa qo‘shuvchi omillar haqida fikr yuritib, uning o‘zi bir baxtdir”, degan. Uning fikricha baxt dunyoqarashning mazmunini tashkil qiladi. Ragunaton baxtning to‘rtta tarkibiy elementini ajratib ko‘rsatgan. Uning fikricha, insonning ovqatga va boshpanaga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilgan sharoitdagina insonda, daxldorlik, mustaqillik, mohirlik va dunyoqarash kabi omillarni chratish mumkin deb biladi.

Yana bir Amerikalik olim Timoti Uoker esa unga yana bitta elementni qo‘shgan, bu yaxshi kayfiyatdir, deb hisoblaydi. Timoti Uoker fikrlarini asoslash uchun quyidagi

⁸ Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. –Samarqand “SamDU” nashriyoti. 2021-yil. –B.6.

fikrlarni ilgari suradi unga ko'ra: "Dunyoqarashni ikki xil usulda tasvirlash mumkin: birinchisi, tanqislikka (ochko'zlikka) yo'naltirilgan yondashuv, ya'ni bunda sizning yutug'ingiz, albatta, boshqalarning muvaffaqiyatsizligi evaziga yuz berishi kerak (bu esa, tabiiyki, raqobatga eltadi). Ikkinchi yondashuv esa mo'l-ko'lchilikka (to'qchilikka) yo'naltirilgan bo'lib, bu dunyoda barcha yutuqqa erishishi uchun joy etarli⁹, deb qaraladi.

Ularning ta'limotlarida o'qituvchilik kasbiga sodiq qolish, undan faxrlanib, zavqlanib yashash, bir-biri bilan hamkorlik qilish jarayoni orqaligina, insonning dunyoqarashini o'zgartiruvchi omil bo'lishi mumkin deb hisoblaydi.

Finlandiya ta'lim tizimida o'qituvchilarga hammadan ham ko'proq ishonishadi, sababi esa, o'qituvchilar ham o'quvchi yoshlarga ishonishadi. Ularga yoshligidan turli masalalar bo'yicha mas'uliyat yuklashadi, ular mustaqil tarzda topshirilgan turli vazifalarni mas'uliyat hissi tufayli bajara boshlaydi, asta-sekinlik bilan ishonch hissi yuzaga kelib, tuyg'usida qo'rquvni engib, bajarilgan ish natijalarini ko'rib o'ziga ishonch, quvonch tuyg'usi yuzaga keladi. Bu holatlar yoshlarda dunyoqarashning, erkinlikning rivojlantiruvchi omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda Finlandiya ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan bir bu, yoshlar ruhiyatida quvonch bo'lishi, hamda mo'l-ko'lchilikka qaratilgan yondashuvlarni, g'oyalarni ularning ongiga singdirib borish masalasiga qaratilgan. Jamiyatni yuksaltirishga qaratilgan oltita strategiyani amaliy faoliyatda qo'llashga qaratgan. Bu strategiya quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi. Sababi, fin pedagoglari shunga amal qiladilar, ya'ni ular "oqim" xolatiga intiling, teringiz qalin bo'lsin, bir finjon qahvani ho'plab, hamkasblar bilan hamkorlik qiling, ta'tilda chindan dam oling va quvonchni unutib qo'ymang kabi ijtimoiy omillarga amal qiladi. Tadqiqotchilar ham bu omillarning inson faolligi yuksalishidagi o'rni borligini ko'rsatgan. O'ylab qaraydigan bo'lsak, har qaysi omillarning inson kamoloti va dunyoqarashi rivojlanishida o'ziga xos o'rni bor.

Timoti Uoker ta'kidlashicha, Finlandiyada maktabda ishlagan chog'larida, finlandiyalik hamkasbi uning o'quvchilarning ota-onalari bilan bo'lgan suhbatni eshitib kasbdoshi, unga o'zingni professional o'qituvchi sifatida tutishni, professional ekanligiga shubha qilmaslikni maslahat berib, "terimni qalin qilishimni"¹⁰, maslahat berdi. Uning ta'kidlashicha, "uyda siz boshliqsiz, maktabda esa men,"- deb uqtirishi kerak. O'zaro munosabtda muvozanat bo'lmasa, inson kayfiyatiga salbiy ta'sir qilishi, oqibatda, inson dunyoqarashiga ham salbiy ta'sir qilishi va inson faolligining pasayishiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun insonning terisi qalin bo'lishi, ya'ni munosabatlardagi bardoshlikka amal qilib, quvonchni saqlash, strategik taraqqiyotning bir elementi sifatida qaralgan. Shu asosda jamiyatda va ta'lim sohasida keng ma'noda taraqqiyot oldinga qarab siljiydi. Munosabat ijtimoiy taraqqiyotda juda muhimdir.

Ikkinchi strategiya, hamkasblar bilan bir finjon qahva ustida suhbatlashib, ularga quyidagi savollarni berdim, deb ta'kidlaydi Timoti Uoker. "Sizga o'qituvchi sifatida nima quvonch keltiradi?" va "Sizning o'quvchilaringizga nima quvonch olib keladi?" "Ular hamkorlik, hamda ta'limni eng pastdan o'zgartiramiz", deb javob bergan ekan.

⁹ Timoti Uoker. Finlandiya ta'lim mo'jizasi. –T.: "Global books". 2023 yil. –B.5-6.

¹⁰ Timoti Uoker. Finlandiya ta'lim mo'jizasi. –T.: "Global books". 2023 yil. –B.228.

Darhaqiqat, maktab tizimini pastdan o'zgartirib, ta'lim jarayonida hamkorlik qilish asosida, o'qitishning barcha tashvishlarini birgalikda hal qilib, mehnat qilish orqali, muammoning echimini topishganlar, hamda erkin hal qilishganlar. Eng muhimi o'qituvchilar o'quv dasturini birgalikda tahlil qilib, 15 minutlik tanaffus chog'ida bolalarning kuchlarini qayta tiklash uchun qanday yordam berish va nazorat ishlarini tekshirishni bir finjon qahva atrofida hal qilisharkan.

Bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning barqarorlashiga va ta'limning samarali bo'lishiga xizmat qilgan. Bu jarayon hamkorlik quvonchini his qilishiga va yoshlar dunyoqarashining o'zgarishiga xizmat qiluvchi omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Uchinchi omil (strategiya) fin o'qituvchilarida shunday odat borki u odat tusini olgan, o'z darslariga hamkasblarini taklif qilish va bu orqali, o'ziga va o'quvchilarga quvonch olib kelarkan. Bu hamkorlik, do'stlik, quvonch va faollikning yaxshilanishiga olib kelarkan. Chunki o'zaro munosabatda kerakli materiallarni tayyorlashga ko'maklashgan, o'zining dars jarayonida olingan ma'lumotlardan foydalangan, bu dars sifatining yaxshilanishiga sabab bo'lgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tanqidchilikka yo'naltirilgan yondashuvdan qutulmoqchi bo'lgan o'qituvchilar boshqalardagi professionalizmni tan olib, ulardan foydalanish kerakligini, ya'ni bu omil (strategiya) "ekspertlarni taklif qilish"¹¹, mul-ko'pchilikka yo'naltirilgan taklif hamkasblar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi va dars samaradorligining oshishiga xizmat qilishi mumkin.

To'rtinchi omil qilib, "Ta'tilda chindan ham dam oling" deb belgilangan. Bu juda muhim omil, chunki inson energiyasi tiklanishi hamda keyingi faoliyatiga stimuly beradi, fin o'qituvchilari belgilangan kun tartibida amalga oshirarkan. Ular dam olish chog'ida elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlarni, hatto o'z telefonlarini ham uzib tashlarkan. Dam olishda ishga taalluqli bo'lgan narsalardan mosuvo bo'lib, aloqaga chiqmas ekan. Ishni bir chetga surib qo'yib, o'ziga kerakli vaqtni ajratilarkan. Fin tadqiqotchilari o'tkazgan tadqiqot natijalariga qaraganda ular o'z ishlaridan yaxshiroq qoniqish hosil qilib, ish va oila o'rtasidagi munosabatlarda oqilona muvozanat yuzaga kelganligini qayd qilingan. Ularda tabiatni ko'proq qadrlash va jismoniy kuchlarining yaxshiroq tiklanishiga ta'sir qilarkan, bu ularning tabiat va ijtimoiy borliq o'zgarishlari to'g'risida dunyoqarashining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilishini his qilgan.

Beshinchidan, "Quvonchni unutib qo'ymaslik" omili tashkil qiladi. Timoti Uoker ta'kidlashicha Pensilvaniya universiteti tadqiqotchisi Alexandro Adler ijobiy psixologiya mavzusida dissertatsiya yozganida Butandagi 18ta maktabda 8000 o'quvchi ishtirokida tadqiqot o'tkazgan. Eksperimentning mazmuni quyidagicha bo'lgan: bir toifa sinflarda zamonaviylashtirilgan rejadan foydalanilgan va unda baxtli bo'la olish qobiliyatiga urg'u berilgan (bolalarda 10ta nostandart ko'nikma rivojlantirilgan: onglilik, shaxslararo munosabatni shakllantirish qobiliyati, o'zini anglash va hokazo. Bu erda u o'zini ishontirish tamoyiliga asoslangan), boshqalarida esa oddiy an'anaviy tarbiya nazarda tutiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatganki, "Baxt o'quv dasturi" tufayli, o'quvchilarning o'z-o'zini ishontirishi ham, standartlashgan test natijalari ham sezilarli darajada

¹¹ Timoti Uoker. Finlandiya ta'lim mo'jizasi. –T.: "Global books". 2023 yil. –B.238.

yaxshilangani¹², – ta’kidlangan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, Ragunatan quyidagilarni ta’kidlaydi: “Insonga har kuni baxt tuyg‘usi sari harakatlanish haqida eslatib turilsa, hayotda unchalik katta bo‘lmasada, quvonch keltiruvchi narsalarga intilishi kuchayarkan¹³.”

Umuman olganda inson ijtimoiy hayotda bunyodkorlik hamda ezgulik amallarini olib borishi natijasida yuzaga kelgan taraqqiyotdagi o‘zgarishlarni ko‘rib, o‘zining qo‘shgan hissasi natijalarini anglab, unda quvonch hissi yuzaga keladi. Bunda yoshlarda o‘ziga ishonch tuyg‘usi yuzaga kelishi, mustahkamlanishiga va kayfiyatining ko‘tarilishi natijasida yoshlar faolligining oshishiga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand “SamDU” nashriyoti. 2021-yil.
2. Timoti Uoker. Finlandiya ta’lim mo‘jizasi. –T.: “Global books”. 2023 yil.
3. Луман Н.Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский.-М:Логос.2004.– С.88-94
4. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. “Oilada bolalarni tarbiyalashda sog‘lom muhitni shakllantirishning estetik xususiyatlari”. *JournalNX* 6.04 (2020): 88-90.
5. Жўраев, Лукмон. "ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ ХУЛҚ-АТВОРИДА ТРАНСФОРМАЦИЯ." *Journal of Social Sciences* 1.02 (2022): 51-55.
6. Джураев, Л. Н. "ИННОВАТСИОННЫЙ ПОДХОД К ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ." *НАУКА И СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ*. 2020.
7. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TANLILI." *BARCHA SOHALAR BO‘YICHA* (2023): 32.
8. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g‘oya. "O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, “Cho‘lpon* (2018).
9. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.
10. Луман Н.Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский.-М:Логос.2004.– С.88-94
11. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. “Oilada bolalarni tarbiyalashda sog‘lom muhitni shakllantirishning estetik xususiyatlari”. *JournalNX* 6.04 (2020): 88-90.
12. Жўраев, Лукмон. "ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ ХУЛҚ-АТВОРИДА ТРАНСФОРМАЦИЯ." *Journal of Social Sciences* 1.02 (2022): 51-55.
13. Джураев, Л. Н. "ИННОВАТСИОННЫЙ ПОДХОД К ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ." *НАУКА И*

¹² O‘sha asar: –B.244-245.

¹³ O‘sha asar: –B.246.

СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. 2020.

14. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g‘oya. "O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, "Cho‘lpon* (2018).

15. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.

ИЗ ОПЫТА ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЕ В КИТАЕ

FROM THE EXPERIENCE OF DISTANCE EDUCATION IN CHINA

Vohidov Shodmon Huseynovich,

Doctor of Historical Sciences, Professor (Tajikistan).

Resume: Getting an education today is one of the most affordable opportunities for a person. And higher education, which was perceived as an exclusive at the end of the 20th century, has long been no cosmic achievement. Thanks to modern technologies, you can get the most up-to-date knowledge, regardless of where in the world you are. Thanks to the Internet, information has become easily accessible and is spreading at a crazy rate.

Radio and television broadcasts have been widely used in China for a long time to teach students, which was the first round of development of distance education. In the Chinese capital, back in the early 60s of the last century, the first regional television universities (RTVU) were established, which helped people get the necessary knowledge.

Keywords. distance education, china, technology, internet, educational sites

Получение образования сегодня – одна из самых доступных возможностей для человека. А высшее образование, которое еще в конце 20 столетия воспринималось как эксклюзив, уже давно не космическое достижение. Благодаря современным технологиям можно получать самые актуальные знания вне зависимости от того, в какой точке мира вы находитесь. Благодаря интернету информатсия стала легкодоступной и распространяется с сумасшедшей скоростью.

В Китае достаточно давно стали массово использовать радио- и телевизионные передачи для обучения студентов, что стало первым витком развития дистанционного образования. В китайской столице еще в начале 60-х годов прошлого века были созданы первые региональные телевизионные университеты (RTVU), которые помогали людям получить необходимые знания.

Китай в рекордно короткие сроки перевел 170 миллионов учащихся на удаленку. Школы и вузы КНР запустили кампанию под лозунгом «Приостановлены уроки, но не останавливается обучение». Так, всем учащимся доступна открытая образовательная платформа, которая появилась в 2012 году, благодаря кооперации интернет-компаний «Ваньи» и сообщества высшего образования Китая. Принцип обучения следующий: курс состоит из нескольких

блоков - просмотр видео, обсуждение на форуме, выполнение заданий, изучение дополнительных материалов и сдача итогового экзамена.

Платформа предоставляет лучшие открытые курсы, созданные при поддержке Министерства образования КНР и ведущих вузов страны. Здесь абсолютно любой человек, желающий повысить свои знания по тому или иному предмету, может пройти обучение бесплатно. В проекте участвуют ведущие китайские вузы, такие как Пекинский университет, Университет Цинхуа и др. Любой университет имеет возможность создать и разместить на платформе свой курс.

10. O'G'Li, Xoliqulov Muhammad Qaxor, and G'Ofirova Muxlisa G'Ofur Qizi. "A. NAVOIYNING AR'BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI QARASHLARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 4.4 (2024): 24-28.

FIN TA'LIM TIZIMINING O'ZBEK TA'LIM TIZIMIGA ISLOH QILINISHI SABABLARI

Shermanov Isobek Chilmamatovich

O'zbekiston – Finlandiya Pedagogika instituti

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalari uchun namuna sifatida ko'rsatilayotgan Finlandiya ta'lim tizimining qay jabhalarga nisbatan isloh qilinishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bolani hayotga tayyorlash, fan tanlovi, o‘quvchining mustaqilligi, pedagogning kunlik ish muddati, o‘qituvchilar tengligi, raqobatlashishning qoralanishi, oylik maoshning tengligi

Abstract: The article analyzes the aspects of the reform of the Finnish education system, which is shown as a model for educational institutions operating in the Republic of Uzbekistan today.

Key words: preparing a child for life, subject selection, student independence, pedagogue's daily working hours, equality of teachers, condemnation of competition, equality of monthly salary

Bugungi kunda ko‘p yillardan buyon dunyo miqyosida bilim darajasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichni fin o‘quvchilari egallab kelmoqda. Bu masalaga e‘tibor qaratgan ko‘plab mamlakatlar Finlandiya ta‘lim tizimini o‘z ta‘lim muassasalariga isloh qilib kelmoqdalar, shu jumladan, O‘zbekiston ham. Ta‘lim sohasi yuksalishi uchun Finlandiya ta‘lim tizimidagi tajribalariga asoslanib qator islohotlarni amalga oshirish uchun yetarlicha sabablar mavjud.

Finlyandiya ta‘limi mamlakat farovonlik jamiyatining asoslaridan biridir. Chunki, hamma uchun teng ta‘lim imkoniyatlarini taqdim etadigan ta‘lim tizimi bilan faxrlanamiz. Finlyandiyada boshlang‘ich ta‘limdan oliy ta‘limgacha bo‘lgan barcha yo‘llar bepul. Bundan tashqari, Finlyandiya o‘qituvchilari yuqori ma‘lumotli va o‘z ishlariga qat‘iy sodiqdirlar¹⁸.

Finlandiya ta‘lim tizimining eng asosiy maqsadi bu - bolalarni hayotga tayyorlash. Ular o‘zlari qiziqqan, ehtiyojga ega bo‘lgan fanlar bo‘yicha ta‘lim olishga haqli va o‘qituvchilar ham o‘quvchilarning ehtiyojini, iqtidorini inobatga olib dars jadvallari tuzishadi. Finlar bolani yoshligidanoq hayotga o‘zi qadam tashlashni o‘rganishi va umri mobaynida duch keladigan katta-kichik muammolarni o‘zi hal qilishi tarafdoridir. Ota-onalar farzandlarining mustaqil rivojlanishiga imkon yaratishni muhim deb biladilar. Shuning uchun ular o‘zlariga yaqin bo‘lgan maktabga piyoda yoki velosipedda borishga odatlanishgan. Agar maktab ikki kilometrdan uzoq masofada joylashgan bo‘lsa, maktab tomonidan yo‘lga qo‘yilgan xususiy avtobus o‘quvchilarni maktabga olib borib yana qaytib olib kelib qo‘yadi. Bu xizmat xarajatlari, tushlik, o‘quv qurollari va ekskursiya uchun sarflanadigan mablag‘lar, davlat tomonidan qoplanadi. Shu bilan birga, maktablarga xayriya qilish ham taqiqlanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Najot ta‘limda, najot tarbiyada, najot bilimda”¹⁹ degan fikr-mulohazasida ta‘lim, tarbiya, bilim hal qiluvchi omil sifatida kamolot kalitidir. Darhaqiqat, istalgan rivojlangan davlatlarning rivojlanish bosqichiga e‘tibor qaratsangiz, barchasining zamirida ta‘lim, tarbiya, bilim yotadi. Aslida ham har bir davlatning rivojlanishining asosiy sabablaridan biri ta‘limdir. Ilm va bilim, insonning dunyodagi o‘zini o‘rganish va rivojlantirish imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan hayotiy quvvat hisoblanadi. Ta‘lim ilmga asoslangan bo‘lishi kerak, ya‘ni odamlarni bilim va ma‘rifatga qiziqish va o‘rganishga rag‘batlantiradi. O‘rganish, ta‘lim va bilim, insoniyatning barqarorligi va tinchlikka

¹⁸ The Finnish education system // <https://okm.fi/en/education-system>

¹⁹ SH.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O‘zbekiston, 2022-yil. // <https://kun.uz/53070317?q=%2Fuz%2F53070317>

olib keladi. Ta'limning bu ahamiyati haqida ko'proq gapirish, insonlarning shaxsiy va jamiyatdagi rivojlanishining kengayishiga olib keladi. Bu yozuv, ta'limning asosiy ahamiyatini, shuningdek, uning sodda va kasbga qadar o'qish va o'rganishning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu maqola, sifatli ta'limning faol hayotga ega bo'lishi, insonlarni yangi bilimlarni o'rganish va ularga amal qilishga yondashadi. Ta'lim, dunyodagi yagona rivojlanish vositasidir va insoniyatning yuksak ma'naviyatini o'z ichiga oladi. Bu esa ularning o'z oliy maqsadlari va hujjatlari uchun mustaqil ravishda ishlashlari va faol jamiyat a'zosi sifatida bo'lishlari mumkinligini yaratadi.

Mamlakat kelajagi, barcha sohalar va loyihalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog'liq ekani ta'kidlandi. "Maktab ta'limini rivojlantirsak, oliy ta'lim ham, ilm ham kelajakda rivojlanadi. Hozir shu masalani qilmasak, nafaqat kechirmaydi, yoshlarimiz sharoit bor joyga ketadi. Biz ko'p vaqt yo'qotdik, desak to'g'ri bo'ladi. E'tibor bermadik. Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta'limi vazirligining ishi, deb o'ylasa, bu juda xato fikr va xato yondashuv. Butun elimiz bilan, butun jamiyatimiz bilan Xalq ta'limi vazirligiga e'tibor bermasak, qo'ygan natijalarimiz bo'lmaydi. Bir kun emas, bir soat ham kechiksak, iqtisodiyotimizga, ertangi kunimizga, yoshlarimizga katta ziyon bo'ladi"²⁰, degan prezident.

Mamlakatda o'qituvchilik, ruhoniylilik va politsiyachilik eng qadrlanadigan kasblar sanaladi. Oddiy maktab o'qituvchisi bo'lish uchun esa oliy ta'limdan keyin magistraturani tugatgan hamda universitet bitiruvchilari o'rtasida eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan o'ntalikdan o'rin olgan nomzodlar tanlov asosida ishga qabul qilinadilar. Maktabda ishlash uchun ariza topshirganlarning o'ndan birigina qabul qilinadi va yana o'qituvchilikka tavsiya qilinganlar bitta emas, ikkita soha bo'yicha mutaxassis qilinadilar. Aslida, biz ham konservatoriyaga is'tedodi bor talabalarni qabul qilgani singari, o'qituvchilikka qobiliyati bor nomzodlarnigina tanlashimiz kerak.

O'qituvchi uchun kunlik ish muddati 4 soatni tashkil qiladi va bizda bu jarayon kun bo'yi ham davom qilishi mumkin. O'qituvchining ertalab quvvatga to'lgan va 5-6 soatdan keyingi charchoq bilan dars o'tgan holatini taqqoslasak, albatta, orada katta tafovutni ko'ramiz. Har bir pedagog haftada 2 soat davlat tomonidan tashkil qilingan malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi lozim. Bu dars jarayonining samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiysi, ularda o'qituvchilarga nisbatan u muvafaqqiyatli, bu muvafaqqiyatsiz tushunchalari yo'q. Ular barcha pedagoglarga teng munosabatda bo'lishadi va yana ularda hech bir o'qituvchiga nisbatan ishdan haydash, ishdan ketqizish degan qarashning o'zi yo'q, albatta, o'z ixtiyori bilan ketishidan tashqari.

Fin maktablarida fanlar faoliyatini tashkil qilish tartibiga ko'ra darslar biron voqeaga asosan olib boriladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi haqidagi dasrda mavzuga oid tarixiy, geografik va matematik bilimlar birgalikda o'rgatiladi. Shunday qilib, o'quvchilar mavzuning real hayotiy funksiyalari haqida o'ylash orqali doimiy ma'lumot shaklida o'rganadilar. Shu bilan bir qatorda, Fin maktablari foaliyatida uyga vazifa berilmasligi ahamiyatlidir. Hayotda mustaqil bo'lishning ilk qadamlari shu jabhadan boshlanadi. Bizda esa deyarli barcha kichik yoshdagi o'quvchilar uyga vazifani ota-onalarining ko'magisiz bajara olishmaydi. Shunday ekan "...ayni paytda

²⁰ <https://kun.uz/53070317?q=%2Fuz%2F53070317>

axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo‘lgan, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur. Biz esa bu masalani chuqur anglagan holda, shu maqsadga erishish uchun jiddiy harakat qilishimiz shart²¹ deb har doim takrorlaydi muxtaram Prezidentimiz.

Fin maktablarida o‘quvchilar maktabda xizmat ko‘rsatuvchilarga kunlik yumushlarda yordam beradilar. Misol uchun, bog‘bonga bog‘da gullarni ekishga yordam berishadi, xodimlar bilan birga axlatlarni yig‘ishadi, oshxonada o‘z ovqatlarini o‘zlari suzib olib, ovqatdan keyin likopchalarni yuvish uchun tayyorlab qo‘yishadi. Buning natijasida bolalarda mehnatni qadrlash tuyg‘usi uyg‘onadi va maktab foaliyatidagi ishchilarga nisbatan hurmat hissi shakllanadi. Ular kutubxonada kitoblar bilan qayta ishlash tadbirlarida faol qatnashadilar. Bu esa mas’uliyat va maktabga sadoqat hissini oshiradi. Agarda o‘quvchilar maktab hovlisida o‘yin maydonchasi bo‘lishini istasalar, maktab ma’muriyati alohida muhandisni chaqirib, o‘quvchilar bilan suhbatlashib, ularning xohishidan kelib chiqqan holda maydoncha barpo qilishadi.

Ta’limning ilk olto yili mobaynida o‘quvchilarning hech biriga baho qo‘yilmaydi. Bu o‘quvchilarning tengligini mustahkamlaydi. Bizning ta’lim jarayonlarimizdagi eng katta xato ham shu sanaladi. Past baho bilan o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga “Sen ikkichisan” tamg‘asi bosilsa, a’lochi o‘quvchilar eng oldi qatordagi partalardan joy egallaydi. Finlandiya ta’limida o‘quvchi 16 yoshga to‘lgandagina mamlakat bo‘ylab davlat tomonidan imtihon qilinadi. Bu davrgacha hech qanday majburiy imtihonlar olinmaydi. Ular imtihonlarga emas, hayotga tayyorlanadilar.

Fin madaniyatiga ko‘ra shaxsga nisbatan hurmat hamma narsadan ustundir. Finlarda birining boshqasidan ustunligi hamisha qoralangan, ya’ni ularda bolalarning sport bilan shug‘ullanishiga katta e’tibor beriladi, biroq musobaqalashish, jamoa yoki yakkama-yakka bo‘lishidan qat’iy nazar bir-biriga qarshi kurashish, raqobatlashish tushunchalari ma’qullanmaydi. Nafaqat sport, balki darslarda yoki fan yuzasidan ham hech qanday bellashuvlar o‘tkazilmaydi. Ular buni “o‘quvchilarning bir-biriga adovat bilan qarashiga olib keladi”- deb hisoblaydilar. Natijada ular jamiyat o‘laroq, jamoa bo‘lib shakllanadi va birlashib katta kuchga aylanishadi hamda “Milliy birlik” paydo bo‘ladi.

Biz farzandlarimizni yaxshi bilim olishi uchun nufuzli maktablarda o‘qitishga harakat qilamiz. Ta’kidlash joizki, Finlandiyada bu maktab unisidan yaxshi tushunchasi yo‘q, respublikada faoliyat olib borayotgan barcha maktablar har tomonlama bir xil sanaladi va mamlakat bo‘ylab xususiy maktab mavjud emas. “Ta’lim hamma uchun teng imkoniyatlarni taqdim etadi”-, deyishadi finlar.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan barcha maktablarni tubdan isloh qilish qiyin, biroq Finlandiya ta’lim tizimidagi qo‘llaniladigan metodlardan qisman ish jarayonida qo‘llash va uning samarasini o‘z tajribamizda sinash o‘zimizdagi ko‘nikmalarni yanada boyitibgina qolmay, o‘quvchilar o‘zlashtirishidagi o‘zgarishlarni ham anglab olishga katta yordam beradi.

²¹ SH.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O‘zbekiston, 2022-yil. 218-bet.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O‘zbekiston, 2022-yil. 218-bet.
2. The Finnish education system // <https://okm.fi/en/education-system>
3. <https://kun.uz/53070317?q=%2Fuz%2F53070317>
4. <https://kun.uz/53070317?q=%2Fuz%2F53070317>
5. Yaxshilich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.
6. ЯХШИЛИКОВ, ЖЯ, and НЭ МУХАММАДИЕВ. "МИЛЛИЙ ГОЯ ВА МАФКУРА."

IMPORTANT ASPECTS OF FRUSTRATION TOLERANCE IN PERSON

NurmatovNurhayat Nurziyat ugli

Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi,
Teacher of the "Psychology" department

Today, there are many definitions of the concept of “frustration”. For example, the following definition is given in the psychological dictionary: frustration (Latin frustratio - to deceive, to wait in vain) - a mental state that occurs as a result of not being able to satisfy a need or desire. In the dictionary of psychological analysis, frustration is defined as a state resulting from experiences of the impossibility of achieving set goals and satisfying desires, plans and expectations [5].

Frustration (from the Latin frustratio - deception, failure, violation of plans, waiting in vain) is a psychological state that occurs in situations of disappointment, dissatisfaction, failure to achieve any goal or need that is important to a person. In a broad sense, this concept is used to express the state of mind that occurs when it is impossible to satisfy current needs. Another psychological dictionary defines frustration as “the psychological state of experiencing failure when faced with real or imagined insurmountable obstacles to achieving a particular goal” [5]. Its symptoms include overwhelming agitation, restlessness, and hopelessness. The response to frustration can be expressed in the form of escapism (withdrawal into the world of fantasy), social passivity and conformity to the existing regime, or, on the contrary, aggressive behavior.

The most common definition of frustration is interpreted as one of the mental states caused by objectively insurmountable or subjectively perceived difficulties in achieving a goal. In other words, frustration is a state of experiencing failure. Experiencing frustration elicits different behavioral responses in different individuals.

Currently, frustration is usually understood as a mental state of a person, manifested by insurmountable objective (or subjectively perceived) difficulties that arise on the way to achieving a goal or solving a problem. It should be noted that frustration is often confused with such concepts as “stress” and “deprivation”. Frustration is distinguished by two features: firstly, a direct social impact on a person, and secondly, its relatively short duration. Situations that cause frustration are

commonly referred to as “frustration states” or “frustration effects.”

For frustration to occur, there must be an important need and an obstacle to its satisfaction. Faced with a frustrating situation, the body experiences stress, discomfort and tension. This condition is commonly referred to as frustration tension. Frustration voltage can be low, medium and high. At any given moment, the frustration tension can change. In general, its level depends on the ratio of the number of necessary life needs and the sum of frustrating effects. Frustration stress plays a crucial role in mental adjustment.

According to the definition given by Brown and Farber, frustration is the result of conditions that prevent or slow down an expected response [2]. Explaining the position of these authors, Lawson emphasizes that frustration is a conflict between two tendencies that belong to the “goal-reaction” type of relationship and appear under the influence of interference conditions.

S. Rosensweig made a special contribution to clarifying the content of the state of frustration. According to this scientist [1], frustration occurs when the organism encounters more or less insurmountable obstacles on the way to satisfying any vital need. According to his theory, frustration occurs when a person encounters obstacles on the way to satisfying some need that is important to him. Protection of the organism in frustrating situations is carried out at three levels: cellular, autonomic and psychological. At the psychological level, personality types and orientations are revealed that overcome frustrating situations with various forms of success.

The mental state caused by the frustrator obviously depends on the type of this influencing factor. S. Rosensweig distinguished three types of such situations [1]: deprivation (privation), i.e. lack of resources necessary to achieve a goal or satisfy a need; loss (deprivation); conflict.

S. Rosensweig suggested dividing frustration reactions into three groups and kept this classification as the basis of the test he developed [1]:

1. Extrapunitive responses (external accusation). In them, the subject aggressively blames external obstacles and individuals. Emotions that accompany these reactions are anger and agitation. In some cases, the aggression is first hidden, then it finds indirect expression in response to the projection mechanism.

2. Intrapunitive or self-blaming responses. The feelings associated with them are guilt, pangs of conscience.

3. Impunitive responses. In this case, there are attempts to avoid the criticisms of those around him and to approach the frustrating situation from the point of view of compromise.

Based on the above-mentioned information, it can be concluded that the mental state of a person is understood as a result of insurmountable objective (or subjectively perceived) difficulties that arise on the way to achieving a goal or solving a problem.

List of used literature:

1. Rosenzweig S. The children's Form of the Rosenzweig Picture-Frustration Study / S. Rosenzweig, E.E. Fleming, L. Rosenzweig // J. Psychol. - 1948. -V. 26. – P. 15-29.

2. Ермолаева Л.И. Фрустрация как социально-психологический феномен: Автореф. дис.к. психол. наук. -М., 1993. -22с.

3. Заремба Г.Ф. Фрустрация в профессиональной деятельности учителя начальной школы и условия её преодоления: Автореф. дис. .к. психол. наук. -М., 1982.-23с.

4. Левитов Н.Д. Фрустрация как один из видов психических состояний // Вопросы психологии. 1967. № 6. С. 123.

5. Словарь практического психолога. Минск: Харвест, 1997. - 800с.

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTINING FINLANDIYA INSTITUTLARI BILAN JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISH TO‘G‘RISIDAGI HAMKORLIGI

Masharipov Yuldashbay

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

Xoldorov Zoxid Abduvaitovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Nizomov Shoxzod Toshquvvat o‘g‘li

O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida hozirgi kunda Finlandiya institutlari bilan jismoniy tarbiya va sport aloqalari kun sayin rivojlanib bormoqda, kelajakda sport turlari to‘g‘risida o‘rtoqlik uchrashuvlari o‘tkazib o‘z mahoratini namoyish qiladilar, institut, Finlandiya jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamkorligi masalalari haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Salomatlik, bola, ota-ona, sog‘lomlashtirish, tarbiya, psixologik tarbiya, quyosh, suv, havo, kun tartibi, oila

COOPERATION OF THE UZBEK-FINNISH PEDAGOGICAL INSTITUTE ON THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS WITH FINNISH INSTITUTIONS

Annotation. In this article, physical education and sports relations with Finnish institutions are developing day by day at the Uzbek-Finnish pedagogical Institute, in the future they will show their skills by holding friendly meetings about sports, feedback on the issues of cooperation of the Institute, Finnish physical education and sports development.

Keywords. Health, child, parent, wellness, upbringing, psychological education, sun, water, air, agenda, family

O‘zbekiston mustaqilligini jahondagi ko‘p davlatlar tan oldi, ko‘p davlatlar o‘zlarining diplomatik munosabatlarini o‘rnatdi va shu davr ichida davlatimiz jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida Koreya, Xitoy, Yaponiya, Arabiston, Turkiya, Finlandiya, Amerika, Rossiya kabi yirik mamlakatlarga borib o‘rtoqlik uchrashuvlari va rasmiy birinchiliklarda qatnashib, o‘z mahortlarini namoyon qilmoqdalar. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti rektori professor Shaxzoda Negmatova rahbarligida Finlandiya institutlari bilan madaniy, ma‘rifiy hamda jismoniy madaniyat

va sport aqalarini rivojlantirish uchun shartnoma asosida, institutda ta'lim olayotgan talabalarni fin tilini yaxshi o'rgangan talabalarni Finlandiya institutlariga o'qishga yuborish haqida kelishib olindi.

Finlandiya maktablarida dars fin yoki shved tillarida o'tiladi. 1921-yili majburiy 8 yillik ta'lim haqida qonun qabul qilingan. 1968-yili maktabda yagona 9 yillik asosiy maktablar joriy qilingan. 1975-1976 - o'quv yili Finlandiyada 17 oliy o'quv yurti (12 davlat va 5 xususiy) da 75 mingdan ortiq talaba o'qidi. 1935-yildan falsafiy jurnallar nashr qilindi [1:167].

2001-yildan 15 yoshli fin o'quvchilari o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholash uchun mo'ljallangan "Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi" (PISA) da yuqori bol olgani butun dunyoni hayratda qoldirdi. PISA testi natijalari sabab Finlandiya maktablarining ta'lim tizimi eng yaxshi deb tan olingach, dunyoning barcha mamlakatlaridagi pedagoglar fin hamkasblari siri nimada ekanligini bilish uchun ularning tajribalarini o'rganishga kirishdilar [2:25].

Finlandiyalik bolalar va yoshlarning jismoniy qobiliyatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga asosan so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Finlandiya bolalariga yoshlarning jismoniy mashqlarni bajarish ko'nikmalarida gender farqlari borligi aniqlangan. Tadqiqotdagi Saakslanti va uning hamkasblari tomonidan (1999-yil) bog'cha yoshidagi bolalar bilan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, qizlar muvozanatni saqlash qobiliyati o'g'il bolalarga qaraganda yaxshiroq ekanligi aniqlangan. Kalaja, Jaakkola va Jicakkonenning (2008) 7-sinf boshlang'ich maktab o'quvchilari bilan olib borilgan tadqiqoti esa qizlarning statik muvozanat testida, ya'ni flamida muvozanat testlarida, o'g'il bolalarning dinamik muvozanat testlarida ko'rsatkichi yaxshiroq ekanligi aniqlangan. Kalaja va uning hamkasblarining (2008) harakat qobiliyatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarida qizlar arqondan sakrashda o'g'il bolalarga nisbatan yaxshiroq natijalarga erishgan [3:103].

Bolalar butun o'quv kuni davomida faol turmush tarziga rioya qilishlari uchun "Finlandiya maktablari harakatda" nomli yangi davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur tajriba bu muammoni davlat darajasida hal qilish mumkinligidan guvohlik beradi. Ushbu dastur 2010-2012 - yillari 45 ta fin maktabidan sinovdan o'tkazilgan. Natijalariga umid bog'lasa bo'ladi. Agar chindan ham bunga bor imkoniyat sarflanadigan bo'lsa, o'quvchilarning jismoniy faolligini oshira oladilar. Tadqiqotlarga ko'ra, kichik sinflarning yarmi va o'rta sinflarning uchdan bir qismi ancha faol turmush tarziga ega bo'lgan. Finlandiya bolalarga g'oyalarini ifoda etish imkoni beriladi, o'zlariga qiziq tuyulgan amallarni bajarishlariga alohida vaqt va joy ajratiladi. Shu yo'l bilan javobgarlikni zimmalariga olishga undashadi.

Ammo ushbu model o'quvchiga tanlov erkinligini berish naqadar muhim ekaniga e'tiborni qaratdi. Shu yo'l bilan birga, u jismoniy faollik faqatgina tanaffuslar va jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagi kabi bo'lmasligini ko'rsatib beradi [2:44b].

Finlandiyada 100 mingga yaqin nodavlat assotsiatsiya mavjud bo'lib, ularda 1,5 million kishi faoliyat yuritadi. Finlar o'qish va ish bilan birga turfa jamoat ishlarida faol ishtirok etadilar. Yoshlarning besh nafardan uch nafari bo'sh vaqtida sport, san'at yoki madaniyat kabi sohalarda faoliyat yurituvchi assotsiatsiyalariga a'zo. Bugun 90% yosh fin bittadan sevimli mashg'ulotiga ega. Bu ularning sportdagi muvaffaqiyatlariga

ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham Finlandiya 1968-yildan beri Olimpiya o'yinlarigda medalalrni qo'lga kiritib kelmoqda.

Finlandiyada yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarida faol ishtirok etib keladi. 1948-yildan boshlab Finlandiya tog' chang'isi bo'yicha oldinigi 12 ta Olimpiya o'yinlarida qatnashgan va 2006-yilda 1 ta kumush medalini qo'lga kiritgan.

2010-yilda Finlandiya tog' chang'isi bo'yicha 7 ta musobaqada 4 kishilik jamoa bilan qatnashib, ularning eng yuqori 6-o'rinni egalladi (ayollar slalomida) [3:104]. 1920-yildagi yozgi Olimpiya o'yinlaridan boshlab figurali uchish bo'yicha 15 ta Olimpiada o'yinlarida qatnashib 1 ta oltin, 1 ta kumush medalni qo'lga kiritgan, 2010-yilda Finlandiya 3 ta jamoa bilan 2 ta figurali uchish musobaqasida qatnashib 6-o'rinni egalladi (ayollar o'rtasida yakkalik bahslarida).

Chang'ida sakrash sport turi bo'yicha Finlandiya birinchi qishki Olimpiya o'yinlaridan boshlab chag'ida sakrash bo'yicha oldingi 20 o'yinda qatnashib, 10 ta oltin, 8 ta kumush va 4 ta bronza medalni qo'lga kiritib, yangi rekord bilan 2010-yilgacha chang'ida sakrash bo'yicha eng muvaffaqiyatli mamlakatga aylandi, so'nggi medallar esa 2006-yilda qo'lga kiritildi.

2010-yilda Finlandiya chang'idan sakrash bo'yicha 3 ta musobaqada 5 kishidan iborat jamoa bilan ishtirok etdi, ularning eng yuqori o'rni 4-o'rinni egalladi (oddiy tepalikdan individual va katta tepalik jamoalarida) [3:105].

Aholi soni 5,5 million kishiga etadigan Finlandiya 31 mamlakatni ortda qoldirib, shimoldagi kichik mamlakat o'quv rejalarini qisqartirmay, o'qituvchi-yu o'quvchini asabiylashtirmay ham ta'lim berish mmkinligini Amerika va butun dunyoga ko'rsatib qo'ygandi [2:9].

Ma'lumki, hozirgi kunda O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida yuqori malakali sportchilarni, olimpiadachilarni tayyorlash uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Talabalar o'rtasida sportning barcha turlariga qiziquvchilar soni kun sayin ortmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport talabalarni har tomonlama rivojlantirish, o'quv va sport faoliyatiga tayyorlashning vosita va uslublaridan biri sifatida O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining talabalari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish poydevori bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Finlandiya institutlari bilan jismoniy tarbiya va sport turlari bo'yicha musobaqa qatnashchilarini tayyorlash borasida institut o'qituvchi va murabbiylari o'zlarining munosib ulushlarini qo'shib qo'shib kelmoqdalar. Ushbu harakatlar ikki yurtning o'zaro aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek sovet ensiklopediyasi. 12 tom, Toshkent, 1979.
2. Timoti Uoker "Finlandiya ta'lim mo'jizasi, Toshkent, 2023.
3. Physical education and Sport pedagogy April-2011.

O‘ZBEKISTON VA FINLANDIYADA MAKTAB TA’LIMI BOSHQARUVIDA MAVJUD FARQLAR

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich
University of Business and Science

Annotatsiya

O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda maktab ta’limi tizimida xalqaro tajribani joriy qilish yo‘lida bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, ta’limda Finlandiya tajribasi chuqur o‘rganilmoqda va ushbu tajribani O‘zbekiston maktab ta’limi tizimida qo‘llash yo‘lida bir necha ishlar amalga oshirilmoqda. Maqolada O‘zbekiston va Finlandiyada mavjud maktab ta’limi boshqaruvi tizimi solishtiriladi hamda ushbu solishtirish asosida xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: PISA, Vazirlar Mahkamasi, Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi, munitsipalitetlar, pedagoglarning erkinligi, o‘qituvchilarga ishonch

EXISTING DIFFERENCES IN SCHOOL EDUCATION MANAGEMENT IN UZBEKISTAN AND FINLAND

Annotation

The government of Uzbekistan has been implementing a number of reforms in recent years towards the introduction of international experience in the system of school education. In particular, Finnish experience in education is studied in depth, and several works are carried out on the application of this experience in the Uzbek system of school education. The article compares the existing school education management system in Uzbekistan and Finland and gives conclusions based on this comparison.

Keywords: PISA, Cabinet of Ministers, inspection of quality control of education, municipalities, freedom of educators, trust of teachers

Ma’lumki, ta’lim tizimi har qanday jamiyatning taraqqiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ta’lim rivojlangan davlatlar iqtisodiy jihatdan ham o‘shirga erishadilar. Sifatli ta’limga ega bo‘lgan insonlar yaxshi haq to‘lanadigan kasblarda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa kambag‘allikni va ishsizlikni qisqartirish orqali davlat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta’lim tizimiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu sohada ko‘plab yutuqlarga erishganini ko‘rish mumkin. Lekin shunday davlatlar ham borki, iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlatlar qatorida turmasa ham, ta’lim tizimida boshqa dunyo davlatlariga o‘rnak bo‘la oladi. Finlandiya davlati ham ana shunday davlatlardan biri hisoblanadi. 2001-yil 4-dekabrda Finlandiya o‘quvchilaridan olingan PISA (PISA – Programme for International Student Assessment (Xalqaro bilimni baholash dasturi) – OECD tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan xalqaro baholash tizimi) testi natijalari butun dunyoni qiziqishini uyg‘otdi. Ushbu testdagi barcha uchta sohada – matematika, o‘qish va tabiiy fanlarda finlar OECDga (OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) – 1961-yil tashkil etilgan) kiruvchi mamlakatlar orasida eng yaxshi natijalarni qayd etdilar [3,58 b.]. E’tiborga molik tomoni shundaki, ular bu natijaga

hech qanday qo‘shimcha kurslarsiz, repetitorlarga qatnamasdan hamda uy vazifalariga ega bo‘lmagan holda erishdilar. Ushbu natija butun dunyoda fin ta‘lim tizimiga katta qiziqish uyg‘otdi. Shunday keyin turli davlatlardan bo‘lgan mutaxassislar ushbu “mo‘jizakor davlat”ga kelib, bu muvaffaqiyat sirini o‘rganishga kirishdilar.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda Finlandiyaning ilg‘or ta‘lim texnologiyalarini joriy etishga kirishildi. Xususan, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining tashkil etilishi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida ham Finlandiyaning pedagog kadrlar tayyorlashdagi ilg‘or tajribasi asosida hududda pedagogika soha va tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalari, shuningdek, zamonaviy texnika hamda texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda pedagogika sohasi bo‘yicha tarbiya va o‘qitish usullari, ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional oliy ma‘lumotli kadrlarni tayyorlash oliygohni tashkil etishdagi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi [5]. Pedagogik kadrlarni tayyorlashda Finlyandiya tajribasiga e‘tibor qaratilishidan maqsad – bu davlatning ta‘lim sohasidagi ilg‘or tajribasini O‘zbekistonda joriy qilishdan iborat.

O‘zbekiston ta‘lim tizimiga biror-bir davlat tajribasini joriy qilish, avvalo, ta‘lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlar, iqtisodiy va demografik holat, ushbu tizimni joriy qilish uchun shart-sharoitlar hamda ta‘lim tizimini rivojlanishidagi tarixiy xususiyatlarini ham e‘tiborga olishni talab qiladi. Finlandiya ta‘lim tajribasini joriy qilish masalasida, birinchi navbatda, O‘zbekiston va Finlandiyadagi ta‘lim tizimi farqlarini ko‘rib chiqish kerak. Bu o‘rinda ta‘lim tizimi boshqaruvidagi farqlarni ko‘rib chiqish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasini boshqarish bo‘yicha eng yuqori tashkilot Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. 2020-yil 24-sentabrdan kuchga kirgan yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta‘lim sohasida yagona davlat siyosatining yuritilishi, davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqish va ta‘lim sohasidagi vakolatli davlat organlariga rahbarlik qilishi belgilangan [6]. Barcha ta‘lim tashkilotlari faoliyati eng yuqori bo‘g‘in hisoblangan Vazirlar Mahkamasi tomonidan boshqariladi va u tomonidan ishlab chiqilgan ta‘lim standartlari asosida faoliyat ko‘rsatadi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi esa ta‘lim tashkilotlari va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish, nodavlat ta‘lim tashkilotlariga litsenziya berish va bekor qilish hamda ta‘lim reytingini tuzish kabi vazifalarni bajaradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, maktablar boshqaruvi yuqoridan quyiga tomon vakolatlari belgilangan tashkilotlar tomonidan boshqariladi. O‘qituvchilar dars jarayonlarini tashkil etishi yuqoridan belgilangan davlat standartlari asosida amalga oshiriladi. Ta‘lim oluvchilarining bilimi va pedagoglarning attestatsiyalari vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinadi. Darsliklar ham vazirlik tomonidan nashr qilinadi va o‘qituvchilar tasdiqlangan darsliklar asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etadilar.

O‘zbekiston ta‘lim tizimi oldida turgan eng asosiy masalalaridan biri ham aynan maktablarga mustaqillik berish muammosi hisoblanadi. PISA ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘quvchilarning ta‘lim natijalariga aniq talablar o‘rnatish, ta‘lim dasturi va baholash ishlarida maktab mustaqilligini ta‘minlash butun ta‘lim tizimi ishiga ijobiy ta‘sir etadi.

Mustaqillikka ega bo‘lish maktablarni innovatsiyalarga undaydi. Rasmiyatchilikka asoslangan maktablarda innovatsiyalarni ro‘yobga chiqarish mushkul vazifa hisoblanadi [4,2b.].

Finlandiyada maktablar boshqaruvida 1990-yillardan boshlab munitsipalitet larga (Munitsipalitet –aniq belgilangan hududga va unda yashovchi aholisiga ega o‘zini o‘zi boshqaruvchi ma’muriy-hududiy birlik) qarorlar qabul qilishda keng imkoniyatlar berila boshlandi. Bu 1998-yilda qabul qilingan va 1999-yildan kuchga kirgan Asosiy ta’lim to‘g‘risidagi Qonun bilan bog‘liq. Munitsipalitetlarga o‘z hududlaridagi ta’lim muassasalari soni va joylashuvini belgilash vakolati berildi. Natijada kichik umumta’lim maktablari yopila boshlandi va ular o‘rniga kattaroq bo‘lgan, 1-9-sinflarni qamrab oluvchi maktablar tashkil etila boshlandi. Bundan tashqari, ularga iqtisodiy va g‘oyaviy boshqaruvda ham erkinliklar berildi. Qonunda, shuningdek, ta’lim beruvchilar, ular beradigan ta’lim va uning natijasini baholashda tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishdi [2,22-24b.]. Ta’limning bunday boshqariluvini hududlarning aholisi va iqtisodiy imkoniyatlariga moslashuvi deb ham tushunish mumkin.

Finlandiyadagi maktablarda o‘qituvchilarga o‘z faoliyatlarini amalga oshirishda keng vakolatlar berilgan. 1973-1991-yillarda Finlandiyadagi Milliy maktablar boshqaruvi raisi bo‘lib ishlagan Erkki Axoning ta’kidlashicha, o‘qituvchilar o‘z ishlarida keng miqyosdagi pedagogik muxtoriyatga va ham o‘z o‘quvchilarining otanalari, ham boshqaruvning ishonchiga egalar. Bu Finlandiyadagi maktablarga davlat komissiyalari tekshiruvlar bilan kelmasligini va faoliyat ustidagi ta’lim organlari nazoratining ham yo‘qligini anglatadi [1,129b.]. Bundan ko‘rish mumkinki, Finlandiya jamiyatida pedagoglarning mavqeyi ancha yuqori va ular ma’lum miqdorda o‘z faoliyatlarida erkinliklarga egalar. Bunday tizim haqida Finlandiyada o‘qituvchi bo‘lib ishlagan amerikalik Timoti Uoker o‘qituvchilarni standartlashtirilgan testlar yoki maktab inspeksiyasi yordamida tekshirib turishmasa-da, hisobot berishning etishmovchiligi u erda o‘quv jarayoniga hech qanday salbiy ta’sir o‘tkazmasligini aytib o‘tgan. Uning fikricha, mamlakatda kasbiy mas’uliyatning yuqori darajasi mavjud bo‘lib, u jamiyat tomonidan bildiriladigan ishonchning yuqori darajasi tufayligina yuzaga kelgan [7,167b.]. Demak, Finlandiyada o‘qituvchilar ustidan nazorat yo‘qligi, ularning ishiga salbiy ta’sir qilmaydi, aksincha, ulardagi mas’uliyat hissi o‘quv jarayonining sifatli amalga oshirilishini ta’minlaydi. Finlandiyadagi pedagoglarga bo‘lgan jamiyat ishonchi ularning mas’uliyati bilan birlashib ketgan, natijada shunga yarasha ta’lim sifatiga erishiladi.

Ta’limda bunday tizimni O‘zbekistonda joriy qilishda, albatta, har bir pedagogda mas’uliyat hissini va jamiyatda ularga nisbatan yuksak ishonchni shakllantirish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari pedagoglarning o‘zida ham kasbiy mas’uliyatning yuqori darajasini shakllantirish, ya’ni ular nazorat qilinmasa ham o‘z ishiga jiddiy yondashishi va ishonchni oqlashga intilishi ta’lim sifati yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Buning uchun jamiyatdagi dunyoqarashni o‘zgartirish, ya’ni har qanday sohada ham insonlar o‘z kasbiga mas’uliyatli bo‘lishi, hisobot berishdagi qo‘rquv uchun emas, balki o‘z burchi sifatida ishga yondashishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilkka Taipale. Finlandiyaning 100 ijtimoiy innovatsiyasi / Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo'ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B.129.
2. Martin Thrupp and others. Finland's famous education system. Unvarnished insights into Finnish schooling. – Singapore: Springer, 2023. – P.22-24.
3. Pasi Sahlberg. Finnish lessons 2.0: what can the world learn from educational change in Finland? Second edition. – New York: Teachers College Press, 2015. – P.58.
4. Po'latov U. Nima uchun maktablarga mustaqillik kerak? // Ma'rifat, №11, 2023-yil 15-mart. – B.2.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2021 dagi 408-sonli "Samarqand Davlat Universitetining O'zbekiston-Finlyandiya Pedagogika instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (<https://lex.uz/docs/-5482927>)
6. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-sonli Qonuni / <https://lex.uz/docs/-5013007>
7. Тимоти Уокер. Финландия таълим мўжизаси: Хамма гап танаффусдами? Марокли дарс ўтишининг 33 сирин. – Тошкент: "Global books", 2023. – Б.167.

O'ZBEKISTON-FINLANDIYA TA'LIMINING UMUMNAZARIY VA AMALIY MASALALARI.

Ahrorova Madina Rahmatova.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi O'zbekiston-Finlandiya ta'limining umumnazariy va amaliy masalalari yoritilgan bo'lib unda asosan ta'lim jarayonidagi tafovutlar bilan solishtirilgan holda ta'lim jarayonidagi muammolar va ularning echimlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviylik stereotiplari, kredit, Fin ta'lim tizimi, elita va "bo'shroq" maktablar

Key words: stereotypes of traditionalism, credit, Finnish education system, elite and "looser" schools

GENERAL AND PRACTICAL ISSUES OF UZBEKISTAN-FINLAND EDUCATION.

Abstract

In this thesis, general theoretical and practical issues of Uzbek-Finnish education are highlighted, and it mainly describes the problems in the educational process and their solutions in comparison with the differences in the educational process.

Key words: stereotypes of traditionalism, credit, Finnish education system, elite and "looser" schools.

Finlandiya ta'lim tizimi ancha yillardan buyon dunyodagi eng yuqori reytinglardan o'rin olib kelmoqda. Dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd

etishlariga qaramay, finlyandiyalik maktab o'quvchilari o'zbekistonlik o'quvchi tengdoshlari singari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi.

Sinxonada muayyan fan qanday o'qitilishi, darsda texnologiyadan qay darajada foydalanilishini o'qituvchining o'zi hal qiladi. Demak, bizdagi an'anaviylik streotiplariga asoslangan 80 daqiqalik ma'ruza, 80 daqiqalik seminarlar emas balki, amaliy mashg'ulotlarga ko'proq urg'u berilsa maqsadga muvofiq. Finlandiya maktablarida imtixonlar muntazam ravishda o'tkaziladi, ammo uning natijalari chiqarilib e'lon qilinmaydi. Biz esa bugungi ta'lim tizimida kredit modul tizimiga o'tdik ne baxtli faqat kreditga e'tibor qaratilmoqda. Vaholangki, kredit modul tizimida modul texnologiyalarga qo'llanilgan ta'lim sifatida yaxshi natija berilishi nizomda belgilab qo'yilgan.

Finlandiya ta'lim tizimida na elita va na "bo'shroq" maktablar mavjud. Sinov natijalaridan maktab o'z faoliyatini baxolashda foydalanadi. Bizdagi bugungi kunda tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablar va yoki xususiy lashtirilgan maktablar ijtimoiy munosabatlarda tenglik prinsipiga qay darajada amal qilimoqda? Ehtimol, ta'lim tizimidagi eng katta farq o'qitishda muayyan standarddan foydalanishidir. Finlyandiyalik Levi ismli o'quvchining matematika o'qituvchisi besh tilda gaplasha oladi va magistr bosqichini ta'momlagan.

"Agar chindan ham o'qituvchi bo'lish istagida bo'lsangiz, u sizdagi ikkinchi yoki uchinchi tanlov bo'la olmaydi. U sizning yagona tanlovingiz bo'lishi kerak,

Shu o'rinda men masalaning yana bir tarafiga diqqat bo'lishingizni xohlar edim.

-Bolalar mavhum tushunchalarni emas, balki haqiqatlarni o'rgatadi. Maktab kundalik hayot uchun bilim beradi. Masalan, biz bank foizlarini hisoblashni, summalarni to'plashni, maydon uchun rejani tuzishni va boshqalarni o'rganamiz. Demak, biz yoshlarga ta'lim berishda bugungi kun va o'tmishni taqqoslab respreduktiv xulosalar chiqarishni ko'rsatib berishimiz kerak. Masalan mustaqillik davri tarixini o'rganilayotgan davrda mustaqillik yillardagi iqtisodiy islohotlarni o'rganish jarayonida bugungi kun iqtisodiyotimizdagi muammolar va ularning echimlari haqida o'rganish va fikr bildirish topshirig'i berilsa talaba bu muammoni ichida yashaydi ma'suliyat bilan muammo va echimlarini izlab topadi va kelajakda etuk mutaxasis bo'lganda ana shunday muammo va echimlarni hal qilishda olingan bilimlar meros sifatida xizmat qiladi Zero, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh

Keyingi tafovut- o'quv jarayonida ixtiyoriy ishtirok etish va o'z-o'zini o'qitish tavsiya etiladi. O'smir faqat o'zi xohlagan bilimni oladi. Shu maqsadda jadval har bir kishi uchun zarur bo'lmagan narsalarni kesib tashlash uchun o'rnatiladi.

Xo'sh, Fin ta'lim tizimi o'quvchilar uchun qanchalar muhim Finlandiya ta'limi nima? Universitetlarning boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda ajralib turadigan xususiyati o'quvchilarning jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatishi, institutlarni rivojlantirishda ishtirok etish, ta'lim tizimini takomillashtirish va o'qituvchilar bilan dasturlarni yaratish uchun institutsional imkoniyatdir.

Zamonaviy ota-onalar o'z farzandlarini Finlyandiyaga o'qishga yuborishni orzu qiladi va maktab bitiruvchilari bu mamlakatda ta'lim muassasalarini ko'proq afzal ko'radilar.

Ushbu ijobiy fikrlarga qo'shimcha ravishda siz salbiy tomonlarga e'tibor

qaratishingiz kerak:

1. Maktabda qolgan o'quvchilarning bilim darajasini oshirish istagi yo'q, chunki ular o'qituvchilarga eng yaxshi o'quvchilarga nisbatan vazifalarni taklif qilishadi, bu esa etakchi mavqega erishish imkoniyatini cheklaydi. Siz ko'proq narsani izlamasdan qilishingiz mumkin bo'lgan vazifani faqat bajarishingiz mumkin.

2. Bolalar va o'qituvchilar o'rtasida bo'ysunish yo'q, bu o'smirlilik va yosh maksimalizm tufayli munosabatlarda noqulay vaziyatlarga olib keladi.

3. Maktab o'qituvchilar bilan bir yillik shartnoma imzolaydi, tajribali o'qituvchi o'rniga malakasiz xodimni olishga xavf tug'diradi. Institut xodimlari doimiy emas, bu har doim ham ta'lim jarayoniga mos kelmaydi.

O'n yil muqaddam maktab mashg'ulotlari o'zlarining tegishli saboqlari doirasida o'zlarini qanday tutishni biladigan kam sonli teng ta'lim olgan bolalar edi. Hozir o'n yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarga ko'ra, talabalar har qachongidan ko'p millatli pirogni namoyish qilishni boshladilar, shuning uchun ruxsat etilgan me'yorlar har yili kauchuk moslashuvchanlikka ega. O'qituvchi vaqtinchalik talabalar bilan ishlashga harakat qilayotganda, sinfdoshlarning qolganlari o'qish vaqtini sarflashadi. Biroq, bolalarni bilim darajalariga ko'ra guruhlariga ajratish ham mumkin emas, chunki fin ta'limining asosiy maqsadi yo'qoldi - hamma uchun ekvivalent maktab ta'limi ta'minlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Anvarov Finlandiya ta'lim tizimining asosiy afzalliklari va kamchiliklari/// "Hidoya" o'rta maxsus islom bilim yurti o'qituvchisi

2. Finlyandiya ta'lim tizimi haqidagi 15 ta ajoyib fakt...Muallif: Laura McKinney

3. Pulatova Aziza Finlandiya ta'lim tizimi. O'zbekistonda gender munosabatlari tarixi. Tadqiqotlar. uz

4. Rahmatovna A.M. Globallashuv jarayonida sharq mentalitetidagi gender tengligiga bo'lgan munosabat. Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 5 (5), 378-382

FINLANDIYA TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Irisqulov Bekzod Jahangirovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya: Maqolmizda Finlandiya ta'lim tizimining boshqa ta'lim tizimlardan farqli jihatlari hamda o'ziga xos xususiyatlar to'g'risida bayon etilgan. Shuningdek, fin ta'lim tizimining samaradorligi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan hamda o'ziga xosligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fin ta'lim tizimi, Mustaqil ta'lim jarayoni, PISA, PIRLS, TIMSS, Tenglik, Bepul ta'lim, Individuallik, Amaliylik, Ixtiyoriylik, Mustaqillik.

DISTINCTIVE FEATURES OF THE FINNISH EDUCATION SYSTEM

Annotation: In our article, the Finnish educational system is described, which is different from other educational systems, as well as its own characteristics. Also, the effectiveness of the Finnish education system, modern information technologies and its uniqueness are analyzed.

Key words: Finnish education system, Independent education process, PISA, PIRLS, TIMSS, Equality, Free education, Individuality, Practicality, Voluntary, Independence.

Ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xozirda mamlakatimizda ta'limga qaratilayotgan xarajatlarning ko'p qismini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirmoqda. Asta-sekinlik bilan mamlakatda innovasion iqtisodiyotning taraqqiy etishi, aholi daromadlarining oshishi va ta'lim tizimi inson hayotidagi o'rning oshib borishi mamlakatda ham asta - sekinlik bilan davr talablariga javob bera oladigan davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta'lim muassasalari ham tashkil topib boradi va bormoqda. Bu o'z navbatida, bevosita raqobatni kuchayishiga, davlatning ta'limga ajratayotgan mablag'larini kamayishiga hamda yangi moliyalashtirish manbalarini izlab topishga olib keladi.

Ta'lim tizimini asosiy natijasi, ta'lim oluvchilaning bilim va ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun o'quv jarayonida zamonaviy o'quv texnologiyalaridan foydalanib ta'lim sifatini yanada samaraliroq ortirilishidir.

Asosiy e'tibor talabalarni mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish mexanizmlariga qaratilishi lozim. Mustaqil ta'lim jarayonida bilimlar kengayadi, chuqurlashadi, mukammallashadi, turli sharoitlarda ulardan foydalanish imkonini beruvchi universallik xarakteriga ega bo'ladi²².

Xar tomonlama etuk shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi ta'lim tizimiga ilg'or g'oyalarni tadbiq etish va shu soxada uning mazmunini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat xisoblanadi.

Ma'lumki, Finlyandiya ta'lim tizimi zamonaviy dunyoda eng samarali tizimlardan biri bo'lib, uning yuqori darajasini ta'minlash mamlakat milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiya ta'limi bir necha yillardan beri jahon reytingida etakchi o'rinlardan (eng yaxshi 10 lik ichida) birini egallab kelmoqda. PIRLSning 2016 yildagi tadqiqoti natijalariga ko'ra (5-o'rin, 566 ball), TIMSS 2019 yil natijalariga ko'ra 19-o'rinni egallab turibdi²³.

Finlyandiya ta'lim talabalarga yo'naltirilgan yondashuv asosida qurilgan va jarayonning barcha ishtirokchilari o'zlarini teng darajada his qiladigan muhitni yaratishga qaratilgan. Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998 yil) Finlyandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan: (1) o'quvchilarga

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 y. PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori

²³ To'rayev R., Abilov S. Professional ta'lim tizimida finlandiya tajribasini qo'llash afzalliklari. Multidisciplinary Scientific Journal. VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 4 | 2024. -P.140.

hayotda zaruriy bilim va ko'nikmalarni berish, (2) jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish, (3) mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash. Finlyandiya maktablarida haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratib o'qitilmaydi. Ularda boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va 3-sinfgacha bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi, 2017 yildan aksariyat maktablar dars vaqtida "ruchkadan voz kechishgan" va dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi²⁴.

Finlyandiya ta'lim tizimi ikki bosqichli ma'muriy tuzilishga ega: Ta'lim va madaniyat vazirligi (Ministry of Education and Culture) hamda vazirlik huzurida faoliyat yuritadigan, lekin o'z faoliyatida mustaqil Milliy ta'lim agentligi (Finnish National Agency for Education). Agentlik maktabgacha va maktab ta'limini, vazirlik esa oliy ta'lim tizimini boshqaradi. Ta'lim muassasalarini boshqarish asosan mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari yo'q.

Finlyandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi 7 ta tamoyil tashkil etadi:

1. Tenglik - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim tizimini taqdim etadi.

2. Bepul ta'lim - bepul ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi.

3. Individuallik – darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi.

4. Amaliylik – o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda o'quvchilar, masalan, viza kartadan qanday foydalanish, shartnomalar tuzish, saytlar yaratish, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.

5. Iшонch va o'qituvchilar salohiyati – barcha maktablardagi o'qituvchilar magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy vazifasi deyarli berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarni hayotga tayyorlashiga to'liq ishonishadi.

6. Ixtiyoriylik – dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o'quvchilar ixtiyorida. O'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqтира olmasalar o'quvchilar sinfni tark etishi yoki o'zlari yoqtirgan boshqa biror mashg'ulot bilan shug'ullanishlari mumkin.

7. Mustaqillik – fin ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni imkon qadar o'zlari bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari kerakligiga yo'naltiradi. Bilimlarni hayotda qanday tatbiq etish ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchilarning har qanday fikrlari inobatga olinadi va qo'llab quvvatlanadi. Finlyandiyada o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Finlyandiya ta'limining muhim xususiyatlaridan yana biri, maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha to'liq bepul ta'lim

²⁴ Ibragimov Sh. Finlyandiya va O'zbekistonda ta'lim tizimini sifatini solishtirma taxlili. Miasto Przyszłości Kielce 2022. –P.348.

olishni ta’minlaydi. Shuningdek, barcha o‘quv materiallari, darsliklar, sog‘liqni saqlash xizmatlari va maktabga qatnash transport xizmatlari ham bepul amalga oshiriladi hamda boshlang‘ich va o‘rta ta’limda barcha o‘quvchilarga maktablarda bepul tushlik beriladi.

Finlyandiya 9 yillik majburiy ta’lim davomida milliy imtihon yo‘q, deyarli barcha o‘quvchilar yashab turgan hududiga yaqin maktabga borishadi.

Bu erda o‘qituvchilarning malakasiga tayanadilar. Finlyandiya ta’limini baholash markazi ta’limdagi baholashni butun mamlakat bo‘ylab olib boradi. Finlyandiya ham o‘qituvchilarning salohiyati eng muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik ta’lim tizimining uzluksiz ishlashiga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibragimov Sh. Finlyandiya va O‘zbekistonda ta’lim tizimini sifatini solishtirma taxlili. Miasto Przyszłości Kielce 2022. –P.348.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 y. PQ-4884-son "Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori

3. To‘rayev R., Abilov S. Professional ta’lim tizimida finlyandiya tajribasini qo‘llash afzalliklari. Multidisciplinary Scientific Journal. VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 4 | 2024. –P.140

4. Луман Н.Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский.-М:Логос.2004.– С.88-94

5. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. "Oilada bolalarni tarbiyalashda sog‘lom muhitni shakllantirishning estetik xususiyatlari". *JournalNX* 6.04 (2020): 88-90.

6. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g‘oya. "O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, "Cho‘lpon* (2018).

7. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.

8. NIZAMITDINOVICH, HAYDAROV ASLIDDIN. "Human and Nature: an Increase in the Level of Production and Consumption." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* 7.05 (2020): 278-281.

9. Haydarov, Asliddin Nizamitdinovich. "THE ROLE OF ECONOMIC AND SOCIAL SPHERES IN INCREASING THE LEVEL OF CONSUMPTION OF THE POPULATION." *Theoretical & Applied Science* 8 (2020): 27-29.

10. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO‘YICHA* (2023): 32.

11. O‘G‘LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4.1 (2024): 22-27.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SIFATI: REJALAR, ISLOHATLAR VA YUTUQLAR

Sattarov Inomjon Odilbay o‘g‘li

O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistondagi ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturi darajasining olib borilishi, islohotlarning amaliy tahlili yoritilgan. Shuningdek, Oliy ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining bugungi ta’lim sifat holati hamda ilg‘or yutuqlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ta’lim sifati, zamonaviy maktablar, yuklamalar, o‘qituvchilarning baholanishi, atestatsiya, malaka oshirish markazlari, malaka toifasi, o‘qituvchi, ota-ona mas’uliyati.

QUALITY OF EDUCATION IN UZBEKISTAN: PLANS, REFORMS AND ACHIEVEMENTS

Annotation: this article covers the implementation of the level of the state program aimed at improving the quality of education in Uzbekistan, practical analysis of reforms. It also analyzed the quality state of education and advanced achievements of higher education institutions and schools of general secondary education today.

Keywords: education, quality of education, modern schools, downloads, teacher evaluation, atestation, skill development centers, qualification category, teacher, parental responsibility.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g‘oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi.²⁵ Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratildi. O‘qituvchi va murabbiylarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, malakasini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, o‘tgan davrda muallimlarning oylik ish haqi o‘rtacha 2,5 baravar oshdi. Jumladan, chet tili, axborot texnologiyalari, matematika, kimyo, biologiya bo‘yicha milliy va xalqaro sertifikati bor o‘qituvchilarga ustama, chekka hududga borib ishlagan muallimlarga alohida to‘lov joriy etildi. Natijada 6 million so‘mdan 10 million so‘mgacha maosh oladigan o‘qituvchilar soni 23 mingga etdi, 10 million so‘mdan yuqori oylik oluvchilar 1 mingdan oshdi.

Maktablar yuklamasini kamaytirish maqsadida 700 ming o‘quvchi o‘rni yaratildi. Bu – avvalgi yillarga nisbatan 15 baravar ko‘p. Oliy ta’limda ham qamrov 4 barobar oshirilib, yoshlar uchun imkoniyatlar kengaytirildi. Shu bilan birga, maktab ta’limi sohasida dolzarb masalalar hali ko‘p. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda 11 ta, yuqori sinflarda 16 ta fan o‘tiladi. Lekin o‘quvchilar aniq bir yo‘nalishda chuqur bilimga ega bo‘lmay, maktabni bitirayapti. O‘tgan yili 220 ming muallimdan 86 ming

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

nafari yoki 37 foizining bilim va ko'nikmasi "qoniqarsiz" baholangan. Bu hol, ayniqsa, hozir talab yuqori bo'lgan informatika, ingliz tili, fizika, matematika va kimyo fani o'qituvchilarida bo'lgani tashvishli. Oxirgi olti yarim yilda yurtimizda 320 ming xonadonli yangi uy-joylar barpo etilgan. Lekin ularga mos quvvatda maktablar qurilmagan. Yangi massiv va mahallalarda hozirning o'zida 350 ming o'rinli maktablarga talab bor. Mavjud maktablar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ham vazifalar ko'p.

So'nggi yillarda 70 ming o'rinli 350 ta xususiy maktab tashkil etilgan. Ammo ko'plab viloyatlarda bu boradagi ishlar etarli emas. Avvalo, ta'lim sifatini oshirish maqsadida respublika bo'yicha 500 ta maktabda Prezident maktabi va ixtisoslashgan maktablar o'quv dasturi hamda baholash tizimi joriy etiladi.²⁶ Bir yilda ularning ishi baholanib, yangi tizimni samarali qo'llagan o'qituvchilarga 40 foizgacha ustama beriladi. Kelgusi besh yilda ushbu tizim barcha maktablarda joriy qilinadi. Bu yil maktablarda dars berish uchun xorijdan 500 nafar "til egalari" taklif etilgan. Keyingi yillarda ular yana ko'payadi. Shu bois hokimliklarga chet ellik o'qituvchilarning uy-joy masalasini hal qilish topshirildi. Yuqori sinfda o'qitiladigan fanlar 16 tadan 11 taga qisqaradi. Bunda, 10-11 sinf o'quvchilariga "kimyo – biologiya", "matematika – fizika", "matematika – chet tili", "ona tili va adabiyot – chet tili" fanlari ularning tanlovi asosida chuqurlashtirib o'qitiladi. Kelgusi o'quv yilidan kamida 1 mingta maktab shu tizimga o'tkaziladi. Darslarning mazmuni ham o'zgaradi. 1-sinfdan kompyuter savodxonligi, yuqori sinflarda moliyaviy savodxonlik darslari joriy etiladi. Unga ko'ra, o'qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi to'liq o'zgartiriladi. Jumladan, o'qituvchilikka qabul qilish tanlov asosida bo'ladi.

Kelgusi o'quv yilidan kadrlar etishmaydigan, og'ir maktablar oldindan tanlanib, ular uchun maqsadli davlat buyurtmasi joriy qilinadi. Maktab ta'limida boshqaruv tizimi ham o'zgartiriladi. Endi direktorlikka nomzodlar faqat sertifikat bor va zaxiraga kiritilgan kadrlar orasidan tanlanadi va muddatli shartnoma asosida ishga olinadi. Buning hisobiga 150 ming yangi o'quvchi o'rni yaratiladi. Xususiy sheriklik asosida 50 ta maktab quriladi. Xususiy sektorga qo'shimcha sharoitlar yaratish orqali yiliga kamida 25 ming o'quvchi o'rni ochiladi. Buning uchun, tadbirkorlarga xususiy maktab tashkil qilish uchun kreditning 7 foiz qismi byudjetdan qoplab beriladi. Yangi maktab qurish uchun er maydonlari faqat maktab qurish uchun maqsadli auksionga chiqariladi. Umuman, bu ishlar orqali kelgusi yilning o'zida 250 ming yoki o'tgan yilga nisbatan 2 karra ko'p o'quvchi o'rni yaratilishi ta'kidlandi. Mutasaddilarga ushbu chora-tadbirlarni moliyalashtirish, maktablar qurish va jihozlash, muassasalarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berildi. Bitiruvchilarning bandligi masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Bu yil 387 ming nafar o'quvchi maktabni tamomlagan. Shundan 138 mingtasi oliy ta'limga o'qishga kirgan. Davlatimiz rahbari qolgan bitiruvchilarni professional ta'lim bilan qamrab olish, yoshlarni kam xarajat qilib, ko'p daromad oladigan zamonaviy kasblarga o'rgatish muhimligini ta'kidladi. O'quvchilar bilan manzilli ishlash, bunda hokim, maktab direktori va ota-onalarning mas'uliyatini aniq belgilash vazifasi qo'yildi.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son
7. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.01.2021 yildagi O'RQ-668-son
8. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot. 2018-yil. – B.516-517.
9. O'G'Li, Xoliqulov Muhammad Qaxor, and G'Ofirova Muxlisa G'Ofur Qizi. "A. Navoiyning ar'bain (Qirq hadis) asarida tarbiya to'g'risidagi qarashlari." *ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali* 4.4 (2024): 24-28.
10. O'g'li, xoliqulov muhammad qaxor. «geo-mayyalogik jarayonlar va ularning kelib kelishi qonunlari». *Falsafiy tadqiqotlar va ijtimoiy fanlar xalqaro jurnali* 4.1 (2024): 22-27.

FINLANDIYA TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS IJTIMOIIY- FALSAFIY TAHLILI

Egamberdiyev Quvonchbek Nurgali o'g'li

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya: Maqolamizda Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritilgan. Aynan qanday omillar tufayli Finlandiya dunyoning eng etakchi ta'lim tizimiga ega bo'lganligiga alohida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: Fin ta'lim tizimi, bepul ta'lim tizimi, boshlang'ich va o'rta maktab, litsey, kasb-hunar maktabi, kirish imtihonlarining shaffofligi.

A SPECIFIC SOCIO - PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE FINNISH EDUCATION SYSTEM

Annotation: our article deals with specific aspects of the Finnish education system. It is precisely because of what factors that particular emphasis is placed on Finland having the world's leading educational system.

Keywords: Finnish education system, free education system, elementary and secondary school, Lyceum, vocational school, transparency of entrance exams.

Finlandiya ta'lim tizimi butun dunyoda katta obro'ga ega. Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos farq qiluvchi xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- bepul ta'lim;
- har bir bola va o'smir ta'lim ta'lim olish huquqiga ega va maktabga borishga majbur;
- o'quv rejasining yagona milliy asoslari;
- ta'lim faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish vazifalarini mahalliy darajaga o'tkazish;
- o'qituvchilarning malakasi va kompetensiyasiga bo'lgan ishonchning yuqori darajasi;

- o'quv jarayonini moslashuvchan ravishda tashkillashtirish imkoniyati;
- butun mamlakat o'rta maktablaridagi ta'lim o'zlashtirish darjasining yuqoriligi.

Finlandiyada yashovchi barcha bolalar va yoshlarga, ularning yashash joyi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va madaniy qadriyatlaridan qat'iy nazar ta'lim olishni taklif qiluvchi ta'lim berish sifati, ta'lim sohasining poydevor toshi bo'lib xizmat qiladi.²⁷ Ta'lim tizimini boshqarish masalalari hukumat tomonidan munitsipalitetlar darajasida taqsimlangan, lekin maktablarning o'quv rejalari davlat tomonidan belgilangan asoslar bo'yicha bo'lishi kerak. Bularning barchasi turli hududlarning xususiyatlarini inobarga olgan holda, ham qishloqlarda, ham shaharlarda ta'lim berish sifatining mamlakat bo'yicha yuqori bo'lishiga imkon beradi. O'rta maktablarni bitirayotgan o'quvchilar uchun davlat bitiruv imtihoni o'tkazilmaydi, shuningdek maktablar bo'yicha o'zlashtirish natijalari va baholari ham chop etilmaydi. Maktab va o'quvchilar o'rta maktabni bitirish yakunlariga baho berishning davlat normativ tavsiyalari bo'yicha ish tutadilar. Ta'lim muassasasiga kirish va baholash jarayoni o'z shaffofligi, teng huquqliligi va abituriyentning qaysi maktabni bitirganligiga bog'liq bo'lmaganligi bilan tavsiflanadi, chunki baholash omillari aniq va batafsil ravishda yozib qoldirilgan va butun mamlakat uchun yagonadir.

Finlandiyada o'rta maktabni bitirgan har bir o'quvchi, o'zi istagan holda har qanday darajasi yuqoriroq ta'lim muassasasiga hujjat topshirishi va kirishga harakat qilishi mumkin. Ta'lim olish bepuldir. O'qishga qabul qilish baholar asosida olib boriladi, tanish-bilish, pul yoki ertaroq hujjat topshirishni hech qanday ahamiyati yo'q.

Finlandiyada boshlang'ich o'rta maktabni bitirgandan so'ng ta'lim olishni davom ettirish mumkin. O'rta maktab bitiruvchilarining deyarli 92 foizi darhol litsey yoki kasb-hunar kollejlariga hujjat topshiradilar.²⁸ Litsey yoki kasb-hunar kollejida olinadigan ikkinchi bosqich ta'limi, o'quvchini keyinchalik Finlandiya yoki chet eldagi oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlaydi. O'rta maktabni bitirgandan keyin ta'lim olishni davom ettirmaslikka qaror qilganlar uchun, bepul ta'limning boshqa muqobil turlari taklif qilinadi.

Finlandiyadagi kasb-hunar ta'limi o'zining yuqori sifatli bilimi bilan ajralib turadi va hunarga ega bo'lish uchun bepul imkoniyat yaratadi. Kasb-hunar ta'lim dasturi ham nazariy, ham amaliy o'qitishni o'z ichiga oladi. Kasb-hunar kollejlarining ko'pchilik bitiruvchilari darhol mehnat faoliyatini boshlaydilar.

Umumiy ta'lim xususiyatlariga ega bo'lgan litsey ta'limini boshlang'ich o'rta maktab bitiruvchilarining taxminan yarmi tanlaydi va litsey tamomlagandan so'ng davlat imtihonlarini topshiradilar. Litseydagi ta'lim bepuldir. O'qitish o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga asoslangan holda 2 yildan 4 yilgacha davom etadi. Milliy umumta'lim o'quv rejasi majburiy predmetlar shakliga ega. Bundan tashqari, o'quvchi o'z xohishi bo'yicha bir qator predmetlarni litsey o'qitish kursini bajarish uchun tanlaydi.

Ikkinchi bosqich ta'limi diplomini olgandan so'ng, o'quvchi oliy o'quv yuritda ta'lim olishni davom ettirishi va universitet yoki oliy kasb-hunar ta'lim muassasasiga

²⁷Ilkka Taipale – Finlandiyaning 100 ta ijtimoiyinnovatsiyasi. Toshkent – 2019-yil

²⁸Ibragimov Sh. – Finlandiya va O'zbekistonda ta'lim tizimini sifatini solishtirma tahlili. Toshkent – 2002-yil

hujjat topshirishi mumkin. Kirish imtihonidan muvaffaqiyatli ravishda o‘tgan talaba, oliy ta’limning ikki bosqichli kursini olish huquqiga ega va bakalavr unvoniga ega bo‘lishi, yoki yanada uzoqroqqa ketishi ketib, qo‘shimcha kirish imtihonini talab qilmaydigan magistr unvoniga ham ega bo‘lishi mumkin. Ta’lim olish va bitiruv imtihonlari bepuldir. Ta’lim olishning bepulligi, Finlandiya oliy ta’lim muassasalarining boshqa davlatlarning talabalari uchun jozibador bo‘lishining muhim omilidir. Finlandiya ta’lim tizimining asosiga ham iqtidorli, ham harakatchan, ham boshqalarning ko‘magiga muhtoj bo‘lgan barcha o‘quvchilarga istisno qilmagan holda, ta’lim darajasini yuksaltirishning bepul turlarini taklif qilish g‘oyasi kiritilgan. Finlandiyada ta’lim olishning bepulligi, ta’lim tizimining teng huquqli va adolatli bo‘lishini ta’minlab bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ikka Taypale – Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi. Toshkent – 2019-yil
2. Ibragimov Sh. – Finlandiya va O‘zbekistonda ta’lim tizimini sifatini solishtirma tahlili. Toshkent – 2002-yil
3. Intenet ma’lumotlari.

YANGI O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: FIN TA’LIM TIZIMINING TA’LIM SOHASIGA INTEGRATSIYA QILISH MUAMMOLARI

Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li

O‘zbekiston - Finlyandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda, Finlandiya ta’lim tizimini integratsiya qilishdagi muammolar hamda ularning qisqacha tahliliga bag‘ichlangan. Bu o‘rinda, Yangi O‘zbekiston yoxud Uchunchi Renessans da amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi tub islohotlar o‘rin olgan. Shuningdek, quyida ushbu mavzu yuzasidan tahlillarga tayangan holda xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: fin ta’lim tizimi, ta’lim islohotlari, axborot kommunikatsion texnologiyalar, integratsiya qilishdagi muammolar, sohadagi kamchiliklar.

THIRD RENAISSANCE IN NEW UZBEKISTAN: PROBLEMS OF INTEGRATION OF THE FINNISH EDUCATIONAL SYSTEM INTO THE EDUCATIONAL SPHERE

Annotation: in this article, the problems in the integration of the Finnish educational system as well as their brief analysis are tolerated. In this place, the fundamental reforms in the field of education carried out in the New Uzbekistan or the Renaissance took place. Also, below are the conclusions based on analyzes on this topic.

Keywords: Finnish education system, educational reform, Information Communication Technologies, problems in integration, shortcomings in the field.

Hozirgi globallashgan jamiyatda yashar ekanmiz ta’lim tizimi hamda undagi o‘zgarishlar butun dunyoda jadal rivojlanmoqda. Bunga iqtibos sifatida Prussiya imperiyasi birinchi konsleri Otto fon Bismarkning bir iqtiboslari bunga yoqqol dalil qilib keltirish mumkin. “Qaysi bir davlat ta’limga pul sarflashni istamasa, o‘sha pullarga qamoqxonalar quradi”[4;24], degan edi. Qaysiki davlatning ta’limi rivojlansa o‘sha yurtning buguni hamda kelajagi buyukligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan Uchunchi Renessans yoki Yangi O‘zbekistonni qurishda ta’lim sohasida tub burilishlar sodir bo‘layotganligi sir emas. Bularning barchasiga sabab esa, ta’lim sohasini chuqur isloh etish, xorijiy ta’lim tizimlarini milliy mentalitetimizga moslagan holda integratsiya qilish, xorijiy bilim yurtlari bilan o‘zaro ta’lim sohasidagi yutuqlarni almashish hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim sohasiga qo‘llash orqali milliy ta’lim tizimini tubdan yangilashdan iboratdir.

Dunyoda bugungi kunda ta’lim sohasidek tez o‘zgarib borayotgan zamonaviy tendentsiyalar va yondashuvlar ta’lim tizimiga sezilarli darajada ijobiy o‘zgarishlar olib kelmoqda[3;347]. Bu orqali o‘qish va o‘qitish jarayonini soddalashtirish hamda unga zamonaviy ruhni olib kirish singari vazifalar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim sohasiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llash orqali yurtimizda milliy ta’lim tizimini yaratishda Finlandiya ta’lim tizimini andoza sifatida olish hamda uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali ta’lim tizimini isloh qilish bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

Bunda biz, ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlar masalasiga ham alohida e’tibor qaratish lozim degan fikrdamiz. Chunki, yoshlarga ta’lim va tarbiya beradigan kishilar bu professor-o‘qituvchilardir. Ta’lim sohasida quyidan yuqoriga harakatlanadi degan faraz bor biz bunga unchalik qo‘shilmaymiz. Sababi, quyi ta’lim muasasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning barchasi yuqori ta’lim muasasalarida tahsil olgan talabalardir.

Finlandiyada o‘qituvchilar faoliyati ta’limga oid tadqiqotlarga qaratilgan. Pedagoglar doimiy ravishta o‘z ustida mustqil ishlaydi, ilmiy izlanishlar qiladi. Bizning maktablarda ta’limga oid ilmiy ishlar qilayotgan muallimlar sanoqli. Ta’lim jarayonining nazariy jihatlarini Finlandiyada amaliyot bilan qattiq integratsiyalashgan[2;165].

Bizning maktablarimizda esa nazariy bilim kuchli beriladi, ammo o‘quvchilarning olgan tushunchasini amaliyotda qo‘llash jarayoni sust boradi. Finlandiya tajribasi uzluksiz ta’lim muvoffaqiyati o‘qituvchilar tayyorlash tizimiga bog‘liq.

Finlandiya ta’limida yana bir narsa e’tiborini tortadigan jihati shundaki, xususiy ta’limning yo‘qligi, ta’lim jarayoniga ular tijorat emas deb qarashadi[1;45].

Nega biz farzandimizni yaxshiroq maktabda o‘qitishga harakat qilamiz? Uzoq bo‘lsa ham, darsdan keyin qo‘shimchalarga qo‘yishga harakat qilamiz sababi yaqindagi maktab yaxshi emas. Nega yaxshi emas? Chunki xususiy ta’lim oddiy maktab ta’limidan ko‘ra yaxshiroq, men o‘ylaymanki yana bir sababi, hozirda ommalashgan yilning eng zo‘r maktabi yoki universiteti nomlari ostida ovoz yig‘ishlar ham sabab bo‘ladi. Bundan xulosa shu-ki yaxshi maktab bolmasa ham ovoz ko‘p

yig‘sa, yaxshi maktab esa yig‘olmasa. Ma‘lumki yaxshi maktab deyilganda ko‘pchilik eshitgan bo‘ladi, sen qaysi maktabni bitirgansan? degan savolga kim g‘ururlanib ovoz ko‘p yig‘gan maktabni aytgisi kelmaydi? Bu ham o‘quvchilarni toifalashga kirmydimi?

Finlandiyada yaxshi yoki yomon maktab tushunchalari mavjud emas. Bu kimyo o‘qituvchisi bu fizika o‘qituvchi bu biologiya oqituvchisi, undan ko‘ra bu fan o‘qituvchisining oyliigi ko‘proq degan tushunchalar yo‘q ya‘ni ishga qabul qilingan har bir magistraturani tugatgan o‘qituvchi direktor yokida qorovul bilan bir xil maosh oladi

Yurtimizda fin ta‘lim tizimini integratsiya qilishdagi bir qator muammolar mavjud bularga biz bularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: birinchidan, ma‘muriy buyruqbozlik va byurokratiyaning saqlanib qolayotganligi; ikkinchidan, o‘qituvchilarga etarlicha huquq va imtiyozlarning berilmaganligi; uchunchidan, pedagoglarning oylik maoshlari qolgan soha vakillarini kiga qiyoslaganda kamligi; to‘rtinchidan, ta‘lim muasasalaridagi moddiy-texnik bazaning etishmasligi; beshinchidan, rahbar kadrlar bilan ishchi xodimlar o‘rtasida turli xildagi korrupsion holatlarning uchrab turishi va boshqalar bu ta‘lim tizimini integratsiya qilishdagi asosiy muammolardan bir bo‘lib qolmoqda.

Yuqoridagi mulohazalarni tanqid ko‘zi bilan qarang. Mavzu yuzasidan o‘rganilgan ma‘lumotlar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Finlandiya ta‘lim tizimida o‘quvchi va o‘qituvchilarga qulaylik, ta‘li tizimida birlamchi o‘rinda turadi;

Ikkinchidan, Fin ta‘limining o‘ziga xosligi unda xususiylikning yo‘qligi bilan baholansada davlat ta‘limining mukammaligi bunga ko‘maklashadigan asosiy faktorlardan biridir;

Uchunchidan, ta‘limni harakatga keltiruvchi yana bir kuchli faktorlardan biri bu o‘zaro ishonch ekanligi;

To‘rtinchidan, ta‘lim tizimida o‘quvchi hamda o‘quvchilarni ijtimoiy kelib chiqishiga qarab ajratmaslikning mavjudligi;

Beshinchidan, ota-onalning ta‘lim jarayoniga mutlaqo aralashmasliklari singari jihatlar O‘zbekistondagi ta‘lim tizimidan farqlari sifatida keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Grigoriy Petrov. Oq Nilufarlar yurtida. –T.: “Faktor press”nashriyoti, 2021-yil –B.45.
2. Timoti Uoker Finlandiya ta‘lim mo‘jizasi. –T.: “Global books”. 2023 yil. – B.165.
3. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E.. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyoti, 2017 yil. –B.347.
4. Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li. Geo-mafkuraviy jarayonlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlari. Falsafiy tadqiqotlar va ijtimoiy fanlar xalqaro jurnali. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. 2024-yil. 1-son. –B.24.

5. Nizamitdinovich, Haydarov Asliddin. "Human and Nature: an Increase in the Level of Production and Consumption." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* 7.05 (2020): 278-281.

6. Haydarov, Asliddin Nizamitdinovich. "The role of economic and social spheres in increasing the level of consumption of the population." *Theoretical & Applied Science* 8 (2020): 27-29.

7. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO‘YICHA* (2023): 32.

8. Жўраев, Лукмон. "ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ ХУЛҚ-АТВОРИДА ТРАНСФОРМАЦИЯ." *Journal of Social Sciences* 1.02 (2022): 51-55.

9. Джураев, Л. Н. "Инновационный подход к повышению экономической активности молодежи." *Наука и современное общество: актуальные вопросы, достижения и инновации*. 2020.

10. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g‘oya. "O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, "Cho‘lpon* (2018).

11. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.

12. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. "Oilada bolalarni tarbiyalashda sog‘lom muhitni shakllantirishning estetik xususiyatlari". *JournalNX* 6.04 (2020): 88-90.

COMPARATIVE ANALYSIS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN UZBEKISTAN WITH FINLAND EDUCATION

Rashidova Oynisa Khusniddin kizi

Master student of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

E-mail: aoynisaa@gmail.com

Abstract. In this article, not only the education system, but also an important comparative analysis of the higher education system of Finland and Uzbekistan, one of the most developed countries in the world, is covered. In addition, information is given on the main purpose of the Finnish education system and how to organize independent education for its students. At the same time, information was given about the advantages of organizing independent education using the Finnish education system in Uzbekistan's higher education institutions.

Keywords: Uzbekistan-Finland higher education systems, their comparative analysis, independent education, advantages of using Finnish experience in organizing independent education.

Enter

Today, in our country, a lot of attention is paid to carrying out a series of systematic works on the development of every aspect of the higher education system.

This is evidenced by the adoption of the decree of the President of the Republic of Uzbekistan on November 6, 2020 "On measures to develop the fields of education and science in the period of new development of Uzbekistan"[1]. In this decree, the experience of advanced countries in higher education and school education, in particular, the specific features of the Finnish education system and the areas that can be applied to the national education system, are to be studied and implemented. task is defined. It is known that for several ears the Finnish state has been occupying the highest places in the world in terms of the education system. A number of training seminars and meetings are being organized at the initial stages of the implementation of the task defined in the above decision. Among them, rector of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute A working group was formed under the leadership of Sh.Negmatova and visited Finland.

Features that are unique to the Finnish education system and can be applied to the education system of Uzbekistan:

✓ Students and pupils are not comparable to each other. Not comparing students helps to create healthy competition between students and their peers. In addition, not comparing them prevents the emergence of negative vices such as hatred and jealousy among them;

✓ Every student is taught to use the acquired knowledge in some part of his life along with imparting knowledge. Through this, the student learns to acquire only the necessary knowledge and does not waste time using useless information sources;

✓ Studying not only in Finnish schools, but also in higher education institutions is absolutely free. This opportunity given to students opens the way for educated and talented children of poor families in the country to study. This, in turn, causes the increase of highly educated people;

✓ All students in the country receive education in the form of inclusive education. This makes students with special needs realize that they have equal rights with other students, and for them this education becomes motivation;

✓ In the educational process, students are not given preference over others and all have the right to equal education. Through this, tolerance develops in the society.

They have such a motto - "Even if the hoe runs, let it run with intelligence"[2]. It can be seen that the goal of Finnish teachers is to educate students to lead an independent life and become real experts in the field they are studying. The three main goals of Finnish education are:

- To give students the knowledge and skills necessary in life;
- Promotion of development and equality in society;
- The student's independent work serves to develop the thinking of any future professional[3].

It is not difficult to realize the goal of independent education in Finnish higher education institutions. Because students who come to higher education institutions have already developed skills such as independent work, literature analysis, and creativity, and they will not face difficulties in independent education. For example: in Kareli University of Applied Sciences, Finland, great attention is paid to independent education of future teachers. In many cases, independent study assignments are designed for students to work in small groups. It can be seen that students have been

studying independently in small groups. This, in turn, helps students to develop the competence of teamwork, research and collective development. In the evaluation of independent work done as a team, the team is evaluated, and through this, even students with low interest from the group members try to perform the task and search. It is believed that the organization of independent education of students based on such a Finnish model will open the door to great conveniences and great opportunities for them. At the same time, it contributes to the solution of current problems in the field of education today.

Summary

In conclusion, it is very effective for students to use foreign experience in the organization of independent education of students in the higher education system. Therefore, in this study, information was provided about the independent education organized for students of Finnish institutions of higher education, which ranks first in the field of education in the world. In addition, many advantages of organizing independent education of students of higher educational institutions of Uzbekistan through the Finnish model were shown.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori, 06.11.2020. PQ- 4884-son
2. Grigoriy Petrov " Oq nilufarlar yurtida ", " Factor press" Toshkent – 2021
3. Shukurillo Yuldashev Abdulhoshim o‘g‘li, "O‘zbekiston ta’lim tizimida mustaqil ta’limni fin ta’lim tizimi asosida tashkil etish va boshqarish" nomli tezis, "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan - ta’lim - ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023-yil 22-noyabr, 706-708-b, doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo>.
4. Rashidova O. "The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270-b

O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA TA’LIMINING UYG‘UNLASHUVI VA BU INTEGRATSIYADAN IMKONIYATLAR

Nurillayev Muhammadxon Isroilxon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-kurs talabasi

Annatsiya. O‘zbekiston ta’limining Finlyandiya ta’limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo‘llash imkoniyatlari, Finlyandiyaning birinchi milliy savodxonlik strategiyasi yaratilganligi, strategiyaning maqsadi savodxonlik ko‘nikmalarini barcha sohalarida keng e’tirof etilganligi bunda amaliyotga alohida e’tibor qaratilganligi, shunda har bir o‘quvchi shaxsi o‘z savodxonligini hayoti davomida qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashi zarurligi,

mazkur strategiya ko'p savodxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash va o'qishni rag'batlantirishga qaratilgan tajribalar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Maktab, oliyta'lim, mustaqil, bakalavr, amaliy fanlar, tadqiqot, malaka, institut.

HARMONIZATION OF UZBEK-FINNISH EDUCATION AND OPPORTUNITIES FROM THIS INTEGRATION

Annotation. Opportunities for the application of international assessment programs in the integration of Uzbek education with Finnish education, the creation of Finland's first National Literacy Strategy, the goal of the strategy is the widespread recognition of literacy skills in all areas, special attention is paid to practice, so that each student's personality needs to support and strengthen their literacy throughout their lives, this strategy

Keywords. School, Higher Education, independent, Bachelor, applied sciences, research, qualification, Institute.

Finlyandiya ta'limda, rivojlanishda, innovatsiyalarda so'nggi yillarda eng mashhur mamlakatlardan biri bo'ldi. Ta'lim sohasidagi yutuqlar, jahon standartida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lish "PISA" natijalarida Finlyandiyalik bolalarning muvaffaqiyati bilan bog'liqdir. Finlyandiyada bolalar majburiy ta'lim boshlanishidan oldin bir yil davomida maktabgacha ta'limga borishlari kerak. Maktabgacha ta'lim odatda bola olti yoshga to'lgan yil davomida boshlanadi. Maktabgacha ta'lim oliy ma'lumotli maktabgacha ta'lim o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim odatda dushanbadan jumagacha, maktab vaqtida kuniga to'rt soatdan tashkil etiladi. Maktabgacha ta'limdan tashqari, bola erta ta'limga ham qatnashishi mumkin.

Finlyandiyada Ta'lim tizimi - ta'lim barcha fuqarolarning asosiy huquqi va asosiy maqsadi hisoblanadi. Finlyandiyaning ta'lim siyosati barcha fuqarolarga; yoshi, millati, yashash joyi, moddiy ahvoli yoki ona tilidan qat'i nazar, ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etishdan iborat. Finlyandiya hukumati asosiy ta'limning umumiy maqsadlarini belgilaydi. Ta'lim bo'yicha milliy agentlik, o'qitish vaqtini va fanlar o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisobot beradi. [1]

Bolalar maktabgacha ta'limda bo'lgan davrda ular alifbo kabi maktabda foydali bo'lgan ko'nikmalarni o'rganadilar. Biroq, ularga qanday o'qishni o'rgatilmaydi. Agar bolaning ona tili fin yoki shved tili bo'lmasa, u fin yoki shved tillarini o'rganishda yordam oladi.

Finlyandiyada keng qamrovli ta'lim odatda bola etti yoshga to'lgan yil davomida boshlanadi. Finlyandiyada doimiy yashovchi barcha bolalar keng qamrovli ta'lim olishlari kerak. Umumta'lim maktabi 9 ta sinfdan iborat.

Finlyandiya qonunchiligi keng qamrovli ta'limni boshqaradi. Milliy o'quv dasturlari asoslari va mahalliy o'quv dasturlari ham qo'llaniladi.

Keng qamrovli ta'lim munitsipalitetlar tomonidan tashkil etiladi va oilalar uchun bepul. Birinchi va ikkinchi sinflar uchun haftasiga kamida 20 soat, yuqoriroq sinflar uchun esa undan ko'proq vaqt o'qiladi.

Finlyandiyadagi barcha umumta'lim maktablari o'qituvchilari magistr

darajasiga ega. Umumta'lim maktablarining 1–6-sinflarga dars beradigan sinf o'qituvchilari pedagogikaga ixtisoslashgan. 7–9-sinf o'qituvchilari o'zlari o'qitadigan fanlar bo'yicha ixtisoslashgan. Ta'lim olish imkoniyatlarini teng ravishda taqdim etish bilan birga, professional o'qituvchilar dars beradi. Finlandiya universitetlaridagi ta'lim fakultetlarining ustunvor vazifasi “o'zini o'zi boshqaruvchi o'qituvchilar” ni tayyorlashdan iborat. Ta'lim fakultetiga talabalarning bilimiga qarab tanlanmaydi. Bizning ta'lim tizimimizdan farqli o'laroq, bir necha bosqichli tanlovdan so'ng, kelishuvchanlik, bolalarni tushuna olish, mehnatsevarlik, intiluvchanlik kabi hislatlarga ega bo'lgan nomzodlar tanlab olinadi. Har yil o'qituvchi lavozimida ishlash uchun istak bildirgan 8500 nozomzoddan atigi 800 nafari tanlab olinadi. [2]

O'qituvchilar milliy va mahalliy o'quv dasturlari asosida mustaqil ravishda o'qishni rejalashtirishlari mumkin. So'nggi paytlarda o'quv dasturlarida, masalan, kundalik hodisalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'rganuvchi bir nechta fanlarni qamrab oluvchi sub'ektlarga urg'u berildi.

O'qituvchi talabalar bilan yaxshi tanishadi va ularning ehtiyojlariga mos ravishda o'qitishni moslashtirib chiqa oladi. Muhim maqsadlardan biri shundaki, talabalar o'zlari uchun o'ylashni o'rganishlari va o'qishlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlaridir.

O'qituvchi o'quvchilarning maktabdagi yutuqlarini baholaydi. Yalpi ta'limda barcha baholar o'qituvchi tomonidan qo'yiladi. Bunday milliy imtihonlar mavjud emas. Buning o'rniga, o'rganish natijalari namunaga asoslangan baholash bilan nazorat qilinadi. Bular odatda 9-sinfda tashkil etiladi.

Agar bola yoki yosh Finlyandiyaga yaqinda ko'chib o'tgan bo'lsa, u keng qamrovli ta'lim uchun tayyorgarlik ta'limini olishi mumkin. Tayyorgarlik ta'limi odatda bir yil davom etadi. Shundan so'ng, talaba, agar tilni o'rganishda yordamga muhtoj bo'lsa, ikkinchi til sifatida fin yoki shved tillarini yoki S2 tilini o'rganishni davom ettirishi mumkin. O'z mamlakatidan to'liq maktabni tugatganligi to'g'risidagi guvohnomaga ega bo'lmagan katta yoshli immigrantlar kattalar uchun umumiy o'rta maktablarda umumta'lim maktablarini tamomlashlari mumkin.

Umumta'lim maktabidan keyin eng keng tarqalgan variant - bu umumiy o'rta maktab va kasb-hunar ta'limi. Finlyandiyada 2021-yilda majburiy ta'lim muddati uzaytirildi. Umumta'lim maktabidan so'ng barcha yoshlar o'rta ta'limni tugatmaguncha yoki 18 yoshga to'lguncha o'qishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari har tomonlama ta'lim beradi, bu esa hech qanday kasb-hunarga olib kelmaydi. Asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham xuddi shu fanlar umumta'lim maktablarida o'rganiladi, ammo o'qishlar talabchanroq va mustaqildir. Oxirida talabalar odatda imtihon topshirishadi. Umumiy o'rta maktab o'quvchiga qarab 2-4 yil davom etadi. O'qishni tugatgandan so'ng, talabalar oliy o'quv yurtlariga, amaliy fanlar universitetlariga yoki umumiy o'rta maktabga asoslangan kasb-hunar ta'limiga hujjat topshirishlari mumkin.

Aksariyat umumiy o'rta maktablar fin yoki shved tillarida ta'lim beradi. Kattaroq shaharlarda ingliz yoki frantsuz kabi boshqa tillarda o'qitiladigan umumiy o'rta maktablar mavjud.

Kattalar kattalar uchun umumiy o'rta maktablarda umumiy o'rta maktabda ta'lim

olishlari mumkin. U erda alohida kurslarni o‘tash yoki umumiy o‘rta maktab dasturini to‘liq bajarish va imtihon topshirish mumkin. O‘qishga kontaktli o‘qitish, masofaviy ta‘lim, onlayn ta‘lim va mustaqil ta‘lim kiradi.

Kasbiy ta‘lim va ta‘lim umumiy o‘rta maktab ta‘limiga qaraganda ko‘proq amaliyotga yo‘naltirilgan. O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limini tamomlash taxminan uch yil davom etadi. Bundan tashqari, siz ish faoliyati davomida qo‘shimcha kasbiy malaka yoki mutaxassis kasbiy malakasini to‘ldirishingiz mumkin. Kasbiy ta‘lim va ta‘limda ish joyida o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Agar talabalar buni tanlasa, ular kasbiy ta‘lim va ta‘limdan oliy ta‘limga o‘tishlari mumkin.

Keyingi kasbiy malaka yoki ixtisoslashtirilgan kasbiy daraja, agar talaba malaka uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lgan bo‘lsa, kompetentsiyaga asoslangan malaka sifatida ham to‘ldirilishi mumkin.

Kasbiy malakaga shogird tayyorlash orqali ham ega bo‘lish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ishlarda ishlaydilar, jamoa shartnomasiga muvofiq hech bo‘lmaganda maosh oladilar yoki sohada jamoa shartnomalari bo‘lmasa, tegishli maosh oladilar. Talabalarga bir vaqtning o‘zida o‘qishni tugatishga ruxsat beriladi.

Finlyandiya dagi maktablarning o‘quv dasturi "o‘qish orqali o‘rganish", "bilishdan bajara olishgacha" tamoyili asosida ta‘lim va tarbiya beradi. Mamlakatdagi majburiy ta‘lim davri, o‘quvchilar faoliyati, sinfdagi tartib va eng muhimi, o‘qituvchilarning malakasi Finlyandiyaning dunyodagi eng muvaffaqiyatli o‘quvchilarni tarbiyalaydigan mamlakatga aylantirdi. Ta‘limdagi ushbu muvaffaqiyatni Finlyandiyaning madaniy yutuqi sifatida baholash mumkin. Chunki Finlyandiya muvaffaqiyat sirini "malakali o‘qituvchilar tayyorlash" bilan bog‘laydi. O‘qituvchilik mamlakatda juda obro‘li va muqaddas kasb. Bundan tashqari, sifatli o‘qituvchilarga taqdim etiladigan turmush tarzi, yashash sharoiti va imkoniyatlari ularga berilgan qiymatning yuqori ekanligini ko‘rsatadi. [3]

O‘rta maktabni tugatgandan so‘ng, siz oliy ta‘limga o‘tishingiz mumkin. Finlyandiya dagi oliy ta‘lim universitetlar va amaliy fanlar universitetlari tomonidan amalga oshiriladi. Universitetlar va ta‘lim institutlari talabalarni qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Oliy ta‘lim muassasasida o‘qish bepul yoki pullik bo‘lishi mumkin. Agar siz Yevropa Ittifoqi yoki Yevropa iqtisodiy hududi fuqarosi bo‘lmasangiz yoki Yevropa Ittifoqi yoki Yevropa iqtisodiy hududi fuqarosining oila a‘zosi bo‘lmasangiz va ingliz tilidagi dasturda bakalavr yoki magistr darajasida o‘qiyotgan bo‘lsangiz, sizdan o‘quv to‘lovlari olinadi.

Amaliy fanlar universitetlari tomonidan taqdim etiladigan ta‘lim universitetlarga qaraganda ko‘proq amaliyotga yo‘naltirilgan. O‘qish, shuningdek, ish joyida o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi. Amaliy fanlar universitetida bakalavr darajasini tamomlash 3,5-4,5 yil davom etadi. Agar siz ham magistraturani tamomlamoqchi bo‘lsangiz, avvalo shu sohada ikki yillik ish tajribasiga ega bo‘lishingiz kerak.

Universitetda o‘qish ilmiy tadqiqotlarga asoslangan. Universitetda bakalavr darajasini tamomlash uchun taxminan uch yil va magistrlik darajasi yana ikki yil davom etadi. Universitetlar o‘zlarining ba‘zi daraja dasturlarida ingliz tilini o‘qitishni tashkil qiladilar. Biroq, ko‘pgina daraja dasturlarida o‘qitish tili fin yoki shved

tillaridir.

Finlyandiyada, shuningdek, barcha yoshdagi odamlarga ilmiy darajaga olib kelmaydigan o‘qishni taklif qiladigan ko‘plab ta’lim muassasalari mavjud. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati kattalar uchun mo‘ljallangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib etishishida ta’lim muhim o‘rin egallaydi. Shunday ekan dunyo standartlariga mos keladigan, o‘zining o‘zgacha ta’lim tizimi va baholash tizimi bilan dunyoga tanilgan Finlandiya ta’lim dasturi bilan talaba yoshlarni ta’minlash kerak. Finlandiya ta’limi o‘quvchilari mustaqil fikr yuritish, muammolarni hal qilish va ijtimoiy faoliyatga qatnashish qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Bu, o‘quvchilar uchun o‘z fikrini bayon qilish, maslahatlashish va jamiyatda samarali qatnashishni o‘rganishga erishadi. Bu holat esa yangi O‘zbekistonni qurishda asosiy omil bo‘ladi desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabova Kimyoxon Farmonovna, O‘zbekiston ta’limining Finlyandiya ta’limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo‘llash imkoniyatlari. ISSN 2181-1709 (P), Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №2)

2. Arifjanova Maxmuda Kabuldjonovna, Finlandiya tajribasi – boshlang‘ich ta’lim tizimi sohasidagi islohotlarasosi. Ustozlar uchun, 45-son 8–to‘plam Iyun 2023y Sahifa: 201

3. Erganali Ismanaliyevich I smanaliyev, Finlyandiya ta’limi va ijtimoiy farovonlik, Pedagogik ta’lim klasteri: muammovayechimlar, Chirchik, Uzbekistan, 1645-bet

О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ФИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ РАДЖАБОВА ЗАМИРА ЧИНГИЗОВНА

УзФинПИ

radzhabpva.zamira.82@mail.ru

+998915261779

Аннотация. Статья посвящена изучению Финского образования: дошкольного, школьного, вузовского. Автор описывает каждый из этапов образования, что приводит к отличным результатам учащихся.

Ключевые слова: финское образование, обучение языкам, дошкольное воспитание, общее образование.

В Финляндии высокий уровень образования, поэтому разница в результатах между школами незначительная, и практически все учащиеся заканчивают школу в положенные сроки. Подготовительное обучение, среднее образование и образование второй ступени бесплатные, последующее образование в большинстве случаев также бесплатное. Предполагается, что у каждого, вне зависимости от уровня доходов семьи, должны быть равные возможности для того, чтобы получить качественное образование и стать активным гражданином страны.

Каждый ребенок, не достигший школьного возраста, имеет право на дошкольное воспитание (*varhaiskasvatus*). Дошкольное воспитание осуществляется в муниципальных и в семейных детских садах. Ребенок также может участвовать в открытых мероприятиях для дошкольников вместе с одним из родителей, например, на детских площадках. Цель заключается в содействии развитию и благополучию ребенка и обеспечении равенства при обучении. В процессе дошкольного воспитания формируются социальные и языковые навыки, развивается мелкая моторика и приобретаются прочие умения и знания. В течение дня дети много играют и гуляют. Если родным языком ребёнка не является финский или шведский, ему предоставляется помощь в изучении финского или шведского языка. Дети с особыми потребностями могут также получать коррекционную помощь. В соответствии с законодательством Финляндии, перед началом учебы в школе дети должны в течение одного года проходить подготовительное обучение (*esiopetus*). Обычно подготовительное обучение начинается, когда ребенку исполняется шесть лет. Обычно ребенок занимается в дошкольном учреждении с понедельника по пятницу по четыре часа в день, во время работы школ. Основное общее образование (*perusopetus*) начинается в семь лет. Все дети, постоянно проживающие на территории Финляндии, обязаны получить основное общее образование. Обучение в средней школе длится девять лет.

В Финляндии основное общее образование регулируется законодательством. Дополнительно действуют государственный базисный учебный план, а также местные учебные планы. В первом и втором классах учебная неделя составляет минимум 20 часов, в старших классах ее продолжительность увеличивается. Все учителя средней школы имеют диплом магистра. Учителя 1–6 классов имеют общее педагогическое образование. А учителя 7–9 классов имеют образование со специализацией по тем предметам, которые они преподают.

В вопросах планирования учебного процесса учителя имеют большую свободу и самостоятельно планируют занятия на основании национального и местного учебных планов. В последнее время в учебном плане особое внимание уделяется, в частности, блокам, включающим в себя несколько предметов, изучению повседневных явлений, а также информационным и коммуникационным технологиям.

Зачастую с 1-го по 6-ой класс с детьми работает один и тот же учитель. Он хорошо узнает учеников и поэтому может выстраивать обучение в соответствии с их уровнем и особенностями. Важной особенностью учебного процесса является обучение самостоятельному мышлению и воспитание ответственного отношения к учёбе.

Учитель оценивает успеваемость учеников. В средней школе все оценки ставит учитель. Национальные тесты в средней школе не проводятся. Вместо этого контроль достижений результатов учащихся производится посредством выборочной оценки. Мероприятия по оценке обычно проводятся в девятом классе. Если ребёнок или подросток недавно переехал в Финляндию, он может пройти обучение, которое подготовит его к учёбе в средней школе. Обычно

подготовительное обучение длится один год. Если после этого ученику по-прежнему будет нужна помощь в освоении языка, он сможет продолжить изучение финского или шведского языка в качестве второго языка (S2-kieli).

Взрослые иммигранты, не получившие аттестата об основном общем образовании в своей стране, могут изучить школьную программу в гимназии для взрослых. Наиболее распространенными вариантами образования по окончании школы являются гимназия (lukio) и среднее профессиональное образование (ammattillinen koulutus). Они относятся ко второй ступени образования. Образование второй ступени является бесплатным для учащихся.

Содержание понятия обязательного образования в Финляндии было расширено. После средней школы все учащиеся должны продолжать обучение до окончания второй ступени или наступления 18 лет. Подросток должен подать заявление на поступление в учреждение второй ступени, если он является учеником 9-го класса основной школы весной или чуть позже.

Обучение в гимназии носит общеобразовательный характер и не предполагает получение какой-либо специальности. В гимназии изучаются в основном те же предметы, что и в средней школе, но на более сложном уровне. Кроме того, учеба требует большей самостоятельности. Обучение в гимназии завершается сдачей экзамена на право поступления в высшее учебное заведение. Обучение в гимназии длится от 2-х до 4-х лет в зависимости от возможностей и желания учащегося. Взрослые могут изучать курсы из программы гимназии в гимназиях для взрослых. В них можно изучить как отдельные курсы, так и всю программу гимназии, а также сдать экзамен на поступление в высшее учебное заведение. Обучение может включать в себя лекции и занятия в учебном учреждении, дистанционные занятия, веб-семинары и самостоятельную работу.

Среднее профессиональное образование в большей степени, чем гимназическое, ориентировано на практику. Оно дает возможность получить квалификацию по определенной профессии примерно за три года. Трудоустроенные также могут получить дополнительное профессиональное или специализированное профессиональное образование. Обучение на рабочем месте является существенно важной частью профессионального образования. При желании после получения среднего профессионального образования можно поступить в высшее учебное заведение.

Получить диплом о профессиональном образовании можно также в результате обучения по договору. В этом случае учащийся работает по специальности, получает за свой труд заработную плату в размере, как минимум, соответствующем коллективному договору, а если коллективного договора в данной отрасли нет, то приемлемую заработную плату. Одновременно с этим он может учиться.

Для обучения второй ступени необходимо хорошее знание языка. Если родным языком учащегося не является финский или шведский, и уровень знания этих языков недостаточен для обучения в гимназии или профессиональном учебном заведении, перед поступлением можно пройти подготовительное обучение для дипломных программ TUVVA. По окончании образовательного

учреждения первой ступени можно продолжить обучение в высшем учебном заведении.

Итак, обучение в высшем учебном заведении может быть, как бесплатным, так и платным. Для граждан стран, не входящих в ЕС или ЕЭС, а также для членов их семей, которые обучаются на англоязычных программах бакалавриата или магистратуры, образование платное.

II-SHO'BA.
TA'LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL
METADOLOGIK ASOSLARI

TA'LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK VA
NAZARIY ASOSLARI

G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich,
SamDChTI Yoshlar masalalari va
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
birinchi prorektori, falsafa
fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Ta'lim har bir davlatni taraqqiyot sari etaklovchi kuch bo'lib, uning rivojlanishida metodologik asoslar bevosita mezon sifatida xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonning falsafiy fanlari ham bu jarayonda ta'limning barcha bug'inlarida amalga oshirilayotgan islohotlardan samarali foydalanish, uning zamonaviy usullarini foydalanishni nazariy jihatdan tadqiq etishni dolzarbligini ko'rsatdi. Falsafiy fanlar rivojida ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanish bugungi kunda jamiyatda falsafiy tafakkurning rivojlanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: falsafiy fanlar, innovatsion texnologiyalar milliy tafakkur, siyosat, falsafiy tafakkur, jamiyat, ta'lim, fan, ishlab chiqarishilmiy g'oyalar.

Annotation. Education is the driving force of every country towards development, and methodological foundations serve as a direct criterion for its development. Philosophical sciences of New Uzbekistan also showed the relevance of effective use of the reforms implemented in all stages of education, theoretical research of the use of its modern methods in this process. The effective use of educational technologies in the development of philosophical sciences leads to the development of philosophical thinking in society today.

Key words: philosophical sciences, innovative technologies, national thinking, politics, philosophical thinking, society, education, science, industrial scientific ideas.

Yangi O'zbekistonda izchillik bilan bosqichma-bosqich kechayotgan rivojlanish jarayonlari ijtimoiy hayotdagi ta'limning dunyoviy xarakter kasb etishiga, milliy tendensiyalarning umuminsoniy qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Bunday o'ziga xoslik ta'lim jarayonining rivojlanishida murakkab va ko'p qirrali tizim sifatida uslubiy, nazariy va amaliy faoliyatning uyg'unligini dolzarblashtirdi. Ta'limning falsafiy negizlari o'z zamirida ta'lim tamoyillari, maqsadlari va usullarini tushunishga va ifodalashga intiladi, shu orqali mavjud tizimdagi kamchiliklarni o'rganishga qanday yondashish zarurligini, nima o'rgatish va nima sababdan ta'lim oluvchilarga ta'sir ko'rsatish yo'llarini metodologik asoslab beradi. Tadqiqotlardagi falsafiy izlanishlar natijasida ta'lim amaliyoti nazariya bilan murakkab o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga olishi, bu turli metodologiyalar va nazariy istiqbollarni sintez qilishni talab qilishi bilan bog'liqdir. "Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog'langan ta'lim sohasida -

maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo'yicha beqiyos o'zgarishlar amalga oshirilmoqda"[1.55]. Bu muassasalarning bir-biri bilan uzviylashganligi jamiyatning ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng ko'lamdagi o'zgarishlarni hosil qilayotganligi bilan xarakterlanadi.

Keyingi yillarda olib borilayotgan falsafiy tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim falsafasi jamiyatdagi inson dunyoqarashini ta'lim haqidagi fundamental savollarni o'rganish orqali yuksalib borishi, kreativlikning doimo amaliyotda qo'llanishi, tanqidni to'g'ri qabul qilishni ijtimoiy ongga singdirish, argumentlash kabi falsafiy vositalardan foydalanish muhimligida namoyon bo'lmoqda. Bu jamiyatdagi bilim, haqiqat va xorijiy tillarni o'rganish kabi tushunchalarni sinchkovlik bilan o'rganishni, ta'lim amaliyoti va siyosatini qadriyatlar negizida amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonining keng miqyosda rivojlanishi natijasida psixologiya, falsafa, tarix, madaniyatshunoslik kabi kognitiv fan sohalari o'zining fanlararo xususiyatlarini bir-biri bilan aloqadorlikni amalga oshiradi. Ushbu fanlararo yondashuv shaxslarning ta'limni qanday o'rganishi, ijtimoiy omillarning tizimidagi rolini qanday tushunishi, ta'lim oluvchi sub'ektlarga ta'sir qilishini to'liqroq tushunishga imkon beradi. Bu esa, ta'limning nazariy jihatlarini uzluksiz holda so'nggi sohaga oid yutuqlar bilan yangilab borishni, ijtimoiy hayotning ehtiyojlarini qoplashga xizmat qiladigan falsafiy tafakkurni vujudga keltirishni talab etadi. "Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha tarkoriylikka chek qo'yib, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishining ta'minlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi"[2.6]. Bunday faoliyat ta'lim jarayonining samaradorlik ko'rsatgichlarini oshishiga, ilmiy va falsafiy metodologiyalar asosida tizimli o'qitishni tashkil etishga xizmat qiladi. Turli madaniyatlar va tarixiy davrlardagi ta'lim tizimlari, nazariyalari va amaliyotlarini solishtirish orqali olimlar ta'limning universal tamoyillarini hamda muayyan muhitda samarali bo'lishi mumkin bo'lgan kontekstga xos strategiyalarni aniqladilar. Garchi ta'lim falsafasi birinchi navbatda me'yoriy masalalar bilan bog'liq bo'lsa-da, empirik tadqiqotlar ta'lim nazariyalari va falsafasining real sharoitlarda qo'llanilishi, samaradorligini tekshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda ta'lim jarayonida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama etuk va mustaqil falsafiy mushohada yuritishga o'rgatishdan iboratdir. Mana shu jarayonda ta'limning barcha bug'inlariga kirib kelayotgan innovatsion texnologiyalarning mohiyatini chuqur anglab etish, har bir innovatsiyaga nisbatan ta'lim oluvchida erkin ijodiy tafakkurni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bugun bizdan talab etilayotgan ta'lim bevosita ilm-fanga asoslanishi, unda ijtimoiy muhit uchun xizmat qiladigan ishlab chiqarishning aks etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ta'limga innovatsion texnologiyalarni olib kirayotgan ekanmiz, avvalo ularning inson va uning

manfaatlari uchun qanchalik dolzarbligi, jamiyat bilan qanday integratsiyalashganiga e’tibor berishimiz lozim.

Jamiyatda ta’limning uzluksizligini ta’minlash asnosida nazariyani teran falsafiy tafakkur, ilmiy mushohadaga chorlovchi innovatsion g‘oyalar bilan boytishimiz kerak. Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘zaro aloqadorlikni shakllantirish, barcha sohalaridagi singari ta’lim tizimining ham amaliy ahamiyat kasb etish jarayonlariga e’tibor qaratish, ta’limdagi innovatsiyalarning dolzarbligini oshirish zarur. Ta’limdagi bunday o‘zgarishlarda tabiiy va aniq fanlar ishlab chiqarishga ko‘proq olib kirish xarakterlidir. Shu bilan birga falsafiy fanlar ana shu moddiyatni yaratuvchisini tarbiyalashda va boshqarishda muhim rol uynaydi. Shuning uchun ham innovatsion texnologiyalarning ta’lim tizimidagi o‘rnini ko‘rsatib berishda ham falsafiy mushohadaga tayanish, ijtimoiy muhit uchun yaratilayotgan yangiliklarning qay darajada xizmat qilishi masalalarini ham chuqurroq anglash lozim.

Jamiyatda ta’limning markazida inson va uning kelajagi turishini anglab etar ekanmiz, biz undan samarali foydalanish yo‘llarini izlab topishimiz, ta’limning barcha bug‘inlarida innovatsion texnologiyalarni maqsadli jamiyatga yo‘naltirishimiz darkor. Ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari bir maqsad sari birlashishi, tizimda yuksak marralar sari intilishi, ta’limning uzluksizligiga erishish uchun mehnat qilishlari lozim. Ta’limda yuz berayotgan metodologik yondashuvlar, milliy qadriyatlarga munosabatlar va samaradorlikka erishish yo‘llari zamonaviylikni taqozo etmoqda.

Jamiyatda yuksak ilmiy-falsafiy tafakkur asosida fan va texnologiyalar rivojini ta’minlash, yuqori intellektual qobiliyatga ega bo‘lgan ilmiy mutaxassislarni etishtirish zamon talabidir. Ilm bilan innovatsiyani uyg‘unlikda rivojlantirishda falsafiy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda falsafiy bilimlar o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajarib ularning dealektik bog‘liqligini ta’minlaydi.

Ta’limda innovatsiyani amaliyotga qo‘llash uchun ma’lum sub’ektga amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va bilimlarini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Innovatsion ta’lim bu rivojlangan yoki rivojlanayotgan ta’lim hisoblanib, ta’lim oluvchi uchun o‘z-o‘zini rivojlantirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar o‘zi 3ta bir-biri bilan bog‘liq komponentlardan tashkil topadi. Bular: tahsil oluvchi ma’lum bir sohaga taa’lluqli bilimlarni nafaqat o‘zlashtirishi balki, uni amaliyotga qo‘llay olishi ham kerak. Bu zamonaviy ta’lim tizimida multimediyali o‘quv materiallari va o‘quv laboratoriyalari yordamida amalga oshiriladi va modernistik informatsion tizimlar orqali etkaziladi.

Ta’limning zamonaviy usullari – kompetensiyani shakllantiradigan faol metodlar. Bunda talaba materialni passiv qabul qilmasdan, o‘zi ham shu jarayonni faol ishtirokchisiga aylanadi. Masalan, o‘qituvchi interfaol usullardan foydalanib muammoli ma’ruza o‘qishi mumkin. Bunda endi talaba faqat eshituvchi yoki qabul qiluvchi emas, balki jarayonni faol ishtirokchisi ya’ni savollarga javob bergan, qo‘yilgan masalaga o‘z echimini bergan holda ishtirok etadi. Provardida avvalo talaba darsda zerikmaydi. Bundan tashqari, mavzuni amaliyot bilan bog‘lab anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Jamiyat tuzilishi va madaniyatning inson xulq-atvorini shakllantirishdagi roli haqidagi nazariyalar ta’limning ijtimoiy qadriyatlarni, me’yorlarni aks ettirishi, ta’sir

qilish usullarini yoritib berish orqali ta'lim jarayonini faollashtiradi. Zamonaviy falsafiy oqimlar ta'lim falsafasiga chuqur ta'sir ko'rsatadi, ta'lim maqsadi va ta'lim tajribasining tabiati haqidagi e'tiqodlarga ta'sir qiladi. Ta'lim jarayonining rivojlanishi nafaqat ushbu metodologik va nazariy asoslarni tushunishni, balki amaliy ta'lim vazifalarini hal qilish uchun ushbu turli manbalardan olingan tushunchalarni birlashtirish qobiliyatini ham talab qiladi. Bu nazariy jihatdan asosli va amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan, mazmunli o'rganish tajribasini targ'ib qiluvchi o'qituvchilarga o'quv dasturlari, o'qitish strategiyalari va ta'lim siyosatini ishlab chiqishda rahbarlik qila oladigan ta'lim falsafasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim jarayonining rivojlanishi dinamik jarayon bo'lib, falsafiy izlanish, empirik tadqiqotlar va amaliy qo'llash o'rtasida ehtiyotkorlik bilan muvozanatni ta'minlashni talab qiladi. Mustahkam metodologik va nazariy asoslarga asoslanib, ta'lim sohasidagi yangi muammolar va imkoniyatlarga javob beradigan rivojlanish falsafiy dunyoqarash, qadriyatlarni tanqidiy o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim jarayonining rivojlanishi jamiyat dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'lim oluvchi o'quvchilarning turli xil fikrlashi, o'rganishi va dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lishi nafaqat kognitiv rivojlanishga, balki qadriyatlar va axloqiy asoslarga ham ta'sir qiladi. Ta'limning rivojlanishi fuqarolarni yanada adolatli, barqaror va rahm-shafqatli dunyoni tasavvur qilishga, ishlashga ilhomlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. 55-бет.
2. Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновatsion технологиялар. –Тошкент: 2017. 6-бет.
3. ЯХШИЛИКОВ, ЖЯ, and НЭ МУХАММАДИЕВ. "МИЛЛИЙ гоЯ ВА МАФКУРА."
4. Яхшиликoв, Жўрабой Яхшиликoвич, and Ҳамида Абдумажидова. "Модернизация тушунчаси такомиллашувининг методологик масалалари хусусида." *Интернаука* 14-3 (2021): 91-94.

ZAMONAVIY TA'LIMDA AKADEMIK NUTQNING AHAMIYATI

Abdullayeva Nasiba Bo'ronovna

O'zMU Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedراسи
professor v.b., falsafa fanlari doktori

E-mail: nasiba.abdullayeva.1969@ mail.ru

tel: 93 5977043

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda akademik nutqning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Akademik nutq usullari tahlil etilgan hamda oliy o'quv yurtlarida akademik savodxonlikni shakllantirishning ahamiyati ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, akademik nutq, ilmiy uslub, ritorika, tizimlilik, mantiqiylik, ilmiy ma’ruza.

Abstract. This article focuses on the specific features of academic speech in modern education. The methods of academic speech are analyzed and the importance of formation of academic literacy in higher educational institutions is emphasized.

Key words: Speech, academic discourse, scientific method, rhetoric, systematicity, logic, scientific lecture.

Akademik notiqlik an’anaviy atama bo‘lib, ilmiy notiqlikni anglatadi. Sof ilmiy notiqlik boshqa nutq turlaridan chuqur argumentatsiyasi, yuqori mantiqiy madaniyati, qat’iy nutq uslubi, shuningdek, o‘ziga xos terminologiyasi bilan ajralib turadi. Akademik nutq ilmiy va ommabop ilmiy funksional uslubni anglatadi. Akademik savodxonlikni shakllantirish nafaqat o‘qish va yozish ko‘nikmalarini, balki ma’lum bir madaniy muhitga mos keladigan fikrlash tarzini rivojlantirishdir. Shundagina biz akademik savodxonlikning diskursiv modelining mavjudligi va jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lish qobiliyatini shakllantirishda yozuvning ijtimoiy amaliyot sifatida ahamiyati haqida gapirishimiz mumkin. Rivojlangan yozish qobiliyatlari talabalarning ilmiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir qiladi va ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadi.

Akademik notiqlik yoki ritorika bu zamonaviy olimlar va pedagoglar arsenalidagi muhim mahoratdir. Konferensiyalarda nutq so‘zlash, dissertatsiyalar yozish va himoya qilishdan tortib, ta’lim faoliyatiga qadar samarali va ifodali muloqot qobiliyatlari kasbiy faoliyatning barcha jihatlarida muhim ahamiyatga ega. Akademik ritorika-bu g‘oyalarni ishonchli va aniq tarzda shakllantirish va taqdim etish san’ati, ayniqsa ilmiy va ta’lim sohalarida. Bu talabalar va keng jamoatchilik bilan samarali muloqot qilish imkonini beruvchi mahoratdir. Akademik ritorika uni boshqa barcha notiqlik turlaridan ajratib turadigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bular aniqlik, murakkab g‘oyalarni iloji boricha sodda tarzda taqdim etish, mavzuni chuqur tushunishni va tinglovchilarga tushunarli tilda o‘zini ifoda etish kabilar. Shu bilan birga akademik nutq quyidagi jihatlariga ega:

Birinchi, tizimlilik, ma’ruza, taqdimot mantiqan tuzilgan bo‘lishi kerak, shunda tinglovchilar ma’ruzachining fikrlarini osongina kuzatib borishlari va ma’lumotni yaxshiroq o‘zlashtirishlari mumkin;

Ikkinchi, dalillash yoki argumentatsiya: barcha bayonotlar faktlar, tadqiqot ma’lumotlari va mantiqiy mulohazalar bilan tasdiqlanishi kerak. Bu bayonotlarga salmoq va ishonchni beradi;

Uchinchi, tinglovchilarga moslashish: ijtimoiy soha talabalari yoki aniq fanlar sohasi bo‘ladimi, til va nutq uslubini ma’lum bir maqsadli guruhga moslashtira olish olish muhimdir;

To‘rtinchi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish: taqdimotlar, grafikalar va diagrammalar ma’lumotni yaxshiroq idrok etishga yordam beradi;

Beshinchi, axloqiy me’yorlarga rioya qilish: madaniy me’yorlarni buzish akademik sohada qabul qilinishi mumkin emas. Muloyim muloqotni davom ettirish, turli vaziyatlarda hamkasblar va boshqa tadqiqotchilarning fikrlarini hurmat qilish kerak. Bu xususiyatlar ritorikani nafaqat ma’lumotni etkazish usuli, balki ma’ruzachidan tajriba va tayyorgarlikni talab qiladigan butun bir san’atga aylantiradi.

Akademik nutq o'z usullariga ega bo'lib, ular ishonchli dalil yaratish uchun asosdir. Ularning yordami bilan ma'ruzachi jamoatchilikka turli yo'llar bilan ta'sir qilishi mumkin. Ular orasida mantiqiy va axloqiy usullar ajralib turadi.

Mantiqiy: tinglovchilarni mantiqiy dalillar orqali ishontirishga qaratilgan va faktlar, statistik ma'lumotlar, rasmiy adabiyotlar va mantiqiy taqqoslashlar bilan tasdiqlangan aniq xabarni taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Axloqiy: muallifning ishonchliligi va malakasiga ishontirish uchun ishlatiladi. Mualliflar o'zlarining xolisligi va professionalligi, etish, shuningdek, tajriba va bilimlarini namoyish etishi. Bunda ushbu olimning uzoq yillik tajribasi va uning kasbiy yutuqlari asos bo'ladi.

Bu uslublarning kombinatsiyasi yangi ma'lumotlarni, mualliy nuqtai nazarini, takliflarni foydali tarzda taqdim etishga yordam beradi. Chiroyli nutq turli xil hayotiy vaziyatlarda muhim rol o'ynaydi va uni qo'llash qat'iy akademik kontekstdan tashqariga chiqishi mumkin. Ushbu ko'nikma nafaqat ilmiy va ta'lim sohalarida, balki ma'lumotni aniq, tuzilgan va ishonchli taqdim etish zarur bo'lgan boshqa ko'plab sohalarda ham foydalidir.[1.22]

Universitet o'qituvchilarining ma'ruzalari bu, eng aniq va tushunarli chunki dastur asosida ishlanadi o'qitishda materialni tizimli ravishda taqdim etish alohida ahamiyatga ega, bu o'qituvchidan nafaqat mavzu bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni, balki materialni qiziqarli va tushunarli tarzda taqdim etish qobiliyatini ham talab qiladi.

Ilmiy-ommabop ma'ruzalar: universitet ma'ruzalaridan farqli o'laroq, bunday ma'ruzalar bilimlarni keng jamoatchilik orasida tarqatishga qaratilgan. Ular sodda va tushunarli tilda minimal ixtisoslashgan atamalarda farqlanadi va ko'pincha tinglovchilar "tiborini jalb qilish uchun qiziqarli faktlar va misollarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy ma'ruzalar: konferensiya va seminarlarda taqdim etilgan. Ular odatda tadqiqot natijalarini taqdim etishga e'tibor berishadi. Bu erda ishning ahamiyatini aniq va aniq ta'kidlash, shuningdek, tadqiqotning asosiy g'oyalari va xulosalarini taqdim etish qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi.

Ilmiy sharhlar: ushbu janr ma'lum bir mavzu yoki tadqiqot sohasi bo'yicha ma'lumotlarni batafsil tahlil qilish va sintez qilishni o'z ichiga oladi. Adabiyotlar sharhlari mavjud bilimlarni tizimlashtirishga, tadqiqotlardagi bo'shliqlarni aniqlashga va kelajakdagi ish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Ilmiy xabar yoki ma'lumot: bu ilmiy jamoatchilikni yangi tadqiqotlar, ma'lumotlar yoki ishlanmalar to'g'risida xabardor qilishga qaratilgan qisqa nutqlar yoki nashrlar. Ular odatda tadqiqotning asosiy natijalari va uning fan uchun ahamiyati haqida qisqacha ma'lumotni o'z ichiga oladi. Ushbu janrlarning har biri ma'ruzachidan ma'lum ko'nikmalarni va ushbu ma'lumot mo'ljallangan maqsadlar va maqsadli auditoriyani hisobga olgan holda materialni taqdim etishda maxsus yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi.

Akademik notiqlik uni boshqa notiqlik turlaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Akademik notiqlik dalillar bazasi va ta'lim yo'nalishiga ega bo'lishi bilan noyobdir va aynan shu asosiy komponent yuqorida aytib o'tilgan notiqlik turlarida yo'q. Akademik notiqlik - bu bilimlarni taqdim etish san'ati bo'lib, taqdimotda aniqlik, izchillik va ma'lumotlilikni talab qiladi, shu bilan birga ma'lumotlarning

ortiqcha yuklanishidan qochadi. [4.104]

Xulosa qilganda, zamonaviy oliy ta’limda akademik notiqlik muhim ahamiyat kasb etadi. U pedagog kompetentligi bilan birga ma’ruzani tushunarli, aniq, mantiqiy etkazishni ta’minlaydi. Talabalarda esa nutqning maqsadga muvofiq va ta’sirchanligini ta’minlash bilan birga, turli ilmiy konferensiyalarda ma’ruza qilish, yozma nutqini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Lillis T., Curry M.J. Academic writing in aglobal context. London: Routledge, 2010.22
- 2.Litaeva M.A., Talalakina Ye.V. Academic skills: sushnost, model, praktika // Voprosi obrazovaniya. 2011. № 4. S. 178–201.3.
- 3.Zubkova Ya.V. Konstitutivnie priznaki akademicheskogo diskursa // Izvestiya VGPU. 2009. Vip. 5. S. 28–32.9
4. Mironov Ye.V. Formirovanie akademicheskoy gramotnosti studentov: opit fakulteta gosudarstvennogo upravleniya // Visshee obrazovanie v Rossii. 2013. №7. S. 101–104;
- 5.R.Jumaniyozov. Pedagogik mahorat va kommunikativ kompetentlik. Toshkent 2021. B.124
- 6.Xurramov , R. (2022). Metodika razvitiya evristicheskix sposobnostey studentov s pomomyu igri. Obshestvo i innovatsii, 3(4), 188–194.
- 7.Sirojiddinova Iroda Maxammadovna. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish haqida Monografiya. –“Andijon nashriyot-matbaa” MChJ. 2021 yil. 104-bet

JINOIY – HUQUQIY HODISALARNI BILISHDA METODOLOGIK BILIMLARGA ZARURIYAT

Abduxalikov S.

Falsafa fanlari doktori, dotsent (O‘zR IIV Akademiyasi)
(Telefon nomeri: 998260553)

Annotatsiya

Maqolada jinoiy-huquqiy hodisalarni bilishda ob’ektiv qonuniyatlarga oid metodologik bilimlarga zaruriyat, metodologik bilimlarni tarix, jumladan, huquqni dialektik madaniy tushunishga asoslangan ijtimoiy va huquqiy – falsafiy bilimlar bilan boyitishga bo‘lgan ehtiyoj masalalari bo‘yicha tegishli fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: metodologiya, falsafa, dialektik, jumladan, sinergetik fikrlash, sivilizatsiya, huquqiy borliq, korrelyatsion-funksional qonunlar, substansional qonunlar, jinoiy-huquqiy hodisalar, jinoyat, jinoiy javobgarlik va jinoiy jazo.

Annotation: the article provides relevant opinions on the need for methodological knowledge of objective laws in the knowledge of criminal-legal phenomena, the need to enrich methodological knowledge with history, including social and legal-philosophical knowledge based on dialectical cultural understanding of law.

Key words: methodology, philosophy, dialectic, including synergistic thinking, civilization, legal entity, correlational-functional laws, substantive laws, criminal-legal phenomena, crime, criminal liability and criminal punishment.

Tizimli o'rganish huquqiy borliqdagi substansionallikni bilishni taqozo qiladi. Jumladan, jinoyat, jinoiy javobgarlik va jinoiy jazoning substansional bir – butunligini aniqlash va ularni tarkibiy qismlarga bo'lish, ularning o'zaro bog'liqlarini aniqlash katta nazariy ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham Rossiyalik taniqli olim yuridik fanlari doktori, professor Yu.V.Golik "Jinoyat huquqi falsafasi amalda hozirgi zamon nazariyalari tomonidan tadqiq qilinmayapti. Shu bilan birga jinoyat huquqi nazariyasi shunday chegaraga kelib qoldiki, uning yanada ilgari harakat qilishi, demak va jinoyatchilikka qarshi kurashda real yutuqlari salmoqli falsafiy asoslarsiz mumkin emas", degan edi. [1, 2 s.] Ko'rinib turibdiki, jinoyat huquqi falsafasi fani jinoyat huquqi fani uchun metodologik asosga ega. Agar jinoyat huquqi fanida jinoiy huquqiy legistik bilish asosiy o'rinni egallasa, jinoyat huquqi falsafasi fanida esa yuridik bilish, ya'ni uchta jinoiy-huquqiy hodisa – jinoyat, jinoiy javobgarlik va jinoiy jazoga xos ob'ektiv qonuniyatlarni tadqiq qilish birinchi o'ringa chiqadi. Bu falsafiy ontologiya, dialektika va bilish nazariyasi qo'llash asosida amalga oshadi.

Metodologik bilimlar asos, manba va vosita bo'luvchi qismlarga bo'linadi. Substansional yondoshish va unga bog'liq holda sinergetik fikrlash ham metodologiya, jumladan, falsafiy metodologiya asoslarining asosidir.

Jinoiy-huquqiy hodisalarni o'rganishning hozirgi kunda mamlakatimizda ikki konsepsiyasi mavjud. Agar huquq va jinoyat huquqini o'rganishning birinchi konsepsiyasi tarixni materialistik tushunish doirasida bo'lsa, unda nazariy tadqiqot natijalari iqtisodiy materializmga olib boradi. Unda ilmiy – tadqiqot sohasida huquqni o'rganishning birinchi va ikkinchi metodologik darajalari dialektik va tarixiy materializml bo'lib qoladi.

Jinoyat huquqini ikkinchi konsepsiya, ya'ni tarixni dialektik madaniy tushunish doirasida o'rganishning esa quyidagi falsafiy va nofalsafiy metodologik darajalari mavjud: 1) borliq to'g'risidagi dialektik madaniy tushunish, jumladan, sinergetik yondoshish bilan to'ldirilgan ta'limot; 2) tarixni dialektik madaniy tushunish va sinergetik yondoshish negizida shakllangan ijtimoiy falsafa; 3) huquqni dialektik madaniy tushunish va sinergetik yondoshish negizida shakllanayotgan huquq falsafasi va davlat va huquq nazariyasi; 4) qolgan yuridik fanlarning bir - biriga nisbatan metodologik subordinatsion ahamiyati. Jumladan, jinoyat huquqi fani jinoyat protsessi fani uchun moddiy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, tarix, jumladan, huquqni dialektik madaniy tushunishga muvofiq, jamiyat mavjudligining negizini madaniy borliqning korrelyatsion--funktional bir-butunligi tashkil etadi, va demakki, shu asosda tarixiy materializmda o'rgatilgan umumsotsiologik qonunlar to'g'risidagi qarashlar cheklangandir, deb aytish mumkin. Aksincha, har qanday yuridik qonun madaniy borliqqa xos to'rtta korrelyatsion-funktional qonunlar – sotsial asos qonuni, moddiy asos qonuni, ma'naviy asos qonuni va boshqarish va tartibga solib turish qonunlari atrofida aylanadi. Jinoyat kodeksi boshqarish va tartibga solib turuvchilik qonunining namoyon bo'lish shakllaridan biridir. Inson va uning birliklari madaniy borliq, jumladan, huquqiy madaniyatning yaratuvchisi, sub'ekti va tashuvchisi bo'lgani uchun

jamiyatda moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish emas, balki korrelyatsion-funksional qonunlar ichida sotsial asos qonuni barcha ijtimoiy, jumladan, huquqiy hodisalar yuzaga kelishini belgilovchidir. Qolgan korrelyatsion-funksional qonunlar – moddiy asos, ma’naviy asos, boshqarish va tartibga solib turuvchilik qonunlari esa genezisi va amal qilishiga ko‘ra parallel kuchga egadirlar.

Madaniy borliqning muayyan tiplari muayyan fuqarolik jamiyatlari, ya’ni sivilizatsiyalar xilma - xilligini belgilab keladi. Bundan barcha Jinoyat kodekslarining sivilizatsiyalarga bog‘liqligi qonuniyati kelib chiqadi.

Madaniy borliqning korrelyatsion - funksional bir - butunligini ta’minlovchi, tizim tashkil etuvchi substansional elementlari – substrati, motivi, gnoseologik asosi, yashash usuli va manbai har qanday huquq, jumladan, jinoyat huquqi tizimining yuzaga kelishida ustuvor, tizim tashkil etuvchi kuchga ega bo‘lib qolaveradi. Ijtimoiy, huquqiy protsess, jumladan, jinoyat huquqi tizimi takomillashishi esa madaniy borliqning bir-butunligi, ilgarilama doiraviy aylanishi va ehtiyojning oshib borishi qonunlaridan iborat substansional qonunlaridan kelib chiqadi. Jamiyatning rivojlanishi uning yadrosi – madaniy borliq rivojlanishining substansional qonunlariga bog‘liq ekan, ular har qanday qonun, jumladan, jinoyat huquqi qonunchiligining shakllanishi va takomillashishi – sub’ektiv huquqdan huquqiy institutga va undan uning realizatsiyasi tomon borishidan iborat doiraviy aylanishi qonuniyatida ustuvor bo‘lib turadi.

Huquqiy borliqning tizim tashkil etuvchi substansional elementlari – inson va uning birliklari uning yuzaga kelishining sub’ekti - substrati, anglagan huquqiy ehtiyoj motivi, huquqiy ong gnoseologik asosi, huquqiy faoliyat yashash usuli va huquqiy faoliyatning birinchi bosqichi – huquq ijodkorligi natijalari esa ikkinchi tartibdagi manbai vazifalarini o‘taydi. Huquqiy borliqning substansional elementlarining genetik bog‘lanishlaridan huquqiy borliqning bir - butunligi, ilgarilama doiraviy aylanishi va huquqiy ehtiyojning oshib borishi substansional qonunlari kelib chiqadi va huquqiy hayotning mazmunini belgilab beradi. Bu qonunlar jinoyat huquqi tizimida ham namoyon bo‘ladi va o‘ziga xos jinoiy-huquqiy bog‘lanishlarni keltirib chiqaradi.

Huquqiy borliqning universal, tuzilmaviy, determinatsion va funksional aloqadorliklari ham mavjud bo‘lib, ular uning substansional qonunlariga bog‘liq holda yuz beradi. Ular jinoyat huquqini o‘rganishda ham dunyoqarash va metodologik ahamiyatga ega. Huquqiy borliqqa xos huquqiy qonuniyat va aloqadorliklar tizimidan har qanday qonunining, jumladan, Jinoyat kodeksining ijtimoiy hayotning moddiy, sotsial, siyosiy va ma’naviy sohalarining ilgarilama substansional doiraviy aylanish qonuniyatlariga funksional bog‘liqligi jarayonlari kelib chiqadi.

Xullas, jinoiy-huquqiy hayotga ham xos bo‘lgan substansional, universal, strukturaviy, determinatsion va funksional aloqadorliklarni aniqlash jinoiy-huquqiy xodisalarni tadqiq qilishda metodologik ahamiyatga ega.

Yurisprudensiya, jumladan, jinoyat huquqi fanida ilmiy-tadqiqot ishlarida falsafiy va nofalsafiy metodologik konsepsiyalarining o‘rnini O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati faoliyati bilan bog‘liq holda yuzaga kelayotgan tarix va huquqni dialektik madaniy tushunish va unga asoslangan sinergetik yondoshish metodologiyasi bilan to‘ldirish zarur. Bu ilmiy - pedagogik jarayon ikki yo‘l bilan, birinchidan, yuridik fanlarda dialektik, jumladan, sinergetik fikrlashni kuchaytirish

orqali, fan ob'ektidagi o'zaro dialektik aloqadorliklarni yoritish orqali va ikkinchidan, yuridik fakultetlarida falsafa fanini o'qitishni yuridik fanlarga ixtisoslashtirish orqali - dialektik, jumladan, sinergetik fikrlashni singdirish orqali amalga oshadi. Bu ilmiy jarayon huquq falsafasi va undan so'ng jinoyat huquqi falsafasining boyishiga ham imkon beradi.

Keyingi vaqtlarda oliy o'quv yurtlarining magistratura bosqichlarida "Fanning falsafiy masalalari" o'quv kursi o'tila boshlandi. Falsafa fani har qanday fan, jumladan, jinoyat huquqi fanining birinchi darajali metodologik asosi – falsafiy metodologiyasi hisoblanadi. "Fanning falsafiy masalalari" o'quv kursini yuridik institutlarida "Yuridik fanlarning falsafiy masalalari" tarzida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

1. "Fanning falsafiy masalalari" fanidan dars berayotgan professor-o'qituvchilar ixtisoslik fanlari yutuqlarini umumlashtira olishlari kerak. Bu "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanini o'qitishga ham daxldordir. Maqsad - tadqiqotchi o'z tadqiqot obektining dialektik aloqadorliklari, jumladan, sinergetik xususiyatlarini topa olsin.

2. Falsafa fanini ixtisoslashtirib o'qitmaslik ijodiy fikrlashning sayozlashishiga olib keladi. Aksincha, dialektik, jumladan, sinergetik qonuniyatlarni izlab topish davr talabidir. Bu bevosita tadqiqotchi va talabalarda dialektik fikrlashning kuchayishiga olib boradi.

3. Yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan huquqshunos kadrlarni tayyorlashda, darslik va uslubiy qo'llanmalarni yaratishda dogmatizmdan qochishimiz, ijtimoiy, jumladan, huquqiy hayotga legistik emas, balki yuridik yondashishimiz zarurdir. Yuridik yondoshish orqali talabalarga jinoiy – huquqiy voqealikka dialektik yondashishini sinergetik jihatlari ila singdirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Filosofiya ugolovnogo prava. //Sost., red. i vstup. statya dokt. yurid. nauk, prof. Yu.V.Golika. –SPb.: Izdatelstvo R.Aslanova "Yuridicheskiy sentr Press", 2004. S.2.
2. O'zbekistonda gender munosablari tarixi AM Rahmatovna Tadqiqotlar. uz
3. Globallashuv jarayonida sharq mentalitetidagi gender tengligiga bo'lgan munosabat A.M Rahmatovna Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 5 (5), 378-382

PEDAGOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHALARI

Umarov Alisher Yusubjanovich,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi prorektori,
pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik ta'limni takomillashtirish va rivojlantirishning konseptual asoslari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim, ta'lim sifati, o'qituvchi faoliyati, modernizatsiya jarayonlari, maktab hayotini tashkillashtirish, pedagog-kadrlarni tayyorlash, kognitiv jarayonlar.

Abstract: This article talks about the conceptual basis of improvement and development of pedagogical education.

Key words: pedagogical education, quality of education, teacher's activity, modernization processes, organization of school life, training of pedagogues, cognitive processes.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini metodologiya va pedagogika sohasida fundamental bilimlarni chuqur biladigan, yuqori saviyadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega, ta'lim jarayonida pedagogik muammolarni tizimli ravishda olib boruvchi mahoratli va omilkor o'qituvchilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jihatdan pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida asosiy e'tibor bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy pedagogik faoliyatning o'ziga xos usullarini shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgan.

Tadqiqotlar natijalari oliy ta'lim tashkilotlari pedagoglari faoliyatining murakkabligini ko'rsatmoqda. Masalan[1], so'nggi o'n yilliklarda talabalar psixikasida ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatlardan o'zgarishlar yuz berdi. Ularning ijodkorligi, fikrlash jadalligi, ijtimoiy kompetensiyalari va irodaviy fazilatlarini ko'rsatkichlari pasaydi. Kognitiv jarayonlar va umuman faollikni rag'batlantirish zarurati paydo bo'ldi. Bolalar matnlarni yomonroq tushuna boshlayaptilar. Endilikda maktablarda emotsional-ruhiy muammolari bo'lgan bolalar ko'paymoqda. Shu bilan birga, shaxsiy, intellektual sohada iqtidorga ega bo'lgan, badiiy qobiliyatli va sport yo'nalishi nuqtai nazaridan qobiliyatga ega bolalar ham paydo bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, bo'lajak o'qituvchi iqtidorli va deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlash bo'yicha pedagogik-psixologik bilim daraja, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Bu esa ko'p millatli o'quvchilardan iborat maktablarda, alohida o'quv ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ta'lim berish, ularning ota-onalari bilan ishlash, maktab hayotini tashkillashtirish bilan bog'liq jarayonda ishtirok etish ko'nikmalarini egallagan pedagog-kadrlarni tayyorlashni talab etadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar natijasida ta'lim iste'molchilarining tarkibi va ularning talablari o'zgarib bormoqda. Dinamik o'zgaruvchan jamiyatning zamonaviy sharoitida pedagoglarni tayyorlash bo'yicha ko'p tarmoqli ta'lim yo'nalishlariga, kasbiy faoliyatga kirishishning turli ssenariylariga e'tibor qaratish lozim.

Belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan pedagoglarni tayyorlashning quyidagi muammolarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- kasbga kirishish muammosi: pedagoglik kasbini tanlagan abituriyentlar, da'vogarlarini tanlashga imkon beradigan maxsus dasturlar va sinovlarning mavjud emasligi;

- o'qitish muammosi: etakchi oliy ta'lim tashkilotlari va ularning mutaxassislari, professor-o'qituvchilari ishtirokida amaliyot va malaka oshirishning zamonaviy tizimi yo'qligi; oliy pedagogik ta'lim mazmuni va texnologiyasining zamonaviy maktab ehtiyojlaridan orqada qolishi; talabalar oliy ta'limni rivojlantirish muammolarini hal etishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga etarli darajada jalb etilmasligi; pedagogik

dasturlarni o'qitish jarayonida zamonaviy ehtiyojlardan orqada qoladigan resurslar bilan ta'minlash;

- oliy ta'lim xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ehtiyojlarga asoslangan samarali milliy tizimi hozircha to'liq yo'lga qo'yilmaganligi ularni moddiy-ma'naviy jihatdan etarli darajada qo'llab-quvvatlashning joriy etilmaganligi: o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj va bitiruvchilarni ishga joylashtirishda ishlar talab darajasida olib borilmayotgani; eng qobiliyatli bitiruvchilarni o'qituvchi lavozimiga jalb qilish mexanizmlarining etarli ishlamayotgani, yosh o'qituvchini kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimining samarasizligi va h.k.

O'qituvchining ijtimoiy mavqeini yuksaltirish yuzasidan mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar zamirida pedagoglik kasbining obro'-e'tiborini yanada oshirish maqsad qilingan va fikrimizcha, bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlar tayyorlashning tizimi individual yo'naltirilgan moslashuvchan ta'lim berishni, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni, ularda eng muhim ko'nikmalardan birini – mustaqil o'rganish qobiliyatini shakllantirishni qamrab olishi lozim.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqat tizimli olib borilgan tadbirlargina ijobiy natijalar berishi mumkin:

- tegishli ish sharoitlarining yaxshilanishi va ish haqi darajasining oshirilishi;
- o'qituvchilar tayyorlash sifatini yaxshilash maqsadida pedagogika oliy ta'lim tashkilotlariga kirish uchun sinovlarda talablarni kuchaytirish.

Eng yaxshi natijalarni o'qituvchilar muayyan fan doirasida aniq bilishlari va bajarishlari lozim bo'lgan mezonlar mavjud bo'lgan ta'lim tizimlari ko'rsatmoqda. Ushbu mezonlar ta'lim muassasalarining maqsadlarini va tegishli kasb egasi malakali o'qituvchi deb hisoblanishi uchun kerak bo'lgan umumiy tushunchalarni aks ettiradi. Shu sababli o'qituvchilar faoliyati uchun kasbiy talablarni, professional standartlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa sanaladi.

Pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- pedagogik kadrlar tayyorlashdagi o'zgarishlarni ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan muvofiqlashtirishga, uning ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan tizimli yondashuv tamoyili;

- pedagog kadrlarni institutsional va iqtisodiy jihatdan tayyorlashdagi muhim o'zgarishlarga, o'quvtizimining barcha tarkibiy qismlarini yangilashga yo'naltirilgan innovatsion tamoyil;

- pedagogik kadrlar tayyorlash natijalarini diagnostika qilish, maqsadlarni, mazmunni, texnologiyalarni o'zgartirish, ushbu o'zgarishlarni iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va pedagogik mexanizmlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan yaxlitlik tamoyili;

- tayyorgarlikning har xil shakl va mazmuni xilma-xilligiga yo'naltirilgan turli darajadagi o'quv dasturlarining o'zgaruvchanligini tavsiflovchi variativlik tamoyili;

- davlat va jamoat tuzilmalarining, kasaba uyushmalarining, ish beruvchilarning pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishdagi o'zaro hamkorligi tamoyili;

-mamlakatimiz hududlarida pedagog kadrlarni tayyorlash shart-sharoitlari va vazifalarini hisobga olish, muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi hududlashtirish tamoyili;

-pedagog kadrlar tayyorlash jarayonining takomillashuviga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik ta'minot tamoyili.

Pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari:

- o'qitishning amaliy yo'nalganligini kuchaytirish;

- maktab-oliy ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikni va pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida ishtirok etuvchi muassasalar orasidagi aloqalarni rivojlantirish;

- pedagogik ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi o'quv dasturlari sifatini baholashning ijtimoiy-professional tizimini yaratish;

- malaka oshirish ta'lim dasturlari, o'quv kurslari, talabalar, o'qituvchilar va mutaxassislar uchun stajirovkalarni uzluksiz ravishda yo'lga qo'yish va bunday ishlarning natijalarini tan olish tizimini yaratishdan iborat.

Kasbiy standart keyingi avlod ta'lim standartlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi; turli toifadagi pedagog xodimlarning faoliyati tavsiflari – ta'lim muassasalarida ish tavsiflarini tuzish uchun asos hisoblanadi; yangi toifadagi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini tavsiflashga imkon beradi, postindustrial axboriy jamiyatda yangi pedagogik kasblarning paydo bo'lganligini ko'rsatadi; kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirishni aniq rejalashtirish uchun imkoniyatlar yaratadi; pedagog kasbiy faoliyatida boshqa mutaxassislarning funksiyalariga xos takrorlanishlarni bartaraf etishga imkon beradi; turli toifadagi o'qituvchilar uchun attestatsiya talablarini aniq belgilash uchun zamin yaratadi.

Hozirgi vaqtda pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalari tarmoq o'zaro hamkorligining umumiy tendensiyasi haqida fikr yuritish mumkin. Pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish vazifalariga bakalavriat yo'nalishlari fan dasturlarini shakllantirish, ta'lim klasterlarini yaratish, etakchi pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va h.k. kiradi.

Yosh o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash professional moslashish va kasbiy o'sish nuqtai nazaridan o'zini o'zi namoyon qilishga imkon yaratishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari tarkibiga yosh mutaxassislarni birlashtirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim: qo'shimcha qonun hujjatlariga muvofiq u foydalanishi mumkin bo'lgan imtiyozlarni aniqlash; yosh o'qituvchilarning jamoat tashkilotlarini tashkil etish; yosh o'qituvchilarni ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, o'qituvchining ijobiy imidjini shakllantirish.

O'qituvchining ijobiy imidjini shakllantirish masalasiga qonun hujjatlarida alohida o'rin ajratilishi kerak, shu jumladan:

- pedagog kasbi va pedagogik faoliyatning ijtimoiy ahamiyatli va obro'li ekanligini tizimli ravishda shakllantirish;

- yosh o'qituvchilarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan, shu jumladan ta'lim kreditlari tizimi orqali qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish;

- o'qituvchining milliy-madaniy qadriyatlar targ'ibotchisi, ma'rifat tarqatuvchisi sifatida ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim qilinishini ta'minlash.

Yosh o'qituvchilar uchun qo'shimcha kasbiy ta'lim dasturlarini,shu jumladan xalqaro dasturlarni ishlab chiqish, pedagogik ta'lim tizimi rivoji uchun O'zbekiston Respublikasida yagona ta'lim makonini shakllantirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Kasbiy qo'shimcha ta'lim dasturlari yosh o'qituvchilarning uzluksiz ta'limga bo'lgan ehtiyojlari va talablarini qondirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, bu kasbiy faoliyat davomida aniqlangan bilim, kompetensiyalardagi bo'shliqlarni bartaraf etishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Sokolova I. I. Концептуальные основы совершенствования и развития педагогического образования в России. CHELOVEK I OBRAZOVANIE № 2. 2014, s 178-188.
2. Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan. dok. ... dis. – Toshkent. 2016.
3. Umarov A.Yu. Ijtimoiy-hamkorlik sharoitida pedagogik kadrlar tayyorlashning integrativ mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss.- Toshkent. -2023.-217 b.
4. Umarov A.Y. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023.
5. Kadirov U. Factors and importance of forming personal consciousness in the information society. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 18, | November,2023.
6. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S. Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular& Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

IJTIMOIIY XIZMAT KO'RSATISHNING NAZARIY JIHATLARI

M.N.Normamatova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida f.f.d.(DSc) dots.

Annotatsiya

Ushbu maqola raqamlashtirish tushunchasini ma'nosi yoritilgan. Axborotlashgan jamiyatda raqamlijamiyat uning ijtimoiy hayotga ta'siri to'g'risida ilmiy ma'lumot berilgan. Ijtimoiy hayotni bugungi kurinishlari ya'ni raqamli jamiyat, raqamli realliklarularning bugungi kun ijtimoiy jarayonlarga ta'siri masalasi keng bayon etilgan.

Kalit suzlar: raqamlashtirish, bilish, epistemologiya, raqamli reallik, raqamli obraz, axborot.

Abstract. This article explains the meaning of the concept of digitization. In the information society, digital society has been scientifically informed about its impact

on social life. The issue of today's views of social life, that is, the digital society, the impact of digital realities on today's social processes, is widely explained.

Key words: digitization, knowledge, epistemology, digital reality, digital image, information.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy xizmat tizimini virtuallashtirish borasida ulkan amaliy tajriba to'plangan. Virtual ijtimoiy xizmat tizimi rivoji ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy omillar hamda jamiyat hayotida mavjud realliklar bilan bog'liq turli ko'rinishdagi qiyinchiliklar, iqtisodiy muammolar hamda jismoniy sog'liqning yo'qotish natijasida dolzarblashib boradi. Ayniqsa, keyingi yillarda pandemiya shuni tasdiqladiki ijtimoiy xizmatlar sohalarini virtuallashtirish aholiga xizmat ko'rsatishda eng qulay vosita sifatida etirof etildi. Shu bois, virtual ijtimoiy xizmatlar qonuniyatlarini aniqlash, kishilik jamiyatiga sifatli virtual ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ayniqsa ijtimoiy ko'makka muxtoj shaxslarga virtual xizmatlarni tashkillashtirish masalasi obektiv zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda aholining turli qatlamlariga yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, jismoniy salohiyatini inobatga olgan holda amaliy yordam ko'rsatish tizimini virtuallashtirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. "Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak"[1.479]. Shu maqsad yo'lida, rivojlangan mamlakatlarning sinovdan o'tgan tajribalari asosida ijtimoiy xizmatlar tizimini yangicha mexanizmlarini tashkil etish va mamlakatimizda zamonaviy, ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish borasidagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bundan kelib chiqib, istiqbolli, ijtimoiy xizmatlarini virtuallashtirish qonuniyatlarini nazariy-metodologik tahlil etish ob'ektiv zaruriyatga aylanmoqda.

Keyingi vaqtlarda shaxsiylashtirilgan xizmat modellari shakllantirilmoqda. Maqsadli internet - marketing, 3D formatda bosib chiqarish va boshqa raqamli texnologiyalar har bir mijozning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishni shaxsiylashtirishga, natijada, resurslarni tejashga yordam beradi, talab va taklifning tuzilishi hamda hajmini muvofiqlashtiradi, aholining turmush darajasi va sifatini oshiradi[2.130].

Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sir mavjud. Ishlab chiqaruvchi va oxirgi iste'molchi o'rtasida vositachilar zanjirini qisqartirish, samarali sanoat va iste'mol kooperatsiyasini yaratish "umumiy iqtisodiyot"ning "mulk huquqlari to'plami" tushunchasining tarqalishi uchun zarur shart -sharoitlar yaratilgan. Tovarlariga birgalikda egalik qilish fenomeni rivojlanmoqda (ayniqsa, texnik jihatdan murakkab va qimmat, masalan, avtomobillar), bu oxirgi foydalanuvchilarning xarajatlarini tubdan kamaytirishi mumkin.

Uni alohida ishtirokchilarining iqtisodiy faolligiga qo'shgan hissasi ortib bormoqda, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi, moslashuvchan va harakatchan bo'lgani kabi, biznes-jarayonlarda muhim rol o'ynaydi; innovatsion startaplarni jadal rag'batlantirish amalga oshirilmoqda; "shaxslar iqtisodiyoti" sektori kengaymoqda va iqtisodiyot tuzilmasining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Masalan, dunyodagi eng ko'p Internet foydalanuvchilari (720 milliondan ortiq kishi) bo'lgan Xitoyning raqamli bozori jahon bozoridan mustaqil ravishda mavjud.

Yevropa Ittifoqining 400 milliondan ortiq Internet foydalanuvchilari bor, lekin uning bozori hali ham parchalanib ketgan. Shu munosabat bilan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari rahbarlari ushbu integratsion uyushma uchun yagona raqamli bozorni yaratish ustida faol ish olib bormoqda. Shunga o'xshash muammolar alohida mamlakatlar darajasida ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, Hindistonda 460 milliondan ortiq internet foydalanuvchilari bor. Ammo hind raqamli iqtisodiyoti ko'p tilli (undagi moliyaviy operatsiyalar bir necha tillarda amalga oshiriladi), bu raqamli bozorning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday boshqa keng ko'lamlı hodisa singari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat ijobiy natijalar bilan, balki har xil xavf va tahdidlar bilan ham bog'liq [3.336]. Bu ta'sirlarning ikkita asosiy manbai bor. Birinchidan, bu raqamli iqtisodiyotga xos bo'lgan va uning texnologik xususiyatlariga asoslangan yangi turdagi xavf va tahdidlarning paydo bo'lishi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida institutsional transformatsiya sodir bo'ladi, uning o'zi sabablari va tabiatidan qat'i nazar, barqaror va muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun beqarorlashtiruvchi kuchli omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish bugungi global jamiyatda dolzarb masala hisoblanadi. Jamiyatni raqamlashtirish orqali fuqarolar davlat organlari faoliyati, qolaversa, virtual xizmat ko'rsatish sifatining bevosita guvohi bo'lish imkoniyatiga ega. Masalan, yagona darcha faoliyati davlat va fuqaro o'rtasida bevosita raqamli bog'lanuvchi hisoblanadi. Raqamlashtirish korupsion holatlar va tanish bilish bilan bog'liq muammolarni oldini oladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2021 yil 6 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan nutqi.- Toshkent "O'zbekiston ovozi" gazetasi. № 223 (479), 2021 yil 7 noyabr.
2. Бытие: коллективная монография. - Ufa, 2001. -S. 130-152;
3. Nurulin R.A. Virtualnost kak osnovanie bytie bytiya. Kazan: Izd-vo KGU, 2004. - S. 336;
4. Gryaznova Ye.V. Virtualnaya realnost: analiz smyslovых elementov ponyatiya //Filosofskie nauki. 2005. №2. -S. 125-143;
5. <https://www.pv.uz/uz/news/raqamli-talimga-otishni-pandemiya-jadallashtirdimi>

MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Xashimov Sh.J.

Samarqand Iqtisodiyot va
servis instituti, f.f.b.f.d. (PhD) dotsent
90 227764 E-mail – *sheraxon64@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda madaniy turizmining rivojlanishi va uning mamlakat xalqaro imidji yuksalishiga ko'rsatgan ta'siri masalalari tahlil qilingan. Tarixiy-madaniy turizmning madaniy turizm tarkibida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari ko'rib o'tilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniy turizm, xalqaro imidj, tarixiy madaniy turizm, madaniyat, tarix, turmush tarzi va madaniy turizm.

DEVELOPMENT OF CULTURAL TOURISM AS AN IMPORTANT FACTOR OF IMPROVING THE INTERNATIONAL IMAGE OF UZBEKISTAN

Abstract. The article analyzes the development of cultural tourism in Uzbekistan and its impact on the rise of the country's international image. Issues of the role and importance of historical-cultural tourism in the structure of cultural tourism are considered.

Key words: Cultural tourism, international image, historical cultural tourism, culture, history, lifestyle and cultural tourism.

Bugungi kunda O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning madaniy turizmga bo‘lgan alohida e’tibori tufayli O‘zbekistonning boy turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, sayyohlik salohiyatini kuchaytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirishning huquqiy asosi 2019 yil 18 iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni va qonunosti me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan iborat bo‘lib, 2016 yil 2 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF-4861-sonli “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 16 avgustda PF-3217 sonli “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 6 fevralda PQ-3509-sonli “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 7 fevralda PQ-3514 sonli “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi.

Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob’ekti mavjud bo‘lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Hukumat uch oy muddatda ziyorat va an’anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo‘lgan marshrutlardagi ob’ektlar sonini 800 taga etkazish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilasin[1].

Madaniy turizm tarixiy, madaniy yoki geografik diqqatga sazovor joylarga tashriflarni o‘z ichiga olishi bilan boshqa turizm yo‘nalishlaridan ajralib turadi. Madaniy turizm turizmning eng ommaviy turi hisoblanadi. Bunday sayohatlarning asosiy maqsadi turistik diqqatga sazovor joylar tarix, arxitektura, san’at yodgorliklari, tabiiy va etnik xususiyatlar, xalqning tarixiy va zamonaviy hayoti va etnografik madaniyati, xalq hunarmandchiligi bilan tanishishdan iboratdir[2].

Madaniy turizm tufayli inson boshqa xalqlarning madaniyati, turmush tarzi bilan tanishadi, uning bilimi, dunyoqarashi kengayadi. Madaniy turizm natijasida turist sayohat qilinadigan joyning madaniyati, ma’naviy muhiti, aholisining an’analari, turmush tarzi, badiiy madaniyati, san’ati bilan tanishadi. Madaniy turizmda muzeylar, madaniy meros ob’ektlari, me’moriy obidalarga sayohatlar uyushtiriladi.

O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 8,2 ming madaniy meros ob’ektlari mavjud, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar – Xiva shahridagi Ichan qal’a, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi hamda Samarqand shahri hududida joylashgan bo‘lib, YuNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan[3].

2021 yil 6 aprelda O‘zbekiston Madaniy meros agentligi tashkil etilib, moddiy madaniy meros ob’ektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ‘ib qilish davlat reestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish, sohada davlat nazoratini amalga oshirish ushbu agentlik tomonidan amalga oshirilmoqda.

B.A.Erkayevaning fikricha, hozirgi vaqtda madaniy turizmning asosiy gumanitar funksiyalari sifatida quyidagilar qayd etiladi: - madaniy-ma‘rifiy va ta‘limiy; - madaniy muhofaza va saqlash; - aloqalar o‘rnatish va tinchlikparvarlik[4].

Bugungi kunda madaniy turizm boshqa xalqlarning madaniyati, tarixi, turmush tarzi bilan tanishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Madaniy turizmni butun yil davomida tashkil etsa bo‘ladi. Madaniy turizm doirasida sayyohlar muzeylarga tashrif buyurishi, tarixiy obidalarni tomosha qilishlari mumkin. O‘zbekistonda madaniyat turizmini rivojlantirish sohasida keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, xalqning boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob madaniy merosni asrab avaylashni kuchaytirish, sohani raqamlashtirish, innovatsion rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jahonning ilg‘or tajribalarini samarali qo‘llash ushbu sohadagi muhim vazifalardir.

Madaniy turizmning rivojlanishida tarixiy-madaniy turizm muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda hududlarda mavjud bo‘lgan tarixiy hamda arxeologik ob’ektlar muhim o‘rin tutadi. Tarixiy hamda arxeologik ob’ektlarning tarixiyliigi, hudud tarixida tutgan o‘rni hamda saqlanganlik darajasi unga qiziquvchi turistlar sonining yanada oshishiga olib keladi. Tarixiy-madaniy turizmga qiziquvchi sayyoh uchun bir manzilgohda bir necha ob’ektlarning mavjud bo‘lishi uning safar vaqti davomiyligi uzayishiga olib keladi. Tarixiy-madaniy turizm ob’ektlari haykallar, san‘at va hunarmandchilik namunalari, qadimiy shaharlar, qadimiy shaharlar xarobalari, harbiy madaniyat yodgorliklari (qal‘alar, mustahkam devorlar, inshootlar), me‘moriy ansambllar, saroy majmualari, ziyoratgohlar va ibodatxonalar, kichik me‘moriy shakllar (binolar, minoralar, arklar, zallar, panteonlar, maqbaralar) kabilardan iboratdir. O‘zbekiston tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish sohasida katta salohiyatga ega bo‘lib, tarixiy-madaniy meros yodgorliklarini aniqlash, asrab-avaylash, kelgusi avlodga etkazish masalasi bugungi kunda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Madaniy turizmni rivojlantirishga oid huquqiy asos, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarining mavjudligi, mamlakatda tinchlik-barqarorlikning ta‘minlanganligi, YUNESKO Xalqaro tashkilotining mamlakatimizdagi tarixiy arxeologik yodgorliklar va madaniy san‘at asarlarini tiklash, saqlash va muhofaza qilish bo‘yicha aniq mexanizm va dasturlarining mavjudligi, O‘zbekistonda “Xavfsiz turizm” konsepsiyasi va standartlari joriy etilib, turistlar uchun xavfsiz turizmning ta‘minlanganligi, xalqaro reytingda mamlakatimiz xalqaro reyting va indeksleri o‘rnining yaxshilanib borayotganligi madaniy turizmni rivojlantirish sohasida muhim

ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirishda texnologik omillarga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Texnologik omillar: - tarixiy me’moriy obidalarning internet va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali reklama qilinishi; - tarixiy madaniy-meroslarni o‘rganish bo‘yicha Veb-saytlarni yaratilishi va muntazam boyitib borilishi; - madaniy tarixiy ob’ektlar va muzeylarda Wifi internet zonalarining tashkil etilishi; - arxeologik yodgorliklarni muhofaza etishda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi; - mintaqada mavjud muzeylar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda raqamli texnologiyalardan foydalanish; - barcha tarixiy va madaniy resurslar zahiralarning yagona bazasini yaratish; - virtual sayyohlik turlarining tashkil etilishi va boshqalar[5]. Yangi madaniy mahsulotlar va tajribalarni ishlab chiqish, madaniy turizmni yangi bozorlarga olib chiqish va barqaror madaniy turizmni rivojlantirish orqali O‘zbekiston etakchi madaniy turizm yo‘nalishi sifatidagi mavqegini yanada mustahkamlashi mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Madaniy turizm ish o‘rinlari yaratish, daromad olish va infratuzilmaga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali iqtisodiy foyda keltiradi. Shuningdek, u sayyohlar va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni osonlashtirish, o‘zaro tushunish va hurmatni rivojlantirish orqali madaniyatlararo almashinuvni rivojlantiradi. Madaniy turizm, shuningdek, mahalliy an‘analarni saqlashga hissa qo‘shishi va kelajak avlodlar uchun madaniy merosni saqlashga yordam berishi mumkin[6]. Madaniy turizm yanada xilma-xil, inkluziv va barqaror global jamiyatga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lib, madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirish, mahalliy urf-odatlarini saqlash va iqtisodiy foyda olish orqali madaniy turizm turli madaniyat vakillari o‘rtasida o‘zaro tushunish va hurmatni rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi // Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2020 yil.
2. Raxmatullayeva N.N. Madaniy turizm va uning hozirgi kundagi ahamiyati.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021 yil, 173 bet.
4. Erkayeva B.A. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/49_Erkayeva.pdf
5. Erkayeva B.A. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/49_Erkayeva.pdf
6. To‘xtayev Q. Madaniy turizm va uning hozirgi kundagi ahamiyati. <file:///C:/Users/User/Downloads/87-89.pdf>
7. Яхшиликков, Жўрабой Яхшиликкович, and Ҳамида Абдумажидова. "Модернизация тушунчаси такомиллашувининг методологик масалалари хусусида." *Интернаука* 14-3 (2021): 91-94.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЛЕКЦИЯНИНГ ЎРНИ

Абдукаримов Жамолиддин Ашмадалиевич

Академик Бобожон Ғафуров номидаги Хужанд давлат университети
тарих ва ҳуқуқ факултети тожик халқи тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди Тел.+992 92 832 07 79; E.mail:
abdukarimov_1979@mail.ru

Аннотация

Мазкур мақолада сўз таълим жараёнида лекциянинг ўрни масаласи таҳлил қилинган. Шунингдек таълимнинг лекция методи, унинг аҳамияти ва самарадорлигини ошириш бир қатор дидактик имкониятлари кўрсатилган.

Калид сўз: Лекция, таълим, дидактика, олий таълим

Аннотация

В данной статье анализируется вопрос место лекции в учебном процессе. Также показан ряд дидактических возможностей повышения лекционного метода обучения, его значимости и эффективности.

Ключевые слова: Лекция, образование, дидактика, высшее образование

Annotation

This article analyzes the issue of the place of lectures in the educational process. A number of didactic possibilities for increasing the lecture method of teaching, its significance and effectiveness are also shown.

Keywords: Lecture, education, didactics, higher education.

Олий ўқув юртида таълим ва тарбиянинг асосий воситаларидан бири бу лекция ҳисобланади. “Лекция” сўзи латин тилидан олинган бўлиб, “қироат этиш” демакдир. Илк олий ўқув юрти 1158 йили Италиянинг Болонья шаҳрида вучудга келган бўлсада, таълим жараёнида лекциянинг ҳозирги шакли асосан XVIII асрдан бошлаб шаклланган.

Олий ўқув юрти профессор, дотсент ва катта ўқитувчиларигина аудиторияда лекция ташкил қилиш ҳуқуқига эга бўлиб, лексия орқали студентларни системали, мунтазам илмнинг муҳим масъалалари билан таништириб, бўлажак мутахассисларни ўзлари танлаган касбга нисбатан эътибори ва шавқу рағбатини ошириб борадилар.

Охирги уч аср мобайнида Евпорадан бошланган таълим услуги бутун дунё олий ўқув юртларига тарқалиб, бугунги кунда лекция таълим ва тарбияни ташкил қилишнинг асосий шакли сифатида тан олинган ва ундан афзал услуб ҳозирча мавжуд эмас. Мутахассисларнинг фикрича олий ўқув юртларида таълим ва тарбия мураккаб бир жараён бўлиб, ўзига хос жиҳатларга эга. Мазкур жараённинг марказида эса лекция туради. С.Р. Миротворсевнинг фикрича “лекция - бу дарс амалиётининг кулминацион лаҳзасидир” [3, 7].

Лекция таълим жараёнининг муҳим, асосий қисми ҳисобланиб, унда

талабалар ўқув материаллари билан танишадилар, уларда ўрганилаётган фанга нисбатан илк тасаввуротлар шаклланади. Лекцион машғулотларнинг асосий мақсади нафақат илмий ахборотни чуқур ва ҳар тарафлама ўрганиш, балки мавзуни илмий ўрганиш жараёнида бошқа манбалар билан таништиришга йўналтириш вазифасини бажаради. Бундан ташқари лекция, таълим шакли сифатида унинг бошқа турларига нисбатан бир қатор имтиёзларга эга. Шунини таъкидлаб ўтиш жоизки лекция таълимий ахборотнинг “камхарж” баён этиш воситаси ҳисобланади. [1, 3 с.]

Лекциянинг сифат ва самарадорлиги нафақат устознинг шахсиятига, балки унинг билими, бой заковати, педагогик маҳорати, ҳаёт таҷрибасига боғлиқдир. Устознинг илмий тайёргарлиги ва воизлиги, бу жараёнда ҳал қилувчи мақомга эга. Таълимнинг лекция методи самарадорлигини ошириш учун унинг бир қатор дидактик имкониятларига риоя қилиш талаб этилади: берилаётган материаллар талабалар учун тушунарли ва ҳаммабоп бўлиши лозим.

Талабаларга берилаётган ахборот ва маълумотлар илмий жиҳатдан асосланиб, илмнинг фундаментал ва муҳим масъалалари жумладан аждодларимизнинг маънавий ҳаёти, фан ривожланишида қўшган ҳиссалари, ҳозирги замон илмига оид янги ахборотлар ва бошқалар лекторнинг асосий эътибор марказида бўлиши лозим. Юқорида таъкидланганидек, мазкур жараённинг дидактик талабларидан яна бири, бу берилаётган материаллар талабалар учун тушунарли ва оммабоп бўлишидир. Бу усул орқали талабаларнинг фанга нисбатан шавқу рағбати ва илмий тафаккур маданияти ошиб боради. Лектор ва аудитория, икки томонлама алоқа лекциянинг муҳим дидактик талабларидан ҳисобланади. Бундан ташқари лекциянинг маълумотни етказиш усули, айёният ва муаммовий дарсга ўхшаш бир қатор методик талаблари мавжуд [4, 34 с.]

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек илмийлик принципи лекциянинг асосий талабларидан ҳисобланади. Олий ўқув юртларида лекция илмий асосда йўлга қўйилиб, унинг таркиби асосан аждодларимизнинг бой маънавий ҳаёти ва янги илмий кашфиётлар натижалари билан бойитилиши керак. Лектор доим ўзига нисбатан талабчан бўлиб, турли манбаларни ўрганиши, илмга оид янги кашфиёт ва тадқиқотлардан воқиф бўлиши ва ундан лекция жараёнида самарали фойдаланиши керак.

Машҳур рус олими В.О. Ключевскийнинг фикрича: “Профессор талабалар наздида олим, омма олдида санъаткордир. Агар у олим бўлса фақат талабаларга лекция ўқисин, агар санъаткор бўлса қаерда хоҳласа чиқиш қилаверсин, аммо талабалар наздида эмас” [2, 35 с.]

Бундан ташқари машҳур инглиз гуманист ва файласуфи Фрэнсис Бэкон олимларни уч тоифага бўлади. 1. “Олим- ўргимчак”- у бир умр ташқи оламдан беҳабар тўр тўқиш билан овора, унинг меҳнат маҳсули ўзидан бошқа бирор кишига фойда келтирмайди. 2. “Олим- чумоли”- у кечаю кундуз қиш ғами билан овора. Уйини турли хил керакли, керакмас “нарсалар” билан тўлдиради. 3. “Олим- асалари”- бу табиатнинг ажиб маҳлуқи бир қатра асал учун, узоқ масофага парвоз қилиб, миллионлаб гулларга қўниб, улардан бол йиғиб, асалга

айлантиради ва уни инсонга ҳада этади.

Ҳақиқий олим - лектор ҳам асалари кабидир. Ўзининг ҳалол ва машаққатли меҳнати туфайли манбалардан илмнинг болини жамлаб уни ўзининг “лаборатория”- сида қайта ишлайди ва ҳосил бўлган меҳнат маҳсулини шогирдларига улашади.

Лекция жараёнининг яна бир дидактик хусусияти кўрказмали қуроллардан самарали фойдаланишдир. Бу усул талабаларга тақдим этилаётган материалларни янада чуқурроқ англашга, илм ўрганишга бўлган иштиёқининг ошишида ва улар эстетик дидини шаклланишида катта аҳамиятга эга. Ҳозирги замонда илм ва техниканинг кескин ривожланиши таълим соҳасининг такомиллашишида бир қатор янги имкониятлар эшигини очиб бермоқда. Бу имкониятлардан фойдаланиш муаллимнинг касбий маҳоратига боғлиқ, зеро Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ўтказган тадқиқотларга биноан олинаётган маълумотларнинг 15 %-и эшитиш орқали 25%-и эса кўриш воситасида, агар иккаласи биргаликда амалга оширилса ахборотнинг 65%-и тингловчининг хотирасида сақланиб қолар экан [6].

Лекция муҳим тарбия воситасидир. Олий ўқув юрти таълим муассисалари бўлажак мутахассисларга илм- фан асосларини ўргатиш билан биргаликда уларни ҳар тарафлама етук комил инсон қилиб тарбиялаш вазифаси юклатилган. Ҳозирги глобаллашув жараёнида ёшларни ватанпарварлик, ўзликни англаш, инсондўстлик руҳида тарбиялаш барча жамиятшинослик фанлари, жумладан тарих фанининг асосий вазифаларидан ҳисобланиб, бу юксак ва эзгу мақсадни амалга оширишда бошқа йўналишлар қаторида назариявий ва амалий машғулотлар жараёнида фойдаланиш мақсадга мувофиқдир [5].

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, ҳозирда халқ таълими соҳасида амалга оширилаётган, таълимнинг инновацион усул ва шакллари тадбиқ этилаётган даврда баъзи бир муттаҳассисларнинг таълимнинг лекция усулига бўлган муносибатлари ўзгариб бормоқда, аммо таълимнинг лекция усули турли даврларда ҳозир ҳам келажакда ҳам ўзининг мазмун ва моҳиятини йўқотмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллоев С.А., Хайдаров Г.Х. Роль лекции в высшей образовании.- Худжанд, 1994.
2. Абдуллаев С.А. Высшая школа Таджикистана.- Худжанд, 1995.
3. Зиновьев С.И. Лекция в советской высшей школе.- М., 1962.
4. Хайдаров Г.Х. Советы первокурснику // Маҳорати педагог.- 1977.- № 4.-29 янв.
5. Хайдаров Г.Х. Готовить специалистов // Ленинабадская правда.- 1984.- № 30.- 2 фев.
6. Хайдаров Г.Х. О проблемах высшей школы // Ленинабадская правда.- 1995.- № 20.-18 март.

MUTOLAA TA'LIM JARAYONINING MUHIM ATRIBUTI SIFATIDA

Nurmatova Umida Jalolidinovna

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Ijtimoiy - gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti

E-mail: umidaxonnur2008@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada, mutolaa ta'lim jarayonining poydevori sifatida talqin qilinib, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan ma'naviy qadriyatlar negizida yosh avlodning ongu tafakkuriga singib borishi yoritib berilgan. Ta'limda bilim berish bilan birga yosh avlod ma'naviy, axloqiy tarbiyasini shakllantirib borishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mutolaa, mutolaa madaniyati, kitob, ommaviy kitobxonlik, kitobga mehr-muhabbat, kitobxon xalq, ma'naviy qadriyat, ta'lim-tarbiya, ilm.

Abstract. In the article, reading is interpreted as the foundation of the educational process, and it is explained how it is absorbed into the thinking of the young generation based on the spiritual values passed down from ancestors to generations. Along with giving knowledge in education, it is analyzed how the young generation is shaped by their spiritual and moral education.

Key words: reading, culture of reading, book, public reading, love for books, reading people, spiritual value, education, science.

Mamlakatimizda mutolaa madaniyatini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlar mutolaasi muammosini yuzaga kelish sabablarini mohiyatan o'rganish, tadqiq etish asnosida, ma'rifatni, ma'naviyatni yuksaltirish, intellektuallikni oshirish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bilimlilik, ma'rifatlilik, ijodkorlik ko'p jihatdan mutolaa bilan bog'liqdir. "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"[1:24]. Shu bois, turli yosh toifalarida "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Kitobxon mahalla" tanlovlari orqali yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, aholining kitobxonlik ko'nikmasini yanada yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

"Hozirgi paytda, deydi – Prezident Sh.Mirziyoyev, - hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi"[2:47]. "Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi, yangi ixtirolar va ishlanmalar ajoyib, ammo o'qishni unitish uchun sabab emas. Axir o'qish bizni yanada chiroyliroq qiladi, uning yordami bilan biz eng yuksak donolikni anglaymiz. O'quvchi har kim bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega. Bunday odamlar muqarrar ravishda o'qimaganlarni boshqaradi, chunki ko'p kitob o'qiydigan kishilarni manipulyatsiya qilish qiyin"[3:148-149]. Darhaqiqat, kitob va mutolaa insonga bilim berish bilan birga ularda ma'naviy, axloqiy tarbiya hamda mafkuraviy immunitetini oshirishga xizmat qiladi.

Mutolaa har doim ta'lim jarayonining poydevori, asosi bo'lib kelgan. Shu boisdan, bugun yurtimizda mutolaa uchun keng imkoniyatlar va zamonaviy qulayliklar

yaratilgan. Bulardan oqilona foydalanish, farzandlarimiz va nabiralarimizni buyuk bobolarimizga munosib vorislar etib tarbiyalash, mamlakatimizni tom ma'noda, kitobsevar millat sifatida tanitish eng dolzarb masalalardan biridir. Professor N.Shermuhamedova ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida kitobxonlik kunlari, oliy ta'lim muassasalarida romanshunoslik badiiy oqshomlari, mahallalarda katta-kichik kutubxonalar tashkil qilindi. Kitob mutolaasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi tanqidiy fikrlovchi, yangi tashabbus va g'oyalar bilan O'zbekistonning tiklanishdan yuksalish sari barqaror taraqqiyotini ta'minlashga munosib hissa qo'shishga tayyor yoshlar tarbiyasini nazarda tutadi"[4:20]. Zero, bilimlilik, ma'rifatlilik va keng dunyoqarashning asosiy omili mutolaadir.

Prezident Sh.Mirziyoyev yoshlarga millatini, tarixini, qayerdan kelayotgani-yu qay manzil sari ketayotganini bilmog'i, anglamog'i uchun ham, xalqining, Vatanining sha'nu shavkatini baland ko'tarib, buyuk bobolari nomiga loyiq va munosib farzand bo'lib kamol topmog'i uchun ham "Kitob o'qing", deyapti. Mutasaddi tashkilotlar rahbarlarini, ota-onalarni yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda ularning qalbida kitobsevarlik tuyg'usini uyg'otish, mutolaa madaniyatiga o'rgatish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishga, buning uchun sharoit yaratib berishga undayapti.

"Biz, deydi - Prezident Sh.Mirziyoyev, - o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"[5].

Xalqimizda kitobxonlik borasidagi ma'naviy qadriyatlarimiz zamonlar osha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu o'rinda, shox va shoir Zaxiriddin Muhammad Boburning farzand tarbiyasi, kitobsevarligi xususida bitilgan hayotiy o'gitlariga to'xtalib o'tamiz. Bizga ma'lumki, Zaxiriddin Muhammad Bobur qalbini to'ldirgan otalik tuyg'usi bitilgan "Mubayyin" nomli she'riy kitobini Humoyunga taqdim qiladi. Shunda, "Humoyun shu vaqtgacha otasidan olgan sovg'alar orasida eng ulkani va bebahosi - mana shu she'riy kitob ekanini sezib, uni qayta-qayta ko'zlariga suradi..."[6:419]. Eng muhimi, uning otasiga bo'lgan mehri, ixlosi shu kitob tufayli yangi bir kuch bilan o'sib boradi. Fikrimizcha, bunday tarixiy voqelik inson, insoniyat o'tmishi, buguni va istiqboli xususida fikr yuritadi. Kishi mutolaa jarayonida o'tmishdagi voqealar rivojining muayyan yo'llarini aniqlash asnosida tegishli xulosalar chiqaradi, ijodiy tajribalarni kelajakda davom ettirishga intiladi. Shunday ekan insonning hayotida mutolaa ma'naviy qadriyatlar va ta'lim-tarbiya negizida ongu-tafakkuriga singib boradi. "Biz tarixan ulkan madaniyatga ega xalqning bilimi kuchli, ma'naviyati yuksak avlodlarimiz. Jahon tamadduniga o'ziga xos ulush qo'shgan buyuk ajdodlarimiz Yusuf Xos Hojib, Az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur kabi go'zal qalb sohiblari ham mutolaa orqali komillikka erishgan"[7:86].

Xulosa qilib aytish mumkinki, mutolaa bilim manbai, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish vositasidir. Bu sizga atrofda dunyo bilan tanishish, fikrlar,

his-tuyg‘ular, ehtiyojlarni saralash, hayot yo‘lini topish, millatning ma’naviy salomatligi va kelajagi bog‘liq bo‘lgan o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturi va axloqiy ko‘rsatmalarni belgilashga imkon beradi. Ta’limda zamonaviy bilim asoslarini berish bilan birga yoshlar ongida kitobxonlik madaniyatini ma’naviy ehtiyoj sifatida shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 24-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – B.47
3. Nurmatova U.J. Kitob mutolaasining falsafiy-gnoseologik mohiyati // International journal of philosophical studies and social sciences. ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039. Vol 1, №1. 2021. –B.145-152
4. Shermuxamedova N.A. Yangilanayotgan O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim va tarbiya mutanosibligini ta’minlash omillari. “Xozirgi zamon falsafasi: xolati va taraqqiyotining istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. 2021. 15-aprel, 20-b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020- yil 29 dekabr. www.president.uz
6. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. Roman. - T.: “Yangi asr avlodi”, 2021. 419- b.
7. Nurmatova U.J. Mutolaaning tarixiy umumnazariy asoslari // Falsafa va hayot. –Toshkent, - № SI-1(2021). –B. 80-87.
8. Яхшиликов, Жўрабой Яхшиликович, and Ҳамида Абдумажидова. "Модернизация тушунчаси такомиллашувининг методологик масалалари хусусида. *Интернаука* 14-3 (2021): 91-94.

**TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA BUYUK
ALLOMALARIMIZNING QARASHLARI**

Sultonova L.S.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda buyuk allomalarning qarashlarida o‘qituvchi asosiy o‘rinda turishi, u o‘z pedagogik mahorati va yaxshi fazilatlar bilan o‘quvchilarga namuna bo‘lishi, yaxshi tarbiya ko‘rgan bo‘lishi, chuqur bilimli va ma’rifatparvar inson bo‘lishi kerakligi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim-tarbiya, ta’lim tizimi, kasbiy tayyorgarlik, inson kamoloti, bilim olishi.

Abstract. In this article, in the views of great scientists, the teacher is in the main place in the organization of the educational process, he should be an example to

students with his pedagogical skills and good qualities, he should be well educated, deeply knowledgeable. and it is said that he should be an enlightened person.

Key words: Education, education system, professional training, human development, learning.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, jahonning rivojlangan davlatlari qatoridan o‘zining munosib o‘rnini egallashi sari dadil qadamlar bilan ilgarilab borar ekan, shubhasiz, shu mustaqillikka va uning porloq istiqbolini ta‘minlovchi inson omillarining ahamiyati tobora ortib boraveradi. Shuning uchun ham, mustaqilligimizning ilk damlaridanoq, respublikamiz hukumati tomonidan mutaxassislar tayyorlash, yoshlarga tegishli ta‘lim-tarbiya berish masalalariga alohida e‘tibor berib kelmoqda. Talim tizimini rivojlanishi, barkamol shaxsga ta‘lim-tarbiyani to‘g‘ri berib borish jonkuyar pedagoglar qo‘lidadir. Shunday ekan, ularning kasbiy tayyorgarliklari, bajaradigan vazifalarini to‘g‘ri tashkil etish masalasi ahamiyatga molikdir.

Hozirgi davrda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ularning mahoratlarini yanada yuksaltirish, shart-sharoitlar yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa kasb ta‘limi o‘qituvchilarga yuksak darajada mas‘uliyat yuklaydi, eng avvalo pedagog uchun darsning sifat va samaradorligiga erishish muhim masalaga aylanmog‘i zarur [1].

Ta‘lim tizimi barcha bo‘g‘inlarining axborot texnologiyalaridan foydalanishi ta‘limning axborotlashuvida kundalik talabni keltirib chiqaradi, bu esa, o‘z navbatida kasb ta‘limi o‘qituvchisidan yangi axborotlar muhitida bemalol ishlay oluvchi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni talab etadi. Ta‘lim tarbiya jarayonini tashkil etishda buyuk allomalarning fikrlari katta ahamiyatga ega:

Beruniy ta‘lim-tarbiya sohasida o‘sha zamonlarda, hatto hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan fikrlarni ilgari suradi. U ta‘lim berish jarayonida ta‘lim oluvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsa yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik, uzviylik, izchillik, mavzularni qiziqarli asoslab, ko‘rgazmali bayon etish va shunga o‘xshash narsalarga e‘tibor berish lozimligini uqtirgan.

Beruniy ta‘kidlashicha, inson kamolotida uch narsa muhimdir, buhozirgi ma‘rifat, ilm-fanni e‘tirof qiluvchi-irsiyat, ijtimoiy muhit va to‘g‘ri tarbiyadir. Yana u inson kamolga etishi uchun eng muhim omilmuallimning ilm-ma‘rifatli bo‘lishi bilan birga yuksak axloqli bo‘lishi ham kerakligini e‘tirof etadi.

Ibn Sino boshsa mutafakkirlar kabi o‘zining ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlarini falsafiy, ijtimoiy qarashlari bilan bog‘liqholda ifodalab, maxsus risolalarda talqin etgan.

Ibn Sino inson kamolotining bosh mezoni sanalgan ma‘rifatni egallashga da‘vat etadi. Ilm-fanning tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib, avlodlarga etkazishini e‘tirof etib, bu maqsadga etishish uchun qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik zarurligini ta‘kidlaydi [2].

Ibn Sino ta‘limda bolalarni maktabda o‘qitish zarurligini, ta‘lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga amal qilish kerakligini ta‘kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta‘limda engildan og‘irga borish orqali bilim berish;

- mashqlarning bola yoshiga mos bo‘lishi;
- jamoa bo‘lib o‘qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolaning qiziqishi, mayllari va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Ta’lim oluvchilarga bilim berish o‘qituvchilarning mas’uliyatli burchidir. Ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritib, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi;

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabalarning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;

- fanga qiziqitira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘ota olish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Mirzo Ulugbek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish uchun mudarrislardan o‘quvchilar bilan rasadxonada amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishni talab qilib, bunga o‘zi rahbarlik qildi. Mutafakkirning fikricha, bolalarning bilim olishni istamasligi mudarrislarining nodonligidandir, chunki bunday tarbiyachilar ta’lim usullarini noto‘g‘ri qo‘llash bilan bolalarning bilimga qiziqishini so‘ndiradi. Mudarris avval o‘zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini chuqur egallashi, o‘z ustida tinmay ishlashi, bilimlarini takomillashtirib borishi lozimligini e’tirof etib, beriladigan bilimlarning yuqori saviyada bo‘lishiga e’tibor berishga da’vat etadi [3.3 b.].

Ulug‘bek o‘quvchi hayotida darsliklarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, ularning mazmuniga alohida e’tibor beradi va mualliflar oldiga jiddiy talablar qo‘yadi. Uning fikricha, darsliklar qaysi fan, voqea va hodisa aks ettirilishidan qat’i nazar, hayotdanhaqiqatdan uzoq bo‘lmasligi, sodda, tushunarli tilda yozilishi lozim.

Shuningdek, Ulug‘bek darsliklar qanchalik mazmunli bo‘lmasin, ta’limda o‘qituvchi asosiy o‘rinda turishini, u o‘z pedagogik mahorati va yaxshi fazilatlar bilan o‘quvchilarga namuna bo‘lishi, yaxshi tarbiya ko‘rgan, chuqur bilimli va ma’rifatparvar inson bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Shavkat Mirziyoev “Yangi O‘zbekistonstrategiyasi”.– Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2021. 464 bet
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993, 190-191 betlar.
3. Mavrulov A. Uchinchi Renessans-munosib kelajak poydevori, “Yangi O‘zbekiston”, 2020 yil 6 oktabr, 190 son, 3-bet.

TRANSPORT MUHANDISLARINI TAYYORLASHGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

Ruziyev Islambay Samandarovich

Urganch davlat universiteti, t.f.n,dotsent
islambay68@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada kompetensiyaga asoslangan yondashuvning nazariy va uslubiy asoslari, uning ahamiyati va transport muhandislarini tayyorlashda qo'llanilishi tahlil qilingan. Shuningdek, transport muhandislarini kompetensiyaga asoslangan holda tayyorlash usullar va texnologiyalari, tamoyillari ni joriy etish orqali bo'lajak transport muhandislarni tayyorlash sifatini rivojlantirishga va ularning mehnat bozorida muvaffaqiyatiga ahamiyati keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kompetentlik, bilim, usul, texnologiya, kasb, mahorat, shahs, muxandis, transport.

Hozirgi davrda jamiyatimizning jadal rivojlanishi oqibatida barcha sohalarda, hususan transport sohasida muammolarini hal qilishga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj yanada ortmoqda. O'z navbatida, soha uchun muhandislarini tayyorlashda kompetentlik asosiy tushunchaga aylanmoqda.

Kompetentlik darajasi shaxsning o'z bilim va ko'nikmalarini turli sharoitlarda samarali qo'llash, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va qo'yilgan vazifalarning maqbul yechimlarini topish qobiliyati bilan belgilanadi. Ushbu tushuncha texnik bilimlardan tashqari, tahlil qilish, qaror qabul qilish, muloqot qilish, boshqarish, muammolarni hal qilish va muayyan sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan boshqa ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Kompetentlik ham umumiy, ya'ni hayotning turli sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan va tor professional kontekstga xoc qo'llanilishi mumkin. Zamonaviy ta'lim va boshqaruvda ko'pincha kompetentlikga asoslangan yondashuv qo'llaniladi, bu nafaqat bilimlarni, balki o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli moslashish va professional faoliyat uchun zarur bo'lgan vakolatlarni rivojlantirishga qaratilgan[1,13b].

Transport muhandisining kompetentligi kasbning xilma-xil talablarini aks ettiruvchi turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu yerda transport muhandisi kompetentligi tuzilishining ba'zi asosiy elementlari:

1. Texnik bilim va ko'nikmalar: Transport muhandisi o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, transport tizimlarini loyihalash, modellashtirish, sinovdan o'tkazish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish muhimdir.

2. Transport xavfsizligi bo'yicha bilim: Transport muhandisi transport tizimlarida xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va usullarini tushunishi kerak, bu esa transport infratuzilmasini loyihalash va ishlatishda muhim ahamiyatga ega.

3. Boshqaruv ko'nikmalari: Boshqaruv ko'nikmalari transport muhandislik jarayonida loyihalarni tashkil qilish, guruhlarini, resurslarni boshqarish va belgilangan

muddatlarga rioya qilishda zarur bo'ladi.

4. Ko'p tarmoqli jamoalarda ishlash: Transport muhandisi oddiy va ko'p tarmoqli jamoalarda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi hamda arxitektorlar, ekologlar, shaharsozlikchilar kabi boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish kerak.

5. Muloqot ko'nikmalari: muhandis korxonalar mijozlari bilan hamkasblar, davlat organlari vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

6. Axloqiy va kasbiy ko'nikmalar: Transport muhandisi yuqori axloqiy me'yorlarga muvofiq o'z ishi orqali jamiyatga, atrof-muhitga va fuqarolar xavfsizligiga hisobga olgan holda harakat qilishi kerak[3,280b].

Bular faqat transport muhandisi kompetentligining ba'zi jihatlari bo'lib, ular muayyan mutaxassislik, faoliyat sohasi va mehnat bozori talablariga qarab to'ldirilishi mumkin.

Transport muhandislarini tayyorlashda quyidagilarni o'z ichiga olgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo'llashimiz mumkin:

- kompetensiyaga asoslangan tayyorgarlik maqsadlarini belgilash
- o'quv dasturlarini moslashtirish
- talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish
- ish beruvchilar bilan hamkorlik

Transport muhandislarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish bitiruvchilarda ushbu sohadagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Transport muhandislarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanishning ba'zi jihatlari quyidagilardan iborat[5,30b]:

1. Kompleks kompetensiyalarni shakllantirish: Kompetensiyaga asoslangan yondashuv nafaqat texnik bilimlarni, balki muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan muloqot, loyihalarni boshqarish, analitik fikrlash kabi umumiy madaniy, shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

2. Amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish: Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda muhim xususiyatlaridan biri bilimlarni amalda qo'llashga katta e'tibor beriladi. Undan foydalangan holda muhandislik sohasi bo'yicha o'qitilgan talabalar haqiqiy loyihalar bilan ishlash tajribasiga ega bo'lib, berilayotgan materialni yaxshiroq o'rganishga yordam beradi.

3. Ta'limni individuallashtirish: Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishni ham o'z ichiga oladi, bunda uning kuchli tomonlarini rivojlantirish, o'qitishni uning ehtiyojlariga moslashtirish va shu orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish imkonini beradi.

4. Natijalarni kompetensiyalarga qarab baholash: Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning muhim elementi talabalarning kompetensiyalari orqali erishilgan yutuqlarini baholash bo'lib, u nafaqat bilim darajasini, balki o'quv jarayonida egallagan ko'nikmalarini ham baholash imkonini beradi.

5. Mustaqil faoliyatni rag'batlantirish: Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarning mustaqil faoliyat olib bo'rish, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi hamda moslashuvchan qobiliyatlarni va doimiy mustaqil o'rganish qobiliyatini yaxshilaydi.

O‘z vavbatida, ushbu tamoyillar transport muhandislik ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilariga nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki transport sohasida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish imkonini beradi.

Transport muhandislarini kompetensiyaga asoslangan holda tayyorlash quyidagi usullar va texnologiyalardan foydalanish mumkin[6,26b].:

- loyihaga asoslangan ta'lim
- muammoli ta'lim
- Keys usuli
- interfaol usullar va boshqalar.

Yuqorida ko‘rsatilgan usullar va texnologiyalar qo‘llash orqali talabalarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishi mumkin:

1. Loyihaga asoslangan ta'lim: Bu usul talabalarni transport sohasidagi muhandislik masalalariga qaratilgan masalalarni hayotdagi haqiqiy loyihalarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Loyihaga asoslangan ta'lim amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, jamoa bilan ishlash, muammolarni yechish va real holatlarda qaror qabul qilishga yordam beradi.

2. Muammoli ta'lim: Bu yondashuv transport muhandislari duch keladigan muayyan muammolarni hal qilish nazariyasi va usullarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Muammolar hayotiy vaziyatlardan olinishi mumkin, bu esa talabalarda tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Keys metodi: Bu usuldan foydalanish talabalarga amaliyotda uchraydigan real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va muhokama qilish imkonini beradi, bu esa tahlil qilish ko‘nikmalarni rivojlantirishga, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda va transport sohasidagi muhandislik faoliyatining murakkabliklarini tushunishga yordam beradi.

4. Interfaol usullar: Munozara, ishbilarmonlik o‘yinlari, simulyatsiya kabi interfaol usullardan foydalanish talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantirish, o‘zaro tajriba almashish, shuningdek, muloqot va muammoli izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish: O‘quv jarayonini AKTdan foydalangan holda modernizatsiya qilish jumladan, talabalarga virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar, vebinarlar zamonaviy bilim va resurslardan foydalanish, shuningdek zamonaviy transport muhandislari uchun muhim raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi[2,397b].

Bu usul va texnologiyalardan ta'lim muassasalarida hamda transport muhandislari uchun o‘quv dasturlarida foydalanish ushbu sohada mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta'minlash imkonini yaratadi.

Yuqoridagilarga asosan, transport muhandislarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv hozirgi davr talabi hisoblanadi . U talabalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki ularni real vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Shunig uchun kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish orqali bo‘lajak transport muhandislarni tayyorlash sifatini rivojlantirishga va ularning mehnat bozoridagi muvaffaqiyatiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреева, Г. М. Компетентностный подход в образовании: проблемы и перспективы / Г. М. Андреева // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. - 2005. - № 1. - С. 3-14.
2. Adilov V.B. Texnika oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalar yordamida talabalar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021y. – №2– В 397-402. (13.00.00; № 30) .
3. Юдина Е. Г. Формирование профессиональных компетенций студентов в инженерном образовании: монография / Е. Г. Юдина. - Москва: Центр образовательных технологий, 2012. - 280 с.
4. Ключников В.А. Педагогика: учебник. -Москва: Академия, 2009. - 544 с.
5. Дорофеев А. Профессиональная компетентность как показатель качества образования // Высшее образование в России. — 2005. - №4. - С.30-33
6. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня. - 2004. - №8. -С.26

**MA’NAVIY-AXLOQIY ERKINLIK VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH
MASALALARI**

Sultonova L.S.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi,

Abduraximova S.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
400-23 ECBT guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatda ma’naviy-axloqiy jihatdan real shakllangan shaxslar erkinligi millatning mavjudligi xususida fikr mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, milliy o‘zlikni anglashning asosini, ma’naviy-axloqiy barkamollik tashkil etishi ilmiy-falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy erkinlik, shaxs erkinligi, millat, xalq, an’ana va qadriyatlar.

Annotation: In this article, opinions are expressed about the existence of the nation, the freedom of individuals, which is realistically formed in the society from a spiritual and moral point of view. Also, it was scientifically and philosophically analyzed that the basis of national identity awareness is spiritual and moral integrity.

Key words: Self-awareness, spiritual and moral freedom, individual freedom, nation, people, traditions and values.

Har bir millatning demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish orzu-intilishlarining amaliy natijasi, shu millatga mansub shaxslarning: irodasi erkin, ruhiyati sog‘lom, e’tiqodi mustahkam, imoni baquvvat aql-idroki va ma’naviy-axloqiy jihatdan o‘zligini anglashiga bog‘liq bo‘ladi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek: “Umuman olganda, insoniyat tarixi ma’naviyat –

insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi, er yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o'zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab etgan har qanday odam bu haqda o'ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin"[1].

Haqiqatda ham, bir tomondan, jamiyatda ma'naviy-axloqiy jihatdan real shakllangan shaxslar erkinligi millatning mavjudligi va istiqbolini ta'minlaydi hamda xalqni millat darajasida birlashtirishga qodirdir. Ikkinchi tomondan esa, bunday shaxslardan tashkil topgan jamiyatni umuminsoniy ma'naviy-axloqiy tamoyillar va normalarga mos ravishda boshqarish samaradorligi yuqori bo'ladi.

Insoniyat tarixida demokratik tamoyillarga ko'ra rivojlangan davlatlarning tajribalariga, hozirgi taraqqiyoti jarayonlari natijalariga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy-iqtisodiy hayot asosini, faqatgina fan, texnika, texnologik rivojlanish emas, balki ularni tashkillashtirishdagi intellektual salohiyat, murakkab tarixiy davrlarda tafakkur yangilanishi muhim ahamiyat kasb etganligi ko'rinadi. Jamiyatda madaniy-texnik taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy mohiyatini, istiqbollarni anglamasdan va ana shu maqsadda millat birlashmasa, uning yuksalishini tasavvur qilish mumkin emas. Chunki, har qanday yuksalishning asosini milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy barkamollik tashkil qiladi.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, shaxs muayyan tarixiy sharoitlarda, jamiyatning «ommaviy axloq normalariga» (to'g'rirog'i, jamoatchilikning konservativ fikriga) buysunishga majbur bo'ladi. Uning o'z hayot tarziga mos jihatlarini amaliy faoliyat dasturiga aylantiradi va bundan «ruhiy qoniqish effektiga» sazovor bo'ladi. Buni asoslash uchun esa, faylasuflar insonni tarixiy davrning mahsuli, degan nazariyani ilgari suradilar. Demak, insonni, shaxs mavjudligini tarixiy davr bilan bog'lab qo'yadigan bo'lsak, uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi passivligini e'tirof qilgan bo'lamiz. Vaholanki, har qanday insonning shaxslik maqomi mavjud tuzumga, zamonga (hatto, faol) moslasha olganliklarida emas, balki davrning xarakterini o'zgartirishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar, millat etakchilari tarixning har qanday sinovlari oldida o'zini yo'qotmasdan, qat'iyat bilan butun salohiyatini shu davr taqozasini millat istiqboli, yosh avlodni ma'naviy yuksaltirish maqsadi yo'lida foydalana olganligi bilan etirofga sazovor bo'lganlar. Boshqacha aytganda, milliy taraqqiyot g'oyalarini amalga oshirish yo'lida o'zini fido qilishga qodir insonlarga buyuk shaxs maqomiga munosib bo'ladi.

Ijtimoiy siyosiy-munosabatlarni boshqarishda axloqiy norma va tamoyillarning samaradorligi masalasi millatning o'z-o'zini anglash muammosi bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Millat, xalq o'zini ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning haqiqiy sub'ekti, moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi, milliy til, tarixiy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar egasi va davlatga mansubligini, manfaatlari xamda extiyojlari umumiyligini tushunib etishi bilan taraqqiyotning milliy omiliga aylanadi [2].

Shunga ko'ra, bu muammolarni butun dunyo miqyosida bartaraf etishga kompleks-sistemali yondashuvdan boshqa muqobil yo'l yo'qligini barcha anglab etmoqda. Eng muhimi, xalqaro siyosiy tashkilotlarni shakllantirish va mavjud

institutlar faoliyatini takomillashtirish zaruriyati tug‘ilmoqda. Bu tashkilotlarning asosiy vazifasi mazkur muammo echimiga xalqaro jamoatchilikning e’tiborini jalb qilish va jamiyat siyosiy kuchlarini o‘zaro konsensusga olib kelish yo‘llarini qidirib topishdan iborat [3].

Millatning ruhiyatidagi, yuqorida ko‘rsatilgan, xususiyatlarning deklarativ xarakteri, mavhumligi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar barqarorligiga, milliy mustaqillik g‘oyasiga, mafkurasiga putur etkazadi, ijtimoiy-siyosiy parokandalikka olib keldi. O‘zbek milliy davlatchiligi tarixidagi zalvorli davrlar ham, fojeali kunlar ham, millatning ma’naviy-axloqiy qiyofasida o‘z muhrini qoldirgan. Ziddiyatli tarixiy davrlarda shakllangan millatning mentalitetida, xarakterida g‘ayriaxloqiy illatlar mavjudligi ham tarixiy fakt. Ya’ni, mustabid tizimga astoydil xizmat qilgan mansabparastlar, maddohlar, ikkiyuzlamachilar, laganbardorlarida siyosiy tizimning muntazam olib borilgan ayovsiz ta’qiblarida sotqinlik qilish orqali ma’lum imtiyozlarga egalik qilishga intilish kayfiyati ustuvorlik qilgan. Bu haqda I.Karimovning «Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch» asarida ma’naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan jirkanch illat: «Bu – sotqinlikdir. Shu bois bunday odamlardan ogoh bo‘lishimiz, ularga yonimizda o‘rin bo‘lmasligi lozim», degan edi [4].

Insonning o‘z ijtimoiy-siyosiy faoliyatini tanqidiy baholashi ham, milliy o‘zligini anglashi ham, ma’naviy-axloqiy rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan mezon hisoblanadi. Eng muhimi, birinchidan, inson, shaxs faqat erkin bo‘lgandagina, o‘z tarixini, hozirgi faoliyatini xolis tahlil qilishi va baholashi mumkin. Ikkinchidan, uning erkinlikka bo‘lgan ishonchi va intilishi ijtimoiy-amaliy harakatini belgilaydigan ma’naviy-axloqiy asoslarning mustaxkamligiga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. 122 bet.
2. Aristotel. Politika. III, V, 8 // Aristotel. Politika. Afinskayapolitiya. –M.: МБИС, 1997.
3. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993, 190-191 betlar.
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: 122 bet.

INKLYUZIV TA’LIM IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNI OLDINI OLISHNING OMILI SIFATIDA

Xashimova Sayyora Xolmurodovna

Samarqand Davlat Chet tillar instituti Gumanitar fanlar
va axborot texnologiyalari kafedrası o‘qituvchisi
91 5592017 E-mail – sayyora72@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan o‘smirlarning emotsial zo‘riqishining oldini olishda inklyuziv ta’limning tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari tahlil qilingan. Davlat siyosatida ushbu masalaga munosabat masalalari ko‘rib o‘tilgan.

Kalit soʻzlar: Inklyuziv taʼlim, imkoniyati cheklangan oʻsmirlar, emotsional zoʻriqish, ijtimoiy siyosat, psixologik tarbiya.

INCLUSIVE EDUCATION AS A FACTOR OF PREVENTING EMOTIONAL STRESS IN DISABLED ADOLESCENTS

RESUMI. The article analyzes the role and importance of inclusive education in preventing emotional stress of adolescents with disabilities in Uzbekistan. Issues of attitude to this issue have been considered in the state policy.

Key words: Inclusive education, teenagers with disabilities, emotional stress, social policy, psychological education.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda sogʻlom avlodni tarbiyalash, ularning jismoniy va maʼnaviy kamolotini taʼminlash masalasi davlat siyosatidagi muhim masaladir. Shu bilan birgalikda jamiyatda imkoniyati cheklangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻlgan fuqarolarning maʼlum bir qismi ham mavjud boʻlib, davlat ularning jismoniy va maʼnaviy kamoloti masalasida doimiy gʻamxoʻrlik qilib kelmoqda. Imkoniyati cheklangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻlgan oʻsmirlarning emotsional zoʻriqishini oldini olishda, ularning bilimi, dunyoqarashini shakllantirishda inklyuziv taʼlim muhim oʻrin tutadi.

Inklyuziv taʼlim (ingliz tilidan olingan boʻlib, inclusive, inclusion-uygʻunlashmoq, uygʻunlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish maʼnolarini bildiradi) bu davlat siyosati boʻlib, nogiron va mahsus extiyojli bolalar oʻrtasidagi toʻsiqlarni bartaraf etish, maxsus taʼlimga muhtoj bolalar va oʻsmirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qatʼiy nazar, oilaning faol ishtirokida, hususan bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumtaʼlim tizimiga toʻliq koʻshishni ifodalovchi taʼlim tizimidir[2].

Imkoniyati cheklangan oʻsmirlarni turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, toʻlaqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek, oʻzlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish masalasiga davlat siyosatida katta eʼtibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda kam taʼminlangan, nogironligi boʻlgan insonlar, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoev, - Bu borada Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi, Nogironligi boʻlgan insonlarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi tashkil etilganini qayd etish lozim[1].

BMT maʼlumotlariga koʻra dunyo miqyosida 450 milliondan ortiq kishi ruhiy va jismoniy nuqsonga ega. Bu sayyoramizning oʻndan bir qismini tashkil etadi. Shuni aytish joizki, umumjahon sogʻlikni saqlash tashkiloti maʼlumot berishida dunyoda bunday kishilar soni 13%ga yaqin va dunyo miqyosida 500 milliondan ortiq odam (yaʼni er yuzidagi har bir oʻninchi odam) imkoniyati cheklangan shaxslar sirasiga kiradi, shulardan 150 millioni bolalardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Sogʻliqni Saqlash Tashkilotlarining maʼlumotlariga koʻra er kurrasi aholisining 20% turli xil, jismoniy, aqliy, sensor va harakat aʼzolarida nuqsonlari boʻlgan insonlar

tashkil qiladi. Sog‘liqni saqlash, Mehnat va Aholini Ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklarining ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda turli xil nuqsoni bo‘lgan bolalar, ya’ni aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 12%, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (kar bolalar) 5%, zaif eshituvchilar 7%, ko‘zi ojizlar 7,5%, zaif ko‘ruvchilar 5%, tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar 2,5%ni tashkil etadi. YuNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, ular orasida alohida yordamga muhtoj bolalar hammasi bo‘lib 200 million atrofida ekanligi qayd etilgan[3].

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o‘smirlar, (bolalar, shaxslar) uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan barcha o‘smirlar, (bolalar) asosiy maktablarda inklyuziv ta’lim olish imkoniyatiga egadir. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar maktablarda malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlangan bo‘lib, nogironligi bo‘lgan o‘smirlar (bolalar)ning ehtiyojlariga moslashtirilgan qulay infratuzilma va o‘quv materiallari bo‘lishini ta’minlash masalasiga ham e’tibor kuchaytirilmoqda. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar 90 ta bo‘lib, bulardan: 50 tasi aqli zaif bolalar uchun, 19 tasi kar va zaif eshituvchi bolalar uchun, 17 tasi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun, 3 tasi tayanch a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun, 1 tasi nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardir. Bu maktab-internatlarda nogironligi bo‘lgan 21231 nafar bolalar ta’lim olishadi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qaroriga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu maqsadda 2021/2022-o‘quv yilida respublikada ilk marotaba tajriba sifatida hududlarning markazidagi shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida bittadan umumta’lim maktablarida (jami 31 ta) inklyuziv ta’lim tizimi joriy etildi va unda 82 nafar bolalar ta’lim olishi ta’minlandi.

2022/2023 o‘quv yilida qo‘shimcha talab va ehtiyojlardan kelib chiqib 146 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi inklyuziv sinflar tashkil etilib unda 395 nafar nogironligi bo‘lgan bolalar ta’lim olishmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4.5-vazifasiga binoan, 2025 yilga borib O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ulushi jami maktablarning 51 foizga, inklyuziv ta’lim shartlarida ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushi esa 40 foizga etkazilishi rejalashtirilgan[5].

Inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim uchun sharoitlarni yaxshilash, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ish olib boradigan peagoglarni tayyorlash maqsadida Buyuk Britaniya, Yaponiya, Finlyandiya davlatlaridagi tajribani o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni tashkil qilishdan asosiy maqsad — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat bo‘lsa, inklyuziv ta’limni tashkil qilishdan asosiy vazifalar - rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har

qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish; jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish; ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish; barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish[6] dan iboratdir.

2023-yil 11-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning PF-158-son "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni qabul qilinib, ushbu farmonga 1-ilovadagi 23 maqsad - nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratishdan iborat ekanligi belgilandi. Ushbu maqsadga ko'ra - nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mavjud infratuzilma holatini baholash tizimini joriy qilib, qulay va maqbul muhitni yaratish[7] vazifasi kun tartibiga qo'yildi.

2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga 1-ilovadagi 66-maqsad – “nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish”, deb nomlangan. Ushbu maqsadga ko'ra – nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash. ...Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish[8], vazifasi belgilandi.

Imkoniyati cheklangan o'smirlar ta'lim-tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Imkoniyati cheklangan o'smirlarning ta'lim-tarbiyasi nafakat ta'lim maskanlarida, balki oilalarda xam maksadli tashkil etilib, oilalarda imkoniyati cheklangan o'smirlarni ma'naviy tarbiyasiga e'tibor qaratiladi. Oilalarda imkoniyati cheklangan o'smirlarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtai-nazari bilan yondashuv shakllanadi. Bu esa imkoniyati cheklangan o'smirlarda muomala, muloqot, o'z-o'ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalarining etarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Shuning uchun imkoniyati cheklangan o'smirlarning ijtimoiylashuvi sog'lom o'smirlar bilan birga ta'lim olish, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, turli to'garaklarda qatnashish orqali amalga oshiriladi. Imkoniyati cheklangan o'smirlar o'zlarining kiyinishi (mavsumbop, boradigan joy xususiyatiga bog'liq, toza va ozoda, jinsiga to'g'ri keladigan, zamonbop); muomalasi (ona tilida to'g'ri va ravon so'zlashi, shirinsuxan bo'lishi, so'zlashganda suhbatdoshini tinglay olishi, birovlarining so'zini bo'lmasligi, aniq va mavzu doirasida gapirishi); jamoat joylarida o'zini tutishi (qoidalarga rioya qilishi, qattiq gaplashmasligi, atrofdagilarga halaqit qilmasligi va xokazo); gigienik koidalarga rioya qilishi orqali jamiyat hayotiga moslashib boradi. Mahsus ta'lim muassasalari, maktab-internatlar imkoniyati cheklangan o'smirlar uchun ta'lim-tarbiya o'chog'idir. U erda imkoniyati cheklangan o'smirlar akademik bilim olishdan tashqari murosaliikka, atrofdagilar

bilan muloqot qilishga, mehnatga, o‘z-o‘ziga xizmatga, o‘zgalar mehnatini qadrlashga, o‘z qarorini asosli himoya qilishga, salomatligini nazorat qilishga o‘rganadilar.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlar bilan olib boriladigan inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologopedagogik, korreksion sharoitlar yaratiladi, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi amalga oshiriladi, o‘smirlarning ta’limdagi tenglik huquqi kafolatlanadi, jamiyat va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlar bartaraf etiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Imkoniyati cheklanganlik aslo-qobiliyatsizlik, degani emas. Har qanday holatda ham, kasallik va kamchilikda ham, muammolar bo‘lsa ham bolada taraqqiyot davom etadi. Ya’ni, bolaning rivojlanishi to‘xtab qolmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalarga nisbatan ko‘proq e’tibor va yordam talab etadi xolos. Shuning uchun ham doimiy ravishda har bir bolaning huquqlarini himoya qilish, kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik, ularga ijobiy munosabatda bo‘lish farzand tarbiyasida eng muhim ahaiyatga ega[9].

O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy himoyasi, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning jamiyatga ijtimoiylashuvi masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning bilim olishi, mehnat qilishi, malakali tibbiy xizmatlardan foydalanishi ularning jamiyatga ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu ijtimoiylashuv inklyuziv ta’limni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020.-B.349-350.

2. Shomaxmudova R., Berdieva A. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari. Toshkent 2008 yil, 34 bet.

3. Shomahmudova R.Sh., Nurmuhammedova L.Sh., To‘laganova D.R. Imkoniyati cheklangan bolalarni oilada tarbiyalash. (Ota-onalar uchun ilmiy-uslubiy qo‘llanma). Toshkent 2013 yil, 5 bet.

4. <https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-vozm pornostami>

5. <https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-vozm pornostami>

6. <https://lex.uz/docs/5679836>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

9. <https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-586267>

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA “SOFT SKILLS” AHAMIYATI

Djurayeva Lola Rustamovna

BuxDPI “Pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi ,
tayanch doktoranti (PhD)

lolarustamovna8080@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ko‘nikmani shakllantirish hamda rivojlantirishga mo‘ljallangan “malakalar yig‘indisi”, ya’ni “soft skills” (“yumshoq ko‘nikmalar”) haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy o‘qituvchi modelini to‘liq qamrab oladigan “mahoratlar yig‘indisi” tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, kreativlik va kommunikativlik kabi qobiliyatlar atroflicha yoritilib beriladi.

Tayanch iboralar: *Bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy ko‘nikma, “soft skills”, tanqidiy fikrlash, “malakalar yig‘indisi”.*

THE IMPORTANCE OF “SOFT SKILLS” FOR FUTURE TEACHERS IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL SKILLS

Abstract: This article talks about a “set of skills” intended for the formation and development of professional skills of future teachers, i.e. "soft skills". Additionally, the “skill set” that fully embraces the modern teacher model covers skills such as critical thinking, collaboration, creativity, and communication.

Keywords: *Future teacher, professional skills, “soft skills”, critical thinking, “skills set”.*

Hozirgi zamon axborot jarayonlarining globallasuvi va raqamlashuvi butun pedagogik paradigmani o‘zgartirishga qaratilgan jahon ta’lim tizimlarini jiddiy isloh qilishni taqozo etmoqda. Ushbu tizimlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quv dasturlarini takomillashtirish har doim ham ta’lim va tarbiya jarayoni sifat va samaradorligini amaliy oshirishga, real amaliy faoliyat talablaridan ajralgan o‘quv jarayoniga rasmiy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy malakasini rivojlantirishga yordam yordam bermaydi. Metodist olimi I.Lipatnikova ta’kidlaganidek, “Zamonaviy maktab pedagogika oliy o‘quv yurtlaridan faqat o‘z fanini yaxshi biladigan, yangilikka intiluvchan o‘qituvchini kutmaydi” [2,65b.], endilikda o‘qitish texnologiyalari va ta’lim oluvchilarda yangi turmush sharoitlariga moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qodir bo‘lgan o‘qituvchi, ya’ni muammolarni tanqidiy baholash va hal qilish yo‘llarini topish, vaziyatni tahlil qilish, o‘z faoliyatini yetarli darajada o‘zgartirish, aloqa vositalarini o‘zlashtirish, ma’lumot olish va undan foydalanish, oqilona tanlov qila olish kabi qobiliyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, bir so‘z bilan ta’riflaganda, “soft skills” egalari zamonaviy maktab talablariga javob beradi.

“Soft skills” tushunchasining mazmun va mohiyatini anglash maqsadida Wikipedia ensiklopediyasiga murojaat qildik. Unga ko‘ra, “Soft skills” (“Yumshoq ko‘nikmalar”), shuningdek, kuch qobiliyatlari , umumiy ko‘nikmalar , muhim

ko'nikmalar yoki asosiy ko'nikmalar sifatida ham tanilgan, odatda barcha kasblar uchun qo'llaniladigan psixo-sotsial qobiliyatlardir. Bularga: tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, omma oldida nutq so'zlash, professional yozish, jamoada ishlash, raqamli savodxonlik, yetakchilik, professional munosabat, ish odob-axloqi, martaba boshqaruvi va madaniyatlararo ravonlik kiradi. Bu individual kasblarga xos bo'lgan qattiq ko'nikmalardan farq qiladi.

“Yumshoq ko'nikmalar” atamasi 1960-yillarning oxirida AQSh armiyasi tomonidan yaratilgan. Bu mashinadan foydalanishni talab qilmaydigan har qanday mahoratni bildirib, harbiylar ushbu toifaga ko'plab muhim tadbirlarni kiritilgan bo'lsalarda, aslida hali kataloglanmagan yoki to'liq o'rganilmagan harbiy uchun urushlarda g'alaba qozonishda, guruhlariga rahbarlik qilishda, askarlarni rag'batlantirishda zarur bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarni yig'indisi tushunilgan.

Jahonning yetakchi ta'lim muassasasalari qatorida bo'lgan Garvard va Stenford universitetlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, karyera borasida erishiladigan muvaffaqiyatlarning atigi 15% “hard skills” va 85% “soft skills” hisobiga to'g'ri keladi. Shunga asoslanib, bo'lajak o'qituvchilarni kelgusi professional faoliyatlarida yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun ushbu “yumshoq ko'nikmalarni” egallashlari muhim ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo'ladi.

21-asrda yumshoq ko'nikmalar xalqaro mehnat bozorida asosiy va ustuvor xususiyat bo'lib, ishga joylashish va hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy shartdir. Nobel mukofoti sovrindori iqtisodchi Jeyms Xekmanning ta'kidlashicha, “yumshoq ko'nikmalar hayotdagi muvaffaqiyatni bashorat qiladi, ular tasodifiy muvaffaqiyatga erishadi va yumshoq ko'nikmalarni kuchaytiruvchi dasturlar samarali davlat siyosati portfelida muhim o'rin egallaydi”[2]. Jahonning yirik kompaniyalari ish beruvchilarining mavzuga bergan ahamiyati shundan dalolat beradiki, bugungi kunda yumshoq ko'nikmalar yangi ishchini yollashda GPA (bir vaqtlar qaror qabul qilishda eng muhim omil hisoblangan) kabi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, yumshoq ko'nikmalarni o'rgatish zarurati butun dunyo bo'ylab o'qituvchilar va ish beruvchilar uchun asosiy tashvishga aylandi.

“Yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish qattiq ko'nikmalarni rivojlantirishga qaraganda ancha qiyin, chunki u boshqalar bilan doimiy ravishda faol muloqot qilishni va xulq-atvorga oid fikr-mulohazalarni qabul qilishga tayyor bo'lishni talab qiladi”. Qattiq ko'nikmalarni kitobdan yoki individual treningdan o'rganish mumkin bo'lsa-da, yumshoq ko'nikmalar o'zlashtirilishi uchun atrof-muhit va boshqa odamlarning ishtirokini talab qiladi. Shu tufayli, yumshoq ko'nikmalarni o'rganish birgina shaxsga bog'liq emas, chunki unga oldindan aytib bo'lmaydigan turli omillar, to'siq va qiyinchiliklar ta'sir qiladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, XXI asr o'qituvchisining asosiy kasbiy rivojlanish ko'nikmalariga quyidagilar kiradi:

1. Tanqidiy fikrlash

Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari - mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyati. Ushbu qobiliyat o'qituvchiga asosli qarorlar qabul qilish va o'quvchilarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish va ta'lim maqsadlari va standartlariga moslashish imkonini berib, shaxsiy qarashlarni o'rganishga va o'quvchilarning faolligini oshirish uchun kuchli va zaif jihatlar ustida

ishlashga yordam beradi.

2. Muloqot

Muloqot qobiliyatlari shaxsiy fikrlarini aniq ifoda etish va faol tinglash qobiliyatini o'z ichiga oladi. U og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqotni o'z ichiga oladi: nutq, yozish va tana tili (imo-ishora, mimika, ko'z va tana harakatlari).

3. Yetakchilik

Ta'lim departamentining ta'kidlashicha, o'zini yetakchi sifatida ko'rsatgan o'qituvchilar uzoq kasbiy faoliyatda qolishadi va o'z talabalariga ko'proq ta'sir o'tkaza olishadi, bu qobiliyat ayniqsa o'quv jarayonini faol tashkil etish va boshqarishda namoyon bo'ladi.

4. Ijodiy fikrlash

Ijodiy fikrlash - bu yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ta'limni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun innovatsion o'qitish usullaridan foydalanish demakdir.

5. Nizolarni hal qilish malakalari

Sinfdagi kelishmovchiliklar va mojarolarni boshqarish ijobiy ta'lim muhitini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Ushbu ijobiy ta'lim muhitini saqlab qolish uchun o'qituvchiga ushbu malakani egallash juda muhim hisoblanadi.

6. Mas'uliyat va fidokorlik

Mas'uliyat va fidokorlik an'anaviy va zamonaviy o'qitish qobiliyatidir. O'qituvchi sifatida o'z kasbiga sodiq bo'lish - bu burchdan tashqariga chiqish va o'z kasbi bilan to'liq shug'ullanish demakdir. Shu bilan birga, doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish, seminarlar va konferentsiyalarda qatnashish va o'qituvchilik mahoratini oshirish yo'llarini va o'quvchilarning muvaffaqiyati va farovonligi uchun doimiy ravishda izlanishni anglatadi.

7. Raqamli savodxonlik

Zamonaviy ta'lim o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi, shu bois bu o'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanishning asosiy malakasiga aylanmoqda. Texnik jihozlarni qo'llash uchun bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish va texnologiyani ta'lim va maktab boshqaruvida qanday qo'llashni tushunish kerak bo'ladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiya ta'limda muhim rol o'ynaydi va o'qitish va o'rganish tajribasini yaxshilash uchun cheksiz imkoniyatlarni taklif etadi. Ta'lim oluvchilar shaxsiylashtirilgan, interfaol va masofaviy ta'lim uchun foydalanishlari mumkin bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanishlari uchun xizmat qiladi.

Xulosa o'nida ta'kidlash joizki, bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni, muloqot va yetakchilik qobiliyatlarini, kasbiy mas'uliyat va fidokorlikni, muammo va nizolarni hal qilish bilan birgalikda raqamli savodxonlik kabi birlamchi "yumshoq malakalar"ni shakllantirish, ushbu "malakalar yig'indisi"ni amaliyotda, o'quv jarayonida rivojlantirib borish zamonaviy maktablar uchun yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirib berishda katta rol o'ynaydi. Zero, yetuk pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar barobarida butunjahon e'tirof etgan "soft skills"ni mukammal egallagan uchinchi rennisans quruvchilari, bo'lajak o'qituvchilar zimmasida Yangi O'zbekiston kelajagi, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiyasidek mashaqqatli, ammo sharaflil vazifa turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Heckman, James J. and Kautz, Tim, Hard Evidence on Soft Skills. IZA Discussion Paper No. 6580, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2080324> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2080324>
2. Липатникова И.Г. Деятельностное модульное обучение студентов педагогических вузов в условиях рефлексивной деятельности // Вестник Томского госпед.университета. – 2006. – Вып. 3(54). – С.65-69.
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Soft_skills
4. <https://www.indeed.com/career-advice>

NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA TA’LIMNI KONSEPTUAL VA AMALIY RIVOJLANTIRISH G‘OYALARI

Qunishev Ulug‘bek Ulashevich

SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalar” kafedrasida tadqiqotchisi

ANNOTTATSIYA. Mazkur maqolada falsafiy tafakkur tarixida o‘ziga xos maktabni shakllantirgan nemis klassik falsafasining ta’lim tizimi va insonning bilish jarayoni bilan bog‘liq masalalari tahlil etilgan. O‘z davrida ta’limning konseptual asoslarini ilgari surgan nemis faylasuflarining ta’lim falsafasi rivojiga qo‘shgan hissalarini bugungi rivojlanishda ham o‘z o‘ringa egaligi ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy ravishda zamonaviy bilimlar evolyusiyasiga xizmat qilayotganligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: nemis klassik falsafasi, Kant, Gegel, Fixte, Shilling, ta’lim falsafasi, axloq, estetika, borliq, ruh, jamiyat, shaxs.

ANNOTATION. This article analyzes the educational system of German classical philosophy, which formed a unique school in the history of philosophical thought, and issues related to the human cognitive process. It is revealed that the contributions of the German philosophers who put forward the conceptual foundations of education in their time to the development of the philosophy of education have their place in today's development and serve the evolution of modern knowledge integrally with social development.

Key words: German classical philosophy, Kant, Hegel, Fichte, Schilling, philosophy of education, ethics, aesthetics, being, spirit, society, person.

XVIII-asr oxiri va XIX-asr boshlarini qamrab olgan nemis klassik falsafiy an‘analarida ta’lim va uning rivojlanishi masalalari muhim o‘rin tutadi. O‘z davrida ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan bu an‘analarning asoschilari orasida Immanuel Kant, Georg Vilgelm Fridrix Gegel, Fridrix Vilgelm Nisshe va Yoxann Gotlib Fixte kabi olimlar bor. Ularning har biri ta’limga o‘ziga xos nuqtai nazardan qaragan va uning jamiyatdagi ahamiyatini turlicha talqin qilgan. Ularning ta’lim borasidagi qarashlari xilma-xil bo‘lsa-da, ma’rifatparvarlik g‘oyalari umumiy sadoqat ruhida aqlga tayanish bilan individual salohiyatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu falsafada ta’limning konseptual va amaliy rivojlanishi g‘oyalari, zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan chuqur intellektual faoliyat davrini aks ettiradi. Bu faylasuflar bilim, axloq,

erkinlik va inson ongining tabiatini o'rganish orqali tarbiyaviy fikrni shakllantirishga hissa qo'shdilar.

Bu davr faylasuflaridan I.Kant ta'limni insonning ma'naviy va aqlan rivojlanishi uchun zarur, deb hisoblagan. Uning fikricha, ta'lim muhiti shaxsning o'ziga xosligini rivojlantirishi va jamiyatdagi o'rnini topishiga yordam beradi. Kant uchun ma'rifatparvarlik – bu erkinlikka erishishning kaliti edi. Kantning ta'lim falsafasi uning tanqidiy falsafasiga, xususan, axloqiy va intellektual fazilatlarni tarbiyalashga yondashuvidan kelib chiqadi. Uning fikricha, ta'lim nafaqat bilimlarni uzatishi, balki axloqiy qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan oqilona mavjudotlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Kantning fikricha, ta'lim - bu odamlarning aqlli mavjudot sifatidagi burchlarini anglash va axloqiy qonunlarga muvofiq harakat qilish uchun intizomga ega bo'lish jarayonidir. “Bilish jarayoni hissiy va aqliy bilish jarayonlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bilish jarayoni bu ikkala bosqich barobar qatnashganidagina amalga oshadi” [1. 73]. U axloqiy burch va mustaqillik tuyg'usini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab, ma'rifat insonning o'z-o'ziga yuklagan etuklikdan, eng avvalo, aqlni qo'llash orqali chiqishi ekanligini ta'kidladi. Kant ratsional yo'l bilan axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda ta'limning rolini ko'rsatar ekan, ta'lim nafaqat bilim berish, balki axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, odamlarga o'z aql-idrokidan erkin va mas'uliyat bilan foydalanish imkonini berishini aytadi. Kantning ta'lim falsafasi o'quvchini tanqidiy fikrlash muhimligiga o'rgatib, insonni barcha faoliyatida aqldan foydalanishga chaqiradi.

Kant ta'lim falsafasining uzviyligi Gegel falsafiy qarashlarida ta'limni ijtimoiy tuzilmaning ajralmas qismi sifatida ifodalashi bilan bog'langan. Uning fikricha, ta'lim insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va uni ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi. Gegel uchun, ta'lim insonning o'zini anglashi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur. Uning keng qamrovli falsafiy tizimi tarix orqali ruhning (mutloq ruh) rivojlanishiga asoslanadi. “Gegel falsafiy ta'limotining mazmunini, logika (mantiq) tizimiga tayangan holda Mutloq g'oyaning Mutloq ruhga aylanishini ko'rsatishdan iborat”[2. 96]. O'z navbatida ta'lim shaxslarda axloqiy hayotni rivojlantirish, ularni jamiyatning oqilona va axloqiy hayotida ishtirok etishga tayyorlash vositasidir. Ta'limning dialektik jarayoni ta'lim oluvchilarda qarama-qarshiliklarni eng ishga, bu esa borliqni tushunish va o'z-o'zini anglashning yuqori darajalariga olib keladi. Uning ta'limga bo'lgan qarashi axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishni o'z ichiga qamrab oladi. Jamiyatda ta'lim falsafasi dialektik metodiga tayanib, u ong va o'z-o'zini anglashning rivojlanishini vujudga keltiradi. Har bir shaxs ta'limni o'zini va dunyodagi o'rnini anglash vositasi sifatida ko'rishi, turli dinamik va interaktiv jarayonlarni mutloq ruh darajasida tushunishi, o'zini o'zi anglashi darkor.

Yana bir klassik faylasuf I.G. Fixte ta'limni milliy o'zlikni shakllantirish va jamiyatni mustahkamlash vositasi sifatida ko'rgan. Uning qarashlari bo'yicha, ta'lim muhiti insonlarni vatanparvarlik va jamoatchilik burchini his qilishga o'rgatishi kerak. Ta'lim kishida nafaqat individual qobiliyatlarni, balki milliy o'ziga xoslik va birlik tuyg'usini rivojlantirishga qaratilgan milliy ta'lim tizimini targ'ib qilish orqali rivojlanadi. U Kantning ta'lim falsafasi g'oyalarini rivojlantirib, ta'limni jamiyatni

axloqiy va intellektual mustahkamlash quroli deb hisoblaydi, jamoaviy ruh va milliy xarakterni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Uning faoliyati Germaniyada barcha fuqarolarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tizimli ta'limni yaratishga katta ta'sir ko'rsatdi. Fixtning ta'lim nazariyasi inqilobiy bo'lib, axloqiy va yaxlit milliy jamoani yaratishda aks etadi. U ta'lim tizimini milliy o'zlikni anglash va axloqiy fuqarolik tuyg'usini tarbiyalash vositasi deb bildi. Jamiyatda shaxsga kuchli, yo'naltirilgan ta'lim odamlarning axloqiy va intellektual qobiliyatlarini shakllantiradi, ularni davlat ehtiyojlariga moslashtiradi, deydi. Ushbu yondashuv uning o'z-o'zini anglash tabiati va jamoaviy kontekstda individual o'ziga xoslikni rivojlantirish bilan bog'liq kengroq falsafiy dunyoqarashni aks ettirdi.

F.V.J.Shelling esa, ta'lim falsafasiga to'g'ridan-to'g'ri yondashmasdan, lekin tabiat va inson taraqqiyoti o'rtasidagi munosabatlarni tushunish nuqtai nazaridan o'z qarashlarini bayon etdi. U ta'lim shaxsning tabiiy rivojlanishi bilan uyg'un bo'lishi kerakligini ta'kidlab, ijodkorlik hamda estetik tajribaning shaxsiy va intellektual o'sishda markaziy o'rinni egallashini ta'kidlaydi. Shelling falsafasi ta'lim shaxsning tabiatga bo'lgan munosabatiga nisbatan kengroq romantik qiziqishni aks ettiruvchi shaxsning tug'ma salohiyati va ijodkorligini bog'liqligi bilan xarakterlanadi. U tabiat va estetikaning ta'limdagi ahamiyatini ta'kidlab, chinakam voqelikni tushunish, o'rganish nafaqat aqliy va axloqiy rivojlanishni, balki go'zallik va tabiiy dunyoni qadrlashni ham o'z ichiga oladi, deb ta'kidlaydi. Shelling falsafasiga ko'ra, ta'lim butun insonni, shu jumladan his-tuyg'ularni ziga jalb qilishi, tabiat va san'at bilan chuqur aloqani rivojlantirishi kerak. Ta'limga bunday yaxlit yondashuv intellektual, axloqiy va estetik o'lchovlarni birlashtirishga olib keladi.

Shu tarzda, nemis klassik falsafiy an'analarida ta'limga bo'lgan qarashlar insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga qaratiladi. Bu faylasuflarining g'oyalari zamonaviy ta'lim amaliyotiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlash, axloqiy rivojlanish, estetikani qadrlash, dialektik ta'lim metodiga e'tibor qaratish ta'limga kompleks yondashuvni vujudga keltirib, bunda nafaqat intellektual imkoniyatlar, balki axloqiy fazilatlar va estetik qadrlash ham rivojlanishi nazarda tutildi. Ular jamiyat taraqqiyotida ta'limning muhimligini ta'kidlab, tanqidiy fikrlash butun bir shaxsning muvozanatli rivojlanishini ta'minlashini ta'kidladilar. Ularning ta'lim falsafasi zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotiga ta'sir ko'rsatib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga qodir bo'lgan ma'rifatli, mas'uliyatli barkamol shaxslarni tarbiyalashda xizmat qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nemis klassik ta'lim falsafasining maqsadi shaxs va jamiyat rivojlanishida katta rol o'ynaydi. "Nemis milliy falsafasi tomondan ishlab chiqilgan dialektik metod, dialektik mantiq taraqqiyotning qonuniy jarayon ekanligi to'g'risidagi ta'limot sifatida shu davrgacha falsafiy tafakkur rivojining eng katta yutuqlarida biri bo'ldi" [3. 298]. Ular ta'lim nazariyasiga sezilarli hissa qo'shib, ratsional axloqiy fazilat va jamoa doirasida individual salohiyatni uyg'un rivojlantirishga intildilar. Ularning qarashlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari chuqur sodiqlik, taraqqiy etish, aql-idrok, ta'lim-tarbiya orqali insonning ahvolini yaxshilash aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Карим Т. Миллий тафаккур тараққиётидан. –Тошкент: Чўлпон, 2003. 73-бет.
2. Фалсафа қисқача изоҳли лўғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. 96-бет.
3. Фалсафа: қомусий лўғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. 298-бет.

**“INSON – JAMIYAT – DAVLAT” TAMOYILINI AMALGA OSHIRISH -
BARQAROR TARAQQIYOT OMILI**

Ismailov Dilshod Baxriddinovich

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: dilshod6004@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada "Inson - jamiyat - davlat" tamoyilini gumanistik mohiyati, uni amalga oshirish mexanizmlari hamda davlat xizmatchilarining samaradorligi va professionalligiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, fuqarolik xizmatchisi, "Inson - jamiyat - davlat", tamoyil, qiyofasini jamiyat, milliy yuksalish, milliy tiklanish, ta’lim-tarbiya,.

O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitusiyasida davlatchilik qadriyatlari demokratik, ijtimoiy, huquqiy davlat talablaridan kelib chiqib, **“Inson – jamiyat – davlat”** tamoyili asos topdi. Bu o‘ta muhim, siyosiy, huquqiy prinsip tufayli inson bilan davlat birlashdi. Ushbu tamoyil asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy rivojlantirish bo‘yicha alohida-alohida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Har bir tarmoq va hudud bo‘yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berish tizimi izga tushdi. Buning natijasida **“Inson – jamiyat – davlat”** munosabatlarida vertikal munosabatlardan gorizontal munosabatlarga o‘tildi. Inson, uning hayoti, farovonligi mamlakatning eng katta boyligi sifatida e’tirof etildi. Davlat inson manfaat-ehtiyojlarini qondirishni o‘zining ustuvor vazifasi deb bilmogda, jiddiy loyihalarni amalga oshirishda unga kuchli sherik sifatida murojaat qilmoqda, muammolarning yechimini topishda uning ekspertlik salohiyatiga tayanmoqda.

“Inson – jamiyat – davlat” munosabatlarini amalga oshirish kadrlar siyosati bilan chambarchas bog‘liq. Zero, kadrlar siyosatida o‘zgarish qilmasdan turib, boshqa sohalardagi islohotlarda muvaffaqiyat qozonish mumkin emas. Negaki, taraqqiyotning bugungi bosqichida inson omili belgilovchi rol o‘ynaydi.

Har qanday strategik hujjatning ro‘yobi ham, avvalo, davlat fuqarolik xizmatchilarining ishga vunosabatiga, mehnatining samarasiga bog‘liq bo‘ladi.

"Inson - jamiyat - davlat" iyerarxiyasining gumanistik mohiyati inson va uning farovonligiga markaziy ahamiyat berilishini, jamiyat va davlat inson manfaatlari yo‘lida mavjud bo‘lib, uning huquqlari, erkinliklari va farovonligini ta’minlashini anglatadi. Ushbu iyerarxiya davlat va jamiyat shaxsning manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qilish uchun mavjud va uning gumanistik mohiyati quyidagi asosiy jihatlarida namoyon bo‘ladi:

1. **Markazdagi odam:** inson ushbu iyerarxiyaning markazi hisoblanadi va uning qadr-qimmati, huquqlari va farovonligi eng muhim qadriyatlar sifatida tan olinadi. Gumanizm shaxsga va shaxs erkinligiga hurmatni ta'kidlaydi.

2. **Jamiyat atrof-muhit sifatida:** jamiyat odamlar o'zaro ta'sir qilishi, hamkorlik qilishi va rivojlanishi mumkin bo'lgan muhit sifatida qaraladi. Ushbu iyerarxiyada jamiyat jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini ta'minlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va birdamlik uchun sharoit yaratadi.

3. **Davlat vosita sifatida:** Davlat qonun va tartibni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va adolatini himoya qilish uchun jamiyat tomonidan yaratilgan vosita sifatida qaraladi. Davlat shaxs va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi, uning vazifalari farovonlik va adolatni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ushbu gumanistik konsepsiya jamiyatdagi kuch va resurslardan inson manfaatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda foydalanish kerakligini, inson hayoti va qadr-qimmati daxlsiz qadriyatlar ekanligini anglatadi. Gumanistik iyerarxiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga, shuningdek, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga e'tibor beradigan Davlat va huquqiy tizimlarning ko'plab modellari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2017 yilda oliy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan "Davlat xizmatchisi etikasi va imiji" o'quv qo'llanmasida davlat xizmatchisiga shunday ta'rif beriladi: "davlat xizmatchisi deganda, davlat organlarining huquqlarini ro'ebga chiqarish bo'yicha tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi, fuqarolar uchun huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs nazarda tutiladi. Mansabdor shaxslarda siësiy xislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi" [3]. Ko'rinib turganidek, shaxsiy ma'naviy-axloqiy fazilatlar davlat xizmatida muhim rol o'ynaydi, chunki ular davlat xizmatchilarining samaradorligi va professionalligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlat xizmatida muvaffaqiyatli martaba uchun muhim bo'lgan ba'zi asosiy shaxsiy fazilatlar:

1. Halollik: Davlat xizmatchilari halol, halol va ishonchli bo'lishi kerak. Ularning harakatlari va qarorlari axloq normalari va qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

2. Kasbiy javobgarlik: Davlat xizmatchilari o'z vazifalarini yuqori darajada mas'uliyat bilan bajarishlari, yeng yaxshi natijalarga intilishlari va kasbiy standartlarga rioya qilishlari kerak.

3. Tahliliy ko'nikmalar: tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati faktlar va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

4. Muloqot qobiliyatlari: Davlat xizmatchilari turli manfaatdor tomonlar, shu jumladan fuqarolar, hamkasblar va rahbarlar bilan samarali muloqot qilishlari kerak.

5. Yetakchilik: menejerlar yoki menejerlar rovida davlat xizmatchilari jamoani boshqarish va ilhomlantirish qobiliyatiga yega bo'lishi kerak.

6. Moslashuvchanlik: Davlat xizmatlari ko'pincha o'zgaruvchan sharoitlarga va yangi muammolarga duch keladi. O'zgarishlarga moslashish va ularga tezda munosabat bildirish qobiliyati muhim sifattir.

7. Maxfiylik: Davlat xizmatchilari ko'pincha maxfiy ma'lumotlarga yega va

maxfiylikni saqlash qobiliyati juda muhimdir.

8. Etika: davlat xizmatchilari uchun yuqori axloqiy me'yorlarga rioya qilish va manfaatlar to'qnashuvidan qochish muhimdir.

9. Hamkorlik qilish qobiliyati: Davlat xizmatchilari umumiy maqsadlarga yerishish uchun jamoada ishlashga va boshqa organlar bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'lishi kerak.

10. Stressga chidamlilik: Davlat xizmatchilari yuqori darajadagi stress va bosimga duch kelishi mumkin, shuning uchun stressni boshqarish va xotirjamlikni saqlash qobiliyati muhimdir.

Ushbu fazilatlar davlat xizmatchilariga o'z vazifalarini yanada samarali bajarishga yordam beradi, davlat xizmatlarini sifatli ko'rsatishni ta'minlaydi va davlat muassasalariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi qiyofasini belgilashda asosiy mezonlardan bo'lgan yuksak ma'naviyat, mas'uliyat va madaniyatlilik darajasi ham muhim o'rin tutadi. Bu nafaqat bugungi global davrning taqozosi, balki Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlay oladigan, unga xizmat qilishga qodir bo'lgan davlat xizmatchisi tushunchasining mazmun-mohiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu bois zamonaviy rahbar xodim barcha fazilatlarini bilan o'z jamoalariga yetakchi, fidoyi, namuna, o'rnak va ibrat bo'la olishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021. –257 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 1 tom. – 168 b.
3. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O'quv qo'llanma.– Toshkent, "Universitet", 2017. - 264 b.

ETIMOLOGIK TAHLIL ASOSIDA TALABALARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Sobirova Noiba Zafar qizi,
Qarshi davlat universiteti Boshlang'ich
ta'lim kafedrasida doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tilimizning millatimiz qadriyati ekanligi, boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashini o'stirishda ona tilimizning ahamiyati, etimologik yondashuv asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirish yo'llari bayon qilingan. Shuningdek, maqolada MDH mamlakatlari tadqiqotchi olimlarining etimologik yondashuga oid fikr-mulohazalari ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, aqliy operatsiya, analiz, sintez, tafakkur, fikrlash, mustaqil fikrlash, yangilik, innovatsiya, tanqidiy fikrlash.

EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' LOGICAL THINKING BASED ON THE ETYMOLOGICAL APPROACH

Abstract: This article describes that the native language is a value of our nation, the importance of the native language in the development of logical thinking of primary school students, as well as ways to develop logical thinking of students based on the etymological approach. The article also mentions the opinions of research scientists from the CIS countries regarding the etymological approach.

Key words: logical thinking, mental operation, analysis, synthesis, thinking, reasoning, independent thinking, innovation, innovation, critical thinking.

Davlatimiz rahbari va hukumatimiz keyingi yillarda ona tilimizning nufuzini oshirish maqsadida bir qancha meyoriy hujjatlarni qabul qildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi” gi qonunni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda ona tilimiz haqida quyidagi fikrlar bildirib o‘tilgan: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir [1].

Darhaqiqat, ona tilimiz xalqimiz uchun buyuk qadriyat hisoblanadi, negaki u barchamizga shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, porloq kelajagimiz, Ona Vatanimiz go‘zalligi, xalqimizning tantiligi, donoligi, mehnatkash va mehribonligi haqida ma’lumot beradi. Shu boisdan xalqimiz tomonidan “Til-millat ko‘rki!”-deb bekorga aytilmagan. Ona tilimizda milliylikimiz ufurib turadi, qayerda bo‘lmaylik tilimizga ko‘ra bizni o‘zbek millatiga mansub ekanligimizni anglab olishadi.

Quvonarlisi shuki, hozirgi kunga kelib, yurtimizdagi barcha ta’lim muassasalari, tashkilotlar, davlat boshqaruv organlari, zavod va fabrikalar o‘z faoliyatlarini ona tilida olib bormoqda. Buning natijasida esa xalqimizning anchagina savodxonlik darajasi ham ortdi.


Barchamizga ma’lumki, kishilarning nutqiy, imloviy va boshqa savodxonliklari ta’lim jarayonida shakllantiriladi. Bu borada oliy ta’limning o‘rni va ahamiyati yuqoridir. Ayniqsa, pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning imloviy va nutqiy savoxonligini rivojlantirish etimologik ona tili darslarida etimologik tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq. Etimologik tahlil — so‘zlarning kelib chiqish tarixi, ularning yasalish jarayoni, izohi hamda to‘g‘ri yozilish jarayonini o‘rgatadigan tahlillardan biridir. Etimologik tahlil yordamida talabalarning mantiqiy fikrlashi, dunyoqarashi va tafakkuri o‘zib boradi.

Rus tadqiqotchi olimlaridan O. N. Kondratyeva “Этимологический анализ на уроках русского языка как одно из средств повышения орфографической грамотности учащихся среднего звена” nomli maqolasida etimologik tahlil haqida quyidagicha fikrlarni bildirib o‘tadi: “Darsda etimologik tahlil va uning elementlaridan foydalanish rus tilini o‘rganishga doimiy qiziqish uyg‘otish imkonini beradi, chunki o‘qituvchi tomonidan taklif qilinadigan qiziqarli mashqlar lingvistik qobiliyatni rivojlantiradi, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, yodlashni osonlashtiradi

va til o'rganishga nisbatan talablarini to'ldiradi"[3; 119]. U tadqiqot ishida tarixiy so'zlardan qanday qilib yangi so'zlar hosil qilganligini va ular qanday ma'no anglatishini o'quvchilarga turli usullar yordamida o'rgatish metodikasini ishlab chiqadi.

Quyida biz ham o'zbek tilidagi ayrim so'zlarni etimologik jihatdan talabalar bilan birga tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan, Bosh - o'zbekcha — "Tananing bo'yindan yuqori (old) qismida joylashgan a'zo". Buning uchun o'qituvchi doska markaziga "Bosh (o'zbekcha)" so'zini yozib qo'yadi va bir nechta strelkalarni yo'naltiradi, talabalar navbat bilan har bir strelka markaziga "bosh" so'zi ishtirok etgan so'zlarni yozadilar. Masalan, quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

Bosh(o'zbekcha)



Navbatdagi vazifa: talabalar doskaga yozgan so'zlarini izohlab beradilar. Bunda ular izohli lo'g'atlardan foydalanishlari mumkin.

Boshliq—rahbar, jamoa boshlig'i

Boshqotirma—jumboq, echimini kutayotgan muammo


Boshq —to'pmeva xili, asosan donli o'simliklarga xos.

Boshalang —bosh kiyimsiz.

Boshmaldoq —panjadagi birinchi yo'g'on barmoq.

Xuddi shunday "Qat" – eski turkiy so'z — qatlam so'zini ham etimologik jihatdan tahlil qilib chiqamiz.

Qat (eski turkiy so'z)



Qatlam — ketmaket joylashish

Qatig' — sut mahsuloti bo'lib, tabiiy sutdan uni maxsus bakteriyalar yordamida achitish orqali olinadi.


Qatlama — oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog'da pishiriladigan taom.

Qatnash —ishtirok etish.

Qattiq — mahkam, mustahkam, pishiq.

Qatqaloq — kuchli yog'inlar va sug'orishdan so'ng tuproq betida hosil bo'ladigan qattiq qatlam.

Jumladan, tilimizda juda ko'p ishlatadigan "Arz" so'zini ham quyidagicha etimologik tahlil qilishimiz mumkin:



Arzanda— suyuqli, erka, erkatoiy yoki munosib, loyiq.


Arzdod — arz qilmoq, shikoyat qilmoq, kimgadir murojaat qilmoq.

Arzon —bahosi, narxi yuqori bo‘lmagan buyum yoki narsa.

Arzonchilik—narx-navoning pastligi, arzonligi.

Arzirli—maqtovg‘a loyiq ish, arziydigan sovg‘a.

Яна бир тилимизда жуда кўп ишлатадиган сўзлардан бири “Бел” сўзини куйидагича этимологик таҳлил қилиш мумкин:



Belanchak—yosh bolalarni ovutish va uxlatish maqsadida tayyorlangan arg‘imchoq.

Belbog‘—asosan erkaklar beliga bog‘lanadigan to‘rtburchak shaklidagi qars.

Belkurak —yerni bellash va erda sochilib turgan biron narsani yig‘ish uchun ishlatiladigan xo‘jalik asbobi.

Belgi—tanib olish, ko‘rsatish yoki farqlashga xizmat qiluvchi narsa; nishon, alomat; tamg‘a.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini o‘stirishda etimologik yondashuvdan foydalanish natijasida boshlang‘ich ta’lim samaradorligi yanada ortadi. Chunki, o‘quvchilar bu yoshda o‘ta qiziquvchan bo‘ladilar, tevarak-atrofdagi barcha narsa va predmetlarning nomini, so‘zlarning mazmunini bilishni istaydilar. Ularning bu kabi qiziqish va istaklarini turli yo‘llar va yondashuvlar asosida ta’minlab borish pedagogik jarayon oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сонли қарори.

2. Каримкулова, Ф., & Орипова, Н. (2022). Tafakkur jarayonlari va uning shakllanish bosqichlari. *Обществоинноватсии*, 3(3/S), 215-221.

3. Кондратьева О. Н. Этимологический анализ на уроках русского языка как одно из средств повышения орфографической грамотности учащихся среднего звена. Кемерово, Россия. Филологический класс, 2(52)/2018 г. 119 стр.

4. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400 б.

5. Сафарова Р. Ўқувчиларнинг мантикий фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришнинг тарихий педагогик манбалари ва омиллари. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 631 б.

6. Худойназаров Э. Ўқувчиларида мантикий фикрлашни ривожлантиришда синфдан ташқари ишлардан фойдаланишнинг методик имкониятлари. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 5 | 2022.

7. Худойназаров Э.М. Бошланғич синф ўқувчиларининг мантикий фикрлашини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш. Фал.ф. д...дисс. – Термиз., 2022. –152 б.

8. Зайнитдинова М. Математика дарсларида ўқувчиларнинг мантикий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга инноватсион ёндашув. Образование и инноватсионные исследования (2022 год №5), 195 б.

DEVELOPMENT OF EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE SOCIAL STATE: PROGRESSIVE STEPS TOWARDS INCLUSIVE LEARNING

Shahobjon KUBATOV,
Doctor of Philosophy (PhD)

Abstract: This article examines the importance of developing the education system in the context of a welfare state. Key aspects discussed include inclusive education, support for low-income families, professional development of teaching staff, educational assessment systems and partnerships between various stakeholders.

Key words: education, social state, inclusive education, family support, professional development, quality assessment, partnership.

In the modern world, the education system plays a key role in shaping the social structure and ensuring sustainable development of society. In the context of a welfare state that cares about the well-being of its citizens and strives to provide equal opportunities for all members of society, the development of education becomes a particularly important aspect of public policy. Achieving a high level of education for all is not only a matter of social justice, but also a key factor in the economic growth and intellectual potential of the country.

В соответствии с новыми требованиями методики преподавания математики в содержание текстовых задач школьного курса математики общеобразовательных учреждений внесен ряд изменений. Каждая из представленных текстологических проблем, наряду с закреплением предыдущего теоретического материала, поднимает еще больше вопросов. Текстовые проблемы должны заставлять учащихся думать и готовить почву для создания новых концепций. Оно должно привести к самостоятельному открытию новых правил и законов, связей между измерениями, заложить надежный фундамент комплексного обучения и, наконец, примеры, упражнения и текстовые задачи должны быть способны служить естественной интеграции процесса освоения теории. и создание необходимых навыков и умений прямого действия. Это требование обязывает учителей прежде всего рассматривать каждый пример, упражнение и текстовые задачи учебников с критической и творческой точки зрения, лучше понимать их назначение. С другой стороны, учителя должны знать, что в преподавании школьного курса математики возрастает роль теории понятия совокупности и операций с ними, соответствия и операций с ними, элементов комбинаторики, математических утверждений и их построения, высказывания и действия с ними, математические доказательства и алгоритмы, элементы математической логики, натуральное число как результат измерения величин, система исчисления, деление чисел, рациональные числа, связи между величинами, использование научных методов - исследования, индукции, дедукция, анализ, композиция и т. д. играет важную роль.

В преподавании школьной математики очень важна важность использования навыков и умений решать текстовые задачи. Решая текстовые задачи, учащиеся приобретают новые знания и готовятся к практической деятельности. Решение текстовых задач способствует развитию логического мышления учащихся. Поэтому учитель должен иметь глубокое представление о решении текстовых задач и их структуре и уметь решать их разными методами.

Обучение решению текстовых задач – очень сложный процесс, и успех его зависит от правильного выбора текстовых задач и их решения на всех этапах, а также правильной постановки обучения [3, - с. 24].

Решение текстовых задач, которое считается одной из основных задач, может способствовать оживлению математической деятельности, активизации знаний учащихся и развитию их мышления.

В основном этот тип текстовых задач полезен для студентов, интересующихся изучением математики. В процессе обучения решению текстовых задач учитель обязан широко использовать дидактические средства по каждой из изучаемых задач, поскольку при обучении текстовым задачам основной основой являются простые и композиционные задачи.

На наш взгляд, умение решать текстовые задачи определяет уровень математических знаний учащихся. Решая текстовые задачи, учащиеся учатся анализировать и обобщать, обсуждать и делать выводы, а также упражняться в организации и соединении отдельных фактов и знаний.

Математические задачи требуют выполнения того или иного действия для их решения, а количество действий, необходимых для решения текстовых задач, является одной из основных характеристик математических задач.

Таким образом, решение текстовых задач важно, с их помощью мы формируем систему математических знаний и необходимых навыков.

На наш взгляд, умение решать текстовые задачи у учащихся развивает уровень их математических знаний. В связи с этим покажем несколько способов решения текстовых задач:

Задача 1. Купили две упаковки ткани одного типа. В обеих упаковках по 30 метров ткани. На покупку первой упаковки отдали 90 сомони, на вторую упаковку 60 сомони. Сколько метров ткани было в каждой упаковке?

Решение: 1. Стоимость обеих упаковок $90+60=150$ сомони; 2. $150:30=5$ сомони стоимость 1 м ткани; 3. $90:5=18$ м ткани в первой упаковке;

4. $60:5=12$ м ткани во второй упаковке. **Ответ:** В первой упаковке было 18 м ткани, во второй - 12 м.

Задача 2. 900 м атласа были распределены по двум швейным фабрикам таким образом, что 12 часть атласа первой швейной фабрики равна 8 части атласа второй швейной фабрики. Сколько метров атласа получил каждый завод?

Решение: 1. $12+8=20$ часть; 2. $900:20=45$ метров в каждой части; 3. $45 \times 12=540$ метров атласа для первой швейной фабрики; 4. $45 \times 8=360$ метров атласа для второй швейной фабрики. **Ответ:** Первая швейная фабрика получила 540 метров, а вторая швейная фабрика – 360 метров атласа.

Задача 3. В 3 ящиках 98 кг яблок. В первом ящике на 12 кг меньше, чем во втором, а в третьем — на 16 кг меньше, чем во втором. Сколько яблок было во второй коробке?

Решение: Обозначим количество яблок во втором ящике через x (кг), причем $x-12$ и $x-16$ согласно условию задачи $(x-12)+x+(x-16)=98$. Отсюда $3x-28=98 \Rightarrow 3x=98+28 \Rightarrow 3x=126 \Rightarrow x=126:3 \Rightarrow x=42$. **Ответ:** Во втором ящике было 42 кг яблок.....

Как видим, одним из факторов способности учащихся к развитию логического мышления и самостоятельного обучения является подготовка текстовых задач. С этой точки зрения мы рассматриваем обучение учащихся решению задач как один из способов развития навыков и умений, позволяющих повысить эффективность урока и качество преподавания математики.

Итак, учитывая большую важность, значимость и педагогически-методическую широту применения данного вида метода обучения математике, мы постарались в той или иной степени разработать способы использования умений и навыков решения текстовых задач в школьном курсе математики, а также самостоятельную подготовку математических задач учителями математики и методистами.

Литература

1. Бегимов Ё.Х., Иззатуллоев К., Пирназаров А., Раъабов Т. Мальмуи масъалаҳо аз математика. – Душанбе: 2020. - 295 с.
2. Бегимов Ё.Х., Рабиев С.М., Раъабов Т.Б., Файзуллоев А.М., Шукурзода Х.А., ва дигарон Назария ва практикуми методикаи таълими математикаи синфҳои ибтидоӣ. – Душанбе: 2024. - 665 с.
3. Бегимов Ё.Х., Раъабов Т.Б., Сайёдов И.Д. Ёалли масъалаҳои типикӣ (Дастури таълими). – Душанбе: 2013. – 98 с.
4. К.У. Осимов., Л.М. Фридман. Методҳои ёалли масъалаҳои математикӣ. – Душанбе: 1987. - 207 с.
5. Нуралиева Г.В. Методика обучения математике в начальных классах: Учебное пособие для учащихся школьных отделений педагогических училищ. - Ставрополь: 1999. – 304 с.

INSONDA SALOMATLIK ESTETIKASINI RIVOJLANTIRISHDA AXLOQIY OMILLARNING IMMANENT XUSUSIYATLARI

Javliyev Feruz Komilovich

Аннотатсия

Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablagʻ evaziga sotib olib boʻlmaydi. Har bir shaxs oʻzining yurish-turishi uchun masʼul deb qabul qilingan demokratik jamiyatda, inson salomatligi muhim ahamiyatga ega boʻlgan oliy qadriyat darajasiga koʻtariladi. Aytishimiz mumkinki, soʻz, fikr, niyat, amal insonning axloqiy-estetik faoliyatida hamda xulqiy goʻzallikka erishish yoʻlidagi maqsad va intilishlariga asos boʻladigan, insonni toʻgʻri faoliyati.

Kalit soʻzlar: Salomatlik, jismoniy va ruhiy sogʻlomlik, estetik munosabat, zotan, soʻz, fikr, niyat, turmush estetikasi

Bugungi globollashuv davrida insoniyatga xaf solib turgan juda koʻplab tahdidlar paydo boʻlmoqda. Shunday tahdid va xavf hatarlar inson sogʻligiga oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolmaydi. Salomatlik - har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartlaridan biri boʻlib kelmoqda. Inson mustahkam salomatlikka ega boʻlgandagina baxtli boʻlib yashashi mumkin. Har bir millatga, har bir mamlakat uchun muqaddas boʻlgan tarixiy, madaniy, milliy qadriyatlarning barchasini jismoniy va ruhiy sogʻlom insongina yarata oladi. Shunday ekan salomatlik - mavjud barcha qadriyatlar orasida eng oliysi sifatida qadrlanmogʻi lozim. Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablagʻ evaziga sotib olib boʻlmaydi. Har bir shaxs oʻzining yurish-turishi uchun masʼul deb qabul qilingan demokratik jamiyatda, inson salomatligi muhim ahamiyatga ega boʻlgan oliy qadriyat darajasiga koʻtariladi.

Mashhur olim, faylasuf Abu Bakr Ar-Roziy (865-925) “Maʼnaviyat tibbiyoti”, “Falsafiy turmush tarzi” kabi asarlarida inson salomatligiga taʼsir koʻrsatuvchi omillar haqida batafsil maʼlumotlar beradi. “Maʼnaviyat tibbiyoti”da tibbiyotni ikkiga: jismoniy va ruhiy tibbiyotga ajratadi va jismoniy tibbiyotni inson tanasi kasalliklarining oldini olish va davolash, ruhiy tibbiyotni esa inson ruhiy axloqini yoʻlga qoʻyish va insonning maʼnaviy sifatlarini takomillashtirish deb belgilaydi. U

aqlning vasfini ta’riflar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: insonni ehtiroslar emas, balki aql boshqarishi lozim, aql insonni bir daqiqalik o‘tkinchi ehtiroslardan xalos qiladi, bilimlar bilan qurollangan aql o‘z ehtiroslarini nazoratsiz qoldirmaydi. E.Yusupovning «Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo‘lgan insonlarning o‘z-o‘zini idora qilish shakllari va me’yori, o‘zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo‘lgan ma’naviy kamolot darajasining namoyon bo‘lishidir»-degan fikri diqqatga sazovor.[1,38 b] Chunki axloq yo‘q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi, faqat axloq zaminidagina insonlarda xayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi, mas’uliyati va boshqa axloqiy tushunchalar va normalarga muayyan estetik munosabat shakllanadi. Inson faoliyatini tartibga solish, hayot tarzini shakllantirish estetik madaniyatning muhim funksiyalaridan biridir. Bu funksiya tufayli estetik madaniyat kishilarning muloqotini, ishlab chiqarish va turmushdagi munosabatlarni ma’lum normalarga bo‘ysundiradi.

Estetik munosabat - ob’ekt bilan sub’ekt o‘rtasidagi o‘ziga hos a’loqadorlik tufayli kelib chiqadigan xarakterlar majmuidir. Go‘zallikni idrok qilish jarayonida sodir bo‘ladigan o‘zaro harakatlar estetik munosabat zaminidir. Estetik munosabat orqali inson ob’ektiv dunyoning voqea va hodisalarini keng mushohada qiladi. Estetik munosabatning natijasi estetik baholash mohiyati, narsa-buyumlar ifodalanadi.. Ovqatlanish madaniyatida estetik munosabat uning shakl va mazmuni mutanosibligida o‘z ifodasini topadi. Yoki insonga estetik munosabatda bo‘lish ham inson shaxsi ma’naviy mazmunining inson xatti- harakatlari va xulq-atvori shakliga mutanosiblikda ifodalanadi. Insonning ichki dunyosi, shaxsi, aqli va his – tuyg‘ulari uning tashqi qiyofasi – ko‘zlari, chehrasi, shuningdek qaddi - qomati va yurish - turishida to‘la aks etadi. Insonning ichki dunyosi qanchalik mukammal bo‘lsa, yurish - turishi ham shunchalik madaniyatli bo‘ladi.

Ayrimlar inson go‘zalligini belgilashda uning tashqi qiyofasiga qarab baho berish kerakligini uqtirsalar, ikkinchi qarash tarafdorlari-inson go‘zalligi uning axloqiy fazilatlarini bilan belgilanadi, degan g‘oyani ilgari suradilar. Shulardan ikkinchi g‘oya tarafdorlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Biz esa mazkur ikki qarashni inkor etmagan holda, uchinchi qarashni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ya’ni, inson kamolotida go‘zallik zohiriy yoki botiniy tomonlardan birining ustuvorligi bilan emas, balki ikkala tomonning uyg‘unligiga asoslanadi; birini ikkinchisidan ajratish inson go‘zalligi haqida to‘laqonli tasavvurni bermaydi. Zotan, axloqiy fazilatlar insonning botiniy go‘zalligini mustahkamlasa, zohiriy (tashqi) ko‘rinish ham insonga ijobiy tuyg‘ular baxsh etadi.

Aksariyat hollarda insonning tashqi go‘zalligiga nisbatan yuzaki munosabat bildiriladi; tashqi go‘zallik shaxsning chinakam «Men»ini namoyon qilishiga to‘sqinlik qiluvchi, o‘tkinchi hodisa sifatida qaraladi. Jumladan, qadimgi hind hikmatnomasi «Kalila va Dimna»da yoshlarning go‘zalligi dunyoda o‘tkinchi bo‘lgan narsalar sirasiga kiritilsa, XX asr turk mutasavvif allomasi Muhammad Zohid qutqu esa «Tasavvuf axloqi» nomli asarida «Shubhasizki, ko‘ngil go‘zalligi, vujud go‘zalligidan bag‘oyat a’lo va afzaldir.» -deb uqtiradi. Ko‘rkam xulqning go‘zal yuz fazilatiga nisbatan ustuvorligini mazkur fikrlar orqali bilib olish qiyin emas. Shuningdek, tashqi jamol va ichki jamolning uyg‘unligi natijasida yuzaga keladigan ijobiy holatni alloma A.Fitrat «Oila» risolasida sodda qilib quyidagicha ifodalagan edi: «Yuqorida zikr etilgan go‘zallik (jamol) haqidagi so‘zlarimiz zohiriy (tashqi)

jamoldir. Agarda u botiniy (ichki) jamol bilan, ya'ni yaxshi xulq bilan bog'liq bo'lmasa bir tiyinga qimmat. Kimki o'z ixtiyori tizginini hayvoniy shahvat qo'lga bermagan ekan, doimo ichki jamolini tashqi go'zalligi bilan, ya'ni xusni axloqini qora ko'zlar va kamon qoshlar bilan ziynatlaydi».[2, 24 b]

Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, so'z, fikr, niyat, amal insonning axloqiy-estetik faoliyatida hamda xulqiy go'zallikka erishish yo'lidagi maqsad va intilishlariga asos bo'ladigan, insonni to'g'ri faoliyatga undaydigan ma'naviy omillardir. Ta'kidlash lozimki, iymonning hox diniy hox dunyoviy talqini bo'lsin ular mohiyatan insonda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Zotan, so'z, fikr, niyat va qilingan chiroyli amallarni har ikki talqindagi iymon inkor etmaydi. Aksincha, iymon kishilarning bir-biri bilan chiroyli so'zlar orqali muomala qilishga, chiroyli fikrlar bilan maqsadga intilishga, chiroyli niyat asosida yashashga va ularni go'zal amal orqali mujassam qilishga da'vat etadi. Bordi-yu inson chiroyli so'zlasa-yu iymoni bo'lmasa, illat shuki bu-yolg'onchilikka olib keladi; chiroyli fikrlarga ega bo'lsa-yu, iymonsiz bo'lsa, illat shundaki, bu-ik-kiyuzlamachilikka olib keladi; chiroyli niyatlar qilsa-yu iymon bo'lmasa, illat shundaki, bu-boqimandalikka, dangasalikka olib keladi va hokazo.

I.Kant tabiatni axloqiylik bilan bog'laydi: "Kimniki bevosita tabiat go'zalligi qiziqтира, bu uning fikrlash tarzida, yo'q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyat mavjudligidan dalolat beradi", - deydi u.[3, 314 b] Ammo Gegelning, tabiatda ideal yo'q, shu sababli u ikkinchi darajali go'zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni "bo'ysundirishni" targ'ib qilgan markschilikning tegirmoniga suv quydi. Natijada uzoq yillar mobaynida tabiat estetikasiga e'tibor qaratilmadi. Biz me'moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg'urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e'lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo'ydik.

Turmush estetikasi deganda biz insonning voqelikka keng qamrovli estetik munosabatini tushunamiz. U hozirgi paytda o'z ichiga kiyinishidan tortib, xulqiy go'zallikkacha, oilaviy an'analardan tortib, oilaviy makongacha bo'lgan estetik "doirani" o'z ichiga oladi. Turmush estetikasida eng muhimi, odamlarning narsalar dunyosiga, go'zallik va ulug'vorlik orqali qarashlari estetik didga, ijtimoiy ideallarga o'ziga xos munosabatlari namoyon bo'ladi, pirovard natijada u turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Sport musobaqalarida tomoshabinlar o'zlarini xuddi spektakl tomoshosidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak chaladilar va yomon o'yin ko'rsatganga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrda ham biz "o'yin" haqida gapiramiz"[4,92 b]. Boshqa bir o'rinda B.Lou H.Slyusherning "Sport va ekzistentsiya" kitobidagi quyidagi satrlarga e'tiborni qaratadi: "Sport - toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur ma'noga boy holat. sport botiniy yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy ko'tarinkilikni talab qiladi, - deb yozadi H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zavq haqida[5, 177 b].

Shular bir qatorda sport san'at uchun material bo'lib xizmat qiladi. bunga o'zimiz guvohmiz: biz sport mavzuidagi rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik namunalarini ko'p ko'rganmiz, hikoya va qissalarni o'qiganmiz. Biroq, bularning hammasi sportni san'at deb qabul qilishimiz uchun etarli asos bo'lolmaydi. B.Lou shunday ta'riflaydi: "Inson badanining - tabiiy shakldagi go'zallik ekanini, sportchi

qiyofasi ideal badan tuzilishini o‘zida mujassam etishini e’tirof qilar ekanmiz, sportdagi go‘zallikni san’atdan ko‘ra tabiatga taalluqli deyishimiz mumkin, zero sportdagi go‘zallik ko‘p hollarda tasodifiylik xususiyatiga ega”[6, 23-24-b]. Shunday ekan inson salomatlik estetikasi hamma davrlarda ham eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Yosh avlodni har tamonlama mukammal shaxs etib tarbiyalashda sog‘lom turmush tarziga amal qilmog‘i lozim. Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohatlarimiz birinchi navbatda inson manfaatiga xizmat qilayotganligi eng quvonarli holdir. Chunki bugungi tahlikali va tartibsiz bo‘lgan dunyoda davlatning qudratini belgilaydigan kuch sifatida yosh avlodni jismonan, ma’nan, aqlan yetuk yoshlari belgilashi yaqqol faktga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. T., Universitet, 1998, 38-b
2. Fitrat Abdurauf. Oila yoki oilani boshkarish tartiblari.-T.: Ma’naviyat. 1998.-24 b.
3. Kant I. Sochineniya v 6 t. T. 5. M., Mbisl, 1966. S.314.
4. Lou B. Krasota sporta. M., Raduga, 1984. S.92.
5. Qaxor ogli, Xoliqulov Muhammad. "IDEOLOGICAL AND THEORETICAL BASIS OF SUFISM." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI* (2022): 389-393.
6. Yaxshilich, Yaxshilich Jo‘raboy. – Korrupsiya va jinoyatchilik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik va millatchilik jamiyat taraqqiyotiga tahdid solmoqda. *ACADEMICIA: XALQARO KO‘P TARMOQLI TADQIQOT JURNALI* 11.2 (2021): 1206-1213

FORS TILIDA OG‘ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISHDA AMALIY METODLARNING AFZALLIKLARI

Xadjieva Nigora

TDSHU, Mumtoz filologiya va
adabiy manbashunoslik kafedrasida o‘qituvchisi
email: ninishka12@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muntazam qo‘llaydigan, o‘quvchilarga o‘z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va kunikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usullari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: metod, ta’lim, innovatsiya, og‘zaki nutq. Kompetensiya

ADVANTAGES OF PRACTICAL METHODS IN FORMING ORAL SPEECH IN THE PERSIAN LANGUAGE

Nigora Khadjieva TDSHU, Classical Philology and
teacher of the department of literary source studies
ninishka12@gmail.com

Abstract

This article provides information about the methods of work that the teacher regularly uses with students, which allows students to develop their mental abilities and interests, acquire knowledge and skills, and use them in practice.

Ta'lim sohasida sifat darajasini yanada oshirish vazifalarini hisobga olgan holda chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi haqiqatan ham pedagoglardan yangicha ishlashni talab qiladi va ularga katta mas'uliyat yuklaydi.

Grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar ko'rgazmali materiallar yoki ko'rgazmasiz o'tkaziladigan ta'limiy o'yin xarakteriga ega. O'quvchi nutqidagi xatolarni do'stona, xushmuomalalik bilan tuzatish kerak.

Talabalarning fors tilidagi nutq ko'nikmalarini shakllantirishda madaniy nutq mezonlariga amal qilish talab etiladi. Tilshunos mutaxassislarning belgilashiga ko'ra, madaniy nutq mezonlari quyidagilar:

1. Nutq to'g'riligi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning sofligi.
4. Nutq boyligi.
5. Nutqning ifodaliligi.
6. Nutq mantig'i.
7. Nutqning maqsadga muvofiqligi.

M.Berlis chet tillarini o'qitishda quyidagi qoidalarni ishlab chiqqan edi:

1. O'qitishda ona tilini qo'llamaslik, til hodisalarini esa tarjimaga murojaat qilmay, bevosita idrok etish lozim. Til hodisalarining ma'nosini turli xil ko'rgazmali qurol, kontekst yoki ta'riflashlar yordamida ochib berish kerak.

2. Barcha til materiali faqat og'zaki berilishi zarur.

3. O'quv materiali o'qituvchiga taqlid qilish protsessida taqqoslash prinsipidan keng foydalanib mustahkamlanishi zarur.

4. O'quvchilarning aktivlashuviga imkon beruvchi, tilni tabiiy o'rganishga eng yaqin ish formasi deb hisoblanishi kerak.

Ma'lumki, og'zaki nutq odatdagi tovushli va so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan foydalanilmaydi. Bu nutqda fikrni ixcham ifodali etkazish maqsadida to'liqsiz gaplardan ham foydalaniladi. Nutqning bu turi bir va bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi.

Fors tili darslarida talabalarning og'zaki nutqini o'stirishda tadqiqot metodini qo'llash samaralidir. Xususan, topshiriqlar tuzishda talabalarni ijodiy ishlashga yo'naltirish mumkin.

Hozirda darslarda modellashtirish (trenirovka), namoyish qilish, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, tanqidiy tafakkur, debatlar, nuqtai nazaring bo'lsin, bir-biriga o'rgatish, rolli o'yinlar, muayyan holatni o'rganish, modifikatsiyalangan ma'ruza kabi turli innovatsion usullar mavjud.[1.28]

“Kichik guruhlarda ishlash”. Bu usulda har bir talaba darsda faol ishtirokchi, boshlovchi, bir – biridan o'rganuvchi, turli nuqtai nazarlarini qadrlashni o'rganadi.

Fors tilida og'zaki nutqni shakllantirish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy metodlarni ko'rib chiqamiz:

Leksik birliklarni o'rgatish bunda, talabalarga ma'lum bir sohaga oid bo'lgan so'zlar jamlanmasi beriladi. Leksik birliklarni yod oladilar.

“Kim ko‘p” mavzusida o‘yin

Mavzu tanlanadi, masalan: "Oila". Maqsad-mavzu bo'yicha ko'proq leksik birliklarni biladigan talabani aniqlash. Talabalar navbatma-navbat so'zlarni chet tilida nomlashadi, ko'proq so'zlarni nomlagan kishi g'olib bo'ladi.

O'yinlar, o'z navbatida, fonetik bo'lishi mumkin, ya'ni leksik birliklarning talaffuzini o'rgatish va fonetik eshitish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan; yozish texnikasini o'rgatishga qaratilgan imlo. Yeshitish o'yinlari ko'plab o'qituvchilarning ta'lim jarayonida ham mavjud. Ular audio fonogrammani ijro etishda oqimdagi nutq naqshlari va so'z birikmalarini tanib olishga qaratilgan; o'quvchilarning eshitish xotirasi va reaksiyasini rivojlantirish.



Lug‘atdan foydalanish

Talabalarga lug‘at bilan ishlashni o'rgatish kerak. Leksik birliklarni o'rganish lug‘atdan boshlanadi, bu erda transkripsiya tufayli so'zning to'g'ri talaffuzini ko'rishingiz mumkin; nutqning bir qismi, shuningdek uning imlosi. Elektron lug‘atlar bugungi kunda keng tarqaldi, bu erda yuqorida tavsiflangan xususiyatlardan tashqari, leksik birlikni tinglash, o'rganilgan leksik birlik bilan barqaror iboralar va iboralarni ko'rish imkoniyati mavjud. Talaba yangi so'zlarni kiritishda o'quv jarayonida ushbu turdagi lug‘atlardan foydalanishi mumkin. Elektron versiyalar talabalarning otionalari uchun yaxshi yordamchi bo'ladi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'qituvchi darsda nutqi yaxshi rivojlanmagan talabalarga alohida e'tibor qaratishi kerak. Ayniqsa indamas, muloqot qilishni istamaydigan, o'zini tutib tura olmaydigan o'quvchilarga alohida yondashishi kerak. Mashg'ulot vaqtida qo'l keladigan interfaol usullar va didaktik o'yinlarning ahamiyati katta bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanish va muvaffaqiyatli tashkil etish talabalarning ongli faoliyatining faollashuvi, bilimlarni puxta egallash vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi.[2.]

Chet tilidagi nutq faoliyatini o'rgatish jarayonida material har doim ma'lum

dozalarda o'zlashtiriladi. Har bir bunday dozaga ega bo'lish mahorat darajasiga etkazilishi kerak. Bu darajaga erishish uchun materialni o'zlashtirishning ma'lum bosqichlaridan o'tish kerak. Materialning dozasini o'zlashtirish davrlari vaqti-vaqti bilan takrorlanar ekan, bosqichlar ham takrorlanadi. Har bir bosqich o'ziga xos maqsadga muvofiqligini hisobga olib, dars turlarini aniqlash mezonini nutq malakalarini shakllantirishning ushbu bosqichining maqsadi deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jaeva N.N.. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., 2006.,28.
2. Allayarova M. Artistic creativity as important attribute of the spiritual world of a person. 2023.

TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNING O'RNI

Abdumannotova N.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola pedagogning ta'lim jarayonini takomillashtirishda, dars mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagogik qobiliyatlarning ahamiyati to'g'risida. Shuningdek, maqolada bugungi kun o'qituvchisining oldiga qo'yilgan talablar ham o'z aksini topgan.

Annotation

This article is about the importance of pedagogical skills in improving the educational process of a pedagogue, organizing lessons. The article also reflects the demands of today's teachers.

Kalit so'zlar. Pedagogik qobiliyat, mahorat, ishonch, ta'lim, tarbiya, kasb, ko'nikma, didaktik, akademik.

Mamalakatimiz hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan, o'zgarishlardan biri, yosh-avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan shaxslardan biri pedagoglar faoliyatini rivojlantirishda, pedagog xodimlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati va kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan ishlarda ko'rinmoqda. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berayotgan pedagog maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimli va yuksak fazilatli shaxs hisoblanadi. Shu bois, bugungi kun zamonaviy o'qituvchisida quyidagi fazilatlar bo'lishi lozim. Pedagogdagi akademik, kommunikativ, didaktik, nutqiy qobiliyatlari ta'lim jarayonini tashkil etishda juda muhim hisoblanadi. U o'zining mutaxassisligi bo'yicha puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida muntazam ishlashi, ta'lim-tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi, fiziologiya fanlarining asoslarini bilishi, mashg'ulotlar jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatini tashkil etishi lozim. Ustoz-murabbiylar ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalanishni bilishi kerak. U yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik

layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olgan bo'lishi kerak. pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, hatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak. Pedagogning akademik qobiliyati:

-o'z fanini yaxshi bilishi va boshqa fanlar haqida haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi

Pedagogning nutqiy qobiliyati:

-nutqning sofliqi (uning turli sheva va so'zlardan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning o'rinsiz qo'llanilishi), vulgarizm (so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rinli bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so'zlashish) so'zlaridan xoli bo'lishi) va pedagogning nutqi sodda ravon va tushunarli bo'lishi kerak.

Perseptiv qobiliyati:

-o'quvchilarni tushunish qobiliyati

Pedagogning didaktik qobiliyati esa, o'quvchilarga turli mavzularga oid tushuncha va ma'lumotlarni oson yo'l bilan tushuntirish.

Hozirgi davr pedagogi o'z zimmasiga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, hatti-harakatini real baholay olishi kerak. Har bir faoliyat uchun zarur bo'lgan materialni oldindan tayyorlab qo'yishi, yangi bilimni egallagan bilimlar bilan bog'lay olishi. Bolalar egallab olishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ularning yoshlik xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. U bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va uni bolalar bilan amalga oshiradigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi kerak.

Shuningdek, pedagog ota-onalar bilan muntazam suhbatlar uyushtirishi, uchrashuvlar o'tkazishi, ularni bolalarga ta'lim-tarbiya berish bo'yicha amalga oshiriladigan ishining mazmuni, metodlari bilan tanishtirib borishlari lozim bo'ladi. U bolalarga nisbatan xayrixoh munosabatda bo'lishi va har bir bola uchun qulay ruhiy sharoit yaratish, xafa bo'lsa bolani ovuntira olish, xursandchilik va xafagarchiligiga sherik bo'la olish, kichik guruh bolalariga nisbatan muloyim, e'tiborli, qat'iy, sabr-toqatli, yumshoq, ozgina hazilkash, bolani kuch imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydigan bo'lishi kerak.

Bugungi kun pedagoglarining faoliyatida pedagogik mahorat salmoqli o'rin egallaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, bolalarning xulq-atvorini rag'batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir bolaning shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari - **ishontirish, talab, istiqbol,**

rag‘batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir.

O‘zaro hamkorlikda ta’sir ko‘rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo‘linadi. Ishonch 3 tarkibiy qismdan iborat: 1. **Bilim**; 2. **Hissiyot**; 3. **Xulq-atvor**. U **tushunish - kechinma - qabul qilish** orqali amalga oshadi.

Ishontirish shakllari maktab yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagilar etib belgilash mumkin: **suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko‘rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna**.

Pedagogik talab - ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri bo‘lib, u pedagog va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usuli bo‘lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Agar yagona pedagogik talablar bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag‘batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan bolalarning harakatlari birligiga erishish yo‘llarini ta’minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, bolalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullarini mukammal egallamasdan va undan mohirona foydalanmasdan turib ta’lim-tarbiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishib bo‘lmaydi.

Ijtimoiy ruhiyat nazariyasida va pedagogik amaliyotda o‘zaro fikr almashishda ta’sir ko‘rsatish ikki usulda olib boriladi: ishontirish va ta’sir etish. Rus pedagogi K.D.Ushinskiy “Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo‘li ishontirishdir, odamning e’tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta’sir qilish mumkin”, degan edi.

Ishonch – o‘zaro hamkorlikdagi ta’sir etishning natijasidir. Ishonch ikki xil, ya’ni haqiqiy va soxta turlarga bo‘linadi. Haqiqiy ishonch real borliq hayot talablariga mos bo‘lib, u insonni qadrli, obro‘li qiladi. Bolalikka buyuk hurmat-ehtirom bilan qarash lozim. Soxta ishonch o‘zi va birovlarining salbiy tajribasi, qarashlari asosida hosil bo‘ladi. Bolalardagi soxta ishonchni o‘zgartirish uchun pedagog ko‘p kuch sarflaydi. Ishonch odamlarning dil rishtalarini bog‘lovchi katta kuch. Buning uchun odam boshqalarga ishonmog‘i, ixlos qilmog‘i kerak. Halollik, adolat sof vijdonlilik, poklik, so‘z va ish birligi ishonchning mezonlaridir.

Insonda ishonch uchta tarkibiy qismdan tarkib topadi: **bilim - hissiyot - xulq-atvor**. Ishonch quyidagi formula: **tushunish - kechinmalar - o‘ziga qabul qilish - bajarish** (o‘z faoliyati va atrofidagilar tajribasi) asosida amalga oshiriladi.

Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki o‘zgaradi.

Ishontirish shakllari quyidagilar: munozara, bahs, suhbat, hikoya qilish va namuna.

Ishontirish hamkorlikda ta’sir ko‘rsatishda maksimum ta’sirli bo‘lishi uchun quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak.

- ishontirish mazmuni, shakli bolaning rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi;
- ishontirishda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

Ishontirishning o‘zaro hamkorlikdagi ta’sir ko‘rsatish samarasi quyidagi shartlarda yuz beradi:

- o‘zaro hamkorlikda ta’sirning kuchi ishontiruvchining obro‘siga va voqeaning mazmuniga bog‘liq;

- ishontirishda ishontiruvchining intellektual hissiy holati bilan ishonuvchining holati mos bo‘lishi kerak. Masalan, bola haddan tashqari hayajonlanganda, noxush his-tuyg‘ular unda hukmronlik qilganda uning xulqidagi kamchiliklarni ko‘rsatish orqali ta’sir ko‘rsatish samara bermaydi.

Pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda yuqorida aytib o‘tganimizdek pedagogik qobiliyatlarning ahamiyati kattadir. Demak, bugungi kun o‘qituvchisining pedagogik faoliyatida pedagogik mahorati, pedagogik qobiliyatlari alohida o‘ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5538 sonli Farmoni, 2018- yil 5- sentyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 3931 sonli qarori, 2018- yil 5- sentyabr.

YOSHLARNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI

Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
f.f.d PhD dotsenti, email: oliya.muxammadiyeva@tiaid.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida falsafaning o‘rni haqida fikr yuritilgan bo‘lib, turli olimlarning qarashlarida yoshlar axloqiy tarbiyasi masalalarining yoritilishiga keng e’tibor qaratilgan. Sharqona tarbiyaning falsafiy mazmuni ochib berilgan. Sharq mutafakkirlarining tarbiya borasidagi fikrlaridan misollar keltirilib, ma’naviy asoslari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlari: Ta’lim, tarbiya, milliy tarbiya, fazilat, xususiyat, psixologik qonuniyat axloq, illat, tahdid, ma’naviyat, ma’rifat.

Yangi O‘zbekiston sharoitida kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratib berishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Qolaversa, ma’naviyat davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Sog‘lom kishi deganda, faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalari ruhida kamol topgan insonni tushunamiz. Sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalarni ongiga singdirib olgan yoshlar yuksak ma’naviyatli kishilardan hisoblanadi.

Bugungi kunda millatimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oya asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Mazkur g‘oya ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan

yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar falsafiy qonuniyatlar asosida shakllantirishni, fazilatlar va asosli talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda uning falsafiy qonuniyatlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Milliy tarbiya haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir"[1] degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi. Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lutolar ilmiy asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik, uning psixologik qonuniyatlarini bilmaslik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Falsafa o'z funksiyalari (dunyoqarash, tanqidiy, metodologik, aksiologik, bashoratlash, sintetik)ni amalga oshirishda jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, yoshlar axloqiy tarbiyasida o'rta asr Sharq mutafakkirlari qarashlarining roli beqiyosdir. XV asrda Movarounnahr, Eron va Xurosonda ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy fikr taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan olim Jaloliddin Davoniydir. Bizga ma'lumki, Sharq Uyg'onish davrida, Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksalgan davr edi. Davoniy ham ushbu davrning ilm-fan va axloqiga ulkan xissa qo'shgan qomusiy olimdir. U Foniylar tahallusi bilan ijod qilgan. Uning she'rlari Eron va Iroqda chop etilgan. Davoniyning eng mashhur asari bu "Axloqi Jaloliy" deb nomlanadi. Mutafakkir o'z asarida yosh avlodni tarbiyalash va uni yaxshi kasb hunar va malakalarni egallashi to'g'risida so'z yuritarkan, avvalo inson jamiyatda, atrofdagilar bilan o'zaro munosabat natijasida kamol topishini uqtiradi.

Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai Sultoniy yohud javonmardlik tariqati" asarida futuvvat ilmining mohiyati, uning mavzui, kelib chiqishi, piru muridlik, shayxlik va shogirdlik munosabatlari, so'fiylar va futuvvat axliga qo'yiladigan talablar, firqa shartlari, ular kiyadigan liboslari, bosh kiyimlar xulq-odobi haqidagi fikrlar batafsil bayon qilinadi[2, 36b]. Koshifiy futuvvat ilmi to'g'risida so'z yuritarkan, tasavvuf va tavhid ilmining bir bo'lami sifatida ta'riflaydi va uning

asosiy mavzusi inson ruhini tarbiyalash deb biladi. “Zero insonning ruhini fazilatli qilib yetishtirish mumkin”[3, 7b], deydi mutafakkir. Allomaning fikricha, futuvvat tariqatiga mansub inson yaxshi axloqli, javonmard, shijoatli, sahovatli, xalq g‘amini o‘ylaydigan, insonparvar, xushfe’l, kamtar, xokisor, xushfe’l bo‘lmog‘i zarur deyiladi. Koshifiyning ushbu risolasida, javonmardlik tariqati, uning xususiyatlari, sifatleri shartlari, futuvvat axlining xislatlari, tariqatning maqomlari va boshqalar haqida ma’lumot beradi. Yana mutafakkir javonmardlikning ruknlari haqida gapirib, ular oltita botiniy ruknlardan iborat ekanligini aytadi. Xusayn Voiz Koshifiy asarlarini o‘z davrining ilmiy tili –fors tilida yozgan bo‘lib, undan ko‘pgina ilmiy, badiiy tarjima asarlari ham meros qolgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she’r san’ati, din tarixi, fiq, tibbiyot kabi fanlarga oid 200–dan ortiq asarlar yozganligi manbalardan ma’lum. Allomaning O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik insitutida asarlarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari saqlanmoqda. Olim o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan iloxiyotchisi bo‘lib, Hadisni, Qur’oni Karimni yoddan bilgan, hatto Qur’onga to‘rt kitobdan iborat sharh ham yozgan.[4, 30b] Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, “Anvari Suxayli”, “Risolati Xotamiya”, “Futuvvatnomai Sultoniy”, “Tasviri Xusayniy”, “Javohirnoma” kabi o‘nlab asarlari arab, tatar, eski o‘zbek, urdu, turk, nemis, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bugungi kunda allomaning asarlari Parij, London, Berlin, Sankt–Peterburg, Moskva kabi shaharlarda, Iroq, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Xindiston, Bangladesh va boshqa sharq mamlakatlarining kutbxonalari saqlanmoqda. Chet yel mamlakatlarida allomaning asarlariga qiziqish XVIII–XIX asrlardayoq juda kuchli bo‘lib, G‘arbiy Ovropaning X.G.Kin, M.Duayt, D.D.Donal’son, E.Braun, A.A. Arberri, E.S.Kennedi, E.Rozen’tal’, X.Masse, K.S. Lambton, R.Levi, A. M. Shasteri kabi mashhur olimlari Markaziy Osiyo va Eronning XIV–XV asrdagi madaniyati tarixini atroflicha o‘rganganlar va allomaning boy tarixiy merosiga yuksak baho berganlar. Xusayn Voiz Koshifiy Hirot madrasalarida talabalarga ta’lim – tarbiya berib, ularga hamda Xuroson shahri axolisiga axloq–odobdan ham ma’ruzalar o‘qigan.

Xulosa qilib aytganda, komil inson ta’limoti xalqning orzu-istaklari, fikr-o‘ylarini aks ettirgan bo‘lib, undan ko‘zlangan asosiy maqsad xalqni komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirish, turli aqida va toifaga mansub kishilarning ongi-shuuriga ilohiy xislatlar, iymon-e’tiqod, hamida axloq, go‘zal fazilat va xulq-odob qoidalarini singdirish bo‘lgan. Mutasavviflar tomonidan komil insonga xos xususiyatlarning ochib berilishi keyingi allomalar, faylasuflarning asarlari, qarash va g‘oyalarining ma’naviy asosi bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi <https://www.xabar.uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday>.

2. Aliqulov X., Nosirov R., Qodirov M., Omonboyeva R., Ashurov A. Tasavvuf ta’limoti va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. O‘quv qo‘llanma. Andijon. 2005y.

3. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyl yohud javonmardlik tariqati.– T.,1994–y.
4. Aliqulov X. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T. Adolat. 1995–y.
5. Jabborov X. “Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari”. Psixologiya ilmiy jurnali, 2021 yil 3-son.
6. Narzullaevna, M. O., & Marjona, N. (2022). Gender Equality Guarantees Women's Rights And Opportunities. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 2, 33-36.
7. Muxammadieva, O., & Annaguliyev, J. (2023). The importance gender equality in government ruling. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 9, pp. 21-24).
8. www.pedagog.uz
9. www.edu.uz
10. www.cyberleninka.ru

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Бахтияри Тахир Бахтияр угли,
Джизакский политехнический институт, Ассистент,
+998933059009, tobax2ogl@gmail.com

Аннотация

В этой статье представлена информация об инновационных технологиях в обучении английскому языку.

Ключевые слова: интернет, интернет-ресурсы, интернет-сайтов, Онлайн-общение, обучение.

Annotation: This article provides information about innovative technologies in teaching English.

Keywords: Internet, Internet resources, Internet sites, Online communication, training.

С развитием общества меняется содержание преподавания иностранных языков. Объем информации, которую должны усваивать учащиеся, резко возрос и продолжает расти.

Преподаватели в новых условиях ищут и внедряют на практике новые методы решения поставленных задач, в том числе с использованием компьютерных технологий в обучении английскому языку. Современные педагогические технологии, такие как обучение в сотрудничестве, проектная методика, использование новой информации технологии, интернет-ресурсы помогают реализовать лично-ориентированный подход к обучению, обеспечивают индивидуализацию и дифференциацию обучения с учетом способностей учащихся, их уровня, склонностей и т.д.

Формы работы с компьютерными обучающими программами на занятиях по иностранному языку включают:

- изучение лексики;

- отработка произношения;
- обучение диалогической и монологической речи;
- обучение письму;
- развитие грамматических явлений.

Возможности использования интернет-ресурсов огромны. Интернет создает

условия для получения любой необходимой информации, находящейся в любой точке мира: региональные географические материалы, новости из жизни молодежи, статьи из газет и журналов, необходимая литература и т.д.

Остановимся подробнее на следующих возможностях компьютерных технологий:

- 1) использование нескольких интернет-сайтов при обучении английскому языку;
- 2) использование skype при обучении английскому языку;
- 3) поиск дополнительной (к учебнику) информации в Интернете по заданию преподавателя;
- 4) поиск преподавателем дополнительной (по отношению к учебнику) информации в Интернете для использования на уроках английского языка;

Для эффективного преподавания английского языка наиболее привлекательным, на наш взгляд, является использование ряда сайтов. Они помогают решить ряд дидактических задач: сформировать навыки чтения с использованием материалов из глобальной сети; пополнить словарный запас; сформировать устойчивую мотивацию к изучению английского языка; расширить кругозор учащегося [1, с. 113].

В результате использование сайтов помогает студентам развить следующие профессиональные компетенции:

- владеть системой лингвистических знаний, включающей знание основных фонетических, лексических, грамматических, словообразовательных явлений и закономерностей функционирования изучаемого иностранного языка, его функциональных разновидностей;

- иметь представление об этических и моральных нормах поведения, принятых в инокультурном обществе, о моделях социальных ситуаций.

- владеть основными способами выражения смысловой, коммуникативной и структурной преемственности между частями высказывания - композиционными элементами текста (введение, основная часть, заключение), предложениями.

- уметь использовать формулы этикета в устном и письменном общении (приветствие, прощание, поздравление, извинение, просьба).

В преподавании английского языка в современных условиях важность использования Skype велика. Онлайн-общение, несомненно, помогает обогатить словарный запас студентов и пробудить живой интерес к

фразеологии изучаемого языка. Формируется интерес к языковым фактам, развивается умение зорко видеть и слышать, пытливо вникать в смысл встречающихся выражений, а также стремление к их самостоятельному употреблению.

Рекомендуя студентам общение по скайпу, мы в то же время обращаем внимание на факторы, затрудняющие восприятие. Это такие моменты: - слишком беглая речь собеседника;

- тихий голос собеседника;
- одновременная речь нескольких человек;
- большое количество новых и сложных слов в речи говорящего;
- сложные конструкции предложений;
- другие отвлекающие факторы.

Эти недостатки не умаляют достоинств Skype, которые в первую очередь проявляются в естественном усвоении словарного запаса иностранного языка: ни в одном источнике вы не найдете столько много фраз и выражений естественной повседневной речи.

Одной из технологий, обеспечивающих личностно-ориентированное обучение, является метод проектов, как способ развития креативности, познавательной активности, самостоятельности [2, с. 32]

Типология проектов разнообразна. Проекты можно разделить на монопроекты, коллективные, устно-речевые, письменные и интернет-проекты. Хотя на практике часто приходится иметь дело со смешанными проектами, в которых присутствуют признаки исследования, творчества и информатсии.

Работа над проектом - это многоуровневый подход к изучению языка, охватывающий чтение, аудирование, разговорную речь и грамматику. Проектный метод способствует развитию активного самостоятельного мышления студентов и ориентирует их на совместную исследовательскую работу. Проектное обучение воспитывает такие нравственные ценности, как взаимопомощь и эмпатия, формирует творческие способности и активизирует учащихся. В процессе проектного обучения прослеживается преемственность обучения и воспитательной работы. Проектная форма работы - одна из актуальных технологий, позволяющих учащимся применять накопленный опыт. знания по предмету. Студенты расширяют свой кругозор, границы владения языком, приобретают опыт его практического использования, учатся слышать, понимать друг друга во время защиты проектов. Студенты работают со справочниками, словарями, компьютером, тем самым создавая возможность непосредственного контакта с языком, что не позволяет изучать язык только с помощью учебника.

Работа над проектом - это творческий процесс. Студент, самостоятельно или под руководством преподавателя, может работать над проектом самостоятельно. учитель, занимающийся поиском решения какой-либо проблемы, требует для этого не только знания языка, но и владения большим объемом предметных знаний. Работа над проектами развивает фантазию, образное мышление и другие личностные качества.

Конечно, использование Интернета в образовании не является альтернативой традиционным учебникам. Компьютер стал техническим средством обучения и может дополнять традиционные занятия.

Использование самых передовых компьютерных технологий никогда не заменит преподавателя английского языка по нескольким причинам:

- Ни одна из существующих компьютерных технологий не может полностью имитировать образовательную деятельность преподавателя;
- невозможно заменить многоаспектное эмоциональное взаимодействие компьютерными средствами обучения [3, с. 174].

Таким образом, компьютерные технологии, становясь неотъемлемой частью образовательного процесса, остаются технологиями, которые берут на себя ключевую роль преподавателя в обучении студентов иностранному языку.

Список использованной литературы:

1. Андреев А.А. Некоторые проблемы педагогики в современных информационно-образовательных средах. 2004. №6 С. 113
2. Балыхина Т.М., Гарцов А.Д. Информатизация преподавания иностранных языков: развитие компьютерной лингводидактики. 2006. № 4. С. 32.
3. Сарана Т.П. Компьютерный консалтинг в самостоятельном изучении иностранных языков. Пятигорск, 2005.С. 174.

MOODLE PLATFORMASI ORQALI FORS TILI O‘QITISHDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Nodir Raxmatullayev

TDSHU, Mumtoz filologiya va
adabiy manbashunoslik kafedrasida katta o‘qituvchisi
raxmatullaevnodir@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Moodle platformasida modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llagan holda fors tilining o‘qitilishi samaradorligi, afzalliklari hamda modulli texnologiya asosida fors tilini o‘qitish amaliyotida qo‘llaniladigan o‘quv modullarini ishlab chiqilishiga olib kelishi, bu esa o‘qituvchilarga o‘ziga xos o‘quv materiallari va o‘qitishga tizimli yondashuvga ega bo‘lish imkonini berishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Moodle, metod, aorist, modul, modulli o‘qitish, texnologiya.

Moodle platformasi onlayn ta’limni yaratish va boshqarish uchun kuchli bir ta’lim platformasidir. Demak, Moodle samarali onlayn o‘rganish va bilim almashish uchun boy xususiyatlar to‘plamini taqdim etadi. Bu xususiyatlar o‘qituvchilarga kurslar yaratish va boshqarish, talabalar bilan muloqot qilish, talabalar ishini baholash, hamkorlik va guruh ishini qo‘llab-quvvatlash hamda platformani foydalanuvchining individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Moodle o‘zining moslashuvchanligi va kengayuvchanligi tufayli onlayn ta’lim uchun eng mashhur platformalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu maqsadda Moodle platformasida “Fors tilida hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli” mavzusini o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish jarayonlari afzalliklari haqida so‘z yuritimiz.

Moslashuvchanlik: Moodle o‘qituvchilarga o‘quv maqsadlari va talabalarning

“Fors tilida hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli (HKZSHIM-aorist³²)” mavzusini o‘rganishdagi ehtiyojlariga javob beradigan modullarni yaratishga imkon beradi. Modullar asosiy qoidalardan tortib murakkab tuzilmalargacha aoristning turli jihatlarini bosqichma-bosqich o‘rganishni ta’minlash uchun tuzilishi mumkin.

Interfaollik: Moodle talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa uchun turli xil vositalarni taqdim etadi, masalan, muhokama forumlari, chat xonalari va qayta aloqa tizimlari. Bu talabalarga savollar berish, qiyinchiliklarni muhokama qilish va o‘qituvchi va boshqa talabalardan yordam olish imkonini beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar: Moodle talabalarga aorist qoidalari haqidagi bilimlarini amalda qo‘llashga yordam beradigan amaliy mashqlar yaratish imkonini beradi. Bu grammatik mashqlarni bajarish, jumlar yozish yoki hatto aorist yordamida qisqa matnlar yaratishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Moodle platformasida modulli ta’limga oid misolni ko‘rib chiqamiz.

“Aoristning yasalihi” moduli: Ushbu modulda talabalar aoristning asosiy qoidalarini, shu jumladan shakllanishi va ishlatilishini o‘rganishlari mumkin. Modulda materialni mustahkamlash uchun video darslar, grammatik izohlar, misollar va mashqlar bo‘lishi mumkin.

“Aoristning sodda gaplarda ishlatilishi” moduli: Bu modulda talabalar aoristni real vaziyatlarda va har xil tematik mavzudagi matnlarda, masalan, darak, undov va so‘roq gaplarda qanday ishlatishni o‘rganishlari mumkin. Modulda asl forscha matnlar, o‘qish va dialog tuzish uchun topshiriqlar, o‘qituvchi tomonidan fikr-mulohazalar bo‘lishi mumkin.

“Aoristning turli xil gaplarda qo‘llanishi” moduli: Bu modulda talabalar aoristning turli xil gaplarda, ergashgan gapli qo‘shma gaplarda kelishini o‘rganishlari mumkin, masalan, orzu-istak gaplar, modal so‘z va modal fe‘llar bilan qo‘llanilgan gaplar, maqsad ergash gaplar va boshqalar. Modul taqqoslash jadvallari, jumalarga misollar va amaliy topshiriqlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Masofaviy ta’lim yoki auditoriya mashg‘ulotlarida platformaga oldindan o‘qituvchi tomonidan joylangan “Fors tilida hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli” mavzusidagi video darslar, grammatik izohlar, misollar va materialni mustahkamlash uchun mashqlar va topshiriqlar hamda nazorat savollari mavjud bo‘ladi. Fors tilidagi ushbu mavzuga quyidagicha dars ishlanmasini yaratish mumkin:

Dars nomi: Fors tilida hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli.

Darsning maqsadi: Fors tilida hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli – aoristning yasalihi va qo‘llanish qoidalarini o‘rganish.

Davomiyligi : 80 daqiqa

Dars materiallari:

1. Video dars: “Aoristning yasalihi”

- Videodars fors tilidagi aorist haqida umumiy ma’lumot beradi.
- Aorist yasalihi asosiy qoidalari tushuntiriladi.
- Aoristning turli kontekstlarda qo‘llanilishiga misollar keltiriladi.

2. Grammatika izohlar:

³² Rus eronshunosligida “hozirgi-kelasi zamon shart istak mayli” “aorist” deb nomlanadi (https://ru.wikipedia.org/wiki/Грамматика_персидского_языка).

- Sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarda aoristning shakllanishi tushuntiriladi.
- Maxsus qoidalar va istisnolar tushuntiriladi.

3. Aorist qo'llanishiga oid misollar:

- Aoristning turli gaplarda ishlatilishini ko'rsatadigan jumlar to'plami beriladi.
- Aoristdan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish uchun turli qiyinlik darajasidagi jumlar taqdim qilinadi.

4. Mashqlar:

- Berilgan fe'llar yordamida aoristni yasashga doir vazifalar.
- Jumalarda infinitiv shaklda keltirilgan fe'llarning aorist shaklini moslab qo'yib chiqishga oid topshiriqlar beriladi.
- Aorist qatnashgan jumalarni fors tiliga tarjima qilish uchun topshiriqlar taqdim etiladi.

5. Yakuniy xulosa:

- Aoristni o'rganish jarayonida talabalar duch keladigan savollar va qiyinchiliklarni muhokama qilish uchun forum, suhbat tashkil etiladi.
- O'qituvchiga qo'shimcha savollar berish va fikr-mulohazalarni olish imkoniyati beriladi.

Dars jarayoning borishi:

1. Darsni uning maqsadi va umumiy tuzilishi bilan tanishtirishdan boshlanadi.
2. Talabalarga "Aoristning yasalishi" nomli video darsni ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan asosiy qoidalar va misollar tushuntiriladi.
3. Sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarda aoristning shakllanishi haqida grammatik izohlar beriladi. Maxsus qoidalar va istisnolarga diqqat qaratiladi.
4. Talabalarga aoristdan foydalanishga oid misollar to'plamini taqdim etiladi. Ulardan jumalarni tahlil qilish va to'g'ri yo'noto'g'ri tuzilganligini aniqlash so'raladi.
5. Talabalarga aoristni yasash va uni qo'llash bilan bog'liq mashqlarni bajarish taklif etiladi. Mustaqil ishlashlariga imkoniyat yaratib beriladi va natijalar tekshiriladi.
6. Shu tarzda keying modullarga ham kirishiladi.
7. Mashqlarni bajarib bo'lgach, yakuniy xulosa qilinadi. Talabalarning savollariga javob beriladi va kerak bo'lganda qo'shimcha izohlar bilan tushuntiriladi.
8. Talabalar eslab qolishlari kerak bo'lgan asosiy fikrlarni ta'kidlab, mustaqil ta'lim uchun qo'shimcha materiallarni taqdim etish orqali dars yakunlanadi.

Darslarning modulli ta'lim texnologiyasi orqali o'rganilishi talabalarning fors tili grammatik mavzularini o'zlashtirishga va ularni amalda qo'llay olish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Moodle platformasida modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanish fors tilini o'qitishda samaradorlik va natijadorlikni ta'minlaydi. Bu talabalarga ma'ruzalar, taqdimotlar, multimediy materiallari, misollar, amaliy mashqlar va topshiriqlarni o'z ichiga olgan tizimli va ketma-ket ta'lim olish imkonini ham onlayn, ham oflayn holatda taqdim etadi. O'qituvchilar talabalarga fors tilidagi mavzularni o'rganishga yordam beradigan interfaol modullarni yaratish uchun Moodledan unumli foydalanishlari mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Kasb-hunar kollejlari kasbiy fanlarning modulli o'qitish texnologiyalari. O'quv metodik qo'llanma. - T.: Yangi asr avlodi, - 2003.

GLOBALLASHUV JARAYONINING MILLIY MA'NAVIYATGA TA'SIRI

Amriddinova Hilola

Samarqand davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi
(hamriddinova@mail.ru)

Annotatsiya

Mazkur maqolada dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga kirib borayotgani, bugungi globallashgan jamiyatda qadriyatlar, axloq, ma'naviy tahdidlar, ularni destruktiv jihatlari, uning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati yoritib berilgan

Kalit so'zlar: axloq, ma'naviy tahdidlar, qadriyatlar, globallashuv, tahdid, ma'naviyat dunyoqarash.

GLOBALIZATION PROCESS TO NATIONAL SPIRITUALITY EFFECT

Abstract: In this article, the process of globalization in the world is entering all aspects of social and political life, values, morals, moral threats, their destructive aspects, and its socio-philosophical importance in today's globalized society are highlighted.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Xususan, globallashuv sharoitida axborot omilining etakchi o'ringa chiqayotganligi bois bunday sharoitda yoshlarimizni turli global tahdidlardan himoya qilish, ularni g'oyaviy tahdidlarga qaram bo'lmaydigan ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishlarini ta'minlash har qachongidan ham muhim.[1.14] Chunki globallashuv ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlarga ham ega bo'lib, bular birinchi navbatda mafkuraviy tahdidlarning hech qanday chegaralarsiz kirib kelishi bilan xarakterlanadi.[2.130]

Globalashuv jarayonlarining nihoyatda chuqurlashib ketganligi va hayotimizning barcha jabhalariga sezilarli ta'sir etayotganligi bilan xarakterlanadi. Albatta globallashuv jarayonining hozirgi davr insoniyat hayotidagi ta'sir doirasi, tutgan o'rni va ahamiyati haqida bu borada tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchi olimlar, siyosatshunoslar hamda taniqli davlat arboblari tomonidan turfa fikrlar, qarashlar, mulohazalar bildirilgan. Kezi kelganda aytish joizki ayni masaladagi qarashlarda bir birini inkor etuvchi holatlarni ham kuzatish mumkin. Ammo bu boradagi fikrlarning aksariyatida globallashuvning ham ijobiy ham salbiy tomonlarini e'tirof etuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi desak xato qilmagan bo'lamiz. Xo'sh, globallashuv jarayonini haqiqatdan ham hozirgi o'ta shiddatli va murakkab davr tezligi talablariga javob beradigan, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijobiy bir fenomen sifatida qabul qilish kerakmi, yoki aksincha, milliy ma'naviyatning emirilishiga, urf-odat, an'ana, qadriyatlarning zaiflashuviga olib keladigan salbiy jarayon sifatida.

Xo'sh, globallashuv jarayonining ma'naviy tahdid ko'rinishidagi jihatlari nimalarda namoyon bo'lmoqda va umuman "ma'naviy tahdid" deganda nimani tushunish kerak. Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo'lgan turli xil noan'anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va

turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy tahdidlar hisoblanadi. Bugungi kunda “Ma’naviy tahdid” tushunchasi keng ishlatilmoqda. “Tahdid” so‘zi xavf-xatar, xuruj va buzish ma’nolarini anglatadi. SHu ma’noda ma’naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi. Ma’naviy tahdidlar bir necha ko‘rinishdan iborat bo‘lib, birinchi ko‘rinish mafkuraviy xurujlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e’tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozitsiyasini o‘zgartirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri fikrlash, mutaassibona dunyoqarash va zararli hayotiy pozitsiya shaxsning mafkuraviy nosog‘lomligini anglatadi. Ma’naviy tahdidning ikkinchi ko‘rinish g‘oyaviy tahdiddir. Bu xuruj ham uch ma’noga ega bo‘lib, bunda asosiy e’tibor shaxs xulq-atvorini aynitish, shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishga qaratiladi. Zararli xulq-atvor, nosog‘lom axloqiy munosabat va qo‘pol muomala shaxsning xulqi zaifligidan dalolat beradi. Ma’naviy tahdidning uchinchi ko‘rinishi informatsion hujumdur. Bunda asosiy e’tibor shaxsga noto‘g‘ri ma’lumot berish, shaxs bilimni primitlashtirish va shaxs faoliyatini zaiflashtirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lish, sayoz bilimlilik va samarasiz faoliyat shaxsning madaniy oqsoqligidan dalolatdir. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tahdidlar jamiyat kishilarini johil kimsalarga aylantiruvchi ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlaridir.

Darhaqiqat, global axborotlashuv yoshlarimizning dunyoqarashi, tafakkuriga, milliy-madaniy qadriyatlarga ham turli xil yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatishga intilayotganligi ijobiy mohiyat kasb etishi bilan birga, salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarish ehtimoli namoyon bo‘lmoqda.[4.] Ushbu jarayonning bunday ta’sirini yoshlar hayotidagi pozitiv o‘zgarishlarga mos “me’yor” darajasi bilan taqqoslab olib borish, aksincha, uning buzilishi holatini farqlash va hisobga olish muhim. Ayniqsa, axborot ko‘lami tez sur’atlar bilan ortib, mustaqillik tufayli yoshlarimizning yangi-yangi axborot maydonlariga kirish imkoniyatiga ega bo‘layotgan bir davrda, muayyan millat yoki xalqqa xos bo‘lgan fikrlar, qarashlar axborot tizimi orqali butun dunyoga tarqatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda yoshlar ma’naviyati bugungi axborot xavfsizligini ta’minlash sharoitida kuchli g‘oyaviy immunitet rivojini talab etib, jamiyatning madaniy-ma’naviy sohalarini uchun mas’ul davlat tashkilotlari ushbu masalaga alohida diqqat-e’tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma’naviyat», 2008. – 270 b.
2. M. Hamdamova. Ma’naviyat asoslari. –T.: Fan va texnologiya. 2008. –B. 137.
3. Z. Q. Ismoilova. Ma’naviy –axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental metodik asoslari (milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar asosida). Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –T.: 2006. –B. 46.
4. M. Allayarova. Artistic creativity as important attribute of the spiritual world of a person. 2023

TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI MILLIY QADRIYATLAR TIZIMIGA MUNOSABATINI RIVOJLANITIRISH ISTIQBOLLARI

Ametov Axmet Qulametovich

Ajinyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrası
assistent o`qtuvchisi. email:ahmetamitov6@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonin demokratik qadriyatlar va milliy qadriyatlar munosabati tizimidagi uyg'unligi asosida rivojlanitirish, ularda yuksak ma'naviyatlik, huquqiy me'yorlar va qonunlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish asosiy vazifalaridan ekanligi ko'rsatib berilgan. Ta'lim-tarbiya, qadriyatlarni shakllantirishda milliy an'nalarimiz etarlicha asoslangan.

Kalit сўзлар: ta'lim-tarbiya, xalq bilan muloqot, strategiya, shaxs va jamiyat manfaatlari, aniq maqsad, komil inson, globallashuv jarayonlari.

Globalashuv borayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda barcha sohalarda shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish borasida o'ziga xos siyosat amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy maqsad, bir tomondan, fuqarolarga moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy, erkinliklar berish bo'lsa, ikkinchi tomondan, turmush-tarzimida ma'naviy mezonlarni barqarorlashtirish hamda xalqimizning ma'naviy-ruhiy dunyoqarashini tarbiyalashdir. "Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi xulq-odobni, yaxshi o'qishni, so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin"[1.10]. Chunki hamma vaqt haqiqat shuki moddiy manfaatlar ma'naviy manfaatlar bilan uyg'unlashgan holdagina ijobiy mevasini beradi. Zotan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «xalq bilan bevosita muloqot olib borish, uning dardu tashvishlari bilan yashash, el-yurtimizni rozi qilish – bu vaqtinchalik kompaniya emas. Bu – xalqimizning farovon hayotini, yurtimiz ravnaqini ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategiyadir»[2.94].

Yoshlarda shaxs va jamiyat manfaatlari uyg'unligini ta'minlashga oid bilim va ko'nikmalarini o'stirishning maqsad quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz.

Birinchiidan, yoshlarga jamiyatning yangi bosqichida barcha islohotlarining asl maqsadi xalq xohish-irodasini ifoda etish ekanligini chuqur singdirish. Bunda shaxs manfaati, uning huquq va erkinliklari, samarali mehnati, tashabbuskorligi davlat tomonidan himoya qilinishi va kafolatlanishiga doir nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirish zarur.

Ikkinchiidan, shaxs va jamiyat manfaatlarining o'zaro uyg'unligi jarayonini yuksaltirish ijtimoiy adolatni nazarot qiluvchi tizimni amaliy faoliyatiga ob'ektiv bahoni berish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Demak biz jamiyatni yangilashning muhim mezoni – sifatida insonlar manfaatlarini inobatga olish, tartibga solish, ular orqali boshqarish bilan bog'liq ekanligini bugungi ijtimoiy-amaliyot aniq va ravshan isbotlab qo'ydi. O'zbekiston Pespublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"[3.5], deyilishida ham

xalq manfaatlarining ustuvorligi ta'kidlanadi.

Uchinchidan, yoshlarda shaxs va jamiyat tushunchalari va ular o'rtasidagi uyg'unligiga doir bilimlarni shakllantirishda iqtisodiy siyosiy-huquqiy va madaniyat ongini o'stirishga qaratilgan fanlar, dars mashg'ulotlari salmog'ini oshirish lozim. Chunkiy shaxs va jamiyat manfaatlarining yuqorida ko'rsatililayotgan fanlar orqali bilimlarga ega bo'lish, davlatlararo manfaatlar to'qnashuvining siyosiy munosabatlarga ta'sirini o'rganish ham yoshlar dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi. Agar xalqlar hayotini manfaatlar idora etishini, fuqarolar faoliyati zaminida manfaatlar turishini hisobga olinsa, manfaatlar-ijtimoiy taraqqiyot omili ekanligi tabiiydir. Jamiyat rivojlanishi davomida ijtimoiy jarayon bilan birga shu taraqqiyotga monand tarzda ijtimoiy ong ham o'zgarib boradi.

Yoshlarga ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali shaxs va jamiyat manfaatlari mushtarakligining buzilishi ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishini, turg'unlikning hosil bo'lishini, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi uyg'unlikning buzilishini, oqibatda iqtisodiy parokandalik, ijtimoiy injiqlik, ma'naviy tanazzul kabi oqibatlar kelib chiqishini aniq misollar va tarixiy faktlar orqali tushuntirish lozim.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga harbirimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari intilishi, harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otanalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq"[4.124-125]. Davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va har jihatdan huquqiy ta'lim tarbiyaga ega bo'lgan barkamol avlod tarbiyasiga bog'liqdir. Yosh avlodni ruhan tetik, jismonan sog'lom, aqlan etuk, ma'naviy teran qilib kamol toptirish ajdodlarimiz ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lgan. Murakkab globallashuv jarayonlarida yosh avlodni jismoniy va ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalashda milliy ma'naviy qadriyatlarimizni va sharqona madaniyat asosida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda farzandni dunyoga keltirish, balki ularni yuksak ma'naviyatli, ma'rifatli qilib tarbiyalash emas, balki jamiyatda o'z o'rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berishdan ham iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ragimov K. Antologiya pedagogicheskix misley Azerbaydjana. –Moskva, Pedagogika, 1989. S. 10.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. –Toshkent: O'zbekiston. –B. 94.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2023. -B. 5
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.124-125.
5. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g'oya. "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, "Cho'lpon* (2018).

6. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.

7. NIZAMITDINOVICH, HAYDAROV ASLIDDIN. "Human and Nature: an Increase in the Level of Production and Consumption." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* 7.05 (2020): 278-281.

8. Haydarov, Asliddin Nizamitdinovich. "THE ROLE OF ECONOMIC AND SOCIAL SPHERES IN INCREASING THE LEVEL OF CONSUMPTION OF THE POPULATION." *Theoretical & Applied Science* 8 (2020): 27-29.

9. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO'YICHA* (2023): 32.

10. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4.1 (2024): 22-27.

РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОНЦЕПЦИИ И МЕТОДОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ КОНТЕКСТЕ

**Диларом Абдуллаева
Шахноза Толкинова**

Докторанты Национального университета Узбекистана

Аннотация

В данной статье рассматриваются концептуально-методологические основы развития образовательного процесса в Узбекистане. Обсуждаются ключевые направления развития образования, включая формирование гармонично развитой личности, развитие межкультурного и международного образования, использование современных технологий и обеспечение непрерывного образования. Предлагаются практические рекомендации по улучшению системы образования в Узбекистане с целью обеспечения качественного образования и подготовки специалистов, готовых к вызовам современного мира.

Ключевые слова: методологические основы, гармонично развитая личность, межкультурное образование, международное образование, информационно-коммуникационные технологии, непрерывное образование, модернизация учебных программ.

DEVELOPMENT OF OBRAZOVANIA AND UZBEKISTAN: CONCEPTS AND METHODOLOGY AND SOVREMENNOM CONTEXT

Annotation: В данной статье рассматриваются концептуально-методологические основы развития образовательного процесса в Узбекистане. Обсуждаются ключевые направления развития образования, включая формирование гармонично развитой личности, развитие межкультурного и международного образования, использование современных технологий и обеспечение непрерывного образования. Предлагаются

практические рекомендации по улучшению систем образования в Узбекистане с целью обеспечения качественного образования и подготовки специалистов, готовых к вызовам современного мира.

В современном мире образование играет ключевую роль в формировании и развитии общества, определяя его конкурентоспособность и интеллектуальный потенциал. В контексте Узбекистана, страны с богатой культурной и исторической наследием, развитие образовательной системы стоит перед вызовами, требующими нового взгляда на концепции и методологии обучения. В данной статье мы рассмотрим концептуальные и методологические основы развития образовательного процесса Узбекистана, а также рассмотрим различные методы и практики, направленные на повышение качества образования и подготовку кадров, соответствующих современным вызовам и потребностям общества.

Достижение высокого уровня образования требует не только внедрения новых методов и подходов, но и укрепления сотрудничества между образовательными учреждениями, правительством, бизнес-сектором и общественными организациями. Только через совместные усилия всех заинтересованных сторон можно обеспечить эффективную реализацию стратегий развития образования.

Образование является ключевым стержнем развития общества, определяющим его конкурентоспособность, интеллектуальный потенциал и устойчивость к вызовам современного мира. В контексте Узбекистана, страны с богатой историей и культурным наследием, вопрос развития образовательной системы стоит особенно остро. [1, 26 с.] Новые вызовы и возможности, связанные с глобализацией, технологическими инновациями и изменениями в социально-экономической сфере, требуют нового взгляда на концепции и методологии образования.

Одним из ключевых направлений развития образования в Узбекистане является его концептуальная и методологическая основа. Это означает, что страна стремится не только модернизировать учебные программы и инфраструктуру образовательных учреждений, но и пересматривать свои основные подходы к образованию с учетом современных вызовов и потребностей общества.

Одной из основных концепций, лежащих в основе развития образования в Узбекистане, является идея формирования гармонично развитой личности. Это означает не только передачу знаний и умений, но и воспитание человека, способного к самореализации, творческому мышлению и социальной активности. [2, 103 с.] Такой подход требует не только изменений в содержании образования, но и в методах его осуществления.

Важным аспектом концептуально-методологических основ развития образования в Узбекистане является уделяемое внимание межкультурному и международному образованию. Учитывая глобализацию и растущую мобильность людей, важно готовить обучающихся к взаимодействию с представителями других культур и стран. Это требует не только изучения иностранных языков, но и развития межкультурной компетенции и понимания.

Еще одним важным аспектом является использование современных технологий в образовательном процессе. В Узбекистане активно внедряются информatsionно-коммуникatsionные технологии, онлайн-обучение, а также методы дистанционного образования. [3, 159 с.] Это позволяет расширить доступ к образованию, повысить его качество и актуализировать учебный процесс.

Следует также отметить значимость непрерывного образования и обучения в системе концептуально-методологических основ развития образования. Учитывая быстроту изменений в современном мире, важно, чтобы образование было не просто этапом в жизни человека, а постоянным процессом, способствующим его профессиональному и личностному росту.

Кроме того, важным аспектом в развитии образования Узбекистана является совершенствование системы оценки знаний и навыков обучающихся. Это включает в себя как усовершенствование методик оценки, так и пересмотр подходов к самой оценке. [4, 87 с.] Развитие компетентностного подхода позволяет более объективно оценивать уровень подготовки студентов, учитывая не только знания, но и их способности к применению полученной информatsii на практике.

Еще одним важным аспектом концептуально-методологических основ развития образования в Узбекистане является содействие развитию исследовательской деятельности студентов и преподавателей. [5, 50 с.] Поддержка научных исследований в области образования способствует развитию инновatsiy, повышению качества образовательного процесса и подготовке квалифицированных кадров для современной экономики.

Конечно, успешная реализatsiya концептуально-методологических основ развития образования требует не только политической воли и инвестиций, но и активного вовлечения всех участников образовательного процесса: обучающихся, преподавателей, родителей, работодателей и государственных органов. Только в тесном сотрудничестве всех заинтересованных сторон можно достичь поставленных целей и обеспечить качественное образование для всех граждан Узбекистана.

Ключевым аспектом продолжения развития образовательного процесса в Узбекистане является также укрепление партнерства с международными организatsiyami и другими странами. Обмен опытом, знаниями и передовыми практиками способствует более эффективной адаптatsii к изменяющимся требованиям мирового образования и внедрению инновatsiy на natsionalном уровне.

Важно также отметить, что концептуально-методологические основы развития образования в Узбекистане должны быть постоянно адаптированы и совершенствованы в соответствии с динамикой общественных потребностей, экономическими условиями и изменяющимися требованиями рынка труда. Гибкость и открытость к инновatsiyam являются ключевыми принципами, обеспечивающими успешное развитие образования в современном мире. [6, 114 с.] В процессе продолжения развития образовательной системы Узбекистана также важно уделить особое внимание развитию инфраструктуры образования. Это включает в себя создание современных учебных заведений, оснащенных

передовым оборудованием и технологиями, а также обеспечение доступности образовательных услуг для всех слоев населения, включая отдаленные и сельские районы.

Параллельно с этим необходимо развивать систему профессиональной подготовки и повышения квалификации педагогических кадров. [7, 64 с.] Обученные и мотивированные учителя играют ключевую роль в обеспечении качества образования и успешном формировании будущего поколения.

Важным аспектом также является активное вовлечение родителей и общественных организаций в образовательный процесс. [8, 84 с.] Содействие родителей в образовании детей и поддержка образовательных инициатив со стороны общества способствует созданию благоприятной образовательной среды и успешному развитию личности каждого обучающегося.

Наконец, важно подчеркнуть, что развитие образования в Узбекистане должно быть направлено не только на достижение экономического роста и технологического прогресса, но и на развитие гражданского общества, толерантности, гражданской идентичности и уважения к разнообразию культур и мировоззрений. [9, 109 с.]

В заключении можно отметить, что развитие образования в Узбекистане является важным приоритетом для обеспечения устойчивого экономического и социального развития страны. Концептуально-методологические основы, описанные в статье, представляют собой стратегическое направление, определяющее принципы и подходы к развитию образования в Узбекистане.

Однако для успешной реализации этих основ необходимо не только усилия со стороны правительства и образовательных учреждений, но и активное участие общества в целом. Только в тесном сотрудничестве всех заинтересованных сторон можно добиться значимых результатов в сфере образования.

Важно также подчеркнуть, что развитие образования — это постоянный и долгосрочный процесс, который требует системного подхода, постоянного анализа и адаптации к изменяющимся условиям. Только таким образом можно обеспечить высокое качество образования и подготовить новое поколение граждан Узбекистана к успешной и продуктивной жизни в современном мире.

Список литературы

1. Абдурахманов А.А. (2019). Развитие образования в Узбекистане: проблемы и перспективы. Вестник Ташкентского государственного университета экономики, 4(26), 22-29.

2. Узбекский государственный комитет по статистике (2020). Статистический бюллетень "Образование в Узбекистане". Ташкент: Узгоскомстат.

3. Худояров У.Н. (2021). Методология развития образования в современном Узбекистане. Ученые записки Ташкентского государственного университета, 2(42), 156-163.

4. Юсупова Г.Ш. (2018). Оценка качества образования в Узбекистане: актуальные проблемы и перспективы развития. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, 1(3), 82-90.

5. Исмаилова Л.К. (2022). Проблемы и перспективы развития высшего образования в Узбекистане. Научный вестник Ташкентского государственного педагогического университета, 2(18), 45-52.

6. Хакимов Ф.Р. (2021). Использование информационно-коммуникативных технологий в образовательном процессе: вызовы и перспективы для Узбекистана. Вестник высшей школы Узбекистана, 3(30), 112-120.

7. Узбекский Национальный институт высших технологий (2020). Аналитический отчет "Тенденции развития образования в Узбекистане". Ташкент: УНИВТ.

8. Каримова Д.Б. (2019). Инновационные подходы в развитии образования: опыт и перспективы Узбекистана. Педагогический журнал Узбекистана, 4(12), 78-86.

9. Сайфуллаев А.Р. (2022). Роль государственной политики в развитии образования в Узбекистане. Сборник научных трудов Национального исследовательского университета Узбекистана, 5, 101-110.

МАТЕМАТИКА FANIDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Raximov Shahriyor Normurod o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim va gumanitar fanlar fakulteti

"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

raximovshahriyor2412@gmail.com

+998993125343

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ertak masalalar orqali matematik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bu bilimlarni kundalik hayotda muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish, matematik ertaklarning bolalar hayotidagi ahamiyati, bunday ertaklardan qo'llaniladigan darslarni tashkil qilishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: matematik ertak, masala, hayotiy uydirmalar, hayotiy haqiqat, masala chizmasi, talab, mazmun, integratsiya.

Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi mulohaza yuritishga chorlaydi, tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi". [1].

Bilamizki, ertak inson fantaziyasi va ichki kechinmalari mahsuli sifatida dunyoga keladi. E'tiborli jihati, har doim ularda insonparvarlik, vatanga muhabbat,

mehnatsevarlik, rostgo'ylik, halollik tuyg'ulari ustuvor bo'ladi va har bir ertak yaxshilikning yomonlik ustidan qilgan g'alabasi bilan tugaydi. "Shunday qilib murod-maqсадiga yetibdi" degan iboraning deyarli hamma ertak yakunida uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi.

Boshlang'ich sinf matematika darsida ertak masalalardan foydalanish, o'quvchining fikrlashini va dunyoqarashini kengaytirib, uning matematikaga ongli munosabatini shakllantirishda katta yordam beradi. Kichik va maktab yoshidagi bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib qoladi. Voyaga yetganidan keyin ezgu ishlarga odatlanadi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf matematika darsida ertak masalalarni qiziqarli va maromiga yetkazib aytish va shu orqali bolaning e'tiborini jalb qilish ham bir san'at. Ertaklar faqat tarbiya vositasi emas, balki matematik bilim berish, matematik taffakurini rivojlantirish hamda kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishdir.

Zero, bir narsani unutmaslik lozim, ertaklar hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan bo'lsada, matematik ertak masalalarda tabiiy ravishda hayot haqiqati aks etadi. Qiziqarli syujet bilan boyitilgan bu hikoyalar o'quvchi bolaning ongli ravshda hayotni angalshiga yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda, matematik ertak masalalar yosh avlodning matematikaga qiziqishini orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir ertak uchta asosiy qismdan iborat tuzilishga ega: xayoliy mamlakat, qahramonlar o'rtasidagi ziddiyat, ziddiyatni hal qilish, baxtli yakun. Matematik ertak, albatta, matematikaning bir sohasiga nisbatan moyillikka ega.

Arifmetik yoki oddiy geometriya.

Agar syujetda raqamlar taqdim etilgan bo'lsa, u holda bola shakllarning nomlarini va ularning tashqi ko'rinishini eslab qoladi va agar raqamlar bo'lsa, ular tez orada hisoblashni o'rganadilar. Ertak bolalarda xursandchilik, qiziqish uyg'otadi. Mashhur matematik N.I.Markushevich ta'kidlaganidek, "Ertakda tarbiyalanmagan bola ideal intilishlar dunyosini qiyin qabul qilishini, odam ertak orqali

haqiqatni, o'ziga xoslikni ajratadi, ertak o'qimasdan nafaqat dunyoqarashni, tanqidiy fikrlashuvning birinchi malakasini ham rivojlantirib bo'lmaydi" degan fikrni oldinga so'radi. Matematika darsida ertaklardan foydalanishning 3 xil shakli bor:

- Ertak dars;
- Matematik ertak;
- Ertak - masala.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Umid Ismoilov «Ertaklarda matematika» nomli qo'llanmasidagi ertaklarni misol qilib keltirish mumkin. Tuyalarni bo'lish, Uch donishmand, Ish kuni nechta, 10 so'm qani, Karim qancha to'lagan, Bobo va nevaraning yoshini toping, Daryo bo'yida, Podsho va me'mor, Uch qurbaqa ertaklarni bayon qilish orqali mantiqiy fikrlashga o'quvchining e'tiborini jalb qilishimiz mumkinligini ko'ramiz.

O‘qituvchi: Bor ekan-u yo‘q ekan, och ekan-u to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqqimchi ekan, chumchuq chaqqimchi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, g‘oz karnaychi ekan. O‘tgan zamonda uchta qurbaqa 60 metr chuqurlikdagi quduqning ostida yotardi. Ular bir kunda 18 metr yuqoriga ko‘tarildilar va qorong‘u tushishi bilan birinchisi 12 metr, ikkinchisi 16 metr, uchinchisi 17 metr pastga tushib yotardi. Ertasiga kun chiqishi bilan ular shu holni yana takrorlashardi.

Qancha kundan keyin qurbaqalar quduqdan chiqa oladilar?

Demak, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari e‘tiborini masalaga qaratib bu yerda masala nima haqida gap borayotganini fikrlay boshlaydi.

Bunday matematik ertak masalalar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bir vaqtni o‘zida ertak haqida tushuncha hosil qiladi, mantiqiy fikrlashi yuksaladi, ertakni tahlil qilish orqali nutqi yangi so‘zlar bilan boyiydi, olam haqidagi qarashlari yanada kengayadi, o‘quvchilarda kasbga yo‘naltiruvchi tushunchalar paydo bo‘ladi, matematik tafakkuri rivojlanadi. Yana shu kabi ertaklar orqali matematika fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasini ko‘rishimiz mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ertak masalalar tanlayotganda, o‘quvchilarning yoshini, psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ertakning matniga, ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga, murakkablik darajasiga, o‘tilayotgan mavzuga bog‘liqligiga e‘tibor berishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda bolalarning tafakkur doirasini kengaytirish, maqsadida mantiqiy fikrlashga o‘rgatishning asosiy omillaridan biri ham ertakdir. Turli-tuman voqealarga boy va sarguzasht hodisalar asosiga qurilgan sujet, o‘zida bilimni hosil qilish, yaxshilik, insoniylik fazilatlarini singdirgan, xotirada tez saqlanib qolishdek xususiyati va bayon etish uchun oson talaffuz qilishda qulay sintaktik qurilmalardan, tarkibida turli xil jumboqlardan tashkil topgan ertaklar bilim olishda va bola tarbiyasida tahsinga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: O‘zbekiston, 2021. 467 – b. 227-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Umumiy o‘rta ta‘limning milliy o‘quv dasturi
4. Umid Ismoilov «Ertaklarda matematika», Toshkent «Yangi asr avlodi». 2006-yil
4. M.E.Jumayev, N.T.Axmedova B.S.Abdullayeva, N.U.Aslova Boshlang‘ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma) «Toshkent», 2016-yil. 30-bet.
5. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. - Toshkent. «O‘qituvchi», 2005-yil.
6. Jumayev M.E. va b. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent., «Fan va texnologiya». 2005-yil.

ВЫСОКАЯ ДУХОВНОСТЬ – ФУНДАМЕНТ БУДУЩЕГО.

Бердыева Г.А.

старший преподаватель кафедры «Общественные науки» Бухарского инженерно-технологического института, кандидат исторических наук.

Мадримов Машхур

студент группы БухМТИ 715-23 МНТ.

Аннотация

В статье речь идет о плодотворной работе нашего государства в сфере духовного развития страны, о проводимых реформах в этом направлении имеющие цель поднятие духовности на уровень государственной политики как фундамента будущего нашего общества, где именно молодежь является созидающей силой нашего общества

Abstract: The article deals with the fruitful work of our state in the field of spiritual development of the country, about the ongoing reforms in this direction aimed at raising spirituality to the level of state policy as the foundation of the future of our society, where it is the youth who is the creative force of our society

Annotatsiya: maqolada mamlakatimizning ma'naviy rivojlanish sohasidagi samarali ishlari, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, ma'naviyatni jamiyatimizning kelajagi poydevori sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarish, bu erda yoshlar jamiyatimizning yaratuvchi kuchi hisoblanadi

В Узбекистане под руководством главы нашего государства осуществляются масштабные реформы, направленные на формирование здорового и гармонично развитого поколения с высокой духовностью. Дают свои плоды особенно те масштабные меры, которые были направлены на поднятие духовности на уровень государственной политики, повышение авторитета нашей Родины на международной арене как страны с высокой духовностью.

Когда речь идет о духовности и просвещении, перед нашим взором предстает молодежь. Ведь она составляет более половины населения нашей страны. С одной стороны, это открывает перед нами новые перспективы, надежду на светлое будущее страны, с другой, это ставит перед нами актуальные задачи по созданию достойных условий для молодежи, получения ею качественного образования, овладения современными знаниями, для самосовершенствования и, самое важное, для воспитания наших детей в духе национальных ценностей, патриотизма, формирования самостоятельного мышления и твердой воли. За годы независимости в нашей стране созданы большие возможности для национального возрождения и развития духовности. Сегодня народ Узбекистана строит новое демократическое общество, в развитии которого одной из самых важных сторон считается - духовность. Для решения необходимых социальнополитических, культурно-просветительских задач, стоящих перед нашей страной, особое внимание уделяется проблемам образования, воспитания и развитию духовности [1].

В годы независимости духовные и исторические ценности узбекского

народа, наследие великих предков становятся поистине мировым достоянием. Восстановление подлинной истории узбекского государства, возрождение национальных традиций, обычаев, обрядов, национальной культуры, развитие национальных языков - все это и есть новая духовная жизнь народов нашей независимой Родины [2].

Вопрос духовного возрождения стал одним из важнейших приоритетов нашей государственной политики. Впервые в истории узбекского народа были теоретически разработаны национальная идея и идеология. За годы независимого развития Узбекистана изменились мышление и мировоззрение людей. В жизнь вступает новое поколение, которое мыслит по-новому и видит свою перспективу в укреплении демократических ценностей. либерализации экономической и политической жизни, обновлении общества. Годы независимости ощутимо внесли огромный вклад в жизнь народов Узбекистана. Достижения независимости очевидны. Хорошеют города и села, улучшается быт людей. Наряду с решением важных социальноэкономических задач неустанно ведется работа по духовному воспитанию населения. Сегодня мы воспитываем молодое поколение в духе национальной идеи. На лекциях по общественным дисциплинам мы подчеркиваем, что национальная идея опирается на идею свободы личности. Личность, которая знает свои права, опирающаяся только на свои силы и возможности, умеющая самостоятельно оценивать происходящие события, согласовывать личные интересы с интересами общества, сможет правильно оценить принципы национальной идеологии. Изжить из жизни общества настроение равнодушия, иждивенчества, взяточничества, а также воспитание высоконравственного, духовно богатого, социально активного, физически сильного поколения - все это повышает эффективность национальной идеологии, наших стремлений в построении демократического общества. Национальная идея опирается на традиции и обычаи, на высокую духовность нашего народа. Она созвучна с идеями справедливости, равенства, свободы и является опорой нации и народа [3].

Культурное наследие обеспечивает преемственность между поколениями, как в культурном, так и в социальном развитии. Благодаря ему мы имеем, хотя и не полное, но определенное представление о нашем далеком прошлом, о мечтах и думах современников Улугбека и Навои, об их деяниях, нравах, обычаях, мировоззрении, предметах обихода и т.п. Культурное наследие, будучи мощнейшим средством в формировании национального самосознания, национальной гордости, в конечном итоге является и универсальной духовной основой укрепления независимости. В нем сосредоточены и мораль, и право, и обычаи, и традиции, и литература, и искусство, и уроки истории - все, что составляет непоколебимые ценности современного человека, гражданина суверенного Узбекистана.

Использованные литературы:

1. Ш.Мирзиёев. “Янги Ўзбекистон”, 2020 йил 30-сентябр.
2. Маврулов А. Учинчи Ренессанс-муносиб келажак пойдевори, “Янги Ўзбекистон”, 2020 йил 6 октябр, 190 сон, 3-бет.
3. Интернет: www.uz. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф.

ОБ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ В ТРУДАХ БЕРУНИ

Сайдалиева Н.З.

кандидант философских наук, доцент
Ташкентский государственный университет востоковедения,
Ташкент, Узбекистан

Abstract

The paper focuses on the task of further development of youth as a comprehensively intellectually developed personality, creators of the future of our country, support and widespread involvement in science of gifted youth engaged in scientific activities, as well as the creation and enhancement of the scientific potential of reputable scientific schools. The article examines the invaluable importance of the immortal scientific works of al-Beruni in the development of world scientific thought and in the education of intellectual youth.

Annotatsiya: ishda yoshlarni har tomonlama intellektual rivojlangan shaxs, mamlakatimiz kelajagi ijodkorlari sifatida yanada rivojlantirish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi iqtidorli yoshlarni ilm - fanga qo'llab-quvvatlash va keng jalb etish, shuningdek, nufuzli ilmiy maktablarning ilmiy salohiyatini yaratish va oshirish vazifasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Maqolada al-Beruniyning o'lmas ilmiy asarlarining jahon ilmiy tafakkurini rivojlantirishda va intellektual yoshlarni tarbiyalashda bebaho ahamiyati o'rganiladi.

Сегодня в эпоху глобализации все большее значение придаётся духовно-нравственному и интеллектуальному развитию молодого поколения. Стремиться к достижению решения этой задачи возможно лишь в социуме свободно и инновационно мыслящих людей, которые придерживаются возвышенных жизненных идеалов. По этим причинам в Новом Узбекистане уделяется повышенное внимание развитию подрастающего поколения в духе верности национальным традициям и наследию великих предков. Утвержден Указ Президента Республики Узбекистан о концепции развития науки до 2030 года.[1] Указом с 1 января 2021 года внедрена программа «Академическая мобильность» в целях поддержки и широкого привлечения к науке одаренной молодежи, занимающейся научной деятельностью в регионах, а также создания и повышения научного потенциала авторитетных научных школ. Сегодня выделяются гранты на стимулирование научных идей одаренной интеллектуальной молодежи, занимающейся научной деятельностью, организацию ее краткосрочных стажировок в зарубежных университетах и научных центрах за счет средств Фонда поддержки одаренной молодежи Академии молодежи. Данной категории молодежи предоставляется право бесплатного пользования современным научным оборудованием научных организаций, высших образовательных учреждений, а также научных подразделений при министерствах, ведомствах и организациях.

В Новом Узбекистане налажена система содержания всех научных организаций Академии наук за счет Государственного бюджета, финансирования

их научных проектов на основе грантов. 10 научных организаций Министерства высшего и среднего специального образования возвращены в систему Академии наук,[2] наравне с повышением статуса и роли Академии наук поднят авторитет науки в обществе, в положительную сторону изменились мнение и отношение молодежи к данной сфере.

Говоря о проблеме воспитания молодого поколения, особенно когда идет вопрос о интеллектуально развитой молодежи важно помнить о мастерстве учителей и мыслителей Востока. Как известно, колыбель древних цивилизаций — Восток, был деликатен по вопросам воспитания. Есть ряд произведений, которые говорят о правилах поведений обучаемого и изучаемого.

В этом отношении особое место занимает Абу Райхан Бируни, который обосновал такие методы как, соответствие образования с характером, мягкие принципы обучения и воспитания. В знаниях природы и общество следовал девизу: «Не проверив себя, не поверю». Он как опытный учитель разработал ряд рекомендаций по вопросам педагогических навыков воспитания интеллектуальной молодежи. Например, искусство обучать всему, соответствовать характеру, учитывать особенности детей и др. Бируни писал: «Цель заключается в том, чтобы не продлить время, а не допускать однообразие. Потому что смотреть на одни и те же вещи в течении долгого времени приводит к утомлению и убивает терпение. Периодически меняя предметы, ученик почувствует себя в разных садах, которые один за другим открывают свои прелести. Каждое новое вдохновляет ученика и это помогает улучшить память».[3] Он не приветствовал простое запоминание в процессе обучения и твердил, что запоминание должно совместиться с пониманием. Бируни считал, иногда услышав, иногда увидев и сравнив, надо изложить что знает и то, что преподаватели должны иметь такие качества.[4]

Это и сегодня очень актуально. Проводимые масштабные реформы в области образования, руководствуются идеей «Новый Узбекистан начинается с порога школы, с системы образования и воспитания». В Узбекистане организуется качественное воспитание и образование подрастающего поколения в детских садах, школах и университетах, мобилизуя все силы и возможности для того, чтобы оно выросло физически здоровым и духовно зрелым, преданным своей Родине и народу. А также на основе современных знаний и опыта, национальных и общечеловеческих ценностей воспитывать молодежь, обладающую самостоятельным мышлением, лучшими человеческими качествами.

В целях выявления, обучения и воспитания одаренных детей, дальнейшей поддержки и стимулирования талантливой молодежи, формирования духовно богатого и интеллектуально развитого поколения в феврале 2019 года было принято решение о создании Президентских школ, в которых образовательный процесс осуществляется на английском языке в соответствии с учебными планами и программами, разрабатываемым совместно с зарубежными образовательными организациями, что свидетельствует о применении передовых стандартов качества образования.[5]

Бируни считал, что в природе все существует и изменяется по законам

самой природы, а постигнуть эти законы можно только с помощью науки. Его работы, посвященные математике и астрономии, имели огромное практическое значение для хозяйственной жизни Хорезма, в том числе для поливного земледелия и торгового обмена. Или в труде «Индия» аль-Беруни дал детальное описание быта, культуры и науки индийцев, изложил их религиозно-философские системы.[6] Созданная им на почве арабской графики система транскрипции во многом предвосхищала современную систему передачи индийских слов в урду. А в произведении «Сайдана» («Фармакогнозия») великим мыслителем подробно описаны более тысячи целебных, 150 обычных растений и более ста животных.[7] Ученый, собрав сведения на арабском, греческом, индийском, персидском, согдийском и других языках о 4 тысячах видов растений, животных, минералов и получаемых из них веществ, внес огромный вклад в упорядочение терминов фармацевтического дела.

Кроме тяги к исследованиям, аль-Бируни привлекали и языки. Он в совершенстве знал: арабский (на нём и созданы работы); персидский; латинский; хинди; греческий; тюркский; иврит; санскрит; сирийские диалекты. Эти знания стали залогом успешного перевода интернациональных терминов. Интересно, что в труде по тригонометрии современные учёные обнаружили ряд теорем, авторство которых принадлежит Архимеду. В работах самого Архимеда нет. В исследованиях Бируни придерживался одного принципа: вся теория должна проверяться практикой и доказываться опытом.[7]

На сегодняшний день 31 труд аль-Беруни переведен на немецкий, английский, русский и узбекский языки, исследованы 24 сочинения, изданы в арабском оригинале 3 произведения. Его именем названы Ташкентский государственный технический университет, Центр восточных рукописей при Ташкентском государственном университете востоковедения, районы, улицы и др. Кроме того, в соответствии с Указом Президента Ш.Мирзиёева «О мерах поощрения учащейся молодежи Узбекистана» [8] для студентов старших курсов технических факультетов, имеющих отличную успеваемость и участвующих в творческой работе, учреждена стипендия имени Беруни.

Таким образом, бессмертные научные произведения аль-Беруни имеют неопределимое значение в развитии мировой научной мысли и в воспитании интеллектуальной молодежи. Сегодня в Новом Узбекистане молодежь является основной движущей силой, придающей новый смысл и содержание широкомасштабным реформам на национальном уровне. Молодых людей назначают на государственные посты, им доверяют ключевые должности для управления социальной политикой Узбекистана. В этом смысле взгляды Беруни имеют рациональные основы, созвучны современным ценностям и требованиям, достойны изучения и использования в формировании интеллектуального мышления молодого поколения с целью развития высоконравственной и конкурентно способной личности.

Список литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан об утверждении концепции развития науки до 2030 года// <https://lex.uz/ru>.

2. Президент Республики Узбекистан Ш. МИРЗИЁЕВг. ПРИЛОЖЕНИЕ №1к Указу Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года УП-6097 КОНЦЕПЦИЯ развития науки до 2030 года.

3. Матякубов И. Б. Идеи восточных учёных о педагогическом мастерстве / И. Б. Матякубов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 12 (146). — С. 525-528. — URL: <https://moluch.ru/archive/146/41021/> (дата обращения: 15.10.2022).

4. Умарова Р.Ш. Основы духовно-нравственного воспитания молодежи в трудах Абу Райхана Беруни. Философские науки./ <https://cyberleninka.ru/article>

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Президент мактабларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорни. ПҚ-4199-сон. 20.02.2019.

6. Бируни Абу Рейхан. Индия. Пер. А. Б. Халидова, Ю. Н. Завадовского. // Избранные произведения, Том II. Ташкент: Фан, 1963. // Репринт: М.: Ладомир, 1995.

7. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни.- Ташкент, Фан.1972.С.35

8. Указ Президента Республики Узбекистан «О дальнейшей поддержке одаренной молодежи, обучающейся и занимающейся научно-исследовательской деятельностью в высших образовательных учреждениях республики». 10.09.2021

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ИМКОНЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЎСМИРЛАРДА ЭМОЦИОНАЛ ЗЎРИҚИШНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА

Хашимова Сайёра Холмуродовна

Самарқанд Давлат Чет тиллар институти Гуманитар фанлар
ва ахборот технологиялари кафедраси ўқитувчиси
91 5592017 E-mail: sayyora72@mail.ru

Аннотация

Мақолада Ўзбекистонда имконияти чекланган ўсмирларнинг эмоционал зўриқишининг олдини олишда инклюзив таълимнинг тутган ўрни ва аҳамияти масалалари таҳлил қилинган. Давлат сиёсатида ушбу масалага муносабат масалалари кўриб ўтилган. Калит сўзлар: Инклюзив таълим, имконияти чекланган ўсмирлар, эмоционал зўриқиш, ижтимоий сиёсат, психологик тарбия.

INCLUSIVE EDUCATION AS A FACTOR OF PREVENTING EMOTIONAL STRESS IN DISABLED ADOLESCENTS RESUMI

The article analyzes the role and importance of inclusive education in preventing emotional stress of adolescents with disabilities in Uzbekistan. Issues of attitude to this issue have been considered in the state policy.

Key words: Inclusive education, teenagers with disabilities, emotional stress, social policy, psychological education.

Бугунги кунда Ўзбекистонда соғлом авлодни тарбиялаш, уларнинг жисмоний ва маънавий камолотини таъминлаш масаласи давлат сиёсатидаги муҳим масаладир. Шу билан биргаликда жамиятда имконияти чекланган, ижтимоий ҳимояга муҳтож бўлган фуқароларнинг маълум бир қисми ҳам мавжуд бўлиб, давлат уларнинг жисмоний ва маънавий камолоти масаласида доимий ғамхўрлик қилиб келмоқда. Имконияти чекланган, ижтимоий ҳимояга муҳтож бўлган ўсмирларнинг эмоционал зўриқишини олдини олишда, уларнинг билими, дунёқарашини шакллантиришда инклюзив таълим муҳим ўрин тутди.

Инклюзив таълим (инглиз тилидан олинган бўлиб, inclusive, inclusion-уйғунлашмоқ, уйғунлаштириш, қамраб олмақ, қамраб олиш маъноларини билдиради) бу давлат сиёсати бўлиб, ногирон ва махсус эҳтиёжли болалар ўртасидаги тўсиқларни бартараф этиш, махсус таълимга муҳтож болалар ва ўсмирларни ривожланишидаги нуқсонлар ёки иқтисодий қийинчиликлардан қатъий назар, оиланинг фаол иштирокида, хусусан боланинг эҳтиёжини қондиришга ва ижтимоий ҳаётга мослаштириш ва умумтаълим тизимида тўлиқ кўшишни ифодаловчи таълим тизимидир³³.

Имконияти чекланган ўсмирларни турмуш фаолиятидаги чекланишларни бартараф этиш, тўлақонли ҳаёт кечиришларига, жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий турмушида фаол қатнашишларига, шунингдек, ўзларининг фуқаролик бурчларини бажаришларига имкон берадиган қулай шарт-шароитлар яратиш масаласига давлат сиёсатида катта эътибор қаратилмоқда.

Кейинги йилларда кам таъминланган, ногиронлиги бўлган инсонлар, ёшлар, хотин-қизлар, кекса авлод вакиллари ижтимоий ҳимоя қилиш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди, - дейди Президент Шавкат Мирзиёев, - Бу борада Тиббий-ижтимоий хизматлар агентлиги, Ногиронлиги бўлган инсонларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси ташкил этилганини қайд этиш лозим³⁴.

БМТ маълумотларига кўра дунё миқёсида 450 миллиондан ортиқ киши руҳий ва жисмоний нуқсонга эга. Бу сайёрамизнинг ўндан бир қисмини ташкил этади. Шунини айтиш жоизки, умумжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумот беришида дунёда бундай кишилар сони 13%га яқин ва дунё миқёсида 500 миллиондан ортиқ одам (яъни ер юзидаги ҳар бир ўнинчи одам) имконияти чекланган шахслар сирасига киради, шулардан 150 миллиони болалардир. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти, Жаҳон Соғлиқни Сақлаш Ташкилотларининг маълумотларига кўра ер қурраси аҳолисининг 20% турли хил, жисмоний, ақлий, сенсор ва ҳаракат аъзоларида нуқсонлари бўлган инсонлар ташкил қилади. Соғлиқни сақлаш, Меҳнат ва Аҳолини Ижтимоий муҳофаза қилиш вазирликларининг маълумотларига кўра Ўзбекистонда турли хил нуқсонли бўлган болалар, яъни ақлий ривожланишида нуқсонли бўлган 12%, эшитишида нуқсонли бўлган болалар (қар болалар) 5%, заиф эшитувчилар 7%, кўзи ожизлар

³³ Шомахмудова Р., Бердиева А. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари. Тошкент, “Ишонч марказ сервис”, 2008 йил, Б.12.

³⁴ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ // Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари. 4-жилд. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020.-Б.349-350.

7,5%, заиф кўрувчилар 5%, таянч-ҳаракат аъзоларида нуқсони бўлган болалар 2,5%ни ташкил этади. ЮНЕСКО маълумотларига кўра, улар орасида алоҳида ёрдамга муҳтож болалар ҳаммаси бўлиб 200 миллион атрофида эканлиги қайд этилган³⁵.

Ўзбекистон таълим муассасаларида имконияти чекланган ўсмирлар, (болалар, шахслар) учун қулай шарт-шароитлар яратилмоқда. Имконияти чекланган барча ўсмирлар, (болалар) асосий мактабларда инклюзив таълим олиш имкониятига эгадир. Имконияти чекланган ўсмирлар мактабларда малакали ўқитувчилар билан таъминланган бўлиб, ногиронлиги бўлган ўсмирлар (болалар)нинг эҳтиёжларига мослаштирилган қулай инфратузилма ва ўқув материаллари бўлишини таъминлаш масаласига ҳам эътибор кучайтирилмоқда. Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болалар учун ихтисослаштирилган мактаб ва мактаб-интернатлар 90 та бўлиб, булардан: 50 таси ақли заиф болалар учун, 19 таси кар ва заиф эшитувчи болалар учун, 17 таси кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар учун, 3 таси таянч аъзоларида нуқсони бўлган болалар учун, 1 таси нутқида нуқсони бўлган болалар учун ихтисослаштирилган мактаб-интернатлардир. Бу мактаб-интернатларда ногиронлиги бўлган 21231 нафар болалар таълим олишади³⁶.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 октябрдаги “Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4860-сон қарорига мувофиқ Ўзбекистонда инклюзив таълимни ривожлантириш концепцияси қабул қилинди. Ушбу мақсадда 2021/2022-ўқув йилида республикада илк маротаба тажриба сифатида ҳудудларнинг марказидаги шаҳарларда ва Тошкент шаҳрининг туманларида биттадан умумтаълим мактабларида (жами 31 та) инклюзив таълим тизими жорий этилди ва унда 82 нафар болалар таълим олиши таъминланди.

2022/2023 ўқув йилида қўшимча талаб ва эҳтиёжлардан келиб чиқиб 146 та умумий ўрта таълим мактабларида янги инклюзив синфлар ташкил этилиб унда 395 нафар ногиронлиги бўлган болалар таълим олишмоқда. Барқарор ривожланиш мақсадларининг 4.5-вазифасига биноан, 2025 йилга бориб Ўзбекистонда инклюзив таълим тизими жорий қилинган умумий ўрта таълим муассасалари улуши жами мактабларнинг 51 фоизга, инклюзив таълим шартларида таълим олаётган алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болалар улуши эса 40 фоизга етказилиши режалаштирилган³⁷.

Инклюзив таълим жорий этилган умумтаълим мактабларида инклюзив таълим учун шароитларни яхшилаш, шу жумладан, ногиронлиги бўлган болалар билан иш олиб борадиган педагогларни тайёрлаш мақсадида Буюк Британия, Япония, Финляндия давлатларидаги тажрибани ўрганиш масаласига катта эътибор қаратилмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистонда инклюзив таълимни ташкил қилишдан

³⁵ Шомахмудова Р.Ш., Нурмухаммедова Л.Ш., Тўлаганова Д.Р. Имконияти чекланган болаларни оилада тарбиялаш. (Ота-оналар учун илмий-услубий қўлланма). Тошкент 2013. Б. 5. йил,

³⁶ <https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-vozmnostami>

³⁷ <https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-vozmnostami>

асосий мақсад — алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган ўқувчилар учун мактабда махсус восита ва методларни қўллаш орқали махсус педагогларни жалб этган ҳолда тўсиқсиз мослаштирилган таълим муҳитини яратиш, уларнинг жамиятга самарали мослашуви ҳамда тўлақонли уйғунлашувига хизмат қиладиган сифатли умумий ўрта таълим беришни таъминлашдан иборат бўлса, инклюзив таълимни ташкил қилишдан асосий вазифалар - ривожланишнинг турли имкониятларига эга бўлган ўқувчилар учун ҳар қандай камситилишни истисно қиладиган, барча болаларга тенг муносабатда бўлишни таъминлайдиган ягона мослаштирилган ижтимоий муҳитни яратиш; жамоатчилик ҳамда таълим жараёнининг барча иштирокчиларида алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган ўқувчилар муаммоларига нисбатан бағрикенглик муносабатини шакллантириш; таълим жараёнида соғлом болалар билан бир қаторда алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларнинг ақлий ва ижтимоий салоҳиятларини ривожлантириш; барча ўқувчилар учун давлат таълим стандартларига мувофиқ умумий ўрта таълим дастурларини ўзлаштириш учун имконият яратиш³⁸дан иборатдир.

2023 йил 11 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ПФ-158-сон ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони қабул қилиниб, ушбу фармонга 1-иловадаги 23 мақсад - ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлаш бўйича янги тизимни яратиш ҳамда улар учун қулай ва мақбул муҳитни яратишдан иборат эканлиги белгиланди. Ушбу мақсадга кўра - ногиронлиги бўлган шахслар учун мавжуд инфратузилма ҳолатини баҳолаш тизимини жорий қилиб, қулай ва мақбул муҳитни яратиш³⁹ вазифаси кун тартибига қўйилди.

2022 йил 28 январда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Ушбу фармонга 1-иловадаги 66-мақсад – “ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлашнинг самарали тизимини шакллантириш, уларнинг ҳаёт сифати ва даражасини ошириш”, деб номланган. Ушбу мақсадга кўра – ногиронлик белгиси бўйича камситишга йўл қўймаслик, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини рўёбга чиқаришда тенг шароитларни ва уларни бузганлик учун жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминлаш. ...Ногиронлиги бўлган шахсларнинг жамият ижтимоий-иқтисодий ҳаётига жалб қилиниши ва фаол иштирокини таъминловчи инклюзив таълим ва ишга жойлаштириш тизимини такомиллаштириш⁴⁰, вазифаси белгиланди.

Имконияти чекланган ўсмирлар таълим-тарбия жараёни ўзига хос хусусиятларга эгадир. Имконияти чекланган ўсмирларнинг таълим-тарбияси

³⁸ <https://lex.uz/docs/5679836>

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон “Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

нафақат таълим масканларида, балки оилаларда ҳам мақсадли ташкил этилиб, оилаларда имконияти чекланган ўсмирларни маънавий тарбиясига эътибор қаратилади. Оилаларда имконияти чекланган ўсмирларга нисбатан авайлаш ва раҳмдиллик нуқтаи-назари билан ёндашув шаклланади. Бу эса имконияти чекланган ўсмирларда муомала, мулоқот, ўз-ўзига хизмат ва бошқа фаолиятларда иштирок этиш кўникмаларининг етарлича шаклланмаслигига олиб келади. Шунинг учун имконияти чекланган ўсмирларнинг ижтимоийлашуви соғлом ўсмирлар билан бирга таълим олиш, турли маънавий-маърифий тадбирларда иштирок этиш, турли тўғарақларда қатнашиш орқали амалга оширилади. Имконияти чекланган ўсмирлар ўзларининг кийиниши (мавсумбоп, борадиган жой хусусиятига боғлиқ, тоза ва озода, жинсига тўғри келадиган, замонбоп); муомаласи (она тилида тўғри ва раво сўзлаши, ширинсухан бўлиши, сўзлашганда суҳбатдошини тинглай олиши, бировларнинг сўзини бўлмаслиги, аниқ ва мавзу доирасида гапириши); жамоат жойларида ўзини тутиши (қоидаларга риоя қилиши, қаттиқ гаплашмаслиги, атрофдагиларга ҳалақит қилмаслиги ва хоказо); гигиеник қоидаларга риоя қилиши орқали жамият ҳаётига мослашиб боради. Махсус таълим муассасалари, мактаб-интернатлар имконияти чекланган ўсмирлар учун таълим-тарбия ўчоғидир. У ерда имконияти чекланган ўсмирлар академик билим олишдан ташқари мурасиликка, атрофдагилар билан мулоқот қилишга, меҳнатга, ўз-ўзига хизматга, ўзгалар меҳнатини қадрлашга, ўз қарорини асосли ҳимоя қилишга, саломатлигини назорат қилишга ўрганадилар.

Имконияти чекланган ўсмирлар билан олиб бориладиган инклюзив таълим тизимида таълим муассасаларида имконияти чекланган болалар ва ўсмирларнинг таълим олишлари учун зарурий психологопедагогик, коррекцион шароитлар яратилади, уларнинг имкониятига йўналтирилган умумтаълим дастурлари ва коррекцион ишларни амалга ошириш орқали руҳий ривожланиши, ижтимоий мослашуви амалга оширилади, ўсмирларнинг таълимдаги тенглик ҳуқуқи кафолатланади, жамият ва оиланинг фаол иштирокида ногирон ва соғлом болалар ўртасидаги тўсиқлар бартараф этилади.

Имконияти чекланган болалар нормал ривожланишдаги болалар каби топшириқ ва вазифаларни тезлик билан мукамал амалга ошира олмасаларда аммо имконият даражасида бажара оладилар. Имконияти чекланганлик аслоқобилиятсизлик, дегани эмас. Ҳар қандай ҳолатда ҳам, касаллик ва камчиликда ҳам, муаммолар бўлса ҳам болада тараққиёт давом этади. Яъни, боланинг ривожланиши тўхтаб қолмайди. Имконияти чекланган болалар нормал ривожланишдаги болаларга нисбатан кўпроқ эътибор ва ёрдам талаб этади холос. Шунинг учун ҳам доимий равишда ҳар бир боланинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, камситишларга йўл қўймаслик, уларга ижобий муносабатда бўлиш фарзанд тарбиясида энг муҳим аҳаиятга эга⁴¹.

Ўзбекистонда ёшларнинг ижтимоий ҳимояси, имконияти чекланган ўсмирларнинг жамиятга ижтимоийлашуви масаласига катта эътибор

⁴¹ <https://uza.uz/uz/posts/finlyandiya-talim-siyosatining-muhim-tamoyili-yoxud-fin-maktablarining-muvaffaqiyati-nimada-586267>

қаратилмоқда. Имконияти чекланган ўсмирларнинг билим олиши, меҳнат қилиши, малакали тиббий хизматлардан фойдаланиши уларнинг жамиятга ижтимоийлашувида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ушбу ижтимоийлашув инклюзив таълимни ривожлантириш асосида амалга оширилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ // Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари. 4-жилд. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020.- Б.349-350.

2. Шомахмудова Р.Ш., Нурмухаммедова Л.Ш., Тўлаганова Д.Р. Имконияти чекланган болаларни оилада тарбиялаш. (Ота-оналар учун илмий-услубий қўлланма). Тошкент 2013 йил, 5 бет.

3. <https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-voznostami>

4. <https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-voznostami>

5. <https://lex.uz/docs/5679836>

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

8. Шомахмудова Р., Бердиева А. Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари. Тошкент 2008 йил, 34 бет.

ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЦЕНТРОБЕЖНАЯ СИЛА СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ ОБЩЕСТВА

Сафарова Нигора Олимовна

Заведующая кафедрой Общественных наук, НавГПИ,
д.ф.н., профессор. Узбекистан

Ключевые задачи высшего образования, его имманентные функции, сформировавшиеся в ходе исторического развития, обуславливают его ведущую роль в социальном развитии, экономике, даже политике государства, в современных условиях уровень образования стал индикатором уровня общества. Однако и само общество постоянно инициирует трансформационные процессы образования, корректирую, расширяя его структуру, целеполагание и содержание. В этом уникальность образования, поэтому вполне логично признать его социокультурным феноменом. Эта же особенность позволяет изучать образование в корреляции с принципиальными модификационными процессами общества. Взаимобусловленность и взаимозависимость общества и образования позволяют анализировать стадии их концептуального развития в совокупности с историческим наполнением и тенденциями экономических

формаций, выявляя эволюцию их моделей и форм.

В качестве центробежной силы социокультурных процессов развитых обществ, высшая школы детерминирует полигональность осмысления с точки зрения разноплановых методологических принципов, парадигматика философии, педагогики, социологии, культурологии, истории раскрывают функциональные, институциональные и когнитивные элементы образования, внося обобщённое понимание феноменальности его существования. Комплексность познания образования обуславливает богатство методологии, среди которой доминируют системный, структурный, функциональный, когнитивный и сравнительный анализ, диахронизм и синхронизм, герменевтика и аксиология.

При этом, социокультурный феноменализм высшего образование, его понимание как ядра общественно-исторической эволюции изучены в значительно меньшей степени.[1-136].

Для полноценного понимания феноменальности образования рационально использовать компаративный анализ когнитивных возможностей и эвристических результатов функциональной и институциональной методологии. Имеется в виду, что анализ высшего образования на стадии его зарождения и первичного формирования реализуется на основе функционального подхода, а в периоды формирование высшей школы в ее историческом и современном понимании, его содержательная и процессуальная составляющая более доступны для понимания на основе совокупного функционально-институционального анализа.

Функционализм, как методология, обоснованная с точки понимания сущности термина «функция» Э. Дюркгеймом, П. Штомпкой, является ключевым принципом изучения различных социокультурных явлений, аспектов философии, психологии, социолингвистики, проявляя себя достаточно гибким инструментом аспектологического анализа в рамках той или иной дисциплины.

Обращение к функциональному подходу при анализе проблем высшего образования обусловлено влиянием культурологии и социологии, возникшей в начале XX в. на основе социального анализа политических, экономических, общественных процессов и их влияния на структуру и функции общества в исследованиях Э. Дюркгейма, М. Вебера[2-808]. . Так, Э. Дюркгейм впервые обосновал социальную институциональность образования на основе анализа многообразия осуществляемых им функций и предложил оригинальную методологию его дальнейшего изучения [3-80]. . Именно его исследования заложили основы понимания образования как ретранслятора аксиологических воззрений большинства, а в дальнейшем позволили ученым, придерживающимся функционального подхода, описывать образование как общественную систему, которой присущи функции стимуляции экономического развития, социальной стратификации и надзора.

Еще одной особенностью функционального подхода стало выявление уникальных свойств структуры социальных систем, так образование, являясь частью общественной системы, создает условия для воспроизводства всей модели данной системы (Т. Парсонс)[4-464]. ; этот же подход вскрыл, помимо

явных, скрытые функции образования, гармонию и дисфункции миссии и модификационных альтернатив (Р. Мертон)[5-873]. . Все это позволяет понимать всецелые и глубинные механизмы воздействия образования на социальные процессы, а также зависимость динамики социума от той или иной степени подробного воздействия.

Н. Луман исследовал образование с точки зрения его подсистемного существования в обществе [6-248]. , а также выдвигал идеи о том, что образование в принципе сама есть система позиций, реализуемых индивидами, приобретающими благодаря этому определенный социальный статус с соответствующим набором ролей и функций, при этом данные роли определяют поведенческую деятельность субъекта и вводят его в системное взаимодействие с структурными единицами разного уровне внутри всей системы.

Литература:

1. Калюжина, Е.В. Высшее образование как социокультурный феномен: институциональный аспект: дисс ... канд. философ. наук: 09.00.11.- Курган, 2012.- 136 с.: ил. РГБ ОД, 61 12-9/349
2. См.: Вебер, М. Избранные произведения: Пер. с нем. /Сост., общ. ред. и послесл. Ю. Н. Давыдова; Предисл. П. П. Гайденоко. - М.: Прогресс, 1990. 808 с.
3. Дюркгейм, Э. Социология образования / Пер. с фр. под ред. В. С. Собкина, В. Я. Нечаева. - М.: ИНТОР, 1998. 80 с.
4. Парсонс, Т. Функциональная теория изменения// Американская социологическая мысль: тексты - М.: Изд-во МГУ, 1994. С. 464-481.
5. Мертон Р.К. Социальная теория и социальная структура. - М.: АСТ: АСТ МОСКВА: ХРАНИТЕЛЬ, 2006. 873, [7] с.
6. Луман, Н. Понятие общества // Проблемы теоретической социологии (Под. ред. А.О. Борноева) - СПб.: ТОО ТК Петрополис СПбГУ, 1994. 248 с.

РОЛЬ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ АБА АЛИ ИБН СИНЫ В ПРАВСТВЕННОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖИ

Шамсутдинова Нигина Каримовна

PhD, и.о.доцента кафедры Общественных наук.
НавГПИ, Узбекистан

Через изображенные миры Ибн Сина пытается ответить на вопрос о происхождении человека. В ней он дает сведения о божественном происхождении человека, связи его души с высшими божественными субстанциями. Он посетил этот мир через мир сознания и воображения из неведомого ему божественного мира и достиг пределов земного мира. Но этот видимый мир – его временное пристанище. Он должен стремиться вернуться в реальный мир, из которого он явился. Но прежде чем вернуться, человек должен оправдать свое пребывание в этом мире. Отсюда: «Зачем человек пришел в этот мир?», «По какой причине это было?», «Приход этого человека добровольный или принудительный?» возникают серьезные вопросы.

Ответ на эти вопросы – главный лейтмотив эсхатологических размышлений Ибн Сины о человеке. Он направлен на очищение достигнутой добрыми делами души человека, на озарение его духовной сущности светом интеллектуальных наук. «Не наша воля и желание прийти в этот мир. Невольно мы приходим жить и невольно покидаем его. Мы пришли в этот мир, чтобы очистить свои души»[1-112]. Так человеческая душа освобождается от материального тела и возвращается туда, куда она была послана, в мир вечной сущности и блаженства, при условии освобождения души от основных животных сил тела; в противном случае его ждут врата ада, где он будет осужден на вечную боль и страдания. В этих словах Ибн Сины, заставляющих человека задуматься о своих поступках, поступках, отношении к другим, своей ответственности перед настоящим и будущим, заключены высокие нравственные ценности.

В совершенствовании человека и «познании его души» одинаково принимаются священные тексты Корана и законы шариата, а также правила теоретического разума. В своем научном труде Ибн Сина пытается осветить конфликт между духовной жизнью – между сознанием и верой, между истиной и святостью божественного откровения, – остро охватывавший все средневековье (как на мусульманском Востоке, так и в Запад Европы).

Пожалуй, одним из выдающихся деятелей средневековой схоластики является Фома Аквинский, а также крупнейший последователь Ибн Сины арабский философ Ибн Рушд (Аверроэс), находившийся под влиянием идей Ибн Сины, возвели эту идею на уровень теоретической парадигмы, основанной на эффективности взаимодействия философии и богословия. Итак, главное, что Ибн Сина хочет донести до своего собеседника, это то, что освобождение человека начинается на земле, ибо «ад и рай приходящие к Богу, идут из внутреннего мира человека».

По этому вопросу существуют различные толкования, которые подробно рассмотрены в трактате Ибн Сины «Свет». Нет необходимости останавливаться на каждом из них. Очень важно понять, какой морально-психологический и идеологический урок извлекает ученый из своего отношения к смерти как к самому трагическому и загадочному поступку в жизни человека. Вопрос о загробной жизни человека непосредственно связан с сущностью человека, формой и материей, душой и вечной взаимосвязью тела. А суть эта в том, что «человек становится личностью не благодаря субстрату, называемому материей, а благодаря форме, в которой бытие поглощается материей». Воплощенные человеческие усилия в искусстве, науке и т.п. могут быть обусловлены наличием формы, а не материальной субстанции. С утратой формы «несуществующим» становится и субстрат, которым является материя этого человека. Поэтому Ибн Сина заключает, что похвала, порицание, награда за добродетель или наказание за грех принадлежат форме, а не материи.

Представления религии о загробной жизни, загробной жизни людей должны основываться не на страхе и насилии или абстракции чистого сознания, а на идеях добра, нравственного и интеллектуального совершенства. Философы

играют важную роль в духовных поисках людей. «Этот ум должен способствовать добрым добродетелям среди людей, сообщать им о добре и грозить им наказанием за дурные дела, объяснять им счастье и несчастье потустороннего мира так, чтобы люди предпочитали и понимали добро, а не представляли его в путь, непостижимый для людей», — пишет Ибн Сина. Религия обязана объяснять людям, что в потустороннем мире «добродетельных ждет награда, а нечестивых ждет наказание», и это объяснение связано с увиденными и услышанными вещами и событиями в их повседневной жизни.

Таким образом, изначальным аспектом человека является духовный мир, душа реализует свою индивидуальность благодаря чистоте. Через труд, познание, самопознание, другими словами, размышление о собственном существовании, совершенствуется душа. Всякий раз, когда человек воздерживается от зла и занимается Добром или как-либо занимается печалью, радостью и наслаждением, все это действительно переживается его душой. Наслаждение и страдание, Добро и зло принадлежат не только душе, но и телу, хотя и относятся ко второму роду. Зависимость тела от души и ее привычек делает его спутником печали и радости. Но физические наслаждения не могут заменить наслаждения духовные, потому что настоящие наслаждения человек испытывает не телом, а душой.

Исходя из вышеизложенной угрозы, можно сделать следующий вывод.

Ибн Сина смог восполнить идеи, выдвинутые аль-Фараби, но не реализованные, а затем обогатить их новыми идеями и творчески развить свое учение, и по праву стал систематизатором учения аль-Фараби.

В целом творчество Ибн Сины представляет собой синтез восточных и западных духовных ценностей. Его истоки включают в себя древние цивилизации, питаемые научными и философскими достижениями всего человеческого разума, от культурных традиций древнего Востока (индийского, персидского, китайского, тибетского, египетского) и современного европейского и мусульманского Средневековья.

Литература:

1. Ибн Сино. Мабдаъ ва маод (Исход и возврат). Осори мунтахаб. Ч.2.- Душанбе: Ирфон. - 1980. - С.112
2. Ибн Сина. Указания и наставления. -Избр. произ. Т.1.-С.140.
3. Ибн Сина. Указания и наставления. -Избр. произ. Т.1.-С.326.
4. Ибн Сина. Трактат о Хайе, сыне Якзана. В кн.: Сагадеев А.В. Ибн Сина. - С. 222.
5. Ибн Сина. Трактат о Хайе, сыне Якзана. В кн.: Сагадеев А.В. Ибн Сина. - С. 222.
6. Ибн-Сина. (Авиценна). Избранные философские произведения (Жизнеописание, Книга знания, Указания и наставления, Книга о душе)/Отв. ред. Асимов М.С. М.: Наука. 1980.

ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ

Умаров Алишер Юсубжанович,
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви
академияси проректори, педагогика фанлари доктори

Аннотация

Мазкур мақолада педагогик таълимни такомиллаштириш ва ривожлантиришнинг концептуал асослари ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: педагогик таълим, таълим сифати, ўқитувчи фаолияти, модернизация жараёнлари, мактаб ҳаётини ташкиллаштириш, педагог-кадрларни тайёрлаш, когнитив жараёнлар.

Республикамизда таълим-тарбия тизимини янги босқичга кўтариш, педагог кадрлар тайёрлаш сифатини илғор халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш ва олий педагогик таълим билан қамров даражасини ошириш борасида изчил чора-тадбирлар амалга ошириб келинмоқда. Мамлакатимиз таълим тизимида олиб борилаётган ислохотларнинг муваффақиятини методология ва педагогика соҳасида фундаментал билимларни чуқур биладиган, юқори савиядаги умумий ва касбий маданиятга эга, таълим жараёнида педагогик муаммоларни тизимли равишда олиб борувчи маҳоратли ва омилкор ўқитувчиларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Шу жиҳатдан педагогика олий таълим ташкилотларида асосий эътибор бўлажак ўқитувчиларда ижодий педагогик фаолиятнинг ўзига хос усуллари шакллантиришга ва такомиллаштиришга қаратилган.

Тадқиқотлар натижалари олий таълим ташкилотлари педагоглари фаолиятининг мураккаблигини кўрсатмоқда. Масалан⁴², сўнгги ўн йилликларда талабалар психикасида ижтимоий, психологик ва физиологик жиҳатлардан ўзгаришлар юз берди. Уларнинг ижодкорлиги, фикрлаш жадаллиги, ижтимоий компетенциялари ва иродавий фазилатлари кўрсаткичлари пасайди. Когнитив жараёнлар ва умуман фаолликни рағбатлантириш зарурати пайдо бўлди. Болалар матнларни ёмонроқ тушуна бошляптилар. Эндиликда мактабларда эмоционал-руҳий муаммолари бўлган болалар кўпаймоқда. Шу билан бирга, шахсий, интеллектуал соҳада иқтидорга эга бўлган, бадий қобилиятли ва спорт йўналиши нуқтаи назаридан қобилиятга эга болалар ҳам пайдо бўлмоқда. Шу муносабат билан, бўлажак ўқитувчи иқтидорли ва девиант хулқ-атворли болалар билан ишлаш бўйича педагогик-психологик билим даража, малака ва кўникмага эга бўлиши керак. Бу эса кўп миллатли ўқувчилардан иборат мактабларда, алоҳида ўқув эҳтиёжларига эга ўқувчиларга таълим бериш, уларнинг оначалари билан ишлаш, мактаб ҳаётини ташкиллаштириш билан боғлиқ жараёнда иштирок этиш кўникмаларини эгаллаган педагог-кадрларни тайёрлашни талаб этади.

⁴²Соколова И. И. Концептуальные основы совершенствования и развития педагогического образование в России. ЧЕЛОВЕК И ОБРАЗОВАНИЕ № 2 [39] 2014, с 178- 188.

Жамиятдаги ижтимоий-маданий ўзгаришлар натижасида таълим истеъмолчиларининг таркиби ва уларнинг талаблари ўзгариб бормоқда. Динамик ўзгарувчан жамиятнинг замонавий шароитида педагогларни тайёрлаш бўйича кўп тармоқли таълим йўналишларига, касбий фаолиятга киришишнинг турли сценарийларига эътибор қаратиш лозим.

Белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, таълим тизимида фаолият юритадиган педагогларни тайёрлашнинг қуйидаги муаммоларини ажратиб кўрсатишимиз мумкин:

- касбга киришиш муаммоси: педагоглик касбини танлаган абитуриентлар, даъвогарларни танлашга имкон берадиган махсус дастурлар ва синовларнинг мавжуд эмаслиги;

- ўқитиш муаммоси: етакчи олий таълим ташкилотлари ва уларнинг мутахассислари, профессор-ўқитувчилари иштирокида амалиёт ва малака оширишнинг замонавий тизими йўқлиги; олий педагогик таълим мазмуни ва технологиясининг замонавий мактаб эҳтиёжларидан орқада қолиши; талабалар олий таълимни ривожлантириш муаммоларини ҳал этишга йўналтирилган тадқиқотларга етарли даражада жалб этилмаслиги; педагогик дастурларни ўқитиш жараёнида замонавий эҳтиёжлардан орқада қоладиган ресурслар билан таъминлаш;

- олий таълим ходимларини узлуксиз касбий ривожлантиришнинг эҳтиёжларга асосланган самарали миллий тизими ҳозирча тўлиқ йўлга қўйилмаганлиги уларни моддий-маънавий жиҳатдан етарли даражада қўллаб-қувватлашнинг жорий этилмаганлиги: ўқитувчиларга бўлган эҳтиёж ва битирувчиларни ишга жойлаштиришда ишлар талаб даражасида олиб борилмаётгани; энг қобилиятли битирувчиларни ўқитувчи лавозимига жалб қилиш механизмларининг етарли ишламаётгани, ёш ўқитувчини касбий қўллаб-қувватлаш тизимининг самарасизлиги ва ҳ.к.

Ўқитувчининг ижтимоий мавқеини юксалтириш юзасидан мамлакатимизда олиб борилаётган ишлар замирида педагогик касбининг обрў-эътиборини янада ошириш мақсад қилинган ва фикримизча, бугунги кунда таълим тизимида фаолият юритувчи педагог кадрлар тайёрлашнинг тизими индивидуал йўналтирилган мослашувчан таълим беришни, талабаларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришни, уларда энг муҳим кўникмалардан бирини – мустақил ўрганиш қобилиятини шакллантиришни қамраб олиши лозим.

Халқаро тадқиқотлар шуни кўрсатадики, фақат тизимли олиб борилган тадбирларгина ижобий натижалар бериши мумкин:

- тегишли иш шароитларининг яхшиланиши ва иш ҳақи даражасининг оширилиши;

- ўқитувчилар тайёрлаш сифатини яхшилаш мақсадида педагогика олий таълим ташкилотларига кириш учун синовларда талабларни кучайтириш.

Энг яхши натижаларни ўқитувчилар муайян фан доирасида аниқ билишлари ва бажаришлари лозим бўлган мезонлар мавжуд бўлган таълим тизимлари кўрсатмоқда. Ушбу мезонлар таълим муассасаларининг мақсадларини ва тегишли касб эгаси малакали ўқитувчи деб ҳисобланиши учун

керак бўлган умумий тушунчаларни акс эттиради. Шу сабабли ўқитувчилар фаолияти учун касбий талабларни, профессионал стандартларни ишлаб чиқиш долзарб вазифа саналади.

Педагог кадрлар тайёрлашни такомиллаштириш тамойиллари куйидагилардан иборат:

- педагогик кадрлар тайёрлашдаги ўзгаришларни таълим тизимидаги ўзгаришлар билан мувофиқлаштиришга, унинг эҳтиёжларини ҳисобга олишга қаратилган тизимли ёндашув тамойили;

- педагог кадрларни институционал ва иқтисодий жиҳатдан тайёрлашдаги муҳим ўзгаришларга, ўқув тизимининг барча таркибий қисмларини янгилашга йўналтирилган инновацион тамойил;

- педагогик кадрлар тайёрлаш натижаларини диагностика қилиш, мақсадларни, мазмунни, технологияларни ўзгартириш, ушбу ўзгаришларни иқтисодий, сиёсий, ташкилий ва педагогик механизмлар билан таъминлашга йўналтирилган яхлитлик тамойили;

- тайёргарликнинг ҳар хил шакл ва мазмуни хилма-хиллигига йўналтирилган турли даражадаги ўқув дастурларининг ўзгарувчанлигини тавсифловчи вариативлик тамойили;

- давлат ва жамоат тузилмаларининг, касаба уюшмаларининг, иш берувчиларнинг педагог кадрлар тайёрлашни такомиллаштириш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишдаги ўзаро ҳамкорлиги тамойили;

- мамлакатимиз ҳудудларида педагог кадрларни тайёрлаш шарт-шароитлари ва вазифаларини ҳисобга олиш, мувофиқлаштиришни назарда тутувчи ҳудудлаштириш тамойили;

- педагог кадрлар тайёрлаш жараёнининг такомиллашувига хизмат қилувчи илмий-методик таъминот тамойили.

Педагог кадрлар тайёрлашни такомиллаштиришнинг энг муҳим йўналишлари:

- ўқитишнинг амалий йўналганлигини кучайтириш;

- мактаб-олий таълим ташкилоти ўртасидаги ҳамкорликни ва педагог кадрлар тайёрлаш жараёнида иштирок этувчи муассасалар орасидаги алоқаларни ривожлантириш;

- педагогик таълимнинг ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи ўқув дастурлари сифатини баҳолашнинг ижтимоий-профессионал тизимини яратиш;

- малака ошириш таълим дастурлари, ўқув курслари, талабалар, ўқитувчилар ва мутахассислар учун стажировкаларни узлуксиз равишда йўлга қўйиш ва бундай ишларнинг натижаларини тан олиш тизимини яратишдан иборат.

Касбий стандарт кейинги авлод таълим стандартларини ишлаб чиқиш учун асос бўлади; турли тоифадаги педагог ходимларнинг фаолияти тавсифлари – таълим муассасаларида иш тавсифларини тузиш учун асос ҳисобланади; янги тоифадаги ўқитувчиларнинг касбий фаолиятини тавсифлашга имкон беради, постиндустриал ахборий жамиятда янги педагогик касбларнинг пайдо бўлганлигини кўрсатади; касбий тайёргарлик, қайта тайёрлаш ва малака оширишни аниқ режалаштириш учун имкониятлар яратади; педагог касбий

фаолиятида бошқа мутахассисларнинг функцияларига хос такрорланишларни бартараф этишга имкон беради; турли тоифадаги ўқитувчилар учун аттестация талабларини аниқ белгилаш учун замин яратади.

Ҳозирги вақтда педагог кадрларни тайёрлаш бўйича таълим муассасалари тармоқ ўзаро ҳамкорлигининг умумий тенденцияси ҳақида фикр юритиш мумкин. Педагог кадрлар тайёрлашни такомиллаштириш вазифаларига бакалаврият йўналишлари фан дастурларини шакллантириш, таълим кластерларини яратиш, етакчи педагогика олий таълим ташкилотлари ўртасида ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйиш, педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ва ҳ.к. киради.

Ёш ўқитувчиларни қўллаб-қувватлаш профессионал мослашиш ва касбий ўсиш нуқтаи назаридан ўзини ўзи намоён қилишга имкон яратишга йўналтирилиши мақсадга мувофиқ. Таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари таркибига ёш мутахассисларни бириктириш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилишда қуйидагиларга эътибор қаратилиши лозим: қўшимча қонун ҳужжатларига мувофиқ у фойдаланиши мумкин бўлган имтиёзларни аниқлаш; ёш ўқитувчиларнинг жамоат ташкилотларини ташкил этиш; ёш ўқитувчиларни илмий-услубий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, ўқитувчининг ижобий имиджини шакллантириш.

Ўқитувчининг ижобий имиджини шакллантириш масаласига қонун ҳужжатларида алоҳида ўрин ажратилиши керак, шу жумладан:

- педагог касби ва педагогик фаолиятнинг ижтимоий аҳамиятли ва обрўли эканлигини тизимли равишда шакллантириш;

- ёш ўқитувчиларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан, шу жумладан таълим кредитлари тизими орқали қўллаб-қувватлаш тизимини ривожлантириш;

- ўқитувчининг миллий-маданий қадриятлар тарғиботчиси, маърифат тарқатувчиси сифатида оммавий ахборот воситалари томонидан тақдим қилинишини таъминлаш.

Ёш ўқитувчилар учун қўшимча касбий таълим дастурларини, шу жумладан халқаро дастурларни ишлаб чиқиш, педагогик таълим тизими ривожини учун Ўзбекистон Республикасида ягона таълим маконини шакллантиришнинг муҳим механизмларидан бири ҳисобланади. Касбий қўшимча таълим дастурлари ёш ўқитувчиларнинг узлуксиз таълимга бўлган эҳтиёжлари ва талабларини қондириш мақсадида ишлаб чиқилган бўлиб, бу касбий фаолият давомида аниқланган билим, компетенциялардаги бўшлиқларни бартараф этишга имкон беради.

Адабиётлар рўйхати

1. Соколова И. И. Концептуальные основы совершенствования и развития педагогического образование в России. ЧЕЛОВЕК И ОБРАЗОВАНИЕ № 2. 2014, с 178-188.

2. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш. Пед. фан. док. ... дис. – Тошкент. 2016.

3. Умаров А.Ю. Ижтимоий-ҳамкорлик шароитида педагогик кадрлар тайёрлашнинг интегратив механизмларини такомиллаштириш.

Пед.фан.док.дисс.-Тошкент.-2023.-217 б.

4. Umarov A.Y. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati. PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023.

5. Kadirov U. FACTORS AND IMPORTANCE OF FORMING PERSONAL CONSCIOUSNESS IN THE INFORMATION SOCIETY. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 18, | November, 2023.

6. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S. Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

ЖИНОЙ – ҲУҚУҚИЙ ҲОДИСАЛАРНИ БИЛИШДА МЕТОДОЛОГИК БИЛИМЛАРГА ЗАРУРИЯТ (ПО НАПРАВЛЕНИИ: КОНЦЕПТУАЛЬНО- МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА)

Абдухаликов С.

фалсафа фанлари доктори, доцент
(ЎзР ИИВ Академияси)
(Телефон номери: 998260553)

Аннотация: мақолада жиной-ҳуқуқий ҳодисаларни билишда объектив қонуниятларга оид методологик билимларга зарурият, методологик билимларни тарих, жумладан, ҳуқуқни диалектик маданий тушунишга асосланган ижтимоий ва ҳуқуқий – фалсафий билимлар билан бойитишга бўлган эҳтиёж масалалари бўйича тегишли фикрлар берилган.

Калит сўзлар: методология, фалсафа, диалектик, жумладан, синергетик фикрлаш, цивилизация, ҳуқуқий борлик, корреляцион-функционал қонунлар, субстанционал қонунлар, жиной-ҳуқуқий ҳодисалар, жиноят, жиной жавобгарлик ва жиной жазо.

Тизимли ўрганиш ҳуқуқий борликдаги субстанционалликни билишни тақозо қилади. Жумладан, жиноят, жиной жавобгарлик ва жиной жазонинг субстанционал бир – бутунлигини аниқлаш ва уларни таркибий қисмларга бўлиш, уларнинг ўзаро боғлиқларини аниқлаш катта назарий аҳамиятга эгадир. Шунинг учун ҳам Россиялик таниқли олим юридик фанлари доктори, профессор Ю.В.Голик “Жиноят ҳуқуқи фалсафаси амалда ҳозирги замон назариялари томонидан тадқиқ қилинмаяпти. Шу билан бирга жиноят ҳуқуқи назарияси шундай чегарага келиб қолдики, унинг янада илгари ҳаракат қилиши, демак ва жиноятчиликка қарши курашда реал ютуқлари салмоқли фалсафий асосларсиз мумкин эмас”, деган эди. [1, 2 с.] Кўриниб турубдики, жиноят ҳуқуқи фалсафаси фани жиноят ҳуқуқи фани учун методологик асосга эга. Агар жиноят ҳуқуқи фанида жиной ҳуқуқий легистик билиш асосий ўринни эгалласа, жиноят ҳуқуқи

фалсафаси фанида эса юридик билиш, яъни учта жиний-ҳуқуқий ҳодиса – жиноят, жиний жавобгарлик ва жиний жазога ҳос объектив қонуниятларни тадқиқ қилиш биринчи ўринга чиқади. Бу фалсафий онтология, диалектика ва билиш назарияси қўллаш асосида амалга ошади.

Методологик билимлар асос, манба ва восита бўлувчи қисмларга бўлинади. Субстанционал ёндошиш ва унга боғлиқ ҳолда синергетик фикрлаш ҳам методология, жумладан, фалсафий методология асосларининг асосидир.

Жиний-ҳуқуқий ҳодисаларни ўрганишнинг ҳозирги кунда мамлакатимизда икки концепцияси мавжуд. Агар ҳуқуқ ва жиноят ҳуқуқини ўрганишнинг биринчи концепцияси тарихни материалистик тушуниш доирасида бўлса, унда назарий тадқиқот натижалари иқтисодий материализмга олиб боради. Унда илмий – тадқиқот соҳасида ҳуқуқни ўрганишнинг биринчи ва иккинчи методологик даражалари диалектик ва тарихий материализм бўлиб қолади.

Жиноят ҳуқуқини иккинчи концепция, яъни тарихни диалектик маданий тушуниш доирасида ўрганишнинг эса қуйидаги фалсафий ва нофалсафий методологик даражалари мавжуд: 1) борлик тўғрисидаги диалектик маданий тушуниш, жумладан, синергетик ёндошиш билан тўлдирилган таълимот; 2) тарихни диалектик маданий тушуниш ва синергетик ёндошиш негизида шаклланган ижтимоий фалсафа; 3) ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш ва синергетик ёндошиш негизида шаклланаётган ҳуқуқ фалсафаси ва давлат ва ҳуқуқ назарияси; 4) қолган юридик фанларнинг бир - бирига нисбатан методологик субординацион аҳамияти. Жумладан, жиноят ҳуқуқи фани жиноят процесси фани учун моддий асос вазифасини бажаради.

Тадқиқотлардан кўриниб турибдики, тарих, жумладан, ҳуқуқни диалектик маданий тушунишга мувофиқ, жамият мавжудлигининг негизини маданий борлиқнинг корреляцион--функционал бир-бутунлиги ташкил этади, ва демакки, шу асосда тарихий материализмда ўргатилган умумсоциологик қонунлар тўғрисидаги қарашлар чеклангандир, деб айтиш мумкин. Аксинча, ҳар қандай юридик қонун маданий борлиққа ҳос тўртта корреляцион-функционал қонунлар – социал асос қонуни, моддий асос қонуни, маънавий асос қонуни ва бошқариш ва тартибга солиб туриш қонунлари атрофида айланади. Жиноят кодекси бошқариш ва тартибга солиб турувчилик қонунининг намоён бўлиш шаклларида биридир. Инсон ва унинг бирликлари маданий борлик, жумладан, ҳуқуқий маданиятнинг яратувчиси, субъекти ва ташувчиси бўлгани учун жамиятда моддий неъматларни ишлаб чиқариш эмас, балки корреляцион-функционал қонунлар ичида социал асос қонуни барча ижтимоий, жумладан, ҳуқуқий ҳодисалар юзага келишини белгиловчидир. Қолган корреляцион-функционал қонунлар – моддий асос, маънавий асос, бошқариш ва тартибга солиб турувчилик қонунлари эса генезиси ва амал қилишига кўра параллел кучга эгадирлар.

Маданий борлиқнинг муайян типлари муайян фуқаролик жамиятлари, яъни цивилизациялар хилма - хиллигини белгилаб келади. Бундан барча Жиноят кодексларининг цивилизацияларга боғлиқлиги қонунияти келиб чиқади.

Маданий борлиқнинг корреляцион - функционал бир - бутунлигини

таъминловчи, тизим ташкил этувчи субстанционал элементлари – субстрати, мотиви, гносеологик асоси, яшаш усули ва манбаи ҳар қандай ҳуқуқ, жумладан, жиноят ҳуқуқи тизимининг юзага келишида устувор, тизим ташкил этувчи кучга эга бўлиб қолаверади. Ижтимоий, ҳуқуқий процесс, жумладан, жиноят ҳуқуқи тизими такомиллашиши эса маданий борлиқнинг бир-бутунлиги, илгарилама доиравий айланиши ва эҳтиёжнинг ошиб бориши қонунларидан иборат субстанционал қонунларидан келиб чиқади. Жамиятнинг ривожланиши унинг ядроси – маданий борлиқ ривожланишининг субстанционал қонунларига боғлиқ экан, улар ҳар қандай қонун, жумладан, жиноят ҳуқуқи қонунчилигининг шаклланиши ва такомиллашиши – субъектив ҳуқуқдан ҳуқуқий институтга ва ундан унинг реализацияси томон боришидан иборат доиравий айланиши қонуниятда устувор бўлиб туради.

Ҳуқуқий борлиқнинг тизим ташкил этувчи субстанционал элементлари – инсон ва унинг бирликлари унинг юзага келишининг субъекти - субстрати, англаган ҳуқуқий эҳтиёж мотиви, ҳуқуқий онг гносеологик асоси, ҳуқуқий фаолият яшаш усули ва ҳуқуқий фаолиятнинг биринчи босқичи – ҳуқуқ ижодкорлиги натижалари эса иккинчи тартибдаги манбаи вазифаларини ўтайди. Ҳуқуқий борлиқнинг субстанционал элементларининг генетик боғланишларидан ҳуқуқий борлиқнинг бир - бутунлиги, илгарилама доиравий айланиши ва ҳуқуқий эҳтиёжнинг ошиб бориши субстанционал қонунлари келиб чиқади ва ҳуқуқий ҳаётнинг мазмунини белгилаб беради. Бу қонунлар жиноят ҳуқуқи тизимида ҳам намоён бўлади ва ўзига хос жиноий-ҳуқуқий боғланишларни келтириб чиқаради.

Ҳуқуқий борлиқнинг универсал, тузилмавий, детерминацион ва функционал алоқадорликлари ҳам мавжуд бўлиб, улар унинг субстанционал қонунларига боғлиқ ҳолда юз беради. Улар жиноят ҳуқуқини ўрганишда ҳам дунёқараш ва методологик аҳамиятга эга. Ҳуқуқий борлиққа хос ҳуқуқий қонуният ва алоқадорликлар тизимидан ҳар қандай қонунининг, жумладан, Жиноят кодексининг ижтимоий ҳаётнинг моддий, социал, сиёсий ва маънавий соҳаларининг илгарилама субстанционал доиравий айланиш қонуниятларига функционал боғлиқлиги жараёнлари келиб чиқади.

Хуллас, жиноий-ҳуқуқий ҳаётга ҳам хос бўлган субстанционал, универсал, структуравий, детерминацион ва функционал алоқадорликларни аниқлаш жиноий-ҳуқуқий ходисаларни тадқиқ қилишда методологик аҳамиятга эга.

Юриспруденция, жумладан, жиноят ҳуқуқи фанида илмий-тадқиқот ишларида фалсафий ва нофалсафий методологик концепцияларининг ўрнини Ўзбекистон Республикаси раҳбарияти фаолияти билан боғлиқ ҳолда юзага келаётган тарих ва ҳуқуқни диалектик маданий тушуниш ва унга асосланган синергетик ёндошиш методологияси билан тўлдириш зарур. Бу илмий - педагогик жараён икки йўл билан, биринчидан, юридик фанларда диалектик, жумладан, синергетик фикрлашни кучайтириш орқали, фан объектидаги ўзаро диалектик алоқадорликларни ёритиш орқали ва иккинчидан, юридик факультетларида фалсафа фанини ўқитишни юридик фанларга ихтисослаштириш орқали - диалектик, жумладан, синергетик фикрлашни сингдириш орқали амалга ошади. Бу илмий жараён ҳуқуқ фалсафаси ва ундан

сўнг жиноят ҳуқуқи фалсафасининг бойишига ҳам имкон беради.

Кейинги вақтларда олий ўқув юртларининг магистратура босқичларида “Фаннинг фалсафий масалалари” ўқув курси ўтила бошланди. Фалсафа фани ҳар қандай фан, жумладан, жиноят ҳуқуқи фанининг биринчи даражали методологик асоси – фалсафий методологияси ҳисобланади. “Фаннинг фалсафий масалалари” ўқув курсини юридик институтларида “Юридик фанларнинг фалсафий масалалари” тарзида ўқитилиши мақсадга мувофиқдир.

Хулоса.

1. “Фаннинг фалсафий масалалари” фанидан дарс бераётган профессор-ўқитувчилар ихтисослик фанлари ютуқларини умумлаштира олишлари керак. Бу “Илмий тадқиқот методологияси” фанини ўқитишга ҳам дахлдордир. Мақсад - тадқиқотчи ўз тадқиқот объектининг диалектик алоқадорликлари, жумладан, синергетик хусусиятларини топа олсин.

2. Фалсафа фанини ихтисослаштириб ўқитмаслик ижодий фикрлашнинг саёзлашишига олиб келади. Аксинча, диалектик, жумладан, синергетик қонуниятларни излаб топиш давр талабидир. Бу бевосита тадқиқотчи ва талабаларда диалектик фикрлашнинг кучайишига олиб боради.

3. Янгича дунёқарашга эга бўлган ҳуқуқшунос кадрларни тайёрлашда, дарслик ва услубий қўлланмаларни яратишда догматизмдан қочишимиз, ижтимоий, жумладан, ҳуқуқий ҳаётга легистик эмас, балки юридик ёндашишимиз зарурдир. Юридик ёндошиш орқали талабаларга жинойий – ҳуқуқий воқеаликка диалектик ёндашишини синергетик жиҳатлари ила сингдиришимиз лозим.

Фойдаланилган адабиёт:

1. Философия уголовного права. // Сост., ред. и вступ. статья докт. юрид. наук, проф. Ю.В. Голика. – СПб.: Издательство Р.Асланова “Юридический центр Пресс”, 2004. С.2.

МОДЕЛИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ТРАДИЦИОННОЙ И СОВРЕИЕННОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ

Ахмедов Саид

доктор философских наук, профессор кафедры
онтологии и теории познания Таджикского национального
университета, телефон: +992907821836. Эл. почта: asaid1945@mail.ru

Аннотация

В статье даётся анализ взаимоотношений традиционной и современной культуры, модели их взаимоотношений, а также влияние этих моделей на систему образования, например такие модели как: сепарационная, кооперационная, идентификационная и других. В статье показано, что под воздействием моделей взаимоотношений традиционной и современной культуры находятся модели образования, даётся характеристика каждой из

моделей, научно обосновывается значение культурологических моделей для развития образования.

Ключевые слова: культура, образования, наука, молодёжь, традиционной и современной культуры, духовной жизни, национальной идентичность, религиозным традиции.

The article provides an analysis of the relationship between traditional and modern culture, models of their relationship, as well as the influence of these models on the education system, for example, models such as: separation, cooperation, identification and others. The article shows that education models are influenced by the models of relationships between traditional and modern culture, the characteristics of each of the models are given, and the importance of cultural models for the development of education is scientifically substantiated.

Key words: culture, education, science, youth, traditional and modern culture, spiritual life, national identity, religious traditions.

Модели взаимоотношений традиционной и современной культуры определяет содержание всего процесса системы образования, поэтому научный анализ этих моделей помогут лучше ориентироваться на образовательные процессы и создания универсальной эффективной модели образования.

Теоретическая реконструкция духовной жизни важнейшая проблема развития современной культуры, на которую особое внимание уделяют современные культурологи. В данном случае особое значение имеет процесс глобализации. Именно она определяет тенденции и характер сдвигов в развитии цивилизации и определяет вектор указывающий развитие культуры, их общий смысл и различие. Она отражает не только общую тенденцию развития культуры, но и ее содержание к которым относятся массовые продукции культуры, т.е. массовая культура, постепенное ослабление влияния национальных элементов и традиций, исчезновение этнической и исторической уникальности, появление и развитие «новых» культурных гибридов, ломка национальных культур и т.д. Эти тенденции стали основой концепции сторонников «глобализации» культур.

Но в последние годы встречается повышение роли национальных государств, особенно в системе образования, которое проявляет особое внимание и интересом к национальной культуре, национальной идентичности и связанные с ними повышение интереса к религиозным традициям. Более того, сам процесс глобализации контролируется национальными государствами, сами эти государства выступают координаторами и организаторами такой интеграции и одновременно защитниками исторического и национального наследия. В результате чего даже можно подтвердить, что глобализация используется для повышения роли национальных государств и культур, возрастает претензии на мировое лидерство, разделение мира на цивилизационные группы. Наряду с этим глобализация способствует возникновению новых типов культуры, трансформацию традиционных обществ.

Хотя роль национальных государств, в развитии культуры растёт, растёт и их роль в защите исторического культурного наследия, но роль этих государств, все же определяется тем, насколько они могут приспособиваться к новым

условиям. Сторонники трансформации считают и это по сути верно, трансформация осуществляется не по какому одному фактору, а происходит под влиянием совокупных факторов – экономического, политического, информационного и др. Все они вместе создают новый социум, жизненный мир или можно сказать новую культуру. По мнению И. Валерстайна «Мы должны выступить в грандиозный всемирный диалог». [2, с.174]

Диалог в качестве способа реализации общечеловеческих отношений, включая культурные, указан в трудах многих философских и культурологических деятелей, таких как М.М. Бахтин, М.Бубер, М.С. Каган и др. По мнению М.С.Кагана, обретение понятия «диалог» статуса категории в культурологии и социальной науке отражает процесс образования нового общества. [3, с.86]

Происходит так же изменения индивидуальных, человеческих характеристик культурного влияния, изменяются мировоззрения, культурных потребностей, ценностные ориентации людей.

При рассмотрении взаимодействия традиционной и современной культуры на современном этапе можно наблюдать четыре формы или пути их взаимодействия: традиционно-универсалистский, конфликтный или противодействующий друг другу модернистский, сторонники диалога и интеграции.

Традиционно–универсалистская концепция культуру включала в религиозную систему и обеспечивала подчинения всех элементов культуры и религией, по существу признавала противоречие между религиозными элементами и нерелигиозными, считала нерелигиозные элементы отступлением от духовности. Ислам представлялся как универсальная структура, содержащая в себе науку, этику, другие элементы культуры. В основе этой концепции лежит священный буквализм, исходящий из учения Корана и Сунны, подчёркивая незыблемые положения их учения. Любые данные науки должны соответствовать требованиям религии, любой отход от них считается ересью. Священный буквализм исходит из религиозных требований и представлений, рассматривает с этой позиции научные вопросы.

Исламское традиционное духовенство придерживало и даже в новое и новейшее время и поддерживает сегодня священный буквализм. Священный буквализм в странах Ближнего и Среднего Востока занимает господствующее положения. Модернистская концепция, выступает за сожительство современной культуры и науки, приводит некоторые изменения и интерпретации догматов ислама с целью их согласованности с современными условиями. Модернистское направления все больше занимает господствующее положения, хотя бы потому, что государства больше поддерживают именно позиции модернистов и модернизации исламского общества. Однако, модернизации современного исламского общества и государства происходит очень трудно. Они приводят зачастую в отчаянии населения и усилению радикальных движений.

Модернисты совместно с западниками и интернационалистами выступают за диалог культур. К ним присоединяются некоторые трезвомыслящие традиционалисты и в совокупности, несмотря на различие взглядом на

современную культуру, составляют большую группу, которая составляет большинства исламских духовных лиц. Они выражают нынешние состояние мусульманских стран, интеграции западной и восточной культуры, особенно за использование западной науки и технологии.

На современный исламский модернизм наблюдается влияние современного эпистемологического редукционализма и логического позитивизма. Эпистемологический редукционизм путём редукции научного опыта любые теории и законы сводит к естественно-научным законам и считает, что любая система имеет наиболее фундаментальные основания, которые объективно отражают действительность и исследование отдельных частей этой системы, хотя очень полезны для науки. Но она несравнима с исследованием высших уровней больших систем и общих законов системы. Поэтому редукционистский подход даёт возможность лучше осмыслить сущность явлений мира, что невозможно при религиозном подходе к объяснению систем. Это даёт нам основание говорить, что научный метод, существенный, который нам позволяет раскрыть сущность явлений мира. Некоторые редукционисты считают метафизические вопросы, основы объединения культуры и религии их видение основывается на успехи науки, в частности физики и биологии. Например; Карл Саган в книге «Космос» на основе открытий астрономии считает, что «Космос – это все, что есть все, что было и все что будет» и заявляет о безграничной вере в научные методы, которые, в конце концов, приводит к наступлению эпохи мира и справедливости [5, с.157].

Отношение светских государств к религии в основном строится на сепарационную модель. Сепарационная модель предполагает, что государство носит сугубо светский характер и поле для сотрудничества не существует. Хотя во избежание конфликта между государством и религиозных организаций более подходит кооперационная модель, особенно в условиях деятельности государства национального согласия.

Особенно когда религия законодательно объявлена частным делом граждан, происходила ограничение сферы влияния религии на культурные компоненты, при сохранении традиционных ценностей и когда религия потеряла свою культуuroобразующую функцию. Светский характер государства даёт основание говорить о том, что наше общество идёт по пути секуляризационного общества, то есть все культурные компоненты становятся, более независимыми от религии. Но тем не менее ориентация на строительство национального государства во многом связано с возрождением древних национальных обрядов и традиций.

Согласно исследованиям культурологов религиозная культура отличается от светской, национальной и других форм культурного образования. Яблоков И.И. считает, что религиозная культура представляет собой совокупность методов и приёмов, направленных на обеспечение и осуществление бытия человека; эти методы и приёмы реализуются во время религиозных действий и представляют собой религиозные смыслы и значения продуктов, преданных и освоенных новым поколением. [7, с.293]

Примерно, исходя из этого, светское государство считает религию частью

культуры народа, ибо многие культурные элементы исторически связаны с религией, например музыка, архитектура, поэзия и много другое. Да, некоторые далеко не религиозные компоненты культуры питались религиозными идеями, например философия, некоторые этические нормы обряды и праздники и т.д. Суть сепарационной модели заключается в том, что государство носит сугубо светский характер, но отношения государства к религиозным организациям строятся на доброжелательной основе. Все религии и религиозные объединения имеют равные права и возможности относиться к государственным структурами в отличии от кооперационной модели в которой отдельные религиозные объединения в силу их влияния среди населения имеют определённые приоритеты. Религиозные организации регистрируются согласно закону в установленном порядке и являются юридическими лицами.

Особо уделяется внимание вопросу культуры и нормы поведения. Нормы поведения, укоренившиеся в быту людей, зачастую смешиваются с религиозными нормами, и в этой связи возникает вопрос, насколько эти нормы пропитаны религиозными идеями и представлениями. Жизненные ценности, к которым относятся, также нормы поведения являются основы культуры. Этим определяется ориентация религиозных людей на эти нормативные поведения, которые ими выдаются как исламские. Однако трудно сказать, что они «исламские», хотя их переплетение с религиозными элементами очевидно. В данной ситуации отношение к этим нормам строится в основном в виде этнических норм, приобретающих религиозную основу. И действительно, национальное этическое и не религиозное их содержание говорят о нерелигиозном характере этих норм. Существует группа норм поведения, которая возникла, и существуют благодаря исламу и носят сугубо религиозный характер. В религиозном сознании обе эти группы перемешены. Верующие мало отличают их друг от друга, считая либо их религиозными, либо традиционными.

Диалогичность «светское» и «религиозное» находится в центре внимания учёных, политиков и религиозные деятелей. Для политиков, учёных светское представляется как мирское, свободное независимое, а для религиозных деятелей выражения «эретизма» и атеизма. В светской культуре «священность» свободный гуманистический отказ от всех форм давления на индивида [6, с.439-440]. Вопрос диалогичности истины, истины светской культуры и религии для современного становится предметом обсуждения учёных, и видением представителей религии. Диалоговая культура отражает стремление и желание мирного сосуществования представителей религии влияние на религиозное сознание, а следовало бы рассматривать религию как подсистемы культуры, ее часть. Проблема отношений религии с культурой является многоаспектной, динамику и связь этих двух проявлений характеризуют мировоззренческие, идеологические и методологические причины, определяющие развитие современного таджикского государства и его особенности. Все эти стороны имеют влияние на диалог между культурой и религией. Следует сказать, что проблема связи и взаимно обусловленности религии и культуры связана с общественной системой в целом, имеются в виду проникновение религии во всех сферах жизни общества, однако в некоторых из этих сфер сакральный смысл

доминирует и которые иногда не позволяет разглядеть секулярные элементы в них. К такой сфере относятся семейные обряды и ритуалы, хотя в целом, по своему содержанию гражданские обряды лишь внешне оформлены религиозно. Были попытки в советский период их освободить от влияния религии и сейчас по отношению к некоторым из них предпринимаются такие попытки. В этом плане большое значение имеют принятый закон об обрядах. Нельзя упускать из виду, что воздействие религии на духовную культуру общества осуществляется как непосредственно, так и других компонентов культуры, например морально-этические, художественно-эстетические представления. Прямое влияние религии на общество осуществляется: 1) воздействием идей, приоритетов религии на религиозное сознание; 2) через религиозные институты; 3) через слияние (хотя неофициально) религиозных отношений с национальными бытовыми, этноконфессиональными общинами, сектантским коммунизмом, теократическим структурам [4, с.37].

В формировании национальной идентичности особую роль играет художественная литература. Например, художественная литература для таджиков имеет особое значение. Таджикская художественная литература имеет мировую славу и возможна она составляет национальный код таджиков. Для таджиков поэзия, означает больше чем поэзия имя огромное значение в жизни таджиков, порою, она заменяет рациональные формы мышления.

Национальная культура всегда является предметом гордости любой нации, чему противоречит религия, кроме этнонациональных религий: иудаизм, конфуцианство, индуизм, зороастризм и др. В регионе господства мировых религий, национальная культура для верующих не есть предмет гордости, она ограничивается религиозными ценностями имеющими космополитический характер. Национальная специфика выступает в противоречие с религиозной культурой и теряет в определённой степени своего влияния на верующих. Хотя попытки выдать национальную культуру как религиозную и наоборот религиозную за национальную постоянно наблюдаются среди верующих. Но все же наднациональный характер религиозной культуры воспрепятствует развитию национальной специфика культуры. Важное, значение в нынешних условиях развития общества имеет диалог культур и процесс синтеза элементов разных культур, с учётом глобализационных процессов и трудовой миграции населения. Миграционные процессы стали значимыми для современных национальных государств. Возможности восприятия ценности другой культуры в этом процессе играют определённую роль в жизни мигрантов при столкновении различных культур. Возвращаясь из иммиграции, иммигранты являются носителями элементов чужой культуры, происходит заимствования некоторых элементов другой культуры. Позитивный диалог и наличие механизмов восприятия и налаживания устойчивого взаимодействия между культурами составляют основу регуляции культурных процессов. Без учета правильного определения взаимоотношений традиционной и современной культуры трудно создать эффективную систему образования. Модели образования также можно разделить на традиционные и современные. Традиционные предполагают субъектно-объектное взаимодействие, направлены на воспроизведение образцов

знаний, деятельности и алгоритмов. Модели образования бывают технократическими и гуманистическими.

Гуманистическая модель как государственно-ведомственной организации, как модель развивающего образования отличается кооперацией образовательных организаций разного типа и уровня, но не противоречащая моделью систематического академического образования, которая считается традиционным способом передачи новому поколению культурного опыта прошлого, нацелено на формирование базовых систем знаний и умений позволяющих в дальнейшем перейти к самостоятельному усвоению знаний. Другие модели: рационалистическая, феноменологическая, неинституциональная должны быть включены в модель систематического академического государственного образования как его составные элементы, то есть здесь также имеет значение кооперационная модель взаимоотношений традиционных и современных культурных ценностей. Под традиционной моделью современного образования, в первую очередь, понимается модель систематического академического образования как способа передачи культурных ценностей от одного поколения к другому.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Безменова Н.А. Предисловие к диалогу: теоретические проблемы и методы исследования. Сборник научно-аналитических образования. М, 427 стр.
2. Валерстайн Иммануил. Микросистемный анализ: Введение. М. 2006 237 стр.
3. Каган М. С. Философия культуры СПб.1996. с.86381 стр.
4. Лебедев С.Д. Методологические аспекты взаимодействия религиозной и светской культурных систем//Синергетика, философия, культура. М:РАТС, 2001, 102 стр.
5. Саган К. Космос: Эволюция вселенной, жизни и цивилизации. Пер. с англ. А. Сергеева. М. 2016. 289 стр.
6. Философия в мире знания, техники и веры С.П.б. 1997, 448 стр.
7. Яблоков И.И. Религиоведение. М,2005, 317 стр.

TA’LIM KOGNITIV JARAYON SIFATIDA

To‘roqulova Ra’no Ibrogimovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

email: rano.toraqulova@mail.ru

tel: +998 90 971 42 52

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’limning kognitiv mohiyati va xususiyatlari ochib berilgan. Ta’lim olish natijasida kognitiv qobiliyatlar bilish, idrok, diqqat, xotira rivojlanishi va kuchayishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, kognitivlik, bilish, o‘qish, diqqat, kognitiv qobiliyat, kognitiv jarayon.

ОБРАЗОВАНИЕ КАК ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

Аннотация

В данной статье раскрыта познавательная сущность и особенности обучения. В результате обучения когнитивные способности познание, восприятие, внимание, развитие и укрепление памяти были проанализированы.

Ключевые слова: образование, познавательность, познание, чтение, внимание, когнитивные способности, когнитивные процессы.

EDUCATION AS A COGNITIVE PROCESS

Abstract

This article reveals the cognitive essence and peculiarities of Education. Cognitive abilities as a result of learning have been analyzed for cognition, perception, attention, memory development, and enhancement.

Key words: education, cognition, reading, attention, cognitive ability, cognitive process.

Bilimlarni ta'lim va o'zlashtirish kognitiv jarayonning potentsiali sifatida: mavjud bilimlarga yangi ma'lumotlarni qo'shishga imkon beradigan jarayon. Ta'lim jarayonida biz maktabdagi boshqa odamlardan va ijtimoiylashuv jarayonida oladigan barcha bilimlar majmuasi shakllanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'limni kognitiv jarayonning tarkibiy qismi sifatida, ilmiy izlanishni esa kognitiv axborot tizimini shakllantiradigan va o'zgartiradigan jarayon sifatida izohlaydilar.

Kognitiv jarayonlar-bu yangi bilimlarga ega bo'lish va savollarga javob olish, qaror qabul qilish jarayonlari. Ushbu jarayonlar turli xil kognitiv qobiliyatlarni o'z ichiga oladi: idrok, e'tibor, xotira, fikrlash va boshqalar.

“Kognitivizm” atamasi lotincha “kognitio” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “bilim”, “o'rganuvchi” degan ma'noni anglatadi. Shunday qilib, ta'lim deganda biz bilim bilan bog'liq bo'lgan narsalarni, ya'ni ta'lim yoki tajriba orqali oladigan ma'lumotlarni tushunamiz[1].

Kognitiv uslub-bu kognitiv psixologiyaning fikrlash, odamlarni idrok etish, ma'lumot va hisobotlarni eslab qolish va kognitiv jarayonlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan barqaror xususiyatlarini ko'rsatish uchun ishlatiladigan atamadir[2.17].

Kognitivizmning asosiy mazmuni yangi bilimlarni olish imkoniyatidir. Kognitiv fikrlash dalillarga, mantiqiy fikrlashga, mustaqil va tanqidiy fikrlashga, ya'ni bilish jarayonida aks ettirishga asoslangan[3.28].

Ta'lim o'quvchilarning bilim jarayonlarini rag'batlantirish va rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Kognitiv jarayonning potentsiali sifatida ta'limni qanday ko'rib chiqish mumkin:

1. Fikrlashni rag'batlantirish. Ta'lim idrok, e'tibor, xotira, fikrlash, muammolarni hal qilish, fikrlash va ijodkorlik kabi turli xil kognitiv funktsiyalarni faollashtirish va rivojlantirish uchun turtki beradi.

2. Yangi bilimlarga intilish. Ta'lim o'quvchilarga yangi bilimlar, tushunchalar, g'oyalar va ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi, bu ularning kognitiv

o‘shiga va bilim ufqlarining kengayishiga yordam beradi. Innovatsion jarayon ijtimoiy hodisa sifatida tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.

Innovatsion tafakkurning keng ijtimoiy ong yo‘nalishiga aylanishining sababi va natijasi jamiyatda ro‘y berayotgan innovatsion rivojlanishdir. [5.170]

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Ta’lim tanqidiy fikrlash va olingan bilim va ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va tanqidiy aks ettirish qobiliyatini rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

4. Muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash. Ta’lim o‘quvchilarning yechim topish, qaror qabul qilish va yangi vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali turli muammolar va muammolarni hal qilishni ta’lim imkoniyatini beradi.

5. Metakognitiv strategiyalarni qo‘llab-quvvatlash. Ta’lim o‘quvchilarga o‘zlarining kognitiv jarayonlarini tushunishga va o‘zlarining tushunchalari va ta’lim faoliyatini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash kabi metakognitiv strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

6. Kognitiv moslashuvchanlikni shakllantirish. Ta’lim kognitiv moslashuvchanlikni, turli xil vazifalar, muammolarni hal qilish strategiyalari va nuqtai nazarlarni almashtirish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bunday jarayon ijodiy va konstruktiv fikrlash tarzini rivojlantirishni talab qiladi. [6.196]

Kognitiv, aqliy faoliyat turi shaxsga, boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlar tajribasiga bog‘liq. Insonning bilimlari, uning turli xil muammolarni, mantiqiylikni, e’tiborni, idrokni va xotirani hal qilish qobiliyati muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim o‘quvchilarning bilim jarayonlarini faollashtirish va rivojlantirish uchun kuchli vosita bo‘lib, ularning kognitiv o‘shiga, aqliy moslashuvchanligiga va o‘qish va hayotda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. CogniFit// <https://www.cognifit.com>. Cognition. 2021.18.07.
2. Болбаков Р. Г. Анализ когнитивности в науке и образовании // Перспективы Науки и Образования, 2014, №4 (10). - С. 17.
3. Гаффорова Г.Ф. Ёшларда когнитив тафаккурни ривожлантириш масалалари // Ёшларни ғоявий-мафкуравий тарбиялашнинг устувор йўналишлари мавзидаги республика илмий-назарий конференцияси. Самарқанд. СамИСИ, 2018. - Б. 28.
4. Sultanova G.S. Kognitivlik tushunchasining epistemologik taxlili Jamiyat va innovatsiyalar (elektron jurnal). 8 (2021) maxsus son. - B. 400-404.
5. G.S.Sultanova. Scientific thinking: innovation and innovation activities //- Modern science: new approaches and current research//materials of the international scientific and practical conference. Prague, Czech Republic, 2020/4/21. – P. 170-173.
6. G.S.Sultanova. Constructive transformation of the Style of scientific thinking // SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY, 2020. – P. 194-198.

ТАЪЛИМ ФАЛСАФАСИ ЎЗБЕКИСТОН ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ АСОСИ

Мардонов Р.С.

Тошкент ахборот технологиялари университети
Самарқанд филиали “Гуманитар ва ижтимоий фанлар”
кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди
Телефон: +9987435609; E-mail: mar-ravshan@yandex.ru

Аннотация

Мақолада Ўзбекистон таълим тизимидаги ислохотлар асосини таълим фалсафасининг тамойиллари пойдевор эканлиги кўрсатиб берилган. Таълим жамият ва унинг аъзоларининг маънавий эҳтиёжлари билан боғлиқ шартлар, мажбуриятлар ва имкониятлар кўринишида намоён бўлади. Бутун тарих давомида фалсафа ва унинг ҳаракатлари таълим ва тарбиянинг муайян педагогик моделларини амалга ошириш учун асос бўлиб хизмат қилган. Фалсафанинг методологик функцияси педагогика фани ва педагогик тадқиқотлар учун йўл очиб беради. таълимни ривожлантириш билан боғлиқ ҳар қандай ғояларни амалга ошириш фалсафий фикрлаш маҳсули сифатида қаралиши керак.

Калит сўзлар: таълим фалсафаси, таълим тизими, педагогика, жамият, инсон, олий таълим

Бугунги кунда мамлакатимизда таълим жараёнининг мазмунини доимий равишда бойитишга катта аҳамият берилмоқда. Бу эса ўз навбатида ўқитувчилардан юқори профессионалликни талаб қилади. Сўнгги йилларда таълим соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар натижасида мустақам билимга эга, мустақил ва эркин фикрлайдиган ҳар томонлама ривожланган шахсни шакллантириш мумкин бўлди. Таълим тизимини ислох қилиш ҳақида гапирганда, демократик ўзгаришлар, янги жамият яратиш ва ички ҳаракатлантирувчи куч сифатида зарур бўлган таълим тизимини ўзгартирмасдан, инсон онгини ва унинг турмуш тарзини ўзгартiriш мумкин эмас.

Янги Ўзбекистонда таълим тизимининг мазмуни тубдан ўзгармоқда. Халқимизнинг миллий ва маънавий қадриятлари асосида янги ўқув дастурлари, дарсликлар ва ўқув қўлланмалари яратилиб, давлат таълим стандартлари ишлаб чиқилди. Унда ўқувчиларга қўйиладиган янги талабларни ҳисобга олган ҳолда ўқув-тарбиявий ишларнинг замонавий шаклларига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ёшлар таълими янги Ўзбекистоннинг жадал ривожланиши ва давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан биридир.

Ўзбекистон Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони соҳани тубдан такомиллаштириш, кадрлар тайёрлаш мазмунини халқаро андозалар даражасида тубдан қайта кўриб чиқишда янги туртки бўлди. Шунингдек, 2030-йилгача бўлган даврда Олий таълим тизимини комплекс ривожлантириш дастури тасдиқланди, унда университетларнинг моддий-техник базасини мустақамлаш ва модернизация қилиш, уларни замонавий ўқув-илмий

лабораториялар, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари билан жиҳозлаш чора-тадбирлари белгиланди.

Ҳозирги вақтда таълим ислоҳоти олий таълим сифатини ошириш соҳасида миллий олий таълим тизимини модернизация қилиш бўйича ҳукумат қарорларини амалга ошириш, университетлар рейтингини баҳолаш миллий тизимини жорий этиш, чет тилларини ўқитишни такомиллаштириш, олий ўқув юртидан кейинги таълимнинг янги тизимини жорий этиш, шунингдек олий ўқув юртларининг илмий ва бошқарув ходимларининг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тизимини ривожлантиришга йўналтирилган. Таълим ислоҳотининг аҳамиятини Ўзбекистоннинг ўзига хос демографик шароитларида кўриб чиқиш керак: умумий аҳолининг қарийб 35 фоизини 16 ёшгача бўлган ёшлар, 62 фоиздан ортиғини эса 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади. [3, 6 б.] Ёшлар доимо эътиборда экани боис Ўзбекистонда олиб борилаётган кучли ёшлар сиёсати мустақкам ҳуқуқий асосга эга. Бу Ўзбекистон Конституцияси моддаларида, соҳага оид 20 дан ортиқ қонун ва меъёрий ҳужжатларда ўз ифодасини топган.

“Таълим тўғрисида”ги қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастури таълим тизимини давлат таълим муассасалари негизида ягона ўқув, илмий-ишлаб чиқариш мажмуаси сифатида изчил ривожлантириш учун зарур ҳуқуқий асосларни яратди.

Айни пайтда республикадаги олий таълим муассасаларининг умумий сони 200 тадан ортди. Худудларда кадрлар тайёрлаш кўламини кенгайтириш, илғор хорижий тажрибани жорий этиш мақсадида мамлакатимизда охириги 5 йил ичида хорижий университетларнинг филиалларини ташкил этиш орқали 55 та янги олий таълим муассасаси ташкил этилди. [3, 7 б.]

Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёев таълим сифатини оширишни мамлакатни ривожлантиришнинг ягона тўғри йўли деб атади ва таълим соҳасидаги ислоҳотларни давом эттириш, таълим муассасаларига бориш, ўқитувчилар билан кўпроқ учрашиш, мавжуд муаммоларни биргаликда ҳал этиш, таълим соҳасидаги ислоҳотларни давом эттириш зарурлигини таъкидлади.

Олий таълимда кадрлар тайёрлаш бўйича давлат буюртмасини кўпайтириш, мамлакатимиз ва хорижий олий ўқув юртларининг янги филиалларини очиш билан бирга, кам таъминланган оилалар фарзандлари, ногиронлиги бўлган шахслар, чекка худудларда яшовчи ёшлар учун махсус квоталар ажратиш, хотин-қизларни магистратурага ўқитиш харажатларини давлат томонидан қопланиши ёшларнинг олий ўқув юртларига қабул қилинишининг ўсишига ёрдам берди.

Шу нуқтаи назардан, таълим тизими олдида турган устувор вазифалар, жумладан, таълимнинг барча босқичларининг узлуксизлигини таъминлаш, инсонпарварлаштириш ва демократлаштириш тамойиллари асосида таълим тизимини ривожлантириш белгиланди. Давлат таълим стандартининг таркибий қисмларидан бири сифатида таълим муассасалари учун мос ўқув дастури муҳим меъёрий ҳужжат бўлиб, унинг асосида таълим тизими молиялаштирилади.

Янги Ўзбекистонда қурилган таълим тизимининг фалсафий асосларига тўхталадиган бўлсак, қуйидаги масалаларга эътибор бериш зарур деб ўйлаймиз.

Таълим жамият ва унинг аъзоларининг маънавий эҳтиёжлари билан боғлиқ

шартлар, мажбуриятлар ва имкониятлар кўринишида намоён бўлади. Бу ижтимоий жараёнлар ва муносабатлар мувозанатини мустаҳкамловчи, сақловчи ва қўллаб-қувватловчи омилдир. Таълим тизими жамиятдаги ижтимоий барқарорлик, кишиларнинг турмуш тарзи, инсон ривожланишини ўз ичига олган мураккаб тизимдир.

Таълим шахс, ижтимоий гуруҳлар ва жамиятга хос бўлган мақсад ва вазифаларни ҳал этишда, маънавий-маърифий баркамолликка эришишда муҳим ўрин тутди. Таълим инсоннинг ўз-ўзини ташкиллаштириш қобилиятини рўёбга чиқаради, унинг дунёқараши ва тафаккурини бойитади, инсон ҳаётига ижодий руҳ бағишлайди. [1, 22 б.] Шу маънода, таълим хилма-хил ва кўп тармоқли ижтимоий организм бўлиб, жамият аъзолари ўртасидаги ахлоқий, диний, сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий, маънавий ва мафкуравий муносабатларни қўллаб-қувватлашни, уларнинг жамиятда инновацион амалиётларни замонавий руҳда амалга ошириш механизмларини ўзида мужассам этиб, таълим субъектлари ўртасидаги умумий муносабатларни тартибга солувчи қонунларни акс эттиради. Таълим фалсафаси жамиятнинг ўзгариши ва ривожланиши билан боғлиқ бўлган инсон ҳаёти ва тафаккурининг умумий қонунларига асосланган билимлар тўпламидир. Фалсафий маънода бундай умумлаштиришнинг мазмуни моддий ва маънавий дунёни унинг даражаси нуқтаи назаридан ташкиллаштирадиган шунингдек, ўқув жараёнини лойиҳалашнинг босқичма-босқич ва истиқболли хусусиятларини педагогик таҳлил қилишдир.

Таълим тизими элементлари таълим жараёни, таълим субъектлари ва ижтимоий ҳаёт ўртасидаги муносабатларга асосланган қонунлар доимо мавжуд бўлиб, бу жиҳатлар инсон мавжудлигининг хусусиятларини белгилайди ва ҳамиша ўз-ўзини ташкиллаштиришга мойил бўлади. Ушбу хусусиятларнинг динамик ва барқарор ривожланишини таъминлаш таълим тизимидаги жараёнларни инновацион асосда ташкил этиш даражасига боғлиқ. Таълим тизимини фалсафий кузатиш таълимнинг инновацион ривожланишининг ўзига хос хусусиятларини белгилайди. Синергетик жиҳатдан қараганда хаос жараёнидан тартибнинг вужудга келиши таълимнинг янги қадриятлар тизимини яратиш мазмунини ифодалайди.

Бугунги кунда мавжуд таълим шакллари бир-бирига қарама-қарши қўйиш ва улардан бирини муҳим, иккинчисини аҳамиятсиз деб ҳисоблаш тўғри келмайди. Чунки, “Тизимни ташкил этувчи муҳим ва номуҳим деб ҳисобланган элементлар бирлигигина тизим ўз-ўзини юксак ва мукамал ҳолатга келтириши учун хизмат қилади”. [5, 48-49 б.] Яъни, таълим табиий, техник, технологик, ижтимоий, гуманитар ва ҳуқуқий соҳалари ўзаро боғлиқ. Ҳар бир тарихий даврда таълимни бошқариш методологияси жамиятнинг маънавий ва интеллектуал потенциалига, сиёсий ва ҳуқуқий маданиятга мувофиқ шакллантирилади ва қўлланилади.

Таълим тизимини ривожлантиришнинг назарий ва амалий жиҳатларини тушунишнинг қуйидаги хусусиятларини кўрсатиб ўтиш муҳим саналади:

- тез ўзгарувчан, тобора кенгайиб бораётган замонавий муҳитда жамиятни тезкор ислохотларга тайёрлаш;
- глобаллашув шароитида таълим жараёнларининг фаоллигини ошириш;
- халқаро илмий ва маданиятлараро муносабатларга, маънавий-маърифий

бағрикенгликка бўлган эҳтиёж ортиб бориши;

- ёш авлодни умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш, уларнинг қобилиятлари, интилишлари ва эҳтиёжларини рўёбга чиқариш учун халқаро миқёсда таълим соҳасида интеграцияни ташкил этишга қаратилган қадриятларни яратиш жараёнини жадаллаштириш;

- жамиятда демократик анъаналарни, плюрализм, фикрлар хилма-хиллиги, ижтимоий-иқтисодий ислохотларни жадаллаштириш;

- таълим тизимида юқори рақобат шароитида ёш авлоднинг фуқаролик масъулияти ва ижтимоий фаоллигини ошириш.

Ижтимоий рақобат шароитида янги ғояларга бўлган эҳтиёж, давлат ва инсон манфаатларининг уйғунлигини таъминлаш таълимнинг инновацион ривожланишининг муҳим қонуниятлари ҳисобланади. Профессор Г.Султонованинг фикрига кўра “Бугунги кунда жаҳон цивилизациясининг постиндустриал мамлакатлар ҳамжамиятига айланиши, ахборот, компьютерлаштириш ва маданиятлараро алоқанинг глобаллашуви инсон ҳаёти, фан ва тафаккурида жиддий ўзгаришларга олиб келди”. [4, 173 б.]

Ижтимоий фаровонлик ва ижтимоий уйғунлик мукамал шахсни шакллантириш, фуқаролик жамияти асосларини яратиш, ҳуқуқий билим ва маданиятни ривожлантириш билан чамбарчас боғлиқдир. Бозор муносабатлари шароитида таълим тизимининг самарадорлигига эришиш муқаррар равишда унинг тубдан инновацион ислохотини талаб қилади. Фуқаролик жамиятини куришда тўлақонли шахсни шакллантириш таълим тизимини ривожлантиришнинг асосий мақсади ҳисобланади.

Таълимнинг фалсафий тушунчаси унинг ижтимоий табиатидан келиб чиқади. Фалсафий фанлар тарихан таълим соҳасини янги ғоялар билан қуроллантиришга хизмат қилган. Ушбу ғоялар фалсафанинг таълим тизимидаги ўқув жараёнининг ядроси бўлган билиш назарияси ва усуллари билан боғлиқ.

Жамиятни ҳар қандай идрок этиш таълим тизимининг мақсади ва мазмунига тўлиқ мос келади. Ундаги жараёнларни мафкуравий қўллаб-қувватлайди. Чунки, таълим жамият соҳасининг асосий муҳим қисмларидан биридир. Аввало, фалсафий антропология кўплаб таълим моделларининг барча даврларида, бепул таълим жараёнларидан тортиб, шахсга йўналтирилган таълимгача муҳим рол ўйнаган. Бошқача айтганда, таълимни ривожлантириш билан боғлиқ ҳар қандай ғояларни амалга ошириш фалсафий фикрлаш маҳсули сифатида қаралиши керак. Натижада бу соҳада таълим амалиётида янги тадқиқот, технологик ва методологик жараёнларга олиб келади.

Жамият ҳақида тўпланган билимлар фалсафа, маърифат ва маънавиятнинг таълим тизимини ривожлантириш бўйича кўплаб ғояларни ўз ичига олади. Шу маънода, “фалсафа таълим тизимининг назарий асосларини шакллантиришда муҳим рол ўйнайди ва аслида амалий фалсафадир”. [2,14 б.] Фалсафа ва таълимнинг педагогик соҳанинг ҳар қандай қисмида ўзаро боғлиқлиги унга ижтимоий мақом берадиган фалсафий билимдир.

Бугунги кунда ушбу билимларни тизимлаштириш, уларни методологик тартибга солиш, фалсафий ғоялар ва педагогик билимларнинг комбинацияси бўйича амалий тадқиқотлар ўтказиш мақсадга мувофиқдир. Бугунги кунда таълим усуллари ва технологияларини ривожлантиришга қаратилган таълим

тизимини фалсафий тушуниш бўйича кўплаб илмий билимлар мавжуд.

Хулоса қиладиган бўлсак, фалсафа таълим соҳасидаги тадқиқотлар учун асосдир. Бутун тарих давомида фалсафа ва унинг ҳаракатлари таълим ва тарбиянинг муайян педагогик моделларини амалга ошириш учун асос бўлиб хизмат қилган. Фалсафа ижтимоий онгда содир бўлаётган воқеликни акс эттирди ва педагогик фаолиятнинг асосий тамойилларини шакллантирди. Фалсафанинг методологик функцияси педагогика фани ва педагогик тадқиқотлар учун йўл очиб беради. Фалсафа педагогикадаги тадқиқотчига билишнинг муайян метод ва воситаларини солиштириш ва баҳолашга ёрдам беради ва илмий тадқиқот йўналишини белгилайди. Фалсафа ёрдамида педагогика фанининг тушунчалари ва атамалари ишлаб чиқилади ва шу орқали унинг категориявий аппарати бойитилади. Фалсафа педагогика фанига умумий илмий усуллар ва тадқиқот ёндашувларини ишлаб чиқиш имконини беради ва ҳар қандай педагогик янгиликларни тушунишга ҳисса қўшади. Фалсафа ва педагогикани таълим фалсафаси шаклида бирлаштириш заруриятини келтириб чиқаради. Таълим фалсафасини педагогикада тадқиқотнинг интегратив ва конструктив-проекцион асоси сифатида ўрганиш истикболларини вужудга келтиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Muminova Z. Personality: wellness and spiritual education //Academicia Globe. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 20-23.
2. Moses M. S. Chapter 1: The heart of the matter: Philosophy and educational research //Review of Research in Education. – 2002. – Т. 26. – №. 1. – С. 1-21.
3. Муртазаева Р.Х. Гуманизация и гуманитаризация высшего образования: в поиске “золотой середины” // Журнал “Ўтмишга назар”, 2023 йил, 6 жилд, 11-сон, 4-14 бетлар.
4. Sultanova, G. Methodology and way of thinking in postnonclassical phylosophy / G. Sultanova // Theoretical & Applied Science. – 2016. – No. 2(34). – P. 172-174.
5. Тураев Б. О. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари //Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Б. – 2015. – 48-49 бетлар.

ФИН ЁШЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ

Турсунова Олмос Файзиевна

Ўзбекистон-Финландия педагогика институти
Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси доценти

Аннотация

Мақолада фин ёшларининг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳақида сўз боради. Фин ёшларининг шахсий, ижтимоий, иқтисодий, маданий ва экологик ҳуқуқлари ва уларнинг кафолатлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: ҳуқуқ, конституция, эркинлик, кафолат, шахс дахлсизлиги. Ўзбекистон давлати каби Финляндияда ёшларнинг ҳуқуқлари бир қанча

норматив ҳуқуқий ҳужжатларда ўз аксини топган. Тарихга назар ташлайдиган бўлсак, 1906 йилда сайлов ва давлат тизими тўғрисида қонун қабул қилинди. Финландия энг замонавий модел – бир палатали парламентга ўтди. 1906 йил 1-октябрда кучга кирган қонунга асосан, сайлаш ҳуқуқи ҳамма учун умумий ва тенг бўлди. Энг асосийси, эркаклар ҳам, аёллар ҳам ушбу ҳуқуққа бир вақтда эга бўлдилар.

Илк бора аёл-депутатлар 1907-йилда Финляндияда сайландилар. Ҳам эркак, ҳам аёлларга бир вақтнинг ўзида берилган тенг ҳуқуқлилик, Финляндиянинг ўзига хос хусусияти бўлиб ҳисобланади [1, 3].

2000- йилдаги янги конституциянинг айрим моддаларида ёшларнинг шахсий, ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий, экологик ҳуқуқлари ҳақида нормалар берилган.

Финландия Конституциясининг 6-параграфида барчанинг қонун олдида тенглиги таъкидланиб, болалар билан муносабатга киришилганда ва уларга оид қарор қабул қилинаётганда, уларга ҳам алоҳида индивид сифатида қаралиши, уларнинг фикри уларнинг ақлий ривожланганлик даражасига қараб инобатга олиниши қайд этилган. Бу нормада “ҳар бир инсон эътиборда” принципи қўлланилганини кўришимиз мумкин. Финландия таълим тизимида ушбу анъана ҳозиргача амалда.

Ёшларнинг гендер тенглиги жамиятнинг ижтимоий ҳаётида ёки меҳнат муносабатларида айниқса, меҳнатга ҳақ тўлашда қонунчиликнинг энг нозик жиҳатларигача инобатга олинганлиги диққатга сазовордир.

Барча ёшлар яшаш, эркинлик, дахлсизлик ва ҳимояланганлик ҳуқуқига эга. Ҳеч ким ўлимга ҳукм қилиниши, қийноқларга солиниши ёки инсон кадр-қимматини камситувчи бошқа ҳар қандай муомалага дучор этилиши мумкин эмас. Ҳеч ким қонуний асосларсиз ўзбошимчалик билан эркинлигидан маҳрум этилиши мумкин эмас. Жазо, озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлса, фақат суд томонидан белгиланади. Озодликдан маҳрум этишнинг қонунийлиги фақат суд томонидан текширилади. Озодликдан маҳрум этилган шахсларнинг ҳуқуқлари қонун билан ҳимоя қилинади [2, 9].

Ҳеч ким жиноят содир этишда айбдор деб топилиши ёки ўша пайтда қонунга кўра жиноят деб топилмаган қилмиши учун жазога ҳукм қилиниши мумкин эмас. Жиноят содир этилган пайтдаги қонунда белгиланган жазодан қаттиқроқ жазо қўлланиши мумкин эмас.

Финландия ёшлари, шунингдек мамалакатда қонуний истиқомат қилувчи чет эл фуқаролари мамлакат бўйлаб эркин ҳаракатланиши ва у ерда яшаш жойини танлаш ҳуқуқига эга. Ҳар ким мамлакатни тарк этиши мумкин. Фақатгина ушбу ҳуқуқ суд жараёнини амалга ошириш ёки жазони ижро этиш ёки Ватанни ҳимоя қилиш бурчини бажараётганда қонун билан чекланиши мумкин.

Ҳар бир ёшнинг шахсий ҳаёти, шаъни ва уй-жой дахлсизлиги ҳимоя қилинади. Шахсий мақсадларни ҳимоя қилиш бўйича батафсил қоидалар қонун билан белгиланади. Ёзишмалар, телефон суҳбатлари, шунингдек бошқа шахсий маълумотларнинг дахлсизлиги қонун билан ҳимоя қилинади. Жиноятни

аниқлаш ва асосий эркинлик ва ҳуқуқларни таъминлаш мақсадидагина уй-жой дахлсизлиги принципи қонун доирасидагина бузилиши мумкин. Қонунда шунингдек, шахс ёки жамият хавфсизлигига, уй-жой дахлсизлигига, суд процессига, миллий хавфсизлик ёки эркинликка дахлдор жиноятни тергов қилиш учун зарур бўлган ҳолатларда дахлсизликка нисбатан чекловлар белгиланиши мумкин.

Ҳар бир ёш дин ва виждон эркинлигига эга. Дин ва виждон эркинлиги динни тан олиш ва эътиқод қилиш, диний жамоага мансуб бўлиш ёки мансуб бўлмаслик ҳуқуқини ўз ичига олади. Ҳеч ким ўз эътиқодига зид равишда диний маросимларда қатнашишга мажбурланиши мумкин эмас [2, 10].

Ҳар бир ёш ўз фикрини эркин билдириш ҳуқуқига эга. Ахборот фикр ва бошқа маълумотларни ҳеч қандай тўсиқларсиз тарқатиш ва қабул қилиш, сўз эркинлиги тўғрисидаги қонун ҳужжатларида батафсилроқ тартибга солиниши мумкин.

Болаларни ҳимоя қилиш мақсадида видео дастурларга чекловлар қўйиш қонун билан тартибга солинади. Давлат идораларида сақланаётган ҳужжатлар ва тасвирлар қонун билан таъқиқланмаган бўлса, улар ҳаммабоп ҳисобланади. Ҳар бир инсон расмий ҳужжатлардан ва тасвирлардан маълумот олиш ҳуқуқига эга.

Ҳар бир ёш рухсатсиз йиғилишлар ва намойишлар ташкил этиш ва уларда қатнашиш ҳуқуқига эга. Ҳар бир инсон уюшмалар уюшиш ҳуқуқига эга. Йиғилишлар ва намойишлар ташкил этиш ва уларда қатнашиш учун рухсат берилади. Бирлашмаларга аъзо бўлиш ёки аъзо бўлмаслик, уларнинг фаолиятида иштирок этиш ҳар кимнинг ҳуқуқидир.

Финландиянинг ҳар бир 18 ёшга тўлган фуқароси миллий сайловларда ва референдумларда қатнашиш ҳуқуқига эга, ушбу қоида Финландияда доимий ва қонуний равишда яшовчи ҳар бир 18 ёшдан ошган чет эл фуқаросига тегишли. Ёшлар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда шахар сайловларида ва коммунал референдумларида қатнашиш ҳуқуқига эга. Қонун ўзини ўзи бошқаришда иштирок этишнинг бошқа шаклларида бўлган ҳуқуқни ҳам белгилайди. Ҳар бир инсон жамоат фаолиятида иштирок этиш ва уларга бевосита таъсир кўрсатадиган қарорларни кўриб чиқиш учун турли хил имкониятларга эга бўлиши керак.

Ҳар бир шахснинг мулки ҳимояга қилинади. Мулкни миллийлаштириш қонун билан тартибга солинади.

Барча шахслар бепул асосий таълим олиш ҳуқуқига эга. Мажбурий таълим тўғрисидаги қоидалар қонун билан белгиланади. Ҳукумат қонуннинг батафсил қоидаларига асосланиб, ҳар кимга ўз қобилиятлари ва ўзига хос эҳтиёжларига мувофиқ асосий таълимдан ташқари таълим олиш учун тенг имкониятни таъминлаши керак. Ҳар бир ёш фан ва санъат билан шуғулланиши ва олий маълумот олиш ҳуқуқига эга.

Финландиянинг миллий тиллари фин ёки швед тили ҳисобланади. Ҳар ким Финландия ва Швеция суд ва бошқа давлат органларида фин ёки швед тилида ёки ўз тилидан фойдаланиш ҳуқуқига эга. Ҳукумат фин ва швед тилида сўзлашувчи аҳолининг маданий ва ижтимоий эҳтиёжларини бир хиллик

принципи асосида қондиради.

Ҳар бир инсон қонун ҳужжатларига мувофиқ меҳнат қилиш орқали даромад олиш ҳуқуқига эга. Ҳунармандчилик ёки тадбиркорлик, давлат органлари ишчи кучини ҳимоя қилиш учун ғамхўрлик қилиши шарт. Касбий таълим олиш ҳуқуқига қўйиладиган талаблар қонун билан белгиланади. Ҳеч ким қонуний асосларсиз ишдан бўшатилмайди.

Инсоннинг муносиб ҳаёти учун зарур бўлган маблағларни топа олмайдиган ҳар бир шахс мажбурий ижтимоий таъминот ва ғамхўрлик олиш ҳуқуқига эгадир, қонун ҳар кимга касаллик ҳолатида ишсизлик нафақасини олиш ҳуқуқини кафолатлаши керак. Ногиронлик ва бошқа ёш, шунингдек, бола туғилиши ва боқувчисини йўқотганлик учун нафақалар қонун ҳужжатлари асосида берилади.

Ҳар бир инсон табиат ва унинг хилма-хиллигини муҳофаза қилиш, шунингдек атроф-муҳит ва унинг маданий меросини муҳофаза қилиш учун жавобгардир. Ҳукумат соғлом муҳитни таъминлаши ва ҳар кимнинг ўз яшаш муҳитига таъсир қиладиган масалалар бўйича қарор қабул қилишга таъсир қилиш ҳуқуқини таъминлаши керак

Ҳар ким ўз ишини асослантирилган кечиктирмасдан судда кўриб чиқишга, ишни қонун билан ваколат берилган бошқа давлат органига кўриб чиқишга, ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларига оид қарорлар қабул қилишга ҳақли. Ишни тегишли суд ёки бошқа ваколатли мустақил давлат органи томонидан кўриб чиқиш ҳуқуқига эга. Кўриб чиқишнинг ошкоралиги, тинглаш ҳуқуқи, асосли қарор қабул қилиш ҳуқуқи кафолатланади.

Ҳокимият асосий эркинлик ва ҳуқуқлар ҳамда умуминсоний ҳуқуқларнинг ҳурмат қилинишини назорати таъминлайди.

Қонун Финландиянинг инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро мажбуриятларига мувофиқ йўл қўйиладиган ва Финландия қуролли ҳужумга дучор бўлган ёки бунинг учун зарур бўлган вақтда зарур бўлган эркинлик ва ҳуқуқларга шундай чекловлар қўйиши мумкин. Фавқулодда ҳолатларга, халққа таҳдид соладиган ва ўта жиддий масалаларда қонунга кўра, чекловлар қўйилиши мумкин.

Финляндиядаги ҳар бир инсон ҳуқуқи, фуқаролар томонидан маъқулланган ва юридик асос билан мустаҳкамланмаган жамоатчилик қонунидир. Ушбу ҳуқуқлар фақатгина финлар учунгина амал қилмайди. Ушбу тарихдан келиб чиққан «ижтимоий янгилик» барча хорижий меҳмонларга ҳам амал қилади.

Адабиётлар:

1. Илкка Тайпале Финляндиянинг 100 та ижтимоий инновацияси./ Финляндия қандай қилиб Финляндия бўлди: сиёсий, ижтимоий ва маиший инновациялар. – Т.: “Sharq”, 2019. – 336 бет.
2. Финландия Конституцияси. 2000.

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХАЛҚАРО ИМИДЖИНИНГ ЮКСАЛИШИДА ТАЪЛИМ ТУРИЗМИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Хашимов Ш.Ж.

Самарқанд Иқтисодиёт ва сервис институти,
ф.ф.б.ф.д. (PhD) доцент
90 227764 E-mail – *sheraxon64@mail.ru*

Аннотация

Мақолада Ўзбекистоннинг халқаро имиджи юксалишида таълим туризмининг тутган ўрни ва аҳамияти масалалари таҳлил қилинган. Жамият ҳаёти, ижтимоий ривожланиш жараёнига таълим туризмининг таъсири масалалари кўриб ўтилган. Таълим туризмининг таснифланиши, улар ўртасидаги алоқадорлик масалалари ўрганилган.

Калит сўзлар: Халқаро имидж, таълим туризми, ижтимоий ривожланиш, таълим туризмининг таснифланиши, ўзаро боғлиқлик ва алоқадорлик.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL TOURISM IN IMPROVING THE INTERNATIONAL IMAGE OF UZBEKISTAN

RESUMI

The article analyzes the role and importance of educational tourism in the rise of the international image of Uzbekistan. Issues of the influence of educational tourism on the life of society and the process of social development are considered. Classification of educational tourism, issues of connection between them are studied.

Key words: International image, educational tourism, social development, classification of educational tourism, interdependence and relevance.

Бугунги кунда Ўзбекистонда таълим туризми ривожлантириш масаласига катта эътибор қаратилмоқда. Таълим туризмида билим олиш саёҳатнинг асосий мақсади сифатида эътироф этилади. Олий таълим муассасалари, университет ва институтлар, тил ўргатувчи мактабларда таълим олиш, турли таълим муассасаларига уюштирилган саёҳатлар таълим туризмининг асосий ўрганиш соҳаси бўлиб ҳисобланади. Халқаро ташкилотлар томонидан қабул қилинган таърифларга кўра, таълим олиш ва касбий тайёргарликни назарда тутувчи саёҳатлар қуйидаги кўринишдаги фаолиятларда акс этади: - қисқа муддатли курсларда таҳсил олиш; - расмий курсларда қатнашиш орқали касбий малака компетенцияларини эгаллаш. Бунда “таълим туризми” тушунчаси одатдаги муҳитдан фарқли бўлган бир йилгача муддатда маълум бир йўналишда саёҳат қилувчи ҳамда иқтисодий манфаатдорликни назарда тутмаган ҳар қандай фаолиятда ифодаланади⁴³.

Таълим туризми туризм соҳасининг серқирра турларидан бири сифатида тил ўрганиш, таълим олиш, малака ошириш, касб-хунар ўрганиш, анжуманларда иштирок этиш, спорт турларини ўрганиш каби кўп қирувчи ва чиқувчи таълим туризми йўналишларини ўз ичига қамраб олади. Мамлакатимиз

⁴³ https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/44_Makhmudova.pdf

туризмни ривожлантиришда ҳар қандай хорижий мамлакатдан қолишмайдиган имкониятларга ва ҳали рўёбга чиқмаган салоҳиятга эга. Шу боис туризмнинг ушбу турини жадал ривожлантириш иқтисодий тараққиётда катта муваффақиятларга эришишимизни таъминловчи асосий омил ҳисобланади⁴⁴.

6. Mohammed, A. (2016). the effectiveness of using ACAMPER strategy to develop scientific creative thinking skills and academic achievement in science subject among a selected sample of the second intermediate class pupils in Saudi Arabia. DAR ALMANDUMAH, 3(32),419-479.

7. Hussein, A. (2017). The Effect of Using Scamper Strategy on Developing Preparatory Students Achievement and Some Habits of Mind. DAR ALMANDUMAH, (192),249-287.

8. Eberle, B. (1997). SCAMPER: Creative Games and activities for imagination development. Waco. TX: prufrock press.

9. Alexenoamen. (2009). Teaching English: Ways of motivating EFL/ESL students in the classroom. British Council, london, UK . Retrieved June 1st, 2013, from <http://teachingenglishalexenoamen.blogspot.com>

10. Gladding, S. (2007). Becoming Creative as a Counselor: The SCAMPER Model(DVD). Framingham. MA: Microtraining Associates. <https://library.iugaza.edu.ps/thesis/1269pdf>

RAQAMLI TA’LIMNING GUMANISTIK MOHIYATI

Sultanova Gulnoza Sabirovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Falsafa va milliy g‘oya kafedrasi

falsafa fanlari doktori (DSc), professor

e-mail: sgulnoza33@gmail.com

tel: (91) 5278756

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamlashtirishning inson muammosi va gumanizmga ta’siri masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamlashgan jamiyatda inson muammosiga ta’sir etuvchi omillar tasniflab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, gumanizm, inson muammosi, erkinlik, maxfiylik, raqamlashgan ta’lim, raqamlashgan jamiyat.

Abstract

This article analyzes the issues of the impact of digitization on the human problem and humanism. Also, in a digitized society, factors affecting the human problem are classified.

Key words: digitization, humanism, human problem, freedom, privacy, digitized education, digitized society.

Mamlakatimizda raqamli jamiyatga o‘tish, ta’lim tizimi rivojlanishning postindustrial bosqichida innovatsion va intellektual texnologiyalari rivojlanishi bilan belgilanadi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim, ishlab chiqarish va amaliyotga joriy qilinishi jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy sohalarining

modernizatsiyasini tezlashtiradi. Buning mazmun-mohiyati esa 2020 yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qonun xujjatlarida aks etgan[1].

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘ldan borish imkoniyatini beradi” [2]. Raqamli ta’lim - texnologiyalar va onlayn resurslardan foydalanishni o‘z ichiga olgan raqamli ta’lim inson hayotining turli jabhalariga, jumladan, ta’lim, ish, ijtimoiy munosabatlar va o‘z-o‘zini rivojlantirishga ta’sir qilishi mumkin.

“Raqamlashtirish” amerikalik olim N.Negroponte tomonidan 1995 yili birinchi bo‘lib ilmiy atama sifatida kiritilgan[3]. Demak raqamli ta’lim XX asr fenomeni sifatida rivojlangan davlatlarda ommalashib bordi.

Raqamli ta’lim - bu ta’lim mazmunini etkazib berish va o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun raqamli texnologiyalar va onlayn resurslardan foydalanishga asoslangan ta’lim shakli. An’anaviy o‘qitish usullaridan farqli o‘laroq, raqamli ta’lim Internet orqali ta’lim materiallari va manbalariga kirishni taklif qiladi va kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar, onlayn platformalar va ilovalar kabi turli xil raqamli vositalardan foydalanadi.

Raqamli ta’limning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- Onlayn kurslar va platformalar. Coursera, edX, Udemy va Khan Academy kabi turli xil ta’lim kurslari va platformalari onlayn darslar, video ma’ruzalar, topshiriqlar va testlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

- Elektron darsliklar va manbalar. Darsliklar, maqolalar, jurnallar va boshqa o‘quv materiallarining elektron versiyalariga Internet orqali osongina kirish mumkin.

- Vebinarlar va onlayn konferentsiyalar. Vebinarlar va onlayn konferentsiyalar o‘qituvchilar va o‘quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan Real vaqtda interaktiv muloqot qilish imkoniyatini beradi.

- Multimedia manbalari. Audio, video va grafik materiallardan foydalanish o‘quv materialini talabalar uchun yanada qiziqarli va qulay qilishga yordam beradi.

- Interaktiv topshiriqlar va testlar. Interaktiv topshiriqlar va testlar talabalarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini onlayn tekshirish imkonini beradi.

- Adaptiv o‘rganish. Ba’zi platformalar har bir talabaning individual ehtiyojlari va bilim darajalariga mos keladigan moslashuvchan ta’limni taklif qiladi.

Raqamli ta’lim bir qator afzalliklarga ega, masalan, mavjudlik, moslashuvchanlik, masofadan turib o‘rganish qobiliyati va talabalarining motivatsiyasini oshirish. Shu bilan birga, raqamli tengsizlik, shaxsiy aloqalarning etishmasligi va ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar kabi ba’zi muammolarni hisobga olish muhimdir.

Xorijiy olim Ch.Girning “Raqamli madaniyat” asarida raqamlashtirish, raqamli jamiyat, raqamli madaniyat tushunchalarini kategorial jihatdan tadqiq etgan^[3.13].

Raqamli ta’lim ham ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, inson omillari bilan bog‘liq ba’zi gumanizm muammolariga olib kelishi mumkin:

1. Raqamli tengsizlik. Raqamli texnologiyalar ta’limni tarqatish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, ularga kirish har doim ham bir xil emas. Kam ta’minlangan yoki uzoq mintaqalardagi odamlar yuqori tezlikdagi Internet yoki yuqori

sifatli qurilmalarga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, bu esa raqamli tengsizlikni keltirib chiqaradi.

2. Ta’lim sifati. Ba’zi hollarda, onlayn ta’lim an’anaviy o‘quv dasturlari bilan bir xil ta’lim sifatini ta’minlamasligi mumkin. O‘qituvchilar va hamkasblar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lmaslik, shuningdek, qo‘llab-quvvatlash va motivatsiyaning etarli emasligi o‘quv samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin.

3. O‘zaro ta’sirning cheklanganligi. Raqamli ta’lim yuzma-yuz muloqot qilish, muhokama qilish va hamkorlik qilish imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin, bu esa talabalarda yolg‘izlik va yolg‘izlik hissini keltirib chiqarishi mumkin.

4. Diqqat, xotira va matnga e’tibor muammolari. Darslarda raqamli qurilmalardan foydalanish, ayniqsa, yoshlarda chalg‘itish va diqqatni yo‘qotish xavfini oshirishi mumkin.

5. Ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi. Raqamli ta’limning rivojlanishi bilan talabalar ma’lumotlarining xavfsizligi va maxfiyligi, shu jumladan shaxsiy ma’lumotlarning buzilishi va ruxsatsiz shaxslar tomonidan kirish xavfi to‘g‘risida yangi savollar tug‘iladi.

Jamiyat raqamli xavfsizlikning nafaqat texnik, balki gumanitar, insonparvar jihatlari bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lishi kerak, ularni bilmaslik davlat va shaxs xavfsizligiga katta zarar etkazadi. Bizning nazarimizda, “Raqamli O‘zbekiston” rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari mamlakatimizning har bir fuqarosidan, uning ma’lumoti va yoshidan qat’iy nazar, axborot xavfsizligi asoslarini o‘rganishni va bilishni talab qiladi[4.19].

6. An’anaviy ko‘nikmalarni yo‘qotish. Raqamli texnologiyalardan foydalanish yozma muloqot, qog‘oz kitoblarni o‘qish va boshqalar kabi an’anaviy ko‘nikmalarni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin, bu esa shaxsiy rivojlanish va intellektual qobiliyatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ushbu muammolarni hisobga olgan holda, raqamli ta’limdagi inson omillari bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradigan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish va insonning yaxshi o‘rganishi va rivojlanishi uchun uning afzalliklaridan maksimal darajada foydalanish muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. “Raqamli O‘zbekiston – 203” strategiyasi. <https://lex.uz/uz..>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. uz.u.
3. Gere Ch. Digital Culture. Expanded second edition London, 2008, - p. 13-14.
4. Югай Е.В. Социально-философский анализ развития цифровой культуры в Узбекистане // Автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам. Самарканд, 2022. – С. 48ю
5. G.S.Sultanova The essence and nature of postnonclassical scientific thinking // - Школа Науки, М., 2019. – P. 21-22.
6. G.S.Sultanova. Methodology and way of thinking in postnonclassical phylosophy // - Theoretical & Applied Science, USA, 2016. – P. 172-174

**TA'LIM JARAYONLARIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARNING O'RNI, AFZALLIGI, DOLZARBLIGI VA
ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI**

**O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
dotsent Ochilov T.M.**

Ochilov@mail.ru

**Samarqand davlat universiteti,
katta o'qituchi Bustanov X.A.
bustanov59@mail.ru**

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qitish jarajonida zamonaviy komyuter texnologiyalarini va raqamli texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi, uning bilim oluvchilarga ta'siri yuzasidan keltirilgan fikrlar yoritilgan. Maqolada asosan talabalarni aynan raqamli texnologiya usullardan va kompyuter texnikasidan foydalangan holda o'qitish metodlari, uning vazifasi va natijasi, ta'limni individuallashtirish masalasi va keltirib chiqaradigan muammolari, ularning echimlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot resurslari, axborot texnologiyalar, kompyuter dasturlari, electron darslik, electron ta'lim va ishlanmalar, ta'lim metodlari.

Abstract

This article discusses the effectiveness of using modern computer technologies and digital technologies in the teaching process, and its impact on learners. The article mainly describes the methods of teaching students using digital technologies and computer equipment, its task and result, the issue of individualization of education and the problems it causes, and their solutions.

Key words: digital technologies, information resources, information technologies, computer programs, electronic textbooks, electronic education and developments, educational methods.

Butun dunyodagi mamalakatlar kabi, mamlakatimizda ham sifatli ta'lim olish har doim asosiy ustuvorlikka ega bo'lgan va doimo qadriyatli hisoblangan. Shunga qaramasdan hozirgi vaqtlarda inson imkoniyatlari va istaklarining keng salohiyati har bir sohalarida yorqin kuzatilmoqda. Masalan, ta'lim sohalarida ham uning bir maromda turmasligi, balki o'z yutuqlarini o'quv faoliyatlari jarayonlarida shaxsiy yondashuvga yo'naltirilgan holda modernizatsiya qilinayotganlari kuzatilmoqda.

Jumladan, ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar - bu ta'lim tizimidagi yangi vositalar va usullarni real dunyoga tatbiq etish mexanizimlari kabidir.

Asosan barcha ta'lim sohalarining o'quvchilar "interaktiv texnologiyalar va usullar", "innovatsiya", "multimediyali o'quv materiallari" va boshqa ko'plab tushunchalarni eshitmoqda. So'zlar bir qarashda murakkab va noma'lum, lekin boshqa tomondan o'xshash ma'noga ega. Lekin hozirgi zamonada soha o'quvchilari ta'limning muayyan talablariga javob berishi kerak. Bu asosan dars xonalarida

kompyuterlar, proyektorlar, ya'ni ma'lumot resurslari bilan ta'minlanganligi bilan bog'liq. Barcha ta'lim sohalarida turli pedagogik innovatsiyalar mavjud bo'lib, har bir ta'lim muassasasi ta'limda o'zining eng "rivojlangan" yoki an'anaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanadi[1, 2].

O'z navbatida, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ta'lim sohasining o'quv jarayonlarida qo'llash natijalarida o'quvchilar ta'lim materiallarni o'zlashtirishda juda katta natijalarga erishadi.

Ta'lim sohalarida keng ko'lamda qo'llaniladigan texnologiyalarga ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofidir. Jumladan, o'yin texnologiyasi ta'limda eng ko'p qo'llaniladi, ya'ni:

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'zini o'zi belgilash uchun sharoit yaratadi, yaxshi o'zlashtirish uchun elektiv kurslar olib boriladi.

- Barcha darslarda o'quvchilarning sog'lig'iga ta'sir o'tkazmaydigan sog'liqni saqlash texnologiyalaridan foydalaniladi.

- Loyihaviy-tadqiqot texnologiyasi yoki boshqa samarali ta'lim faol ta'limni o'z ichiga oladi, ya'ni tadqiqot usullari, to'plash, natijalarni o'quvchi tomonidan umumlashtirish.

- Blokli - modulli texnologiya o'quvchilarning turli xil mustaqil, qo'l bilan bajara oladigan ishlariga, masalan, ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlashga, ijodiy ishlarni yozishga, mashqlarni bajarishga yo'naltirilgan. Ushbu texnologiya o'quvchilarga o'zlari uchun yangicha yo'l bilan ma'lumot izlashni, o'rganishni va bilim olishni o'rgatadi.

O'rta maxsus, chuqurlashtirilgan talim muassasalari va boshqa ta'lim sohalaridagi o'quv-tarbiya jarayoni doimiy ravishda o'quvchilarning aqliy faoliyatini o'zgartirish, mobil qidirish, ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish uchun avtomatlashtirilgan va telekommunikatsiya tizimlarini joriy etish. Bularning barchasi ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar tufayli amalga oshmoqda.

Masalan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchiga didaktik materialni xilma-xillashtirishga imkon beradi, o'quvchilarning o'qishi darajasidan qat'iy nazar, butun sinf va auditoriyalarning yuz foiz e'tiborini qamrab olishga imkon beradi.

Misol uchun, o'qituvchi tomonidan ekranga qo'yilgan vazifalar, o'quvchiga darslik orqali tushuntirib bo'lmaydigan mavzularni ajratib olishga yordam beradi.

Sog'liqlarida ayrim muammolari bo'lgan talabalar uchun ta'limda innovatsion texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Endi ular masofaviy ta'lim orqali o'z fanlarini o'rganishlari mumkin bo'ladi.

Ammo ta'lim jarayonini faqatgina axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etishi bilan to'liq hal qilinmaydi. Ushbu texnologiyalar o'z navbatida ishlab chiqarish faoliyatida samarali ishlash va muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalarning ijobiy tomonlari. Bu texnologiyalarning o'ziga yarasha afzalliklari bor, birinchidan, u o'quvchilarni bilimga, ayniqsa dizaynga qiziqtiradi[3].

- Ikkinchidan, bunday ta'limdan foydalanish o'quvchi uchun ko'proq qulay psixologik muhit yaratadi, xususan, o'qituvchi bilan bo'lgan munosabatlar.

- Uchinchidan, talaba uchun ijodiy makon ochiladi, natijada sifatli va qiziqarli

ishlar ko'payadi.

- To'rtinchidan, axborotlashtirish nafaqat o'quvchilarni rag'batlantiradi, balki o'qituvchilarning mehnat unumdorligi va madaniyatini oshirish orqali ularni yanada o'qish va izlanishlarga jalb qiladi.

Sinf rahbari va tyuterlarning mehnat faoliyatlarida axborot texnologiyalarini qo'llash. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishlar sinf rahbari yoki tyuterlarning, o'quv-tarbiyaviy ishlarning katta qismida, hujjatlarni tayyorlashda, darslarni tayyorlashda, darsdan tashqari mashg'ulotlar, ota-onalar yig'ilishlarini tashkil etishda va oilalar bilan hamkorlikda, dars soatlarida texnologiyadan foydalanish juda muhimdir[4].

Kiritilayotgan innovatsion texnologiyalar o'qituvchilarni metodik birlashmalar yoki pedagogika kengashlarida so'zlashga tayyorlashda muvaffaqiyat qozonmoqda. Darslar turli shakllarda bo'lgani tufayli o'quvchilar uchun yanada qiziqarli bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. "Texnologiya" so'zi yunoncha "techne" - san'at, mahorat, ko'nikma va "logos" - ilm-fan, qonun so'zlaridan kelib chiqqan. Aslida "texnologiya" - bu mahorat haqida bilim.

O'quv jarayonlarida o'quvchilarning bilim va ijodiy faolligini amalga oshirish uchun ta'lim sifatini oshirish, o'quv vaqtini yanada samarali ishlatish va o'quvchilarning reproduktiv faoliyati ulushini kamaytirish orqali uy vazifasini bajarishga ajratilgan vaqtni kamaytirish imkonini beruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Maktab va aorta maxsus sohalaridagi o'quv jarayonlarida qo'llaniladigan pedagogik ta'lim texnologiyalarining keng doirasi mavjud. Innovatsion pedagogik texnologiyalar o'z navbatida o'zaro bog'liqliklarni, bir-biriga asoslangan va har bir o'quvchiga o'z xususiyatlariga muvofiq ta'lim ehtiyojlarini ta'minlaydigan, ochiqlik, halollik, mehribonlik, hamdardlik, o'zaro yordam kabi qadriyatlarni tarbiyalashga qaratilgan muayyan didaktik tizimni tashkil etadi.

Jumladan quyidagi pedagogik texnologiyalarni va ularning natijalarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

Muammoli o'rganishlarda, o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish bo'yicha o'quvchilarning faol mustaqil faoliyatini tashkil etish, natijada bilimlar, ko'nikmalar, ko'nikmalarni ijodiy ravishda egallash, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Turli darajadagi ta'limlarda, o'qituvchi sust oqiydigalarga yordam berish, kuchlilarga e'tibor berish imkoniyatiga ega bo'ladi, kuchli o'quvchilarning ta'limda tezroq va chuqurroq o'sish istagini amalga oshiradi. Kuchli o'quvchilar o'z qobiliyatlarini mustahkamlaydilar, kuchsiz o'quvchilar o'zlarining o'quv qobiliyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qishga bo'lgan motivatsiya darajasi oshadi.

Loyihaga asoslangan o'qitish usullarida, ushbu metodologiyadan foydalangan holda ishlash talabalarning individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishlarda kasbiy va ijtimoiy o'zini o'zi belgilashga ko'proq ongli yondashish imkonini beradi.

O'qitishdagi tadqiqot usullarida, talabalarga mustaqil ravishda bilimlarini kengaytirish, o'rganilayotgan muammoni chuqur o'rganish va uni hal qilish yo'llarini taklif qilish imkonini beradi, bu dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga

ega. Bu har bir talabaning individual rivojlanish traektoriyasini aniqlash uchun muhimdir.

Ma’ruza-seminar-kredit tizimida, asosan bu tizim asosan o‘rta maktablarda qo‘llaniladi, chunki bu talabalar o‘lygohlarda o‘qishga tayyorlanishda yordam beradi. Bu materialni bloklarga jamlash va uni bir butun sifatida taqdim etish imkonini beradi va nazorat talabalarning dastlabki tayyorgarligi asosida amalga oshiriladi.

O‘qitishda o‘yin usullaridan foydalanish texnologiyasi: ya’ni rolli o‘yin, biznes va boshqa turdagi o‘quv o‘yinlari.

O‘z dunyoqarashini kengaytirish, kognitiv faollikni rivojlantirish, amaliy faoliyatda zarur bo‘lgan muayyan ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish, umumiy ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishlarda o‘z aksini tapadi.

Hamkorlikda o‘rganish(jamoa, guruh ishi)da, hamkorlik kattalar va bolalarning birgalikdagi rivojlanish faoliyati g‘oyasi sifatida talqin etiladi individual yondashuvning mohiyati o‘quv predmetidan emas, balki boladan mavzuga o‘tishdir, bolada mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan foydalanish, psixologik - pedagogik shaxs diagnostikasini qo‘llash o‘z aksini tapadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘z navbatida ta’lim mazmunini o‘zgartirish va cheksiz boyitish, integratsiyalashgan kurslardan foydalanish, Internet tarmog‘iga kirish imkoniyatlarini yaratadi.

Salomatlikni asrash texnologiyasi, ushbu texnologiyalardan foydalanish dars davomida har xil turdagi vazifalarni teng ravishda taqsimlash, aqliy faoliyatni jismoniy daqiqalar bilan almashtirish, murakkab o‘quv materialini taqdim etish vaqtini aniqlash, mustaqil ishlash uchun vaqt ajratish va ijobiy natijalar beradigan o‘quv jarayonining texnik jihozlarini me’yoriy qo‘llash imkonini beradi vaularni imkoniyatlarini o‘rganishga olib keladi.

"Portfolio" innovatsion baholash tizimi, ijtimoiy o‘zini o‘zi belgilashni, pedagogik qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida talabalar yutuqlarining shaxsiylashtirilgan hisobini shakllantirish, individual shaxsiy rivojlanish traektoriyasini aniqlashlarni amalga oshiradi.

Xulosa qilib ushbuni takidlash o‘rinli. Jumladan, pedagogik texnologiyalarning keng doirada qo‘llash barcha o‘rta maktab va o‘rta maxsus ta’lim sohalarida o‘qituvchilari hamda barcha oliygoh professor-o‘qituvchilarining jamoasiga o‘quv vaqtlaridan ta’lim sohalarida unumli foydalanishlarini va o‘quvchilarning yuqori darajadagi ta’sirchanligiga erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Айбазова, М. Ю. Формирование информационной компетентности выпускников вузов как условие подготовки кадров для цифровой экономики / М. Ю. Айбазова, А. А. Карасова // Alma Mater (Вестник ВШ). – 2018. – № 9. – С. 58-63.

2. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М., 2018.

3. Аминов И.Б., Бустанов Х.А. Технология решения математических задач с помощью программных средств: Вестник науки и образования, Москва 2020. № 10 (88). Часть 4, 64-69 стр.

4. Aminov I.B., Bustanov X.A. Formation of students research skills based on technologies for solving problems using software tools: European Journal of Molecular & Clinical Medicine, ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 03, 2020, 4692-4698 pg.

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA FAROSAT ILMINING O'RNI

Navro'zova Gulchehra Ne'matovna
Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida
professori, falsafa fanlari doktori
Tel: +998914117707 email:
premium.progress@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada farosat ilmi haqidagi qarashlar falsafiy tahlil etilgan. Farosat haqida Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Kalobodiy, Abdulqodir Giloniy, Bahouddin Naqshband, Muhammad Porso asarlarida keltirilgan ta'riflar va hozirgi zamon olimi M. Bekmurodovning bu ilmga doir g'oyalari keltirilgan. Farosat ilmi zohirga qarab botinni anglash, ichki tuyg'ularni mohiyatini fahmlash ekanligi asoslangan va uning hozirgi kun uchun ahamiyati ko'rsatilib, uni joriy etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Farosat ilmi, anglash, fahmlash, bilish, zohir, botin, imoniy farosat.

Abstract

The article philosophically analyzes the views on the science of farosat. The definitions given in the works of Farabi, Abu Ali ibn Sina, Kalabadi, Abdul Qadir Gilani, Bahauddin Naqshband, Muhammad Porso the modern scientist M. Bekmurodov are presented about this science. The science of farosat is based on understanding the internal, understanding the essence of internal feelings through a look at the external, its significance for today is shown, and proposals for its implementation are given.

Keywords: Farosat science, farosat, knowledge, external, internal, religious insight.

Hozirgi jamiyatimizda eng qadrlanadigan kishilar fahm-farosatli insonlardir. Ammo ular kundan-kunga kamayib bormoqda. Bunga sabab ta'lim va tarbiya jarayonida farosat ilmini o'qitish va shu ruhda tarbiyalash masalalari e'tibordan tashqariga qolmoqda. Shu ma'noda ham farosat ilmini o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida foydalanish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Farosat arab tilidagi firosat so'zidan olingan "Farhangi zaboni tojik" da bu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: "tezii fahm, idrok, ziraky, hush zehny" [10,434b] mazmuni fahmlashning tezligi, idrok, ziyraklik, zehning o'tkirligi. "فراست" "firosat" [11,247b], farosat, idrok narsalarning mohiyatini anglash degan mazmundagi ta'rif ham bor.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy farosat ilmini quyidagicha ta'riflagan: "Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik, fahm-farosatlilik, zehnlilikni

yuzaga keltiradi. Xulqiy fazilat esa intiluvchi quvvatga kirib, iffat, shijoat, saxiylik va adolatlilikni o'z ichiga oladi" [5,399b].

Qomusiy mutafakkir Abu Ali ibn Sino farosat ilmiga quyidagi ta'rifni bergan: "Farosat ilmi foydasi naqd bo'lgan ilmlardandir. Sen bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning o'zlari yashirib yurgan fe'l- atvorlarini bildiradi. Mana shu farosatning bildirilishi natijasida o'z bilishing bilan unga bog'lanib qolarsan yo undan yuz o'girarsan. Farosat ilmi sening o'zingni aslingda bor bo'lgan instiktiv yaratilmalarning, o'zgartirilmagan tabiatlaringni ko'z o'ngingda keltirib qo'yadidi. Agar senga farosatning tuzatuvchi qo'li tegsa, sen juda o'tkir bo'lib ketasan" [2,219b]. Abu Ali ibn Sinoning farosat ilmiga berilgan yana quyidagi ta'rfi ham mavjud: "Farosat deb, sezgidan keladigan ishoraning asl ma'nosiga tezda etishmoqqa aytiladi" [2,219b].

Vatandoshimiz Abu Bakr Kalobodiy "at-Taarruf" asarining oltmish oltinchi bobida "farosat" [8,40b] (sezish, his qilish) haqida fikr yuritib, basiratni (ichki ko'ngil ko'zi) ushbu tushuncha orqali tahlil qilishga harakat qiladi. Abu Bakr Kalobodiy qarashlarida "Farosat"- basirat ko'zi bilan g'aybni ko'rish, pinhoni kashf qilishdir. Boshqacha aytganda, ruhning ilohiy bir quvvat bilan anglab tafakkur etishi tufayli g'aybiy ma'nolarni bilish, bunga farosati aqliya, kashf qilishlik yoki sirning oshkor bo'lishi ham deyish mumkin.

Qodiriya tariqati asoschisi Abdulqodir Giyloniyni fikrlari ham farosat tushunchasining mohiyatini tushuntirishda muhimdir. U "Futuhul g'ayb" asarida shunday yozadi: "...Farosat ilmi bu Alloh bergan qalb ko'zi bilan nima to'g'ri va nima egriligini, nima yaxshi va nima yomonligini ilg'ay olish ilmidir. Bu ilmni Alloh taolo o'zi suygan bandalariga bergay. Binobarin, senga biror yumush topshirilsa bu ishni qanchalik to'g'ri ekanligini obdon mushohada qil, so'ngra xulosa chiqar! Yoxud o'zingga shunday savol ber: "Bu Allohning buyurganimi?!" Darhaqiqat, bu Parvardigorning sinovi va qudratining nishonasidir. Sen bu savdoda ziyrak tur va atrofingda nimalar bo'layotganini bilishga intil. Darhaqiqat, bu dunyo ishlarini hammayam tushunavermaydi, hamma bandasigayam ayon emas. Bu savdoning mohiyati va ma'nosi faqat U tanlagan va saralagan ma'rifat sohiblarigagina – Avliyo va Abdollarga ayondir. Shunday ekan, kayfiyatingni shu yo'sin mosla, zero sinov qayda-yu, buning ajri qayda bilmaysan, shunchaki Alloh taoloning puxta o'ylagan va bir tizimga solingan rejasi asosida tegirmon aylanmoqda..." [1,172b].

Bahouddin Naqqshbandning "Maqomot"da farosat haqida aytgan fikrlari keltirilgan. U kishi aytgan edilar: "Murshid har kuni tolibning holidan xabardor bo'lishi, farosat yoki so'rab surishtirish bilan uning ahvolini bilib turishi zarur" [3,122b]. Bahouddin: "O'zgalarning ko'nglini bilib olish darveshlarga qaerdan paydo bo'ladi?" degan savolga quyidagicha javob berganlar: "Ko'zi ochiqlik va anglab olish farosat nuri orqali bo'lib, Haq suhonahu buni darveshlarga ato qiladi" [3,139b]. "Maqomot"da Bahouddin Naqqshband hayotidan keltirilgan naqlarda u kishining farosat ilmidan xabardorliklari ma'lum bo'ladi.

Muhammad Porso "Faslul-xitob" asarida shunday yozadi: "Farosat ilmi shuki o'tganlar shamollaridan bir shamol va karam jazabalaridan bir jazaba, yo'l yuruvchiga qabul yuzasidan etadi. G'aflat pardasi haqiqat ko'zi bilan o'rtadan ko'tariladi. Uning diydasi Ahadiyat nuri bilan surmalanadi. Bunday ilm g'oyat izzatli bo'lib, ulug'ligidan faqat "xitob" ("qat'iy qaror") yo'li bilan hosil qilinadi va harflaru kalimalar kiyimiga

sig'maydi. Kim Allohni tanisa tili aylanmay qoladi. Orif o'z ma'lumotlari mohiyatidan ibora topa olmay qoladi. Kim buni zavqini topmas ekan, bilmaydi" [6,238b].

Farosat ilmi haqida M. Bekmurodovning o'quv qo'llanmalari nashrdan chiqdi. Unda M.Bekmuradov Farosat ilmiga quyidagicha ta'rifni berganlar: "Farosat ilmi insonning tashqi ko'rinishga qarab uning ichki dunyosida yuz berayotgan jaryonlar qanday fikr- qarashlarga egaligi, nimani va qanday narsalarni o'ylayotganini anglashga qaratilgan, bir so'z bilan aytganda, odamni zohiriga qarab botinini o'rganuvchi yuz berayotgan jarayonlar qanday o'zgarishlarshga olib kelishini asosli bashorat qiladigan fandır" [4,12,13b].

Naqshbandiya ta'limotida "Dil ba Yoru, dast ba kor" – "Qalb Olloh bilan, qo'l ishda" shiori asosida amal qilinishi insonni imonli va halol mehnatga o'rgatadi. Farosat haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, insonni imoni qancha mustahkam bo'lsa, fahmu farosati ham shuncha kuchli bo'ladi. Halol mehnat jarayonida kasbiy farosat yuksaladi. Naqshbandiya ta'limotidagi 11 rashhaga amal qilish natijasida inson hushyor, ogoh, ziyrak bo'lib, botiniy quvvatlarni idora qila oladi. Ular ham insonni fahmu farosatli bo'lishiga yordam beradi.

Farosat ilmi insonga haqiqatni anglash uchun zarurdir. Bu ilm insonni haqiqatni anglashiga to'sqinlik qiluvchi hijoblar, pardalarni ko'tarilishiga yordam beradi [9,122,127b]. Hijoblar ko'tarilishi natijasida inson g'aflatdan chiqib, mushohada maydoniga kiradi, hushyor bo'ladi. Hijoblar haqida Hujviriy "Kashf-ul-mahjub" asarida batafsil yozgan. Bahouddin Naqshband ham hijoblarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatgan.

Quyidagi takliflarimiz bor:

1. Yosh avlodni ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash uchun ta'lim sifatini yuksak darajaga ko'tarish kerak. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridan oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda Farosat ilmini o'qitishni fan sifatida kiritish lozim.

2. Farosat ilmiga oid madrasalarda bo'lgan fan dasturlarini olib ular asosida har bir ta'lim bosqichiga mos dasturlar tayyorlash kerak.

3. Farosat ilmini egallay olmagan kishilarga shu sohada ishlash huquqi berilmasligini joriy etish lozim.

Umumiy xulosa qilib aytganimizda, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Rennessans poydevorini qurish uchun fahmu farosatli ilmu ma'rifatli yosh avlodni tarbiyalash zarur. Bu vazifani amalga oshirishda farosat ilmi haqidagi g'oyalarining ahamyati kattadir.

References

1. Abdulqodir Giloniy. Futuh al-g'ayb. Arab tilidan ingliz tiliga Oftob -ad-din Ahmad tarjiması. Muharrir prof S. M.Sayyid. Hindiston. Bxavan nashriyoti. 2002. 275 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Men anglagan dunyo. T.: "Sharq" nashriyoti, 2012 yil. 219 b.
3. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband / Forsiydan tarjimon, so'z boshi, izoh va lug'at muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 335 b.

4. Bekmurodov M. Farosat ilmi. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2022. 192 b.
5. Ma’naviy tarbiya: Xrestomatiya. T.: Turon zamin ziyo. 2014. 402-bet.
6. Muhammad Porso. Faslu-l-xitob. Qo‘lyozma. Tarjimon Namozov Bobir. – Buxoro: Kogon, Naqshbandiya tariqati muzeyi fondi. Inv. 42. 268- b.
7. Muhyiddin Abu Muhammad Abdulqodir Giloniy. Rabboniylikni anglash. Tarjimon: To‘lqin Iyso o‘g‘li T.: “Sharq” nashriyot – matbaa -aktsiyadorlik kompaniyasi, 2015.368 b.
8. Namozov B. Abu Bakr Kalobodiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy asoslari. T.: “Fan”, 2009. 78- b.
9. Navro‘zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma’naviy merosi. – T.: Fan, 2021. – 244 b.
10. Farhangi zaboni tojiki. Jild 2. Moskva: Nashriyoti “Sovetskaya Entsiklopediya”, 1969. 949 s .
11. Farhangi tafsiri zaboni tojiki. Dushanbe: Donish, 2008. 247 s.
12. Faxruddin Ali Safiy. “Rashahot”. (Obi hayot tomchilari). Tabdil va so‘ng so‘z muallifi: Mahmud Hasaniy. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2003. 536 b.

MATEMATIKA FANINING RIVOJLANISH DAVRLARIDAN BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA FOYDALANISH

Mardanov Eshim

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti.

Shodiyev Faxriddin

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada matematikaning rivojlanish davrlari va bu davrlarda matematika fanining rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar, xususan Muhammad Al-Xorazmiyning faoliyati haqida hamda “Hind hisobi haqida kitob” asaridan arifmetikani o‘rganish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Matematika, matematikada rivojlanish davrlari, Al-Xorazmiy, Algebra, “Al-jabr val-Muqobala”, “Hind hisobi haqida kitob”.

Abstract.

This article discusses the periods of development of mathematics and the activities of scientists who contributed to the development of mathematics during these periods, in particular Muhammad Al-Khorazimi, and the study of arithmetic from the book "Book of Indian Calculation".

Key words: Mathematics, periods of development in mathematics, Al-Khorazmi, Algebra, "Al-jabr wal-Muqabala", "Book about Indian arithmetic".

"Matematika" so‘zi grekcha "bilish, fan" so‘zidan olingan bo‘lib, bizga qadimgi Yunonistondan etib kelgan. Bu fan o‘z rivojlanish davri mobaynida quyidagi davrlarni bosib o‘tgan:

1. Matematikaning paydo bo'lish davri - amaliy hisoblashlar va o'lchashlar, son va figura tushunchalari shakllanishi bilan belgilanadi. Bu davrda arifmetika va geometriya kabi matematikaning bo'limlari o'z boshlang'ich asoslariga ega bo'ldi.

2. O'zgarmas miqdorlar matematikasi davri - eramizgacha VI-V asrlardan boshlanib, bu davrda matematika fani tadqiqot tushunchalariga (son va shakl), usullariga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida shakllandi. Bu davrda matematikaning yangi sohasi - algebra fani paydo bo'ldi va rivojlandi. Bunda buyuk vatandoshlarimiz Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom, Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Al-Farg'oniyning xizmati katta bo'lgan.

3. O'zgaruvchi miqdorlar davri XVII asrdan boshlanib XIX asr birinchi yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, matematikaning tadbiiq qilish sohalari ko'paydi, funksiya va u bilan bog'liq, uzluksizlik va harakat g'oyalari asosiy o'rinni egalladi. Matematik analiz tarkib topdi va takomillashtirildi.

4. O'zgaruvchi munosabatlar davrida abstrakt nazariyalar, matematik tuzilmalarning roli oshdi va modellashtirish usuli keng qo'llanila boshlandi. Bu davr XIX asr ikkinchi yarmidan boshlanib to hozirgacha bo'lgan davrni qamrab olib, fanda algebraik strukturalar, yangi nazariya va yo'nalishlarning paydo bo'lishi va rivojlantirilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi paytda matematika yanada taraqqiy etib, turli nazariy kashfiyotlar bilan birgalikda uning amaliy tadbiiqlari ko'payib bormoqda.

Biz bu maqolada Al – Xorazmiy faoliyati haqida to'xtalamiz.

Tarjimai holi: Al-Xorazmiy (to'liq ismi - Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy) (arab. *ابو عبد الله محمد ابن موسى الخوارزمي*; otasi Abdullo, Muhammad, Muso o'g'li, Xorazmlik) —IX asrda yashab o'tgan o'zbek matematigi va astronomi 783-yilda Xorazmda tug'ilgan, 850 yillarda yashagan.

Алгебра fani asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy алгебра fani asoschisi sifatida tan olingan. Uning ismi ham asli Xorazmdan ekanligini tasdiqlaydi

Donishmandlik uyi: Al-Xorazmiy va uning kasbdoshi Banu Muso Bag'doddagi «Donishmandlik uyi» ning olimlari safida faoliyat ko'rsatib, grek ilmiy qo'lyozmalarini tarjima qilish, algebra, geometriya va astronomiya bo'yicha risolalarni o'rganish va yozish bilan shug'ullanar edilar. Al-Xorazmiy o'z homiysi Al-Ma'mun sharafiga ikkita asarini bag'ishlagan.

Al-Xorazmiy asarlari: U pozitsion prinsipga asoslangan arifmetika bo'yicha birinchi qo'llanmani yozdi. Bundan tadhqari uning algebra va taqvimga oid asarlari saqlanib qolgan. Al-Xorazmiy mashhur ." Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala" (chiziqli va kvadrat tenglamalarni echishga bag'ishlangan) asarini yozgan, uning nomidan «algebra» atamasi paydo bo'lgan. Bu asarda geometriya, trigonometrik jadvallar va shaharlar kenglik va uzoqliklari jadvallarini o'z ichiga olgan boblari ham bor.

Ko'p asarlari matematika, nazariy va amali astronomiya, geografiya va tarixga bag'ishlangan. Sharq tarixchilari al-Xorazmiy quyidagi asarlar muallifi bo'lganligini tasdiqlaydilar:

1. "Hind hisobi haqida risola".
2. " Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala"
3. "Ziji al-Xorazmiy"

4. “Suratul-arz”
5. "Asturlub yordamida azimutni aniqlash"
6. "Asturlublar bilan amal tutish haqida".
7. "Quyosh soatlari haqida kitob".
8. "Astronomik san’atga kirishlar kitobi".
9. "Qo‘shish va ayirishlar haqida kitob“
10. "Kitab at-ta’rix“

Algoritm: Al-Xorazmiy asarlari arifmetika rivojida juda katta rol o‘ynadi. Uning nomi lotinchada Algorismus va Algorithmus shaklida qollanilib o‘rta asrlar Yevropasida butun o‘nli arifmetika sistemasini bildiradigan bo‘ldi.

Hind hisobi haqida asari arifmetikaga bag‘ishlangan: Xorazmiy o‘zining arifmetikasida hindlarning to‘qqiz raqam 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 va nol yordami, ya’ni o‘nli pozision sistema bilan istalgan sonning oson va qisqacha ifodalanishini bayon etish maqsadida ekanligini yozadi. Shuningdek, bu kitobda arifmetikaga doir masalalarni- sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish, qo‘shish va ayirishni bu sistema orqali juda osonlik bilan bajarish mumkinligi qayd qilinadi. Xorazmiy avval sonlarning pozision sistemasini tushuntiradi, so‘ngra butun sonlar va kasr sonlar ustida amallar bajarish qoidalarini va, nihoyat, kvadrat ildiz chiqarish qoidalarini bayon etadi.

Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala: Bu asarning birinchi qismida chiziqli va kvadrat tenglamalarni qarash bilan boshlanib, keyin algebraning o‘lchovlarni ahiqlash va meros taqsimlash masalalari tadbirlariga o‘tiladi. Asar natural sonlarni kiritish bilan boshlanadi, so‘ngra asosiy mavzu –tenglamalar echish qaraladi. Barcha echilgan tenglamalar chiziqli yoki kvadrat tenglamalar bo‘lib, sonlar va ularning kvadratlari va ildizlaridan iborat. Barcha asarlarida matematik hisoblashlar faqat so‘zlar yordamida qayd etiladi- bitta ham belgidan foydalanmagan. $x^2 + 21 = 10x$ tenglamani echishni quyidagicha bayon etgan: "Ildizlar sanog‘ini ikkiga bo‘ling: besh soni chiqadi. Bu sonni o‘z-o‘ziga ko‘paytirib, ko‘paytma yigirma besh bo‘ladi, undan yigirma bir sonini ayiring, qoldiq to‘rt bo‘ladi. Bundan ildiz chiqaring, bu ikki bo‘ladi. Bu ildizni, ildizlar sanog‘ining yarmidan, ya’ni beshdan ayiring, qoldiq uch bo‘ladi. Mana shu- izlangan kvadratning ildizi bo‘ladi".

Al-Xorazmiy echgan kvadrat tenglamalar tiplari:

- a) kvadratlar ildizlarga teng $x^2 = bx$;
- b) kvadratlar sonlarga teng $x^2 = c$;
- c) ildizlar sonlarga teng $bx^2 = c$;
- d) kvadratlar va ildizlar sonlarga teng $x^2 + bx = c$;
- e) kvadratlar va sonlar ildizlar ga teng $x^2 + c = bx$;
- f) ildizlar va sonlar kvadratlarga teng $bx + c = x^2$.

Al-Xorazmiyning al-jabr va val- muqobala usuli: Tenglamalarni echish ikkita almashtirish orqali amalga oshiriladi, al-jabr val muqobala usuli «al-jabr» so‘zi turg‘azish ma’nosida bo‘lib, $6x-7=0$ kabi tenglamalarni echish uchun chap tomondagi ayiriluvchini (7 ni) tashlab, o‘ng tomonda shu ayiriluvchini turg‘azishdir. Agar tenglamaning bir tomonida yoki ikkala tomonida ayiriluvchi bo‘lsa, bitta kamayuvchining o‘zini qoldirish uchun ayiriluvchini tashlab, bunga teng miqdorni ikkinchi tomoniga qo‘shish «al-jabr» deyiladi. «Al-muqobala» so‘zi esa $5x+4=9x$ kabi tenglamalarni echish uchun ikkala tomondan $5x$ ni ayirish ma’nosini bildiradi. Agar

tenglamaning ikkala tomonida bir xil jinslar, ya'ni o'xshash hadlar bo'lsa, ikkala tomondan umumiyisini (misolimizda $5x$ ni) tashlash «al-muqobala», ya'ni qolganlarni tenglashtirish deyiladi.

Xorazmiyning matematika tarixida mashhur ikkinchi asari, uning «**Alxorizmi aytadi...**» so'zlari bilan boshlangan, arifmetika risolasidir. Xorazmiyning bu asari, uning «**Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob**» asaridan keyin yozilgan bo'lib, uning original nusxasi hozirgacha topilmagan.

Asarning qo'l yozmasida nomi yozilmagan bo'lib, birinchi abzasda «**Alxorizmi hind hisobi haqida**» va undan so'ng «**Alxorizmi aytadi**» degan so'zlar yozilgan.

Bu risola Xorazmiyning «Hind hisobi haqida» yozgan asari deb ham yuritiladi.

Xorazmiy o'zining arifmetik risolasida hindlarning to'qqizta raqam: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 va 0 yordamida, ya'ni o'nlik pozitsion sistema bilan istagan sonni oson va qisqacha ifodalashni bayon etish maqsadida ekanligini yozadi. Shuningdek, bu kitobdagi arifmetikaga doir masalalarda sonlarni ko'paytirish va bo'lish, qo'shish va ayirishni bu sistema orqali juda osonlik bilan bajarish mumkinligi qayd qilinadi.

Boshlang'ich ta'limda Al-Xorazmiyning «**Hind hisobi haqida**» asari bilan tanishtirish, undagi qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari bilan tanishtirish ularni matematika faniga qizig'ishlarini oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytsak mashhur o'zbek olimi Xorazmiy matematika tarixida klassik olimlar orasida eng ulug'laridan hisoblanadi. Uning matematika fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi olamshumul ahamiyatga egadir. U fan tarixida asrlar osha o'chmas chuqur abadiy iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahadova M. O'rta osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari. T.:O'qituvchi 1983y 216b
2. Ahadova M. О Великие мыслители см. Азия и с задачками по математике.
3. Siddiqov X. Xorazmiy-ulug' matematik olim, I. "sovet maktabi" N=12.1964
4. O'G'Li, Xoliqulov Muhammad Qaxor, and G'Ofirova Muxlisa G'Ofur Qizi. "A. NAVOIYNING AR'BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO'G'RISIDAGI QARASHLARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 4.4 (2024): 24-28.
5. Qaxor ogli, Xoliqulov Muhammad. "IDEOLOGICAL AND THEORETICAL BASIS OF SUFISM." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 389-393.
6. Yaxshilichikov, Yaxshilichikov Jo'raboy. – Korrupsiya va jinoyatchilik, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik va millatchilik jamiyat taraqqiyotiga tahdid solmoqda. *ACADEMICIA: XALQARO KO'P TARMOQLI TADQIQOT JURNALI* 11.2 (2021): 1206-1213

O‘ZBEKISTONDA BARPO ETILAYOTGAN III RENISSANS JARAYONIDA YOSHLAR ISTE’MOL MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION, PEDAGOGIK VA DIDAKTIK JIHLARI

Xaydarov Asliddin Nizamitdinovich

O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarda iste’mol madaniyati shakllanishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati, madaniyati yuksak darajada shakllangan iste’molchi shaxsini kamol toptirish, xususiyatlarga qarab yoshlar iste’mol madaniyati, ularning xulq-atvoridagi o‘zgarishni aniqlash va ta’limni qanday tashkil qilishni belgilab olish mumkinligi hamda jamiyat iqtisodiy va ma’naviy hayotining yuksalishida muhim rol o‘ynashligi yoritilib o‘tilgan. Bundan tashqari ishlab chiqarish saloxiyatining ortishi, yosh iste’molchilarda hayotga ijodiy munosabatni shakllantirish shuningdek, respublikamizda iste’molchilar huquqlarining o‘sishi va iste’mol madaniyatining jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: iste’mol madaniyati, yoshlar, ta’lim va tarbiya, bilim, yuksaltirish, sifatli o‘zgarish, iste’molchilar huquqlari, tanlov, iqtisodiy munosabat, yosh xususiyat.

Annotation

This article highlights the importance of education and upbringing in the formation of consumer culture in young people, the maturation of a consumer personality with a highly formed culture, the culture of consumption of young people by characteristics, the identification of changes in their behavior and how to determine the organization of education, and plays an important role in the rise. In addition, the increase in productivity, the formation of a creative attitude to life in young consumers, as well as the growth of consumer rights in our republic and the role of consumer culture in the life of society and the individual are indicated.

Keywords: iste’mol madaniyati, yoshlar, ta’lim va tarbiya, bilim, yuksaltirish, sifatli o‘zgarish, iste’molchilar huquqlari, tanlov, iqtisodiy munosabat, yosh xususiyat.

Bugungi fan-texnika inqilobining o‘zgaruvchan ta’siri natijasida ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan o‘zaro munosabatlar oqibatida iqtisodiy, madaniy va ta’lim-tarbiya sohasida tub sifatli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Iste’mol tovar va xizmatlarning o‘rinsiz sarflanishi esa jamiyatda boshqa ijtimoiy muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababdan ortiqcha iste’molni (isrofgarchilikni) oldini olish uchun aholi va yoshlar o‘rtasida iste’mol madaniyatini shakllantirish zaruratga aylandi. Mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim istiqbollari va ustuvor yo‘nalishlari belgilanar ekan, ishlab chiqarish va ichki ehtiyojning o‘sishiga alohida e’tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. Shu ma’noda bugungi kunda mamlakatimiz aholisini, xususan, yoshlarning iste’mol madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Iste’mol madaniyati – kishilarning iste’mol bo‘yicha bilimlari, amaliy faoliyati, ma’naviy va huquqiy etukligi hamda ularning yaxlit ongli tarzda ro‘yobga chiqishiga qaratilgan maqsadli faoliyatidir. “Qaysi bir jamiyatda

yomon fe'li odamlar ko'p bo'lsa, o'sha jamiyat bora-bora inqirozga yuz tutadi"⁵². Shu bois kishilik jamiyatida shaxs iste'mol madaniyatining shakllanishi hamda rivojlanishi nihoyatda murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, uning taraqqiyoti juda ko'p omillarga bog'liqdir.

Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yoshlar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart"⁵³. Har bir islohotlarning samarali natijalar berishi va kelajakdagi istiqboli yoshlarning faolligiga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda jo'shqin ishtirokiga bog'liq.

"Inson, bir tomondan, ishchi kuchi, ishlab chiqaruvchi, mehnatga layoqati bor shaxs, ikkinchi tomondan, iste'molchi, insoniy ehtiyojlar sohibi. Shuning uchun ham insonning mehnat qilish qobiliyati bilan birga iste'mol qilish qobiliyati – ehtiyojlarini ham tarbiyalab borish kerak"⁵⁴. Ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yilishi, shubhasiz, yoshlarda iste'molchi madaniyatini qay darajada shakllantirilganligiga bog'liqdir. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlar ongida iste'molchilik madaniyati to'la shakllangan iste'molchini yaratishdan iborat. Ushbu ta'lim, albatta, davlat iste'mol siyosati doirasida tashkil etilgan bo'lmog'i, unda o'qitish va ta'lim birligi bo'lishi kerak.

Bugungi kunda ko'pgina mamlakatlar olimlari tomonidan iste'molchilar ta'limining muhimligi e'tirof etilgan. Har bir mamlakatda tashkil etilgan yosh iste'molchilarga ta'lim berish quyidagi maqsadlar ko'zlangan bo'lishi lozim:

1) iste'molchilarning o'z haq huquqlarini bilishi va ularni himoya qilishga doir bilimni o'zlashtirganligiga hamda iste'mol madaniyati shakllangan shaxsning axloqiy, estetik va ekologik bilimga ega ekanligiga e'tibor berish;

2) yosh iste'molchilarning murakkabroq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishlarining oddiy harakatlari dasturlarini ishlab chiqish va o'rgatish;

3) yosh iste'molchilarda hayotga ijodiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, iste'molchilarning muammolarini hal qilishga o'rgatish.

"Jamiyat ko'proq bilimlarga tayanadi, shuning uchun oliy ma'lumot va ilmiy tadqiqotlar hozirgi davrda inson, jamiyat va millatlarning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan turg'un rivojlanishida eng muhim komponent sifatida ifodalanadi"⁵⁵. Yoshlarning kerakli darajasda olgan foydali amaliy bilimlari, zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalari kelajakda ularni iste'molchi sifatida o'zlarini himoya

⁵²G'azzoliy Abu Homid. "Mukoshafatul-qulub". –T.: "Adolat", 2002. –B. 128.

⁵³Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // "Халқ сўзи", 2018 йил 8 декабрь. № 253 (7211).

⁵⁴Ахунов М.А. Инсон омили – ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг етакчи кучи ва бош мақсади.// Илмий хабарнома, АДУ, №1 2016. – Б. 53.

⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги «2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» фармони www.lex.uz

qilishga va farovon hayotga erishishga xizmat qiladi.

Ko‘pchilik olimlar tomonidan yosh iste’molchilarni o‘qitish (ta’lim berish)ning turli prinsiplar ko‘rsatiladi. Bizning fikrimizcha, yosh iste’molchilarni o‘qitishning asosiy prinsiplari quyidagilar: 1) iste’molchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olish; 2) har bir oilaning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda yosh iste’molchilarni tarbiyalash jarayoniga jalb etish; 3) iste’molchilarni o‘qitishning ta’lim va maktabdan tashqari shakllarini tashkil etish; 4) yosh iste’molchilarni o‘qitishning turli usullari, metodlari va vositalaridan foydalanish.

“Iste’mol” fenomeni “zarur, foydali” tushunchalariga yaqin, ya’ni iste’molchi ob’ektida ma’lum, amalda mavjud bo‘lgan foydali fazilatlar mavjudligini anglatadi⁵⁶. Iste’mol madaniyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta’lim – yoshlarni iste’mol jarayonining sifatli o‘zgarishini ta’minlaydi. Bunda, nimani tanlaydi, tanlovga qanday omillar ta’sir qiladi va ta’lim natijasida iste’mol jarayoni qay darajada o‘zgardi kabi savollarga javob topish orqali aniqlash mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki yoshlarga iste’mol madaniyati asoslarini o‘rgatishda ob’ektlararo aloqalar didaktik prinsip sifatida va turli xil fanlarni o‘qitish uchun maqsad, vazifalar va texnologiyalarni qamrab oladigan shart sifatida qaralsa kutilgan natijaga erishish imkoniyati tezlashadi. Yoshlar qobiliyatining erkin namoyon bo‘lishi uchun shakllanayotgan yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tafakkur, falsafiy dunyoqarash va huquqiy ong iste’mol madaniyatining jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rnini yangicha tushunishga keng imkon beradi. Bundan tashqari ta’lim jarayonida iste’molchilarning xulq-atvori va madaniyatidagi o‘zgarishlarni tahlil qilib borish va ta’limni murakkablik darajasini aholi yosh xususiyatlariga mos ravishda oshirib borish muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // “Халқ сўзи”, 2018 йил 8 декабрь. № 253 (7211).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги «2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновация ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» фармони. //www.lex.uz

3. G‘azzoliy Abu Homid. “Mukoshafatul-qulub”.–Т.: “Adolat”, 2002. –В. 128.

4. Ахунов М.А. Инсон омили – ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг етакчи кучи ва бош мақсади.// Илмий хабарнома, АДУ, №1 2016. – Б. 53.

5. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: Пер. с нем. - М.: Прогресс, 1973.

6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6-жилд. –Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2003.

⁵⁶ Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: Пер. с нем. - М.: Прогресс, 1973. – С. 4- 855.

7. Рўзимуродов, Сирож. "ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ЁШЛАРНИ СОҒЛОМ ҚИЛИБ ТАРБИЯЛАШДА МАҲАЛЛА ВА ОИЛАНИНГ ТУТГАН ЎРНИ." *Journal of Social Sciences* 1.02 (2022): 55-59.

8. Азизкулов, А. А., and С. М. Рузимуродов. "Газали о значении ума в человеческой деятельности." *Paradigmata poznani* 2 (2014): 43-46.

9. Jurayev, Luqmon Narzullaevich. "PHILOSOPHICAL FUNDAMENTALS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT PROCESSES IN MODERN UZBEKISTAN SOCIETY." *Theoretical & Applied Science* 11 (2019): 445-448.

10. Narzilloyevich, Jurayev Luqmon. "THE EVOLUTION OF ECONOMIC CULTURE AS A SOCIO-CULTURAL TRANSFORMATION." *НОВЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И СИСТЕМЫ В РЕШЕНИИ ЗАДАЧ* (2021): 34.

11. Яхшиликков, Ж. Й., and Н. Е. Муҳаммадиев. "Миллий ғоя–тараққиёт стратегияси." *Т.:«Фан* (2017).

12. Hamida, Abdumajidova, and Yaxshilikov Juraboy. "COOPERATION IN CENTRAL ASIA AS A PRIORITY DIRECTION OF FOREIGN POLICY OF UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 9.12 (2021): 175-178.

13. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO'YICHA* (2023): 32.

MOBIL ALOQA TELEFONLARINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Berdimurodova Gulnoza G'aybullo qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada hayotimizga texnologiyalarning kirib kelishi, mobil aloqa vositalar inson hayotiga qay darajada ta'sir qilayotgani, milliy mentalitetimizga salbiy ta'siri, aynan shu texnologiyalarning ba'zilaridan ko'p foydalanish insonlarda turli xildagi o'sma kasalligi, irsiy kasallik va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarishi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, axborot xurujlari, bumerlar, X avlod, milleniallar, xavfli kasalliklar, telefon nurlanishi, saraton o'smasi.

Abstract

In this article, the introduction of technologies into our lives, the extent to which mobile communication tools affect human life, the negative impact on our national mentality, and the excessive use of some of these technologies can lead to various tumor diseases, genetic diseases and other diseases in humans. information about the causes of diseases is highlighted.

Key words: information technology, information attacks, boomers, X generation, millennials, dangerous diseases, phone radiation, cancer.

Bugun hayotimizning barcha jabhalariga inson tafakkurining mahsuli bo'lgan zamonaviy texnologiyalarning shiddat bilan kirib kelishi, yangidan – yangi imkoniyat va qulayliklarni yaratmoqda, jamiyat taraqqiyoti yuksalishi, xalq farovonligining yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Ilm fan sohasi tez sur'atlarda rivojlanayotgan XXI asr – axborot texnologiyalari va intellektual salohiyat asri sifatida e'tirof etilayotgani ham bejiz emas. Tabiiyki, ana shunday o'zgarish va yangilanishlar davrida kishilarning atrofda yuz berayotgan voqea – hodisalarni bilish, o'rganish va tadqiq etish, hamda xulosa chiqarishga bo'lgan ehtiyoji ham ortadi. Axborot almashuvi jarayonlarining takomillashuvi natijasida televidenie, radio, va matbuotdan tashqari yana bir mukammal tizim - internet hayotimizga kirib keldi. Telekomunikatsiya sohasidagi qulay tezkor va zamonaviy usullardan biri bo'lgan bu tarmoq imkoniyatlarni yanada oshirdi. Undan istalgan ma'lumotni qisqa fursatda olishimiz, foydalanishimiz, bilimlarimizni mustahkamlashimiz va yangiliklardan xabardor bo'lishimiz mumkin. Chegara bilmas axborot manbaidan foydalanishda ma'lum me'yorlarga amal qilish esa insonlarni turli ommaviy axborot “xuruj”lari, norasmiy manbalarning salbiy ta'siridan saqlashda muhim o'rin tutadi.

Tarmoq orqali milliy mentalitetimizga xos va mos bo'lmagan g'arbona hayot tarzini targ'ib etuvchi turli sayoz va jangari film, multfilm, shou dastur hamda videoroliklarni tomosha qilish, zo'ravonlik aks etgan mobil aloqa o'yinlarini o'ynash, ayrim yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, turmush tarzi va madaniyatiga salbiy ta'sir qilayotgani hech birimizga sir emas. Bu kabi jamiyatimizga xos bo'lmagan illatlarning oldini olishda farzandlarimizning tashqi ta'sirlar, ayniqsa internet va xorijiy telekanallar orqali namoyish etilayotgan g'arazgo'ylikni targ'ib etuvchi vositalardan himoya qilish har birimizning burchimizdir.

Olimlarimizning bergan ma'lumotiga ko'ra, jangari mobil o'yinlari, ayniqsa, bolalarda qiziqqonlik va murosasizlik, atrofdagilarga nisbatan befarq, shafqatsiz munosabatda bo'lish, o'z hissiyotlarini ustun qo'yish, o'yindagi holatlarni real hayotda takrorlashga bo'lgan ishtiyoq kabi salbiy holatlar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida kundalik turmushda kutilmagan muammo va ko'ngilsizliklarni keltirib chiqarmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadlaridan biri yosh avlodni jismonan va ruhan sog'lom, aqlan barkamol qilib voyaga etkazish, ularni kelajagimizning munosib vorislari etib tarbiyalashga ko'maklashishdan iborat ekan, bu borada hammamiz farzandlarimiz tarbiyasi uchun birdek mas'ul bo'lishimiz lozim.

Hozirgi kunga kelib inson mobil aloqa vositalarisiz hayotini tasavvur qilishi qiyin hisoblanadi. Chunki telefon hayotimizning muhim vositalaridan biri bo'lishga ulgurdi. Ko'cha-ko'yda yigit-qizlarning qo'lidan telefon tushmasligi bunga bir misoldir. To'g'ri, texnika asrida yashayapmiz, lekin o'zimiz ixtiro qilgan vositalarga o'zimiz qaram bo'layotganimiz achinarli holat. Jumladan, faqat o'smirlar emas, balki katta yoshdagilar, hattoki yosh bolalar ham telefonga soatlab vaqt sarflashmoqda.

Bugungi kunda dunyoda uyali aloqa abonendlari soni 1,9 milliardni ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda bo'lsa, har ikki kishining birida uyali telefon mavjud hisoblanadi. Bir kunda 24 soat borligini inobatga olsak, odamlar bu vaqtning teng yarmini, hattoki undan ko'proq qismini telefon uchun sarflashmoqda. Bir necha yil ilgari bu xususida

tadqiqotlar ham o'tkazilgan. Kuzatuvlar davomida 3 ta guruhdagi ming kishi o'rtasida so'rovnoma o'tkazilgan-bumerlar (1946-1964-yillarda tug'ilganlar), X avlod (1965-1980-yillar), milleniallar (1981-1996-yillar). Ushbu guruhdagilardan bir sutkada o'rtacha qancha vaqt smartfonga sarflashi so'ralgan. So'rovnoma natijasiga ko'ra, ushbu guruh vakillari o'rtasida smartfondan foydalanish borasida u qadar katta farq bo'lmagan. "Bumerlar" o'rtacha 2,5 soat, "X avlod" – 3 soat, "Milleniallar" – 3,7 soat sarflashar ekan. Buning natijasida inson qanchalik yosh bo'lsa, shunchalik ko'p vaqtni texnikaga sarflaydi degan xulosani ko'rishimiz mumkin.

Mobil aloqa vositalari bir qancha qulayliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, inson ongiga, salomatligiga etarlicha salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Aynan telefon qaysi tarafdin foydalanilsa, o'sha tarafdagi miya faoliyatini ko'proq kuchsizlantirmoqda hamda zararli o'simta hosil bo'lishiga olib kelmoqda. Statistika ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, har yili 100 000 nafar kishining eshitish sistemasi faoliyatini buzib, kelgusida kar bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan Buyuk Britaniyaning 4700 aholisida miya o'simtasi tashxisi qo'yilgan hamda ularning soni oxirgi 30 yil ichida o'rtacha 45 foizga oshgan hisoblanadi. O'simta paydo bo'lishining asosiy sabablari hali to'liq javobini olganicha yo'q. Xususan, mobil aloqa vositalaridan taralayotgan nur inson miya hujayralariga jiddiy ta'sirini ko'rsatib, turli xildagi xavfli kasalliklarga sababchi bo'ladi. Mobil aloqa vositalari yangilanayotgani sayin ularning inson salomatligiga salbiy ta'siri ortib bormoqda.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, kamerali telefonlarning nurlanishi oddiy uyali telefonlarga qaraganda sezilarli darajada ko'p. Dunyo miqyosida, har 20 ta insonda 1 tasi ushbu mobil aloqa nurlanishining qurboni bo'lmoqda. Mutaxassislar tekshiruviga binoan, bosh miya to'qimalarining zararlanishi birdaniga emas, aksincha 15-20 yil o'tgandan keyin o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kuniga bor yo'g'i 15 daqiqa telefonda gaplashishning o'zi miyada saraton o'smasi hosil bo'lishi uchun etarli hisoblanadi.

Jumladan, doimiy telefon vositasidan foydalanuvchilar o'rtasida; bosh og'rig'i, tez-tez holdan toyish, asabiylashish, ko'rish o'tkirligining pasayishi, hatto nurlanish natijasida turli xildagi o'sma kasalliklari va irsiy kasalliklar ko'payadi.

1. Elektromagnit to'lqinlar ichki to'qimalarning isishiga olib keladi. Mobil qurilma to'r parda, miya, eshitish, vestibulyar va ko'rish apparatlari tuzilmalari tomonidan so'rilgan xavfli nurlanish hosil qiladi. Shuning uchun bu organlar ham, asab tugunlari ham salbiy ta'sirga duchor bo'ladi.

2. Ko'rish, xotira va psixo -emotsional barqarorlikning yomonlashishi.

3. Yomon uyqu. Hattoki kutish rejimidagi telefon ham markaziy asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. U uyqu fazalarining to'g'ri o'zgarishini (tez va sekin) yo'qotadi va odamning etarlicha uxlashiga imkon bermaydi

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'z mehnatimiz mahsuli bo'lgan mobil aloqa vositalariga o'zimiz tobe bo'lib qolmaylik, zero, ushbu vositalar inson salomatligiga etarlicha salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Коваленко, А. Е. Влияние мобильных телефонов на организм человека / А. Е. Коваленко, Е. Ю. Зингер, Е. О. Реховская.

2. Tanatova D. K. Mobil gadgetlar Rossiya aholisining kundalik hayotining vaqtinchalik omili sifatida/ D. K. Tanatova, L. R. Tairova//Ijtimoiy siyosat va sotsiologiya. 2014 yil. T. 2. No 4-1 (105). BILAN. 209-217.

3. Feizulina A. R. Uyali telefon nurlanishining inson tanasiga ta’siri xususiyatlari/ A. R. Feizulina/boshqalar]. // Tibbiy onlayn konferentsiyalar byulleteni. 2013 yil. T. 3.

4. Воитович С. С. Влияние электромагнитного излучения на здоровье человека / С. С. Воитович // Наука вчера, сегодня, завтра. 2017.

5. Суворов Г.А. Вопросы биологического действия и гигиенического нормирования электромагнитных полей, создаваемых средствами мобильной связи / Г. А. Суворов [и др.].

6. Мамажанов. М. М. (2022). Мобил телефон ва компьютерларни талабаларнинг куриш уткирлиги таъсири. barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 277-280.

VIRTUAL OLAMDA TA’LIMNI OPTIMALLASHTIRISH MUAMMOLARI

Shavqiyev Oybek Salimboy o‘gli

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasida tayanch doktoranti
Samarqand, O‘zbekiston
salim_oybek@inbox.ru

Annotasiya

Ushbu maqolada virtual olamda ta’lim olish, uning imkoniyatlari, ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilingan. Shuningdek virtual borliqda ta’limni optimallashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: virtual olam, virtual borliq, ta’lim, optimallashtirish, sifat.

Abstract

In this article analyzes education in the virtual world, its capabilities, pros and cons. Proposals have also been made to optimize education in virtual existence.

Key words: virtual world, virtual being, education, optimization, quality.

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ilg‘or raqamli iqtisodiyot mexanizmi, ijtimoiy va masofaviy elektron muassasalar va qurilmalar bunyodkorligi, zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar va texnologiyalarni yaratuvchi yosh ijodkor yoshlarni tarbiyalash, ularni zamon talabiga javob beradigan ilmiy va uslubiy g‘oyalar, loyihalar va tavsiyalar bilan qurollantirish muhim davlat darajasiga ko‘tarilgan. Bunda esa zamonaviy ta’lim, innovatsion, virtual texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Virtual reallik ongning muayyan bir holati bo‘lgani uchun obyektiv reallikdan, shu jumladan, bizning kundalik hayotimizdan farqlanadi. Xuddi shunday virtual reallik texnologiyalari falsafa, psixologiya, estetika va umuman ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tadqiq etiladi. Epistemologik nuqtai nazardan qaraganda, “virtual bilim” subyektiv hodisadir, ayniqsa, miyani asl mohiyatini idrok etish, bilish va qayta ishlash va shu asosda shakllangan tasvir va kayfiyatni anglatadi. [1.14]

Jamiyatni virtuallashtirishning yana bir o‘ta muhim xususiyatini, ya’ni uning

obyektiv voqelikdan hosil bo'lgan ikkilamchi tabiatini qayd etadi. U virtuallashtirish, birinchi navbatda, inson faoliyati sohalariga bog'liq bo'lib, aprior tarzda fenomenologik ravishda virtual tabiatga ega, shuning uchun hozirgi virtuallashtirish jarayoni ular uchun ikkinchi darajalidir [2.46].

Virtual olam va borliq kategoriyalarining mohiyatini anglash natijasida virtualistik tafakkur tarzi shakllandi. Virtualistik tafakkur tarzi virtual olam, virtualistka, virtuallik kategoriyalari bilan bog'liqdir[3.113].

Virtual olamda ta'lim o'quv jarayonini yaxshilaydigan va talabalar uchun imkoniyatlarni kengaytiradigan bir qator afzalliklarni taqdim etadi.

Virtual borliqda ta'lim dunyoning istalgan nuqtasidan Internet orqali mavjud bo'lib, talabalarga joylashuvidan qat'i nazar bilim olish imkonini beradi. Virtual o'rganish moslashuvchan o'quv jadvalini taklif etadi, bu esa talabalarga materialni o'z ehtiyojlari va sharoitlariga qarab o'rganish uchun qulay vaqtni tanlash imkonini beradi. Virtual o'rganish ko'pincha o'yinlar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va o'quv videolari kabi interaktiv o'qitish usullarini o'z ichiga oladi, bu esa o'rganishni yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi. Talabalar virtual olamda turli xil ta'lim resurslaridan, masalan, onlayn kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari, o'quv dasturlari va boshqalardan foydalanishlari mumkin, bu ularning o'quv jarayonini boyitadi. Virtual olamda o'qish talabalarga turli madaniyat va mamlakatlardagi odamlar bilan muloqot qilish imkonini beradi, bu esa madaniyatlararo tushunish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Virtual ta'lim ko'pincha an'anaviy auditoriya ta'limiga qaraganda arzonroq bo'lib, uni o'rta va past daromadli talabalar uchun qulayroq qiladi. Virtual o'rganish o'rganishni talabalarning individual ehtiyojlari va o'rganish sur'atlariga moslashtirishga imkon beradi, bu esa materialni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Talabalar muassasaga sayohat qilish uchun vaqt va pul sarflashlari shart emas, bu ularning resurslarini tejaydi va o'qishga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Ushbu afzalliklar virtual o'rganishni talabalar uchun, ayniqsa ta'limning moslashuvchan va arzon usullarini izlayotganlar uchun jozibali variantga aylantiradi.

Virtual ta'limni optimallashtirish - bu talabalarga sifatli ta'lim berish uchun onlayn resurslar va texnologiyalarni takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish jarayonidir.

Virtual ta'limni optimallashtirishning ba'zi usullari:

1. Kurslar va materiallarni tayyorlash, video darslar, taqdimotlar, interaktiv topshiriqlar va testlarni o'z ichiga olgan sifatli va interaktiv o'quv materiallarini ishlab chiqish talabalarga ma'lumotni yaxshiroq o'zlashtirishga va o'quv jarayonida faol ishtirok etishga yordam beradi.

2. Texnologiyadan foydalanish, veb-konferentsiyalar, bulutli ma'lumotlarni saqlash, onlayn o'quv platformalari va mobil ilovalar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qulay va samarali o'quv muhitini yaratishga yordam beradi[4].

3. Kurslarni talabalar ehtiyojlariga moslashtirish, moslashuvchan o'quv dasturlarini taqdim etish va talabalar tomonidan kurslarni tanlash imkoniyati ularga o'qishni individuallashtirish va ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kurslarni tanlash imkonini beradi.

4. Fikr-mulohaza va qo'llab-quvvatlash, talabalarning fikr-mulohazalari va

qo'llab-quvvatlash tizimini tashkil etish, shu jumladan o'qituvchilar bilan onlayn maslahatlashuvlar, masalalar va muammolarni muhokama qilish uchun forumlar, shuningdek, o'z-o'ziga yordam berish va o'qitish uchun onlayn manbalar talabalarga qo'llab-quvvatlash va motivatsiyani his qilishlariga yordam beradi.

5. Natijalarni baholash va tahlil qilish, o'quv natijalarini tizimli baholash va tahlil qilish o'quv dasturlari va o'qitish usullarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, ta'lim sifatini yaxshilash uchun tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

6. O'qituvchilarning malakasini oshirish, onlayn ta'lim sohasida o'qituvchilarni o'qitish, tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni baham ko'rish va yangi o'qitish usullari va vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yordam berish onlayn ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, agar inson zamon bilan hamnafas bo'lishni istasa, yagona talab kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo'lishdir[6.172].

Xulosa qilib aytganda, virtual ta'limni optimallashtirish talabalarning ehtiyojlarini qondirish va sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan texnologik va uslubiy jihatlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvni talab qiladi.

Virtual olamda ta'lim mavjudlik, moslashuvchanlik, interaktivlik, resurslarga kirish, ko'p madaniyatli muhit, iqtisodiy samaradorlik, ta'limni individualizatsiya qilish, sayohat vaqti va xarajatlarini kamaytirish ka'bi afzalliklarga ega.

Adabiyotlar:

1. Normamatova M.N. Ijtimoiy-siyosiy yuksalish sharoitida ijtimoiy xizmatlar sohasini virtuallashtirish: mohiyati, nazariyasi va metodologiyasi // Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2023. – B. 74.

2. Силаева В.Л. Подмена реальности как социокультурный механизм виртуализации общества: дисс. ...канд. филос. наук. – М.: МГТУ им. Н. Э.Баумана, 2004. – С. 46.

3. Sultanova G.S. Kognitiv konstruktivizm tafakkur tarzi kreativligining intellektual asosi sifatida // Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – B. 229.

4. Normamatova M., Christo Ananth, Zakirov Farukh, Khaydarov F., Makhmudov I., T. Ananth Kumar "Theoretical and Methodological Foundations of Virtualization of Social Services" // International Conference on Advances in Computing, Communication and Applied Informatics (ACCAI) | 979-8-3503-1590-5/23.

5. M.H. Normamatova. ИЖТИМОЙ ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ КОММУНИКАТИВ УСУЛЛАРИ. Journal of Universal Science Research, 2(4), 2024. – B. 168–171.

6. G.S. Sultanova. Scientific thinking: innovation and innovation activities. Modern science: new approaches and current research//materials of the international scientific and practical conference. Prague, Czech Republic. 2020/4/21. - P. 172.

7. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.

8. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. «GEO-MAYYALOGIK JARAYONLAR VA ULARNING KELIB KELISHI QONUNLARI». *Falsafiy tadqiqotlar va ijtimoiy fanlar xalqaro jurnali* 4.1 (2024): 22-27.

9. Ro‘zimurodov, S.M., Ro‘zimurodov O.M. “Global muhitda yoshlarni sog‘lom va barkamol tarbiyalashda mahallaning o‘rni”. *Indiana gumanitar va ijtimoiy fanlar jurnali* 2.12 (2021): 1-3.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA AXBOROT- TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TEXNOLOGIYALAR

Pardayev Asror Ikromovich

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
asror198713141516@gmail.com

Annotatsiya

Bu maqolada boshlang‘ich ta‘lim darslarini samarali tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi o‘rni xususida fikrlar berilgan. Kompyuterdan foydalanish boshlang‘ich ta‘limning yangi sifatini ta‘minlamaydi, bu o‘quv jarayonini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta‘lim jarayonida AKTdan keng foydalanish bugungi zamonaviy ta‘limning muhim omili xisoblanadi.

Kalit so‘zlari: multimedia vositalari, ijtimoiylashuv, kompyuter, texnologik tayyorlash, didaktik, boshlang‘ich ta‘lim, animatsiya, AKT.

Abstract

This article discusses the importance of using information technology in the effective organization of primary education classes and its role in the development of students’ oral and written speech. Computer use does not provide a new quality of primary education, it is aimed at informatization of the educational process. Wide use of ICT in the educational process is considered an important factor of today’s modern education.

Key words: multimedia tools, socialization, computer, technological training, didactic, primary education, animation, ICT.

Hozirgi davrda o‘quvchi yoshlarga ta‘lim–tarbiya berish, ya‘ni ularni har tomonlama davlat ta‘lim standartlari talablariga javob beraoladigan etuk malakali mutaxassis darajasida tayyorlash mamlakatimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda fanlarni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bor. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanilish, axborot texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko‘rish, o‘rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma‘lumotlarni o‘rganib borish, axborot texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish va fayllarni ochishda mediamadaniyatga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta‘limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik

zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy tahlim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati. Fanlarni onlayn o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanganimizda fan bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotlar namoyish qilganimizda talabalar ko'rish orqali chuqurroq tasavvur va bilimga ega bo'ladilar. Bizningcha boshlang'ich sinf darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish katta ijobiy natija beradi. Boshlang'ich ta'lim uchun ijtimoiy buyurtmaning asosiy ijrochisi boshlang'ich maktab o'qituvchisidir. O'qituvchilarning katta qismi boshlang'ich ta'lim jarayonida kompyuter va uning asosida yaratilgan texnologiyalardan foydalanish pedagogik ishlarni osonlashtirishi mumkin, bu o'quvchilarning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun muhimdir, deb hisoblashadi. Shu bilan birga, amaliy tajribani o'rganish shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ommaviy hodisa emas. Sabablarga nafaqat hal qilinmagan tashkiliy va pedagogik muammolar, balki o'qituvchining standart tomonidan belgilangan vazifalarni hal qilishga, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini axborotlashtirishga tayyor emasligi kiradi. Ma'lum bo'lishicha, kompyuterdan foydalanish boshlang'ich ta'limning yangi sifatini ta'minlamaydi, bu o'quv jarayonini axborotlashtirishga qaratilgan. Sababi, ta'lim jarayonini axborotlashtirish sharoitida boshlang'ich ta'limning maqsadlariga qanday erishish mumkinligi, boshlang'ich maktab o'quvchilarini mazmuni, vositalari, tashkil etish shakllari, o'qitish va tarbiyalash uslublari va uslublaridagi zaruriy o'zgarishlar to'g'risida, o'qituvchining ushbu o'zgarishlarni rejalashtirishga tayyorligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida aniq fikrlarning etishmasligi. Shu bilan birga, novator o'qituvchilar kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ayrim yo'nalishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda tajriba to'pladilar. Sababi, ta'lim jarayonini axborotlashtirish sharoitida boshlang'ich ta'limning maqsadlariga qanday erishish mumkinligi, boshlang'ich maktab o'quvchilarini ta'lim mazmuni, vositalari, tashkil etish shakllari, o'qitish va tarbiyalash uslublari va uslublaridagi zaruriy o'zgarishlar to'g'risida, o'qituvchining ushbu o'zgarishlarni rejalashtirishga tayyorligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari asosiy omil bo'ladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilarga malakali duradgorlar, chilangarlar, oshpazlar, tikuvchilar va turli sohadagi hunarmandlarimiz tomonidan bajarilgan o'quv mashg'ulotlari "Master klass" larni namoyish etish orqali ularda turli xil mehnat

ko'nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini ham yaxshi yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi. Buning uchun texnologiya fani o'qituvchilarimiz axborot texnologiyalari sohasida bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Bu esa axborot va kommunikatsion kompetensiya (axborot kommunikatsion texnologiyalar kompetensiyasi) texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismidir. axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini axborotlashtirish sharoitida ta'lim natijalari sifatini ta'minlash uchun zarur shart sifatida ko'rib chiqamiz.«Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kommunikatsion texnologiyalar qobiliyati kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan amaliy foydalanishga qaratilgan va kompyuter savodxonligi tarkibiy qismlarini o'zlashtirish bilan cheklanmagan. axborot kommunikatsion texnologiyalar kompetensiyasi ko'p jihatdan nafaqat bilim, balki ta'lim sohasidagi mutaxassisning shaxsiy va kasbiy faoliyatiga xos bo'lib, o'z kasbiy faoliyatida barcha to'plam va turli xil kompyuter vositalari va texnologiyalaridan maqsadli va odatiy foydalanishga yuqori darajada tayyorlanadi: o'qituvchi, kollej psixologi, ishlab chiqarish ustasi, ta'lim muassasasi menejeri yoki rahbari. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kommunikatsion texnologiyalar kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish axborotni qayta ishlash uchun kompyuter texnologiyalarini nazariy va amaliy o'rganish orqali amalga oshiriladi;

-turli maqsadlardagi (umumiy, maxsus, o'quv) dasturiy ta'minotni o'rganish va uni kasbiy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish;

-axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda fanni o'qitishning uslubiy tizimini o'zgartirish va telekommunikatsiya texnologiyalari orqali pedagogik tajriba almashish madaniyatini singdirish va hokazo.

Elektron o'qitish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-o'qitilayotgan fanning elektron o'quv-uslubiy majmuasini ishlab chiqish qobiliyati;

-interfaol, mul'timedia elektron ta'lim resurslarini yaratish va tayyorlaridan foydalanish uchun dasturiy vositalardan foydalana olish qobiliyati;

-o'quvchilari uchun tarmoq ta'lim shakllarini (telekommunikatsion loyihalar, viktorinalar, telekonferensiyalar, olimpiada va boshqalar) ishlab chiqish va o'tkazish qobiliyati;-kompyuter aloqasi vositalaridan foydalana olish qobiliyati. Elektron ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari tarmoq foydalanuvchilarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga asoslangan Hemis masofaviy ta'lim saytidan foydalanish bilan bog'liq.

Ta'kidlashimiz mumkinki, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zini o'zi o'qitish faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi, chunki bu ijodiy samarali kasbiy faoliyatning individual uslubini shakllantirish va rivojlantirishga, kasbiy mahoratni, kasbiy faoliyat va kompetensiya sifatlarini va professional introspeksiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. B.Mo‘minov. Informatika. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2014.y
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. –Toshkent, 2016
3. Stuart Gray. Information Technology in a Global Society for the IB Diploma: Black and White Edition.”Create Spyce Independent Publishing Platform”. Desember 20,2011 y
4. G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. -T.: 2016
5. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi” / Metodik qo‘llanma –T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.-115b.
6. Sayidahmedov N. “ Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”.-T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.
7. Eshmirzayev G. (2021). Talabalar kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Jizzax-2021
8. Eshmirzayev G. (2021). Boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda elektron darsliklarni o‘rni. Innovations in primary education, 2(ArxivNo 4).

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KREATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM
TEXNOLOGIYASINING O‘RNI**

Rasulova Zilola Durdimurotovna

Buxoro Davlat Universiteti Pedagogika kafedrasida doktoranti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mobil tel: (99) -709-70-83
E-mail: zrasulova383@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi mazmuni qisqacha ifodalangan. Taqdqiqotchi olimlarning talaba shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv nazariyalaridan tahlillar keltirilgan. Tadqiqotning mazmuni talaba shaxsini rivojlantirish asosida ularda kreativ g‘oyalarni ilgari surish imkoniyatlarini yaratish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: ilg‘or ta’lim texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim tizimi, o‘qitish mexanizmlari, kreativ fikrlash ko‘nikmalari.

Abstract

The content of person-oriented educational technology is briefly expressed in the article. Analyzes of the theories of the student-oriented approach of research scientists are presented. The content of the study was based on the development of the student’s personality, and the issues of creating opportunities for the promotion of

creative ideas were discussed.

Key words: advanced educational technologies, person-oriented education, educational system, teaching mechanisms, creative thinking skills.

Respublikamizda oliy ta'lim jarayonlarini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, innovatsion bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega mustaqil, kreativ fikrlaydigan yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'qitish mexanizmlarini yaratish oliy maqsadlardan biridir. Bu esa ta'lim tizimi oldiga ijodkor, tashbuskor, yangicha fikrlaydigan qobiliyat egasi, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, zamonaviy texnologiyalarga tez kirisha oladigan layoqatli pedagoglarni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Shu o'rinda talaba shaxsini rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan dars jarayonlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Talaba shaxsining mustaqillik, tashbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'lik funktsiyalari ta'limning shaxsga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi. Bunda talaba ta'lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta'lim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda, talabaga uning o'ziga xosligi (individualligi)ni rivojlantirish imkonini berish, uning o'z-o'zini rivojlantirishi, namoyon etishi uchun sharoit yaratish lozim[1;261-b]. Demak shaxsga yo'naltirilgan o'rganish – talaba shaxsiyati, o'ziga xosligi, o'zini-o'zi qadrlashi, har birining sub'yektiv tajribasi avval ochib beriladi, so'ngra ta'lim mazmuni bilan muvofiqlashtiriladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunida, ta'lim jarayonining markazida talaba shaxsi yotadi. Shunday ekan darsni interfaol uslublarda tashkil etish, o'qituvchi-talaba va talaba-talabaning bir-biriga o'zaro muloqot ta'sirini kuchaytirish orqali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va noan'anaviy innovatsion faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bunday uslubdagi o'qitish, bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar va ular biladigan, o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar [2;180-b]. Bunday pedagogik jarayonni o'ziga xosligi shundaki, talabaning dars davomida befarq bo'lmasligiga, ularning mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishiga majbur etadi va o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarining doimiyliigi ta'minlaydi, har bir masalaga ijodiy yondashgan holda qaralishiga imkon yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tushunchasini psixolog olim Rojers K tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. U birinchilardan bo'lib muammoli vaziyatlar yaratishga e'tibor qaratadi va talaba mustaqil va zavq bilan o'rganadi degan fikrni ilgari suradi. Taqqiqotchining fikriga ko'ra xayolparastlikdan foydalanish kerak deydi. Shuningdek, K. Rojers buning zarurligini ta'kidladi va nafaqat talabaning intellektual rivojlanishni, balki shaxsiy rivojlanishni ham hisobga olishligini ta'kidlaydi [3;466-b]. Ye.V.Bondarevskaya, O.S.Gazman va S.V.Kulnevich kabi tadqiqotchi olimlar shaxsga yo'naltirilgan ta'limga katta e'tibor qaratadilar. Bu har tomonlama, axloqiy, faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan jarayon bo'lib, ijodiy shaxs va unda o'qitish rivojlantiruvchi bo'lishini, ko'p tarmoqli, individuallikni to'liq hisobga olgan holda talabalarning o'ziga xos xususiyatlari, talabalarni tanlash imkoniyatini ta'minlash

kerakligini ta’kidlaydilar [4;122-b].

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish har qanday ta’lim texnologiyasining markaziy bo‘g‘inidir, unda shaxsning qay darajada to‘liq namoyon bo‘lishi, qandayligi bilan belgilanadi, uning umumiy xususiyatlari o‘qish va mehnatga, hayotga bo‘lgan hatti-harakati va sub’yektiv munosabati hisobga olinadi va amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, keltirilgan tasniflar va umumiy xarakteristikalar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning bir nechta g‘oyalari amalga oshirishga imkon beradi: ta’limda aniq maqsad qo‘yish, izchillik, o‘quv jarayonini loyihalash, ta’limni tizimlashtirish, nazorat qilish, o‘quv jarayonni diagnostika, korreksiya qilish va o‘quv siklining takrorlanishi kabi g‘oyalari. Bir Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish talabalarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish,

Faoliyat jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish, dars jarayonida har bir talaba uchun ijodiy muvaffaqiyat muhitini yarata olish, ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish va shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Tolipov O‘.Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari // O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti, – 2006. - 261 b.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

3. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление личности.- Москва: Университет, 1994.- 466 с.

4. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. –Ростов-на-Дону, 2000.- С.122.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI LOYIHALASH FAOLIYATIGA TAYYORLASH TA’LIMYIY JARAYON SIFATIDA

Orishev Jamshid Bahodirovich

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrasida katta o‘qituvchisi
Tel. (97)4840479, e-mail: jamshidorishev@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada raqamli texnologiyalar negizida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini loyihalash faoliyatiga tayyorlashga oid ta’limiy mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli O‘zbekiston-2030, texnologik ta’lim, raqamli texnologiya, loyiha muammosi, loyihalash faoliyati.

Abstract

The article describes educational considerations on the preparation of future technological education teachers for design activities based on digital technologies.

Keywords: digital Uzbekistan-2030, technological education, digital technology, project problem, design activity.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da ta’kidlanganidek, Milliy dasturning muhim vazifalaridan biri “... o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv–uslubiy materiallarni keng joriy etish” lozim [1].

Raqamli texnologiyalar-bu faoliyat yuritishning zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktlari sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarning quyidagi muhim vazifasi dolzarb hisoblanadi: ya’ni amaldagi jarayonni izchil avtomatlashtirib borish hamda ta’lim oluvchilarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash. Binobarin, bu jarayonda ko‘plab ma’lumotlar raqamli formatga o‘tkazilsa, elektron ko‘rinishda saqlansa, axborot xavfsizligi masalalari hal etiladi. Shu sababli, pedagogika oliy ta’lim muassalarida raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish, pedagogik jarayonda bo‘lajak mutaxassislarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini oshirishga e’tibor qaratish lozim.

Ushbu sohada olib borilgan izlanishlarimiz natijalari raqamli texnologiyalar negizida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini loyihalash faoliyatiga tayyorlashni quyidagi bosqichlarda olib borilishi tavsiya etiladi:

1-bosqich. BTTO‘ni loyihalash faoliyatiga tayyorlashning izlanish–tanlash bosqichi. Bu bosqich texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining dastlabki o‘quv yili uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bunda asosan loyiha yo‘nalishi aniqlanadi va uning muammosi tahlil qilinadi; loyiha mavzusi tanlanadi; mavzuga taalluqli ma’lumotlar to‘planadi, ma’lumotlar o‘rganilib, qayta ishlanadi va tahlil qilinadi; loyihani amalga oshirish rejalashtiriladi. Loyiha yo‘nalishi va mavzusini tanlashda o‘rganilayotgan fan, talabalarning fanga qiziqishi, dunyoqarashi va bilish qobiliyatlari e’tiborga olinadi. Loyiha tarkibida quyidagilar kiritiladi: loyihadan qo‘yilgan maqsad; uning dolzarbligi; axborot manbalari (ommaviy axborot vositalari, ma’lumotlar bazasi, elektron ma’lumotlar, interv’yu, anketa kabilar); axborotni ishlash (tahlil, umumlashtirish, dalillarni solishtirish, isbotlangan xulosalar), natija (maqola, referat, ma’ruza, portfolio, videomaterial va boshq.), taqdimot (nashriyot, tarmoq, teleanjuman va vebinarlarda muhokamalar va hokazo).

2-bosqich. BTTO‘ni loyihalash faoliyatiga tayyorlashning konstruktorlik-texnologik bosqichi. Bu bosqichda loyihada qo‘yilgan muammoning qulay echimi izlanadi; dizayn talablari hisobga olinib, konstruksiya variantlari o‘rganiladi; loyihalananayotgan yo‘nalish bo‘yicha qo‘lga kiritilgan yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi; loyiha bo‘yicha tashkil etiladigan ishlar va tayyorlangan mahsulotlar ekspertizadan o‘tkaziladi, loyiha texnologiyasi ishlab chiqiladi; intellektual salohiyat o‘rganiladi; loyihaning konstruktorlik va texnologik hujjatlari tuziladi. Shu bilan birga texnologik jarayonlar shakllantiriladi, loyihani amalga oshirish rejasi tuziladi. Rejalashtirilgan texnologik operatsiyalar bajariladi; kerakli asbob-uskunalar, materiallar va jihozlar tanlab olinadi; loyihalananayotgan jarayonlar taxlil etiladi. Bu bosqichni amalga oshirish uchun yanada yaxshiroq natijaga erishish uchun

konstruksiya va texnologiyaga o‘zgartirishlar kiritish mumkin.

3-bosqich.BTTO‘ni loyihalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini joriy etish bosqichi. Bu bosqich tadqiqotning hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi, shu boisdan xatoga yo‘l qo‘yilishi mumkin emas. Bunda tadqiqot samaradorligi aniq natijalarda ko‘rinishi kerak. Buning uchun BTTO‘ faoliyat jarayonida raqamli texnologiya asosidagi kompyuterli tizim hamda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan foydalanish, to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lish lozim. Bunda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari va raqamli texnologiyalar asosida olib borilgan mashg‘ulotlar katta hajmdagi ma‘lumotlarni qisqa fursatda talabalarga etkazish imkoniyatini taqdim etadi. Talabalar sifatli va mazmunli axborotlarga ega bo‘lishga, mavzulararo (fanlararo) integratsion, imitatsion, vizuallashtirilgan, virtuellashgan manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mashg‘ulot natijasiga qarab, talabalarga mavzu yuzasidan qo‘shimcha ma‘lumotlar beriladi, ayrim tuzatishlar kiritiladi. Bu esa tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishilganligi kafolatlaydi.

Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini innovatsion rivojlangan qilib tarbiyalashda ijtimoiy ahamiyatga molik dolzarb masala bo‘lib, u asosan quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

- bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlashdagi mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash bosqichlarini uzluksiz ketma-ketlikda ifodalab olish;
- bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning raqamli texnologiyalarini shakllantirib olish va uni joriy etishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish;
- raqamli texnologiyalardan foydalanuvchilarga yo‘riqnoma va ko‘rsatmalar tayyorlash, ularni ko‘paytirish, tarqatish va dasturiy vositalarning amaliyligini muntazam ravishda kuzatib borish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini raqamli texnologiyalar negizida tayyorlashning asosiy g‘oyalarini va yo‘nalishlarini quyidagicha ifodalaniishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- raqamli texnologiyalarning asosiy tarkibiy qismlari va uning jamiyat taraqqiyotiga mos ravishdagi dinamik rivojlanishini amalga oshirib borish kerak;
- raqamli texnologiyalar negizida bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlashning asosiy tamoyillarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash;
- raqamli texnologiyalar negizida bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlashning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish;
- amaliy ishlanmalarda o‘z aksini topgan, metodologik yondoshuvlar oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim jarayonini, xususan bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlashni mukammallashtirishni ta‘minlaydigan o‘quv-dasturiy va o‘quv-axborotli ta‘minotlarni yaratish imkonini berish;

Demak, raqamli texnologiyalar negizida bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha erishilgan ijobiy natijalar, ta‘lim sifati uchun yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar ularni loyihalash faoliyatiga tayyorlash bevosita ilg‘or metodologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" //Oliy ta'lim meyoriy hujjatlar to'plami. Toshkent .Sharq. 2019
2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatova Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. O'quv qo'llanma. Samarqand.2011.
3. Turdiyev U. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish //Xalq ta'limi. Ilmiy metodik jurnal. 2020 № 6,
4. To'raqulov X. A., Orishev J. Loyihali ta'lim – ta'lim samaradorligi garovi. // Ta'lim tizimida ijtimoiy - gumanitar fanlar. Ilmiy–uslubiy jurnali. Toshkent, № 3-4, 2011 y. B.38-41
5. X.To'raqulov, J. Orishev Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi imkoniyatlari // SAI. 2022. №B8.

DIFFERENTIAL YONDASHUVDA TEXNOLOGIYALARNI TANLASHNI BELGILOVCHI OMILLAR

Bo'riboyev Aziz Abdumannonovich

Jizzax politexnika instituti assistenti,
+998945700987. Email: boriboyev2020@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola o'qituvchilar tanlangan texnologiyalar o'quvchilarining turli ehtiyojlari va qobiliyatlarini samarali hal qilishini ta'minlash uchun turli omillarni hisobga olishlari kerakligi hamda differentsiatsiya sharoitida texnologiyalarni tanlashni belgilovchi asosiy omillarni o'rganadi.

Kalit so'zlar: Dinamik ta'lim, moslashtirish, moslashuvchanlik, o'quv resurslar va infratuzilma.

Abstract

This article explores the fact that teachers must take into account various factors in order to ensure that the selected technologies effectively solve the different needs and abilities of their students, as well as the main factors that determine the choice of technologies in the context of differentiation

Keywords: Dynamic education, adaptation, flexibility, learning resources and infrastructure.

Bugungi dinamik ta'lim muhitida texnologiya integratsiyasi guruxda differentsiatsiyani rivojlantirish uchun kuchli vositaga aylandi. Biroq, differentsiatsiya uchun to'g'ri texnologiyalarni tanlash muhim o'rin tutib, ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchilar tanlangan texnologiyalar o'quvchilarining turli ehtiyojlari va qobiliyatlarini samarali hal qilishini ta'minlash uchun turli omillarni hisobga olishlari kerak. Ushbu maqola differentsiatsiya sharoitida texnologiyalarni tanlashni belgilovchi asosiy omillarni o'rganadi[1, 3-b].

Talabalarning ehtiyojlari va tayyorgarligi omili:

Differentsiatsiyalash uchun texnologiyalarni tanlashda asosiy e'tibor

talabalarning turli ehtiyojlari hisoblanadi. O'qituvchilar o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, o'rganish uslublarini va individual talablarini baholashlari kerak. Misol uchun, ba'zi talabalar nogiron o'quvchilarni qo'llab-quvvatlovchi yordamchi texnologiyalardan foydalanishlari mumkin, boshqalari esa ilg'or talabalarga rivojlanishi uchun moslashtirilgan o'quv dasturini talab qilishlari mumkin. Talabalarning ehtiyojlarini to'liq tushunish texnologiyani tanlash uchun asosdir[2, 2-b].

O'qituvchining malakasi va qulayligi omili:

O'qituvchilar differentsiatsiya texnologiyasini amalga oshirishda markaziy rol o'ynaydi. Shuning uchun tanlangan texnologiyalar bilan ularning malakasi va qulayligini hisobga olish juda muhimdir. Pedagoglarning farqlash uchun tanlangan vositalardan samarali foydalanishini ta'minlash uchun kasbiy rivojlanish va o'qitish juda muhimdir. O'qituvchilar texnologiyadan foydalanishda o'zlarini ishonchli his qilsalar, muvaffaqiyatli tabaqalashtirilgan ta'lim muhitini yaratish ehtimoli ko'proq.

Mavjud resurslar va infratuzilma omili:

Maktab yoki ta'lim muassasasida mavjud resurslar, jumladan byudjet, apparat, dasturiy ta'minot va infratuzilma texnologiyani tanlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'qituvchilar o'zlarining mavjud resurslariga mos keladigan texnologiyalarni tanlashlari kerak. Misol uchun, agar maktabda mustahkam kompyuter laboratoriyasi bo'lsa, u ish stoli kompyuterlarini talab qiladigan o'quv dasturini tanlashi mumkin, cheklangan resurslarga ega ta'lim muassasasi esa nazariyaga asoslangan, platformalarni tanlashi mumkin[3, 1-b].

Foydalanish imkoniyati va tenglik omili:

Differentsiatsiyalash uchun texnologiyalarni tanlashda tenglik asosiy e'tibordir. Maktablar barcha o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat'i nazar, texnologiyadan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Bu qurilmaga egalik qilish, internetga ulanish va dasturiy ta'minotni litsenziyalash masalalarini hal qilishni anglatadi. Texnologiyalar ta'limdagi tengsizliklarni beixtiyor kuchaytirmasligini ta'minlash uchun maktablar raqamli tafvutni bartaraf etishga harakat qilishlari kerak.

Ma'lumotlar va baholash imkoniyatlari omili:

Differentsiatsiyalash uchun tanlangan texnologiyalar ishonchli ma'lumotlar va baholash imkoniyatlarini ta'minlashi kerak. O'qituvchilar o'qitishni samarali tarzda moslashtirish uchun o'quvchilar faoliyati to'g'risida ma'lumot to'plashlari kerak. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan yondashuv o'qituvchilarga o'z imkoniyatlarini chamalash imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan yondashuv o'qituvchilarga o'quvchilarning individual yutuqlari asosida o'z usullarini moslashtirishga imkon beradi. Shunday qilib, texnologiyalar batafsil tahlil, hisobot va baholash xususiyatlarini taklif qilishi kerak[4, 3-b].

Moslashtirish va moslashuvchanlik omili:

Differentsiallashtirish yuqori darajada moslashtiriladigan va turli xil o'qitish strategiyalariga moslashtiriladigan texnologiyalarni talab qiladi. O'qituvchilar har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun tarkibni, faoliyatni va baholashni shaxsiylashtirishga imkon beradigan texnologiyalarni izlashlari kerak. Ushbu moslashtirish talabalarga tegishli darajadagi qiyinchilik va yordam olishlarini ta'minlaydi.

O‘quv maqsadlariga moslashish omili:

Tanlangan texnologiyalar ta‘lim muassasasining o‘quv maqsadlari va o‘quv rejasiga to‘liq mos kelishi kerak. Texnologiyalar o‘quv rejasiga moslashtirilganda, ular belgilangan doirada o‘qitishni farqlash uchun qimmatli vositaga aylanadi.

Qo‘llab-quvvatlash va texnik xizmat ko‘rsatish omili:

Ta‘mirlash va doimiy qo‘llab-quvvatlash e‘tiborga olinadigan muhim omillardir. Texnologiyalar ishonchli va texnik xizmat ko‘rsatish oson bo‘lishi kerak. Maktablar o‘qituvchilar va talabalar uchun uzluksiz va uzluksiz ta‘lim tajribasini ta‘minlash uchun texnik yordam va yangilanishlarga ega bo‘lishi kerak[5, 2-b].

Differensiatsiyalash sharoitida texnologiyaning samarali integratsiyasi bir nechta omillarni har tomonlama ko‘rib chiqishga bog‘liq. O‘qituvchilar o‘quvchilar ehtiyojlarini, o‘qituvchilarning tayyorgarligini, mavjud resurslarni, tenglik muammolarini, ma‘lumotlar imkoniyatlarini, moslashtirish variantlarini, o‘quv dasturlarini moslashtirishni, qo‘llab-quvvatlash va texnik xizmat ko‘rsatish talablarini diqqat bilan baholashlari kerak. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, maktablar o‘qituvchilarga chinakam tabaqalashtirilgan va inklyuziv ta‘lim muhitini yaratishga yordam beradigan texnologiyalarni tanlashda asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin, natijada barcha o‘quvchilar uchun ta‘lim natijalari yaxshilanadi[6-9, 3-b].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdumannonovich B. A. POSSIBILITIES OF DIFFERENTIAL TEACHING PRACTICE //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 10. – №. 10. – С. 293-296.
2. Bo‘riboev A. A. et al. DIFFERENTIATED TEACHING METHODS AND THEIR USE IN PRACTICE //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – T. 10. – №. 10.
3. Бўрибоев А. А. Профессионал таълимда “Нефт ва уни қайта ишлаш” мавзусини ўқитишда интерактив методлардан фойдаланиш методологияси //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.
4. Бўрибоев А. А. Олий таълим тизимидаги ўқув фаолиятини ташкил этишда мустақил ишларнинг роли //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1051-1055.
5. Бўрибоев А. А. Кимё фанидан мустақил ишларни ташкил қилишда кўп танловли тест топшириқларидан фойдаланиш //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 875-880.
6. Бурибаева З., Бурибаев А. КЛАССИФИКАЦИЯ КОРРОЗИОННЫХ ПРОЦЕССОВ //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 1. – №. 2 (7). – С. 28-33.
7. Bo‘riboev A. A. Kredit-modul tizimida individual ta‘limning o‘rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 892-895.
8. Яхшиликков, Жўрабой Яхшиликкович, and Ҳамида Абдумажидова. "МОДЕРНИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ ТАКОМИЛЛАШУВИНИНГ МЕТОДОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА." *Интернаука* 14-3 (2021): 91-94.

MATEMATIK TAFAKKUR GENEZISI VA UNING ILMIIY METODOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kilichev Farxod Davlatyarovich

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

UrDU akademik litseyi o‘qituvchisi

+998943102553

farhodbekqilichev@gmail.com

O‘zbekiston, Xorazm viloyati Urganch shahri

Annotatsiya

Ushbu maqolada Zamonaviy falsafa, ilm fan va sivilizatsiya tarixi ko‘rsatadiki, ularning genezisi Qadimgi Misr, Bobil, Old Osiyo va Qadimgi Hindiston va Qadimgi Xitoy hududlariga borib taqalishi, aynan ushbu o‘lkalarda eramizdan avval uchinchi ming yilliklarda biz hozir ishlatayotgan belkurak, g‘ildirak, o‘roq, temir va pishgan g‘ishtdan foydalanish, harf va sonlar, kosmologiya, astrologiya, geometriya, algebra kabi fanlar rivojlanganligi ochib berilgan.

Kalit so‘z: Metod, perspektiv rivojlanish, ilmiy bilish, qadimgi sharq, Xeops ehromi, matematik jadval, ikki noma’lumli chiziqli tenglama, kvadrat tenglama, kub va kvadrat tenglamalar.

Abstract

In this article, the history of modern philosophy, science and civilization shows that their genesis goes back to the regions of Ancient Egypt, Babylon, Ancient Asia and Ancient India and Ancient China. the development of such sciences as the wheel, sickle, use of iron and baked brick, letters and numbers, cosmology, astrology, geometry, and algebra are revealed.

Key words: Method, perspective development, scientific knowledge, Ancient East, Cheops’s bow, mathematical table, linear equation with two unknowns, quadratic equation, cubic and quadratic equations.

Tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash avvalo ularning qachon va qaysi holatda real voqelikka aylanganini, bilish jarayonlarida qanday o‘zgarishlarga uchraganini, qisqasi retrospektiv yondashuvni taqozo etadi. Bunday yondashuv tadqiqot ob’ekti va predmeti haqida ilmiy izlanuvchi uchun zarur bo‘lgan manbalar va informatsiyalar beradi. Ularning perspektiv rivojlanish yo‘llarini aniqlab olishga yordam qiladi. Tadqiqotchi ob’ekt va predmetning real holatini, tarixini va o‘zgarishlarga uchragan yo‘llarini o‘rganish bilan chegaralanib qolmaydi, u ob’ekt va predmetini kelgusida, perspektivada qanday bo‘lishini belgilab beradi. Ob’ekt va predmetning ideal holatini bashorat qilish metodi ilmiy bilishning asosiy usullaridan biridir. “Metod eng umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli, nazariy tadqiqot va amaliy harakatning muayyan tarzda tartibga solingan prinsiplari yig‘indisidir. Maxsus falsafiy ma’noda esa voqelik narsa va hodisalarini o‘rganish jarayonida ularni tafakkurda qayta hosil qilish usulidir.

Ilmiy metodda tadqiqot ob’ekti va predmetining mazmuni, uning ichki tabiati ifoda etiladi. Shuning uchun ham muayyan metodga amal qilish bizning xohishimizga

emas, balki tekshirilayotgan ob'ekt tabiatiga, ko'zda tutilgan maqsadga muvofiqdir. Demak, bilishning to'g'ri metodi sub'ekt xohishining natijasi emas, balki obyektiv dunyo qonunlarining in'ikosi bo'lmog'i kerak". [1. 113-114 B.] Mazkur ilmiy metodologik xarakterga ega fikr bizni retrospektiv yondashuvda tadqiqot ob'ekti va predmeti xususiyati, real holatidan kelib chiqishimiz zarurligini bildiradi. Shu ma'noda o'zbek tadqiqotchilari tarixiylik metodiga alohida urg'u berishadi. Ularning fikricha, "tarixiylik o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lish, rivojlanish va emirilish jarayonlari birligini, uning tarixi taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga varatilgan usuldir. Tarixiylik deganda, tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisaning konkret sharoitda paydo bo'lishi, yashashi, rivojlanishi va emirilishi yoki yo'q bo'lishidan iborat jarayonning tafakkurda ifodalanishi tushuniladi". [2. 117 B.] G'arb falsafasida matematik tafakkurning shakllanishiga katta hissa qo'shgan Osvald Shpenglarning iborasi bilan aytganda "tarixiy yondashuv, hayotning o'zi kabi rivojlanishga yaqin turgani uchun madaniyat imkoniyatlarining ro'yobga chiqishi ifodasidir. [3. 109 B.] Bu o'rinda "madaniyat imkoniyatlari"ni bilish, anglash jarayonlari sifatida tushunmoq kerak. Demak, tarixiylik yoki retrospektiv yondashuv hayotning o'zini, rivojlanishga yaqinlikni, ob'ekt va predmetlarning ijtimoiy tarixiy jarayonlarda o'zgarishlarini kuzatishga imkon beradigan usuldir.

Zamonaviy falsafa, ilm fan va sivilizatsiya tarixi ko'rsatadiki, ularning genezisi Qadimgi Misr, Bobil, Old Osiyo va Qadimgi Hindiston va Qadimgi Xitoy hududlariga borib taqaladi. Aynan ushbu o'lkalarda eramizdan avval uchinchi ming yilliklarda biz hozir ishlatayotgan belkurak, g'ildirak, o'roq, temir va pishgan g'ishtdan foydalanish, harf va sonlar, kosmologiya, astrologiya, geometriya, algebra kabi fanlar sohalari mavjud bo'lgan. Ular ilmiy adabiyotlarda "sababiy fanlar" deb ataladi, ya'ni ular kundalik va ijtimoiy ehtiyojlar tufayli yuzaga kelgan, antik davr kishilarning kundalik faoliyati uchun zarur va qo'llanilgan qarashlar, tartiblar va tizimlardir. Matematik tafakkur genezisini kishilik jamiyati, avvalo sivilizatsiya paydo bo'lgan davrlarga taqashadi. Kishilik jamiyati, sivilizatsiya, mashhur ingliz tarixchisi va faylasufi A.Toynbi hisob kitoblariga ko'ra, bundan olti ming, ya'ni er. avvalgi to'rt minginchi yillarga borib taqaladi. [4. 12-16 B.] Mazkur fikr matematik tafakkur sivilizatsiya tarixi bilan aynandir degan qarashni keltirib chiqaradi. Biroq u matematik tafakkurni ilm sohasi, fan va empirik tajribalarning atributiga aylangan, ma'lum bir ssientik qarashlar tizimiga aylangan davrga taalluqlidir. Agar odamzodning 1,5 million yillar avval paydo bo'lganini eslasak, ilk matematik qarashlar genezisini ancha ilgari surishga to'g'ri keladi. Bu bosqichlarni esa O.Shpengler aytganidek "his qilish, kechinmalar, sezgilar bilan idrok etish" orqali bilish mumkin. [5.109 B.] Tarixiy etnografik manbalar qiziqarli misollar bersa-da, [6] ular ham pirovard natijada sivilizatsiya davrining boshlanishiga borib taqaladi.

Matematikachi olimlar matematik tafakkur shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini to'rt bosqichga bo'lib qarashni taklif etishadi. Birinchisi matematikaning paydo bo'lish davri, ya'ni genezisi; ikkinchisi doimiy kattaliklar davri; uchinchisi o'zgaruvchi miqdorlar matematikasi davri; to'rtinchisi hozirgi zamon matematikasi davri. [7.26B.] Birinchi bosqichga tadqiqotchi kishilik jamiyati paydo bo'lganidan to miloddan avvalgi VI-V asrlargacha davom etgan davrni kiritadi. Uning yozishicha, «bu

davr amaliy hisoblashlar davri bo'lib, unda son va figuralar tushunchalari shakllanadi, ya'ni arifmetika va geometriyaning boshlang'ich, empirik qoidalari (amaliy masalalarni echish uchun) o'rnatiladi» [8. 26 B.]

Tarixiy etnografik manbalar ko'rsatadiki, kishilar o'zining kundalik ehtiyojlarini ifodalash, ko'rsatish uchun turli simvollardan, belgilar, ierogliflardan foydalanganlar. Bu simvollar universal ahamiyat kasb etganki, ular orqali hatto hozirgi zamon kishilarini hayratga soladigan ehromlar, saroylar va shaharlar qurganlar. Masalan, Qadimgi Misrda. eramizdan avvalgi III asrlarga borib taqaluvchi, qurilgan balandligi 146, 6 metr bo'lgan Xeops ehromini olaylik. Uning qurilishida asosan granit, ohakli loy, bazalt ishlatilgan. Ehromda ishlatilgan har bir tosh o'rtacha 1,5 - 2 tonnaga yaqin. Quruvchilar uni yigirma yil ichida barpo etishgan. Agar kishilarda matematik tafakkur va qarashlar bo'lmaganda shunday ehromlar yaratilishi mumkinmidi? Albatta, yo'q. Hatto bu o'rinda ijtimoiy falsafiy ahamiyatga ega savol ham uyg'onadi. Shunday ehromlar va to'hanuzgacha o'z mahobatini yo'qotmagan saroylar, shahar oromgohlarni «arifmetika va geometriyaning boshlang'ich, empirik qoidalari»ning mahsuli edi deyish o'rinalimi? Axir 118 (ba'zi manbalarda 138 ta deb ko'rsatiladi) tadan iborat, eng kichigi 66 metr bo'lgan ehromlarni shunchaki «amaliy masalalar» ifodasi bo'lishi mumkinmidi? Bu ehromlarga faraonlar ko'milgan maqbaralar sifatida qaraladi. Tadqiqotchi L.Belovanning yozishicha, har bir ehrom o'zining energiyasiga ega. Ularga yaqinlashgan kishi qandaydir ma'naviy ruhiy energiya ta'siriga tushadi, uni anglab bo'lmas, transsendental kechinmalar, xayollar chulg'ab oladi. Masalan, Xeops ehromidan kishini faol harakatlarga, hatto vajohatga undovchi kuch, eng kichik ehromdan esa yumshoq, ayolona energiya taraladi. Xullas, Qadimgi Misr ehromlari shunchaki qurilmalar emas, ular kishilar ruhiga, kayfiyati va hayotiy maqsadlariga ta'sir etuvchi o'zining energetikasiga ega «muqaddas simvollar»dir. «Ehromlar go'yo osmondadek. Bunday mo'jizani qanday qurish mumkin? Ular miflar va reallikni, chuqur sir va fantaziyani, yashirin bilim va mistikani o'zida uyg'unlashtirgan hayratli va fantastik qurilma! Ularning energetikasi mutlaq hayratlidir. [9. 32-39 B.]

Qadimgi Misr ehromlaridan, undan taraladigan energetikadan Platon ham hayratga tushgan. Uning so'zliga qarganda, Qadimgi Misrga emas, balki g'arb tomonga, ya'ni Yunoniston tomonga yurgan ma'qul. Platon ta'kidlaydi: «yuqoridan keladigan bilim albatta, har bir kishi, agar u kechasi yoki yakka «shoh sandig'i» yonida qolsa, miyasiga kiradi. Ushbu sandiqda, deb ko'rsatadi Platon, ilohiy olov bor va unga Qadimgi Misrning oliy rohiylari keladi. Ularning kelishdan maqsadi kishilarni ma'rifatli, e'tiqodli bo'lishga o'rgatish...». [10. 8-9 B.]

Qiziqarli hol shundaki, Qadimgi Misr ehromlari tarixi, texnologiyasi. Talqinlari hanuzgacha turli fikrlar va bahslarni uyg'otib keladi. Olimlar ularda yuksak intellektual izlanishlardan tortib, to kosmos bilan yaqinlik, hatto o'zga sayyoralardagi mavjudotlar bilan yaqinlik ko'radilar. O'rnatilgan ulkan toshlarni tepaga olib chiqishdan tortib ularning zichligi hatto bir mm ga ham farq qilmasligi nafaqat quruvchilarni, shuningdek, matematiklarni ham hayratga soladi. [11]

Qadimgi Bobilda matematikaning ahvoli, usullari haqida kerakli manbalar juda kam. Sh.Ne'matovanning yozishicha, «Vavilonda matematik fozillar tomonidan bir qator matematik jadvallar tuzilgan bo'lib, ularda arifmetika bilan birga algebraik tushunchalar ham rivojlanti rilgan. Ya'ni ikki noma'lumli chiziqli va kvadrat

tenglamalarni, kub va kvadrat tenglamalarga keltirilganligi va shu asosida masalalar echilganligini keltirish mumkin.

Adabiyotlarning ro‘yxati:

1. Маматов Н., Носиров Ў., Абдуллаева Г. Фаннинг фалсафий масалалари. Ўзув кўлланма. Тошкент: ТМИ, 2006. 113 114 Б.
2. Шпенглер О. Закат Европи Новосибирск: ВО “Наука”, 1993. С.109.
3. Тойнби А. Постижение истории. Москва: Прогресс, 1990. С. 12 16.
4. Шпенглер О. Закат Европи Новосибирск: ВО “Наука”, 1993. С. 109.
5. Тайлор Э.Б. Первобитная культура. Москва: Политиздат, 1989; Мид М. Культура и мир детства. Москва: Гл. ред. вост. лит ри, 1986; Глушенко В. Рождение человечества. Начало человеческой истории как предмет социально философского исследования. Москва: Литрес, 2021; Бромлей Ю.В. История первобитного общества. Москва: Рипол классик. Л. Книга. 2022; Харузин Н.Н. Этнография. Москва: Direktmedia, 2013.
6. Неъматова Ш. Математика фанини ўқитишнинг назарий масалалари ва методикаси. Тошкент: ТАФФАКУР нашриёти, 2011. 26 б.
7. Белова Л. Шокирующий Египет. Москва: SellPub, 2020. С. 32 39.
8. Қаранг: Матанцев А. Древние пирамиды ключ к мироздания. Том 1. Москва: Литрес. 2021. С.8- 9.
9. Прокопенко И. Альтернативная история человечества. Москва: Эксмо, 2017.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOSHLARNI AXLOQIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOY-FALSAFIY MASALALARI

Nasimov Azizbek Azimovich

SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalar”
kafedrasi tadqiqchisi

Annotatsiya

Maqolada jamiyatdagi amalga oshirilayotgan islohotlarning yoshlar faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy masalalari ilmiy tadqiq etilgan. Unda keyingi yillarda axborotlashgan jamiyatning rivojlanib borishi natijasida voqelikda vujudga kelayotgan axloqiy qadriyatlar muammo o‘z aksini topgan. Yoshlarning falsafiy tafakkurini botsitishda ajdodlarning jamiyatga qoldigan boy axloqiy qadriyatlaridan samarali foydalanish ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: falsafiy tafakkur, yoshlar, jamiyat, axloqiy qadriyatlar, ma’naviyat, ta’lim, ishlab chiqarish, ta’lim, axborotlashgan jamiyat, internet.

Abstract

In the article, socio-philosophical issues related to the youth activities of the reforms implemented in the society are scientifically researched. In it, the problem of moral values emerging in reality as a result of the development of the information

society in recent ears is reflected. The effective use of the rich moral values left by the ancestors to the society was revealed in cultivating the philosophical thinking of young people.

Key words: philosophical thinking, youth, society, moral values, spirituality, education, production, education, information society, Internet.

Har bir davlat o'z yoshlarini axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni jamiyatning bosh mezon sifatida axloqiy tarbiya bilan uyg'un olib borishga intiladi. Jamiyatda fuqarolar ongida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotgan manzarasi falsafiy tafakkur bilan murakkab o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi qator ijtimoiy masalalarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda yoshlarni tarbiyalashda asosiy ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri axloqiy qadriyatlar muammosini hal qilishdir. Turli madaniyatlar va istiqbollar global aloqa tarmoqlari orqali birlashadigan axborotlashgan jamiyatda yoshlar ko'plab axloqiy muammolar va qadriyatlar tizimiga duchor bo'lishadi. Bu xilma-xillik axloqiy qadriyatlar tuyg'usiga salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Binobarin, yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qarash, hamdardlik, halollik va boshqalarga hurmat kabi umuminsoniy axloqiy tamoyillarni targ'ib qiluvchi nozik yondashuvni talab qiladi. Bugungi raqamli ommaviy axborot vositalarining yuksalishi axloqiy tarbiyadagi bir qator muhim muammolarni vujudga keltirdi. Jumladan, ijtimoiy media platformalari, onlayn forumlar va virtual hamjamiyatlar ko'plab axloqqa zid ma'lumotlarga misli ko'rilmagan darajada taklif qilishi yoshlarning shaxsiy hayotiga kirib kelayotganligi ko'paymoqda. Ushbu platformalar yoshlarning axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin, ko'pincha salbiy xatti-harakatlar va munosabatlarni kuchaytiradi. "Kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi axborotlashgan jamiyat rivojiga turtki beradi. Axborotlashtirish jarayonining moddiy negizi ishlab chiqarish, boshqaruv, ilm-fan, ta'lim va tarbiya hamda ijtimoiy va maishiy sohalarni kompyuterlashtirish va robotlashtirish asosida tashkil etadi"[1. 81]. Shunday qilib, axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifasi yoshlarni raqamli landshaftda mas'uliyat bilan harakatlanishga yo'naltirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish va ularning onlayn harakatlarining axloqiy oqibatlarini haqida tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu muammolarni hal qilish uchun bir nechta strategiyalardan foydalanish mumkin. Birinchidan, ta'lim tizimining o'quv dasturida axloqni nafaqat mustaqil fan sifatida, balki har bir o'quv intizomining o'lchovi sifatida birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu integratsiya talabalarga fan va texnologiyadan tortib adabiyot va tarixgacha bo'lgan turli xil ta'lim sohalarining axloqiy oqibatlarini tushunishga yordam beradi. Ikkinchidan, jamiyatda yoshlarni mehnatga jalb qilish va xizmat ko'rsatishni o'rganish axloqiy tarbiyada muhim rol o'ynaydi. Jamiyatga foydali loyihalarda ishtirok etish orqali yoshlarda hamdardlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish mumkin. Ushbu tajribalar axloqiy qadriyatlarni qo'llash, sinab ko'rish va aks ettirish mumkin bo'lgan amaliy kontekstlarni taqdim etadi.

Axborot jamiyatida yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi axborot oqimi juda katta va ko'p qirrali bo'lgan zamonaviy dunyoda ayniqsa dolzarbdur. Internet va boshqa raqamli texnologiyalar orqali axborotga hamma joyda kirish imkoniyati bilan ajralib turadigan axborot jamiyati yoshlarga bilim olish, o'zini

namoyon qilish va ijtimoiy muloqot qilish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, ayni shu imkoniyatlar axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash va shakllantirish bilan bog‘liq qator ijtimoiy-falsafiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Asosiy muammolardan biri axborotning haddan tashqari ko‘payib, bu qimmatli va haqiqatga mos ma‘lumotni ishonchsiz yoki manipulyatsiya qiluvchi ma‘lumotlardan ajratishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Axborotning haddan tashqari kupayishi natijasida yoshlar o‘z e‘tiqod va qadriyatlarini shakllantirishda, ishonchsiz manbalarga tayanishda yoki ekstremistik mafkuralar ta‘sirida qolishi hech gap emas. Yana bir muammo – an‘anaviy axloqiy qadriyatlarning emirilishidir. Axborot jamiyati har doim ham an‘anaviy axloqiy qadriyatlarga to‘g‘ri kelmaydigan globallashtirilgan madaniy me‘yorlarning tarqalishiga yordam beradi. Bu avlodlar va madaniyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarga, milliy va madaniy o‘zlikni yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar tufayli kuchaygan ijtimoiy izolyatsiya muammosi, ijtimoiy media va Internetdan doimiy foydalanish odamlarning real hayotdagi o‘zaro ta‘sirining kamayishiga, ijtimoiy aloqalarning zaiflashishiga va yolg‘izlik tuyg‘usiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarda empatiya va axloqiy fazilatlarining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Ushbu muammolar kontekstida ta‘limda tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik va axborotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim rol o‘ynaydi. Ta‘lim muassasalari ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishi, yoshlarni nafaqat axborotni tahlil qilishga, balki ularning jamiyatdagi o‘rni va mas‘uliyatini anglashga o‘rgatishi kerak. Binobarin, axborot jamiyatida yoshlarni ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ta‘lim, oila, jamiyat va davlatni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni taqozo etadi. Faqat birgalikdagi sa‘y-harakatlar orqali zamonaviy avlod oldida turgan muammolarni engib o‘tish, kelajakning mas‘uliyatli, ma‘naviyatli va barkamol fuqarolarini tarbiyalash mumkin. Axborot jamiyatida axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi yoshlarning falsafiy tafakkuriga, dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi va umumiy dunyoqarashini shakllantirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ushbu insho texnologiyaning jadal rivojlanishi va axborotning hamma joyda mavjudligi yoshlarning axloqiy va falsafiy yo‘nalishlariga qanday ta‘sir qilishini o‘rganadi.

Axborot jamiyati raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishi ishlab chiqarish, iste‘mol qilishni tubdan o‘zgartirdi. Ushbu davr katta hajmdagi ma‘lumotlarga tezkor kirishish va raqamli aloqaning ustunligi bilan ajralib turadi, bu odamlarning o‘zaro ta‘siri, faoliyat doirasini o‘zgartirdi. Axborot jamiyatida an‘anaviy axloqiy qadriyatlar ham qiyinchiliklarga, ham qayta talqin qilish imkoniyatlariga duch keladi. Internet orqali turli nuqtai nazarlar va madaniyatlarning mavjudligi yoshlarni keng ko‘lamli axloqiy nuqtai nazarlar bilan tanishtiradi, qadriyatlarni ko‘proq plyuralistik tushunishga yordam beradi. Biroq, axborotning haddan tashqari yuklanishi va raqamli o‘zaro ta‘sirlarning tarqalishi ham axloqiy qadriyatlarni qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Raqamli platformalar yordam beradigan anonimlik va ajralish ba‘zan empatiya va mas‘uliyatni zaiflashtirishi, yoshlarning axloqiy mulohazalari va xatti-harakatlariga ta‘sir qilishi mumkin.

Axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi yoshlarning falsafiy tafakkuriga bevosita ta‘sir qiladi. Ko‘p nuqtai nazarga duchor bo‘lgan holda, ular haqiqat va axloqqa

nisbatan nisbiy nuqtai nazarni qabul qilishlari, mutlaq rivoyatlarni shubha ostiga olishlari va murakkablik va noaniqlikni qabul qilishlari mumkin. Shuning uchun jamiyatda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab barchamiz “insonparvarlikka, mehr-shavqatga bir yoqlama yondoshganmiz. Oqibatda bizning ilmiy-madaniy merosimizni, ayniqsa, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Axmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband singari buyuk mutafakkirlarning, shuningdek, umuminsoniy madaniy-axloqiy qadriyatlarining gavhari bo‘lmish Hadislarni insonparvarlikka, mehr-shavqatga da’vat etuvchi qarashlarni o‘rganishdan mahrum edik” [2. 16]. Ushbu falsafiy pozitsiya postmodernistik fikrni aks ettiradi, u xilma-xillikni, farqni va universalistik mafkuralarning dekonstruksiyasini qadrlaydi. Bundan tashqari, axborot va texnologiyalarga e’tibor yosh shaxslarni voqelik, o‘ziga xoslik, ongning tabiati bilan bog‘liq savollar bilan kurashishga undaydi. Raqamli asr o‘zini o‘zi va jamiyat haqidagi an’anaviy tushunchalarni shubha ostiga qo‘yadi, bu virtual mavjudot, sun’iy intellekt va raqamli maxfiylik va kuzatuv etikasi oqibatlari haqida falsafiy tadqiqotlar olib boradi. Axborot jamiyatida axloqiy qadriyatlarining o‘zgarishi tanqidiy axloqiy mulohazalarni ham keltirib chiqaradi. Yoshlar raqamli axloq muammolari, jumladan, ma’lumotlar maxfiyligi, noto‘g‘ri ma’lumotlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishlari kerak. Texnologiyadan axloqiy foydalanish va axborot manbalarini tanqidiy baholash mas’uliyati tobora yoshlarning axloqiy va falsafiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda yoshlarni axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash axloqiy murakkabliklarni, raqamli ommaviy axborot vositalarining ta’sirini va keng qamrovli axloqiy ta’lim strategiyalariga bo‘lgan ehtiyojni o‘z ichiga oladi. Umumjahon axloqiy tamoyillarni targ‘ib qilish, mas’uliyatli raqamli fuqarolikni rivojlantirish va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish orqali yoshlarni jamiyatning axloqiy jihatdan mas’uliyatli a’zolari bo‘lishga yo‘naltirishi mumkin. Bunda maqsad yoshlarga bilim berish, axborotga boy dunyoda axloqiy harakatlarga sodiqlikni ilhomlantirishdir. Axborot jamiyatida ma’naviy qadriyatlarining o‘zgarishi yoshlarning falsafiy tafakkuriga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarni raqamli asrning axloqiy va falsafiy muammolariga tanqidiy va mulohazakor yondashuvni rivojlantirishga yo‘naltirish maqsad tobora murakkablashib borayotgan dunyoda axloqiy qarorlar qabul qilishga qodir avlodni tarbiyalashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Туляев А. Вертуал оламнинг ахлоқиқий муаммолари (фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент: 2021. 81-бет.
2. Шермухамедов С. Фалсафа фани янгиланишининг баъзи муаммолари. – Тошкент: Фан, 1996. 16-бет.
3. Yaxshilichikov, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.
4. Yaxshilichikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g‘oya. "O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, "Cho‘lpon* (2018).

5. Qaxor ogli, Xoliqulov Muhammad. "IDEOLOGICAL AND THEORETICAL BASIS OF SUFISM." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI* (2022): 389-393.

INNOVASION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SAMORADARLIGIGA TA'SIRI

Kalilaev Ayapbergen Janabayevich

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI

Qoraqalpog'iston Respublikasi filialining mustaqil tadqiqotchisi

tel raqami: +99893 707 46 01, (telegramm +99891 304 46 01)

elektron pochta manzil: Ayap1685@umail.uz

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovasion, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog - olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz?

savollariga javob izlash bilan bir qatorda

Qanday qilib, samarali va natijali o'qitish mumkin? - degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi qo'yidagilardir:

Birinchi, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi

Qonuni»da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masofasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchi, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchi, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchi, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini

qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilish talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovasion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublari, innovasion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovasiya (inglizcha innovationas - yangilik kiritish) yangilik demakdir. Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («inter» - bu o'zaro, «faol» - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikini ta'minlanishi;
- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogic texnologiya

- faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida ko'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi- o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq.

Respublikamizda ma'naviyatni yuksaltirish, milliy ta'lim tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarish maqsadida katta ahamiyatga ega bo'lgan nazariy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib

chiqqan holda, hozirgi paytda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama etuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovasion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday qiziqishga asosiy sabab, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni bilimni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagog bu jarayonda o'quvchi shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Ta'limda innovasion pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovasiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol uslublardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev R.A. «Ta'lim Tizimida Innovasion Texnologiyalardan Foydalanishning Ahamiyati» Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch 2022 yil, 338-340 bet

2. Axmedov I., Muxitdinov M.B, Umarov I. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilgan xolda qurilish materiallari va buyumlari fanini o'qitishning samarali usullari. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS 2023 yil., 285-300 bet

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A Ta'limda innovasion texnologiyalari nomli qo'llanma. –Toshkent-2008

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH UCHUN MASOFAVIY TA'LIM VOSITALARI

dost.Ibragimov A.A, ass.Kurbanova Sh.M., Salimova M.
(Samarqand davlat universiteti (972858377))

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot ishida ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun masofaviy ta'lim vositalari va ularning imkoniyatlari tadqiq qilingan. Bunda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimlari, LMS platformalari va ularning turlari hamda LMS platformalarining imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Kalitli so'zlar. Masofaviy ta'lim elementlari, ta'limni boshqarish tizimlari, LMS, LearnDash, Ispring, Moodle.

O'quv jarayonida masofaviy ta'lim elementlaridan foydalanish uchun avvalo ta'limni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimi bo'lish talab etiladi.

Ta'limni boshqaruv tizimlari (*LMS – Learning management systems*) – bu o'quvchi-talabalar uchun ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqaruvchi ma'ruza, videodars, taqdimot, kitob, nazorat va shu kabi o'quv materiallari jamlanmasidan iborat bo'lgan muloqot rejimida ishlashga qodir bo'lgan inson-mashina majmuasi yoki

masofaviy ta’lim shakli hisoblanadi.

Learning – o‘qitish, LMS tizimi yordamida elektron kurs yoki o‘quv materiallarining yagona bazasini yaratish mumkin. Bunday baza mavzu bo‘yicha shakllantirilgan bilimlar omboridan iborat bo‘ladi.

Management – boshqaruv, ta’limni tizimini administrator (yoki kursni tashkil etuvchi o‘qituvchi) boshqarib boradi. U talaba va o‘quvchilar uchun kurs, topshiriq va testlarni belgilab beradi hamda uyga berilgan vazifalarni bajarilishini nazorat qilib boradi.

System – elektron tizim, LMS o‘qituvchining o‘rniga har bir o‘quvchi berilgan topshiriq yoki testni qancha vaqtda va qanday topshirganini tekshirib, qayd etib boradi. Hisobotlar orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini kuzatib borishi ham mumkin.



LMS platformalar 3 turga bo‘linadi:

- LMS bulutli platformalar;
- Serverga asoslangan LMSlar;
- CMS bilan integratsiyalashgan LMSlar.

LMS bulutli platformalar elektron ta’lim dasturiy vositalarini tashkil qiluvchi, amalga oshiruvchi hamda talaba-o‘quvchilarning olgan bilimlarini o‘zlashtirish natijalari ustidan nazorat qilishi va ularni saqlab qo‘yish imkoniyatini beruvchi onlayn platforma hisoblanadi.

LMSning bulutli platformalari. O‘quv kursining materiallari LMSning bulutli platformalarida web-xizmatni taklif etuvchining server kompyuteriga joylashtiriladi. LMSning bu turini ta’lim muassasasi yoki tashkilotning server kompyuteriga o‘rnatib bo‘lmaydi. LMSning bulutli platformalari web-xizmat (masalan, pochta xizmati kabi) prinsipi asosida ishlaydi, ya’ni web-xizmat taklif etilgan manzil orqali ro‘yxatdan o‘tgandan keyin o‘quv kurslarini yaratish mumkin.

LMSning bulutli platformalariga iSpring learn, Google classroom, Schoology, Loop, Learn Amp va boshqalarni misol keltirish mumkin.



1-rasm. Ispring learn platformasi va uning interfeysi.

Serverga asoslangan LMSlar tashkilot yoki ta’lim muassasasining serveriga o‘rnatiladi. Bu esa foydalanuvchilarga tizimga korporativ login va parol yordamida kirish imkonini beradi. Barcha ma’lumotlar tashkilot yoki ta’lim muassasasi server kompyuterida saqlanadi. Buning uchun esa LMSni o‘rnatish, sozlash, uning tashkilot yoki ta’lim muassasasi dasturiy ta’minotlari bilan integratsiyasini ta’minlash lozim. Asosan, ta’lim muassasalari va o‘quv markazlarida foydalaniladi.


Serverga asoslangan LMSlarga Moodle, BlackBoard, Canvas, Absorb LMS va boshqalarni misol keltirish mumkin.



2-rasm. Moodle platformasi va uning interfeysi.

CMS bilan integratsiyalashgan LMSlarda LMS funksiyalarini bajaruvchi maxsus dasturlar CMSga qoʻshiladi va CMSning imkoniyatlarini kengaytirib beradi. CMSning tarkibida alohida oʻquv kurslar bilan ishlovchi qism xizmat qiladi. Bunday tizimlar onlayn maktab va kurs ochishni xohlovchilar uchun qulay hisoblanadi.

CMS bilan integratsiyalashgan LMSlarga LearnDash (wordpress), joomla, drupal, wix va boshqalarni misol keltirish mumkin.



3-rasm. LearnDash platformasi va uning interfeysi.

Oʻquv jarayonida masofaviy taʼlimni tashkil etish uchun oliy taʼlim muassasasi, oʻqituvchi va talabalar uchun alohida dasturiy va texnik vositalar talab etiladi. Yuqorida keltirilgan dasturiy vositalar asosida taʼlim tizimlarida masofaviy taʼlimni joriy qilish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. *Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1(1), 252-256.

2. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. (2020). Active, interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. *Экономика и социум*, 12(79).

3. Аминов И., Назаров Ф.М. Использование современных электронных средств в обучении информатики УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Международный научный журнал.-2017.№ (2). Москва. [69-73] б.

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI DAVRIDA MAORIF TIZIMIDAGI ISLOHATLAR

Rasulov B.G’.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim va gumanitar fanlar fakulteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Turkiston general-gubernatorligi davrida maorif sohasida olib borilgan islohatlar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, 1884-yil, Fon Kaufman, Rozenbax, Aleksandr II, Rus-tuzem maktabi, Finlandiya, XIX asrning 2-yarmi, 1874-yil, 1875-yil, M.I.Borodovskiy, A.L.Kun, M.Terentyev, S.M.Geramenitskiy.

Abstract: This article provides information about the reforms carried out in the field of education during the period of the Turkestan Governor General.

Key words: Turkestan, 1884, Von Kaufman, Rosenbach, Alexander II, Rus-tuzem school, Finland, 2nd half of the 19th century, 1874, 1875, M.I. Borodovsky, A.L. Kuhn, M. Terentyev, S. M. Geramenitsky

Bugungi kunda yurtimizda maorif sohasida tub yangilanishlar va islohatlar amalga oshirilmoqda, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad etuk bilimli, jahonning rivojlangan davlatlari yoshlari bilan har sohada bellasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir, buning uchun mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz doimo yoshlar bilan uchrashuvida uchinchi renessansni barkamol va har tomonlama bilimli yoshlar bilan qurishni ta’kidlab keladi, zero birinchi va ikkinchi renessansni yaratib, dunyoga mashhur bo‘lgan ota-bobolarimizga munosib bo‘lish har bir yosh yigit-qizlarimizning burchidir. Hozirgi kunda yurtimizda ta’lim sohasida yuksak natijalarga erishayotgan jahonning ko‘plab davlatlari bilan hamkorlik aloqalari amalga oshirilmoqda.

Jahonda o‘z ta’lim tizimiga ega bo‘lgan va yuqori natijalarga erishayotgan Finlandiya ta’lim modullaridan andoza olgan holda yoshlarimizga zamon talablari asosida ta’lim berilmoqda. Ko‘plab yoshlarimiz Finlandiya ta’lim tizimini o‘rganish uchun stajyor sifatida malaka oshirib, yurtimiz ta’limiga katta hissa qo‘shib kelmoqdalar. Maktabdagi boshlang‘ich sinflar uchun rivojlangan davlatlar moduli asosida darsliklar tayyorlanmoqda, bu esa o‘sib ulg‘ayib kelayotgan farzandlarimizning STEAM fanlar, chet tili va boshqa ko‘plab fundamental fanlarni o‘rganish orqali dunyoning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida o‘qib mamlakatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shadi, albatta.

Yurtimizning maorif tizimi tarixi ming yilliklarga borib taqaladi, bu sababdan mamlakatimiz ta’lim sohasini Chor mustamlakachilik davridagi ahvolini o‘rganish muhim omillardan biri hisoblanadi. Zero moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidir [2, – B. 3.]

XIX asr ikkinchi yarmida yurtimiz Chor mustamlakachilari tomonidan bosib olingandan so‘ng qolgan sohalar kabi ma’orif tizimini isloh qilishga katta ahamiyat berildi, chunki mustamlakachilik hukumronligini mustahkamlash, mahalliy bolalarni

rus ma'naviyati va ta'lim tizimi bilan qamrab olish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Mustamlakachilikning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim sohasini isloh qilishga e'tibor qaratilib, hududda tashkil etilayotgan ta'lim muassasalarini boshqarishning yagona tizimi shakllantirildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad boshqaruvni qulaylashtirish, hukumron doira manfaatlariga xizmat qildirish edi. Ta'lim sohasi dastlab Turkiston general-gubernatorligi harbiy boshqaruvi qo'lida bo'lgan. Sibir general-gubernatorligi namunasida tashkil qilingan o'quv bo'limi va 1875-yilgacha bevosita general-gubernatorlik tasarrufida bo'lgan [6, – B. 12.].

Ta'lim muassalari 3 bo'limdan tashkil topgan general-gubernatorlikning 2-bo'limiga bo'ysungan bo'lib, darstlab general-gubernator huzuridagi mas'ul rahbar, 1874-yildan esa Yettisuv viloyati o'quv mudiri tomonidan boshqarilgan. Mustamlaka hukumati Turkiston maorif tizimini boshqarish va nazorat qilishga doir bir qator qaror va dasturlarni ishlab chiqdi. Ularning mohiyati va davriy xususiyatini hisobga olgan holda quyidagi davriy bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – General-gubernator K.P.Kaufman (1867-1882) boshqaruvi davri.

Ikkinchi bosqich – General-gubernator N.O.Rozenbax (1884-1889) boshqaruvi davri.

Uchinchi bosqich – “Andijon qo'zg'aloni”dan keyingi davri.

To'rtinchi bosqich – 1905-1907-yillardagi birinchi rus inqilobidan keyingi davri. [6, – B. 13.]

Turkiston zamini XIX asr 3-choragidan Chor podsholigining qaramliligiga aylana boshlagandan so'ng o'lka ma'muriyati mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish uchun tub erli aholidan o'zlariga xizmat qiladigan vositachi-amaldorlar tayyorlash maqsadida rus tuzum maktablarini ochishga harakat boshladi.

Bu davrda o'lkada ta'lim muassasalari hisoblangan eski maktablar va madrasalar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, asosan diniy ta'lim berilar, shu bilan birga, milliy an'analar va urf-odatlar o'rgatilar edi. Bularni sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan mustamlakachilar maktablarning o'zlari uchun naqadar xavli ekanligini anglagan holda goh ochiqcha, gohida zimdan qarshilik qilib kelmoqda edi. Milliy maktablarning ruslashtirish siyosatiga xalal bermasligi uchun o'z dasturlarini ishlab chiqish masalasiga katta e'tibor qaratdi.

Chor hukumatining O'lkadagi mamurlaridan biri hisoblangan Fon Kaufman bu borada jon kuydirib faoliyat ko'rsatdi.

1871-yilda Kaufmanning tashabusi bilan ta'lim sohasini isloh qilish va tshkil etish borasida general-gubernatorning maxsus bo'limi kotibi M.I.Borodovskiy boshchiligida alohida kommissiya tuzildi, kommissiya tarkibiga general-gubernatorning maxsus topshiriqlarini bajaruvchi sharqshunos olim A.L.Kun, ilgari samarqandda yashagan kapitan, M.Terentyevlar kiritildi. M.Terentyev, mustamlaka hokimiyatining ko'zga ko'ringan arbobi, shuningdek Turkiston tarixiga oid ko'plab asarlar muallifi hisoblanadi. [5, – B. 151.]

Kommissiya tomonidan ishlab chiqilgan loyiha shunchaki rus bolalari uchun emas, balki ko'p milatli mahaliy aholining bolalari va kattalarining bir qismi uchun xalq ta'limini tashkil etish masalasiga bag'ishlangan edi. 1873-yilda kommissiya o'lkadagi ta'lim tizimini boshqarishga oid loyihani K.P.Kaufmanga topshiradi.

Loyihaga ko'ra; birinchidan – o'quv ishlarini rivojlantirish va yangi rus hukumatiga xayrixoh bo'lgan kadrlarni tayyorlash;

Ikkinchidan – diniy ta'limga aralashmaslik, lekin ular ustidan nazoratni susaytirmaslik belgilangan edi.

Ushbu loyihag biroz o'zgartirish kiritilib 1875-yil 17-mayda Aleksandr II tomonidan maqullandi [5, – B. 152.]

1880-yilda Imperiya Davlat Kengashida Turkistondagi mahalliy aholi bolalarini ruslar bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'rilganda Turkiston aholisining «savdo-sotiq, dehqonchilikda suyagi qotganligi va yuvosh tabiati» ta'kidlanib, ularning «imperiyadagi boshqa musulmonlardan keskin ajralib turishlari» qayd qilinadi. Davlat Kengashining bu qarori Kaufman tomonidan qo'llabquvvatlanadi. Kaufman «ruslar va tub aholining bolalarini birgalikda tarbiyalash» masalasini ko'taradi. U musulmon va rus maktablarining ajralib turishi iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisobladi. [7, – B. 231.]

1884 yil may oyida Turkistonning yangi general-gubernatorligiga N.O.Rozenbax tayinlangandan so'ng, birinchi navbatda, rus muhojirlari bolalarining ta'limini tashkil etishniga harakat qilindi, islohatni mohiyati shundan iborat ediki, mahalliy aholining bolalari etarli darajada ma'lumotga ega emasligi, shuning uchun ularni gimnaziya, va boshqa o'quv yurtlarida o'qitishi takidlangan. Shu bilan bir qatorda, bu erda istiqomat qilib kelayotgan kazaklar va metropoliyadan kelgan boshqa muhojirlarning ham farzandlari uchun boshlang'ich maktablar tashkil etilishi kerak edi. Shu sababdan, o'quv dasturi ishlab chiqildi [5, – B. 166.]

General-gubernator Rozenbax, 1884-yilda toshkentda rus tuzum maktabini ochdi, maorif vakillari hisoblangan Ilminskiy va Delyanovning e'tirozlariga qaramay, 1884 yilda qozoq tilini o'qitish dasturidan chiqarib tashladi faqat mahalliy millat bolalari uchun o'zbek va tojik tillarida dars berish o'quv dasturida qoldi. Bundan tashqari, hokimiyat mustamlakachilik siyosati nuqtai nazaridan nomaqbul deb hisoblagan tatar o'qituvchilarini maktablardan, madrasalardan va Turkistonning qo'shma maktablaridan quvib chiqarila boshladilar. [5, – B. 169.]

Chor Rossiyasining ma'murlari aholini ruslashtirish, rus madaniyati va ilm fanini mahalliy aholining bolalariga o'rgatish maqsadida muhim vazifalar belgilab olgan bo'lib, o'lkada tashkil etilgan rus-tuzum maktablari uchun rus tilini o'qitish bo'yicha maorif tizimi amaldoridan S.M.Geramenitskiyning qo'llanmasi asosida quyidagi dasturlar ishlab chiqilgan:

1-yilda; o'quvchilarga kundalik ishlatiladigan so'zlarni og'zaki o'rgatishga etibor berilgan masalan inson tana a'zolarining rus tilida aytilishi, 10 gacha sanash, kiyim kechaklarni, uy anjomlarni, uy hayvonlarni, hafta kunlari kabi so'zlarni ruscha aytilishi o'rgatilgan bundan tashqari rus alifbosini o'rganish, og'zaki o'rganilgan ruscha so'zlarni ishlatgan holda o'qish va yozish mashqlari amalga oshirgan.

2-yilda; o'quvchilar o'rgangan ruscha so'zlar yordamida maqollarni o'qish, ma'nosini chiqarish, hikoyalar o'qish va yozish ko'nikmalari shakillantirilgan.

3-yilda; imlo qoidalarini o'rganish.

4-yilda; kengroq hikoyalar o'qish va qayta yozish, Rossiyaning qisqacha geografiyasi bilan tanishish, Turkistonning geografiyasi bilan batafsil tanishish, eng muhimi imlo qoidalariga amal qilgan holda kengroq mavzudagi dektant yozish kabi

vazifalarni bajarishgan. [3, – B. 6-7.]

Rozenbax general-gubernatorligi davrida o'lkaning mahaliy aholisini farzandlarini o'qitish sohasida mustamlakachilik hokimiyatining ruslashtirish va musulmonlarga qarshi amaliyotining haqiqatan ham jiddiy vositasi rus-tuzum maktablar edi. Dastlab rus muhojirlari va Markaziy Osiyo mahalliy millatiga mansub bolalar bilan rus kelgindilarining farzandlari bilan birga o'qitish uchun qo'shma maktab ta'limi rejasi, hududning birinchi general-gubernatori fon Kaufmanga tegishli edi. U bu masalani mahalliy aholini ruslashtirish, uning yosh avlodlarini barcha ruslarga sig'inish ruhida tarbiyalash, shuningdek, musulmon ta'lim muassasalari ta'sirini zaiflashtirishning eng muhim vositasi sifatida qaragan. Shuning uchun Kaufman davrida va uning tashabbusi bilan, madrasa bitiruvchilarini davlat xizmatiga qabul qilish taqiqlandi, hatto o'z farzandlarini rus maktabiga beradigan mahalliy aholining vakillarini moddiy rag'batlantirish va ko'chmanchi bolalar uchun bepul internatlar yaratish choralari ko'riq boshlandi. aholi, shuningdek, rossiyaparast mahalliy boylarning ko'magi bilan madrasada dunyoviy fanlarni o'qitish dastur qisqartirildi.

Bu davrda olib borilgan ta'lim sohasidagi islohatlar yani rus-tuzum maktablarining birdaniga mahalliy aholi tomonidan ijobiy qabul qilinmaganligini Turkiston xalq ta'limi tarixini tadqiqotchi K.E.Bendrikov to'g'ri qayd etgan. Uning yozishicha, "Turkiston xalqlarining rus maktablariga salbiy munosabatining asosiy sababi shu ediki, chorizmning mustamlakachilik zulmida, maktablarni rus tilida bolishi, rus maktabini ruhsiz amaldorlar boshqarganida, mahalliy xalqlarning milliy madaniyati amaldorlari tomonidan kamsitilganlikda..." deya ta'kidlaydi. [4, – B. 180-181.]

Haqiqatdan ham dastlabki o'n yil davomida rus-tuzem maktablariga aholining ko'pgina qismi ishonchsizlik bilan qarardi va ba'zi joylarda bunday maktablarga bolalami to'plash ishi juda ko'p qiyinchiliklar bilan o'tar edi. O'qituvchilar bunday tipdagi maktablarda ishlash uchun etarli tajribaga ega emas edilar. Yaxshi darsliklar ham yo'q edi. Rus tiliga o'rgatishda tarjima qilish metodi qo'llanilar, og'zaki nutq mashqlari kam o'tkazilardi [1, – B. 68.]

1881-yildan 1914-yilgacha hozirgi O'zbekiston hududida bor-yo'g'i 160 ta rus-tuzem maktabi (135 ta boshlang'ich maktab, 13 ta yuqori boshlang'ich va 12 ta o'rta maktab) ishlab turgan, ularda 18 ming bola o'qigan, shundan qariyb 5000 tasi mahalliy millatlarning bolalari bo'lganligi yuqoridagi fikrimiz dalilidir. [1, – B. 68.]

Chor Rossiyasi ma'murlarining Turkiston o'lkasida erli xalq vakillarini qorong'ilik zulmat va zabunlikda saqlashga qaratilgan mustamlakachilik va zo'rlik siyosatiga qaramasdan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida o'lkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolgan emas. Ammo ushbu masalada ham Sovet hokimiyati yillarida kommunistik mafkura ta'siri ostida manqurtlik va qullarcha tobelik dunyoqarashida shakllangan mahalliy olimlar o'z asarlarida chorizm davrida yuritilgan maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosatni ko'pirtirib maqtadilar.

Haqiqatni ko'ra olgan va o'lkaning tarixini yaxshi bilgan Chor hukumatining bir qancha amaldorlari va olimlari to'g'risini o'z qaydnomalarida, yurtimizning ilm- fan sohasida erishgan yutuqlariga to'g'ri baho bera olgan edi. Masalan tarixchi olim Pyotr Geronovich Kim o'zining "Uydirma va haqiqat" maqolasida o'zimizdan chiqqan

“olimlar”ga qonuniy savol bilan murojaat qilib: Xo‘sh, savodsiz xalq butun dunyo xalqlarining faxr-u iftixoriga aylangan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va Xivadagi Go‘ri Amir, Shohi Zinda, Bibixonim kabi koshonalarni va boshqa ko‘plab osori-atiqalami qanday qilib bunyod etgan ekan? Savodsiz xalq qay yo‘l bilan jahonga Ibn Sino, AI-Xorazmiy, Beruniy kabi olamga mashhur allomalarni etkazib herdi ekan? Savodsiz xalq Navoiy Ulug‘bek Forobiy, Jomiy va boshqa ko‘plab shoir-u fozillari bilan olamga dong taratganining siri nimada? Furqat, Muqimiy, A.Avloniy, M.Behbudiy kabi mioglab ma‘rifatparvarlari bo‘lgan xalqning savodsizligiga ishonish mumkinmi? [7, – B. 222.] deya takidlaydi.

Shuningdek mashhur rus olimlaridan akademik V.V.Bartold, A.D.Middendorf, sayyoh olim A.L.Fedchenko, sharqshunoslardan V.P.Nalivkin, A.L.Kun va boshqalar o‘lkadagi maorif taraqqiyotiga yuqori baho berganlar, xalqimizning madaniyatiga hayron qolganlar va uni olqishlaganlar. Darhaqiqat yurtimizda yashab ijod qilgan buyuk allomalarimiz, nafaqat o‘z davrida kiyengi davrlarda ham yaratgan ilmiy merosi o‘z qadrini zaracha yo‘qotgan emas.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva M., Asqarova O‘. Ta‘lim tarixi. “Marifat” nashriyoti – Toshkent, 2013.
kommunikatsiyaning o'zi yana kommunikatsiyaning yordamida aks ta'sir qilishga ega bo'lgan birlikdir⁶².

Yuqoridagi keltirilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki, axborot texnologiyalarni rivojlantirish demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bulardan xulosa shuki, jamiyatda nafaqat kommunikatsiyalar, balki axborot kommunikatsiyalari ham bir tomondan demokratik fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro aloqalarini, ikkinchi tomondan, davlat organlari bilan jamiyat institutlari o'zaro munosabatlarni rivojlantirish omili ekanligi o'z isbotini topdi.

O'zbekiston davlati AKT sohasini jadallik bilan rivojlantirish maqsadida "LG CNS" (Koreya), "Veon" (Niderlandiya), "Telia company" (Shvetsiya), "Atlas International" (Germaniya), "Kurt Mitterfellner GMBH" (Germaniya), "Kurt Mitterfellner Asia Ltd" (Singapur), "Fingascom AG" (Shveysariya) kompaniyalari bilan yaqin hamkorlik qilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va uni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida mamlakatda istiqbolda AKT sohasida quyidagilar strategik maqsadlar sifatida belgilangan:

— Telekommunikatsiya infratuzilmalarini modernizatsiyalash, jumladan, Internet tarmog'iga kirish ko'lamini kengaytirish, jumladan, telefon aloqalari, televidenie va radio eshittirishlarni to'liq ravishda raqamli tizimga o'tkazishni ta'minlash;

— "Elektron hukumat"ni joriy etish bo'yicha davlat dasturini amalga oshirish;

— Internet tarmoqlarida milliy segmentni shakllanishi jarayonini yanada oshirish;

— Sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, ta'lim, kommunal xizmat, turizm sohalariga zamonaviy axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar bazasini joriy etish;

— Toshkent shahrida "Aqlli shahar" texnologiyalarini yaratish maqsadida "Aqlli hisoblagich" va "Aqlli transport" va "Aqlli meditsina" yo'nalishlariga oid loyihalarni amalga oshirish;

— 2020 yilgacha "raqamli iqtisodiyot"ga o'tish, "blokcheyn" texnologiyalarini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, 2021 yil 1 yanvardan boshlab "blokcheyn" texnologiyasini joriy etish va boshqalar.

Lekin, shu bilan birga, jamiyat va davlat hayotida OAV xali fuqarolik jamiyatining instituti sifatida o'zini to'liq namoyon qila olgani yo'q. 2020 yil may oyida bir guruh rusiyabon madaniyat xodimlari rus tiliga davlat maqomini berishni ko'tarib chiqqanlarida rasmiy OAV ularga nisbatan o'zlarini prinsiaal pozitsiyalarini namoyish qila olmadi. Milliy TVda ham shu kabi ahvol aniq sezildi.

Shuningdek, Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori Sherzod Tojiddinovich Quadratxo'jayevning O'zbekistonda yashab turib shu yut tilini

⁶² Луман Н. Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский.-М:Логос.2004.- С. 88-94

bilmaslik to‘g‘risidagi intervyusi ortidan kelib chiqqan Rossiyaning bunga bergan e’tiroziga ham yurtimizdagi mutasaddilardan hech qanday rasmiy bayonot yangramadi.

Muhim muammo shuki, gazetalarimiz o‘quvchilari va muxlislari yildan-yilga kamayib bormoqda. Aksariyat jurnallarda insonning ma’naviy rivojlanishi va fuqarolik jamiyati g‘oyalarning yoshlarga ta’siriga doir maqolalarni topish amri mahol. Radio kanallarimiz o‘zlarining millionlab tinglovchilarini yo‘qotib qo‘ydi. Umuman, olganda bu sohada muammolar to‘planib yotibdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatda OAV vositalarini va boshqa axborot kommunikatsiyalarini rivojlantirish davlat boshqaruv tizimida ma’muriy islohotlarni amalga oshirish islohotlarining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shunday ekan, OAV davlat nazoratida bo‘lishi maqsadga muvofiq sababi turli chet davlatlaridan moliyalashtirilayotgan povakatsion axborotlarning tarqalishiga chek qo‘yiladi. Ammo, davlat nazoratida bo‘lishi uning senzura bilan taqib etilishi demokratik fuqarolik jamiyati prinsplariga ziddir. OAV vositalarini esa yoshlar ma’naviy dunyoqarashiga kuchli ta’sir eta oladigan omilga aylanishi kutilmoqda. Shuning uchun ham bu sohada jiddiy o‘zgarishlar qilish, yangilangan O‘zbekiston OAVni rivojlantirish faqat jurnalistlarning emas, balki barcha jamiyat a’zolarining vatanparvarlik burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 йил 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son farmoni// <https://lex.uz/uz/docs/5841063#undefined>
2. Sherzodxon Qudratxo‘ja. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda axborot kommunikatsiyalarining roli. Siyosiy fanlar sohasida tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.– T.: “Complex Print”. –B.5.
3. Луман Н.Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский.-М:Логос.2004.– С.88-94
4. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. “Oilada bolalarni tarbiyalashda sog‘lom muhitni shakllantirishning estetik xususiyatlari”. *JournalNX* 6.04 (2020): 88-90.
5. Жўраев, Лукмон. "ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ ХУЎҚ-АТВОРИДА ТРАНСФОРМАЦИЯ." *Journal of Social Sciences* 1.02 (2022): 51-55.
6. Джурев, Л. Н. "ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ." *НАУКА И СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ*. 2020.
7. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO‘YICHA* (2023): 32.
8. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g‘oya. "O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, “Cho‘lpon* (2018).
9. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.

JISMONIY TARBIYA DARSIDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI.

Abdullayev Dilshod Xamudullo o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, O‘zbekiston

Xidirboyev Dilshod Kamol o‘g‘li.

Jizzax davlat pedagogika universiteti,

G‘allaorol xizmat ko‘rsatish va servis Texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Zamonaviy talim muassasida talim jarayoni ko‘p qirrali va murakkab faoliyatdir. Jamiyatimiz o‘qituvchilarning elkasiga, yosh avlodni millatimiz milliy boyligini saqlash va ko‘paytirish, milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda jismoniy tarbiyalash, shaxsni ijtimoiy va manaviy yo‘naltirish kabi dolzarb masalalarni qo‘ygan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, klaster, interfaol, o‘qituvchi-o‘quvchi, pedagogika, tibbiyot, madaniyat, san‘at – rassomchilik, qurilish.

Annotation: The learning process in a modern educational institution is a multifaceted and complex activity. Our society has placed on the shoulders of teachers such important issues as the preservation and reproduction of the national wealth of our nation, physical education based on our national values, social and spiritual orientation of the individual.

Key words: Physical education, cluster, interactive, teacher-student, pedagogy, medicine, culture, art - painting, construction.

Zamonaviy ta‘lim muassasida ta‘lim jarayoni ko‘p qirrali va murakkab faoliyatdir. Jamiyatimiz o‘qituvchilarning elkasiga, yosh avlodni millatimiz milliy boyligini saqlash va ko‘paytirish, milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda jismoniy tarbiyalash, shaxsni ijtimoiy va manaviy yo‘naltirish kabi dolzarb masalalarni qo‘ygan. Ma‘lumki viloyatlar markazlari va boshqa shahar hamda tumanlarda kasb-hunar kollejlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning tarkibida pedagogika, tibbiyot, madaniyat, san‘at – rassomchilik, qurilish va boshqa turli soxalar keng o‘rinni egallaydi. Ularda umumtalim davlat talim standartlari asosida “Jismoniy tarbiya” darslari o‘tilmoqda. Jismoniy madaniyat o‘qituvchi tashkilotchi, gapga usta, taxlil qiluvchi, adabiy, og‘zaki va yozma tiliga, psixolog bo‘lishi, pedagogik jarayon va tarbiyani qat’iy mantiqiga ega bo‘lishi kerak. Shu xususiyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘la oladi, o‘qitishning sifatini oshira oladi. Talim sifatini oshirishda o‘quv jarayonini tashkil qilish va o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarining samarasining axamiyati katta qo‘yilgan masalalarni echishda o‘quvchilar bilan interfaol muloqot yordam beradi.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to‘g‘risida"gi qonunida "O‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi texnologiyalarini, ta‘limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish" asosiy masalalardan biri ekanligi ta‘kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aytganidek "Xozirgi

keskin raqobat sharoitida innovatsion texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish iktidorli yoshlarning ilmiy faoliyatiga keng jalb etish, o'z ijodi va intellektual saloxiyati ro'yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Ushbu masalani bajarishda o'quvchi yoshlarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'quvchi erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.

Tadqiqotchilarning fikricha pedagogik texnologiyalar – bu axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan turli xil texnikaviy vositalardan foydalanish deb isbotlashgan. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natija hamkorlikka erishish uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlasa, izlansalar, tahlil eta olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o'qitish jarayoning asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyixalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. [1]

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari va yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan kasb-hunar kollejlarda ko'prok, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, didaktik o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyixalash metodi kabilari qo'llaniladi. Kasb-hunar kolleji pedagogik kengashlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish o'tkazishga zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida belgilangan maqsad va vazifalarga mos keladigan ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Bulardan "Klaster" (tarmoklash) metodlari turli mavzularda ko'proq ishlashtirilib turlicha talqin etiladi. "Klaster" usulining turli mavzularga moslashtirilgan xolda qo'llanilish shakllari klaster-chambarak, klaster-oval, klaster-yulduzcha, klaster-uzum shodasi va shu kabilardan iborat. [3]

"Klaster" bu interfaol usul xisoblanib, pedagogik-didaktik strategiyaning muayyan shaklidan iborat. U tarbiyalanuvchilarda fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi. Unda aniq bir ob'ekt tallanib ob'ektning turli qirralari ochib beriladi va albatta, tarbiyalanuvchilarni psixik protsesslarning rivojlanishiga yordam beradi. Bunda o'quvchilarning ko'rishi, sezgisi, xayol tezligi, nutqi va, albatta, tafakkuri rivojlanadi. O'quvchini xayol kilishga, o'ylashga, tasavvur qilishga, eng asosiysi esa (hatomi, to'g'rimi) fikrlashga xarakat qiladilar. Bunday mashg'ulotlarda ishtirokchi tarbiyachilarni kichik guruxlarga ajratiladi yoki yakka tartibda topshiriqlar beriladi. Berilgan topshiriq - mavzulari yoki muammolarning echimlarini topish uchun ularni mashg'ulot raxbari bilan xamkorlikda pedagogik va psixologik nuqtai nazarlardan tahlil etib, xulosalar umumlashtiriladi.

Kasb-hunar kollejlarning jismoniy tarbiya darslarida engil atletika fan turidan

interfaol mashg'ulotlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.[2]

Yengil atletikaning qisqa masofaga va marafoncha yugurishlarning farqlari va o'xshash jihatlarini ven diagrammasi orqali solishtirish

O'quvchilar bir-biriga o'xshash sport turlarini taraflari va asosiy farqlarini topadilar, ularning asosiy belgi va farqlarini o'yin orqali bilib oladilar, ularda mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi.

Shunday usullar kasb-hunar kolleji o'quvchilari bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda qo'llash, ijodiy fikrlashga, bilim, ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qudratov R.Q. Yengil atletika// Darslik. T., O'zDJTI, 2011.367 b.
2. Shokirjonova K.T. Yengil atletikada boshqaruv va pedagogik nazorat. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2009. 58 bet.
3. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika ilmiy tadqiqot instituti. "Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish: muammolari va echimlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya to'plami. T.2014y.
4. Amonov R.S. Texnosfera-qonuniyatli jarayon sifatida // International scientific-online conference on Innovation in the modern education system. Part 4 issue1 march 2021 colletions of scientific works.-Washington, USA 25^{ht} March 2021 –P.541-547.
5. Ro'zimurodov, Siroj Madatovich. "Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning etnomadaniy, etnoestetik jihatlari". *Amerika ijtimoiy fanlar va ta'lim innovatsiyalari jurnali* 3.05 (2021): 188-194.
6. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. "Oilada bolalarni tarbiyalashda sog'lom muhitni shakllantirishning estetik xususiyatlari". *JournalNX* 6.04 (2020): 88-90.
7. Джураев, Л. Н. "Инновационный подход к повышению экономической активности молодежи." *Наука и современное общество: актуальные вопросы, достижения и инновации*. 2020.

YOSHLARNI PRIMITIV AXBOROT URUSHLARIDAN HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Xo'janova Tamara Jo'raevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n. (PhD),

e-mail: tamaraxujanova7@gmail.com

tel: (90)- 996-06-20

Annotatsiya. Maqolada qadimgi davrlardagi axborot urushlari, ularning asosiy manbalari, yoshlarni primitiv axborot urushlaridan himoya qilish mexanizmlari haqida ma'lumot berildi. Har bir davr va hududga xos bo'lgan axborot urushlari usullari har xil madaniyatlar tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat o'sha davr hayoti va qarashlarini aks ettiradi, balki bizga hozirgi davr axborot urushlarini yaxshiroq tushunishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar: axborot urushlari, siyosiy targ‘ibot, dezinformatsiya usuli, yozma manbalar, she’riyat va san’at, vosita, usul, mexanizm.

Abstract. The article reveals information about information wars in ancient times, their main sources and mechanisms for protecting youth from primitive information wars. When studying the history of different cultures, information warfare methods specific to each period and region are of great importance. They not only reflect the life and attitudes of that time, but also help us better understand the information wars of today.

Keywords: information wars, political propaganda, disinformation method, written sources, poetry and art, tool, method, mechanism.

Qadimgi davrlarda axborot urushlari sifatida tarixiy manbalarda ko‘rsatilgan usullar ko‘p hollarda og‘zaki an’analar, miflar, diniy hikoyalar va turli xil rivoyatlarni o‘z ichiga olgan. Masalan, Eron tarixida ishonchli bo‘lmagan manbalarda Ahamoniylar saltanati davridagi mag‘lub dushmanlar haqidagi mubolag‘ali hikoyalar mashhur bo‘lgan. Bu kabi miflar, Ahamoniylar davlatining kuchi va hukmronligini ulug‘lash uchun ishlatilgan [1, 112-118-bb.].

Rim imperiyasi davrida ham axborot urushlari, ayniqsa, siyosiy propaganda shaklida namoyon bo‘lgan. Imperator Avgustning hukmronligi davrida raqiblarini obro‘sizlantirish va o‘z siyosiy kuchini mustahkamlash maqsadida she’rlar va monumental inshootlar orqali muayyan imidj yaratish ishlari amalga oshirilgan [2, 245-251-bb.]. Shuningdek, qadimgi Misrda fir’avnlarning haqida tarqatilgan ilohiylik da’volari va ko‘rsatilgan keramatlar ham axborot urushlarining bir ko‘rinishi bo‘lgan. Fir’avnlarning xudolar bilan bevosita aloqada ekanligi haqidagi tushunchalar, ularning ma’naviy va siyosiy hokimiyatini mustahkamlash uchun ishlatilgan [3, 191-199-bb.]. Axborot urushlarida dezinformatsiya usuli asosan dushmanlarning harakatlarini noto‘g‘ri baholashga yoki ularning rejalarini chalkashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu usul qadimgi davrlarda ham, zamonaviy davrlarda ham ko‘p kuzatilgan [1, 157-162-bb.].

Qadimgi davrlarda axborot urushlari asosan yozma manbalar, she’riyat va san’at kabi vositalar orqali yuzaga kelgan. Ushbu mavzu yuzasidan tayyorlangan ilmiy matnda turli davlat olimlarining tadqiqotlariga tayangan holda, ularning asarlari va nashr etilgan sahifalari bilan birga quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz: Qadimgi davrlarda axborot urushlari, asosan, yozma manbalar orqali olib borilgan. She’riyat, mifologiya, san’at asarlari va hatto me’moriy inshootlar, axborotni tarqatish va jamoat fikrini shakllantirish uchun ishlatilgan. Masalan, Bretaning Universiteti professori Sara Potts o‘zining «Axborot Urushlarining Boshlanishi: Qadimgi Yunoniston misolida» (2019) nomli asarida, qadimgi yunon mifologiyasi va eposlarida dushman davlatlarni obro‘sizlantirish va o‘z hukmdorlarini ulug‘lash maqsadida qanday qilib axborotdan foydalanilganini ko‘rsatib bergan. Uning asarida ta’kidlanishicha, «Axillesning Qahramonliklari» kabi eposlar davlatlararo munosabatlarda katta rol o‘ynagan.

Shuningdek, professor Maykl Terner tomonidan «San’at orqali Da’vat: Rim Imperiyasi va Axborot Urushlari» (2021) nomli tadqiqotda, Rim imperatorlari o‘z

tasvirlarini tangalar va haykallarda qanday qilib ishlatgani va bu san'at asarlari orqali qanday siyosiy va harbiy xabarlarni tarqatgani batafsil yoritilgan.

Erta Xitoyda axborot urushlari ham mavjud bo'lib, bu haqda professor Li CHenning «Erta Xitoy Mifologiyasi va Axborot Urushlari» (2018) nomli ishini misol keltirish mumkin. Unda Chen, Xitoy mifologiyasi va qadimgi yozmalarida raqiblarning reputatsiyasini buzish va o'z hukmdorlarini maqtash uchun qanday mifologik hikoyalar qo'llanganini tahlil qiladi.

Har bir olimning tadqiqoti, qadimgi davrlarda axborot urushlarining qanday amalga oshirilgani va ularning jamiyatga ta'sirini chuqur tushunishga yordam beradi. Bu kabi tadqiqotlar o'tmishdagi axborot texnikalarini va ularning zamonaviy dunyodagi analoglari bilan taqqoslash imkonini beradi.

Qadimgi davrlarda aholi orasida qo'rqitish va vahima keltirib chiqarish uchun foydalanilgan axborot texnikalari o'ta xilma-xil va maqsadga muvofiq bo'lgan. Ayniqsa, siyosiy va diniy hokimiyatlar tomonidan, hukmdorlarning o'zlarining maqomini mustahkamlash yoki dushmani kamsitish maqsadida tez-tez qo'llanilgan. Misol uchun, taniqli qadimgi Yunon tarixchisi Herodot o'zining «Tarix» asarida (mil. av. 5-asr) qanday qilib hukmdorlar va davlat arboblarning dushmanlari haqida yolg'on xabarlar tarqatish orqali ularni qo'rqitish va o'zlarining siyosiy rejalarini amalga oshirishga harakat qilishlarini batafsil bayon qilgan. Uning ta'kidlashicha, ayniqsa Persiya imperiyasi bu usullarni keng qo'llagan. Bu kabi xabarlarning asosiy maqsadi dushman qo'shinlarini ruhan tushkunlikka tushirish va ularning harbiy qobiliyatlarini susaytirish bo'lgan.

Bundan tashqari, qadimgi Rimda ham axborot texnikalaridan keng foydalanilgan. Polibiyning «Umumiy Tarix» asarida (mil. av. 2-asr) qayd etilishicha, Rim siyosatchilari aholi orasida qo'llaniladigan axborot texnikalarini mohirlik bilan boshqarishgan. Ular jamoatchilik fikrini o'zlarining maqsadlari yo'lida yo'naltirish uchun axborotni buzib ko'rsatish, yolg'on gaplar tarqatish va hatto teatrlar orqali siyosiy propaganda olib borishni ham mahorat bilan amalga oshirganlar.

Qadimgi Misrda esa fir'avnlr va ruhoniylar jamoatchilik orasida qo'rqitish va vahima keltirib chiqarish maqsadida ruhiy bosim texnikalaridan foydalanishgan. Fir'avnlr o'zlarining xudo sifatidagi tasvirini mustahkamlash uchun aholi orasida o'zlarining ilohiy kuch va qudratlari haqida hikoyatlar tarqatishgan. Bu hikoyatlar ko'pincha diniy matnlarda, ayniqsa «O'liklar Kitobi» (mil. av. 1550-50 yillar) kabi asarlarda o'z aksini topgan. Qadimgi davrlarda axborot texnikalarining asosiy maqsadi jamoatchilik fikrini yo'naltirish va ma'lum bir guruh yoki hokimiyatni qo'llab-quvvatlash yoki uni pasaytirish bo'lgan. Bularning barchasi zamonaviy axborot urushlarining erta namunalarini tashkil etgan va bu jarayonlar tarixiy manbalar orqali o'rganib chiqilgan.

Globalashuv jarayoni va ma'naviy tahdidlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri, globalashuv va XXI asr yoshlarining har qanday axborot urushlariga qarshi mafkuraviy immunitetni hosil qilish masalalari G.K.Masharipova [5, 37-41-bb.; 6, 339-340-bb.] va T.J.Xo'janova [7, 169-173-bb.; 8, 256 b.] tomonidan ayrim qismlari o'rganilgan. Qadimgi davrda axborot urushlari diniy, siyosiy yoki harbiy maqsadlar uchun ishlatilishi ko'plab tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Bu

jarayonlar har bir sivilizatsiya va davrning o'ziga xos siyosiy, diniy va madaniy muhitiga bog'liq. Misol uchun, Qadimgi Misrda fir'avnlarning o'z hukmdorliklarini mustahkamlash uchun ma'lumotlarni tahrir qilish va tarqatish orqali jamoatchilik fikrini boshqarishga uringanlar. Yunon madaniyatida ham axborot urushlari keng qo'llangan. Termopil jangi vaqtida, Sparta qo'mondoni Leonidas o'z qo'shinlarini rag'batlantirish va dushmani chalg'itish uchun strategik axborotlardan foydalangan. Bu haqda Gerodotning «Tarix» kitobida keng muhokama qilingan [9, 201-b.].

Rim imperiyasi davrida siyosiy raqiblarni qoralash va jamoatchilik fikrini boshqarish uchun ham axborot urushlaridan foydalanilgan. Sitseronning Katilina ustidan yuritgan ma'ruzalari (Cicero, «In Catilinam», I-IV) bunga misoldir. Sitseron o'z nutqlarida Katilinani davlatga qarshi fitna qurganlikda ayblagan va uni omma oldida obro'sizlantirgan.

Islomiy xalifalik davrida ham ma'lumotlar tarqatish va manipulyatsiya qilish strategiyalari qo'llanilgan. Muhammad ibn Qasimning Sind hududlarini fath qilish kampaniyalarida mahalliy aholini islomga da'vat qilish va ularni islomiy hokimiyatga moyil qilish maqsadida axborotdan foydalanilgan [10, 112-118-bb.].

Xulosa. Yoshlarni primitiv axborot urushlaridan himoya qilish va ularda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarm ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Lendering J. Empire of Lies: The Achaemenid Propaganda. - 2005, pp. 112-118.
2. Syme R. The Roman Revolution. - 1939, pp. 245-251.
3. Hornung E. Conceptions of God in Ancient Egypt: The One and the Many. 1971, pp. 191-199.
4. Schwartz S.R. The Ancient Art of Psychological Warfare. - 2018, pp. 157-162.
5. Masharipova G.K. Globallashuv jarayoni va ma'naviy tahdidlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri. // "Sog'lom avlod tarbiyasida ma'naviyatning o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent, 2014. - 37-41-bb.
6. Masharipova G.K. Globallashuv va XXI asr yoshlari // "Globallashuv va milliy-ma'naviy taraqqiyot tendentsiyalari" Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi mavzusidagi ma'ruzalar to'plami. (2015 yil 23 may) – Toshkent, 2015. - 339-340-bb.
7. Xo'janova T. Axborotlashgan jamiyat va uning mafkuraviy texnologiyalarini OAV tizimidagi to'g'ri foydalanishning yosh avlodni g'oyaviy himoyalashdagi ma'no-mazmuni va ahamiyati. - O'zMU xabarlar. 2022 1/8. – 169-173-bb.
8. Xo'janova T. Mafkuraviy profilaktika – yosh avlodni g'oyaviy himoyalash omili (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Monografiya. – Toshkent, «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. – 256 b.
9. Геродот, История, Том 7. – Москва, Издательство, АСТ, 2021, 832 б..
10. Элисон М.Вакка. Al-Baladuri, Futuh al-buldan. https://doi.org/10.1163/9789004527836_003. 20-46-66.

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING ROLI

Shamsiyev Sardor Aslidinovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

email: ssamsiev53@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ichki ishlar xodimlarida divergent-kreativ tafakkurni shakllantirishda ta'limning ahamiyati falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida ichki ishlar xodimlarining divergent-kreativ tafakkurni shakllantirish mexanizmlari tasniflab berilgan.

Kalit soʻzlar: ta'lim, ichki ishlar xodimlari, divergent-kreativ tafakkur, tafakkur, tajriba, kreativlik.

THE ROLE OF EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN EMPLOYEES OF THE INTERIOR

Abstract

This article is a philosophical analysis of the importance of education in the formation of divergent-creative thinking in the staff of internal affairs. Also, in the educational process, the mechanisms of the formation of divergent-creative thinking of employees of the internal affairs are classified.

Key words: education, internal affairs staff, divergent-creative thinking, thinking, experience, creativity.

Respublikamizda ichki ishlar organlari xodimlarining divergent-kreativ tafakkurining mezonlari, zamonaviy xususiyatlari, uni yuksaltirish tizimi va rivojlanish dinamikasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishda ta'lim konstruktiv ahamiyatga ega. Xususan, 2021 yil 15 apreldagi PQ-5076-son “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” [1] qarorlarida o'z ifodasini topgan.

Shavkat Mirziyoyev asarlaridagi ichki ishlar xodimlarining ijodiy-intellektual tafkkurunii yuksaltirish zarurati to'g'risidagi g'oyalar nazariy jihatdan dolzarbligini ko'rsatadi [2.464]

Ta'lim ichki ishlar xodimlarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Divergent-kreativ fikrlash elementlarini o'z ichiga olgan ta'lim dasturlari xodimlarning kasbiy vakolatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ichki ishlar organlarida o'qitish nafaqat an'anaviy usullarni o'z ichiga olishi, balki ijodiy fikrlashni va nostandart echimlarni izlashni rag'batlantirishi muhimdir.

Kreativ tafakkur – jamiyatlar taraqqiyotining industrial, ilmiy-texnik inqiloblar va keskin o'sish, olg'a ketish davrida shakllangan hamda zamonaviy jamiyatdagi texnik taraqqiyotning yangi bosqichlarini insoniy zaxiralar bilan boyitishga xizmat qiladigan noan'anaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta'minlashga yo'naltirilgan tafakkur hisoblanadi. [3.114]

Kreativ fikrlash ichki ishlar xodimlarining ishida muhim rol o'ynaydi, chunki ular ko'pincha muammolarni hal qilishda o'ziga xos va innovatsion yondashuvlarni talab qiladigan nostandart vaziyatlarga duch kelishadi.

Ichki ishlar organi xodimining o'z bilim va tajribasi, ijodiy qobiliyatini kasbiy faoliyatga to'liq safarbar qilishi, umumiy mas'uliyat, missiya, imidj tuyg'usini rivojlantirishi, bu tizimning markazlashtiruvchi kuchi va hamjihatligini oshirishda intellektual madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, fidoyilik, bilimdonlik, donolik, jasorat, fidoyilik, fikrlash usullari, xulq-atvor, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, hayotiy qadriyatlar va psixologik xususiyatlar bu tizim intellektual madaniyatini yuksaltirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi [4.21].

Ta'limning ichki ishlar xodimlarida kreativ fikrlashni shakllantirishdagi mexanizmlar:

1. Kreativ fikrlashni rag'batlantirish.
2. Muammoga yo'naltirilgan ta'lim.
3. Nostandart vaziyatlarni hal qilish bo'yicha trening.
4. Aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish.
5. Texnologiyadan foydalanish.
6. O'z-o'zini tarbiyalashni rag'batlantirish.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy ta'limning roli muhimdir. Ta'lim kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan turli xil o'qitish usullarini o'z ichiga oladi, masalan, san'at, adabiyot, musiqa va dizayn bo'yicha o'qitish.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda muammoga yo'naltirilgan ta'lim ijobiy ahamiyatga ega. Ta'lim dasturlari ichki ishlar xodimlaridan o'z ishlarida duch keladigan muammolar va vaziyatlarni hal qilishda kreativ yondashuvlarni qo'llashni talab qiladigan vazifalar va loyihalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Kreativlik (ijodkorlik) - insonning yangi g'oyalar, muqobillar, yechimlar va imkoniyatlarni noyob va boshqacha tarzda yaratish qobiliyatidir. [5.113]

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda nostandart vaziyatlarni hal qilish bo'yicha treninglar muhimdir. Ta'lim ichki ishlar xodimlarini murakkab vaziyatlarni tahlil qilishga, nostandart echimlarni topishga va jinoyatlarni tergov qilish, jinoyatlarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlash kabi turli xil faoliyat sohalarida kreativ ish usullarini qo'llashga o'rgatishi mumkin. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish va nostandart echimlarni topish bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazish ichki ishlar xodimlariga vaziyatlarni turli nuqtai nazardan ko'rishni o'rganishga va ularni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni topishga yordam beradi.

Kreativ fikrlashni shakllantirishda aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Ta'lim muammolarni hal qilish va xavfsizlikni ta'minlashda hamkasblar, jamiyat va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda texnologiyadan foydalanish istiqbolli ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar va vositalardan foydalangan holda o'qitish ichki ishlar xodimlari uchun kreativ fikrlashni rag'batlantirishi mumkin, bu ularga muammolarni hal qilish uchun yangi texnika va resurslardan foydalanishga imkon beradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda o'z-o'zini tarbiyalashni rag'batlantirish

muhimdir. Ta'lim o'z-o'zini tarbiyalash elementlarini o'z ichiga olishi kerak, bu ichki ishlar xodimlariga butun faoliyati davomida o'z ko'nikmalari va bilimlarini rivojlantirishni davom ettirishga imkon beradi, bu esa ularning kreativ fikrlashiga yordam beradi.

Umuman olganda, ta'lim ichki ishlar xodimlarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, ularga o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga va kasbiy faoliyatida duch keladigan turli xil muammolar va muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida". Lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B. 464.
3. Sultanova G.S. Ta'lim jarayonida kreativ tafakkurning ahamiyati // Berdaq nomidagi qoraqalpoq Davlat Universitetining Axborotnomasi. 3 son. – Nukus, 2020. - B.113-116.
3. Turaev A.R. O'zbekistonda ichki ishlar xodimlarining intellektual madaniyatini yuksaltirish omillari // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2022. - B. 21.
4. Sultanova G.S. Innovative thinking and heuristics // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (4), India, 2020. - P. 568-574.

YOSH AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA ASOSIY MEZONLARI

Xamroyeva Muslima Odilovna

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni hamda turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan immunitetini shakllantirishning asosiy mezon ekanligi tahlil etilgan. Shuningdek, bugungi kunda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan qarshi tura olish, uning ta'siriga tushib qolmaslik, uning o'rniga ekvivalent sifatida boshqa bir g'oyalarni olish orqali qarshi turish kabi fikrlarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, milliy qadriyat, yosh avlod, yot g'oya, mafkuraviy tahdidlar, immunitet, mafkura.

THE ROLE AND MAIN CRITERIA OF NATIONAL VALUES IN THE FORMATION OF IMMUNITY OF THE YOUNGER GENERATION TO IDEOLOGICAL THREATS

Annotation: This article analyzes the role of national values in youth education and the main criterion for the formation of immunity to various ideological threats. There is also a focus on today's views such as being able to resist foreign ideas and

ideologies, not falling under its influence, instead resisting by taking other ideas as equivalents.

Keywords: qadriyat, milliy qadriyat, yosh avlod, yot g‘oya, mafkuraviy tahdidlar, immunitet, mafkura.

Bugungi kunda yosh avlodni turli yod g‘oya va mafkuralarning buzg‘unchi kuchlar tomonidan yurtimiz yoshlari ongiga singdirishga bo‘lgan urinishlari ko‘paymoqda. Buning asosiy sababi esa, bizga ma’lumki qurolli kuch bilan bir davlatni bosib olgandan ko‘ra uni mafkuraviy yo‘q qilish oson va havfsiz bo‘lib qolmoqda. Bunga qarshi yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali yurtimizga ko‘z tikkan g‘alamislarga nisbatan yosh avlodni milliy mafkura hamda qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali bunga erishishimiz mumkindir.

Bunga quyidagi davlat dasturlari hamda qonun, qonun osti hujjatlarini keltirishimiz mumkin. Muhtaram yutboshimiz tomonidan ilgari surilgan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[1]gi farmoni, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2] gi qarori hamda “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”[3]gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari yurtimizda milliy qadriyatlarga qaratilgan e’tiborning natijasidir.

Milliylik deganda biz, ma’lum bir millatga mansublikni hamda o‘sha millatning urf-odat, an’analariga hamda qadriyatlariga mansubligini tushunamiz.

Qadriyat esa “qadr” so‘zidan olinganini aytishimiz mumkindir. Ya’ni qadr deganda biz inson uchun bahosi hech bir narsa bilan o‘lchanmaydigan bebaho predmet sifatida qaraladi. Ammo, insonning xotiralarida o‘chmas iz bo‘lib qolgan esdaliklar, fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar va shunga o‘xshash bo‘lgan ongiy tuyg‘ularni ham biz qadriyat sifatida qabul qilamiz.

Demak, milliy qadriyatlar ma’lum bir millat, elat va xalqqa mansub bo‘lgan kishilargagina qadr bera oladigan hamda ulargagina qadri bo‘lgan narsa va hodisalargina milliy qadriyatlar deyiladi.

Immunitet so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak u lotinchadan olingan bo‘lib, immunitas, immunitatus so‘zlaridan olingan bo‘lib qutulish xalos bo‘lish degan ma’nolarni anglatadi. “Umuman olganda imunitet tabiati bo‘yicha uchga bo‘linadi ularga 1-Filogenetik. 2-Tug‘ma. 3-Ortirilgan imunitet”[4:516], turlari mavjud deya tarigflaydi. Demak, biz yuqorida sanab o‘tilgan immunitet turlaridan faqatgina ortirilgan immunitet turiga tayangan xolda tahlil qilamiz.

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqqan xolda, maqolamizning asosiy mazmuni bo‘lmish yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, mafkuraviy tahdidlarga qarshi imunitetni shaklantirishning asosiy faktori bo‘lib xizmat qiladi. Sababi, asrlar davomida shaklangan hamda tarix silsilasiga bardosh beraolgan g‘oyalar mushtarakligini o‘zida jamlagan qadriyatlarimizni ajdodlardan avlodlarga bekamiko‘st yetkazish orqaligina biz o‘ylagan maqsadimizga yetishamiz. “Kitobni aziz deb bilish, uni avaylab–asrash muqaddas qadriyatlarimizdan biridir. Ajdodlardan avlodlarga ko‘chib, yana sayqal topib borayotgan bu qutlug‘ qadriyat odamlarda kitobga, kitobxonlikka bo‘lgan mehr –muhabbatning mustahkam bo‘lishiga puxta zamin yaratib kelmoqda. Xususan, ommaviy kitobxonlikka xalqimiz asrlar davomida qadriyat darajasida qarab kelgan”[5:424].

O‘zbek xalqining qadriyatlari asosan insonparvar, xalqsevar hamda o‘zaro hurmat va izzat ustiga qurilgan desak hech mubolag‘a bo‘lmaymiz. Sababi, milliy qadriyatlarimiz asosan islom dini negizida qurilgan bo‘lib, unda oddiylikdan tortib eng mukammal masalalarga ham birdek odiy yechimlarni taqdim etadi. Misol uchun insonning qadri uning obro‘-e‘tibori bilan emas, aksincha uning g‘ozal xulqi, odobi bilandir deyiladi. Shuningdek, insonni jamiyatdagi mavqeyi uning qadri bilan belgilanish alohida e‘tiborga loyiqdir.

Yoshlarga har bir muvafaqqiyat ortida mehnat yotganligini, unga hech kim shunchaki erishmaganligini uqtirishda oddiygina bo‘lib ko‘ringan maqollar, hikmatli so‘zlar va hatto hadisi shaiflar orqali tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Olisga bormaylik, shunchaki hayotdagi oddiygina elementar bo‘lgan salomlashish odobining o‘zidayoq qanchadan-qancha hikmat mavjudligini tahlil qilaylik. Salomlashishda inson yosh chegarasi orqali kattaga hurmat kichikka izzatda bo‘lish o‘rgatiladi. Bu esa, jamiyatda har bir inson o‘zidan ulug‘ bo‘lgan kishiga nisbatan o‘zaro hurmatni saqlamog‘i lozimligidan nishonadir. Bunda biz mafkuraviy tahdidlarga nisbatan yosh avlodda imunitetni shakllantirishimizda ota bobolarimizda qolib kelayotgan har bir o‘gitning mag‘zini chaqishligi kerakligini har bir kishi bilmog‘i hamda o‘rgatmog‘i lozimdir.

Bu o‘rinda biz avvalombor yoshlarga ta‘lim berishdan avval birinchi navbatda tarbiya berishimiz darkor. Bunda tarbiyani berishda birlamchi manba bo‘lib oila turmog‘i kerak. Sababi, inson dunyoga kelishi hattoki undanda oldin tarbiyani oilada qabul qiladi. “Bu borada, xalqimizda kitobxonlik borasidagi ma‘naviy qadriyatlarimiz zamonlar osha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Shu o‘rinda, shoh va shoir Z.M.Boburning farzand tarbiyasi, kitobsevarligi xususida bitilgan hayotiy o‘gitlariga to‘xtalib o‘tamiz. Bizga ma‘lumki, Z.M.Bobur qalbini to‘ldirgan otalik tuyg‘usi bitilgan “Mubayyin” nomli she‘riy kitobini Humoyunga taqdim qiladi. Shunda, “Humoyun shu vaqtgacha otasidan olgan sovg‘alar orasida eng ulkani va bebahosi – mana shu she‘riy kitob ekanini sezib, uni qayta – qayta ko‘zlariga suradi...”. Eng muhimi, uning otasiga bo‘lgan mehri, ixlosi shu kitob tufayli yangi bir kuch bilan o‘sib boradi. Shunday ekan, kitob o‘qish, xalqimizning ilm egallashida, yosh avlod tarbiyasida kitobxonlikni keng targ‘ib etishda kitob – gnoseologik quvvat manbai ekanligini ongu tafakkuriga singdirish kerak”[5:425].

Sadridin Ayniy o‘zining kundaliklarida quyidagi jumalarni keltirib o‘tadi: “Men yoshligimda oyim menga shalvar tikib berar edilar, hech esimdan chiqmaydi ular shalvarga kista tikib bermas edilar. Yoshim ulg‘ayib oyimning bu ishlaydagi hikmatni keyin chunib yetdim”, deydilar. Chunki, bolaning uydan hamda uyga nima olib kirib olib chiqayotganligini ko‘rib bilib turganlar. Shu orqali bolani og‘irlikdan saqlaganlar. Bunday ajoyib tarbiya albatta tahsinga loyiqdir.

Xulosa qilib shuni keltirishimiz mumkinki, qadriyatlar ijtimoiy muhitning davrlar moboynida sayqallanib kelgan hamda o‘zining isbotini topgan maktabdir. Bu esa, biz uchun yosh avlodni tarbiya qilishda hamda ularni mafkuraviy tahdidlardan saqlashning birlamchi mezoni hisoblanadi. Tarbiya jarayoni juda murakkab hisoblanishini inobatga olgan holda undan hech qanaqasiga ham chetlashib bo‘lmasligini esda saqlamog‘imiz lozimdir. Hunday ekan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ko‘r-ko‘rona g‘arb illatlariga ilakishmasdan milliy qadriyatlarimizni

birlamchi o‘ringa qo‘yibgina bunda natijaga erishaolishimiz mumkin. Yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali mafkuraviy immunitetni shakllantirish yuzasidan biz quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Birinchiidan, yoshlarni ajdodlarimizdan qolgan milliy ma’naviy-madaniy me’rosimiz bilan tanitish;

Ikkinchiidan, oilada qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali yosh avlodda har qanday mafkuraviy tajavvuzlarga nisbatan immunitet shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.01.2021 yildagi O‘RQ-668-son.
4. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot. 2018-yil. –B.516.
5. Nurmatova U.J. O‘zbekistonda mutolaa ma’naviy qadriyat va ta’lim tarbiyaning asosi sifatida. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: “Academic Research” MCHJ, O‘zMU, 2022. –B.423-427.
6. Жўраев, Лукмон. "ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ ХУЛҚ-АТВОРИДА ТРАНСФОРМАЦИЯ." *Journal of Social Sciences* 1.02 (2022): 51-55.
7. Джураев, Л. Н. "ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ." *НАУКА И СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ*. 2020.
8. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o‘g‘li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TANLILI." *BARCHA SOHALAR BO‘YICHA* (2023): 32.
9. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g‘oya. "O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." Toshkent, “Cho‘lpon (2018).
10. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686.
11. Луман Н.Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский. -М:Логос.2004.– С.88-94
12. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. “Oilada bolalarni tarbiyalashda sog‘lom muhitni shakllantirishning estetik xususiyatlari”. *JournalNX* 6.04 (2020): 88-90.
13. Жўраев, Лукмон. "ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ ХУЛҚ-АТВОРИДА ТРАНСФОРМАЦИЯ." *Journal of Social Sciences* 1.02 (2022): 51-55.

IV SHO‘BA
YOSHLARNI BARKAMOL RUHDA TARBIYALASH –
BARQAROR TARAQQIYOT OMILI.

YANGI O‘ZBEKISTON BARPO ETISHDA YOSHLARNI FALSAFIY
BILIMLAR BILAN QUROLLANTIRISH ZARURIYATI

N.E.Muhammadiyev

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti,
falsafa.f.n., professor

S.N.Muhammadiyeva

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy Universiteti, o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ilmiy maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etishda yoshlarga falsafiy bilim berishning o‘rni va ahamiyati, ularni ommalashtirishning zamonaviy shakllari haqida fikrlar bildirilib, falsafiy fanlarni ta’lim muassasalarida o‘qitish masalasi yangicha tasnif qilingan holda ularning obyekt va predmeti aniqlab, amaliyotga joriy qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar

Yangi O‘zbekiston, Yangi O‘zbekiston orzusi, falsafa, falsafiy bilimlar, tabiat, tibbiyot, siyosat, iqtisodiyot, texnika va texnologiya, g‘oyalar, tarix, huquq falsafasi, ma’niyatshunoslik, axloqiy, estetik, ekologik, jinsiy, iqtisodiy, huquqiy, diniy tarbiya.

Abstract

The scientific article expresses the role and importance of providing philosophical knowledge to young people in the formation of New Uzbekistan, modern forms of their popularization, and reclassifies the issue of teaching philosophical sciences in educational institutions, their object and subject. proposals and recommendations for their implementation were identified and given.

Key words

New Uzbekistan, dream of New Uzbekistan, philosophy, philosophical knowledge, nature, medicine, politics, economics, engineering and technology, ideas, history, philosophy of law, semantics, moral, aesthetic, environmental, sexual, economic, legal. , religious education.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishdan maqsad, kelgusida O‘zbekiston xalqining “erkin va farovon yashash”[1;24b]ini ta’minlashdan iboratdir. Ma’lumki, O‘zbekistonda “jamiyatning iqtisodiy negizini xilma-xil shakllardagi mulk va sog‘lom raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti”[2;38b] tashkil etadi. Demak, bozor iqtisodiyoti mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida birinchi bo‘lib “talab va taklif” masalasini hal etishni talab qiladi. Talabga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash xar qanday ta’lim muassasalarining birinchi navbatdagi vazifasi hisoblanadi. Mana, shu zaruriyatni hisobga olgan holda falsafiy bilimlardan dars beruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash uchun quyidagilarni taklif qilaman.

Birinchi taklifim. Toshkent shahrida "O'zbekiston falsafiy bilim va sotsiologik tadqiqotlar universiteti"ni ochish maqsadga muvofiqdir. Bunda mamlakatimizda mavjud bo'lgan oliy ta'lim va professional ta'lim, texnikum, kollejlarning shu soha bo'yicha mutaxassislariga bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda, ya'ni ularning buyurtmalari asosida (kvotalar ajratish orqali) kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda: "O'zbekiston falsafiy bilim va sotsiologik tadqiqotlar universiteti"ning Samarqand, Farg'ona, Nukus shaharlarida filiallarini ham ochish kerak. Bunday filialli yondashuv tashkiliy jihatdan falsafiy fanlarga mutasaddilarning subyektiv "texnokratik" qarashlariga asoslangan xatti-harakatlarining oldini oladi.

Universitetda quyidagi fakultetlar va kafedralar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.
Falsafa fakulteti.

1. Kafedralar: 1. Ontologiya va gnoseologiya, mantiq kafedراسi.
2. Tarix falsafasi va falsafa tarixi kafedراسi.
3. Fuqarolik jamiyati va amaliy sotsiologiya, ijtimoiy ish fakulteti.

Kafedralar:

1. Fuqarolik jamiyati, huquqiy va ijtimoiy davlat kafedراسi.
2. Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedراسi.
3. Milliy g'oya, ma'naviyatshunoslik va dinshunoslik fakulteti.

Kafedralar:

1. Milliy g'oya va ma'naviyatshunoslik kafedراسi:
2. Etika va estetikasi, dinshunoslik kafedراسi.

Universitet ikki: bakalavriyat va magistratura bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Qanday fanlar o'qitilishini kafedra a'zolari belgilab oladi va DTS ni ishlab chiqadilar.

Ikkinchi taklifim. Barcha oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bakalavriyat bosqichi talabalariga quyidagi majburiy bo'lgan falsafiy fanlar o'qitilishi shart.

Oliy o'quv yurtlari uchun xalqaro nom va standartlarni inobatga olgan holda.

2.1. Falsafa fani. Oliy o'quv yurtlarining mutaxassisligiga qarab. Masalan, kimyo, fizika, biologiya mutaxassisliklari uchun "Tibbiyot falsafasi; barcha texnika va axborot texnologiyalari mutaxassisliklari uchun" Texnika va informatsion texnologiyalar falsafasi", filologiya mutaxassisliklari uchun "Adabiyot va til falsafasi", pedagogika mutaxassisliklari uchun ta'lim va tarbiya falsafasi", huquqshunoslik mutaxassisliklari uchun "Huquq falsafasi", tarix mutaxassisliklari uchun "Tarix falsafasi" shaklida o'quv mashg'ulotlari olib borilishi kerak.

- 2.2. Milliy g'oya- taraqqiyot strategiyasi (G'oyalar falsafasi).
- 2.3. Ma'naviyatshunoslik
- 2.4. Sotsiologiya (Amaliy sotsiologiya).
- 2.5. Dinshunoslik
- 2.6. Kasb etikasi va estetikasi.

Uchinchi taklifim. O'RQ-637-son 23.09.2020 y. "Ta'lim to'g'risida" dagi qonuning 7 moddasida quyidagi: maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim turlarining amal qilishi belgilab qo'yilgan.

Bunda: Umumiy o'rta ta'lim (I-XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat: boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar); tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar); o'rta ta'lim (X-XI sinflar)lardan iborat bo'lib[3], ularda falsafiy-ma'naviy tarbiyaning quyidagi turlari o'qitilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, quyidagicha:

1. Axloqiy tarbiya (1-sinf)
2. Estetik tarbiya (2- sinf)
3. Ekologik tarbiya (3- sinf)
4. Jismoniy tarbiya (4-sinf)
5. Kitobxonlik tarbiyasi(5-sinf)
6. Mehnat-hunar tarbiyasi (6-sinf)
7. Iqtisodiy tarbiya (7-sinf)
8. Tibbiy-jinsiy tarbiya(8-sinf)
9. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi (9-sinf)
10. Diniy tarbiya (10-sinf)
11. G'oyaviy-mafkurviy tarbiya (11-sinf)

To'rtinchi taklifim. Professional kasb-hunar maktablari, texnikumlar va kollejlarda quyidagi falsafiy fanlar:

1. Axloqiy - ma'naviy-akseologik tarbiya (1-kurs).
 2. Falsafiy- g'oyaviy- mantiqiy tarbiya (2-kurs)
- o'quv fanlarini o'qitish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchi taklifim. Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan falsafiy fanlarning obyektivi va predmetini belgilash haqidagi fikrlar:

1. Tabiatshunoslik falsafasi. Bu fizika, kimyo, biologiya, qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga o'qitilishi kerak. Bunda asosiy e'tibor globallashtirish sharoitida fizika, kimyo, biologiya fanlari ichida yuz berayotgan o'zgarishlarning yo'nalishlarini anglash, qishloq xo'jaligi sohasida bo'layotgan tezkor o'zgarishlarda tabiat va jamiyatning dialektik aloqadarligini to'g'ri aniqlash, ushbu fanlarning ichida va fanlar o'rtasida sodir bo'layotgan jarayonlarni falsafiy jihatdan bilish, ularning yangi qonuniyatlarini ochishda dialektika ilmining qonun va kategoriyalaridan foydalana bilishni o'rganish, ularning istiqbollarni ko'rsatib berish masalalarining metodologik asoslarini ishlab chiqish, amaliyotdagi o'rnini aniqlash kabilarga qaratilishi zarur.

2. Texnika va texnologiyalar falsafasi. (Muhandislik falsafasi). Bu fan issiqlik energetikasi; elektr energiyasi; gidroenergetika; metallurgiya; materialshunoslik texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi; texnologik mashinalar; asbobsozlik, elektronika, to'qimachilik, kimyoviy texnologiya, oziq-ovqat texnologiyasi kabi yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalarga o'qitilishi kerak. Bunda asosiy e'tibor texnika va texnologiyalarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, nanotexnologiyalarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari, ularning keltirib chiqaradigan oqibatlari, mamlakatimizning yangi texnika va texnologiyalarni yaratish borasidagi imkoniyatlari va uning voqelikka aylanishi, ularning mazmun va shakllari, texnologiyalarni yaratish borasida dialektikaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, inkorni inkor kabi qonunlarining amal qilish mexanizmlarini yoritishga

qaratilishi lozim.

3. Axborot xavfsizligi va texnologiyalari falsafasi. Barcha matematika va informatika yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga o‘qitilishi kerak. Bunda asosiy e’tibor axborotlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rmini belgilab olish, uning amal qilish qonuniyatlarini ochish, axborot xavfsizligini ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish, dialektika qonun va kategoriyalarini axborot texnologiyalarining yangi avlodlarini yaratishda foydalana bilishning metodologik asoslarini ishlab chiqish va uni tushuntirib berish, axborot xurujlarining maqsad-muddaololini ochish, ularga qarshi kurash yo‘llarini ko‘rsatib berish kabi masalalarga qaratilishi kerak.

4. Tibbiyot falsafasi. Barcha tibbiyot sohasidagi yo‘nalishlar: davolash ishi; tibbiy profilaktika ishi; stomatologiya, pediatriya; farmatsiya bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga o‘qitilishi kerak. Bunda asosiy e’tibor tibbiyot fanining jamiyat hayotida tutgan o‘rni, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini, ularning oldini olish va davolash imkoniyatlari, tibbiy bilish va klinik tafakkurni shakllantirish muammolari, davolash usullarining dialektik nuqtayi nazardan klassifikatsiya qilish masalalari, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini ochish masalalariga qaratilishi kerak. Ayniqsa, bu sohada dialektikaning qonun va kategoriyalarini qo‘llay bilish usullari bilan bo‘lg‘usi shifokorlarni qurollantirish juda ham zarur.

5. Iqtisodiyot (raqobat) falsafasi. Bu barcha iqtisodiyot va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari: iqtisodiyot; menejment; marketing; biznes, moliya, bank ishi, soliqlar va soliqqa tortish; buxgalteriya hisobi, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga o‘qitilishi kerak. Bunda asosiy e’tibor mamlakatimizda shakllantirilayotgan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanish qonuniyatlarini ochish, ulardan foydalanish, mamlakat iqtisodiy tizimining ilmiy-falsafiy xaritasini yaratish, iqtisodiyotning tarmoqlari o‘rtasidagi funksional mantiqiy bog‘lanishlar, uni modernizatsiya qilish, davlatning investitsion siyosatini tushuntirib berish, odamlar o‘rtasida ishlab chiqarish va iste’mol madaniyatini shakllantirish, moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarini uyg‘un rivojlantirishning dialektik metodlarini ishlab chiqish, raqobatda iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish sabablarini bilish va undan chiqishning dialektik yo‘llarini aniqlab olish kabilarni metodologik jihatdan tushuntirib berishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

6. Huquq falsafasi. Barcha huquqshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga o‘qitilishi kerak. Bunda asosiy e’tibor huquqning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari, uning ontologik va gnoseologik asoslari, xukuqiy madaniyatni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini, huquq normalari buzilishining obyektiv va subyektiv sabablari, davlatning inson huquqlarini ta’minlash borasidagi siyosatining mohiyatini yoritish kabi masalalarga qaratilishi kerak.

7. Tarix falsafasi. Bu “O‘zbekiston tarixi” fanining o‘rniga, uning mantiqiy davomi sifatida barcha oliy o‘quv yurtlari talabalariga o‘qitilishi kerak. Ma’lumki, tarixiy ong, tarixiy bilish, tarixiy xotira tarixiy sanalarni yod olish bilan emas, balki undan falsafiy xulosalar chiqarish, aniqlash sabablarini bilish va undan chiqishning dialektik yo‘llarini aniqlash kabilarni metodologik jihatdan tushuntirib berishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

bo'lishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Amir Temur bobomizning qachon dunyoga kelib qachon bu dunyoni tark etgan sanalarni bilish bilan tarixiy ong shakllanmaydi, balki bu buyuk tarixiy siymolarning ona- Vatanimizning mustaqilligi, ozodligi va obodligi yo'lida qanday xizmatlar qilganligining tub mohiyatini bilish bilan shakllanadi va rivojlanadi. Demak, oliy o'quv yurtlarida "O'zbekiston tarixi" fanining o'rniga "Tarix falsafasi" nomli yangi fanni joriy etish davri keldi. Bunda asosiy e'tibor talabalarning tarixiy ongini, tarixiy xotirasini, tarixiy g'ururini shakllantirish va rivojlantirishda o'zbek xalqining hayotida yuz bergan eng muxim tarixiy voqealarni, ayniqsa XX asrning yarmidan boshlab XXI asrda yuz berayotgan tarixiy voqealarga, xususan, mustaqil O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi, uning jahonda tutgan o'rnini, yaqin kelajakda jahondagi eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishining tarixiy ildiz, imkoniyat va salohiyatlarini tarixiylik va mantiqiylik nuqtayi nazaridan yoritishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu talabalar uchun eng qiziqarli fanlardan biri bo'lib qoladi va ularni xushyorlikka o'rgatadi.

8. Siyosat falsafasi. Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan urushlar odamlarning siyosat masalasiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirib yubormoqda. Shuning uchun ham bunda asosiy e'tibor O'zbekistonda siyosiy munosabatlarning shakllanishi, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, geoiqtisodiyot va geosiyosat masalalarining metodologik asoslarini yoritish, O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatini uyg'unlashtirish masalalariga qaratilgan bo'lishi darkor.

9. Harbiy jang san'ati falsafasi. Barcha harbiy oliy o'quv yurtlarining kursantlariga o'qitilishi kerak. Bunda asosiy e'tibor mamlakatimiz mudofaa qobiliyatining ontologik va gnoseologik asoslarini yoritish, mudofaa va hujum uyushtirishda imkoniyat va voqelik, zarurat va tasodif, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, alohidalik, xususiylik va umumiylik, butun va bo'lak kabi dialektika qonun va kategoriyalarining talablarini bilish kabi masalalarni yoritishga qaratilishi kerak.

10. Ta'lim va tarbiya falsafasi. Bu pedagogika va psixologiya yo'nalishi bo'yicha, ya'ni: ona tili va adabiyoti; xorijiy tillar va adabiyoti; boshlang'ich ta'lim; maktabgacha ta'lim; defektologiya, jismoniy tarbiya; mehnat ta'limi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga o'qitilishi kerak. Bunda asosiy e'tibor ta'lim-tarbiyaning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini ochishga, uni tushuntirib berishga; globallashtirish sharoitida ta'lim-tarbiyaning differensiallashuvi va integrallashtirish jarayonlarining sabab va oqibatlarini yoritishga; ta'lim-tarbiyaning jamiyat ijtimoiy hayotdagi o'rnini ilmiy dialektikaning qonun va kategoriyalari asosida yoritib berish; ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishning kelgusidagi yo'nalishlari, istiqbollari haqida ishonchli prognozlarni bayon qilish; davlatimizning ta'lim-tarbiya siyosatini izchil amalga oshirishning yangi usullarini ishlab chiqish masalalariga qaratilishi lozim.

11. Madaniyat va san'at falsafasi. Barcha madaniyat va san'at, dizayn yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga o'qitilishi kerak. Bunda asosiy e'tibor madaniyat va san'atning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, san'atning kuchi, ilxomlantiruvchi ontologik va gnoseologik xususiyatlari, san'at asarlarini yaratishda mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va

tasodif kabi omillarni uygunlashtirish ishlarini bilish masalalariga qaratilishi lozim.

12. Kasb etikasi va estetikasi. Bu fan barcha o'quv yurtlari talabalariga mutaxassisliklaridan kelib chiqqan holda o'qitilishi kerak. Bunda asosiy e'tibor uchta narsaga: birinchidan, talabani egallayotgan mutaxassisligiga nisbatan qo'yilayotgan axloqiy va estetik normalarni egallashiga; ikkinchidan, esa bo'lg'usi mutaxassisning o'z kasbiy burchini, fuqarolik mas'uliyatini bajarish chogida o'zгалar bilan bo'ladigan chiroyli muloqat qilish qoidalarini bilishga; uchinchidan, o'zining qiyofasini va ish joyining qiyofasini nafosat bilan tashkil etish kabilarni bilishni o'rgatishga qaratilmog'i kerak. Chunki go'zallik olamni har xil balo-qazolardan qutqazadi, deydi xalqimiz.

13. Ma'naviyatshunoslik. Bu fan barcha o'quv yurtlari talabalariga o'qitilishi kerak. Bunda asosiy e'tibor ma'naviyatning kishi va jamiyat hayotidagi o'rni, uning amal qilish qonuniyatlari, ma'naviy faoliyat, ma'naviy tarbiyani tashkil etishning prinsip va normalari, shaxs va jamiyat ma'naviyatining mezonlari ma'naviy jasorat ko'rsatish usullari, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni uygunlashtirishning vosita va omillari kabi masapalarga qaratilgan bo'lishi zarur.

13. Amaliy sotsiologiya. Bu fanning hozirgi kundagi ahvoli falsafa fanining "Ijtimoiy falsafa" degan qismi bilan sotsiologiya fani bitta narsaga aylantirilgan bo'lib, sotsiologiya deganda o'sha narsalarni takror bir oz qo'shimchalar bilan o'qitilmokda xolos.

Oliy o'quv yurtlarida bu fanni o'qitishni tubdan o'zgartirish kerak. Uni amaliyot bilan bog'lash kerak. Bu sohadagi takliflarim quyidagilardan iborat: Bu fanni "Sotsiologiya" deb emas, "Amaliy sotsiologiya" deb nomlash kerak. Bu fanning oldiga jamiyatimizning moddiy va ma'naviy hayotida bo'layotgan o'zgarishlarni aniq sotsiologik so'rovlar o'tkazish orqali bilishning metod, prinsip va qonuniyatlarini o'rganish, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish usullari va yo'llarini ishlab chiqish va o'qitish vazifasini qo'yish kerak. "Amaliy sotsiologiya" fanidan dars berayotgan barcha o'qituvchilar Respublika "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik Markazi bilan bevosida aloqa o'rnatishlari zarur. Har bir institut ana shu fan o'qituvchilarining bevosita rahbarligida Mahallalardagi yashayotgan aholi o'rtasida yiliga kamida ikki marta jamiyat hayotining eng dolzarb masalalari bo'yicha sotsiologik so'rovlar o'rkazishi va natijalarini tegishli mutassadi organlarga yuborishlari yoki "Ijtimoiy fikr" va Respublika hamda Mahalliy matbuotda e'lon qilib borishlarini yo'lga ko'yish zarur. Bu "Xalq bilan bo'ladigan muloqot"ning ilmiy-amaliy asosini tashkil etishi kerak. Olingan natijalardan doktorlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanishni yo'lga qo'yish ham davr talabidir.

14. G'oyalar falsafasi. Bu fan barcha oliy o'quv yurtlari talabalariga o'qitilishi kerak bo'lgan fanlardan biri hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor bunyodkor g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi, xalqlarning kundalik turmushidagi o'rni; vayronkor goyalarining kelib chiqish sabablari, ko'zlagan maqsad va mudaaolari, insoniyat boshiga solayotgan kulfatlari; jahonda kechayotgan goyaviy - mafkuraviy kurash, uning sabablari va keltirib chiqaradigan oqibatlari; o'zbek milliy mafkurasini xalq kalbi va ongiga singdirish mexanizmlarini izchil jorish etish, ayniqsa mafkuraviy immunitetni shakllantirishning zamonaviy metod va vositalarini ishlab chiqish va

amalda qo‘llash kabi masalalarga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Oliy o‘quv yurtlarida “Falsafa” fanini mutaxassislik sohasiga qarab o‘qitish:

1. Falsafa ilmining hayotiyligini ta‘minlaydi va oxir-oqibatda nazariy-metodologik vazifasini bajarishga olib keladi.

2. Falsafa sohasida ilmiy izlanishlarning har tomonlama kengayishiga, mazkur sohalarda qanday ilmiy usullar va paradigmal yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

3. Talabalarning ilmiy dunyoqarashini quruq dogmalar asosida emas, balki hayotiy haqiqatlar, ilmiy bashoratlar, evristik usullar orqali shakllantiradi va yangi cho‘qqilarni zabt etishga ilhomlantiradi.

4. Falsafa fanlarini bunday tarzda o‘qitishni tashkil etishning yana bir jihati, magistratura sohasini kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shu yo‘nalishlar bo‘yicha magistratura ochilsa, ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha boshqa sohalardagi bakalavr mutaxassislar evaziga falsafa bo‘yicha magistratlarning yangi avlodini tayyorlash mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida turli soha vakillarining falsafa fani bo‘yicha doktorlik ishlarini olib borishga imkoniyat yaratib beradi. Shu asosda falsafa fanining boshqa fanlar uchun nazariy-metodologik asos vazifasini zamon talablariga muvofiq tarzda o‘tashiga olib keladi.

5. Gumanitar va ijtimoiy-iqgisodiy fanlarni shu tarzda o‘qitishni tashkil etish, ularni bevosita hayot bilan bog‘lab dogmatizim balosidan qutqazadi. Ularga hayotiy jon bagishlaydi.

6. O‘zbek falsafasi - xalqimizning o‘zligini anglashi, mavjud makon va zamondan joy topa olishi, milliy yuksalishi uchun ob-havodek zarur bo‘lgan ma‘naviy ne‘matdir. Bu ne‘matni “vaysaqilik”dan, “madhiyabozlikdan”, “ikkiyuzlamachilikdan”, “xushomadgo‘ylik”, “xo‘jako‘rsinlik”dan ozod qilib, haqiqiy mexnatkash, jafokash O‘zbekiston xalqining e‘tiqodiga aylantirish har bir mard o‘zbek ziyolisining muqaddas burchidir.

Izoh: Shu tariqa birinchidan, falsafaning bakalavriat yo‘nalishini tugatganlar, o‘rta maktab, professional ta‘lim, kasb-hunar texnikumlari, kollejlarda (ming afsuski, ular o‘z sohalari bo‘yicha ish topolmay yurishibdi); ikkinchidan, magistraturani tugatganlar esa oliy ta‘lim muassasalarida dars berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri.- Toshkent:” O‘zbekiston” nashriyoti,2022. –B.24.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “ O‘zbekiston” nashriyoti,2023. –B.38.

3. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son; 01.02.2024 y., 03/24/901/0082-son)

BUGUNGI PEDAGOG – UCHINCHI RENESSANS DAVRINING FAOL IJODKORI

Haydarov Komil

O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti
professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimidagi islohotlardan ko‘zlangan muhim maqsad - yangi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tizimga joriy etish, xususan, mantiqiy fikrlash metodidan foydalanish, uning afzalliklari, o‘quvchi yoshlarda tafakkur madaniyatini rivojlantirishga ta’siri, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga doir tahlillar keltiriladi, xulosalar bayon etiladi.

Tayanch iboralar: ta’lim, zamonaviy texnologiyalar, tafakkur, bilish jarayoni, mantiqiy fikrlash madaniyati, pedagogik mahorat.

TODAY'S EDUCATOR IS AN ACTIVE CREATOR OF THE THIRD RENAISSANCE

Abstract. In this article, an important goal of reforms in the continuous education system of our country is the introduction of new, modern pedagogical approaches into the system, in particular, the use of the method of logical thinking, its advantages, its impact on the development of the culture of thinking among students, as well as the teacher's Analyzes on improving pedagogical skills are provided, conclusions are presented.

Key words: education, modern technologies, thinking, cognitive process, culture of logical thinking, pedagogical skill.

Yangi O‘zbekistonning ma’naviy asoslarini yaratish jamiyatimiz bugungi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi, strategik maqsadi sifatida belgilanganligi barcha jabhalarda, xususan uzluksiz ta’lim tizimida xorijda to‘plangan ilg‘or pedagogik tajribani yurtimizga olib kelish, uni o‘zimizda tashkil topgan ta’limning milliy an‘analari bilan uyg‘un holda rivojlantirishni taqozo qiladi. Bunday xayrli, shu bilan birga o‘ta mashaqqatli mehnatni talab etadigan vazifani o‘z-o‘zidan amalga oshirib bo‘lmaydi, albatta. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Yurtimizda Uchinchi Renessans davri poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak” [2.2.] Ana shu ma’noda bugun muallim, pedagog uchinchi Renessansning tayanch ustunlaridan biri sifatida namoyon bo‘lishi lozim va shu bois unga yangi davrning faol ijodkori sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda o‘qituvchining rasmiy maqomini oshirishga birinchi galdagi vazifa sifatida alohida e’tibor berilayotgani xalqimiz tomonidan, shu bilan birga, xorijlik ekspertlar tomonidan istiqbolli tadbir sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda o‘qituvchining obro‘-e’tibori va ijtimoiy mavqeyining oshib borishi, o‘z navbatida, uzluksiz ta’lim sifati va mazmunini oshirishga olib kelishi mumkin

bo'lgan imkoniyat, uning voqelikka aylanishi tayin bo'lgan dialektik jarayon sifatida qaralmoqda.

Ushbu maqsadda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "Pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si davlat himoyasida bo'ladi" [1.2.], deb belgilab qo'yilganligi ezgu maqsadga erishishning mustahkam huquqiy asosi sifatida qaralmoqda. Albatta, yangi davrning tayanch ustunlaridan bo'lgan o'qituvchining jamiyatdagi o'rni va mavqei, uning pedagogik mahoratini ko'tarish uchun huquqiy asosning yaratilganligi ta'limning sifati va mazmunini oshirish, eng yangi xorij tajribasini, Finlyandiya, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda shakllangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va mamlakatimiz uzluksiz ta'limining milliy modelini yaratishda g'oyat muhim omil sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Bugun muallim yangi davr ma'naviyatining haqiqiy timsoli bo'lishi lozim. U odamlarga nur, ziyo hamda go'zallik baxsha etuvchi inson. O'zining aynan shu xislati bilan boshqalar uchun ibrat namunasidir. El-yurtga ma'rifat ulashib, ma'naviyat chashmasidan bahramand etgan o'qituvchi, ya'ni ustoz, murabbiy doimo odamlarning izzat-ikromiga sazovor bo'lib kelgan. Yurtimiz tarixiga nazar solsak, xalqimizning ziyo ahliga, ya'ni ustozu-murabbiylarga bo'lgan yuksak hurmat va ehtiromi bejiz emasligiga imon keltiramiz.

Qadimdan ma'naviyat eshigi, ma'rifat beshigi bo'lib kelgan Samarqandda ne-ne daholar, ilmu-urfon namoyondalari yashab o'tmagan. Imom Al-Buxoriy, Imom Al-Moturudiy, Imom Ad-Doramiy, Maxdumi A'zam, Abullays Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumi singari buyuk ajdodlarimizning muborak nomlari Mag'ribdan Mashriqqacha - etti iqlimga dong'i ketgan. Ulug' ajdodlarimiz yaratgan ulkan silsila bugun ham, ertaga ham, undan keyin ham davom etaveradi. Bugungi ziyolilarimiz, eng avvalo, o'qituvchi va murabbiylarimiz ana shu silsilaning davomchilaridir. Ulug' ajdodlar an'anasiga sadoqat ular faoliyatining mazmun-mohiyatini tashkil etmog'i lozim.

"Shu o'rinda, - deb yozadi taniqli adabiyotshunos olim Shuhrat Rizaev, - o'qituvchilarimizning eng tashabbuskor, tinib-tinchimaydigan, jamiyat ma'naviyati uchun o'zini to'la javobgar his etadigan insonlar bo'lganini yana yodga olmoqchiman. Buning birinchi yorqin misoli – najotni maktab va maorifda, taraqqiyparvarlikni muallimda ko'rgan jadid bobolarimiz hayoti va faoliyati bo'lsa, ikkinchisi, aynan shular tarbiyasini ko'rgan, ularga havas qilib, o'qituvchi bo'lgan insonlar. Aslida qishlog'u shahar, el-yurt ma'naviy kamolotini o'ylaydigan birinchi odam o'qituvchi edi"[3.3.].

Bugungi davr yangi O'zbekiston o'qituvchisi oldiga to'rtta muhim vazifa qo'yilmoqda: 1) har bir o'qituvchi o'z fanini puxta bilishi; 2) bilimni o'quvchi (talaba)ga etkazib berish mahoratiga; 3) psixologik (ruhiy) tayyorgarlikka; 4) o'z ustida muntazam ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi. Shu talablar bajarilsa, o'qituvchi faoliyatida ijobiy o'zgarishlar kuzatila boshlaydi.

Bugungi pedagog o'z kasbining ustasi bo'lishi bilan birgalikda o'zining turmush tarzi bilan ham boshqalarga namuna bo'lishi kerak. Tarbiyada eng ta'sirchan omil – bu shaxsiy ibrat, namuna. Davlatimiz rahbarining "O'qituvchi va murabbiylar biz uchun

ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsolidir”, degan ilhombaxsh so‘zlari o‘qituvchi ayni paytda milliy ma’naviyatimizning tom ma’noda andozasi ekanligini tasdiqlaydi .

Bugungi o‘qituvchi kechagi muallimdan butunlay farq qiladi. Endilikda o‘qituvchilik mas’uliyati har qachongidan ham yuksak va sharaflidir. Bu mas’uliyat XXI asr kishisini kamol toptirish demakdir. Bugungi muallim ma’naviy jihatdan boy va betakror o‘tmishimizning tarixiy ildizlarini teran anglashi va uni o‘quvchi yoshlar ongiga singdira olishi zarur. Bunday pedagogik mahoratli o‘qituvchi ayni paytda qobiliyatli hamdir. Qobiliyat - o‘z kasbining ustasi bo‘lish, “kasbga sho‘ng‘ib ketish”, uni hayotining mazmuni deb bilishdir. Bugungi pedagog o‘z maqsadiga erishish uchun tinmay izlanishi, o‘z ustida muntazam ishlashi, o‘rganishi, malaka va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi, “hayot davomida o‘qish” tamoyiliga amal qilishi zarur.

Hozirgi davrda mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida xorijning ilg‘or pedagogik tajribasi bilan birga yurtimizda qadimdan tarkib topgan milliy an’ana va ta’limiy qadriyatlar uyg‘un tarzda rivojlantirilishi lozim. Bugungi pedagog esa o‘zining faqat bilimi, aqli-zakovati bilangina emas, yuksak ma’naviy salohiyati bilan ham ajralib turishi, katta-yu kichikka ibrat bo‘lishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyatning tom ma’noda andozasi bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogning maqomi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Xalq so‘zi”, 2024 yil 2-yanvar soni.
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. Yangi saylangan O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi//”Xalq so‘zi”, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018).
3. Rizayev Sh. Maktab – millat najoti // ”Xalq so‘zi”, 2019 yil 10 sentabr.

SHAXS TARBIYASIDA IDEALINI O‘RNI VA FALSAFIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Samadov A.R.

SamDU Falsafa va milliy g‘oya kafedrasini professori, f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs tarbiyasida idealining pedagogik, aksiologik va falsafiy muammolari to‘g‘risida fikr yuritilgan bo‘lib, pedagogika sohasidagi shaxs tarbiyasi masalasiga yangicha innovatsion yondashuvlar, xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy-estetik ideal, pedagogika, aksiologiya, innovatsiya, I.Kant, shaxs tarbiyasi, tarbiya nazariyasi, tabiat.

Mamlakatimizda olib borilayotgan inson va jamiyat ijtimoiy hayotida tub islohotlarinsoniyatni abadiy orzusi bo‘lgan xalqpavarlik, insonpavarlik tamoyilini to‘la tantana qilishini nazariy modeli – ijtimoiy ideal-fuqarolik jamiyati sari ilgarilama harakati ideal va umummaqsadlarni ma’lum bir tizimga keltirishga harakat deb

baholanadi. Bugungi kunga kelib eski, o'tgan asr mafkurasi asosida shakllangan marginallashtirilgan ideal va qadriyatlar o'rnini fuqarolik jamiyati talablari asosida shakllantirilgan, adolat, qonun ustuvorligi, xalqning roziligi degan umuminsoniy qadriyatlar egallamoqda. Inson omili, shaxsning axloqiy-estetik qadriyatlarini qaytadan baholanishi, ayniqsa yoshlarni axloqiy-estetik idealining bugungi kundagi holati, rivojlanish motivlari, ehtiyojlari, globallashtirish davrida axloqiy-estetik ideallarini yangi ufqlari, shakllanadigan idealni ichki tizimi, rivojlanish determinantlari, omillarini o'rganish bilan bog'liq muammolar ilmiy-nazariy jihatdan dolzarbligini yana bir bor belgilamoqda.

O'tgan asrda ijtimoiy-ma'naviy ideallarning turlari sifatida, axloqiy va estetik ideallarning mazmunini differentsiallashishi, ularni alohida-alohida analiz qilinishi o'z davrining ratsional fan paradigmalari bilan an'analardan biridir. Axloqiy-estetik ideallarning differentsial o'rganish natijalari "o'z zamoni uchun chin xulosa va chinligi nisbiy, bir-birini rad etuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchidir"[1,50-b]. Shaxs axloqiy-estetik ideallarni shakllanishiga diaxronik yondashuv natijasida insonni ilk olam haqidagi bilimlari va hozirgi differentsiallashgan qarashlar uzoq evoyusiyani boshidan kechirganligini guvohi bo'lish mumkin. Emanatsiya konsepsiyasiga ko'ra insonning borliqni (axloqiy va badiiy-estetik) o'zlashtirishining ilk substansiyasida tabiiy hodisalar insonni axloqiy ongida imperativlashib va bir vaqtda undan zavq olishi sinkretik hodisa bo'lgan. Biz buni insonni ilk axloqiy-estetik hissiyoti, qarashlari, fikrlari jamlangan "Avesto"da ko'ramiz. ".....zardushtiylar ta'limotiga ko'ra, yettita tabiatning elementi: olov, suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvon va inson Xudo tomonidan yaratilgan va ular ilohiylik, muqaddaslik mazmun-mohiyatiga ega. Inson ularning eng yuksak oliy toifasidir va shuning uchun ham u qolgan boshqa oltita mavjudotga g'amxo'rlik ko'rsatishi: tuproqni serunum qilishi, havo va suvni, suv manbalarini toza saqlashi, foydali o'simliklar va hayvonlarni ko'paytirishi, insonning Xudo oldidagi burchi sanalgan"[2,12b]. Sinkretiklik ahamiyatiga ega bo'lgan axloqiy-estetik qarashlarni ibtidosi shu ikki jabxani idealini bir-biriga yagona tarzda shakllantirgan. Insonning hissiyoti va axloqiy ongi bir butunligi ekologik munosabatlarida aks etgani tasodifiy holat emas.

Shaxsning axloqiy-estetik ideali haqidagi qarashlarning takomili olmon mumtoz faylasufi I.Kant ta'limotida "ideal masalasi"ni insonning axloqiy-estetik komilligi bilan bog'lashga olib keldi: idealni – "maqsad qilib qo'yish va unga erishish uchun intilish bilan bog'liqdir"[3,465b], deb bildi. Shuningdek, faylasuf axloqiy idealni ham, estetik idealni ham voqelikdan emas tafakkurdan, aqldan izlamoq kerakligini uqtiradi. Bunda ideal narsa va hodisalarning empirik voqelik tufayli tug'ilgan g'oyalardan emas, tafakkur salohiyati bo'lgan xayolda paydo bo'lgan har xil obraz, tushuncha va tuyg'ularning mantiqiy yaxlitligidan vujudga keladi.

O'tgan asrda shaxsning ideallari ma'lum qoliplar, maishiy talablarga bo'y so'ndirildi. Axloqiy va estetik qadriyatlar alohida o'rganilib, ilmiy tadqiqot natijalarini o'quvchi yoshlar pedagogik tarbiyasida, insonni tabiat va jamiyatga munosabatini mutanosiblashtirishda qo'llanib kelindi. Ushbu masalaga diaxronik yondashuvda shu narsa aniqlandiki, davrlar osha inson, shaxs tarbiyasida yagona model, umumiy ma'naviy ideal yo'qligi tufayli sinkretik xususiyatga ega axloqiy-estetik ideal alohida inson tafakkuri, madaniyatini bir belgisi sifatida o'z aslidan yiroqlashgan holda

pedagogik, aksiologik, falsafiy tadqiqotlar ob'ektiga aylangan.

Axloqiy-estetik idealni bir vaqtda, sinxronik o'rganishda qarashlar antogonizmi, tadqiqotlar xilma-xilligi shaxsni hayotidagi bu sinkretik, sintetik xususiyatga ega bo'lgan masalaga turli xil yondashganini guvohi bo'lish mumkin. Sinxronik yondashuvda esa bilimlarni ma'lum davrda, aytish mumkin-ki, bir vaqtni o'zida xilma-xil yo'nalishlar va qarashlarni mavjud bo'lish, ularning bir-biriga ta'sir ko'rsatishlari aniqlanadi, tadqiq qilinadi. Sinxronik yondashuv nuqtai-nazarida tahlil qilish shaxs axloqiy-estetik ideali muammosi bilan shug'ullanadigan ilm sohalarini ma'lum vaqt oralig'i doirasida o'ziga xos gorizontol chiziqqa "joylashtirib" tahlil qilishni bildiradi. Bir vaqtni o'zida shaxs axloqiy estetik idealini ontologik, gnoseologik, aksiologik, praksiologik va pedagogik sohalarda tahlil qilingan bo'lib, shaxs tarbiyasining bir-butun bo'lgan idealni turli parametrlarda o'rganishgan.

O'zbek xalq pedagogikasining tajribasidan aniqki, yoshlar tarbiyasida aqliy-axloqiy va estetik-hissiy tarbiyani asosiy sinkretik tamoyil qilib olib, didaktik, pandnasihat janrida bola shaxsni bir vaqtda ham axloqiy, ham estetik dunyoqarashini shakllantirishga harakat qilingan. O'z davrida shaxs tarbiyasidagi axloqiy-estetiklikni birligini Ibn Sino o'z pedagogik qarashlarida tarbiya "...aqliy tarbiya, jismoniy sog'lomlashtirish, estetik tarbiya, ma'naviy tarbiya, hunarga o'rgatish"[4,44b] singari bir butunlikda deb qaragan. An'anaviy tarbiyaning bir qismi bo'lgan kasb-hunar mehnat tarbiyasi asosida shaxsning axloqiy sifatlari "ustoz-shogirt" tizimida tarkib toptirilib, uning mehnat jarayonida tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan hissiy-estetik munosabati, o'z mehnatining natijasi, professional mahsulotidan zavqlanish, mehnat faoliyati natijasida forig'lanish singari immanent xislatlar shakllantirilib borilgan.

Zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri bu tarbiyalanuvchi yoshlarda idealni kompleks shakllantirishdir. Pedagogikaning zamonaviy tarbiya nazariyasi, turli didaktik vositalari va natijalari ham shu sinkretik axloqiy-estetik tarbiyaga qaratilmog'i kerak. Sof holdagi axloqiy nasihatgo'ylik qilishlik, ortiqcha didaktikadan foydalanish, yetishib kelayotgan barkamol avlodga nisbat pedagogik ta'siri tamomila yo'qotib bo'lgan. Hozirgi zamonning pedagogika fani tarbiyalanuvchi bolalarni estetik va axloqiy jihatdan tarbiya topishining yangi yo'llarini uning ongida go'zallik va ezgulik to'g'risidagi tasavvurlarining sinkretligi, muvofiqligi va birligi orqali izlamoqda. Pedagogika o'zining xususiyati yoki ilk maqsadidan ancha uzoqlashib, asl maqsadi bo'lgan kompleks shakllanishni nazardan qochirib qo'ydi. Pedagogik texnologiya ta'siriga berilib, oddiy insonning tarbiyasi uchun kerak bo'ladigan axloq-estetik idealni "animiya" darajasiga chiqarib qo'ydi. Hozirgi zamon pedagogik tadqiqotlaridan ma'lumki, bu masalaga faqat sinkretik yondashuv tarbiyalanuvchi bolalarning kamol topishini hamda ularning ongli ravishdagi axloqini, xulqini va estetik jihatdan yo'naltirilganlik, yaratuvchilik faoliyatini rag'batlantirishi mumkin.

Ta'lim amaliyotida an'anaviylik va zamonaviylik dialektikasini ta'sirida ta'lim falsafasi vujudga kelgan bo'lib, bu o'z navbatida pedagogika fanidagi murakkab tizimlar va tushunchalar klassik ta'lim tizimidagi falsafiy g'oyalar asosida kechgan. Zamonaviy pedagogika fanini asosiy tendensiyasi – uning shaxsni "anglash", o'z dunyoqarashiga asoslanishiga e'tibor qaratilganligidadir[5,47b]. Pedagogikaning zamonaviy muammolari yuzasidan amaliy ko'rsatmalar bergan faylasuf I.Kantning bu

boradagi fikri juda asoslidir. Kantning fikricha bola shaxsida faqat axloqiylik usutuvor bo'lsa-yu uning erkinligi, zavq-shavqini o'sishiga to'sqinlik qilinsa u holda tabiiylik buzilib, maqsadga erishish mumkin emas. Uningcha ushbu uyg'unlikka erishish mumkinligi haqida "sistemali tushuncha berish lozim. 1) Ruhiiy-ma'naviy tarbiya madaniyati - u bilim, mahorat, epchillik va takomillashuvga bog'liq bo'lib, yo tabiiy yoki axloqiy ko'rinishga ega bo'ladi. A) Tabiiy, bunda hamma narsa mashq va tarib-intizomga asoslanadi. B) Axloqiy, u tartib-intizomga emas, balki tamoyillarga asoslanadi. Bunda do'q-po'pisa, jazo berish va hokazolarga tayaniladigan bo'lsa, tarbiya buziladi. Chunki harakatlarning butun axloqiy qadr-qimmati faqat yaxshilik tamoyillaridan iborat bo'lib, tabiiy tarbiya axloqiy tarbiyadan tubdan farq qiladi. 2) Ruhiiy-ma'naviy tarbiya madaniyati, ya'ni bilish qobiliyati, tasavvur kuchi, xotira va diqqat-e'tiborning kuchliligi va hokazolarni ta'kidlash lozimki, bolalarda tasavvur kuchi nihoyatda kuchli bo'ladi[6,53-54betlar]. Kant ushbu fikri bilan pedagogikada bola shaxsi va umuman shaxs tarbiyasida yangicha innovatsion g'oyalar qo'llash vaqti kelgan, ta'lim jarayonida insonparvar tamoyillarni ustuvorligini oshirish, fikrni o'rgatish emas, balki fikrlashni o'rgatish pedagogik nazariyani aylanma o'qi, asosi bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda globalashuvning ijtimoiy-madaniy fenomeni tarzida namoyon bo'layotgan sportda shaxsning axloqiy-estetik idealini birligi masalasi dolzarblashayotganligi pedagogik muammodan falsafiy tahlil ob'ektiga aylanib borayotganligini ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda kishilarning axloqiy-estetik fazlatalari, tuyg'ulari, didlari va ma'naviy ehtiyojlarini shakllanishida sport axloqiy-estetik tarbiyaning eng samarali vositalaridan biri bo'layotganini guvohi bo'lish mumkin. Sport tomoshabopligi, tarbiyalovchi funksiyasi tufayli yaqqol ko'zga tashlanmoqda va uning bir vaqtda shaxs tarbiyasi uchun axloqiy-estetik jihatini namoyon bo'lishi yangi pedagogik-praksiologik tarbiya nazariyasini yaratilishiga asos bo'lishi mumkin.

Shaxs idealini sinkretik xususiyatga egaligi, zamonaviy pedagogikadagi ayrim muammolarni tahlilidan kelib chiqibquyidagi xulosalarga kelish mumkin: *birinchidan*, axloqiy-estetik ideal, obektiv borliqni bir vaqtning o'zida hissiy-emotsional idrokda go'zallik va garmoniya (yoki uyg'unlik)ni tushunish hamda abstrakt-nazariy bilishda ezgulik va yaxshilik tushunchalari orqali in'ikos etiladi;

ikkinchidan, shaxsning aksiologik ong doirasini kengaytirish hamda o'zgartirishda axloqiy-estetik ideallar alohida o'rin tutadi, modomiki ayni axloqiy-estetik ideallar shaxsning mukammallik to'g'risidagi qadrli tasavvurlari sifatida doimo o'z tarkibiga (yoki ichiga) qiyoslash jihatini qamrab oladi (ezgulik va yovuzlik, go'zallik va xunuklik tarzida) hamda xulqda, odatda va insonlarning muayyan hayotiy vaziyatida axloqiy jihatdan tanlab olish modelini belgilaydi;

uchinchidan, axloqiy-estetik ideal ijodiy energiyani yaratuvchilikka yo'naltiradi, eng universal insoniy intilishlarning birini rag'batlantiradi – o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishi va o'zini-o'zi kamolotga yetkazilish singari sinergetik xarkatga ega bo'lgan intilishlarni rag'batlantiradi.

to'rtinchidan, shaxsning axloqiy-estetik ideali madaniy-ma'rifiy funksiyasi ustuvor bo'lib, u sportda, san'atda va zamonaviy pedagogik tarbiya nazariyasida innovatsion g'oya sifatida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kagan M.S. Filozofskaya teoriya sennosti. – CPb.: 1997. – C.50.
2. Aymatov A. Shaxsning tabiatga eko-estetik munosabatini shakllantirish masalalari. T.: Fan va texnologiyalar, 2017, 12-bet.
3. Kant I. Kritika chistogo razuma. – Rostov na Donu: Feniks, 1999 – S.465.
4. Kaldibekova A. Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. T.: O‘zbekistonning milliy kutubxonasi, 2009 yil, 44-bet.
5. Kaldibekova A. Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. T.: O‘zbekistonning milliy kutubxonasi, 2009 yil, 47-bet.
6. Kant I. Pedagogika to‘g‘risida / P. Teshendorf (so‘z boshi), A. X. Saidov (kirish so‘zi); Nemis tilidan M. Akbarov tarjimasini. -Toshkent: «N150 RoP§gaG», 2013. -53-54-betlar.

NOCHIZIQLI TAFAKKUR MURAKKAB, TIZIMLI HODISA SIFATIDA

Z.Muminova

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti.

Annotatsiya

Nochiziqli tafakkur – bilish jarayonining komponentlaridan biri hisoblanib, tafakkur yo‘nalishining ko‘p variantlilik bilan xarakterlanib, bilishda tizim tabiatini yagona qat’iy aksiomalar sistemasi, qonunlarda adekvat aks ettirib bo‘lmazligi bilan ifodalanadi. Nochiziqli tafakkur tarzida sistemaga ta’sir etuvchi zaif ta’sirlar ham e’tibordan chetlashtirilmaydi. Sababi sistema fluktuatsiyalardan ham ta’sirlanadi. Kichik fluktuatsiyalar ta’siri hatto butun sistema strukturasi tubdan o‘zgartirishi mumkin. Demak, tizimning doimo barqarorligi, chiziqli holatiga kafolat bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar. Nochiziqli tafakkur, fizik, biologik va ijtimoiy jarayonlar, bifurkatsiya.

Annotation

Nonlinear thinking is considered one of the components of the cognitive process and is characterized by the multiplicity of the way of thinking, and the nature of the system in cognition cannot be adequately reflected in a single fixed system of axioms and laws. In the non-linear way of thinking, weak effects affecting the system are not ignored. The reason is that the system is also affected by fluctuations. The effect of small fluctuations can even fundamentally change the structure of the entire system. Therefore, there is no guarantee of constant stability and linearity of the system.

Key words. Non-linear thinking, physical, biological and social processes, bifurcation.

Nochiziqli tafakkur tarzida sistemadagi beqarorlik, xaotik holatlar tafakkurdan o‘rin oladi, ya’ni ularni ham e’tibordan chetga chiqarmaydi. Sistemaga tasodifiy ta’sirlarning roli yechuvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu o‘z navbatida nochiziqli tafakkurning ehtimoliy tafakkurlashi bog‘liq ekanligidan dalolat beradi»⁷⁰.

Nochizlilik jarayonining amalga oshishi uchun fundamental mexanizm vazifasini bifurkatsiya bajaradi. Chunki bifurkatsiya davrida sistema rivojlanishining bir necha yo‘llari va variantlari vujudga keladi. Bu yo‘llar va variantlar bir-biridan

tubdan farq qilishi mumkin. Sistemaning qaysi yoʻldan borishi esa koʻp jihatdan sistemadagi xaos holatining darajasiga bogʻliq. “Nochiziqli sistemalarda mikro darajadagi xaos, inqirozni keltirib chiqaruvchi faktor emas, balki oʻz-oʻzini tashkillashtirish uchun yangi kuch va turtki boʻladi”⁷¹. Yaʼni, sistemadagi mikro xaoslar, sistemaning halokatiga emas, oʻz-oʻzini tashkillashtirishiga va yangi-yangi sifatlarga ega boʻlishiga olib kelishi taʼkidlanmoqda. Shu oʻrinda sinergetikada xaosning ikki tabiatga ega boʻlgan hodisa sifatida eʼtirof etilishini taʼkidlash lozim. Bir tomondan, u bunyodkor boʻlishi, ikkinchi tomondan, vayronkor tabiatga ega boʻlishi mumkin. «Biz nochiziqlik deganda, sifat jihatdan har xil yechimlarga ega boʻlgan funksiyalarning notekis oʻsishini tasvirlaydigan matematik tenglamalarni tushunamiz»⁷², deb yozadi A.S.Ryabov.

Nochiziqli dunyo erkinliklarga boy, oʻzini oʻzi takomillashtirish imkoniyati keng boʻlgan va biz odatlangan chiziqli tartiblarga boʻysunmaydigan dunyo boʻlib, u oʻziga xos murakkabliklarga egadir. Uning tarmoqlangan aloqadorliklari koʻp boʻlgani uchun ham oʻzini oʻzi tashkillashtira oladi. Bu dunyodagi tasodiflar oʻzining qatʼiy qonuniyatlariga egadir. Shu sababli, sinergetikada tasodiflar chiziqli dunyodagidek diterminatsion aloqadorlik qonuniyatlariga boʻysunmaydi.

Nochiziqlik, tafakkurlashga, inson axloqiga, umuman, inson maʼnaviy borligʻiga, uning shakllanish jarayoni va mavjudligiga xos ajralmas jihatdir. Nochiziqli dunyo, oʻzini oʻzi tashkillashtiruvchi, oʻzini oʻzi tuzatuvchi, oʻzini oʻzi muvofiqlashtiruvchi, oʻzini oʻzi moslashtiruvchi dunyodir.

Inson bilish jarayonida nochiziqlikning namoyon boʻlishi haqida gapirar ekanmiz, nochiziqli tafakkur masalasiga alohida toʻxtalib oʻtishimiz lozim deb hisoblaymiz. XX asr boshlarida qoʻlga kiritilgan ilm-fan, texnika yutuqlari, bundan tashqari, murakkablashib borayotgan ijtimoiy siyosiy munosabatlar, bizni oʻrab turgan borliq va undagi murakkab jarayonlarni faqatgina klassik mexanika qonunlari doirasida tushuntirib boʻlmasligini koʻrsatib berdi. Insoniyat amaliy faoliyati davomida shunday hodisalar bilan toʻqnashadiki, ularni oʻsha davrda mavjud boʻlgan nazariyalar doirasida, ditermenistik sistema asosida tushuntirib berish mushkul boʻlib qoldi. Murakkab jarayonlarni va murakkab strukturalarni, murakkab sistemalarni izohlay olish imkoniyatiga ega boʻlgan tafakkur tarziga ehtiyoj tugʻildi. Nochiziqli tafakkur tarzi tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi bevosita sinergetika bilan bogʻliqdir. Ushbu tushuncha fanga fizik olim L. I. Mandelshtam tomonidan kiritilgan. “Sinergetikada I. Prigojin, G. Xaken, S. Kurdyumov singari olimlarning xatti-harakati bilan nochiziqli tafakkur zamonaviy postnoklassik fan paradigmasiga aylandi”⁷³. Garchi nochiziqli tafakkur tarzi, yangicha tafakkur tarzi boʻlsa-da, bugungi kunda u umumilmiy tafakkur tarzi darajasiga koʻtarildi. Nochiziqli tafakkur tarzida, fizik, biologik va ijtimoiy jarayonlarda beqarorlik, nomuvozanatlik, koʻpmaʼnolilik, tanlash imkoniyati, yangi strukturalarni oʻz-oʻzini yaratish jarayoni eʼtirof etiladi. I. Prigojin va I. Stengerslarning “Xaosdan tartibot” asarida “Bizning borliq haqidagi

⁷¹ Курдюмов С.П., Князева Е.Н. Основные принципы синергетического мировоззрения. - М., 2004. - С. 96

⁷² Рябов А.С. Категория случайности в свете синергетики // <http://www.dslib.net/ontologia/kategoriya-sluchajnosti-v-svete-sinergetiki.html>

⁷³ Лебедев С. А. Философские науки: Словарь основных терминов. - М., 2004. – С. 320

tasavvurlarimiz radikal o'zgarishlarni boshdan kechiryapti. Ko'p xillilik, murakkablik, shiddatli harakatlarni o'zlashtirish tomon o'zgaryapti"⁷⁴, deb nochiziqli tafakkurni bugungi kunda nafaqat ilmiy tafakkur tarzi, balki ijtimoiy tafakkur tarziga ham aylanib ulgurganligiga ishora qilinadi. Sinergetika "Yangi falsafiy tafakkur usuli sifatida bir chiziqlilik bilan birga chiziqsizlik tamoyilini ham yoqlaydi. Bu tamoyil taraqqiyot oldindan belgilab qo'yilgan muqarrar bir yo'ldan ketmay, har bir narsaning ichki bir xususiyati va tashqi aloqadorligi negizida har safar yangi va betakror yo'ldan borishini ko'rsatadi"⁷⁵.

Nochiziqli tafakkur tarzining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda insonning kelajakni bashorat qilish imkoniyatlari nihoyatda cheklanadi. Bundan tashqari, nochiziqli tafakkur tarzi doimo yangiliklarga tayyorligi bilan ham ajralib turadi. Agar chiziqlilik doimiylik, muvozanat holati, qat'iy algoritmik ketma-ketlik va muqobil variantlarni inkor etish bilan xarakterlansa, nochiziqlilik, o'zgaruvchanlik, xilma-xillik, beqarorlik, muvozanat holatidan uzoqlashish, tasodif va bifurkatsion holatlar bilan xarakterlanadi. «Sinergetik yondashuvga ko'ra nochiziqli tafakkur o'z tarkibiga kaos, tartibot, nomuvozanatlik, o'z-o'zini tashkillashtirish, bifurkatsiya, kogerent va kooperativ jarayonlarning obrazini konseptual unsur sifatida kiritib, postnoklassik fanning g'oyaviy-nazariy va metodologik zaminiga aylanmoqda"⁷⁶.

"Shuni inobatga olmog'imiz lozimki, sinergetika ilmiy yo'nalishi vujudga kelguniga qadar nochiziqli, muvozanatsiz, betartib holatlarga ijobiy munosabatda bo'linmagan. Aynan sinergetika ta'limoti tufayli tartibsizlik (kaos) holati ham taraqqiyot uchun, yangi tizim hosil bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi. Sinergetikada beqarorlik va kaos kategoriyalarining o'zaro munosabati ham o'rganiladi. Mazkur ilmiy soha tadqiqotchilarining fikriga ko'ra har qanday eski tuzilma yangi tuzilma bilan almashinar ekan, dastlab beqarorlik, kaos yuz beradi, tizimdagi unsurlar barqarorligiga putur yetadi"⁷⁷.

Murakkab, ko'p qirrali, ko'p variantli, nochiziqli sistemalar sinergetikada dissipativ sistemalar deb ham yuritiladi. Ko'plab o'zaro aloqada bo'lgan qismlardan tashkil topgan sistema, o'z-o'zini tashkillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonning, ya'ni o'z-o'zini tashkillashtirishning asosiy talabi, ushbu ko'plab o'zaro aloqada bo'lgan qismlardan tashkil topgan sistema, ochiq sistema bo'lishi lozim. Ya'ni, bu sistema o'zini o'rab turgan muhit bilan axborot, energiya va massa almashib turish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Yuqoridagi xossalarga ega bo'lgan va evolyutsion harakat belgilarini o'zida mujassamlashtirgan tizimlarni nochiziqli, dissipativ tizim deb aytishimiz mumkin bo'ladi. Kurdyumov: "Nochiziqli olam bu – an'anaviy, klassik fan qonuniyatlaridan farq qiluvchi olamdir. Bu murakkab strukturalar, turli qismlardan tashkil topgan evolyutsion bir butunlikdir"⁷⁸, deb ta'rif bergan. Nochiziqli sistemalarning o'ziga xos jihatlaridan biri, ulardagi evolyutsiya

⁷⁴ Пригожин И., Стенгерс И. "Порядок из хаоса". - М.: "Прогресс". 1986. – С. 182

⁷⁵ Абдурахмонов А. Сinergetika metodi hozirgi zamон faniда // Сinergetikанинг табиий- илмий ва фалсафий муммолари. - Н.: НамДУ., 2009. – Б.37.

⁷⁶ Абдурахмонов А. Сinergetika metodi hozirgi zamон faniда // Сinergetikанинг табиий- илмий ва фалсафий муммолари. - Н.: НамДУ., 2009. – Б.37

⁷⁷ Бозаров Д. Сinergetик парадигма. – Т., Тафаккур, 2010. -Б. 20.

⁷⁸ Курдюмов С.П., Князева Е.Н. Сinergetika: нелинейность времени и ландшафты коэволюции. - М.: Едиториал. 2007. - Б 19

suratini shiddat bilan o'sib borishi hisoblanadi. Notirik tabiatdan tirik tabiatni kelib chiqishi, tirik tabiat, xayvonot olamidani insoniyatning ajralib chiqishi, bugungi kundagi insoniyat dunyosidagi shiddatli o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi, insoniyat evolyutsiyasining surati tezlashib, oshib borayotganligidan dalolat beradi. Masalan, o'rta asrlar bilan solishtiradigan bo'lsak, islom mafkurasi VII asrda Arabiston yarim orolida paydo bo'ldi va O'rta Osiyoga kirib kelguniga qadar II asr vaqt kerak bo'ldi. Bugungi kunda esa, istalgan g'oya, yangilik nihoyatda qisqa muddatda istalgan hududga kirib bora oladi. Bu insoniyatni, jamiyatni ochiq tizimligi, bugungi kunda tashqi muhit bilan axborot va energiya almashish imkoniyatlari va suratlarini oshganligi, evolyutsiya su'rati oshganligi bilan belgilanadi. Bifurkatsion nuqtalar orasidagi masofa qisqarib bormoqda. Yana tarix nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, Insoniyat qadimgi tosh davridan o'rta tosh davriga o'tishiga bir necha million yil, o'rta tosh davridan yangi tosh davriga o'tishiga besh ming yil, bronza davriga o'tishiga ikki ming yil, temir davriga o'tishiga ming yil kerak bo'lgan. Yoki ibtidoiy jamoa davri bir necha million yil davom etgan bo'lsa, quldorlik bir necha ming yil, feodalizm bir necha yuz yil, kapitalizm bir necha o'n yilliklarda davom etayotganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. XX asr oxirlari texnika asri deb nomlangan bo'lsa, XXI asr boshlari allaqachon informatika asriga aylandi. Bu insoniyat evolyutsiyasi su'rati shiddat bilan o'sib borayotganligidan dalolat beradi. Ushbu jarayonda nochiziqlik, yoki dissipativlik retseptor vazifasini bajardi.

“Sinergetik tafakkur ilmiy ijodni nochiziqlik tarzida tahlil qilish orqali uning murakkab va ochiq tizim hamda o'z-o'zini tashkillashtirish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatishi bilan ham metodologik ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ilmiy ijoddagi tasodifiy (fluktuatsiyaviy), beqaror holatlar, ijodiy fikrlar rivojida xaosdan tartibga o'tish, ijodiy potentsialdagi entropik va negentropik o'zgarishlar, nochiziqlik ilmiy ijodiy izlanishlarni ko'p variantlilik masalalari ham sinergetik tafakkur doirasida batafsil tadqiq etiladi. Mazkur tafakkur uslubining shakllanganligiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, uning ilmiy ijodiy tadqiqotlarga ko'rsatayotgan ta'siri beqiyos hisoblanadi”⁷⁹.

Ochiq tizim ekanligi insonda nochiziqlikni ta'minlaydi. U ham jismonan, ham ruhan-ma'nan dissipativ, ya'ni murakkab, nochiziqlik, ochiq sistema hisoblanadi. Ya'ni, inson doimiy tarzda o'zini o'rab turgan tashqi olam bilan energiya, axborot va modda almashinish munosabatida bo'ladi. Oziqlanadi, nafas oladi, modda va issiqlik almashadi, ko'payadi, nobud bo'ladi, bilish, tafakkurlash, ijod qilish jarayonida axborot almashadi. Moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratadi, muloqotda va munosabatda bo'ladi. Ana shu xossa va hususiyatlarga ega bo'lgan inson, o'zining turli ehtiyojlarini qondirish maqsadida yana boshqa dissipativ sistemalarni ham yuzaga keltiradi, masalan, oila, mahalla, maktab jamiyat. V.P.Branskiyning fikricha, “Harakatlanayotgan va rivojlanayotgan murakkab sistemalarning barchasi uchun quyidagi uchta xislat xosdir: 1. Murakkab ichki tuzilma; 2. Namoyon bo'lish shakllarining xilma-xilligi; 3. Tashqi muhitga moslashish”⁸⁰. Ushbu uch holatni inson tafakkuri va bilish jarayoni bilan analogik tahlil qilishga harakat qilamiz. Dastlab

⁷⁹ Кодирова З. Синергетик тафаккур ва ижод // Синергетиканинг табиий- илмий, фалсафий муаммолари. - Н.: НамДУ., 2009. 94-95 б.

⁸⁰ Бранский В.П. “Теоретические основания социальной синергетики” // Вопросы философии, 2002. - Б 117

murakkablik haqida aytish joizki, biologik jihatdan inson nihoyatda murakkab tuzilganligi hammamizga ma’lum. Faqatgina miyaning o‘zi milliardlab neyronlardan tuzilganligi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Ijtimoiy-ruhiy jihatdan esa, inson undanda murakkabroq tuzilmadir. Ijtimoiy mavjudtd sifatida insonni shakllantiruvchi elementlarga, tafakkurlash, ijod, ruhiyat, tarbiya, axloq, fan, din, san’at kabi yana ko‘plab elementlarni kiritishimiz mumkin. E’tiborimizni qaratishimiz lozimki, ijtimoiy jihatdan insonni shakllantiruvchi elementlarning o‘zi ham murakkab sistemalaridir. Masalan, fan, dunyoqarash yoki ruhiyat. Ushbu murakkab sistemalarning o‘zaro munosabati va variatsiyasidan yana bir murakkab sistema, inson ma’naviy borlig‘i shakllanadi.

Namoyon bo‘lish shakllarining hilma-xilligiga keladigan bo‘lsak, bu yerda tanlash imkoniyati va nochiziqlik hal qiluvchi omil vazifasini bajaradi. Gap shundaki, sistemani tashkil etuvchi elementlar insonlarda turlicha variatsiyalanadi, ya’ni turli variantlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu elementlar turli insonlarda turlicha ta’sir nisbatiga ega bo‘ladi. Hattoki, bitta ijtimoiy muhitda, bir xil sharoitda turlicha ta’sir va turlicha namoyon bo‘lish shakllarini kuzatishimiz mumkin. Bitta oilada, bitta tarbiya sharoitida turlicha dunyoqarash va turlicha ma’naviy olamga ega bo‘lgan farzandlarning tarbiyalanishi, yoki bitta sinfda, turlicha bilimga ega bo‘ladigan bolalarning yetishib chiqishi, fikrimizga asos bo‘ladi. I.Prigojinning fikricha, “Sistemadagi xilma-xillik bu - “bifurkatsiya o‘yini”, mahsulidir”⁸¹. Bifurkatsiya va nochiziqlik, sistemada cheksiz hilma-xil namoyon bo‘lish shakllarini keltirib chiqaradi. Inson ma’naviy borlig‘ida nochiziqlikni keltirib chiqaruvchi omil sifatida o‘z-o‘zini harakatlantirish va o‘z-o‘zini tashkillashtirishni aytishimiz mumkin. O‘z-o‘zini harakatlantirish va o‘z-o‘zini tashkillashtirish omili inson faoliyatining turlicha bo‘lishini ta’minlab, ijtimoiy munosabatlarning rang-barangligini, murakkabligini va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Namoyon bo‘lish shakllarining xilma-xilligi va tashqi muhitga moslashish, bir-biriga bog‘liqdir. Tashqi muhitga moslashishning turli kishilarda turlicha kechishi, namoyon bo‘lish shakllarining xilma-xilligini ta’minlaydi. Tashqi ta’sirlarning o‘zgarib borishi va unga nisbatan insonlarning moslashish jarayonining xilma-xil kechishi, harakatlanib, rivojlanibboruvchi sistemalardagi xilma-xillikni keltirib chiqaradi.

Bola dunyoga kelgach, ham biologik, ham ijtimoiy ruhiy, ham ma’naviy jihatdan shakllanib, rivojlanib borish jarayoni nochiziqli tarzda kechadi. Har bir bolaning inson sifatida shakllanish jarayoni, takrorlanmas, o‘ziga xos kechadi. Bolani tarbiyalash jarayonining qat’iy, algoritmik ketma-ketlikka asoslangan, formulalarga tayanuvchi sistemasi mavjud emas. Shakl nuqtayi nazaridan oladigan bo‘lsak, bolaning shaxs va inson sifatida shakllanish jarayoni chiziqli ko‘rinishga ega. Bola dunyoga kelgach, dastlab oila muhitiga tushadi, ikkinchi bosqich maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, oily ta’lim bosqichlarida u bilim oladi, dunyoqarashi shakllanib, takomillashib boradi. Bir qaraganda, ushbu jarayon chiziqli xarakterga egadek tuyuladi. Chunki, boshlang‘ich ta’limsiz, o‘rta ta’limga yoki boshlang‘ich ta’limdan birdan oily ta’limga o‘tilmaydi. Bu qat’iy ketma-ketlikka, chiziqlikka bo‘ysunuvchi

⁸¹ Пригожин И., Стенгерс И. “Порядок из хаоса”. - М.: “Прогресс”. 1986. – С. 182

jarayondir. Lekin mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu jarayon uning barcha ishtirokchilarida o'ziga xos, takrorlanmas tarzda kechadi. Bitta sinfda o'qiydigan ikkita bir xil bilimli, dunyoqarashli o'quvchini yoki bitta oilada tarbiyalanayotgan ikkita bir xil bolani topish mumkin emas. Nochiziqlik insonda o'z-o'zini harakatlantirish jarayonini shakllantiradi va rivojlantiradi. Nochiziqlik inson oldiga u yoki bu alternativ yo'ldan birini tanlash imkoniyatini beradi. Insonda u yoki bu alternativ yo'ldan birini tanlash shunchaki tasodifiy tarzda sodir bo'lmaydi. Bu jarayon sistema elementlarining bir-biri bilan munosabatidan kelib chiqadi. Dissipativ, murakkab, nochiziqli, ochiq sistemalarda tanlash jarayonida barqarorlikka intilish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bifurkatsiya sistemaning beqaror holati hisoblanadi. Ushbu holatda tizim oldida bir necha yo'llar paydo bo'ladi. Barqarorlikka intilayotgan sistema ushbu yo'llardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ana shu holat inson ma'naviy borlig'idagi hilma-xillikni keltirib chiqaradi. Agar inson ma'naviy borlig'i nochiziqlik xislatiga ega bo'lmasa, inson oldida doimo bitta yo'l bo'lsa, inson ma'naviy borlig'i o'zining jumboqliligini, sirlilik jihatini yo'qotar edi va insonning u yoki bu vaziyatdagi xatti-harakatini bemalol oldindan bashorat qilish imkoniyati paydo bo'lar edi. Bundan tashqari, agar chiziqli sistemalarda kichik ta'sirlar, kichik o'zgarishlarni, katta ta'sirlar, katta o'zgarishlarni keltirib chiqarsa, nochiziqli sistemalarda ana shunday mutanosiblik yo'qoladi. Kichik bir ta'sir, katta o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, Nyutonning boshiga olma tushib ketishi va butun olam tortishish qonunining ochilishi. Yoki, aksincha, katta ta'sir, kichik bir oqibatni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Murakkab sistemalarni o'rganishga sinergetikaning yangidan yangi xulosalar berish imkoniyatini inobatga olgan holda rus faylasufi V.P.Branskiy sinergetikani "Yangi sifatlarning paydo bo'lishi haqidagi fandir"⁸², deb baho bergan. Chunki, sistemani tashkil etuvchi elementlarning turli tarzda variatsiyalanishi, nochiziqli tarzda tanlash imkoniyatining yuzaga kelishi, bifurkatsion holatlar, yangidan yangi sifatlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, fikrimizcha, inson ma'naviy borlig'ining atributiv jihatlaridan biri bo'lgan ijodkorlik ham jarayon sifatida nochiziqlik prinsipiga amal qiladi. Ijod qilish jarayonida insonning ham aqliy, ham ruhiy olamida nochiziqlik jihatini mavjud bo'ladi. Buni yaratilayotgan ijod mahsullarining xilma-xilligida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, kulolning ko'za yasash jarayonini ijodiy jarayon deb oladigan bo'lsak, ko'zaning tuzilishini, hajmini belgilab olishning o'zida kulol olida bir necha muqobil variantlar mavjud bo'ladi. Yoki shoirning, yozuvchining ijod jarayonida ham so'zlarni, personajlarni, holatlarni tanlashda ijodkorning oldida nihoyatda ko'plab variantlar bo'lishi, ijod mahsullarining bir-biridan farq qilishini va xilma-xil bo'lishini ta'minlaydi. Demak, inson ijod qilishi jarayonining nochiziqlik prinsipiga amal qilishi, ijtimoiy borliqdagi ko'p sifatlilikni, rang-baranglikni va xilma-xillikni ta'minlab beradi.

Inson tafakkur jarayonida nochiziqlik prinsipining amal qilishi xususida gapirar ekanmiz, fikrimizcha, insonda iroda erkinligining mavjudligi sababli, insonning aqliy faoliyati, bilish jarayonida nochiziqlikning namoyon bo'lishiga olib keladi. "Iroda

⁸² Бранский В.П. "Теоритические основания социальной синергетики" //Вопросы философии, 2002.- Б.116

erkinligi – har bir shaxsning individual erki, irodaviy mayli, xohish – istagi va ular orqali namoyon bo‘ladigan erkin faoliyatidir”⁸³. Ushbu tushuncha ijtimoiy-falsafiy xarakterga ega bo‘lib, insonning o‘z xatti-harakatlarini o‘z dunyoqarashiga ko‘ra mustaqil belgilab olishini, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga egaligini anglatadi. “Inson biror bir ishga azmu qaror etar ekan, yaxshilik va yomonlik, axloqiylik va axloqsizlik o‘rtasidan o‘ziga yo‘l tanlaydi. Bu tanlov insonning o‘ziga bog‘liq bo‘lganligi uchun inson axloqiy mas’uliyatga egadir”⁸⁴. Iroda erkinligi, o‘z xatti – harakatini o‘zi erkin tanlash imkoniyati, inson axloqidagi nochiziqlikni ta’minlaydi. Chunki hayot faoliyati davomida insonning oldida turli yo‘llar bo‘lib, o‘z e’tiqodi, o‘z hayotiy qadriyatlariga tayangan holda ma’lum vaziyatda, ma’lum harakat tarzini tanlaydi. Iroda erkinligi inson hayotiy faoliyatida batamom erkinlikni anglatmaydi. Iroda erkinligi, aqlga muvofiqlikni, vijdon amriga va qonunlarga bo‘ysungan holda o‘z xatti-harakatini tanlashni nazarda tutadi.

Iroda erkinligi muammosiga tarixda turlicha yondashuvlar shakllangan bo‘lib, fatalizm va volyuntarizm ta’limotlari aynan ushbu masalaga qaratilgan. “Fatalizm lotincha fatalis so‘zidan olingan bo‘lib, taqdirga oid, muqarrar, degan ma’noni bildiradi”⁸⁵. Fatalizm tushunchasi, diniy tushuncha bo‘lib, unga ko‘ra inson xudo tomonidan yaratilgan paytidayoq hayot yo‘li, taqdiri qat’iy belgilab qo‘yilganligini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, taqdiri azal, inson taqdiriga yozilganidan boshqa hech narsa qilolmasligi, fatalizm ta’limotining mazmuni hisoblanadi. Ushbu yondashuv inson va uning hayotiga chiziqli yondashuv hisoblanib, insonda o‘z xatti-harakatiga nisbatan ma’suliyatini pasaytirib, taqdirning “passiv” quliga aylantirib qo‘yadi. Bunday yondashuv sharqda musulmon falsafasi, xususan, kalom falsafasida ustuvor bo‘lgan. Lekin Sayid Axmadxon, Abu Kalom Ozod, Muhammad Iqbol kabi ko‘plab musulmon falsafasi namoyondalari fatalizmni tanqid qilib, inson o‘z hayoti, taqdiri uchun o‘zi ma’sul ekanligini ta’kidlab o‘tishadi. Chunki insonga ong berilgan bo‘lib, oqilonalik yordamida yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Iroda erkinligi masalasi volyuntarizm ta’limotida ham ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu ta’limot nemis faylasuflari Shopengauer va Nitsshe tomonlaridan ishlab chiqilgan. “Volyuntarizm lotincha voluntas so‘zidan olingan bo‘lib, iroda degan ma’noni bildiradi”⁸⁶. Ushbu ta’limotda instinktiv tarzda shakllangan iroda insonning barcha intilishlarining asosida turishi ta’kidlab o‘tiladi. Unga ko‘ra, “inson irodasi erkin bo‘lib, turli hayotiy vaziyatlarda uning oldida bir necha yo‘llar, variantlar bo‘lib, ulardan birini tanlash inson ixtiyoridadir”⁸⁷.

Fikrimizcha, inson axloqida, umuman, ma’naviy borlig‘idagi nochiziqlik, xilma-hillikni ta’minlaydigan yana bir omil bu – insonda hayotiy ideallarning turlicha bo‘lishidadir. Gap shundaki, turli insonlar turlicha hayotiy ideallarga egadirlar, turlicha hayotiy maqsadlar bilan yashaydilar. Hayotiy maqsadlar esa insonni hayot yo‘lida yo‘naltiruvchi, u yoki bu yo‘lni tanlashga undovchi kuch hisoblanadi. “Ijtimoiy

⁸³ Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. - Т., 2013. - Б. 110

⁸⁴ Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати.- Т., 2013. - Б. 110

⁸⁵ Фалсафа қомусий луғат. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – Б. 372

⁸⁶ Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. - Т., 2013. - Б. 49

⁸⁷ Гуннар Скирбекк, Нилс Гиле. История философии. - Москва: Владос, 2000. - Б. 592

тезаурус бу – ijtimoiy tuzilmalarda, xususan, insonda ham ma'lum sharoitda va vaziyatda bir necha imkoniy holatlarning mavjud bo'lishidir"⁸⁸.

Bugungi kunda insonlarning tabiatga, jamiyatga, o'z navbatida, tabiatning, jamiyatning inson hayotiga ta'siri ortib bormoqda. Tabiatga ko'rsatilayotgan har qanday ta'sir insonlar hayotida ham o'z aks ta'sirini topadi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish, insonni o'z xatti-harakati uchun ma'suliyat hissini oshirish nihoyatda muhimdir. Garchi insonga o'z faoliyatini erkin tanlash imkoniyati berilgan bo'lsa-da, ushbu tanlovida har doim o'z manfaatlarini birlamchi deb bilish insonning tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabatini shakllanishiga, natijada global ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Yoki ijtimoiy munosabatlarga kirishishda ham inson tanlash imkoniyatidan to'g'ri foydalansa, o'z tanlovida insonparvarlik, axloq me'yorlari, oqilonalikk tamoillariga tayansa, hayotiy tanlovlari nafaqat o'sha insonning o'z hayotiga, balki atrofdagilar hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Курдюмов С.П, Князева Е.Н. Основные принципы синергетического мировоззрения. - М., 2004. - С. 96
2. Рябов А.С. Категория случайности в свете синергетики // <http://www.dslib.net/ontologia/kategoriya-sluchajnosti-v-svete-sinergetiki.html>
3. Лебедев С. А. Философские науки: Словарь основных терминов. - М., 2004. – С. 320
4. Пригожин И., Стенгерс И. “Порядок из хаоса”. - М.: “Прогресс”. 1986. – С. 182
5. Абдурахмонов А. Синергетика методи ҳозирги замон фанида // Синергетиканинг табиий- илмий ва фалсафий муаммолари. - Н.: НамДУ., 2009. – Б.37.
6. Абдурахмонов А. Синергетика методи ҳозирги замон фанида // Синергетиканинг табиий- илмий ва фалсафий муаммолари. - Н.: НамДУ., 2009. – Б.37
7. Бозаров Д. Синергетик парадигма. – Т., Тафаккур, 2010. -Б. 20.
8. Курдюмов С.П., Князева Е.Н. Синергетика: нелинейность времени и ландшафты коэволюции. - М.: Едиториал. 2007. - Б 19
9. Қодирова З. Синергетик тафаккур ва ижод // Синергетиканинг табиий-илмий, фалсафий муаммолари. - Н.: НамДУ., 2009. 94-95 б.
10. Бранский В.П. “Теоритические основания социальной синергетики” // Вопросы философии, 2002. - Б 117
11. Пригожин И., Стенгерс И. “Порядок из хаоса”. - М.: “Прогресс”. 1986. – С. 182
12. Бранский В.П. “Теоритические основания социальной синергетики” // Вопросы философии, 2002.- Б.116
13. Маънавият асосий тушунчалар изохли лугати. - Т., 2013. - Б. 110

⁸⁸ Бранский В.П. “Теоритические основания социальной синергетики” // Вопросы философии 2002. - Б 117

14. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати.- Т., 2013. - Б. 110

15. Фалсафа қомусий луғат. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – Б. 372

16. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. - Т., 2013. - Б. 49

17. Гуннар Скирбекк, Нилс Гиле. История философии. - Москва: Владос, 2000. - Б. 592

Бранский В.П. “Теоритечиские основания социальной синергетики” // Вопросы философии 2002. - Б 117

TA’LIM SISTEMASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Ergasheva Maxbuba Xotambekovna
SamDU, f.f.d (DSc).

Annotatsiya: Innovatsiya – bu har qanday yangilik emas, balki amaldagi tizimning samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan yangilikdir. Ta’lim tizimida ham har qanday yangilik innovatsiya sifatida qabul qilinmasligi, faqatgina, ta’limning mazmuniga sezilarli o‘zgarish, ta’sir, konstruktiv mohiyat bera olgan yangiliklargina ta’lim innovatsiyasi bo‘la olishi mumkin.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ta’lim sistemasi, texnologiya, taraqqiyot, yangilik, nazariya.

Bugun butun dunyo taraqqiyotini, rivojlanishini, innovasion jarayonlarsiz tasavvur etish qiyin. Zero, O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyadir” [1; 19]. Bundan shunday mulohazaga kelish mumkinki, bugungi davrda O‘zbekiston ta’lim tizimiga turli innovasion g‘oyalarning kirib kelishi, qo‘llanilishi aynan mamlakatimizni har jihatdan rivojlangan, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kiritish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Global taraqqiyot davrida har qanday sohada texnologiya, siyosat, ijtimoiy hayot, fan va ta’lim, iqtisod va h.k. sohalarda innovasion g‘oyalar juda tez sur’atlarda kirib kelayotganini kuzatish mumkin. Innovatsiya termini bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar fan va ta’lim sohasida qo‘llaniladi va barcha mamlakatlar izohli lug‘atlarida ma’no jihatdan juda yaqin izohlanadi.

Innovatsiya atamasi lotin tilidagi “novatsio” so‘zi o‘zagidan kelib chiqqan bo‘lib yangilanish (o‘zgarish) biror bir yo‘nalishda taraqqiyot degan ma’nolarni bildiradi. Innovatsiya tushunchasi ko‘proq iqtisodiy atama sifatida bo‘y ko‘rsatsada, uning huquqiy mazmun-mohiyati davlatlar tomonidan yangi texnologiyalarni rivojlantirish fonida boyib bordi. Innovatsiya ilmiy huquqiy adabiyotlarda dastlab 19 asrda paydo bo‘lgan bo‘lib, bugunga kelib butun bir faoliyatga aylandi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi [3]. “Innovatsiya” konsepsiyasi XX asr boshlarida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi J.Shumpeterning ilmiy asarlarida “innovasion kombinatsiyalar”, iqtisodiy tizimlar rivojlanishining o‘zgarishi tahlili natijasida yangi hayotga ega bo‘ldi. Shumpeter 1900 yillarda birinchilardan bo‘lib bu atamani iqtisodiyotda ilmiy foydalanishga kiritdi [2; 320]. Innovatsiya – bu bozorda talab qilinadigan jarayonlarning samaradorligini va

(yoki) sifatini yaxshilashni ta'minlaydigan joriy qilingan yoki joriy qilinayotgan yangilik. Shu bilan birga, uni amalga oshirish uchun yangilik hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarni qondirishi kerak. Yangi iste'molchi xususiyatlariga ega bo'lgan mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) bozoriga chiqish yoki ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish samaradorligining oshishi innovatsiyalarga misol bo'la oladi. Ta'limda ham xuddi shunday, ta'lim oluvchilar talablarini inobatga olgan, ma'lum bir jamiyat, ijtimoiy tizim manfaatlarini ifoda etadigan yangiliklarning qabul qilinishi samarali natijalarga olib keladi.

Ta'lim sistemasida innovatsiya masalalarida ko'plab xalqaro tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, K.Angelovskiy o'qituvchining innovasion faoliyati xususida, N.R.Yusufbekova ta'limdagi innovasion g'oyalar nazariyasini ishlab chiqishda, O.G.Xomeriki ta'lim muassasalarida innovasion faoliyatni joriy etilishida rahbar kadrlar o'rni masalasida, M.V.Klarin jahon pedagogikasida innovasion ta'lim mavzusida, Yu.Kuz'mina oliy ta'limdagi o'quv jarayonini tashkil etishda innovasion yondashuv masalasida, M.Voronov ta'lim tizimida kasbga yo'naltirishdagi yangicha yondashuv borasida, E.Zeyer innovasion ta'limning barkamollikka yetaklashi xususida, Mark Fuster raqamli o'qish va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish borasida, Odri Djakomini ta'limdagi hamkorlik asosida innovatsiyalarni joriy etish orqali o'quv jarayonini sifatini yaxshilash masalasida, shuningdek, I.Dichkivskaya hamda S.Kondratyevlar yangi innovasion texnologiyalar va zamonaviy ta'limga innovasion yondashuv masalalarida o'z tadqiqot natijalarini taqdim etishgan. O'zbekistonda ta'lim jarayonining innovasion mohiyati, ta'limdagi innovatsiyalar, innovasion faoliyat, innovasion texnologiyalar va innovasion jarayonlar xususida N.N.Azizxo'jayeva, J.Yo'ldoshev, U.Nishonaliyev, N.S.Sayidahmedov, M.Ochilov kabi olimlarimiz ilmiy tadqiqot olib borishgan. Ta'lim tizimida innovatsiyaning qabul qilinishida xaotik jarayon konstruktiv mohiyatni ifodalaydi.

Innovatsiya – bu har qanday yangilik emas, balki amaldagi tizimning samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan yangilikdir. Ta'lim tizimida ham har qanday yangilik innovatsiya sifatida qabul qilinmasligi, faqatgina, ta'limning mazmuniga sezilarli o'zgarish, ta'sir, konstruktiv mohiyat bera olgan yangiliklarga ta'lim innovatsiyasi bo'la olishi mumkin.

Aslida yangilik, o'zgarish dunyo taraqqiyoti bosqichlarining har birida mavjud bo'lib kelgan. Faqatgina 19 asrdan aynan innovasion jarayon sifatida tushunila boshladi. Dastlabki g'ildiraklar, yashash joylari, dunyo mo'jizalarining yaratilishi barchasi innovasion tafakkur natijalaridir. Demak, jamiyat a'zolari azaldan innovasion tafakkurga moyil bo'lib kelgan. Innovasion tafakkurga moyillik ma'lum bir ehtiyojlar natijasidir. Innovasion tafakkur va faoliyat evolyusion taraqqiyot davrlarida ehtiyojlarning doimiy o'zgarib, ortib borishi natijasida yanada takomillashib borgan. Shuni ham inobatga olishimiz lozimki, har qanday yangilik ham innovatsiya bo'la olmaydi. Butun bir tizimning o'zgarishiga, taraqqiyotiga sezilarli ta'sir etgan yangiliklarga innovatsiyalar bo'la oladi. Masalan, insoniyat tarixida olovning ixtiro qilinishi, daslabki yozuvning paydo bo'lishi, birinchi kitob, birinchi qog'oz, mashina, havo layneri, suv taransportlari va hokazo innovatsiyalar butun bir dunyo taraqqiyotiga sezilarli ta'sir eta olgan. Shuning uchun ham, innovasion tafakkur, innovasion faoliyat

hayot mavjud ekan, mamlakatlar, jamiyat, ijtimoiy tizim, ta'lim tizimi bor ekan, hamisha mavjud bo'lib qolaveradi.

Insoniyat hamisha hayotini yaxshilash maqsadida yangilikka ehtiyoj sezadi, ammo yangilikni qabul qilishi murakkab jarayon hisoblanadi. Ma'lum bir innovasion g'oyaning qabul qilinishida turli munozaralar, bahslar, xaotik jarayonlar sodir bo'lishi mumkin. Azaldan jamiyatda ma'lum bir innovasion g'oyaning kirib kelishi xaotik jarayonlar orqali kechgan va oxir oqibatda ma'lum tartibotga kelingan. Ma'lum bir innovatsiyaning qabul qilinishi jamiyatda ko'pincha keskin munozaralar, fluktatsion holatlar, tebranishlar, xaotik jarayonlar orqali kechadi. Eski ta'lim tizimi bilan yangicha texnologiyaga asoslangan ta'lim tizimi almashinuvida bu jarayonni kuzatish mumkin. Innovatsiyalar ahamiyatini baholash ham o'ta murakkab. Har bir innovatsiya insoniyatning og'irini yengil qilish maqsadida fan va ta'limning samaradorligi asosida shakllanadi. Innovasion g'oyalarning shakllanishi jamiyatning talab va ehtiyoji ortib borishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda gen injeniriyasi, kosmologiya, nanotexnologiya, tibbiyotdagi ulkan yutuqlar, biotexnologiya, agrotexnologiya, biokimyo kabi integratsiyalashgan sohalardagi yangilik va o'zgarishlarning barchasi innovatsion g'oyalar sifatida ma'lum laboratoriyalarda shakllanmoqda. Bugungi kunda innovatsiya har bir jamiyat taraqqiyotining eng asosiy omili bo'lib qoldi. Innovatsiya orqali mamlakatlar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohalarda yuksalib borayotgani ma'lum. Shuning uchun ham bugun deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar innovasion g'oyalarga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Jumladan, Germaniya tadqiqot va ishlanmalarga YAIM ning 2,7 foizini, AQSH - 2,8 foizini, Yaponiya - taxminan 3,5 foizini, Belarusiya - YAIMning 0,74%, Rossiya - 1,04% ini sarflaydi [4]. Bu davlatlarning iqtisodiy, siyosiy qudrati ta'limdagi innovatsiyalarni tezda amaliyotga joriy etilishida ko'rishimiz mumkin.

Har bir innovatsion g'oya qaysi sohaga kirib kelishidan qat'iy nazar fan va ta'limning mahsuli hisoblanadi. Samarali va yuksak berilgan ta'lim, albatta, yuqori natijalarga, yangi innovatsiyalarga asos bo'ladi. Ta'lim tizimining har bir bosqichi yoki sohasida kirib kelgan innovasion faoliyatda xaotik jarayon orqali ma'lum bir tartibot shakllanadi. Masalan, boshqaruv sohasidagi har qanday o'zgarish yoki yangilik qabul qilinishi, qo'llanilishi, joriy etilishi hamisha murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda fluktasion holatlar, tasodifiy og'ishlar kuzatiladi va bir necha muqobil variantlardan biri tanlanadi.

Ta'lim sistemasidagi innovasion g'oyalarning kirib kelishini quyidagi holatlarda kuzatish mumkin:

- Pedagogik tizimning tubdan yangilanishiga qaratilgan o'zgarish va innovatsiyalar.

- O'quv jarayonini o'zgarishi bilan bog'liq innovatsiyalar.

- Pedagogik nazariyaning, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liq innovatsiyalar.

- Pedagogik texnologiyaning yangilanishi.

Xulosa sifatida quyidagi mulohazaga kelish mumkin:

Birinchidan, ta'lim sistemasida har bir innovatsion g'oyaning kirib kelishi fluktasion o'zgarishlar, murakkab xaotik jarayonlar asosida kechadi. Innovatsion

faoliyat, innovatsion g'oyalarning tadbiq etilishida mazkur xaotik jarayon taraqqiyotga, bunyodkorlikka xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, innovatsion g'oyalar qabul qilinishidagi murakkabliklar sohada tanqidiy tafakkurni, yuksak malakani, zamonaviy texnologiyani olib kiradi hamda ko'p hollarda ta'lim tizimining konstruktiv rivojiga asos bo'ladi.

Uchinchidan, bugungi ta'lim sistemasi zamonaviy talablariga javob berish ta'lim muassasasi hamda ta'lim beruvchilarni doimiy o'z ustida ishlashga, har bir ta'lim innovatsiyalaridan xabardor bo'lishga, innovatsion faoliyatning haqiqiy sub'yekti va amalga oshiruvchisi bo'lishga undaydi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2021. – Б. 19.

2. Базилевич В. Д. 12. 1. 2 Неортодоксальна теория Й. А. Шумпетера // История экономичних учень: У 2 ч.. — 3-е издание. — К.: Знання, 2006. — Т. 2. — С. 320.

3. Саидов Ш. Инновацион фаолиятнинг қонуний асослари. <https://buxoro.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=39452>.

4. Рейтинг стран мира по уровню верховенства закона – Гуманитарный портал. gtmarket.ru. Дата обращения: 17 марта 2021.

GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIGA TA'SIRI

Usenov Jiengaliy

Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti v.v.b

Annotatsiya. Maqolada yoshlar ma'naviy tarbiyasini shakllantirishning samarali usullaridan biri – bu xalq donishmandligi, xalq og'zaki ijodiyoti haqida malumotlar berilgan. Qoraqalpoq xalqi azaldan og'zaki ijodga boy xalqlardan biri bo'lib, ular o'z farzandlarini naql-maqollar, hikmatli so'zlar, mif va afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar orqali tarbiyalab milliy o'zligiga sodiq inson qilib tarbiyalaganligi asoslangan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, milliy xarakteri, tarixiy makon, mentalitet, falsafiy meros, globallashuv, mif, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, doston

IMPACT OF GLOBALIZATION PROCESSES ON THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH

Abstract.

The article provides information about one of the effective methods of forming the spiritual education of young people - this is folk wisdom, folk oral art. The people of Karakalpak have long been one of the peoples rich in oral creativity, and it is based on the fact that they raised their children to be loyal to their national identity through proverbs, wise words, myths and legends, narratives, fairy tales, epics.

Key words: spiritual education, national character, historical space, mentality, philosophical heritage, globalization, myth, legends, narratives, fairy tales, epic

Milliy mentalitet – bu xalqning tafakkur darajasi, ma’naviy imkoniyati, aql-farosati, milliy xarakteri, milliy o‘zligini ko‘rsatadigan belgilar yig‘indisidir. Har bir xalq milliy mentalitetining shakllanish jarayonlaridan biri – tarixiy zamon va makon bo‘lib hisoblanadi. Demak, milliy mentalitet – tarixiy makon va zamonda o‘z rivoj topadigan daraxt misolidir. Chunki har bir xalq xalq bo‘lib shakllanguncha ma’lum bir tarixiy davrda, tarixiy makonda yashaydi. O‘sha erning tabiati, muhiti, birga umrguzoronlik qilayotgan boshqa xalqlarning o‘zaro ta’siri ham shu xalq milliy mentalitetining paydo bo‘lishida o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Bir hududda yashayotgan xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlar, an’analar, to‘y-u ma’rakasi, madaniyati aralashib, bir-biriga ta’sir qilishi orqali vaqt o‘tishi bilan shu xalq milliy mentalitetining shakllanishiga olib keladi. Natijada, har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan jihatlarini aks ettiradigan milliy mentaliteti shakllantiriladi.

Qoraqalpoq xalqining tarixiy makon va zamonda shakllanish evolyutsiyasi, xalqning pandnoma, nasihatnoma va eposlari yoshlar ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda axloqiy-ma’naviy manba ekanligi, shu bilan birga qoraqalpoq mutafakkirlarining boy falsafiy merosining yoshlarning ma’naviy tarbiyasini shakllantirishdagi o‘rni va roli haqida bayon etilgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda yoshlarning tarbiyasi kuchli darajada mustahkam bo‘lsa, bunday millatning kelajagi yorqin bo‘ladi, agar yoshlarning ma’naviyati past, nochor bo‘lsa, unda bunday millatning kelajagi yo‘q. Shu sababli, jamiyat yoshlarning tarbiyasiga yanada kuchli e’tibor qaratilishi lozim. Bugun O‘zbekistonda yoshlar masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ham mana shunday yuksak maqsadlarni ko‘zlagan holda amalga oshirilmoqda.

Yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasini shakllantirishning samarali usullaridan biri – bu xalq donishmandligi, xalq og‘zaki ijodiyoti desak, adashmaymiz. Qoraqalpoq xalqi azaldan og‘zaki ijodga boy xalqlardan biri bo‘lib, ular o‘z farzandlarini naql-maqollar, hikmatli so‘zlar, topishmoqlar, tez aytishlar, mif va afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar orqali tarbiyalab milliy o‘zligiga sodiq inson qilib tarbiyalagan.

Bugungi qoraqalpoq yoshlarining milliy mentaliteti qanday? Ularning milliy mentalitetni tushunish darajasi qay darajada? Globallashuv davrida yoshlarimiz ongida milliy mentalitetning emirilish jarayoni boshlanib, umumiy etiket esa shakllanib borayotgan bir vaqtda falsafiy dunyoqarashning ahamiyati va roli qanday bo‘lishi kerak? Bu masalalarni tahlil qilib ko‘rish uchun dastlab falsafiy dunyoqarashning tarixiy ildizlarini, odob-axloq va ma’naviy manbalarini aniqlab olishimiz maqsadga muvofiq.

Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Har qanday xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari o‘z-o‘zidan, yo‘q joyda paydo bo‘lib qolmaydi. Ularning yuzaga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lganligini hammamiz yaxshi bilamiz”[1.7] yoki Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk tarixda hech narsa izsiz qolmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy shakllarda yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham u qudratli”[2.29],-degan fikrlari teran falsafiy mazmunga ega.

Xalq milliy mentalitetining shakllanishiga ma’lum bir tarixiy makonning va

tarixiy-ijtimoiy hodisalarning ta'siri haqida adabiyotshunos olim, professor S.Bahadirova bunday yozadi: «Xalqning xulqi, urf-odati, mentaliteti o'zi yashab turgan joy, tabiat bilan bog'liq shakllanadi. Qoraqalpoqlar erkinlikni, keng maskanni yaxshi ko'radigan, yolg'on so'zlashni, shumlikni, yomonlikni bilmaydigan, yaxshi ko'rsa, berilib yaxshi ko'radigan, halol, odamga mehribon, oq ko'ngil, yuragi toza xalq. Do'st uchun har narsaga tayyor xalq. Uning shunday xulqi qiyinchilikni ko'p ko'rganidan, odamning odamga qadri nima ekanligini bilganidan shakllangan bo'lishi kerak»[3.16].

Qoraqalpoq xalqi azaldan boy og'zaki ijodga ega bo'lgan xalqlardan biri bo'lib, ular o'z farzandlarini naql-maqollar, hikmatli so'zlar, jumboqlar, tez aytishlar, mif va afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar orqali tarbiyalab milliy o'zligiga sodiq insonlar sifatida tarbiyalashga qaratganlar. O'tmishdan bizga meros bo'lib qolgan milliy tarbiya – yoshlar tarbiyasining asosi bo'lib, xalq donoligida:

Oylanıp-bilip babalar,
Sózdi dúrge teńegen,
Oylanıp aytqan hár sózin,
Oylama kem dep gawhardan,-deb aytib o'tiladi.

Ota-bobolarimizning o'z farzandlarini uch so'z bilanoq tarbiyalagani bizni hayratga soladi. Bu so'zlar: «uyat bo'ladi», «yomon bo'ladi», «uvol bo'ladi». «Uyat bo'ladi» degani – uyat o'limdan ham qattiq bo'lib, «uyattin' ustinde tanimdegi janim menen ar-namısım turadı», degani. Shu sababli dono xalqimiz «jer jarılmadı, men kirmedim» deb naql etgan.

«Yomon bo'ladi» degani – «yomonlikdan ovloq yur!», «yomondan qoch, yaxshiga yondash», «yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z jon qozig'i», shuning uchun ham «yaxshining sharofati, yomonning kasofati tegadi» degani. Xalqimiz bola tarbiyasida juda ehtiyotkor bo'lib, hattoki farzandlariga achchig'lansa ham, ularni yomon so'zlar bilan qarg'amay, ko'ngiliga tegmasin deb yaxshi so'z bilan, yaxshi tilak bilan koyigan. Masalan, «ha, ko'p yashagur!», «ha, o'zidan ko'paygur!», «ha, etti xazinaga duch bo'lgur!» va h. so'zlarni aytib, qaytanga yoshlarni ulug' ishlarga da'vat qilgan. Shuning natijasida «yaxshi so'zga jon semirib», ularning chiroyli tilaklari bilan o'rab aytilgan koyishlari ham Alloh taola dargohida qabul bo'lib, bolalari baxtli, serdavlat, ko'p farzandli bo'lgan, uzoq umr ko'rgan. Olimlarning ta'kidlashicha, dono so'zlarda karomat ko'p bo'lib, odam o'z og'zidan chiqqan so'zga kun sayin yaqinlashib borar ekan.

«Uvol bo'ladi» degani – tabiatdagi hamma narsaning so'rovi bor, hattoki suvning ham so'rog'i bor bo'lib, sen uchun hech qanday qadri yo'q narsani boshqa odam topa olmay yurgan bo'lishi mumkin, shuning uchun hech narsani zoya qilma, ortiq hech narsa yo'q, har bir narsaning qadrini bil, isrofgarchilikka yo'l qo'yma, uvol bo'ladi degani.

Xalqimizning xalq bo'lib shakllanishi qadimgi vaqtlardagi urug', qavm birlashmalariga borib taqaladigan bo'lganlikdan ular azaldan jamoa bo'lib yashashga, qo'ni-qo'shnicilikka, urug'-aymoqchilikka, qarindoshning ori uchun ot solishga intilib kelgan va hozirda ham shunday milliy o'ziga xosliklarini saqlab kelmoqda. Bunday milliy tarbiya belgilari xalqimizning og'zaki ijodida ham o'z aksini topgan. Masalan, qo'ni-qo'shnicilik haqida: «Atalastin' atı ozgansha, Awillastin' tayı ozsın»,

«Gilem satsañ qoñsıña sat, Bir shetinde óziñ otrasañ», «Jaqsı qoñsını satıp al», «Jaqsı qoñsı jarasıq», «Qoñsı bolsañ qorğan bol», «Qoñsını qozgama kóshirerseñ, Otti qozgama óshirerseñ», «Qoñsı qoñsıdan tálim aladı»; urug'-aymoqchilik va tug'ishganlik haqida: «Tórt ayaqlıda bota tatıw, eki ayaqlıda bóle tatıw», «Gárga tamırlı qaraqalpaq», «Ağayın bolsañ urıwlas, Arımız ushın dawlas», «Urıwlı el – uyalı terek», «Uw ishseñ urıwıñ menen» kabi naql-maqollar yaratilgan. Agar ushbu hikmatli so'zlarning ma'nosini chaqib qarasak, xalqimizning urug'chilik an'anasining saqlanib kelayotganining ham o'ziga xosligi borligini ko'rishimiz mumkin. Agar yigit vaqti kelib uylanadigan bo'lsa, o'ziga munosib qiz tanlaydi. Qiz bilan tanishganda uning qaysi urug'danligini so'raydi. Nima uchun? Chunki qiz o'zining urug'idan bo'lmasligi uchun. Maboda qiz yigitning urug'doshi bo'lib chiqsa, yigit u qizga ortiqcha so'z aytishdan o'zini to'xtatib, uni singlisiday ko'rib, endi unga og'asiday munosabatda bo'ladi. Xalqimizning milliy mentalitetiga xos bo'lgan bu o'ziga xoslik natijasida ming yillardan beri ota-bobolarimiz avlodning sog'-salomat unib-o'sishini, qonining tozaligini, avlodning aslligini ko'z qorachig'iday saqlab kelmoqda. Demak, xalqimizning urug' bo'lib yashashiga faqat bir tomonlama qaramay, ularning avlod kelajagini o'ylab ish tutishi ayni milliy tarbiya, uzoqni ko'zlab qilingan donolik deb tushunishimiz va yoshlar ongiga ham shu milliylikni singdirib borishimiz kerak ekan.

Xalqimizning Doston va eposlari – xalqimiz ma'naviyatining tugamas bulog'i, asl marjonlari, og'zaki adabiyotining gultoji bo'lib, ularga shaxsni va xalqni tarbiyalashning haqiqiy namunalari sifatida qarab, undan yoshlar milliy mentalitetini shakllantirishda foydalanishni bugungi globallashuv davrining o'zi kun tartibiga qo'ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 7.
- 2.Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б. 29
- 3.Баҳадырова С. Қарақалпақ қандай халық. -Т.: «Наврўз», 2017. –Б. 16.
4. Яхшиликков, Жўрабой Яхшиликкович, and Ҳамида Абдумажидова. "Модернизация тушунчаси такомиллашувининг методологик масалалари хусусида." *Интернаука* 14-3 (2021): 91-9

BARHAMOL AVLODNI TARBIYALASH – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Djuraqulov Husan

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali falsafa fanlari doktori (DSs), dotsent Tel: +99893-334-85-31
E-mail: djurakulov-84@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimiz taraqqiyotining bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari va bu jarayonda bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiyaning konstruktiv

ahamiyati atroflicha tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: islohot, sogʻlom avlod, barkamol avlod, taʼlim, tarbiya, maʼnaviy-maʼrifiy omillar.

Abstract.

In this article, the priority directions of educating young people, who are the creators of our country's development, to become mature and well-rounded individuals in all aspects, and the constructive importance of modern education in this process are analyzed in detail.

Key words: reform, healthy generation, mature generation, education, training, spiritual and educational factors.

Yurtimizda keyingi yillarda olib borilayotgan bunyodkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi islohotlar, maʼnaviy-maʼrifiy tizimdagi yangilanishlar zamirida eng avvalo, sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning oʻz ijodiy hamda intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarishi, ularni bugungi zamonaviy dunyo talablariga toʻliq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazish masalasi turibdi. Bu borada Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida yuqori minbardan turib: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson boʻlib kamolga yetishi bilan bogʻliq.

Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zoʻravonlik gʻoyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi koʻp tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim” [1, 2 b.] - deb, qatʼiy fikrni ilagari surgani ayni haqiqatdir. Shu sababli ham hozirda bu boʻyicha barcha zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan hamkorlikka asoslangan keng koʻlamli aniq yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, taraqqiyotning haqiqiy darajasi mamlakatda tarbiyalanayotgan insonlar qiyofasi bilan belgilanadi. Millat kelajagi yorqin, farovon va erkin boʻlishi uchun, avvalo, uning yaratuvchilari, yaʼni bunyodkorlari ham jismonan, ham maʼnaviy sogʻlom boʻlishi shart.

Bu jarayonni amalga oshirishda taʼlim va tarbiya ishlarini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish va uni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Bu borada, taniqli rus olimi P.L.Kapitsa haqli ravishda, “Zamonaviy yoshlarni toʻgʻri tarbiyalash uchun ularda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash zarurligiga shubha yoʻq va bu insonning individual moyilligi va qobiliyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi hamda maktabdan boshlab, oliy oʻquv yurtlarida davom ettirilishi kerak. Bu juda muhim vazifadir, uni hal etish nafaqat sivilizatsiyamizning kelajagini bitta mamlakatda, balki global miqyosida belgilash mumkin. Bu vazifa tinchlik va atom urishining oldini olishdan muhimroqdir” [2, 251 b.] - deb, taʼkidlagan edi. Biz buni toʻgʻri anglagan holda yurtimizda sogʻlom yangi avlod va yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek masʼuliyatli vazifani ado etishimizni davrning oʻzi taqozo etmoqda. Sogʻlom avlod deganda, avvalo, har tomonlama sogʻlom nasl, maʼnan va jismonan baquvvat, ruhan pok, iymon-eʼtiqodi butun, intellektual salohiyati yuqori boʻlgan bilimli, maʼnaviyati yuksak, mard va jasur, ota-onasini, oilasini, mahallasini, vatanini sevuvchi avlodni tushunishimiz mumkin.

Bugungi kunda o'g'il-qizlarimizning jahon andozlariga mos sharoitlarda bilim olishini, ya'ni ta'lim sifatini yuksaltirish orqali jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishini ta'minlash, qobiliyat va iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan beqiyos say-harakatlar natijasida bir qancha yutuqlarga erishdik.

Hech shubhasiz, har qanday millat o'z farzandlarining barkamol bo'lishini orzu qiladi. Davlatimizning bosh siyosati ham kelajak avlodning istiqlolini ta'minlashga, zarur shart-sharait yaratishga, ularni yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bugun yuksak cho'qqilarga erishayotgan yoshlarni kuzatib, hayratimiz ortadi. Sport arenalarida, san'at pillapoyalarida erishayotgan yutuqlaridan behad g'ururlanamiz. Mustaqillik tufayli mamlakatimizda yoshlarga ta'limning eng so'nggi yutuqlaridan samarali foydalangan holda bilim berish, ularni vatanparvarlik va milliy urf-odatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash tizimining zamon talablari darajasida takomillashtirib borilayotgani muvaffaqiyatlarning muhim omili bo'lmoqda. Zero, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash haqida g'amxo'rlik qilish bugungi siyosatning ustuvor yo'nalishidir.

Shu bilan birga 2016 yil 18 oktabr kuni Islom hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida so'zlagan nutqida Shavkat Mirziyoyev: «Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda: ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir» [1, 3 b.], - deb jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-ma'rifiy omillar ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Bu yo'nalishdagi istiqbolli rejalarga:

- har bir shaxsga chuqur zamonaviy bilim berish;
- ta'lim, tarbiya va targ'ibot tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish;
- qonunchilik tizimida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq muayyan mexanizmlarni optimallashtirish kabi masalalarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1993 yil 4 martda qabul qilingan farmoniga muvofiq ta'sis etilgan mustaqil Vatanimizning ilk ordeni – «Sog'lom avlod uchun» deb nomlanishi ham istiqlolning ilk yillaridan bu masalaga nechog'li ulkan e'tibor qaratilganidan dalolatdir. Zero, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashdek ezgu niyatni amalga oshirish imkoniyati mustaqillik sharofati bilan paydo bo'ldi. Buyuk davlatni barpo etishga qodir barkamol avlodni – mustaqil insonni tarbiyalash uchun zarur barcha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda ma'naviy imkoniyatlar tobora kengaymoqda.

Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini mamlakatimizning kelajagi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi avlod vakillari hayotga dadil kirib kelmoqda. Yoshlarimiz siymosida muayyan kasb, ba'zan bir necha yo'nalish bo'yicha diplom olgan, bir necha xorijiy tilni o'rgangan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, mustaqil inson sifatida shakllangan, bir so'z bilan aytganda, el-yurt xizmatiga shay, yuragi yonib, ko'zlaridan o't chaqnab turgan navqiron yigit-qizlarni ko'rib, qalbingizda ishonch, g'urur-iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi.

Shuning uchun ham respublikamizda kelajagimiz bo‘lmish yosh avlodni tarbiyalash va ta’lim berish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilib kelinmoqda. Yurtimizda yosh avlod tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilishi natijasida oilada sog‘lom turmush tarzini vujudga keltirish, ona va bola salomatligini ta’minlash, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, urf-odatlarimiz va boshqa qadriyatlar tizimida unut bo‘lgan jihatlarni qayta tiklash kabilarga e’tibor kuchaytirildi va yosh avlod dunyoqarashining munosib shakllanishiga katta zamin yaratildi. Zero, barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom qilib o‘stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. Aynan mana shunday har tomonlama yetuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo‘yayotgan o‘ta murakkab, og‘ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, biz ko‘zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Xulosa qilib aytganda, har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki kelajakni yosh avlod — farzandlarimiz yaratadi. Shunday ekan barcha sa’i-harakatlarimizning negizida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom qilib o‘stirish, ularning farovon kelajagini qurish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash barchamizning ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Nyu-York shahri, 2017 yil 19 sentabr) // “Xalq so‘zi”. 2017. - 20 sentabr, № 189 (6883). -B.2

2. Kapitsa P.L. Eksperiment. Teoriya. Praktika: Stati i vystupleniya. – M.: Nauka. 1987. – S. 251.

3. Mirziyoyev SH.M. Tinchlik, ma’rifat va bunyodkorlik yo‘lida hamkorlik. // Xalq So‘zi. 2016, 19 oktabr. -B.3

AXLOQIY BARKAMOLLIK – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING MA’NAVIY ASOSI

Xidirov Xoshim Ibodullaevich

Jizzax politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar”

kafedrasida dotsenti, f.f.d. (PhD)

+99899-138-00-04

Annotatsiya: Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning inson ahloqiga bog‘liq tomonlari hamda ahloqiy barkamollikning ushbu salbiy illatni bartaraf etishdagi o‘rni va roli haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, ahloq, ahloqiy barkamollik, davlat, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, muomala, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab, xatti-harakat odobi.

MORAL INTEGRITY - AGAINST CORRUPTION SPIRITUAL BASIS OF STRUGGLE

Abstract: The article talks about the aspects of fighting corruption related to human morality and the place and role of moral integrity in eliminating this negative evil.

Key words: Corruption, ethics, moral integrity, state, education, upbringing, spirituality, treatment, behavior, manners, education, manners, manners.

Jamiyatning tanasida, uni emiruvchi «qurt» sifatida paydo bo‘lgan korrupsiyani faqat jismoniy kuch ishlatish, siyosiy-huquqiy jihatdan choralar ko‘rish orqali o‘ldirib bo‘lmaydi. Uni yo‘q qilishning eng optimal vositalaridan birini jamiyat a‘zolarini axloqiy jihatdan baramol qilib tarbiyalash orqali voyaga etkazishdan iborat. «Axloq» – arabcha so‘z bo‘lib, kishining tabiati, muomala, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab, xatti-harakat odobi degan ma’nolarni anglatadi. [1, 120 b.] Ushbu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarni o‘zida mujassam etadi. Demak, jamiyatning serqirra va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi «axloq» tushunchasini kategoriya sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin.

Axloq inson va jamiyat o‘rtasidagi ob‘ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarining majmuidir. [2, 58 b.]

Axloq ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamoalar bilan shaxslar o‘rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy munosabat sifatida insoniyat jamiyati bilan bir vaqtda vujudga kelgan. U o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida quyidagi vazifalarni bajargan:

– umuminsoniy madaniyatning inson tabiiy xislatlarini o‘zgartiruvchi faoliyat shaklidagi tarkibiy qismi;

– jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma’naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;

– kishilarning ichki tuyg‘ulari, hissiyotlarini o‘stirib, umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlarni anglab etish, asrash va kelgusi avlodlarga etkazib berish yo‘llaridan eng afzali;

– oila va kundalik turmushda mavjud bo‘lgan oilaviy burch, o‘zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an’analarni avloddan-avlodga o‘tkazish asosida davom ettirish vositasi;

– adolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g‘oyasi va h.k. [3, 95 b.]

Axloqiy barkamollikning asosiy maqsadi va vazifasi insonda asl insoniy fazilatlarni shakllantirishdir. Lekin bu ancha murakkab va qiyin ish. Chunki, bir tomondan, har qanday barkamollik asosida bilim yotadi. Ikkinchi tomondan, bilimlar o‘z-o‘zidan insonni tarbiyalamaydi. Ular tuyg‘ular, ishonch, ixlos bilan bog‘lansagina, insonning ichki e’tiqodiga, dunyoqarashi unsuriga aylanadi. Insonning har qanday e’tiqodi, jumladan, axloqiy e’tiqodi aql orqali, ijobiy bilimlar orqali vujudga keladi. [4. 372-373 b.]

Korrupsiyaga qarshi odamlarining axloqiy e'tiqodni shakllantirishda axloqiy - ma'naviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy-ma'naviy tarbiya axloqiy barkamollikni shakllantirish va rivojlantirishning tamal toshlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham axloqiy-ma'naviy tarbiya sohasida ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish nihoyatda xatarli. Axloqiy-ma'naviyat tarbiya sohasida xo'jako'rsinga ish qilish iqtisodiy va siyosiy sohalarda kutilmagan turli inqirozlar, ayniqsa korrupsion holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilari, mahalla-ko'yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'urish; tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo'lganligi singari, o'zi ham ularga kerakli bo'lishga intilishi; odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlash; milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lib qolish; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi; o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyillik, birovning og'irini engil qilishni odat qilish; umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko'rsatish; Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash; diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish; va'daga vafoli bo'lish; korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi murosasiz bo'lish va boshqalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. J.1. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.120.
2. Muhammadiev N.E. ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. Darslik. Ikkinchi nashri. – T.: IIV Akademiyasi, 2014.- B. 58
3. Muhammadiev N.E. ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. Darslik. Ikkinchi nashri. – T.: IIV Akademiyasi, 2014.- B. 95
4. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. 2-kitob. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2018. - B.372-373.

OILAVIY QADRIYATLAR BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI

Mamadiyorova Malika

Navoiy davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Oila insonning qadriyat maqomini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan u insonning dunyoga bo'lgan qadriyat munosabatining asoslarini yaratadi. Bu holatda hech qanday ijtimoiy ta'lim oilani o'rnini egallay olmaydi. Gap shundaki, oilada tarbiyaning asosiy kuchi o'zaro muhabbat tuyg'usidir. Oilaning insonga nisbatan eng muhim vazifasi shundaki, u ijtimoiyni individuallashtirishni amalga oshiradi. Bu shaxsning ijtimoiy funksiyalarni shaxsan ahamiyatli deb qabul qilishida,

ulardan foydalanishda u o‘zining individualligini tasdiqlashi va rivojlanishini topishi yoki agar ular uning qadriyatlaridan farq qilsa, ularni rad etishida namoyon bo‘ladi”⁶³.

Kalit so‘zlar: oilaviy qadriyatlar, individuallik, xavfsizlik hissi

FAMILY VALUES ARE THE BASIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Key words: family values, individuality, sense of security

The family plays a decisive role in the formation of the value status of a person. It is he who creates the foundations of a person's attitude towards the world. In this case, no social education can replace the family. The fact is that the main force of education in the family is the feeling of mutual love. The most important function of the family in relation to a person is that it carries out social individualization. It is manifested in the fact that a person perceives social functions as personally important, in using them he confirms and develops his individuality, or rejects them if they differ from his values.

L. P. Fomina nuqtai nazaridan oilaviy qadriyatlarni ikki tur bilan ifodalash mumkin: “o‘zini o‘zi ta‘minlaydigan va instrumental⁶⁴ qadriyatlar. O‘zini o‘zi ta‘minlaydigan turga oilaning ijtimoiy mavqei va ijtimoiy ahamiyati, qarindoshlar, yaqin odamlar va jamiyat oldidagi javobgarlik, bolalarga, turmush o‘rtog‘iga, otionalarga mehr, hurmat va muhabbat kiradi; o‘zini namoyon qilishda amalga oshiriladi. Instrumental turdagi qadriyatlar orasida qadriyat munosabatlar, qadriyat fazilatlar, qadriyat bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalardir. Ularning shakllanishi ota-ona oilasida sodir bo‘ladi va ular inson hayoti davomida rivojlanadi va amalga oshiriladi, ular oilali odam shaxsiyatining asosini tashkil qiladi”⁶⁵.

Tarixdagi oilaviy qadriyatlarning evolyusiyasi vaqt o‘tishi bilan oila ichidagi tushunchalar va munosabatlarning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Turli davrlarda va madaniyatlarda oilaviy qadriyatlar o‘xshashlik va farqlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, qadimgi davrlarda oila aniq ierarxik bo‘lib, aniq oila boshlig‘i va har bir a‘zo uchun aniq rollar mavjud edi. Vaqt o‘tishi bilan oilaviy qadriyatlar ijtimoiy-siyosiy muhit va iqtisodiy vaziyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi yangi jihatlariga ega bo‘ldi. Bunga oilaviy qadriyatlar individualizm va oila ichidagi vazifalarni taqsimlash tomon siljigan sanoat rivojlanishi davri misol bo‘la oladi. Tarixiy voqealar oilaviy qadriyatlarga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatadi, masalan, urushlar va mojarolar paytida oilalar birlik, xavfsizlik va o‘zaro yordamni boshqa qadriyatlardan ustun qo‘yishlari mumkin. Tarixiy kontekstni o‘rganish oilaviy qadriyatlarning evolyusiyasi va o‘zgarishini va ularning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan munosabatlarini tushunishga yordam beradi.

Shunday qilib, oilaviy qadriyatlarning mazmuni shaxsiy rivojlanishning barcha sohalarini qamrab olishi kerakligini ta‘kidlash mumkin: jismoniy, aqliy (intellektual),

⁶³ Radjapova N., Nazarova M. N. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ В ПРОДВИЖЕНИИ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 412-419.

⁶⁴ Фомина Л.П. Понятие и типы ценностных ориентаций. - Л., 1976. С. 48.

⁶⁵ Кучуб Н. А. Семья как ценность развивающегося социума и личности // Вестник ОГУ. 2008. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/semya-kak-tsennost-razvivayuschegosya-sotsiuma-i-lichnosti> (дата обращения: 18.04.2024).

estetik, mehnat, axloqiy va boshqalar.

Oilaviy qadriyatlar – bu muhim deb hisoblangan va oila tarkibida avloddan-avlodga o‘tadigan e‘tiqodlar, tamoyillar va ideallar tizimi.

Key words: historical thinking, historical consciousness, historical knowledge, history, self-awareness, education in the national spirit

Tarixiy tafakkur ongli, tajribali va bilimli ichki “stimul-vositalar” ning mahsulidir. Mohiyatan “tafakkur - ob’ektiv olam in’ikosining oliy shakli, tushunchalar, nazariyalar, narsa va hodisalarning muhim bog’lanish va aloqalarini aks ettirish, yangi nazariyalar, g’oyalar yaratish, bo’lajak jarayonlarni bashorat qilish kabilarda namoyon bo’ladigan faol jarayondir” [1]. Xullas, tafakkur kishining sub’ektiv faoliyatiga taalluqli tushunchalari, nazariy qarashlari, g’oyalaridir. Tarixiy tafakkur esa retrospektiv informatsiyalar ta’sirida shakllangan tushunchalar, qarashlar, g’oyalar yig’indisidir. Tarixiy tafakkur tasodifiy hodisa emas, u avlodlar o’rtasida kechadigan aloqalar, ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllana boradi va ushbu aloqalar, munosabatlar to’xtamaganidek tarixiy tafakkurning shakllanish jarayoni ham, to inson umrining oxirigacha to’xtamaydi

Mamlakatimizda milliy ma’naviyatini rivojlantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, o’z-o’zini anglash, milliy his-tuyg’ular, g’urur, vatanparvarlikni kamol toptirish va mustahkamlash bilan ma’naviy xavfsizlikni mazmun, mohiyatini konkretlashtirish barkamol avlod tarbiyasida muhim o’rin egallaydi. O’zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari o’tmish milliy ma’naviyatining davomi bo’lib ularga do’slik, mehmondo’slik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o’zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchalik, xushfe’llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlilik, shirinso’zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo’ylik, halollik, oru-nomuslilik, to’g’rilik, rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o’tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g’urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma’naviy - axloqiy fazilatlar kiradi. Bulardan ma’lum bo’ladiki, o’zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud ekan.

Tarixiy tajriba, ananalarning meros bo’lib o’tishi bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog’i lozim. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o’ziga rom etib kelayotgan markaz bo’lib qolganligi tasodifiy emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va sanat ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan. Manaviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbai ananaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o’zaro yordamlashish kelajak avlod haqida g’amxo’rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo’lib kelgan. Afsuski, bu qadriyatlarga ham sovet davrida jiddiy putur etdi. Tarixiy tadqiqot shuni ko’rsatdiki ma’lum mafkura yoki g’oya bilan sug’orilgan metodologiya yoki ilmiy ish yillar o’tishi bilan o’z qadr-qimmatini yo’qotadi. Bunda tarix fani va tarixchilar ma’suliyati haqida fikr mulohazalari hamda aniq ilmiy-falsafiy

konseptual mushohada qilishga va tarixni bundan ham aniqroq mohiyatini tasavvur qilish mumkin bo‘ladi, chunki bu g‘oya o‘z ilmiy-falsafiy asosiga ega. Asos qilib tarix fanining metodologik ilmiy-nazariy asos va tamoyillarini ishlab chiqish hozirga kelib eng dolzarb muammolardan bo‘lib turibdi. Xususan: “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas”[2]. SHuning bilan bir qatorda, milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalasida xushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir oqibat o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chiqib qolishimiz mumkin. Ayniqsa, yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasida beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha erda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. YOki aksincha qaerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha erda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi

Tarixiy bilishni va tarixiy tafakkur muammolarini bir mafkura doirasida hal qilib bo‘lmaydi. Biron-bir tarix tadqiqotchisi, tarixga qanchalik real ob’ektiv yondashmasin bari-bir qadriyatli yondoshmasdan iloji yo‘q bunga misol qilib quyidagi misolni ko‘rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixni anglash orqali kishida hayotni va o‘zligini anglash qobiliyati shakllanadi. Ayniqsa, buyuk ajdodlarning vorislari bo‘lgan, bashariyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan millatga daxldor inson qalbida o‘tmishini o‘rganishga ehtiyoj kuchayadi. Uning milliy g‘ururi mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan yurt farovonligi uchun uni kamarbasta bo‘lishga chorlaydi. Zero, tarix sahnalarida o‘tmishi qora qilib ko‘rsatilgan, ma’naviyati poymol etilgan, ma’rifatparvarlari tazyiq ostiga olinib, qatag‘onga uchragan xalq va millatning asl tarixiy yuzini qayta tiklash, milliy merosini o‘rganish, bugungi avlodlar zimmasidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi va jamiyatda tarixiy ong, tarixiy xotiraning rivojlanishi ushbu vazifaning sifatli va samarali bajarilishiga hal etuvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Falsafa qisqacha izohli lug‘at. - Toshkent: «SHarq», 2004. - B. 303
2. Jo‘raev N. Tarix falsafasi. - Toshkent: «Ma’naviyat», 1999. -B 19.
3. Karimov S.K. O‘rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy fikrining dastlabki nazariy manbalari. Samarqand, 1993. -B.5

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH FALSAFIY TA’LIM ASOSI

Tursunova Olmos Fayzievna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida

Annotatsiya

Maqolada falsafiy ta’lim - tarbiyali bo‘lish uchun har bir shaxs umumijtimoiy bilimga, uni ongli ravishda qabul qilishga va madaniyatli bo‘lishga etarli darajada falsafiy saboq olishi kerakligi yoritib berilgan

Kalit soʻzlar: fuqarolik jamiyati, falsafiy taʼlim – tarbiya, shaxs, ijtimoiy ong, qonun, metod, hatti-harakat.

THE BASIS OF PHILOSOPHICAL EDUCATION FOR EDUCATION OF A PERFECT GENERATION

Abstract

Philosophical education is explained in the article - in order to be educated, every person should receive enough philosophical lessons to gain general social knowledge, to consciously accept it and to be civilized.

Key words: civil society, philosophical education - education, personality, social consciousness, law, method, behavior.

Oʻzbekiston fuqarolik jamiyati barpo etish sari qadam qoʻyib, bu yoʻlda falsafiy taʼlim-tarbiya, ijtimoiy ongni takomillashtirish masalalariga katta eʼtibor berib kelmoqda. Bu masʼuliyatli vazifada mehnat jamoalarida, bilim maskanlarida va har bir shaxs bilan olib borish borasida koʻp qirrali ishlar qilinmoqda.

Respublikamiz Oliy Majlisi tomonidan 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan: «Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun»i fikrimizning dalili boʻladi. Jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun xalqning ijtimoiy madaniyatini oshirish lozim, bu esa savodxonlikni, falsafiy taʼlim-tarbiyani oshirishni talab qiladi.

Falsafiy taʼlimning keng va tor maʼnoda koʻrish mumkin. Keng maʼnoda butun jamoaning, koʻpchilikning ongiga taʼsir koʻrsatishga qaratilgan taʼlim, tor maʼnoda esa alohida shaxsga, uning ongiga taʼsir etish yoʻllari tushuniladi.

Falsafiy taʼlim natijasida keng omma yoki shaxs oʻz hatti – harakatlarning ijtimoiy ekanligini tushunsa, axloq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa oʻzini ongli ravishda, jamiyat normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan boʻlib hisoblanadi.

Demak, falsafiy tarbiya bu - tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni koʻzlagan va shaxsga «guruh shaxslariga» taʼsir qila oladigan, ularda ong, bilish, dunyoqarash, ijtimoiy normalarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir.

Maʼlumki, ijtimoiy munosabatlarga rioya qilish uchun, eng avvalo falsafani bilish kerak. Falsafiy taʼlim- tarbiya orqali har bir shaxsning ongiga nima qilmoq mumkin, nima qilmoq mumkin emasligini, jamiyat, davlat undan nimani talab qiladi, harakat yoki harakatsizlik nimadan iborat ekanligini etkazmoq lozim.

Tartib buzuvchilar orasida oʻz hatti-harakatining noqonuniyligini anglamaslik, noqonuniy ekan deb ham oʻylamaslik va bunday harakatni jazoga loyiq emas deb tushunish koʻp uchraydi. Shunday tushuncha hosil boʻlmasligi uchun falsafiy taʼlim - tarbiya jarayonida har bir jamiyatda oʻrnatilgan tartibni buzish, ijtimoiy munosabatlarga rioya etmaslik natijasida intizomiy, maʼmuriy, moddiy yoki jinoiy jazo kelib chiqishini tushuntirish, uqtirish zarur.

Shaxs va jamiyat oʻrtasida vujudga keladigan munosabatlarning rivojlanish printsiplariga mos boʻlishi shaxs faoliyatini yoʻnaltirib turuvchi hayotiy pozitsiyaga bogʻliq. Hayotiy pozitsiya esa taʼlim- tarbiya jarayonida shakllanadi. Shu sababdan ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq shaxs tarbiyasini jamiyat oʻz naʼzoratiga olgan va

bu vazifani bajarishga eng dono kishilarga topshirgan. Shaxsni yashashga o'rgatish jamiyat faoliyatining muhim sohalaridan biri bo'lib kelgan. Ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni biror-bir foydali ishga, faoliyatga o'rgatish demakdir. Masalan, yoshlarni biror hunarga, muomalaga, san'atga, yurish turishga va boshqalarga o'rgatish.

Falsafiy ta'lim-tarbiya boshqa turdagi tarbiya bilan o'zaro yaqin. Masalan, shaxsda mehnatga bo'lgan munosabatni shakllantirishda ko'r-ko'rona itoatkorlikka emas, balki jamiyat va davlat manfaatlariga, davlatning tartib va qonunlarini hurmat qilishga o'rgatish lozim.

Axloq normalari bilan falsafiy normalar bir biriga juda yaqin turadi. Shaxs axloqsiz bo'lsa, u falsafiy qonunlar talabiga rioya qilmaydi. Binobarin, bunday shaxsni falsafiy tarbiyalash samarasiz bo'ladi, hatto jazo choralarini ham to'g'ri yo'lga solish qiyin.

Ijtimoiy munosabatlarni o'qitish deyilganda davlat organlari tomonidan tasdiqlangan dastur asosida shaxsga bilim berish tushuniladi. Falsafiy bilim berish umumiy va maxsus yo'nalishlarda bo'lish mumkin. Masalan, falsafa fakultetlarida, «faylasuf» malakasi beriladi. Xalq maorifi tizimining barcha bo'g'inlarida aniq dastur asosida umumiy falsafiy bilim beriladi.

Falsafiy fanlarni o'rganish jamiyat a'zolari bilishi lozim bo'lgan olam, inson va jamiyatning obyektiv-universal mohiyati, bilish, qadriyatshunoslik, insonning amaliy faoliyati, tafakkur shakllarini turli vositalar yordamida aholi orasida tashviqot qilishdir. Axloq falsafasini va nafosat falsafasini aholiga tushuntirish muhim printsipl bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, inson falsafasi, ijtimoiy falsafa, tabiat falsafasi, madaniyat falsafasi, san'at falsafasi, mafkura falsafasi, din falsafasi, siyosat falsafasi, huquq falsafasi, texnika falsafasi kabi fanlar ham jamiyat rivoji uchun muhim hisoblanadi.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning maqsadi ma'lum vositalar, shakl va metodlar yordamida shaxsning ongiga ta'sir ko'rsatib, unda falsafiy yo'nalishlar, sohalar, tizimlar, umuman falsafiy g'oyalarni makon va zamon talabiga muvofiq holda tanlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Falsafiy ta'limning asosiy maqsadi shaxsda falsafiy nazariyani shakllantirish, yani insonning olamga bo'lgan munosabatini, olamni anglashi, qadriyatlar to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lishi, insonning predmetli-o'zgaruvchan, amaliy faoliyati, o'zgaruvchan faoliyat usullarini tarbiyalashdir. Falsafiy ta'lim-tarbiya shaxsning bolalik chogidan umrining oxirigacha davom etadigan tarbiyaviy jarayonni o'z ichiga oladi. Bu jarayon davrida shaxs oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktabda, maktabdan tashqari muassasalarda, oliy ta'limda, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash idoralarida falsafiy ta'lim-tarbiya oladi. Demak, falsafiy ta'lim-tarbiya bosqichma-bosqich beriladi. Bosqichli falsafiy ta'lim-tarbiya berishdan maqsad yoshlarning falsafiy bilimlar va ko'nikmalarini tarkib toptirishni uzluksiz ta'minlashdir.

Masalan, hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida falsafiy fanlar o'tilyapti.

Falsafiy ta'limning oldiga qo'yilgan umumiy vazifa shaxsga falsafiy tafakkur va unga amal qilish yo'llarini o'rgatish. Falsafiy ta'limning ijtimoiy vazifasi shaxsda insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarni hayotda qo'llay olish, «donishmandlikni

sevish», «hikmatni qadrlash» qobiliyatini tarbiyalashdir.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri shaxsda hayot qonuniyatlarini yaxshi bilishga ehtiyoj o'yg'otish, yani o'zini mustaqil ravishda ijtimoiy munosabatlarga tayyorligini tarbiyalashga odatlantirishdir. Falsafa qonuniyatlariga hurmat ruhida tarbiyalangan shaxs qonun va kategoriyalarga muntazam ravishda o'rganib boradi va boshqalarni ham shunday qilishga da'vat etadi.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning shakllari asosida fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari, professor-o'qituvchilarining olib borgan ishlarining tashqi ko'rinishidagi ta'sir yo'li, ta'sir etish usullari yotibdi.

Falsafiy ta'lim-tarbiya shakllari har bir shu ish bilan shug'ullanuvchi uslubida o'z ifodasini topadi.

Masalan, o'quv yurtlarida falsafiy ta'lim-tarbiya shakli, mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilarnikidan farq qiladi. O'quvchilarga dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtda-suhbat, suhbatni falsafiy qoidalarini o'rgatish, o'yin darslari o'tkazish tariqasida olib boriladi.

Falsafiy ta'lim-tarbiya shakllari quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) falsafiy bilim; b) falsafiy tashviqot; v) jamoatchilik tomonidan olib boriladigan ishlar; g) falsafa fani bo'yicha ilmiy ish olib boruvchilarning ilmiy ishlari bilan tanishish; d) faylasuflar jamiyati ishlarida ishtirok etish. Falsafiy ta'lim-tarbiyani jamoa o'rtasida yoki individual shaklda amalga oshirish mumkin.

Yoshlarni falsafiy bilimga va falsafiy tarbiyaga jalb etishda etuk faylasuflar bilan uchrashuv o'tkazilishi, savol-javob kechalari tashkil etilishi yoki faylasuflar uyushmalari to'zilishi ijobiy natija beradi. Individual yakka tarzda falsafiy bilim berishda, falsafiy tarbiyalashda shaxsga maxsus adabiyotlar tavsiya etilishi, unda qiziqish uyg'otish, tarbiyalanuvchining ruhiy holatini o'rganib, u qabul qila oladigan, tushuna biladigan tarzda suhbat olib borish maqsadga muvofiqdir.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning metodlari:

Faylasuflar falsafiy ta'lim-tarbiya metodlarini odatda ikki turga bo'ladilar: ishontirish va majburlash.

Falsafiy ta'lim-tarbiya metodi - bu bir necha muayyan yo'l va usullar yig'indisi bo'lib, ular asosida kishilar ongiga, dunyoqarashiga ta'sir qilinadi. Buning natijasida tarbiyalanuvchilarda falsafaga hurmat hissi uyg'otiladi va ijtimoiy munosabatlarning buzilmasligi ta'minlanadi.

Eng asosiy metod bu – ishontirish metodi. Ishontirish orqali ijobiy natijaga erishilmasa, majburlash metodi qo'llanadi. Falsafiy ta'lim-tarbiyada bu ikki metodni birga qo'llash ham mumkin.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaning ilmiy printsiplaridan yana biri o'rganilayotgan ijtimoiy munosabatlar yoki dunyoqarashning kelib chiqish sabablarini, unga obyektiv zarurat borligini tushuntirib berishdir. Agar tarbiyalanuvchi falsafa, borliq va dunyoqarashlarning vujudga kelishi, falsafiy qarashlarning umumiy asoslarini tushunib olsa, ayniqsa, hozir o'rganilayotgan globallashuv jarayonlaridagi o'zgarishlarning bo'lishi sababini bilsa, uni bajarishga ongli ravishda yondoshadi, o'zida ham falsafiy amaliyotga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Falsafiy ta'lim-tarbiyaga ilmiy yondoshish quyidagi faoliyatlardan tashkil topadi:

- o'rgatilishi lozim bo'lgan falsafiy qarashlarning nazariy va amaliy jihatlarini puxta o'zlashtirib olish;

- ta'lim-tarbiya obyektlarini o'rganish, ular bilan falsafiy dunyoqarash o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash;

- falsafaning tarixiy asoslari o'rganish va tahlil qilish;

- borliq shakllarini tushuntirish shakl va metodlarini tanlab olish;

- falsafiy ta'lim-tarbiya vositalarini tayyorlash;

- tarbiyalanuvchilarning fikrini o'rganish va savol-javob, bahs-munozaragaga tayyorlanish;

Falsafiy ta'lim-tarbiyani shahar, tuman, viloyat, respublika miqyosida yagona shakl va metodlar asosida olib borish ham ilmiy printsiptir. Ijtimoiy jarayonlarda tafakkur uslublarini qo'llash butun mamlakatda falsafiy ta'lim-tarbiyaga chuqur ilmiy yondoshishni taqozo qiladi. Hozir bu muhim ish faylasuflar va jamoat tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Ta'lim-tarbiyaga har tomonlama yondoshish deb tarbiya maqsadining shaxs ongida shakllanishiga ko'maklashuvchi omillarni aniqlash, ta'lim-tarbiya shakl va metodlariga ularga tayanishga aytiladi.

Bu vazifalarning zarur darajada amalga oshirilishi tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligiga bog'liqdir. Ikkala tomonning fikr almashishi, falsafiy tushunchalarga aniqlik kiritilishi, yakdillik asosida hayotiy holatining belgilab olinishi tinglovchilar ongiga tegishli o'zgarish kiritadi va uni boyitadi.

Masalan, tarbiyachi rivojlanish va taraqqiyot falsafasi bilan tinglovchilarni tanishtirmoqchi. Maqsad ularning ongiga rivojlanish va taraqqiyot tushunchalarini falsafiy talqinini aks ettirgan holda progress, rivojlanish jarayoni, sakrash, rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish shakllariga muvofiq ish ko'ra olishni tarbiyalashdir. Buning uchun tarbiyachi masalaga keng yondoshib, yangilanish dialektikasi sabablarini dalillar yordamida ko'rsatishi, taraqqiyotning ilgarilab borish xususiyatini isbotlashi, uni ijro etish tartibini o'rgatish, ko'zda to'tilgan maqsadni misollar yordamida tushuntirishi kerak.

Har tamonlama etuk shaxsni tarbiyalab etishtirish maqsadi umumtarbiyaning maqsadi barcha yo'nalishlarini bir-biriga uyg'unlashtirilgan holda olib borishni taqozo qiladi. Bu bir kishining emas, balki butun jamoaning burchidir. Falsafiy ta'lim-tarbiya ham bir kishining emas, chunki shaxsni har tomonlama shakllantirish uchun bir tarbiyachi barcha omillarni bilishga qodir emas. Bir pedagog falsafiy ta'lim-tarbiyaning bir yoki bir necha yo'nalishinigina shaxs ongida shakllantira olishi mumkin. Pedagog muayyan masala bo'yicha falsafiy ta'lim-tarbiyaga keng yondoshishi uchun shu masalaga aloqador omillarni tanlab olishi, ularni yagona bir mavzuga yig'ishi, misollar yordamida uyg'unlashtirishi kerak. Masalan, tinglovchida borliqning yashash shakllari haqida ma'lumot berilganida o'qituvchi-o'quvchi qanday mavzularni o'rganishi kerakligini tanlab olishi, moddiy olam va materiya haqida falsafiy qarashlarni tushuntirishi, mavzuga taalluqli misollar topishi, materiyaning tarixiy talqinlari va zamonaviy talqinlarini, uning tizimli tuzilishini belgilashi, harakat, o'z-o'zidan harakat, nisbiy tinchlik, harakatning yo'qolmasligi va absolyutligi haqida ma'lumotlar to'plashi, so'ngra keng ta'lim-tarbiya mavzularini ishlab chiqishi va shu

mavzu bo'yicha ish olib borilishi kerak. Lekin shuni unutmaslik lozim, falsafaning hatto biror yo'nalishini shakllantirish uchun ham falsafiy omillarning o'zigina kifoya emas: masalan, shaxsni qayta tarbiyalash uchun uning ongida burilish yasash, dunyoqarashiga, mehnat munosabatiga, madaniyat darajasiga ta'sir ko'rsatishi kerak. Agar u o'zini-o'zi tashkillashtirmas ekan, yana eski odatini davom ettiraveradi.

Binobarin, falsafiy ta'lim-tarbiyaga aloqador omillar ikki guruhga bo'linadi: tarbiyachining axborotga kiritiladigan omillar va tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillar. Ta'lim-tarbiya jarayonida ikkala guruh omillar baravar e'tiborga olinishi kerak.

Tarbiyachining axborotga kiritilgan omillari suhbat mavzusida qanday mavzu, falsafiy mavzu va muammolarni tushuntirmoq, asosiy maqsad nimaga qaratilganligini bilib olmoq. Masalan, olamning chekliligi va cheksizligi bo'yicha ta'lim-tarbiya: cheklilik, cheksizlik, potensial va aktual cheksizlik, nihoyasizlik va nomuayyanlikka oid ma'lumotlarni to'plashdan iborat. Tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillarda tarbiyachi tinglovchilarning qabul qilish darajasi, yoshiga, mahoratiga va boshqa xususiyatlariga e'tibor bergan holda tarbiya usulini tanlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Samarqand gazetasi, 10-dekabr 2016 yil № 99 (2038) 3-bet
2. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
3. Ishmuhamyedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2008.
4. Nazarov Q. Falsafa asoslari. Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2012. – 1008 b.
5. Tursunova O; Sultanova G; Yazdanov Z. Falsafani o'qitish metodikasi. Samarqand, SamDU. 2022. – 226 b.
6. Qo'shoqov Sh. Falsafa o'qitish metodikasi. Samarqand, SamDU. 2005. – 110 b.

GLOBAL MAKONDA AXBOROTLASHUVNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMIGA TA'SIRI

Sadikova Roza Ismailovna

Katta o'qituvchi Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti
Roza.sodykova@mail.ru +998974002739

Annatsiya: Maqolada globallashuv jarayonining ta'lim tizimiga ta'siri axborotlashtirishning ta'lim tizimidagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Insoniyat, tarix, globallashuv, ta'lim, axborot jamiyati, taraqqiyot, fan, madaniyat, tarbiya.

THE EFFECT OF INFORMATION ON THE EDUCATION SYSTEM IN THE GLOBAL SPACE

Abstract: The impact of the globalization process on the educational system, the role of information in the educational system is considered in the article.

Key words: Humanity, history, globalization, education, information society, development, science, culture, education.

Insoniyatning XXI asrga va o'z tarixiy taraqqiyotining yangi ming yilligiga qadam qo'yishi ijtimoiy bilishda qisqa va qamrovli qilib «globalizatsiya» deb nomlangan mutlaqo yangi ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq. Globalizatsiya - bu jamiyat taraqqiyotining agrar (birinchi to'lqin) va sanoat (ikkinchi to'lqin) bosqichlari o'rnini egallagan uchinchi to'lqin sivilizatsiyasidir (D.Bell, E.Toffler, S.Xantington). Globalizatsiya, hozirgi zamon postindustrial axborot jamiyati sharoitlarida fan-texnika taraqqiyotiga bugungi kunda jamiyat ekologiya, iqtisod, siyosat, mafkura orqali kuchli ta'sir ko'rsatmoqda, zotan, ular mazkur taraqqiyotni jadallashtirishi, unga rag'bat berishi yoki, aksincha, uni sustlashtirishi mumkin. Globallashtirilgan dunyo ziddiyatlarining kompleksi YuNESKO taqdim etgan XXI asr uchun ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyaning «Ta'lim berkitilgan xazina» deb nomlangan ma'ruzasida quyidagicha ifodalangan: - universal va individual o'rtasidagi ziddiyat; - an'ana va zamonaviy tendensiyalar o'rtasidagi ziddiyat; - uzoq va qisqa muddatli vazifalar o'rtasidagi ziddiyat; - raqobat zaruriyati va imkoniyatlar tengligiga intilish zaruriyati o'rtasidagi ziddiyat; - bilimlarning rivoji va ularni inson tomonidan o'zlashtirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat; - ma'naviy va moddiy dunyo o'rtasidagi ziddiyat [1,58-59 b].

Yuqorida yorqin ifodalangan ijtimoiy talab mavjudligiga qaramasdan jahon ta'lim tizimi nufuzli olimlar fikricha hozirda ta'limning hajmi va sifatiga tobora oshib borayotgan ehtiyojni qondirish holatida emas. Hozirgi zamon kompyuterlashtirilgan, axborot jamiyati o'zining asosiy resursi: butun kishilik jamiyati uchun ulkan qimmatga ega bo'lgan ob'ektiv, sermazmun axborotga asoslanadi. Kompyuter inqilobi negizida axborot jamiyatining vujudga kelishi inson va texnika nisbatini tubdan o'zgartiradi, inson ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni tartibga soluvchi, o'ziga xos menejer vazifasini bajaradi. Axborot hozirgi zamon axborot jamiyatining asosiy ijtimoiy manbasi, bosh ijtimoiy boyligidir. Bu tushuncha kibernetika, genetika, informatika singari muayyan fanlarda, shuningdek, ilmiy bilish va ijod epistemologiyasida keng qo'llanadi. Axborot ilmiy tushunchasi o'zida u yoki bu axborotni tashuvchi xabarning mazmun jihatidan farq qiladi va uning son jihatini oladi. Axborotning soni tushunchasiga fanda «xabarda aytilgan hodisaning ehtimolligi darajasiga teskari proporsional kattalik» deb ta'rif berilgan. Hodisaning ehtimolligi darajasi qancha yuqori bo'lsa, xabarda uning sodir bo'lishi haqida axborot shuncha kam bo'ladi va aksincha.

Axborot umumilmiy tushunchasi dunyo moddiy birligining muhim jihatini - hodisalarning axborotga boyligini namoyon etadi. Bu ilgari mutlaqo har xil bo'lib tuyulgan jarayonlar: texnik aloqa kanallari orqali xabarlarini uzatish, asab sistemasining faoliyati, kompyuterlarning ishlashi, boshqaruv jarayonlari va hokazolarga yagona

nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Bularning barchasi axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari bilan bog'liq.

Kibernetika asoschisi matematik N.Viner «Kibernetika va jamiyat» deb nomlangan mashhur asarida: «Axborot - bu biz tashqi olamga moslashish va o'z tafakkurimizni unga moslashtirish jarayonida mazkur olamdan oladigan mazmunning ifodasidir» [2,121 b], -deb qayd etadi. Binobarin, axborot - bu voqelik hodisalarining rang-barangligini aks ettiruvchi tizimning maqsadlariga muvofiq ravishda va mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur yo'sinda ifoda etish demakdir. Axborot aks ettirishning mustaqillik, faollik, maqsadga muvofiqlik, tanlash, tartibga solish va funkcionallik singari jihatlari bilan bog'liq. Hozirgi zamon ijtimoiy hayotida axborotning qimmatini shundaki, u moddiy ishlab chiqarishni oshirish, transformatsiya qilish, o'zgartirish, modernizatsiya qilish, shuningdek boshqaruv va menejment, amaliyot, siyosat va ma'naviy-madaniyat sohalarida maqbul qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon postindustrial jamiyatida axborot - bu insoniyatning iste'mol qilishda kamaymaydigan, balki ko'payib boradigan strategik resursidir.

Xulosa qilib aytsak, axborot jamiyati va uning tarkibiy elementlari o'ta murakkab jo'shqin ijtimoiy tizimlardir. Tizimning yaxlitligini, uning sifat jihatidan aniqligini saqlash, uning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlashni axborot jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tizim qancha murakkab, ko'p komponentli va ko'p aloqali bo'lsa, ijtimoiy boshqarishda foydalaniladigan axborot oqimlarining hajmi ham shuncha katta va xilma-xil bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti yakuniy hisobda uning moddiy-texnikaviy, energetik va axborot ta'minotiga bog'liqdir.

Axborot odamlar, ijtimoiy guruhlarining o'zaro aloqa bog'lashiga yordam beradi, fan, madaniyat va ta'lim saviyasini ko'taradi, ma'naviyatning o'sishiga, ma'naviyat va demokratiyaning ustuvorligini ta'minlashga ko'maklashadi. Bunday jarayonda ta'lim shaxsni o'rtalashtirishga emas, balki jahonda o'z milliy an'ana va qadriyatlarning sohibi va representi bo'lgan dunyoning erkin fuqarosini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dyupon I.A. Mejdunarodnye integratsionnye protsessy v obrazovanii.-SP-b. : 2008. -S. 58-59.
2. Viner N. Kibernetika i obshchestvo. -M.: 1958. S.121

YOSHLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA JAMIYATNING ROLI

Shuxratov Sherzodjon Shuxratovich

Navoiy davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi.
tel:+99891-332-33-26

Annotatsiya. Yangilanayotgan O'zbekiston Respublikasini shakllantirish va rivojlantirishda yoshlardagi fuqarolik madaniyati to'g'risida so'z yuritilib, inson hayoti va jamiyat taraqqiyoti uchun tutgan o'rni yoritilgan. Bundan tashqari,

Respublikamizda huquqiy madaniyat, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurishning o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu xususiyatlarni yoshlar ongiga va tafakkuriga etkazishda fuqarolik madaniyatining mazmun-mohiyati tahlil qilinib fuqarolik madaniyatining shaxs kamolitidagi ijtimoiy ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, qonun, huquq, yoshlar, jamiyat, fuqarolik, madaniyat, hayot, inson, taraqqiyot, taraqqiyot strategiyasi, pozitsiya.

THE ROLE OF SOCIETY IN DEVELOPING CITIZEN CULTURE IN YOUTH

Annotation. Uzbekistan formation and development of yoshlardagi civil culture is a verb, a person of life and society progress for the place is illuminated in addition, in our republic the legal culture, Democratic state, civil society features given to youth in his mind and intellect in causing civil culture, civil personality, social significance are indicated.

Key words: constitution, law, law, youth, society, citizenship, culture, life, person, development, development strategy, position.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida “Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi” darhaqiqat yoshlarga ta’lim tarbiya berish ularni jamiyatda etuk inson bo‘lib tarbiya topishlarida barchamiz birgalikda javobgarmiz.

Mazkur maqolada o‘z huquqlari va erkinliklarini chuqur anglaydigan, hayotda o‘z o‘rnini topishini va mamlakatimizning mutaxassisi bo‘lib etishini hamda ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotga faol ishtirok etish uchun o‘zining bor imkoniyatlaridan foydalana oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasi ko‘ndalang qilib qo‘yilgan. Ma’lumki, hozirgi taraqqiyot har bir yoshning intellektual darajasi qay holatda bilimlarini egalaganligi ularni o‘z xotirasi va aqliy zakovatiga qay darajada saqlay olganligi bilan emas, balki ulardan amaliy faoliyatga foydalanib hayotga qay darajada tatbiq eta olishi bilan o‘lchanadi. Shu bois yoshlarni bu faoliyatga tayyorlash kechiktirib bo‘lmaydigan va dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Prezidentimiz ham bu borada bir necha marotaba takidlab yoshlarimizda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning bir qancha ustivor yunalishlari xususida to‘xtalib o‘tganlar jumladan, “*Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.*” Yangi O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g‘oyasi fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e’tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatni qaror toptirish – fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi.

Jamiyatimizda fuqarolarning va aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy

axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorligi yo'lga qo'yilmoqda. Bularning yorqin misoli sifatida mahalla etiliginini misol qilib aytishimiz mumkin. Unda yoshlar masalalari bo'yicha akil qo'yilganligi ushbu vakilning jamiyatning eng kuyi tizimiga kirib borayotganligi, yoshlarimizni qiynab kelayotgan savollarga mahalla bilan echim topayotganligini buning timsoli sifatida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat ekanligi yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama etuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash barchamizning asosiy burchimiz ekanligidan dalolat berib turadilar.

Jamiyatimizda fuqarolik madaniyatini qanchalik shakllantirsakgina yoshlarimizning ongiga singdirsakgina shuncha oldimizga qo'yilgan ezgu niyatlarimizga erishishimiz joizdir. Yosh avlodlarimizni qo'llab-quvvatlab ularning nima bilan bandligini taminlab ularning ongida madaniyatni qaechalik ko'p shakllantirsak ma'naviy etuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois O'zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramog'imiz joizdir. Natijada bugunning yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryakanini guvoni bo'lib boramiz albatta. Mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish uchun, avvalo, uning quruvchilari hisoblangan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, ayniqsa, fuqarollik tarbiyasiga alohida e'tabor qaratish lozim. Yoshlarimizni bilimli, mas'uliyatli, siyosiy jihatdan idrokli, axloqan pok va ma'naviy barkamol bo'lib o'sishlarida estetik tafakkur va estetik madaniyat ravnaqining ham ahamiyati katta. Estetik madaniyat ma'lum darajada qolipga solingan, qotib qolgan tizim bo'lmay, inson faoliyatini barcha tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgani uchun shaxsning yangicha estetik ongini rivojlantirish ma'naviy islohotlarda katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan hozirgi rivojlanib borayotgan O'zbekistonimizda yoshlarimizga qanchalik ko'p e'tibor qaratsak jamiyatimiz ravnaqi ham shunchalik rivojlanib boraveradi. Buning misolida yoshlarimizning barcha sohalarda yurtimiz bayrog'ini yuqori ko'tarib kelayotganligini takidlasan xato bulmaydi. Hozirgi kunda tahlikali bir vaqtda yoshlarimizning dunyo miqyosida aloxida o'rin tutib kelayotganligini takidlab o'tigimiz zarur.

Yoshlarimizning huquqiy ongi borasida so'z borganda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoevning "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyoxvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy xolatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy ananalarini asrab-avvaylash va butun

dunyoga tarannumetishga sizlar albatta qodirsiz” degan so‘zlarini eslatib o‘tmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
3. Fuqarolik jamiyati asoslari o‘quv qo‘llanma T-2015
4. Shavkat Mirziyoev: Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega nutqidan.

JAMIYAT BARQAROR TARAQQIYOTINING IJTIMOIIY OMILLARI

Latipov Sardor

NavDPI Ijtimoliy fanlar kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Korrupsiya jinoyatchiligi – sinfiy va tarixan o‘zgaruvchan hodisa. Ye.I.Kairjanov fikriga ko‘ra, “jinoyatchilik tushunchasi xususiy mulk paydo bo‘lishi va jamiyat antagonistik sinflarga parchalanishi natijasida vujudga kelganini hech kim inkor eta olmaydi. Sinfiy jamiyat paydo bo‘lishidan oldin jinoyat tushunchasi ham, jinoyatchilik ham mavjud bo‘lmagan”.

Kalit so‘zlar: jinoyatchilik tushunchasi, korrupsiya, xususiy mulk.

SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SOCIETY SOCIAL FACTORS

Abstract

Corruption crime is a class and historically changing phenomenon. According to Ye.I. Kairjanov, "no one can deny that the concept of crime arose as a result of the emergence of private property and the division of society into antagonistic classes. Before the emergence of class society, neither the concept of crime nor criminality existed.

Key words: concept of crime, corruption, private property.

O‘zbekiston olimlari tomonidan “korrupsiya” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan, Sh.R.Qobilov “Korrupsiya bozor qoidalariga binoan xizmatlarni ixtiyoriy ravishda oldi-sotdi qilish emas, balki ularni ko‘rsatish uchun g‘ayriqonuniy haq olishdir”. Demak, shuni anglash mumkinki korrupsiya g‘ayriijtimoiy, g‘ayriqonuniy xizmat ko‘rsatishdir.

B.J.Axrorov “Korrupsiya so‘zi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Uning yagona tushunchasi yo‘q, u bir necha jinoyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi mumkin. Xatto xalqaro tashkilotlarning tavsiyalaridan ham uning yagona tushunchasini yaratib bo‘lmaydi”, deb fikr bildiradi. Korrupsiya mansabdor shaxslar tomonidan davlat hokimiyati yoki boshqaruvi vakolatlaridan foydalangan holda shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab sodir etiladigan jinoyatlar yig‘indisidir. Korrupsiya deganda mansabdor shaxslar tomonidan hokimiyat yoki mansab vakolatlaridan qonunga zid ravishda foydalanib,

ommaviy tarzda moddiy yoki nomoddiy manfaatdorlikka erishish tushuniladi”.

R.A.Zufarov “korrupsiyani oddiy poraxo‘rlikdan ajratib bo‘lmaydi. Korrupsiyachi mansabdor shaxs bir marta beriladigan mukofotlarni olmasdan u boshpana bo‘lgan jinoyat tuzilmasi xizmatida turib, shu tufayli u keltirilgan daromadning o‘ziga tegishli ulushini oladi” deb xisoblaydi.

Yuqoridagi keltirilgan tushunchalardan shuni anglashimiz mumkinki, korrupsiya atamasiga adabiyotlarda turlicha ta’riflarni uchratish mumkin. Yuqorida bayon etilgan ta’riflar tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

*Birinchi*dan, korrupsiya bu - murakkab ijtimoiy hodisa, pirovard natijada bu illat jamiyat hayotining kundalik me’yoriga aylanishi oqibatida butun fuqarolik jamiyati va davlatning inqiroziga olib keladi;

*Ikkinchi*dan, ko‘rsatilgan sub’ektlar o‘z mansab mavqeidan, xizmat lavozimidan, huquqiy maqomidan va egallagan lavozimining nufuzidan xizmat (ya’ni davlat xizmati va xususiy sektor tashkilotlaridagi xizmat) manfaatlariga hamda huquq va axloqning belgilangan qoidalariga zid ravishda foydalanadilar;

*Uchinchi*dan, ko‘rsatilgan sub’ektlarning mazkur faoliyati shaxsiy boyish maqsadida yoki o‘zga shaxslarning manfaatlarida yoxud korporativ manfaatlarda amalga oshirilishi mumkin va h.k.

Demak, guvohi bo‘lganimizdek, korrupsiya tushunchasiga xalqaro normalar, yuridik adabiyotlarda va olimlarning fikrlarida bir–biriga yaqin talqinlar berilgan. Shunday qilib, **korrupsiya bu** – eng avvalo, murakkab ijtimoiy hodisa xisoblanib juda katta latentlikka ega bo‘lgan, jamiyat hayotining kundalik me’yoriga aylanishi natijasida butun jamiyati va davlatning inqiroziga olib keluvchi illatdir.

Milliy qonunchiligimizda ham mazkur tushunchaning mohiyati ochib berilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni qabul qilinishi bilan korrupsiya tushunchasiga nisbatan rasmiy ta’rif berildi.

Mazkur Qonunning 3-moddasi mazmuniga muvofiq, **“Korrupsiya** — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”dir. Mazkur rasmiy ta’rif orqali “korrupsiya” tushunchasining mohiyati yuqorida keltirilgan ta’riflarga nisbatan anchayin mukammal tarzda ochib berilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Ushbu ta’rifdan tushuniladiki:

- korrupsiyaning sub’ekti mansabdor shaxslar yoki xizmatchilar bo‘lishi mumkin;

- korrupsiya nafaqat o‘z manfaatlarini, balki o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab ham sodir etilishi mumkin;

- korrupsiyani sodir etishdan ko‘zlangan naf faqatgina moddiy emas, nomoddiy shaklda ham bo‘lishi mumkin;

- ushbu harakatlar shaxsning o‘z mavqeidan qonunga xilof ravishda foydalanishi orqali sodir etiladi;

- yuqoridagicha nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish, ya’ni muayyan vakolatga ega bo‘lgan shaxsni;

- korrupsiyaviy jinoyatni sodir etishga undagan holda ta’sir o‘tkazish ham korrupsiyaviy jinoyat sanaladi.

Adabiyotlar

1. Mipziyoev Sh.»Yangi O‘zbekiston» gazetasi bosh muhappipi Salim Doniyopov savollapiga javoblari // «Yangi O‘zbekiston» gazetasi. – Toshkent: 2021 yil 17 avgust.
2. Abdullaeva N.B. Dizayn va badiiy-estetik madaniyat // Monogpafiya. Toshkent: Turon-iqbol, 2016. 117 b.
3. Nupmatova M.A. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlarining uyg‘unligi// Monogpafiya. – Toshkent: Univetsitet,2009. – 6 b.
4. Kairjanov Ye.I. Kriminologiya (общая часть). Алматы, 1995 // <http://lawlibrary.ru/izdanie20752.html>
5. Qobilov Sh.R. Korrupsiyaga qarshi kurashish: iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy choralari va yo‘llari . Monografiya 2015.160-b
6. Axrorov B.J. Mansabdor va ma’sul mansabdor shaxs tushunchalarini farqlash xususiyatlari va huquqiy mohiyatlari. // TDYuI ilmiy maqolalar to‘plami. – 2005. – №2. – B. 90-95 .
7. Zufarov R. Poraxo‘rlik- korrupsiya negizi// Davlat va huquq. – Toshkent, 2000. – №4. – B.42.

ZAMONAVIY DUNYONING AXLOQIY MUAMMOLARI - ZO‘RAVONLIK FALSAFASI

Usanov Ravshan Turayevich,
Falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Akademik B.G‘.G‘ofurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti
(Tojikiston Respublikasi, Xo‘jand shahri)
E-mail: ravshan-usanov@mail.ru

Haqqulov Nabijon Qahramonovich,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: nabijonhaqqulov83@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy dunyoning axloqiy muammolari - zo‘ravonlik falsafasi, shu bilan birga shaxslararo munosabatlarda zo‘ravonlik qilmaslik tamoyilini rivojlantirish, uni axloqiy qadriyat sifatida ko‘rsatish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, axloqning oltin qoidasida birinchi marta insonning ichki qadriyati, axloqiy g‘oyasi, o‘z-o‘zini anglashi, ya’ni shaxsiy javobgarlik tushunchasi bilan bog‘liq holda inson qadr-qimmatini kabi ilmiy g‘oyalari tahlili qilingan.

Kalit so‘zlar: falsafa, zo‘ravonlik, axloq, inson, mas’uliyat, yovuzlik, hurmat.

MORAL PROBLEMS OF THE MODERN WORLD - THE PHILOSOPHY OF VIOLENCE

The article focuses on the moral problems of the modern world - the philosophy of violence, at the same time, the development of the principle of non-violence in interpersonal relations, showing it as a moral value.

Also, in the golden rule of ethics, for the first time, the analysis of scientific ideas such as human dignity in connection with the inner value of a person, moral idea, self-awareness, that is, the concept of personal responsibility was made.

Keywords: philosophy, violence, morality, human, responsibility, evil, respect.

Zo‘ravonlik uning insoniy yaxlitligi ustidan qabul qilinishi mumkin emas, ya‘ni inson axloqiy jihatdan mutlaq qadriyatdir. Aql yordamida inson o‘z-o‘zini takomillashtirish motivlari va maqsadlarini amalga oshiradi, iroda esa o‘z harakat dasturini amalga oshirishga yordam beradi. Yagona bir inson kontekstida ong tomonidan amalga oshirilgan to‘g‘ri hatti-harakat bilan shaxsning hisoblanishi haqidagi g‘oya nemis faylasufi I. Kantning irodaning mustaqilligi tamoyili inson qadr-qimmatini tushunchasini shaxsning mutlaq qadriyati nuqtai-nazaridan aniqlashtrish va mutlaqlashtirish imkonini beradi. Axloqiy rivojlanish jarayoni, eng avvalo, insonning aqlli, ijodkor majudot ekanligi tufayli yuzaga keladi. O‘zgani hurmat qilish fazilati asosidagi qadr-qimmatning axloqiy kategoriyasi insonning axloqiy rivojlanishining o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi.

Zo‘ravonlik qilmaslik axloqida inson qadr-qimmatini axloqiy tanlov qilish imkoniyati, maqsad va vositalarining o‘zaro bog‘liqligi haqida gapirganda, shuni ta‘kidlash kerakki, zo‘rlik qilmaslik axloqida inson qadr-qimmatini, ya‘ni o‘zini inkor qilishgacha bo‘lgan o‘zini tuta bilishni namoyon qiladi (masalan, M. Gandi hayoti va faoliyati kabi). M. Gandi shunday yozadi: «Inson o‘zini tuta bilish qobiliyatiga ega bo‘lgani uchun shaxs hisoblanadi va uni amalga qo‘llasagina shaxs bo‘lib qoladi» [1;284]. Tanlangan vositalar bu holda insonning hatti-harakatini axloqiy ezgulik nuqtai nazaridan aniqlash uchun boshqaruvchi bo‘lib xizmat qiladi. Bu erda M. T. Stepanyans so‘zlariga e‘tibor qaratamiz. M. Gandining fikriga ko‘ra, haqiqiy tamaddun ongli va ixtiyoriy o‘zini tuta bilish tamoyillariga asoslanishi kerak [2; 156]. Biz uchun bu erda o‘z-o‘zini yaxshilash qobiliyati tufayli axloqiy o‘zini o‘zi cheklash g‘oyasi muhimdir.

Zo‘ravonlik inson faoliyati inson qadr-qimmatiga mos kelmasa sodir bo‘ladi, qadr-qimmat tamoyili o‘zining mutlaq maqomini yo‘qotadi. Inson qadr-qimmatining mohiyati zo‘rlik qilmaslik g‘oyasining rivojlanishiga yordam beradi, o‘z navbatida, zo‘ravonlik inson qadr-qimmatining darajasi aniqlanganda, ijtimoiy tizimlar rivojlanishi ko‘rsatkichi aniqlanadi. Teskari jarayon qadr-qimmat yo‘qolgan joyda zo‘ravonlik darhol ishlaydi. Zo‘ravonlik azob-uqubat va og‘riq, insonga zarar etkazishdir. D. Pulmen ta‘kidlaganidek, odamlar og‘riqni o‘zlarining hayotiga tahdid sifatida qabul qilishadi [3; 116].

Zo‘ravonlik qilmaslik inson qadr-qimmatini tamoyillarini ta‘minlash uchun olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy kurashning o‘ziga xos xususiyatlarini bildirsa, demokratik qadriyatlar va fuqarolik jamiyati bilan bevosita bog‘liqligini ta‘kidlash muhimdir. Zo‘ravonlik qilmaslik g‘oyasini ijtimoiy-amaliy tatbiq qilishda biz jamiyatni takomillashtirish, inson qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan jamoaviy

sa'y-harakatlar haqida gapiramiz.

Global fanlar ensiklopediyasida berilgan ta'rifga ko'ra, "zo'ravonlik qilmaslik – yovuzlikka, adolatsizlikka faol qarshilik ko'rsatishdir" [4;615]. Demak, "faol" insonning insoniy qadr-qimmatiga mos ravishda ongli va maqsadli harakatlarini bildiradi. Inson qadr-qimmatini uchun olib borilgan ijtimoiy-siyosiy kurashga misol tariqasida M. Gandining zo'ravonlik qilmaslik etikasini keltiramiz.

M.T. Stepanyasning ko'rsatishicha, M. Gandining yangiligi uning zo'ravonlik qilmaslik maqsadini nafaqat shaxsga, balki ijtimoiy takomillashtirishga ham yo'naltirishda ham aniq ifodalangan: "Gandining "tajribalari" hindlarga ma'lum bo'lgan buddaviylik, jaynizmlardan tubdan farq qiladi. Ular nafaqat insonning ichki dunyosiga qaratilgan, balki keng ijtimoiy kontekstda amalga oshiriladi, nafaqat individual, balki albatta, qo'shma, jamoaviy sa'y-harakatlarni o'z ichiga oladi"[5;108].

Umuman olganda, zo'ravonlik qilmaslik etikasi tamoyillariga amal qilishda, eng avvalo, inson qadr-qimmatini mazmuni namoyon bo'lishini ta'kidlaymiz; ikkinchidan, insonda adolat, mas'uliyat kabi globallashtirish borayotgan makonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yuksak axloqiy fazilatlar baholanadi. Faqat 20-asrda zo'ravonlik turli fanlar vakillari tomonidan faol o'rganila boshlandi, o'rganilayotgan konsepsiyaga fanlararo yondashuvning ahamiyati ochib berildi. Fazilatlar zo'ravonlik qilmaslikni inson hayoti jarayonida muayyan ijtimoiy hodisani o'rganishda ko'rib chiqailar.

Zamonaviy dunyoning axloqiy muammolari kontekstida zo'ravonlik qilmaslik quyidagi talqinlarda namoyon bo'ladi:

1) shaxsning alohida axloqiy takomillashuvi va ijtimoiy takomillashuvi sifatida (L. N. Tolstoy, M. Gandi, M. T. Stepanyans);

2) ko'rgazmali falsafiy umumlashma sifatida, ishq qonuni bilan bir xil va falsafa sifatida haqiqatga, muhabbatga asoslangan hayot tarzi (A. A. Guseynov, J. Goss);

3) yuksak g'oya bilan birlashgan odamlarning ijtimoiy-siyosiy kurashiga xos xususiyat sifatida (M.L. King, R. G. Apresyan).

Shuni ta'kidlash kerakki, falsafiy tadqiqotlarda, bizning fikrimizcha, inson qadr-qimmatini va zo'ravonlik qilmaslik tamoyillariga asoslanib qurilgan kommunikativ yondashuv dolzarb bo'lib qoladi. Jumladan, Yu. Xabermas ratsionallikning empirik ko'rsatkichlarga asoslangan instrumental turi va muloqotning axloqiy mazmuniga ko'ra kommunikativ tipini ajratib ko'rsatadi. Tadqiqotchilar M. Buber va E. Levinas fikrlariga ko'ra, inson ma'lumot uzatish emas, balki inson qadr-qimmatini, hurmati tamoyiliga asoslangan muloqot hisoblangan dialog munosabatlarida ijtimoiy-madaniy aloqani tubdan o'zgartiradigan individdir. Shunday qilib, E. Levinas yozadi: "izning sa'y-harakatlarimizanonim jamiyatda – muloqot va mehribonlik tilida Men va Boshqaning birlashuvini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan"[6;85].

Globallashtirishning kommunikativ jihati bo'yicha tadqiqotchi L. A. Los integrativ-differensiallikning falsafiy va uslubiy kategoriyasi doirasida subyektning xususiyatlarini belgilab beruvchi insonning global tizimdagi alohida mavqeiga ishora qiladi. Bu fikrga asos sifatida olim quyidagi fakti keltiradi: "Erkinlik darajasi yuqori bo'lgan shaxs ijtimoiy guruhda nisbatan murakkabroq tizim sifatida talqin etiladi" [7]. Bizning tadqiqotimiz uchun yangi maqomni aniqlash, inson antroposentrizmi, o'zining insoniy qadr-qimmatini muhimligi nuqtai nazaridan muhimdir.

Fikrimizcha, zo'ravonlik qilmaslik odamlarning bir-biri bilan qadr-qimmatli

aloqasini belgilaydi, chunki har bir shaxs o'zi, jamiyat, tabiat oldidagi shaxsiy javobgarlik nuqtai nazaridan qadr-qimmatga ega.

Inson qadr-qimmati globallashuv jarayonlarida insoniyatning jamoaviy mas'uliyati nuqtai nazaridan zo'ravonlik qilmaslik fenomeni tushunchasining kaliti yoki harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Globallashuv sharoitida inson qadr-qimmati mas'uliyat va yuksak axloqiy fazilatlar o'lchovini belgilaydi, insonning alohida hatti-harakati haqidagi g'oyalarni o'zgartiradi va keng ijtimoiy makonda zo'ravonliksizlik paydo bo'lgan zamonaviy sharoitda inson qadr-qimmati etikasi haqidagi g'oyani amalga oshirishga yordam beradi. Insoniyat dunyoning yaxlitligi va o'zaro bog'liqligini anglab etgan globallashuv davrida zo'ravonlikdan voz kechishni keng miqyosda amalda qo'llash zarurati paydo bo'ldi, bunda har bir shaxsga o'ziga xoslik nuqtai nazaridan qaraladi. Asosan zo'ravonlik bilan bog'liq bo'lgan mas'uliyatsiz o'zgarishlar va hukmronlik endi samarasiz bo'lib bormoqda va keyinchalik, bizning fikrimizcha, mavjud bo'lishni to'xtatadi. Bu jarayonning muddatlari shaxsning globallashuv jarayonida o'z ahamiyatini, o'ziga xosligini aniqlash va natijada gorizont (demokratik) munosabatlarga asoslangan yangi tartibni o'rnatishga bog'liq bo'ladi.

Dunyoda globallashuv davrida inson qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan bir paytda tasavvuf allomalarining ilg'or va bunyodkor g'oyalarini o'rganish, targ'ib etish masalasiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Zo'ravonlikdan voz kechish insoniyat taraqqiyotining keng ko'lamli istiqbolidir. Insonning keng ko'lamli faoliyati sharoitida odam shaxsiy va jamoaviy javobgarlikni o'z zimmasiga olishga qodir, bu global axlouni amalga oshirish imkoniyatiga olib keladigan zo'ravonlik qilmaslik harakatlarida namoyon bo'ladi. Zo'ravonlik qilmaslik – bu global axloqning sharti bo'lib, fikrimizcha, alohida harakatda ham, jamoaviy harakatlarda ham javobgarlik tushuniladi. Zo'ravonlikdan voz kechish insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi shakli bo'lib, global muammolarni hal qilishning samarali usuliga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ганди М.К. Моя жизнь. – М.: Наука, 1969. – С. 284 Stepanyans M.T.
2. Степанянц М. Т. Махатма Ганди: «Апостол ненасилия» // Век глобализации. 2009. № 1. – С.156.
3. Пулмен Д. Достоинство человека, боль и страдание //Человек.-2001.-№3.-С.116.
4. Глобалистика: Международный междисциплинарный энциклопедический словарь /Гл.ред.: И.И.Мазур, А.Н.Чумаков– М. - СПб. - Нью-Йорк: Элима, Питер, 2006. –С.615.
5. Степанянц М. Философия ненасилия. Размышления о Ганди и его экспериментах // Коммунист. 1990. № 13. – С.108.
6. Левинас, Э. Избранное: Тотальность и бесконечное / Пер. И. С. Вдовиной, Б. В. Дубина. — М.; СПб.: Культурная инициатива: Университетская книга, 2000. –С.85.
7. Лос В.А. В поисках категориальных оснований глобалистики // Век глобализации. №2. 2009. –С.145.

8. o‘zbekistonda gender munosablari tarixi A.M.Rahmatovna tadqiqotlar. uz
9. Globalashuv jarayonida sharq mentalitetidagi gender tengligiga bo‘lgan munosabat
10. AM Rahmatovna
11. Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 5 (5), 378-382

MA’RIFIY JAMIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA HADIS ILMI VA AN’ANASINING TUTGAN O‘RNI

Saidahmadov Shuhrat Shamsiyevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya: Maqolada musulmon Sharq hadischilik an’alarining Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’rifatli jamiyatni shakllantirishdagi mavqeyini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yaratish hozirgi falsafa ilmi oldida turgan dolzarb vazifalarni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’rifatli jamiyat islom dini, hadis, ma’naviyat, ma’naviy-ma’rifiy madaniyat, komil inson tarbiya.

THE ROLE OF HADITH SCIENCE AND TRADITION IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF AN EDUCATED SOCIETY

Annotation: The article analyzes the current tasks facing the contemporary philosophy of creating scientific research on the role of the hadith traditions of the Muslim East in the formation of an enlightened society in the conditions of New Uzbekistan.

Key words: New Uzbekistan, enlightened society, Islamic religion, hadith, spirituality, spiritual and enlightened culture, perfect human education.

Dunyo xalqlari tarixi tajribalari ko‘rsatadiki, hych bir davrda jamiyat taraqqiyoti moddiy-iqtisodiy rivojlanish bilangina kutilgan natijalarga erisha olmagan. Uning zamirida kuchli ma’naviy-ma’rifiy madaniyat bo‘lishi talab etilgan. Buni qadim antik davrlardan boshlab bugungi global hayot taraqqiyoti ham ko‘rsatib turibdi. Shunga ko‘ra, Sharq xalqlari, xususan, Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy rivojlangan jamiyat va uning faol fuqarolarini ahloqiy-ma’naviy jihatlardan etuk qilib tarbiyalashda hadis ilmi ma’rifatidan unumli foydalanish dolzarb hisoblanadi. Hozirgi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarda dunyo va inson munosabatlariga xolis, adolatli baho berish ko‘nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhim va dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Istiqlol yillarida muqaddas qadriyatlarimizni tiklash, o‘zlikni anglash va ma’naviy-ma’rifiy boyliklarimizni jamiyat taraqqiyoti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga bu borada oldinda nihoyat zarur va jiddiy tadqiqotlar yaratish ehtiyojlari ham mavjud bo‘lib turibdi. Ayniqsa, yangi O‘zbekiston sharoitida ma’rifiy jamiyat hayotini

rivojlantirish, komil shaxs fenomenini shakllantirishda Sharqning azaliy qadriyatlari, diniy-islomiy, axloqiy-ma'naviy qarashlaridan foydalanishdek muhim muammo tadqiqi bugungi ijtimoiy-gumanitar fanlar oldiga dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini etkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi"[1]. Shu nuqtai nazardan yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun islom olamida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi manba Hadisi Sharif ma'rifatidan foydalanishning ijtimoiy-falsafiy tahlilini amalga oshirish hozirgi davr falsafa ilmida nihoyat dolzarb masala hisoblanadi.

Bu buyuk meros o'z davridan to hozirgi kunlargacha dunyo xalqlari ma'naviy xazinasi sifatida qadrlanadi. Shuni aytish kerakki, hadischilik an'anasiga islom madaniyatining barcha sohalarida ishonchli manba sifatida murojaat etiladi. Bu an'ananing tamali Qur'oni Karim oyati karimalarida mustahkamlangan bo'lib, unda 23 o'rinda hadis kalimasiga ishora etiladi. Shu bois sahih hadislarining asosiy qismi yurtdoshlarimiz tomonidan hayotga tadbiiq etilganligi, ularda jamiyat va inson kamoli uchun eng maqbul, ishonchli qarashlarning mavjudligi hamda ming-ming yillar davomidagi hayotiy tajribalarning aks etganligi, shu bilan birga bu qadriyatlarning o'lmasligi Yangi O'zbekiston ma'naviy poydevori mustahkamligidan ham dalolat beradi. Gap shundaki, Hadisi Sharif Qur'oni Karim singari qadimdan to hozirgi kunlargacha islom ma'rifat va madaniyati, ilmu urfoni, ijtimoiy-falsafiy qarashlari, badiiy-estetik talqinlari va boshqa sohalar uchun ham tafakkur manbai bo'lib xizmat qilib keladi. Yurtimizning Sharq Renesansini yaratgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy singari qomusiy olimlari, Xoja Axmad Yassaviy, Abduholiq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi buyuk tasavvuf arboblari, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Boburlardek jahon badiiy-estetik olami taraqqiyotida ulkan o'rin tutgan mumtoz ijodkorlar ham muqaddas Hadisi Sharif haqiqatlariga tayanganlar. Bu shundan dalolat beradiki, Sharq-islom, xususan, Markaziy Osiyoning dunyoga mashhur ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ilmiy-ma'rifiy yutuqlari, komil jamiyat va inson haqidagi ideal fikrlari – bularning barchasi zamirida boshqa islomiy manbalar bilan birga Hadisi Sharif hikmatlari ham etakchi mavqye egallaydi.

Jahon va o'zbek falsafa ilmida hadischilik bilan bog'liq masalalarni o'rganish borasida boy tajriba to'plangan. Xususan, faylasuf olimlar tadqiqotlarida hadischilik tarixi, mazmun mohiyati, hadischilik va jamiyat hayoti munosabatlarini o'rganish, hadislarining inson kamolotini ta'minlash va yoshlarni tarbiyalashdagi o'rni masalalari yuzasidan qator dissertasiyalar, monografiya va ilmiy maqolalar yaratilgan. Jumladan, Sharq hadischilik an'anasi va tarixi, muhaddis olimlar hayoti va faoliyati, hadis ilmi metodologiyasi, hadislar tasnifi, uslub va kategoriyalari, hadischilik to'plamlari va tizimi borasida salmoqli qarashlar ilgari surilgan. Biroq hozirgi yangi O'zbekiston davrida ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirish, inson axloqiy-ma'naviy

olamini boyitish sohalaridagi xizmatlariga chuqur baho berilgan emas.

Shu ma’noda bugungi kunda oldimizda turgan asosiy vazifalar sifatida;

✓ Sharq tarixida mavjud bo‘lgan ma’rifatli jamiyat va komil inson haqidagi qarashlarni o‘rganish;

✓ Jamiyat ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan diniy-axloqiy, madaniy-ma’rifiy ta’limotlar tarixiga nazar tashlash;

✓ Islom manbalari, xususan, Sharq hadisilik maktablarining ijtimoiy hayotdagi o‘rniga baho berish;

✓ Hadislarning ma’rifati jamiyatni shakllantirish va rivoj toptirish borasidagi xizmatlarini ko‘rsatib berish;

✓ Bugungi globallashuv davrida inson kamoloti, ma’naviy sog‘lomligida hadislarning ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq-islom madaniyati, xususan, hadis ilmi taraqqiyoti qadimdan xalqimiz hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lib kelganligi va uning dunyo miqyosida ma’rifatli jamiyat shakllanishida tutgan o‘rni beqiyosligi inobatga olingan holda bugungi O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining ta’minlanishini asoslaridan biri ekanligini ochib berish ilm zarurati sanaladi. Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqot amaliy natijalari sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida ma’rifiy-axloqiy qarashlar, jumladan, aynan hadislar va ularda ifoda etilgan umuminsoniy fikrlardan jamiyat ma’naviy yuksalishi, inson ongu shuurida mana shu ma’naviy merosga, qadriyatga muhabbat ruhini shakllantirishni qayd etish lozim.

Bu holat bir vaqtda ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan hodisalarga teran bahon berish, insonlararo munosabatlarni gumanistik ruhda hal etish amaliyotiga ham yordam beradi. Shu bilan birga mamlakatimizda falsafa fani bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, monografik ishlar rivojiga turtki beradi, o‘quv jarayonining samaradorligi oshirish va sifatli ilmiy ma’ruzalar olib borish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi. 2017 yil 20-noyabr.

2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi’ as-sahih (Ishonarli to‘plam). Ilm kitobi. 4-bob. To‘rt tomlik. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. – 246 b.

3. Ro‘zaliyev B.A. Olti buyuk muhaddis // Ijodkor o‘qituvchi jurnali. - 30 iyun, 2022-yil. - №20-son.-B.188-187.

4. o‘zbekistonda gender munosablari tarixi A.M.Rahmatovna tadqiqotlar. uz

5. Globallashuv jarayonida sharq mentalitetidagi gender tengligiga bo‘lgan munosabat

6. AM Rahmatovna

7. Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 5 (5), 378-382

YOSHLAR TARBIYASIDA QADRIYATLARNING O‘RNI

Abdunasirova Xalima Erdtillaevna

Toshkent to‘qimachilik va engil sanoat instituti

katta o‘qituvchisi +998935381900

Xalima.72@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada yoshlar tarbiyasida sharq allomalari ma’naviy merosidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o‘rni xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ta’lim, tarbiya, barkamol avlod, ma’naviyat, madaniyat, qadriyat, inson.

THE ROLE OF VALUES IN YOUTH EDUCATION

Abstract: The article deals with the role of national and universal values in the spiritual heritage of Eastern scholars in the education of young people.

Key words: youth, education, upbringing, mature generation, spirituality, culture, value, human.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish omili sifatida oliy o‘quv yurti ta’lim jarayonida talabalarning qadriyat yo‘nalishlarini rivojlantirishga oid Sharq allomalarining ma’naviy merosi orqali yoshlarni kasb-hunarga va ilmga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, axloqiy omillar asosida yangicha qarashlar va yondoshuvlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish bugungi kunning eng dolzarb muammlaridandir. Zeroki, insoniyat taraqqiyotida avloddan-avlodga ko‘chib o‘tib kelayotgan umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar, axloqiy omillar IX-XII asr Sharq allomalarining ma’naviy merosida ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida qadriyatlarni egallash, avlodlarga o‘tkazishda muhim vosita hisoblangan tarbiya masalalarini falsafaning muhim qismi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, mavjudotning eng buyuk va etuk mahsuli - bu insondir.[1,21 b]. Shuningdek, u fazilatli shaharlarda ilm, falsafa, axloq-ma’rifat birinchi o‘rinda bo‘lmog‘i lozim,- deb biladi. Fozil shahar boshlig‘i bilimni, haqiqatni sevuvchi, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qarashi, adolatni yaxshi ko‘ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo‘lishi kerak. Forobiy insonni kamoloti uchun xizmat qilgan, xayr-ehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarini yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to‘sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo‘lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi.

Abu Nasr Forobiy hayotning oliy maqsadi baxt-saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o‘rganish, kasb-hunar va ilmlarni o‘zlashtirish - ma’rifatli bo‘lish orqali erishadi deb qaraydi.

Sharq allomalaridan Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ilm olishga oid ko‘pgina ma’lumotlarlar keltiriladi [2,45 b]. Akademik S.P.Tolstov bu asar haqida shunday degan edi: “Bu asar **Oliy ta’lim sifatini takomillashtirishda innovatsion hamkorlikning dolzarb masalalari** Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining, birinchi

navbatda, O'rta Osiyo xalqlarining xo'jalik hayoti, urf-odatlarini, marosimlari, e'tiqodlari haqidagi o'ziga xos bir qomusdir"[3, 16 b]. Abu Rayhon Beruniy avlodidan avlodga o'tib kelayotgan umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analarni xalqning jamoa ijodkorligi mahsuli deb biladi. Shu bois, insonning talab-ehtiyojlari zamirida aql-zakovat bilan yaratilgan, yaxshilikka olib boruvchi ahloq qoidalarini egallash, insonning ahloqiy munosabatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi tadbirlar orqali ta'lim-tarbiyani izchil amalga oshirish mumkinligini alohida ta'kidlaydi.

Alloma Abu Ali ibn Sino kishilarni do'stlik va haqiqatga, do'stlikning qadriga etishga chaqiradi. Insonni esa olamdagi mavjudotlar ichida eng buyuk zot,[4, 124 b] deb qaraydi. Yusuf Xos Hojib insonning tashqi qiyofasi uning ichki ma'naviy dunyosiga mos bo'lishiga katta ahamiyat beradi. Mutafakkir yolg'onchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq bo'lish kerak, - deydi.[5, 45 b]

Jamiyat va xalq uchun qilingan yaxshilik oliy qadriyat ekanligini ta'kidlagan Firdavsiy uning baho darajasini belgilab o'tgan. U buni mamlakat mazmunini belgilovchi omil sifatida ko'rsatib o'tadi. Maqsad, haqiqat va reallikni birlashtirib ko'rsatadi. Uni anglash insoniyat farovonligi uchun abadiy zaruriyat, deb biladi.

Qadriyatlar boshqa ilmiy kategoriyadan farqli ravishda nafaqat anglash ahamiyatiga, shuningdek boshqaruvchi, maqsadli qiymatga ega bo'lib, ijtimoiy munosabatlardagi harakat tizimida me'yor va ideal sifatida ishtirok etadi. Ular ijtimoiy **Oliy ta'lim sifatini takomillashtirishda innovatsion hamkorlikning dolzarb masalalari** munosabatlar amaliyotida mavjud bo'ladi va ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda qadriyat mezonlari, me'yorlari, ideallari sifatida anglashiladi va o'z navbatida butun insoniyat hayoti sohalariga insonlarning ongi, ma'naviy-ruhiy holati orqali qayta ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa sifatida aytish joizki, ta'lim sifatini takomillashtirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar va sharq allomalari ma'naviy merosi muhim o'rin tutadi. Turli jamiyatlarda va ularning har xil rivojlanish bosqichlarida evolyusion shaklda qadriyatlarning uzluksiz almashinuvi bo'lib o'tadi. Ammo, burilish bosqichlarida ham ko'lam, ham mazmun jihatidan butunlay boshqa, sifat jihatidan yangi qadriyatlar tizimi almashinuvi ro'y beradi. Qadriyatli qayta yo'naltirish samarasining muhim sharti - bu, jamiyatning maqsadli, integrallovchi kuchi sifatida yangi qadriyatli koordinatalarni aniqlash sanaladi. Jamiyatdagi bu kuch qadriyatlarning tartibga solinganigina emas, balki, yagona uyg'un tizim kabi barqaror rivojlanishini ham belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Xalq merosi, 1993. B. 21.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Arab tilidan tarjima A. Rasulov. Izohlar I. Abdullaev, A. Rasulovniki. T. I. Toshkent, 1968. B.45
3. Tolstov S.P. Beruni i ego "Pamyatniki minuvshix pokoleniy". Abu Rayxan Biruni. Izbrannyye proizvedeniya, I. 1957. Str. 16.
4. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy merosining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – T., Navro'z", 2019. – B.124.
5. Yusuf Xos Hojib. Baxtga eltuvchi bilim. – T., Ma'naviyat, 2001. – B. 45.

TURIZM, MADANIYATI VA TA'LIM

Shaxzoda Sharipova Xasanovna

mustaqil izlanuvchi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

shakhzoda-sharipova@bk.ru

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm madaniyati va ta'limning o'zaro aloqadorligi tahlil qilingan. Shuningdek zamonaviy ta'limda turizm madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: turizmmadaniyati, ta'lim, zamonaviyta'lim, innovatsiya, bilim, turistiksohadagikadrlar.

TOURISM CULTURE AND EDUCATION

Abstract. This article analyzes the interaction of Tourism Culture and education. Also in modern education, the positive and philosophical aspects of the upliftment of tourism culture are revealed.

Key words: tourism culture, education, modern education, innovation, knowledge, personnel in the tourist sphere.

Respublikamizda turizm madaniyatini kuchaytirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy qismida o'z aksini topmoqda. «Turizm industriyasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida mamlakatlar va xalqlarni yaqinlashtirishda muhim rol o'ynaydi»[1]. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim orqali fuqarolarimizda turizm madaniyatini yuksaltirish muhimahamiyati kasb etadi. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga katta e'tibor qaratilib, mamlakatimizning bir qancha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida turizm, xalqaro turizm, turizm menejmenti, turizm operatorligi xizmatlarini tashkil etish, turizm marketingi kabi o'quv yo'nalishlari bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasini kompleks tarzda rivojlantirishda unga xizmat qiladigan kadrlar salohiyatini yuksaltirishga, servis xizmatini tashkil qilish va malakali gidlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda[2].

Xalqaro turizm sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari va ijodiy ishlarni olib borish bo'yicha respublikaning tashabbuslarini amaliy ro'yobga chiqarish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning tarixiy va madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida Samarqand shahrida 2018 yilda «Ipak yo'li va madaniy meros» turizm xalqaro universiteti ochildi.

Unda quyidagilar belgilandi: zamonaviy innovatsion va ilmiy-pedagogik texnologiyalarni, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini qo'llagan holda, turizm sohasida yuqori malakali professional kadrlarni milliy va xalqaro ta'lim standartlariga

muvofiq sifatli tayyorlashni ta'minlash;

ta'limning tegishli yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlarni yaratish, yosh talabalar va mutaxassislarni jalb qilgan holda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borish, turizm sohasida ta'lim tizimiga etakchi xorijiy ta'lim muassasalari tajribasini joriy qilish;

turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan yangi ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning innovatsion shakllarini ishlab chiqish va joriy etish;

istiqbolli yosh bitiruvchilarni chet el oliy ta'lim muassasalariga va ilmiy-tadqiqot markazlariga magistratura hamda doktoranturada o'qishga muntazam ravishda yuborish orqali Universitetning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublarini faol takomillashtirish;

ta'lim va ilmiy faoliyatning ishlab chiqarish faoliyati bilan uzviy integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish;

turizm sohasi sub'yektlari mutaxassislarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

yetakchi respublika va xorijiy ta'lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni, jumladan ularning mutaxassis hamda ekspertlarini o'qitish va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish jarayonlariga jalb qilish orqali rivojlantirish, turizm sohasidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish bo'yicha xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va simpoziumlar tashkil etish[3]. Zamonaviy ta'lim turizm madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki u turizm sohasini shakllantirish va mustahkamlashga ta'sir ko'rsatadigan mutaxassislarni tayyorlaydi.

Ta'limdaturizm madaniyatiga ta'sir ko'rsatadigan ba'zi omillar:

1. *Mutaxassislar ta'limi.* Turizm va mehmondo'stlik bo'yicha ta'lim dasturlari turizm sanoatining turli sohalarida, shu jumladan mehmondo'stlik, turoperatorlar, gidlar, marketing menejerlari va boshqalarda ishlashi mumkin bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlaydi. O'zbekistonda mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish masalasiga ham katta e'tibor qaratilib, gidlar, mehmonxona xodimlari, turistik xizmatlar ko'rsatishning yanada mukammal standartlarini o'rnatish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda[4].

2. *Madaniy vositachilarni tayyorlash.* Madaniyatlararo muloqot va madaniyatni o'rganish bo'yicha ta'lim sayyohlarning turli madaniy guruhlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi va ularga ijobiy va haqiqiy sayohat tajribasini taqdim etadi.

3. *Ilmiy izlanishlar.* Universitetlar va tadqiqot markazlari sayyohlik ehtiyojlari, afzalliklari va xulq-atvori bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, shuningdek, sayyohlik menejmenti va marketingga innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish orqali turizm madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

4. *Kasbiy rivojlanish.* Ta'lim dasturlari turizm sohasi xodimlarining malakasini oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi, bu esa xizmat ko'rsatish standartlari va turistik xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi.

5. *Barqaror turizmni rivojlantirish.* Ta'lim tabiat, madaniy meros va mahalliy hamjamiyat oldida ong va mas'uliyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Barqaror turizm dasturlari talabalar va mutaxassislarga tabiat va madaniy merosni saqlash va

himoya qilishga yordam beradigan usullar va amaliyotlar to'g'risida ma'lumot beradi.

Bugungi kunda butun dunyo xalqlari madaniyatlari almashinuvi jarayonlari qadriyat sifatida e'tirof etib borilayotgan faoliyatning yangi shakllari bo'lgan ta'lim, turizm, shou-biznes, ommaviy madaniyat orqali yoyilmoqda. Jamiyatda bunday jarayonlarning jadallashishi industrial jamiyat rivojlanishi sabablarini keltirib chiqarishda muhim omil hisoblanadi[5].

6. *Innovatsiyalarni rag'batlantirish.* Ta'lim innovatsion fikrlashni va turizm faoliyatiga yangi yondashuvlarni rivojlantirishni, shu jumladan yangi texnologiyalardan foydalanishni, turizmning yangi turlarini yaratishni va yangi bozor segmentlarini rivojlantirishni rag'batlantiradi.

Turizm madaniyati va ta'limi o'zaro bog'liq va bir-biriga turli jihatlarda ta'sir qiladi:

- **Ta'lim turizm madaniyatining asosi sifatida.** Ta'lim mahalliy aholi va sayyohlar orasida madaniy qadriyatlar, tarix va an'analarni anglash va tushunishni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bilimli odamlar madaniy merosni ko'proq qadrlashadi va hurmat qilishadi, bu madaniy turizmning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

- **Professional tayyorgarlik.** Turizm va mehmondo'stlik bo'yicha ta'limda sturlariturizm sohasida ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlaydi. Ushbu ta'limning sifati sayyohlarga xizmat ko'rsatish darajasiga va ularning qoniqishiga bevosita ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida ma'lum bir mintaqada turizm madaniyati to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantiradi.

- **Innovatsiya va rivojlanish.** Ta'lim turizm sohasidagi innovatsiyalarni, shu jumladan turizmning yangi shakllarini, texnologik echimlarni, barqaror amaliyotlarni va boshqalarni rivojlantirishga yordam beradi.

- **Barqaror turizm.** Ta'lim ekoturizm, madaniy turizm va mas'uliyatli iste'mol kabi turizmga barqaror amaliyotni ommalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumotli sayyohlar o'z harakatlarining mahalliy madaniyat, tabiat va jamiyatga ta'sirini ko'proq bilishadi. Bu o'rinda P.Sorokinning fikrini ta'kidlash joizdir, «turizm asosan farovonlik, sog'liq, jismoniy barkamollik, estetik ehtiyojni qondirish sohasidir»[6].

- **Madaniyatlararo tushunish.** Ta'lim xalqaro munosabatlar va jahon dunyosini mustahkamlash uchun muhim bo'lgan sayyohlar orasida madaniyatlararo tushuncha va bag'rikenglikni rivojlantirishga yordam beradi. Turizm madaniyati albatta ijtimoiy fenomendir[7].

Madaniyatlar almashinuvi davrida shaxsda «turistik savodxonlik»ning yuksalganligi sayohatlar davrida o'zining qat'iy pozitsiyasida turishiga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqning turistik savodxonligi yuksakligi orqali progressiv jarayonlarning davlat tomonidan tartibga solib turilishi hamda qadriyatlarini saqlab qolish, tartibga solinishini ta'minlaydi[8].

- **Ilmiy-tadqiqot ishlari.** Universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari madaniy merosni o'rganish va saqlashga hissa qo'shadi, bu madaniy turizmni rivojlantirishga yordam beradi va sayyohlarning ta'limi va tajribasi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, turizm ta'limi va madaniyati turizm sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash va turizm tajribasi sifatini yaxshilash uchun bir-biri

bilan chambarchas bog‘liq va o‘zaro ta’sir qiladi. Umuman olganda, zamonaviy ta’lim turizm madaniyatini rivojlantirishda ajralmas rol o‘ynaydi, turizm sanoatining muvaffaqiyatli ishlashi va uni yanada rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan professional kadrlar, bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. O‘zbekiston, 2020. – B. 267.
2. Yaxshilikov J. Ya. The Great Silk Road the historical and spiritual basis for the development of national tourism in Uzbekistan // The American Journal of Social Science and Education Innovations. USA, 2021. February 26, 101-//Volume03Issue02-16 – P. 101-108.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 28.06.2018 yildagi PQ-3815-son. <https://lex.uz/docs/3799075?ONDATE=20.01.2024>.
4. Khashimov Sh.J. Legal basis of development of national tourism in Uzbekistan // Journal of legal studies and research. Volume 6 Issue 1 – ISSN 2455 2437. USA. 2020. -P. 288-292.
5. Музаффаров А.М. Туризм–маданиятлараро тулоқотни ривожлантириш омили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. - Б. 17.
6. Сорокин П. А. Социальная и культурная динамика. – Издательство ‘ Академический проект’, 2017.
7. Mirzarahimov B.X. O‘zbekistonda turizm madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari 09.00.04-ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Andijon, 2021. –B. 140.
8. Arzimatova I., Mirzarahimov B.X. O‘zbek turizm madaniyati fenomeni. Monografiya. Farg‘ona, 2022. – B. 157.

**YANGI O‘ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY MEROSINI TADQIQ ETISH
BO‘YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MA’NAVIY
YANGILANISHLAR.**

Gulova Anorgul Axtamovna

BuxDU “Yurisprudensiya va
ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Ulug‘ mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosining ko‘lami va ta’sir darajasi shunchalik kengki, shu bois u zamon va makon chegarasini tan olmaydi. Uning asarlarida umuminsoniy qadriyatlar madh etiladi. Bu esa har qanday millatga mansub inson ma’naviyati uchun suv va havoday zarurdir. Ammo, Navoiy va uning asarlari turkiy zabon xalqlar, jumladan, biz o‘zbeklar uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va xalqning millat sifatida yuzaga chiqishida boshqa biror bir shaxsiyat Alisher Navoiychalik chuqur iz qoldirmagan. Shuning uchun bizda Navoiyni tushunish va tushuntirish yo‘lidagi izlanishlar hech qachon to‘xtab qolmagan.

Kalit soʻzlar: turkiyzabon xalqlar, sanʼat va meʼmorchilik

SPIRITUAL UPDATES IN NEW UZBEKISTAN IN RESEARCH OF THE HERITAGE OF ALISHER NAVOY.

Annotation

The scope and influence of the great thinker Mir Alisher Navoi's creative heritage is so wide that it does not recognize the boundaries of time and space. Universal values are praised in his works. This is as necessary as water and air for the spirituality of people of any nationality. However, Navoi and his works are of special importance for Turkic-speaking peoples, including us Uzbeks. Because no other personality Alisher Navoiychalik left a deep mark on the formation of the Uzbek literary language and the emergence of the nation as a nation. That is why we have never stopped the search to understand and explain Navoi.

Key words: Turkic-speaking peoples, art and architecture

Vatanimizda “milliy tiklanishdan milliy yuksalish” jarayonida Navoiy ilmiy merosini oʻrganishda yangicha dunyoqarash shakllanib bormoqda. Buni biz quyidagi maʼnaviy yangilanishlar misolida koʻrishimiz mumkin:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 29 yanvardagi “Alisher Navoiyning 550 yilligini nishonlash toʻgʻrisida”gi Farmoni;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 17 sentyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining adabiyot institutiga Alisher Navoiy Nomini berish toʻgʻrisida”gi qarori;

—Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 25 sentyabrdagi “Adabiyot, sanʼat va meʼmorchilik sohasida Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berish toʻgʻrisida”gi Farmoni;

—Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 14 apreldagi “Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qarori;

—Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy bogʻi hududida Adiblar xiyobonini barpo etish toʻgʻrisida”gi Qarori;

—Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yilda 6 noyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori”⁸¹;

—“Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi Qarori⁸².

—Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 fevraldagi “Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish” toʻgʻrisida”gi Qarori shular

⁸¹ Bashariyat maʼnaviy yuksalishi va yoshlar tarbiyasida Alisher Navoiy merosining ahamiyati mavzuidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. —Buxoro: 2021 yil. —215-b.

⁸² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi 19.10.2020 yildagi PQ-4865-sonli Qarori.// <https://lex.uz/docs/-5054929>

jumlasidandir. Shuningdek, 2019 yil 15 oktabrda Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining ettinchi sammitida ilk bor O'zbekiston uning to'la huquqli a'zosi sifatida ishtirok etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev mazkur anjumanda a'zo davlatlarning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi o'zaro manfaatli hamkorligini kengaytirishga doir muhim tashabbuslarni ilgari suradi. Bu anjumanda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yana bir muhim tashabbus – Kengashga a'zo davlatlarning zamonaviy adabiyot va san'at, tarix va memorchilik sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan ijodkorlarni rag'batlantirish maqsadida alohida mukofot ta'sis etish to'g'risidagi taklif kuni tartibiga qo'yiladi.

2021 yil 31 aprelda bo'lib o'tgan Kengashning navbatdagi sammitida juda muhim va quvonchli voqea yuz berdi: Yurtboshimizning ijodkorlarni rag'batlantirish borasidagi mazkur nufuzli mukofotni, buyuk mutafakkir hazrat Alisher Navoiy nomi bilan atash to'g'risidagi taklifi Qozog'iston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Turkiya, Turkmaniston kabi a'zo davlatlar vakillari tomonidan ma'qullandi.

Ma'lumki, turkiy xalqlarni asrlar davomida o'zining boy va o'lmas merosi bilan birlashtirishga xizmat qilib kelgan ulug' zot – Alisher Navoiyga hurmat-ehtirom ko'rsatishlari hech qachon so'nmaydi.

Davlatimiz rahbarining g'oyasi va tashabbusi bilan 2020 yil dekabr oyida tuzilgan maxsus ishchi guruh Hirotdagi Hazrat Navoiy maqbarasi qayta ta'mirlash va atrofni obodonlashtirish maqsadida Afg'onistonda bo'lib, qizg'in muzokaralarni amalga oshirib qaytdi. Bu borada yaqin kunlarda keng miqyosda amaliy ishlar boshlanishi ko'zda tutilgan. Bu ham Prezidentimizning alloma shaxsiyatiga bo'lgan yuksak ehtiromi ramzidir.

Alloma tavalludining 580 yilligi ayni damlarda xalqaro miqyosda va yurtimizda keng nishonlanmoqda.

Yurtimizda Hazrat Navoiy nomini abadiylashtirish, ruhini shod etish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi Qarori qabul qilinib, unga ko'ra, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil qilish, alloma ijodiy merosini chuqur o'rganish va ommalashtirishga salmoqli hissa qo'shgan yurtimiz hamda chet el fuqarolarini, shuningdek, ilmiy-ijodiy muassasalarni mukofotlash maqsadida Alisher Navoiy ordenini ta'sis etish, Hirot shahridagi joylashgan Alisher Navoiy maqbarasi majmuasida qurilish va obodonlashtirish ishlarini olib borish kabi ko'plab dolzarb vazifalar belgilab olinganligi tahsinga sazovor. Ayni vaqtda Turkiy Kengashga a'zo davlatlarning 150 milliondan ortiq aholisi mazkur tabarruk sanani ko'tarinki ruhda, tantanali nishonlayotganlari quvonchlidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Anvarov “*Hidoya*” o'rta maxsus islom bilim yurti o'qituvchisi.
2. O'zbekistonda gender munosablari tarixi A.M. Rahmatovna tadqiqotlar. uz
3. Globallashuv jarayonida sharq mentalitetidagi gender tengligiga bo'lgan munosabat AM Rahmatovna Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 5 (5), 378-382

4. Axtamovna, Gulova Anorgul. "The Mystical Ideas Put Forward by Alisher Navoi in His Work "Arba'in"("Forty Hadiths)." *JournalNX*: 10-15.

ENHANCING SUSTAINABLE FUTURE: HARNESSING HARMONIOUS YOUTH ENERGIES"

Aajaz Ahmed Hajam

PhD, Associate Professor Sambhram University

+998971278020

aajaznazir@gmail.com

Abstract: This study investigates the pathways through which harmonious youth energies contribute to sustainable development goals. Drawing from a synthesis of literature and empirical analysis, it uncovers the transformative potential of engaging young people in sustainable initiatives. The findings highlight the importance of creating conducive environments, providing education and resources, and fostering inclusive participation to leverage the positive impact of youth energies on sustainable futures.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot yoshlarning barkamol energiyalari barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo‘shadigan yo‘llarni o‘rganadi. Adabiyot va empirik tahlil sintezidan kelib chiqqan holda, u yoshlarni barqaror tashabbuslarga jalb qilishning transformatsion salohiyatini ochib beradi. Natijalar yoshlar energiyasining barqaror kelajakka ijobiy ta'siridan foydalanish uchun qulay muhit yaratish, ta'lim va resurslar bilan ta'minlash hamda inklyuziv ishtirokni rag‘batlantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Introduction:

The global pursuit of sustainable development necessitates a holistic approach that integrates social, economic, and environmental dimensions. Central to this endeavor is the active involvement of youth, who represent a reservoir of energy, creativity, and innovation. Harnessing the harmonious energies of young people is essential for addressing current challenges and building a future that is equitable, resilient, and environmentally sustainable. This research aims to explore the multifaceted relationship between harmonious youth energies and sustainable development, examining how empowering young individuals can catalyze positive transformations at local, national, and global levels [8].

Literature Review:

The literature review encompasses diverse perspectives on youth development, sustainability, and the intersections between the two. It examines theories of youth empowerment, emphasizing the importance of fostering harmonious relationships within communities and promoting active youth participation in decision-making processes [7]. Additionally, the review explores existing frameworks for sustainable development goals (SDGs) [2], highlighting key principles such as intergenerational equity, environmental stewardship, and social inclusivity. The review also acknowledges the challenges and barriers faced by youth, such as limited access to

education, resources, and opportunities for meaningful participation, emphasizing the importance of addressing these issues to fully harness the potential of harmonious youth energies for building a sustainable future.

Methodology:

This research employs a mixed-methods approach, combining qualitative and quantitative analyses to examine the role of harmonious youth energies in sustainable development [6]. Qualitative methods such as interviews, focus groups, and participant observations are utilized to gain in-depth insights into youth perspectives, experiences, and aspirations regarding sustainability. These qualitative data sources are complemented by quantitative methods including surveys, statistical analysis, and document reviews to assess the effectiveness of youth empowerment programs [3], measure changes in sustainable behaviors and attitudes, and identify trends and patterns across different demographic groups. The triangulation of qualitative and quantitative data enhances the validity and reliability of the findings, allowing for a comprehensive understanding of the complex interplay between harmonious youth energies and sustainable futures.

Findings and Analysis:

The findings reveal that harmonious youth energies have a transformative impact on various dimensions of sustainable development. Empowered youth are more likely to engage in environmentally friendly practices, advocate for social justice, and contribute positively to economic growth. They demonstrate a strong sense of civic responsibility and a commitment to creating a better world for future generations. Moreover, youth-led initiatives often pioneer innovative solutions to pressing challenges, showcasing the power of youthful idealism and creativity.

Recommendations:

Based on the research findings, several recommendations are proposed for stakeholders invested in youth development and sustainable futures:

1. **Invest in Youth Empowerment:** Allocate resources and funding towards comprehensive youth empowerment programs that focus on skill development, leadership training, and capacity-building in areas related to sustainability, entrepreneurship, and civic engagement [2].

2. **Promote Interdisciplinary Learning:** Encourage cross-sectoral collaboration and interdisciplinary education that integrates environmental, social, and economic perspectives.

3. **Support Youth-Led Initiatives:** Foster an enabling environment for youth-led projects and initiatives that address local and global sustainability challenges promoting innovation, creativity, and leadership. Provide funding, mentorship, and technical support to enable youth-led projects [5].

4. **Enhance Digital and Technological Literacy:** Equip young people with digital and technological skills that enable them to leverage digital platforms, data analytics, and communication technologies for advocacy, activism, and social impact in sustainability.

5. **Enhance Policy Integration:** Ensure that youth perspectives are integrated into policy frameworks and decision-making processes at all levels of governance [9].

6. **Encourage Green Entrepreneurship:** Support young entrepreneurs and social innovators who are developing sustainable business models, products, and services that contribute to environmental conservation, social inclusion, and economic resilience.

7. **Facilitate Mentorship and Networking:** Facilitate mentorship programs and networking opportunities that connect youth with experienced professionals and mentors in sustainability-related fields.

Conclusion:

In conclusion, harnessing harmonious youth energies is essential for building a sustainable future. By empowering young people, fostering inclusive environments, and promoting collaborative action, societies can unlock the full potential of youth as agents of positive change. This research underscores the urgency of investing in youth empowerment programs and creating platforms for meaningful youth engagement in sustainable development efforts. Through collective effort and shared commitment, we can create a world where harmonious youth energies drive lasting progress towards a more sustainable and equitable future.

References

1. Hooks, b. (1994). *Teaching to Transgress: Education as the Practice of Freedom*. Routledge.
2. United Nations Development Programme (UNDP). (2020). *Youth Empowerment for Sustainable Development*.
3. Malone, K., & Westoby, P. (Eds.). (2017). *The Empowerment Contested: Multidisciplinary Perspectives*. Routledge.
4. United Nations. (2015). *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*.
5. YSA (Youth Service America). (2019). *Youth-Led Solutions: A Guide for Sustainable Development Goals*. Retrieved from <https://www.ysa.org/youth-led-solutions-guide/>.
6. National Youth Council of Singapore. (2021). *Youth Action Guide for Sustainable Development Goals*. Retrieved from <https://www.nyc.gov.sg/en/initiatives/programmes/youth-action-guide-for-sdgs>.
7. World Economic Forum. (2018). *The Global Youth Empowerment Index*.
8. UNICEF. (2016). *Empowering Young People for a Sustainable Future*.
9. Green, H., & Haines, A. (Eds.). (2019). *Youth, Governance and Sustainable Development: Reimagining Learning and Practice*. Routledge

GENDER WORLDVIEW OF UZBEKISTAN STUDENTS: CHALLENGES AND PROSPECTS IN THE CONTEXT OF MODERN SOCIETY

Saida Agzamkhojayeva,

Doctor of Philosophy, Professor

Gulnoza Aminova,

Doctoral student at the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

Abstract: This article is devoted to the analysis of gender worldview among students in Uzbekistan. The main aspects of ideas about the roles of men and women in society, the influence of traditional values and cultural norms on the formation of gender stereotypes, as well as the challenges and prospects for achieving gender equality are examined. Various approaches to solving this problem are analyzed, including educational programs, information campaigns, legislative measures and the participation of public initiatives.

Key words: gender worldview, students, Uzbekistan, gender stereotypes, gender equality, traditional values, education, information campaigns, legislative measures, public initiatives.

The introduction of a gender worldview in Uzbekistan is an important task aimed at creating an equal and inclusive society where every person has the opportunity to develop and realize their potential regardless of gender. Gender worldview covers a wide range of aspects, including ideas about the roles of men and women in society, perceptions of gender stereotypes and discrimination, as well as the desire to achieve gender equality in various areas of life.

In the context of Uzbek society, where traditional values and cultural norms have a significant influence on the behavior and perceptions of people, the introduction of a gender worldview requires an integrated approach and taking into account the characteristics of local culture and traditions. However, taking into account the dynamic development of society and the desire for modernization, the introduction of a gender outlook becomes a necessary step towards creating a more just and equal society. [1, 49 p.]

This article will examine various aspects of the gender worldview of students in Uzbekistan, and also propose measures to achieve it, taking into account the characteristics of the country and modern challenges.

In modern society, gender views play a key role in shaping cultural norms and values. Uzbekistan, as a multinational state with a rich history and cultural heritage, is no exception. [2, 118 p.] Gender worldview among students in Uzbekistan is becoming the subject of increasingly active discussion in connection with the changing social and economic realities of the country.

One of the main aspects of the gender worldview of students in Uzbekistan is their attitude towards the role of women in society. Traditional cultural norms, combined with modern trends, form a complex picture of the perception of women as a member of society and family. [3, 82 p.] While some students hold conservative views on gender roles and believe that women should primarily be housewives and

mothers, others express support for equal rights and opportunities for both sexes.

The next important aspect is students' awareness of the problems of gender inequality and discrimination. In recent years, various campaigns have been carried out in Uzbekistan to fight for the rights of women and girls, which has an impact on the consciousness of the younger generation. Many students become active participants in social movements and initiatives aimed at creating a more just and inclusive society, where every person has equal opportunities regardless of gender.

It is also worth paying attention to the influence of gender worldview on the choice of professional path of students. In traditional Uzbek society, certain professions were considered predominantly male or female. [4, 106 p.] However, with changes in the sociocultural environment and expanding access to education, more and more young people are striving to overcome stereotypes and choose a career in accordance with their interests and abilities, and not depending on gender.

Despite the fact that issues of gender worldview in Uzbekistan remain the subject of discussion and debate, one can notice a positive trend in changing the views of young people. Students are becoming increasingly aware and active in the struggle for gender equality and justice, which reflects the gradual development of society as a whole. The development of education and information accessibility play an important role in this process, helping young people to understand their rights and opportunities, regardless of their gender. [5, 83 p.]

In addition, students of Uzbekistan are actively involved in the exchange of opinions and experiences on the topic of gender worldview both within university classrooms and on social networks and media. They organize discussion forums, meetings, and conduct information campaigns to educate and create a new, more open and inclusive society.

It should also be noted that the influence of gender worldview extends to the personal relationships of young people. Young people are becoming more conscious in choosing partners and interacting within relationships. [6, 46 p.] Respect for personal rights and freedoms, as well as respect for gender differences, become important criteria for the formation of healthy and harmonious relationships.

It is important to note that in recent years, Uzbekistan has taken a number of initiatives and reforms to strengthen gender equality and combat gender-based discrimination. The adoption of laws and policies aimed at protecting women's rights and ensuring equal opportunities for both sexes helps to change public consciousness and strengthen gender attitudes.

The role of educational institutions in shaping gender perceptions among students is also of great importance. Universities and colleges play an important role in disseminating knowledge about gender issues, conducting educational activities and supporting student initiatives on this topic.

However, despite progress towards gender equality, challenges and obstacles remain. Some conservative views and traditions continue to resist changes in gender roles and stereotypes. [7, 100 p.] This requires further efforts on the part of the state, public organizations and the active part of youth to overcome these obstacles and achieve full gender equality in Uzbek society.

To achieve a gender outlook in Uzbekistan, the following measures can be taken:

- Educational programs: Development and implementation of educational programs and courses aimed at increasing awareness of gender issues among students at all levels of education. This may include integrating gender perspectives into curricula and organizing training events for teachers.
- Information campaigns: Conducting information campaigns to educate society about the problems of gender inequality and the importance of achieving gender equality. This may include creating promotional materials, organizing events and discussions, and using social media to spread the word.
- Legislative measures: Enact laws and policies to protect women's rights and ensure equal opportunities for both sexes. This could include introducing laws prohibiting discrimination on the basis of gender, as well as providing support for women in the workforce and education.
- Support for public initiatives: Support and development of public organizations and initiatives aimed at fighting for gender equality and protecting women's rights. This may include financial support, advisory assistance and assistance in project implementation.
- Youth Participation: Involving youth in discussions and decision-making on gender equality issues. This may include organizing youth forums and conferences, as well as creating platforms for the exchange of experiences and ideas on this topic.

In conclusion, it can be noted that the gender worldview among students in Uzbekistan plays a significant role in shaping their ideas about justice, equality and sociocultural norms. The diversity of opinions and approaches to this topic reflects the complexity and diversity of social processes in the country.

Despite existing challenges and obstacles, the introduction of a gender perspective into Uzbek society appears to be an important step towards creating a more just and inclusive society. Education, information campaigns, legislation and public policy can help change gender stereotypes and achieve gender equality.

It is important to continue work in this direction, taking into account the peculiarities of the culture and traditions of Uzbekistan, as well as the active participation of young people in the process of change. The development of a gender outlook in Uzbek society will contribute to the strengthening of democracy, social justice and sustainable development of the country as a whole.

Bibliography

1. Abdurakhmonova , D. (2019). Gender equality in Uzbekistan: the role of education and public organizations. *Journal of Gender Studies*, 8(2), 45-58.
2. Karabaeva , G. (2020). Gender stereotypes among students in Uzbekistan: challenges and prospects. *Proceedings of the scientific conference “Modern problems of gender studies”*, 112-125.
3. Mirzaev, A. (2018). Gender worldview and its influence on the youth of Uzbekistan. *Collection of scientific articles “Modern sociocultural processes”*, 75-88.
4. Sharipova, Z. (2021). Gender worldview in the context of modern challenges and trends: analysis of the case of Uzbekistan. *Journal of Global Issues in Gender Equality*, 15(3), 102-115.

5. Rakhmatov, Sh. (2019). The role of the family in the formation of gender worldview among students in Uzbekistan. *Journal of Sociological Research*, 5(4), 78-91.

6. Akbarova, M. (2021). Gender aspects of the participation of students of Uzbekistan in public and political life. *Journal of Political Studies*, 18(2), 34-47.

7. Rakhmanov, T. (2019). Psychological aspects of gender worldview among students in Uzbekistan. *Journal of Psychology and Society*, 7(3), 102-115.

BARKAMOL AVLOD TARBIYSIDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM MUASSASALARINING O'RNI.

**Baxtiyor Mirkomilov t.f.n., professor,
Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Tel.+998-93-301-03-13,+998-99-567-30-12
b85716950@gmail.com
lazizjonburxonov@gmail.com

Annotasiya: Maqolada O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalashda maktabdan tashqari ta'lim muassalarida olib borilayotgan ishlar, barkamollik mohiyati, sog'lom avlod tarbiyasi va boshqalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Barkamol avlod tarbiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, barkamollik, muzeylar, arxeologik, etnografik, o'lkashunoslik, maktablar.

THE ROLE OF EXTRA-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE EDUCATION OF THE MATURE GENERATION.

Abstract: The article talks about the work carried out in non-school educational institutions, the essence of perfection, the upbringing of a healthy generation and others in the education of a well-rounded generation in Uzbekistan.

Ma'lumki, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis va o'zbek xalqiga Murojaatnoma bilan chiqishi yaxshi an'anaga aylanib qoldi. 2017-yildan e'tiboran amaliyotga tatbiq qilingan yillik Murojaatnoma instituti nafaqat zamonaviy boshqaruvning demokratik talablariga javob beradi, balki qadim milliy davlatchilik ildizlarimizga borib taqaladi.[1, 4 b]

Xalq ta'limi vazirligining maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish yuzasidan qabul qilgan buyruqlari ijrosini ta'minlash va hayotga tatbiq etishda sayyohlik – o'lkashunoslik yo'nalishdagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir. Bu borada mamlakatimizning mustaqillikka erishishi o'sayotgan avlodga xalqimizning asrlar davomida yaratgan ma'naviy qadryatlariga tayangan holda tarixiy va ilmiy jixatdan asosli ta'lim va tarbiya berishning an'anaviy, milliy shakllarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar ochib berdi. Dunyoga mashhur bo'lgan me'moriy, arxeologik, etnografiya, yodgorliklarimiz va shuningdek, to'garaklarda tashkil etiladigan ekskursiyalar, sayyohlik safarlari, ekspeditsiyalar, sayyohlik va o'lkashunoslikning hamda bolalar sayyohliging turli yo'nalishlari,

shakllarini rivojlantirish o'quvchi – yoshlar bo'sh vaqtlarini sermazmun o'tkazishda juda muhim omildir.

Ma'lumki, mamlakatimiz ijtimoiy -siyosiy rivojining hozirgi bosqichi o'quv – tarbiyaviy muassasalarda sayyohlik, o'lkashunoslik, ekskursiya, muzey ishlarini tubdan qayta qurish va samaradorligini oshirishni taqozo qilmoqda.

Umumta'lim maktablarida, hamda turli yo'nalishdagi ta'lim muassasalarida va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarda olib borilayotgan sayyohlik va o'lkashunoslik ishlari o'quv tarbiya jarayoni imkoniyatlarini kengaytirish hamda uning sifat va samaradorligini oshirish muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.[3, 64 b] O'quvchi – yoshlar sayyohlik va o'lkashunoslik to'garaklarida faol qatnashib, o'qish davomida olgan bilimlarni boyitadi, amaldagi ishlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladi va kelgusida kasb egasi bo'lishga yo'llanma oladi.

O'lkashunoslik faolyatining eng samarali turlaridan biri bu o'lkashunoslik to'garaklaridir. Lekin, bugungi kunda mazkur yo'nalishdagi to'garaklarning faolyati qoniqarli darajada emas. Sababi, o'lkashunoslik yo'nalishdagi etuk pedagog kadrlarni etishmasligi, ilmiy adabiyotlarning deyarli etishmasligi, o'lkashunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini to'xtab qolganligi, targ'ibot – tashviqot ishlarini sustligi hamda mazkur sohadagi pedagoglar maxoratining pastligi deb bilish mumkin. Aslida to'garakning yo'nalishi va "taqdiri" aksariyat hollarda to'garak rahbarining ma'sulyati, ishtiyoqi, intellectual va pedagogik maxorati bilan bog'liq. Maktablarda, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarda geografik o'lkashunoslik, san'at o'lkashunoslik , folklore o'lkashunoslik, ekalogik o'lkashunoslik, bialogik o'lkashunoslik kabi to'garaklarni tashkil etish mumkin va bunga mazkur yo'nalishdagi fan o'qituvchilari bosh-qosh bo'ladi. Natijada o'lkashunoslik yo'nalishdagi to'garaklar faolyati gullab yashnaydi.

O'quvchi-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan sayohat, ekskursiya va ekspeditsiyalar o'lkashunoslik sohasidagi yana bir samarali faolyatlardan biri sanaladi. Bugungi kunda ana shunday samarali, foydali sayohatlar asosan to'garaklarda, sayyoglik va o'lkashunoslik yo'nalishdagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarda uyishtiriladi. O'quvchi- yoshlar o'rtasida uyishtiriladigan har qanday turdagi sayohatlar (ekskursiya, ekspeditsiya, poxod va b.) o'quvchilarning irodasi va shaxsiy qiziqishlarini chiniqtirish bilan birga, uning o'z hayot yo'li va hayot tarzini tanlashdagi muhim omildir.

O'quvchilarning o'lkashunoslikdagi bilim, ko'nikma va malakalrni oshirish, rivojlantirish maqsadida turli intellektual viktorinalar, o'lkashunoslik haftaliklari, konferensiya va seminarlar uyishtirish katta ahamiyatga ega. Sababi, o'quvchi yoshlar bu kabi tadbirlar orqali o'z o'lkasiga oid bilim va ko'nikmalarni sinovdan o'tkazishi bilan birga, o'z o'lkasining vatanining fidoyi kishilari bo'lib ulg'ayadilar.

Sayyohlik o'lkashunoslik to'garaklarida bolalar ma'lum bir hududni har tomonlama o'rganadilar. O'rganish manzili sifatida o'lka, tuman, shaxarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, uning ekalogiya, geografiya, tarix, etnografiya, bialogiya, fizika va boshqa fanlar bilan bog'lanadilar, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanadilar. Shuningdek, qidiruv jarayonida o'quvchilar umumta'lim maktablarida olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, maslalan ilmiy yondashish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini boyitadilar. Maktab o'lkashunosligi o'quv tarbiyaviy jarayoning hayot

bilan aloqasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'quvchilar axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya oladilar.

Mustaqillik sharofati bilan xalqimizda Vatanimiz tarixiga qiziqish kuchaydi, milliy qadryatlarimiz va urf-odatlarimiz tiklandi. Yoshlarimizga o'z yurtini yaxshiroq bilishga buyuk vatandoshlarimiz bilan bog'liq bo'lgan joylarga borish, qadimiy va zamonaviy shaxarlarni o'z ko'zlari bilan ko'rish, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan yaqindan tanishtirishga imkon yaratildi.

Yosh avlodni har tomonlama etuk barkamol kishilar qilib tarbiyalash sayyohlik o'lkashunoslik borasidagi ishlar katta ahamiyatga ega. Jonajon o'lkamizni o'rganish mobaynida yoshlarga vatanparvarlik hissini singdirib borish, vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni oshirish yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar markazi, mutasaddilarning va biz o'qituvchilarning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Mustaqil yurtimizning ravnaqi, gullab yashnashi, o'quvchi yoshlarning har tomonlama bilim olishlari, hukumatimizning bir qator qaror va farmonlar talablari ijrosini ta'minlash, milliy g'oya targ'ibotini o'quvchilar ongiga singdirish, ulardan ishlash, o'quvchi – yoshlar o'rtasida “Sayyohlik va o'lkashunoslik”, “Xalq amaliy san'ati tarixi” yo'nalishlarida qo'shimcha bilim berish maqsadida mazkur yo'nalishlarda joylarda umum ta'lim maktablarida to'garaklar faol harakat olib bormoqda. [3, 63 b]

Mustaqillik davrida, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi jamoatchiligi oldida turgan asosiy vazifalaridan biri yosh avlodning milliy ma'naviyatini shakllantirish va kamol toptirishdan iboratdir.

Bu murakkab vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun esa dastavval jonajon o'lkamiz tarixini puxta bilishimiz, xalqimizning qadimiy udumlarini, boy milliy qadryat hamda an'analarni chuqur o'rganishimiz zarur. Bu esa yoshlarimizda mustaqil bilim ko'nikmasi, milliy qadryatlarimizga hurmat va qadrlash hissini shakllantiradi. Zero, “Yuksak ma'naviyat engilmas kuch” asarida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti sharhlaganlaridek “Shuni unitmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq” –degan edi.[2, 27 b.]

Darhaqiqat, har bir xalqning faxrlansa arzigudek ajdodlari, buyuk tarixiy siymolari nodir asarlari, qadimiy me'moriy obidalari bor. Har bir xalqni bilmoqchi bo'lgan kishi shu yurtning bozoriga borsa boyligini, qabristoniga borsa shu odamlarning o'z ajdodlariga izzat – ehtiromda ekanini, muzeylarga borsa shu xalqning madaniy – ma'naviy qudratini, shonli taraqqiyot yo'llarini bilib oladi. Millatimiz tarixiga nazar tashlasak, iqtisodiy rivojlanish ham, siyosiy barqarorlik ham, ijtimoiy-madaniy taraqqiyot ham, ilm-marifatga jiddiy e'tibor berilgan zamonlarda yuz berganligiga guvoh bo'lamiz .[1, 19 b]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Mirkomilov, Ma'naviy tiklanish va o'zlikni anglash, Toshkent “Muharrir” nashriyoti .2010 yil, 63 bet.

2. Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat engilmas kuch” Toshkent-“O'zbekiston”-.2008 , 27 bet.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi: Toshkent: ‘Manaviyat’, 2023-yil , 64-bet.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA ABDULLA AVLONIY IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARI

Bahronov Bahriddin Bo‘riyevich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Inson kamolotini manaviyatsiz, ma’naviy madaniy merossiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ma’naviyat rivojini esa kishilik jamiyatining olg‘a intilishsiz anglab bo‘lmaydi. Biri ikkinchisiga chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun esa ajdodlar ma’naviy merosini, ularning tarixiy madaniyatga qo‘shgan hissasini o‘rganish, ular ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari ilmiy asosda talqin etish va ta’lim-tarbiya sohasida keng foydalanish yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, g‘oya, siymo.

SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS OF ABDULLA AVLONI IN THE EDUCATION OF A PERFECT GENERATION.

Annotation

Human maturity cannot be imagined without spirituality and spiritual cultural heritage. The development of spirituality cannot be understood without the progress of human society. One is closely related to the other. For this, it is necessary to study the spiritual heritage of the ancestors, their contribution to the historical culture, to interpret the ideas of enlightenment put forward by them on a scientific basis, and to use them widely in the field of education in the spirit of national independence ideas of the young generation. plays an important role in education.

Key words: education, idea, figure.

Ilmiy madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan shunday siymolardan biridir Abdulla Avloniy muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga etgan, o‘z hayoti va faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtda bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o‘chmas iz qoldirgan, biz fahr va g‘urur bilan esga oladigan buyuk mutafakkir.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida tug‘ildi. 7 yoshidan maktabda, 12 yoshidan madrasada tahsil oldi.

Ma’lumki, Avloniy yashab ijod etgan davr yurtimiz tarixining eng og‘ir, ulkan yo‘qotishlar va chuqur tanazzul davriga to‘g‘ri keldi. Shunday bo‘lsa-da, Abdulla Avloniy o‘tgan asrning 20-yillarida xalq maorifi va madaniyati taraqqiyotida ishtirok etibgina qolmay, bolalar adabiyoti, o‘zbek milliy teatri, dramaturgiyasi, matbuoti rivojiga ham ulkan hissa qo‘shdi.

Uning hayoti va ijodiga nazar tashlasak, ko‘z o‘ngimizda o‘z xalqiga sadoqat bilan xizmat qiladigan, uni yuksaklarga ko‘taradigan komil inson tarbiyasiga, uning

ma'naviy qiyofasini shakllantirishga butun umrini baxshida etgan tabarruk siymo gavdalanadi.

Abdulla Avloniy maktablar uchun «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Birinci muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» kabi darslik va o'qish kitoblarini yaratdi. Qur'oni karim suralaridan, hadisi shariflardan namunalar berilish bilan bir vaqtda, o'zbek xalqining boy pedagogik merosi – ertak, maqol, topishmoq va didaktik hikoyalardan unumli foydalanilgan bu kitoblar xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan. Abdulla Avloniy pedagogikaga oid asarlarida ham, publitsistik maqolalari, she'r va dramalarida ham dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, xalqni ilmli, madaniyatli bo'lishga undadi [1].

Mamlakat taraqqiyoti, davlatning qudratli bo'lishi yosh avlod tarbiyasiga har jihatdan bog'liq deb hisoblagan alloma tarbiya xususiy emas, milliy, ijtimoiy ishdir degan to'xtamga keladi.

Tarbiyani keng ma'noda tushungan Avloniy uni birgina axloq tarbiyasi bilan chegaralab qo'ymaydi. U avvalo bolaning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish lozimligiga e'tibor qaratadi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun avvalo tan salomatligi zarur. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish, dunyoqarashini shakllantirish muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur. Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur, deydi alloma.

Shu bilan birga, Avloniy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq jarayonlar ekanini ham ta'kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur»[2].

Avloniy insonga yaxshilik va ezgulik faqat ilm egallash orqali singadi degan qat'iy fikrni bildiradi. Ilmli, ezgu g'oya ruhida tarbiyalangan kishidagina vatan tuyg'usi shakllanadi, ona yurti va ona tiliga muhabbat uyg'onadi, sadoqati qaror topadi. Bu fazilatlarisiz komil insonni tasavvur etib bo'lmaydi.

Insonning kamoloti ezgu maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaga bog'liqligiga ishongan Avloniy uzil-kesil «Tarbiya yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur» degan xulosaga keladi.

Ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yuksak baholagan Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida bunday deydi: «Ilm – dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddac bir fazilatur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur» [3].

Yurt ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bog'liqdir. Shu bois Abdulla Avloniy yoshlarni ilm, foydali hunar egallashga, kitob mutolaasiga undaydi. «Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj bo'lsak, shuni bilmak bizga farzdir. Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakg'a jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdur», – deya yoshlarni vaqtning qadriga etishga, imkon qadar ko'proq ilm egallashga chorlaydi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir.

Avloniy so'zlashuv odobiga ham alohida e'tibor beradi. U so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mohiyatini yuqori baholab, «so'z insonning daraja va

kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgon tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar», – deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авлоний А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: «Маънавият», 1998.
2. «Туркестанский сборник». Том 361. – С. 138.
3. Бехбудий М. Мунозара ҳақида // Туркистон вилоятининг газети. 1911, 29 сентябрь. 73-сон.

BOLALARDA TABIATGA OID TADQIQIY-IJODIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Bo‘riyeva Tursunoy Alisherovna

Qarshi davlat universiteti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasida doktoranti
(Tel: +998943395151)

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishning mazmuni va mohiyati, xususan bolalar tadqiqiy-ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Bolaning har tomonlama shakllanishida “Ilm-fan va tabiat” markazida olib boriladigan tajribalarning o‘rni va ahamiyati, bolalarda aqliy bilish, muloqatchanlik, erkin faol harakat, kuzatuvchanlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z hatti-harakatlarini boshqarishning asosiy garovi ekanligi haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, tabiat, tevarak-atrof, tajriba, tadqiqot, ijod, ko‘nikma, kuzatish, aqliy bilish.

METHODOLOGY OF FORMING RESEARCH AND CREATIVE SKILLS ABOUT NATURE IN CHILDREN

Abstract: this article describes the content and essence of the formation of preschool children's research-creative skills related to nature, in particular, the specific features of the development of children's research-creative skills. The role and importance of the experiments conducted at the "Science and Nature" center in the comprehensive formation of the child, the development of mental knowledge, communication, free active movement, observation, self-control and behavior control in children. Opinions and opinions about the fact that it is the main pledge have been discussed.

Key words: preschool age, nature, environment, experience, research, creativity, skill, observation, intellectual knowledge.

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishga bo‘lgan talab va ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida barcha turdagi mashg‘ulotlarni yangi zamonaviy texnologiyalar, didaktik o‘yinlar va interfaol usullardan foydalangan holda tashkil etishni taqozo

etmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash pedagog va mutaxassislarining malaka darajalarini yuksaltirish masalalari O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Xususan, 2017 yil 9 sentabrdagi PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017 yil 30 sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi kabi meyoriy hujjatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Bundan yaqqol ayonki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasiga ko'rsatilayotgan bunday e'tibor natijasida yangi ijodkor va iqtidorli yoshlarni tarbiyalashdek ulkan vazifa yotadi.

Tabiat yordamida bilish qobiliyatini rivojlantirish. Bilish – voqelikni inson ongida aks ettirishdir. Bilishning maqsadi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarni insonga bo'ysundirish va unga xizmat qildirishdan iboratdir. Bilish, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur hamda nutqni rivojlantirishdan iborat. Bu esa aqliy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Tevarak-atrofni, tabiatni, olamni bilish sezgi va idrokdan boshlanadi. Bu jarayonlarni qanchalik yaxshi bilsa, borliqni, tabiatni bilish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham biz bog'cha bolalarini ko'proq bilishga, ongini rivojlantirishga o'rgatishimiz lozim.

Bilish jarayonini rivojlantirishda tabiatning roli kattadir.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida tabiat vositasida bilish xususiyatlarini tarkib toptirish o'rta va katta guruh bolalarida amalga oshirish samarali natija beradi. Lekin bu bilan, boshqa guruhlarda bilish nazariyasini singdirish, o'rgatish kerak emas, degan fikr kelib chiqmasligi lozim.

Tarbiyachilar esa bolalarning aktiv bilish faoliyatini, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishimiz zarur. Buni amalga oshirishda tabiatda bo'ladigan oddiy hodisalarning sodir bo'lish sabablarini o'rgatishdan boshlashimiz kerak. Bu yoshlarni tabiat sirlarini o'rganishga, ular haqida fikr yuritishga, bilimni shakllantirishga va bolaning bilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Tajriba – bolani tabiat bilan tanishtiruvchi ish shallaridan biridir.

Tabiatga oid kichik tajribalar maktabgacha yoshdagi bolalarni katta yutuqlar sari etaklaydi. Tajribalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o'rganishga qiziqish o'sadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning harakter xususiyatini qayd qilishga odatlanadi.

Tajriba jarayonida bolalar tabiatning go'zalligini ko'rib katta taassurot olib hissiyotlari rivojlanadi. Shu asosda jonajon O'zbekiston ona tabiatiga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tarbiyalanadi. Tadqiqotdan mashg'ulot turi sifatida o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida foydalanish mumkin. Har bir tadqiqot uchun barcha

bolalar egallashlari shart bo‘lgan dastur mazmuni belgilanadi.

Tajribalar orqali tarbiyalanuvchilarda bilish jarayonlari faollashadi. Sezgi, idrok, xotira va tafakkur rivojlanishida atrof olamdagi voqea va hodisalar, narsa va buyumlarning xususiyati muhim omil hisoblanadi hamda bolalarning intellektual rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

M.Davletshin “... asosan maktabgacha davrdan boshlab, bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarni o‘zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqni rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir” deb maktabgacha yosh eng qulay sezitiv davr ekanini asoslaydi [3,38b].

Portugaliyalik M.E.Ferreira “Bolalarga atrof-muhitga do‘stona munosabat asosida ekologik ta’lim berish” mavzusidagi ilmiy ishida amaliy mashqlar orqali ekologik tarbiya berish, atrof-muhit ta’limini singdirish muhimligini asoslab bergan [4,28b].

Shaxsning bilim egallashi, mehnat qilishi, ma’naviy kamol topishida tabiatning o‘rni va roli muhim. Mehnat faoliyati tabiat qo‘ynida, turli xil mehnat qurollaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bunda inson o‘z ehtiyojlarini qondirish yo‘lida faollik qiladi va bajargan ishlaridan rohat tuyg‘usini tuyadi. Shu kabibir qator ehtiyojlar bolalarda ham mavjud bo‘lib, ularni turli faoliyat asosida qondirishga harakat qiladi. Mazkur jarayonda integratsion yondashuvni amalga oshirish zarurligini asoslab bergan.

Bolalarni atrof olam bilan tanishtirishda davlat talablarining barcha rivojlanish sohalarini uyg‘unlikda amalga oshirishda integratsion yondashuv muhim sanaladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit haqidagi bilimlarni shakllantirishda bir qator umumpedagogik tamoyillarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

Ilmiylik Ilmiy tamoyil maktabgacha yoshdagi bolalarning hatti harakatlariga turtki berishni va dunyoqarashini shakllantirish uchun xizmat qiladigan tabiiy-ilmiy bilimlar bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha yosh davri uchun ilmiy ishonchlilik shart emas, bolalarda tabiatga ijobiy munosabatni shakllantirish kifoya, degan fikr bor. Biroq ilmiy dalillarga asoslanmagan ma’lumotlar atrof-muhit haqida bola ongida noto‘g‘ri bilimlar paydo bo‘lishiga olib keladi va bu uning faoliyat turlariga ta’sir qiladiva maktabgacha ta’limning izchilligini buzadi.

Qulaylik. Ilmiylik tamoyili bilan qulaylik tamoyilini bir-biridan ayro talqin etib bo‘lmaydi. Muayyan yoshdagi bola uchun ma’lumotdan foydalanishning qulayligi muhim hisoblanadi. Bolalarni yosh va individual xususiyatlariga mos bo‘lmagan ma’lumotlar bilan tanishtirish tavsifa etilmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishda har doim ham ilmiy termenlardan foydalanish o‘rinli bo‘lmaydi, vaholanki, ba’zilarining mazmuni tushunarli va jozibali tarzda tushuntirilishi mumkin.

- Insonparvarlik** Bu tamoyil ekologik madaniyat tushunchasi bilan bog‘liq. Ekologik ta’limning maqsadi inson va uning salomatligini sog‘lom, ekologik xavfsiz muhitda saqlashdir. Ekologik tarbiya bolaning estetik tarbiyasi shakllanishini, hayratlanish, qayg‘urish, tabiatdagi har bir mikroorganizmga chuqur hurmatda bo‘lish, ularni tabiatdagi birodarlari sifatida qabul qilish, atrof-olamdagi butun borliqdan, go‘zallikdan zavq ola bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq.
- Faoliyatlilik** Ekologik bilimlar bolaga atrof-muhitni asrab-avaylash uchun nima qilish kerakligini tushunishga yordam berishi lozim. U albatta, atrof-muhitni himoya qilishga yo‘naltirilgan faoliyat turlarida ishtirok etishi kerak. Shu bilan birga, bunday faoliyat jarayonida “bola – atrof-muhit” munosabatlarining shakllanishi va qaror topishi sodir bo‘ladi.
- Tizimlilik** Maktabgacha pedagogikada bo‘lgani kabi, ekologik ta’limda ham bilimlarni tizimlashtirish tamoyillari ilmiylik tamoyilining amalga oshirishini ta’minlaydi, chunki tizimlashtirish tabiatning va ijtimoiy munosabatlarning asosiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi tasavvurlar va birlamchi tushunchalarga asoslanadi.
- Izchillik** Ekologik ta’lim va tarbiya tizimining asosiy xususiyati – uning barcha bo‘g‘inlari uzluksizligida. Qoidaga ko‘ra, uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiya tizimining bir necha bosqichlari ajratiladi: MTT – maktab – OTM – mutaxassislar malakasini oshirish – aholi. Izchillik tamoyili maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta’limi va tarbiyasining mazmuni uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerakligini nazarda tutadi.

Mashg‘ulotlar jarayonida “so‘zlasang-unutaman, ko‘rsatsang-eslab qolaman, o‘zim bajarishimga imkon bersang-tushunaman” tamoyiliga qat’iy amal qilish o‘rinli va samarali hisoblanadi. Agar tarbiyalanuvchilar eshitib, ko‘rib, tajribani o‘zi mustaqil tarzda bajarsagina, uni doimiy esda saqlab qolishi mumkin.

“Ilm-fan va tabiat” markazida bolalar kichik tadqiqotlar o‘tkazadi.

Tajribalar o‘tkazish jarayonida bolalarning bilish qobiliyatlari rivojlanadi, qiziquvchanligi oshadi, mustaqil fikrlash va tushunishga bo‘gan ehtiyoji kuchayadi. Tabiat haqidagi tasavvurlari kengayadi, ularni amaliyotda qo‘llash tajribada sinovdan o‘tkazish orqali tabiat haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi. Tajriba o‘tkazish orqali bolalarda mashg‘ulotlarga oid elementar bilimlar shakllanadi, atrof olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, mustahkamlanadi.

Xulasa qilib aytganda, tajriba natijasida bolalarda tabiat unsurlari (suv, havo, tuproq), mikroskop, lupa, brobirka va boshqa laboratoriya jihozlardan foydalanish malakalari va ko‘nikmalari shakllanadi. Asosiysi, bolalarda tabiiy-ilmiy bilish qobiliyat rivojlanadi, muloqatchanlik, erkin faol harakat, kuzatuvchanlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z hatti-harakatlarini boshqarish, tanqidiy baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. -Т.: 2017. 38 б.
2. Davletshin. M.G., Do‘stmuhamedova Sh. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv metodik qo‘llanma. -Т.: 2004. 129 б.
3. Ferreira M.E. Stage-based egological education of preschool children on the basis of environmentally friendly approach. Portugal. 2015. 149 p.
4. Ҳайдаров Қ., Нишонова С. Табиатшунослик асослари ва болаларни атроф-табиат билан таништириш. -Т.: “Ўқитувчи” 1992. 65 б.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINING MA’NAVIY-AXLOQIY, TARIXIY VA ZAMONAVIY NEGIZLARI

Butoyev Ilhom Uzokovich

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

Ilkhombutaev@gmail.com

+99893 726 27 89

Annotatsiya:

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish. Sog‘lom turmush tarzi haqidagi qarashlar keyingi davrlarda Islom dinidagi g‘oyalar bilan yanada boyib borishini ko‘rishimiz mumkin. Inson salomatligi, ma‘naviy barkamolligi, axloq, estetika bilan go‘zal va ibratli xulq uyg‘unligi.

Kalit so‘zi: So‘g‘lom turmush tarzi, axloqiy tarbiya, jismonan sog‘lom, boy ma‘naviy meros, qadriyat, an‘analarimiz.

SPIRITUAL-ETHICAL, HISTORICAL AND MODERN FOUNDATIONS OF A HEALTHY LIFESTYLE

Abstract:

Expanding the coverage of young people engaged in physical education and sports. We can see that the views on a healthy lifestyle will be enriched with the ideas of Islam in later periods. The harmony of human health, spiritual perfection, morality, aesthetics and beautiful and exemplary behavior.

Key word: Healthy lifestyle, moral education, physically healthy, rich spiritual heritage, values, traditions.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda salomatlikni saqlash hamda mustahkamlashda, kishilarning uzoq va baxtli umr ko‘rishlarida eng muhim tadbir turmush tarzi va uni sog‘lomlashtirish ekanligi ham ilmiy, ham amaliy tomondan isbotlanmoqda. Sog‘liq haqida gap ketganda, kishilarning turmush tarzini sog‘lomlashtirish to‘g‘risida ko‘p gapiriladi. Hattoki, bu masala muhim davlat hujjatlari, qaror va farmon, qonunlarda ham o‘z aksini topgan. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida so‘g‘lom turmush tarziga

e'tibor qaratilgan bu borada 34-maqсадida Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish borasida "Ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish. Sport bilan shug'ullanishiga jalb qilingan aholi ulushini 36 foizga etkazish. Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug'ullanishi uchun kamida 5 mingta mahallada sport maydonchalarini barpo etish".⁸³

Sog'lom turmush haqidagi dastlabki qarashlar yurtimizda Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoga borib taqaladi. Birinchi Prezidentimiz I.A Karimov takidlaganlaridek "Avesto ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk madaniyatidan guvohlik tarixiy hujjatdir."⁸⁴ Zardushtiylik dinidagi eng asosiy g'oya "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" hozirgi kunda ham shaxs kamolotida, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ma'naviy asos bo'lmoqda. Zardushtiylik dinidagi marosimlarda axloqiy va jismoniy tarbiya ham birga berilgan, shuningdek ezgulik, bunyodkorlik, yaxshilik kabi sog'lom g'oyalarni o'zida mujassam etishga harakat qilgan. Jamiyatda ezgu g'oyalar ulug'langan, mehribonlik, vatanparvarlik, marifatparparvarlik kabilar g'oyalar egasi xalq ichida ham yaxshi e'tiborga sazovor bo'lgan, insonlarga isnod keltiruvchi o'g'irlik, talonchilik, o'zgalar moliga ko'zolaytirish kabi boshqa illatlar qoralangan.

4. Sog'lom turmush tarzi haqidagi qarashlar keyingi davrlarda Islom dinidagi g'oyalar bilan yanada boyib borishini ko'rishimiz mumkin. Ezgulik g'oyalarini islom dinida dunyo va diniy ishlarni biri ikkinchisidan ustun qo'yilmaydi. Bu esa sog'lom muhitni rivojlanishiga olib keladi. "Dil ba yoru dast ba kor" - buning manosi shuki, diling Allohda bo'lsin qo'ling mehnatda, bunda "inson iymonli pok bo'lishga o'z mehnati bilan halol luqma asosida kun kechirishga"⁸⁵ undaydi. Bunday ezgu g'oyalar hozirgi kungacha o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.

5. "Sharqda oila qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik, hamjihatlikka erishiladi. Binobarin mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi"... xalqimizdagi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli ana'nalar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllangan"⁸⁶—deb ta'kidlaydi, birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov.

Oilada ota-onaga ko'p narsa bog'liq. Ular oiladagi barcha hodisalarning balogardonlari sifatida eng avvalo o'z sog'liqlariga o'zlari mas'ul ekanliklarini unutmasalar, uni saqlashda barcha ehtiyoj choralarini o'z vaqtida ko'rgani holda oilaviy hayotga to'g'ri munosabatni shakllantira olsalar, murod-maqсадlariga albatta erishadilar. Sog'lom odam, u otami, yoki onami, turmush va ro'zg'ordagi barcha past-balanliklar, turli vaziyatlar, kerak bo'lsa, qiyinchiliklarga tez moslashib, ulardan oqilona chiqish yo'llarini bilishi kerak. Ana shunday hayotiy falsafa va yo'nalish bilan yashagan inson albatta, baxtli va sog'-salomat bo'ladi. Muhimi, bunday hayotiy

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

⁸⁴Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: O'zbekiston. 1996. - B .2.

⁸⁵Ochilova B. Milliy ma'naviyatni yuksaltirishda meros, qadriyatlar va vorisiylik.-T.: 2009. - B.16.

⁸⁶Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T.:1999. - B.35.

mo'ljallar, jismoniy va ruhiy tetiklik, bardamlik u tarbiyalayotgan bolalarning baxti va kelajakka intilishiga ishonchli zamin bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, sog'lom turmush tarzini kundalik hayot kechirishning asosiy mezoniga aylantirishga bog'liq tushuncha va tasavvurlar oiladan boshlanadi. Bu g'oyalarning xalqimiz qon-qoniga singib ketganligi eng avvalo oilalarda saqlanib kelayotgan ijobiy an'analarda, otanadan farzandlarga singdiriladigan o'gitlarda, qarindosh urug'chilik aloqalaridagi mehmonavozlik va ushbu jarayonda orastalik va ozodalik tamoyillariga rioya etilishlarida, mahalla-ko'yda rioya etiladigan tartib-qoidalar, xususan, ko'chani, har bir xonadonni ozoda va sarishta saqlash odatlariga tayangan qo'ni-qo'shnicilik muomalalarida o'z aksini topadi. "Oila jamiyat nizomlari asosida yashasada oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa"⁸⁷.

Sog'lom turmush tarzini falsafiy-ma'naviy, psixologik mezonlarini quyidagicha ta'riflash mumkin: — oilada, ta'lim maskanlari va jamoat joylarida yosh qizlar va ayollarning kiyinishlariga alohida e'tiborni qaratish; — oilada va jamoat joylarida yoshlarning muomala madaniyatini shakllantirishda sog'lom turmush borasidagi xalqimizning o'ziga xos an'analari va qadriyatlarini, otalar va momolar o'gitlarini alohida sog'lom ma'naviyatli oilalar tajribasini ibrat omili sifatida keng targ'ib etish; — yoshlarni sportga, jumladan, oilaviy sportga ijobiy munosabatini shakllantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar, oilaviy sportchilar an'alaridan foydalanish; — oila a'zolarida, birinchi navbatda yoshlar orasida hayot mohiyatini anglash, umr qadriyatini e'zozlash, hayotiy faoliyatni oqilona tashkil etish madaniyatini shakllantirish; — islom falsafasidagi orastalik va ozodalik tamoyillarini omma orasida targ'ib etish orqali suv, havo, er va suv qadriyatlari borasida ijtimoiy fikrni shakllantirish. Umuman, salomatlik falsafasining shaklanishi sog'lom va xalqchil marosimlar, urf-odatlar va milliy doimiy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Sog'lom turmush tarzi hayot kechirishning maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish, umr qadrini anglab etishni nazarda tutadi. Sog'lom turmush tarzi yomon illatlar bilan kelisha olmas ekan, oilaviy sharoitni yaxshilash, ya'ni undagi ma'naviy-psixologik muhitni barqarorlashtirish muhim vazifalardan bo'lib qolaveradi. Shu tufayli ham odamlarga nafaqat davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining, balki oilaning dolzarb muammosi ekanligini fuqarolar ongiga etkazish lozim.

Mustaqillikdan so'ng jamiyat sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib, taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Jamiyat sog'lom turmush yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning milliy-axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta.

Hozirda dunyoda ko'plab hududlarda notinchlik, urushlar va janjallarning saqlanib qolayotganligi nosog'lom muhitning shakllanishiga olib kelmoqda. Natijada jamiyatda turli ko'ngilsizliklar ortib bormoqda. Chetdan turib g'arazli manfaatdor kuchlarning ta'sir ko'rsatayotganligi ijtimoiy – siyosiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek "yaqin mingyillikda davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas intellektual ya'ni ma'naviy marifiy boyligi hal etadi"⁸⁸.

⁸⁷Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: 1998. – B.13.

⁸⁸Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot piraovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston. 2000. – B.438.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
- 2.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T.: O‘zbekiston. 1996. – B .2.
- 3.Ochilova B. Milliy ma'naviyatni yuksaltirishda meros, qadriyatlar va vorisiylik.–T.: 2009. – B.16.
- 4.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.:1999. – B.35.
- 5.Safarov O., Mahmudov M.Oila ma'naviyati.–T.:1998. – B.13.

KELAJAK AVLOD UCHUN TARBIYADA BUYUK AJDODLARIMIZNING JASORATI IBRAT MANBAIDIR

G‘offorov Sh.S. professor, t.f.d.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: O‘zbekiston xalqi ko‘pni ko‘rgan, elkasida tarix sinovlarini, ijtimoiy xulosasini elkalagan, o‘ziga ham o‘zgalarga ham tinchlik, osoyishtalik, farovon hayotni tilab kelgan, shu niyatda butun insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan xalq. Bugun ham xalqimiz ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan o‘zining ana shu ezgulik bayrog‘ini qo‘lidan tushirgani yo‘q. Buyuk allomalarimizning ilm-fan sohasiga baxshida etgan umri, erishgan yutuqlari va kashfiyotlari bugungi ma’rifatli insoniyatni hayratga solmoqda.

Kalit so‘zlar: 1991 yil, 1997 yil, 1994 yil, “Islom madaniyati poytaxti”, “Mustaqillik” ordeni, “Mualijati mansuriy”, “Risola dar iloji amrozi sadr”, «Yurak dorilari», «Urjuza».

Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan bobokolonlarimizning ma’naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakatda xalqaro miqyosda YuNESKO bilan hamkorlikda 1991 yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi, 1994 yil – Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi, 1996 yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi, 1997 yil – Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 1998 yil – Ahmad Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi, 1998 yil – Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, 1999 yil – Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, “Alpomish” eposining 1000 yilligi, 2000 yil – Burhoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi, Moturidiy tavalludining 1130 yilligi, Kamoliddin Bexzod tavalludining 545 yilligi, 2001 yil – “Avesto” yaratilganining 2700 yilligi, 2002 yil – Termiz shahrining 2500 yilligi, Shahrisabz shahrining 2700 yilligi, 2003 yil – Abduxoliq G‘ijduvoni tavalludining 900 yilligi, 2006 yil – Qarshi shahrining 2700 yilligi, Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi, 2007 yil – Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi, Samarqand shahrining 2750 yilligi keng nishonlandi. 2009 yili Toshkent shahrining 2200 yilligi keng nishonlanib, unga “Mustaqillik” ordenining berilishi yangi tariximizdagi ulkan voqea bo‘ldi.

Islom konferensiyasi tashkiloti qoshidagi ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi (AYSESKO) tomonidan Toshkent shahriga 2007 yilda “Islom madaniyati poytaxti” degan nom berilishi mamlakatimiz hayotidagi ulkan madaniy-

ma'naviy voqea bo'lib, xalqimiz tomonidan katta quvonch bilan kutib olindi. Sharq darvozasi deb nom olgan azim poytaxtimizning ana shunday yuksak maqomga erishgani nafaqat xalqimizga, ayni vaqtda yaqin va uzoqdagi do'stlarimizga ham g'urur va iftixor bag'ishlamoqda.

Ma'lumki, Osiyoda tibbiyot ilmining rivojlanishi chuqur asoslariga borib taqaladi. Bunda Markaziy Osiyo Buyuk ipak yo'lining muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashganligining ahamiyati kattadir. Chunki, Buyuk ipak yo'li xalqlarining o'zoro madaniy aloqalariga ham imkon yaratgan. U orqali O'rta Osiyolik olimlar Qadimgi Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim tibbiyoti ko'lga kiritgan yutuqlari bilan tanishish imkoniga ega bo'lgan. Ayniqsa, O'rta asrlarda Buyuk Ipak yulida Movvarounnaxrning ustuvor mavqega ega bo'lishi Sug'd ilm-fanining. jumladan, tibbiyot ilmining rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lgan. Shu davrdan e'tiboran, tibbiyot ilmi bilan bevosita bog'liq bo'lgan farmasevtka sohasi ham shakllana boshlagan. Bu davrga kelib O'rta Osiyo shaharlarida maxsus dorixona va shifoxonalar majud bo'lgani Poykentda olib borilgan qazishmalar davomida tasdiqlangan.

Qadimiy shaharda ochilgan xonalarning birida tibbiyotda va farmasevtikada qo'llanadigan asboblarning jamlammasi qayd etilgan. Topilmani ahamiyati shundaki, ular orasida bugungi kunda tibbiyotda murakkab jarrohlik amaliyotlarida qo'llaniladigan asboblarga o'xshash asboblarning uchraydi. Bu o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tibbiyot ilmining rivojlanishi natijasida murakkab jarrohlik amaliyotlari ham o'tkazilganligini tasdiqlaydi.

Arab bosqinidan keyin O'rta Osiyolik olimlar Aleksandriya kutubxonalarida saqlanayotgan tibbiyotga oid kitoblar bilan tanisha boshladilar. Ularning kitoblari arab tiliga tarjima qilindi. Bunday imkoniyatlardan foydalangan olimlar orasida tibbiyot sohasi rivojiga katta hissa qushgan Abu Mansur Xasan ibn Nuh al-Qamariy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Hasan Alquttoniy Marvaziy, Hakim Azraqiy, Badruddin Muhammad ibn Bahrom Qalonasiy kabi tabiblar etishib chiqishdi.

Abu Mansur Hasan ibn Nuh al-Qamariy X asrda Buxoroda yashab ijod etgan. U zamonasining yirik olimi Abu Bakir Zakariyo Roziy bilan suhbotdosh bo'lib, u bilan tajriba almashgan. Buyuk tabib Ibn Sino ham undan dars olgan, uning tabobatdagi tajribasini o'rgangan. Al-Qamariyning "Kitob ilal al-ilal" ("Bemorlar kasalliklari kitobi"), "Majmuayi kabir dar adviyayi mufrada" ("Yakka dorilarning katta to'plami"), "Mualijati mansuriy", "Risola dar iloji amrozi sadr" ("Ko'krak kasalliklari davosi haqida maqola") kabi bir qator asarlari tibbiyot tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi va Ibn Sinodek yirik siymoning etishib chiqishiga zamin hozirladi.

Bundan tashqari, Al-Qamariyning "Risola dar hamiyoti doira", "G'ino va Muno", "Maqola dar buhron" kabi asarlari ham bo'lgan. U "G'ino va Muno" asarida zamonasidagi kasalliklarning turlari va ularni davolash yo'llari haqida so'zlaydi.

Al-Qamariydan saboq olib etuk darajaga etishgan iste'dodli olim Abu Ali ibn Sino tibbiyot fani katta burilish yasadi. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari besh jilddan iborat bo'lgan. "Tib qonunlari" 1024 yilda yozib tugallangan. U XX asrning o'zida turli tillarda 36 marta nashr qilingan. Asarning qimmatli shunchalik yuqori bo'lganki, XII asrdayoq kremonlik Gerard tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Shundan so'ng ushbu asar uzoq asrlar davomida Yevropa universitetlarida tibbiyot fakultetlarida asosiy qo'llanma vazifasini bajargan.

Ibn Sino faqatgina tib ilmidagina emas, balki falsafa, astronomiya, kimyo, fizika, geografiya, musiqa va adabiyot sohalarida ham keng ijod qilgan. Uning hozirgacha bu ilm sohalarida yaratilgan 300 dan ortiq ilmiy asarlari fanga ma'lum.

O'rta Osiyolik yana bir qomusiy olim Marvaziy tib ilmidan tashqari, astronomiya ilmida ham mashhur bo'lgan. U tib ilmiga bag'ishlab "Rasoiyl fit-tib" ("Tabobat haqida risolalar") asarini yozgan.

Tib ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan, yana bir tabib Badruddin Muhammad ibn Bahrom Qalonasiy asli Samarqandlik bo'lgan. U dorichilik sohasida ko'p izlanishlar olib boradi. Dorishunoslikka bag'ishlab "Qarobidin" degan maxsus asar ham yozadi. Bu asar 49 bobdan iborat bo'lib, "Qarobidini Qalonasiy" nomi bilan mashhur. Qalonasiy o'zining asarini yozishda Ibn Sino, Mansuriy, Jurjoniy kabi allomalarning tibbiyot va dorichilikka oid asarlaridan keng foydalangan.

Bundan X asr avval, buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino "Salomatlikni saqlashning asosiy mahorati inson hayoti uchun muhim bo'lgan umumiy omillar mo'tadilligini ta'minlashdan iboratdir" degan edi. Alloma nazarda tutgan mazkur omillarga — tana mutanosibligi, oziq-ovqat va ichimlik tanani chiqindilardan tozalash, tana vaznini saqlash, burundan olinadigan narsa (havo)ni yaxshilash, tabiat sharoitiga qarab moslashtirish, jismoniy va ruhiy harakatlar mutanosibligi kabilar kiradi. Bu degan so'z sog'lom bo'lish uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilish lozim, demakdir.

Sog'lom turmush tarzi deganda insonga tabiatdan tug'ma in'om etilgan salomatlikni saqlab qolish, insonning o'z tanasiga, o'z-o'ziga munosabati tushuniladi. Ibn Sino bolaga alla aytib, uni engilgina tebratish, uning tarbiyasi uchun nihoyatda beqiyos ahamiyatga molik ekanligini ashula va musiqaning ahamiyati haqida, uning jismonan hamda ruhan sog'lom bo'lib, o'sishiga zamin yaratishini izohlab bergan.

Ibn Sino birinchilar qatorida inson va atrof-muhitning o'zaro munosabatini, odam tana tuzilishini va organizm xususiyatlarining uni o'ragan atrof-muhitga, iqlimga, milliy urf-odatlar, turmush tarziga bog'liq ekanligini tashviqot qilgan.

Bundan bir necha asr avval buyuk allomalarimiz echimini topib davolashga harakat qilgan vabo kasalligi insonning ixtiyorisiz yuqar va inson unga qarshi qattiq kurash olib borgan bo'lsa-da, XXI asr vabosi — giyohvandlik illatiga inson o'z hohish-irodasi bilan bog'lanib qolmoqda.

Bu kabi holatlar ongli ravishda tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkin.

Kelajak avlod farzandlarimizning farovon hayot kechirishlari uchun ularda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini eng yoshlik chog'idan boshlab singdirib borishimiz, yomon illatlarga qarshi kurashda faollikni oshirishimiz, jamiyatning poydevori bo'lmish yoshlarni har tomonlama asrab-avaylashimiz, bu borada ajdodlar merosidan, pandu-nasihat va o'gitlaridan o'rnak sifatida muntazam ravishda va o'rinli foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Inson hayotidagi voqealardan ma'lumki, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, bu borada ajdodlar merosining eng ajoyib tomonlarini inobatga olish har tomonlama kuchli jamiyat barpo etishning asosini tashkil etadi.

Umumjahon sivilizatsiyasining insoniyat uchun yaratilayotgan ne'matlaridan oqilona foydalanib yomon illatlardan kelajak avlodni xalos etish, barchamizning

insonparvarlik, ota-onalik burchimizdir.

Ibn Sinoning beqiyos, ko‘p qirrali faoliyati — tabiblik, jarrohlik, doyalik, dorishunosligi va hamma yoshdagilarni davolashi, kasalliklarning oldini olish, ruhshunosligi va faylasufliги hamma shifokorlarni yaqinlashtirishi lozim bo‘lgan XXI asr andozasini, bunga birinchi navbatda biz — Ibn Sino vatandoshlari munosib bo‘lishimiz, tibbiyot yo‘nalishlarini yuzaki — har sohadan bir shingil qabilida emas, balki zehn mayog‘i ming yillar osha yoritib turgan buyuk daho Ibn Sino singari chuqur va keng qamrovli o‘rganishimiz va uni hayotga samarali yo‘llashimiz lozim.

*Qaro er qa’ridan to avji Zuhal,
Koinot mushkulin barin qildim hal,
Ko‘p mushkul tugunni angladim, echdim,
Yechilmay qolgani birgina — AJAL!!!*

Abu Ali ibn Sino

Daholik buyuk siymo faoliyatida ifodalanib, bu faoliyat butun bir jamiyat, biror xalq uchungina emas, jamiki insoniyat uchun olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Dahoning ish qobiliyati va faoliyati benihoyat yuqori darajada bo‘ladi, bebaho o‘lmas va ulkan meros qoldiradi. Daholar ko‘p sohalarda yangi davrni boshlab beradilar, ular yaratgan ma’naviy boylıklar tarixda burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

1991 yilning 31 avgustida O‘zbekistonning davlat mustaqilligi e‘lon qilingach, Vatanning qadri ortdi, xalqning qadri tiklandi. Vatan degan muqaddas tushunchadagi soxtaliklar barham topib, mohiyat aniqlashdi va tiniqlashdi.

Vatan haqida, xalq haqida, ajdodlar haqida, o‘tmish haqida, milliy qadriyatlar haqida, ma’naviy meroslar haqida BUGUN va KELAJAK haqida baralla so‘zlash imkoniyati tug‘ildi. Binobarin, haqiqiy Vatan muhabbati, Vatan hissi mamlakat ozod va obod, xalq erkin bo‘lgandagina yuzaga kelar ekan. Vatanni qalban chuqur his qilish uchun, xalqning Vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatish uchun ham xalq hur, Vatan mustaqil bo‘lishi kerak ekan.

Har qanday jamiyatning, millatning shakllanishida o‘sha millatning o‘tmishi, tarixi, ajdodlari o‘gitlari va merosi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqining ham dunyo miqyosida turli sohalar bo‘yicha tanilishi, izzat-ikromga, salohiyatga va mavqega ega bo‘lishi nafaqat hozirgi zamon avlodidan tinimsiz mehnati, ilm-fan va texnika taraqqiyotidagi erishgan yutuqlari, balki bizdan oldin o‘tgan taniqli allomalar, adiblar, sarkardalar va hokazolarning o‘zidan keyingi avlodlar uchun qoldirgan boy va bebaho merosi sabablidir.

Mustaqilligimizning hech kim inkor etolmaydigan yutuqlaridan biri ham milliy qadriyatlarimizni tiklash, atroflicha o‘rganish va xalqqa etkazib berishning keng yo‘lga qo‘yilganligi bo‘ldi. Bugun shu mustaqilligimiz qo‘limizda ekan, uni e‘zozlashimiz, qadriga etishimiz, qadamma-qadam mustahkamlab borishimiz kerak. Xuddi shu munosabat bilan Xorazm Ma‘mun Akademiyasining 1000 yilligi katta tantana bilan o‘tkazilganligi va jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan mashhur qomusiy mutafakkir: tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, axloqshunos, tilshunos, ruhshunos, yozuvchi va shoir, tibbiyot ilmining tojdori, yurtboshimiz Abu Ali ibn Sino tavalludining 1025 yilligi ham nishonlangani bu fikrimizning yorqin dalilidir.

Xorazm qadimgi davrlardan buyon ilm-fan, ma’naviyat, o‘rta asrlardan buyon

yuqori darajalarga ko'tarilgan.

O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Shu ma'noda, milliy davlatchiligimizning tarixi, Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi. Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir"⁸⁹.

Xorazmdek, quyi Amudaryo bo'ylarida joylashib, insoniyat taraqqiyotiga, ilm-fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan vohada Zardusht, Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Maxmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Abu Sahl Iso al-Masihiy Abu Abdulloh Notiliy, Ibn Sinolar Xorazmda faoliyat yuritganlar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Avesto» yaratilishining 2700 yilligini nishonlash to'g'risida 2000 yil 29 martda Vazirlar Mahkamasining qarori e'lon qilinib «Avesto»ning 2700 yilligi 2001 yil 3 noyabrda Urganch shahrida tantanali qilib nishonlandi. Chunki Xorazm «Avesto»ning Vatanidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, «Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz. Bizning millatlarimiz, xalqimiz ko'hna Xorazm zaminida «Avesto» paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi»⁹⁰.

Markaziy Osiyoga Islom dinining kirib kelishi kishilik jamiyatida yanada muhim burilish yasadi.

Tibbiyot sirlarini Abu Sahl Iso al-Masihiydan o'rgangan Abu Rayxon Beruniy Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib dorivorlikka bag'ishlangan «Kitob as-Saydana fit-tib» (ya'ni, Tibbiyotda saydana xaqida kitob) asarini yozgan. Ushbu asarda Beruniy O'rta Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'liq tavsifini bergan.

Tibbiyot borasidagi ilmlarning yuksak darajaga etishida tabiiyki Ibn Sinoning roli katta bo'lganligi dunyoda tan olingan. Shoh asari «Tib qonunlari»ning aksariyat qismi Xorazmda yaratilgan va allomaning o'zi ham ma'lum muddat Xorazm vohasida yashab ijod qilgan.

Abu Ali Ibn Sino 10 yoshda bo'lganida uning otasi uyga Buxoroga Xorazmdan kelgan faylasuf va shifokor Abu Abdulloh an-Notiliyni o'g'liga falsafa fanining sirlarini o'rgatishga iltimos qiladi. Shu vaqtdan boshlab Ibn Sino hayotida yangi davr boshlanadi.

V. M. Ternovskiy yozganidek, Ibn Sino Notiliyning pandu-nasihatlari, ilmini chuqur egallashlari natijasida qator fanlarni chuqur o'rgana boshladi.

Notiliy Abu Ali Ibn Sinoga besh yil davomida egallagan ilm sirlarini uning tibbiyot ilmiga va 18 yoshga to'lganda boshqa fanlarni ham chuqur egallaganini yozadi.

Ibn Sinoning Buxoroda yashagan davrlarida Abu Rayhon Beruniy ilm-fan sohasida 40 savol jo'natadi. Bu savollarga ilmiy tahlillar va to'g'ri javoblarni olgan Beruniy yosh Ibn Sinoga katta umidlar bilan Xorazmda uchrashadi.

Ibn Sino Buxoro shahrida 996-997 yillarda Nux ibn Mansur al-Nux kutubxonasida xorazmlik Abu Abdulloh Muxammad ibn Axmad Ibn Yusuf rahbarlik

⁸⁹ Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 1-жилд. Энг қадимги ёзма манбалар Авесто. Фан нашриёти. - Т - 2014. 124 б.

⁹⁰ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз — келажак йўқ. Тошкент. “Маънавият”. 1998- 16 б.

vazifasida faoliyat yurgizgan. Abu Ali Ibn Sinoning hayoti o'sha kutubxonada mashhur bo'lgan vaqtlarida Muso al-Xorazmiy asarlarini mukammal o'rgangan.

Somoniylar davlatiga Qoraxoniylarning hujum qilish xavfini sezgan Ibn Sino Buxorodan Xorazmga ketishga qaror qildi. Nima uchun Ibn Sino Xorazmga ketishga qaror qildi? Uning sababini Ibn Sino Notiliydan, Abu Bakra Barakdan Xorazmda Ma'mun tashkil qilgan «Baytulxikma»da yaratilgan sharoit tufayli ilm ummonida faoliyat yuritayotgan olimlar va Xorazm sharoitidagi tinchlik g'oyasi olimni shu vohaga borishga undadi.

Bilimdonligi, kuchli ilmiy salohiyati, o'z zamonasidagi mavqei va nufuzi yuksakligi tufayli ibn Sinoni Xorazmdagi «Baytulxikma»ga qabul qilinishi tasodifiy emas, balki, adolatdan edi. Ya'ni mashxur qomusiy olimning

«Baytulhikma»da yuqorida nomlari zikr etilgan allomai zamonlar qatoriga qo'shilganligi bejiz emas edi. Shu vaqtgacha Buxoroda o'z ilmu-zakovati bilan dong taratgan Abu Ali ibn Sinoning siymosi Abu Rayhon Beruniyning diqqatini tortgan edi. Ilgarilari bu ikki olim o'rtasida fanning har hil sohalarida ilmiy yozishmalarning bo'lib turganligi yuqorida aytib o'tilgan edi. Ibn Sino bilan Abu Beruniy o'rtasidagi do'stlik rishtalari asosida Xorazmda bo'lgan uchrashuv yanada ajoyib tus oladi. Ular ilgarilari yozishmalar orqali tanish bo'lgan bo'lsa, endi uchrashib turadigan bo'lishdi.

Keyingi asosiy sabablardan biri Buxoro bilan Xorazmning yaqinligi sabab bo'lmagan. Ammo yosh allomaning ilk ustozu Notiliyning Xorazmga kelganligi, qolaversa, Xorazmda qadimdan ilmu ijod uchun imkoniyatlar etarli bo'lgani, shuningdek, o'z davrining buyuk allomasi Beruniy bilan maktub orqali muloqot olib borganliklari sababli Ibn Sinoni Xorazmga borish niyati amalga oshdi. O'sha davrda Ma'mundek zakovatli va ilmni qadrlagan podshohning «Baytulxikma»sida davrning eng etuk olimlari ijodu ilm bilan shug'ullanar edi.

B.A.Petrov, A.M.Baxouddinov, M.A.Isxaqov, A.Ya.Tojievlar Ibn Sinoning 1002 yilda Xorazmga kelganligini ilmiy tasdiqlaganlar. Ibn Sino Xorazmda 1012 yillarda yashab ijod qilgan⁹¹. Xorazmga kelgan Ibn Sino 20 yoshli «Baytulxikma» qaynoq ijod sharoitida ilm ummoniga sho'ng'idi. Bu vaqtda Abu Sahl Masihiy, Beruniy, Naysaburiy, Ibn Bahnom, Ibn Miskovayh kabi ko'plab qomusiy olimlar bilan muboxasalar, bir-birini o'rganish tufayli, tafakkuri boyib, ancha asarlarni Xorazmda yaratgan⁹². Dunyoga mashhur «Tib qonunlari» asarini ulug' hakim Xorazmdaligi paytida yoza boshlagan. Bu xaqda «Tib qonunlari»ning 1954 yildagi ruscha nashriga so'z boshi yozgan olim B.A.Petrov ham to'xtalib, Ibn Sinoga ushbu asarni Xorazmda yozishga qulay sharoit bor edi degan fikrlarni bildirgandi.

Ibn Sinoga Xorazmda yaratilgan etarlicha sharoit, ko'zga ko'ringan tabibu allomalar bilan fikr almashinuvlar asar aynan Xorazmda yaratilgan deyishga asos bo'la oladi. Bu asarni yozilishida ilmiy xulosalar Markaziy Osiyoda, asosan, Xorazmliklarning turmush tarzi, iqtisodiy xayotlari, ma'naviy qadriyatlarida uzoq umr ko'rishlaridagi ozodalik, sog'likni asrash madaniyati yoritilgan.

Haqiqatdan ham shu vaqtga qadar buyuk olim ensiklopedist, Tib ilmining sultoni bo'lmish Abu Ali Ibn Sinoning “boshdan oyoq” barcha tibbiyot sohasidagi

⁹¹ A.A.Абдуллаев. «Роль Хорезмкий учённых в творчестве Ибн Сины». 1981 г «ФАН», стр 65.

⁹² «Қишлоқ ҳаёти», газетаси 2003 й, 14 октябр.

xastaliklarga bag'ishlangan ko'plab asarlari yaxshilab o'rganilgan va ular xaqidagi fikrlardan ko'pchilik voqif.

Abu Ali Ibn Sinoning hayot yo'li o'ziga xos ibrat bo'lib, u shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda o'zining ta'sir kuchiga ega. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Ibn Sino ilmiy masalalarda ham tarixiy voqea - hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyatlar chekkan, xatto umrining oxirida turmush qiyinchiklariga duchor bo'lgan, ammo har qanday og'ir sharoitga qaramasdan e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq bo'lganligidan dalolat beradi.

Ana shunday noyob fazilat sohibi bo'lgan Ibn Sino odob - axloq va insonparvalik haqidagi ta'limoti katta ilmiy-amaliy tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijtimoiy mavjudod bo'lgan inson tabiiy muhitsu, o'zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ta'limotidagi masalalar jumlasidandir. Uning fikricha «ma'rifatchi (orif) botir odam bo'ladi. U barcha behuda narsalarga hirs qo'yishdan uzoq va barcha adashganlarga mehribondir .

Insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishida ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Xo'sh, bu jarayonni nimadan boshlash kerak, degan savolga javoban Ibn Sino uni ajdodlarimizning azaliy an'alariga tayangan holda Qur'oni Karimni, dinning maqsadi va tilning grammatik qonun-qoidalarini qunt bilan o'rganishdan boshlanishi ma'qul, deb biladi.

Abu Ali Ibn Sinoning asarlari oradan asrlar o'tsa hamki, ahamiyati va nufuzi jihatidan betakror bo'lib qolmoqda. Eng muhimi, mamlakatimizda istiqloqlarning dastlabki yillaridanoq ana shunday o'lmas durdonalarimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, ularni targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilayotir. Bu esa faol, intiluvchan, iqtidorli hamda yuksak ma'naviy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim va kasblarni chuqur egallagan - ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lmish yoshlarni voyaga etkazishda mustahkam poydevor bo'lib hizmat qilmoqda.

Eng ezgu maqsadlarimiz - mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham - bularning barchasi, avvalambor, yangi avlod, o'nib - o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqtir. Bunda esa ajdodlarimiz o'giti yo'lchi yulduz sifatida ko'zlagan maqsadlarimizga erishishda mash'ala va mayoq vazifasi o'tamokda.

Buyuk bobokalonimizning eng noyob asarlari, jumladan «Tib Qonunlari», «Yurak dorilari», «Urjuza» deb atalgan she'riy tibbiy doston, «Sog'liqni saqlashdagi doir risolalar», «Musiqiy bilimlar to'plami», «Axloq risolasi» «She'r san'ati», «Ishorat» kabi kitoblardan tabiblik kasbiga muhabbat, uning ilmni egallashdagi qiyinchiliklar, tinimsiz bilimning zaruriyati, ziyrakligi zukkolikning, hayo, odobning, sabru qanoatning kerakligiga bag'ishlangan nodir fikrlari bilan tanishtiramiz:

Kishining aqli ziyoda bo'lsa, zamonasidagi etishmovchilikdan unga biror zarar ham etmaydi, etishmaslik bo'lishiga qaramay, unday kishi aqlliligi bilan yaxshi kun ko'ra oladi.

Olijanoblik - kishida shunday bir ajoyib fazilat va shon-sharafni oshiradigan xislatki, xatto bunga erishgan odam undan yuqori darajadagi shon-shuxrat maromiga erishishga intiladi, bunday intilish undaylarga cheklanmagan bo'ladi.

Alloma Ibn Sinoning tibbiyotda ham, hikmat-falsafa ham har bir iborasi, har bir jumlasini pand-nasihati, o‘g‘it va shaxsiy namuna desa bo‘ladi. Ibn Sino doimo odamlarga yaxshilikni istab, qalbining tubidagi eng sof ezgu niyatlarini yuqorida qayd etilgan o‘g‘itlar, aforizmlari, yaxshi maslahatlarida yoritilganligining guvohi bo‘ldik.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ta’biri bilan aytganda: «Islom olamining eng mashhur foylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri»⁹³ degan unvonga sazovor bo‘lgan Abu Ali Ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g‘urur va ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ibn Sino yaratgan davolash usullari, dori-darmonlarning yillar davomida odamlar koriga yaramoqda.

Buyuk olimning ahloq to‘g‘risidagi qarashlaridan biz bugungi kunimiz uchun ham katta saboqlar olamiz. Alloma insonni ruh bilan tana birligidan iborat zot deb biladi. U ruh va tana tarbiyasini bir biridan ajratmaydi. Demak inson baxt-saodatga o‘z tanasi va ruhini tozalash bilan erishadi.

Abu Ali Ibn Sinoning nuqtai nazariga ko‘ra, tabiatda nimaki mavjud bo‘lsa u o‘z tabiatiga ko‘ra kamolotga intiladi. Mana shu kamolotga intilish o‘z mohiyatiga ko‘ra yaxshilikdir. Biz haqli ravishda Ibn Sinoni Sog‘lom turmush tarzi asoschisi deb ayta olamiz, chunki u tibbiyotga bo‘lgan muhabbatini insonga bo‘lgan muhabbatimdir deb ta’rif bergan edi. Buyuk tabib Abu Ali Ibn Sino bola parvarishida toza havo, musaffo quyosh nuri, jismoniy chiniqish, to‘g‘ri me’yorida ovqatlanish, belgilangan vaqtda uxlash, dam olish, atrof muhitning sofliqi, ruh sokinligi uchun bosh omil ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент.- “Ўзбекистон”-2017. 1-жилд.-28 б.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз — келажак йўқ. Тошкент. “Маънавият”. 1998- 16 б.
3. А.А.Абдуллаев. «Роль Хорезмкий учённых в творчестве Ибн Сины». 1981 г «ФАН», стр 65.
4. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. 1-жилд. Энг қадимги ёзма манбалар Авесто. Фан нашриёти. - Т - 2014. 124 б.
5. «Қишлоқ ҳаёти», газетаси 2003 й, 14 октябр.

КАЗАХСКИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УЧРЕЖДЕНИЯ В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНЕ

Саипов У.З.

ассистент Узбечиский финский педагогический институт

Древний народ Узбекистана прошел длительный путь сложного исторического развития. Его отличительная особенность – многонациональность местного населения, имеющая глубокие исторические корни.

⁹³ Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. —Тошкент.- “Ўзбекистон”- 2017. 1-жилд. - 28 б.

Земля Узбекистана издревле стала родиной для многих представителей малых и больших этносов, в том числе казахов. С давних пор казахи и узбеки являлись близкими и дружными соседями. Они совместно боролись против внешних врагов, в трудные минуты протягивали друг другу руку помощи. Как подчеркивал в этой связи Ислам Каримов, «мы – два дружественных народа, выросших на земле великого Турана. У нас общий язык, общая душа и вера..., наши деды бок о бок защищали эту землю, видевшую немало нашествий и побоищ. У нас общая древняя история и судьба...»⁹⁴.

Одним из рубежных этапов в общей истории двух братских народов стало завоевание и колонизация царской Россией Казахстана и Средней Азии. Тогда казахское население оказалось искусственно разделено: часть его вошла в подчинение Оренбургского и Западно-Сибирского генерал-губернаторства, а другая, включавшая главным образом казахов Южного Казахстана, - в Туркестанское генерал-губернаторство.

В целом, по данным Первой всеобщей переписи населения Российской империи 1897 г., из 5,3 млн. чел., проживавших в Туркестанском крае, казахское население насчитывало 153,6 тыс. человек, что составляло 6,5 % от общей численности населения края.

В этой связи уместно заметить, что, будучи одним из составных элементов «европейской» культуры, она, несомненно, обладала достижениями мирового уровня. Как и народы Туркестана, русский народ внёс весомый вклад в развитие мировой цивилизации. Разумная интеграция двух ветвей западной и восточной культуры способствовало бы взаимному обогащению и историческому прогрессу. О необходимости овладения передовыми ценностями западной культуры говорили многие выдающиеся сыны центральноазиатских народов, в том числе казахского народа. Но в условиях колониальных реалий курс на «европеизацию» приобрёл насильственный характер. В результате вместо объективной интеграции двух потоков мировой цивилизации произошло их столкновение. Для местного населения, включая казахов, европейская культура воспринималась как чуждое, не отвечающее их менталитету, явление. Для царской же администрации инструментом активного проведения русификаторской политики. Царизм неизменно действовал с позиций высокомерного самодержавия, «великорусского шовинизма». И это нашло отчетливое выражение в образовательной политике. Она служила орудием колониального подчинения народов края, стремлением царской администрации нейтрализовать сильного конкурента в лице мусульманского духовенства, обладающим эффективными средствами идеологического воздействия на широкие народные массы, в том числе в системе народного просвещения.

Как свидетельствуют документальные материалы, историческая общность соседних с Узбекистаном областей Казахстана, входивших в Туркестанский край, способствовало проявлению общих тенденций в колониальной трансформации образовательной сферы.

⁹⁴ Каримов И. Единство прошлого и будущего / Наша цель: свободная и процветающая Родина. – Т.: Ўзбекистон, 1990. Т. 2. С. 232.

Образование казахского населения в царской России происходило в трех основных формах: 1. Узбекско-казахские народные училища и школы; 2. Русско-туземные школы; 3. мусульманские казахские мактабы и медресе.

Первые *народные училища* в Сырдарьинской области Туркестанского края, где проживала большая часть казахского населения, были открыты в 1860 году по инициативе Оренбургского и Уфимского епархиального епископа Антония. Еще 28 августа 1859 года Оренбургская духовная консистория издала приказ об учреждении в форте № 1 школы для детей узбеков и казахов, проживающих на территории форта. По предложению Оренбургского генерал-губернатора Катенина был подготовлен проект создания училищ в главных населенных пунктах Сырдарьинской передовой линии Туркестанского края. И вот, 21 января 1860 г. открывается школа в форте № 1 (Казалы), 14 апреля того же года - в форте Перовском. Затем в октябре 1863 г. начала действовать ещё одна школа в Перовске, а 1865 г. в Казалы⁹⁵.

Согласно Положения, изданного в октябре 1862 г. Оренбургским и Самарским генерал-губернатором Безаком, об открытии училищ в Оренбургском и Уральском укреплениях, в каждой школе полагалось по штату 25 воспитанников из узбеков и казахов, при одном учителе, являвшимся в то же время и смотрителем школы. Первое время для пополнения положенного штатного числа воспитанников в школы принимались все желающие из казахов и узбеков, без различия происхождения и состояния, и даже взрослые. Интересно отметить, что прием в школу проводился в течение всего года, за исключением летнего периода и без всяких испытаний. Кроме казахских и узбекских детей, в эти школы допускались в качестве проходящих, дети русских поселенцев, которые обязаны были вместе с прочими учениками школы обучаться местному языку и его грамоте.⁹⁶

Программы, проходимые в этих школах, ограничивались чтением и письмом на местном и русском языках, изучением первых четырех арифметических действий и переводами с местного языка на русский и обратно, с объединением при этом грамматических форм обоих языков.

После образования в 1867 г. Туркестанского генерал-губернаторства стали открываться начальные русские школы, в том числе для детей коренного местного населения. Однако, число созданных школ было явно недостаточным. К тому же, необходимо было решить и проблему обучения девочек местных национальностей. Требовали существенного усовершенствования и программы, по которым проводились занятия.

Для разрешения этих и других вопросов школьного образования в Туркестанском крае в 1870 г. была образована специальная комиссия во главе с Бородовским. Комиссия работала в течение двух лет. В итоге ее деятельности были разработаны:

1. Основные положения по народному образованию в Туркестане;
2. Проект устройства учебных заведений в Туркестанском крае, в котором предусматривалось создание уездных и народных школ с I годичным

⁹⁵ Кочаров В.Т. Из истории народного образования в Туркестанском крае. - Т., 1959. С.13.

⁹⁶ Там же. С. 13-15.

общеобразовательным курсом и ремесленным классом для совместного обучения детей узбеков и казахов.

В 1875 г. в гор. Чимкенте открылось 2-х классное училище, а в 1876 г. - одноклассное приходское училище для девочек в городе Аулие-Ата. Всего в Сырдарьинской области было открыто 29 народных училищ⁹⁷.

Наряду с развитием одногодичных общеобразовательных узбекско-казахских школ, образованию казахского народа способствовало открытие и расширение *русско-туземных школ* - результат политики царской России.

Отличительной особенностью образовательной политики царизма в Туркестане с начала 70-х годов XIX в. было стремление создать такую систему обучения, которая содействовала бы решению задач колонизации края. Основной тезис школьной политики того времени был сформулирован в 1879 г. министром народного просвещения Д.А. Толстым. Он недвусмысленно гласил: «Конечной целью образования всех инородцев, живущих в пределе нашего Отечества, бесспорно, должно быть обрусение их и слияние с русским народом»⁹⁸.

Аналогичной мыслью был проникнут, представленный в 1873 году Туркестанским генерал-губернатором Кауфманом «План устройства учебной части и народного образования в Туркестанском крае». Так, в нем подчеркивалось: «Развитие народного образования в крае должно состоять в направлении русских интересов, которое заключается в развитии экономической стороны населения, его государственности и солидарности, его слияния с основами русской государственной жизни». Особенно настаивал Кауфман на обучении детей коренного населения Туркестанского края в общих школах с русскими детьми, «так как совместное обучение, влияет на сглаживание различий в основных понятиях детей инородного населения, представляет существенные выгоды в деле ассимилирования завоеванного края»⁹⁹.

Для совместного обучения на первом этапе использовались народные и уездные училища. Одновременно разворачивалась система русских учебных заведений, действующих на принципах и по схеме, принятой в европейской части России. В частности, в Ташкенте и других областных городах (Самарканде, Скобелеве, Верном, Асхабаде) открывались мужские и женские гимназии, ремесленные и коммерческие училища и другие учебные заведения. Однако местное население неохотно отдавало своих детей в русские школы, малоприспособленных к местным запросам и условиям. Например, в 1877 году в них обучалось лишь 108 учеников коренных национальностей,¹⁰⁰ а в 1886 г. – 96.¹⁰¹

Среди кочевников-животноводов мактабы возникали главным образом весной и в начале лета. Здесь учительствовали преимущественно учащиеся из медресе, приезжавшие на каникулярные заработки.

В мактабах края девочки и мальчики обучались отдельно. В мактабах при

⁹⁷ РГВИА, ф. 400, оп. 1, д. 473, л. 25, 27, 30.

⁹⁸ РГИА, ф. 733, оп. 203, д. 382, л. 13-14.

⁹⁹ ЦГА РУз, ф. И-47, оп. 1, д. 4085, л. 7-9.

¹⁰⁰ Туркестанские ведомости, 1888, № 17.

¹⁰¹ ЦГА РУз, ф. И-1, оп. 3, д. 19, л. 2-3.

мечети, медресе и кариканах, а также у мактабдаров учились мальчики, а девочки занимались у «отин ойи» - учительницы. Эти мактабы для девочек были расположены в доме отин ойи или в доме – какого-нибудь зажиточного человека, у которого имелись девочки школьного возраста.

Мактабы не содержались за счет государственной казны, так как они открывались не со стороны государства, а общественности. Преподаватели за обучение получали плату у родителей учащихся или из общественных, вакфных фондов. По издревле установившимся нормам шариата определенная плата за обучение не была установлена и обучение грамоте считалось богоугодным делом. Сирот обучали бесплатно. Дети начинали ходить в школу с 6-8, иногда с 5 лет и учились там не менее пяти, а в хороших мактабах – до 8 лет¹⁰².

Число учащихся в городских мактабах при мечети доходило до 50-60, а в сельских достигало 10-20 человек. Занятия проводились от восхода солнца до 4-5 часов дня, кроме пятницы и праздничных дней. Летом ученики на два месяца отпускались на каникулы. В классических мактабах не было классно-поурочной системы, занятия проводились индивидуально. Письму ученики обучались только тогда, когда полностью овладевали чтением¹⁰³.

Мактабы имели преимущественно конфессиональный характер: дети обучались молитвам, религиозным обрядам, чтению религиозных книг на арабском и персидском языках. Вместе с тем в них изучались и основы светских наук, которые применялись на практике, такие как математика, письмо, география, литература и др. Но учебная программа для девочек отличалась от программы для мальчиков тем, что в женских мактабах больше изучались произведения таджикских и тюркских поэтов, писателей. Кроме того, девочки обучались женским обязанностям дома и поведению в обществе.

Мактабы и медресе являлись не только источником распространения грамотности, но и выполняли и вспомогательную функцию. Учащиеся учились здесь конкретным правилам восточной этики и эстетики. Они были проводниками соционормативов культурного наследия этносов, которое переходило от поколения к поколению. При помощи классических мусульманских учебных заведений молодые поколения усваивали духовные ценности своих предков.

В целом к 1910 году, по данным учебного ведомства в Туркестане действовало 7571 мусульманских школ, в которых обучалось 103037 детей. К 1916 году общая численность медресе достигла 449¹⁰⁴.

Надо сказать, что традиционные мактабы появились в Центральной Азии еще в VIII веке, в связи с распространением здесь мусульманской религии. Однако у казахов они долгое время отсутствовали, ибо казахское население приобщилось к исламу гораздо позднее, чем, к примеру узбекский

¹⁰² Салиджанова Г.Ф. Учебно-просветительные очаги в Туркестане, их общественное значение (конец XIX - начало XX веков): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. - Т., 1998. С. 20-21.

¹⁰³ ЦГА РУз, ф. И-47, оп. 1, д. 333, л.16 об.

¹⁰⁴ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865 - 1924 гг.). – М.: Наука, 1960. С. 333.

народ. Это объяснялось ведением казахами кочевого или полукочевого образа жизни, в результате которого кочевое население находилось в отдалении от таких крупных городов Средней Азии как Бухара, Самарканд, Коканд и др., откуда перешли в свое время к соседним народам передовые элементы материальной и духовной культуры. Рост экономических и культурных связей с соседними народами, в частности узбекским, и переход к полuosедлому образу жизни повлекли за собой усиление ценности образования у казахов и как вследствие этого широкое строительство мактабов и медресе.

Данный процесс принял особенно интенсивный характер в XIX - начале XX веков. К примеру, в Сырдарьинской области (включая Ташкент, Ташкентский, Чимкентский, Аулие-Атинский, Туркестанский, Перовский и Казалинский уезды, а также Амударьинский отдел) в 1892 году насчитывалось 1497 мактабов и медресе с 27082 учащимися, а уже в следующем году 2458 конфессиональных учебных заведений с 28898 учащимися¹⁰⁵.

В казахских мектебах учились преимущественно мальчики от 8 до 17 лет, девочки казашки оставались вне их. Правда, в отдельных местах учились и девочки, но их обучение ограничивалось только изучением основ ислама. По традиции в 15-16 летнем возрасте девочки уже выдавались замуж, поэтому они большей частью оставались неграмотными. Все казахские мектебы и медресе целиком находились в руках духовенства, и поэтому учителями в них были только муллы, получившие образование в местных мактабах и медресе. Что касается Южных и Юго-восточных областей Казахстана, то они вплоть до 1917 г. были ориентированными на медресе Бухары, Самарканда и других городов Средней Азии¹⁰⁶.

Помещениями под казахские мектебы служили: летом - кибитки (юрты), а зимой - землянки. Кибитки обычно выделялись отдельными лицами в порядке пожертвования, а землянки делались всем аулом. Внутренняя обстановка казахских мектебов и медресе была проста и незатейлива. Школьной мебели не было. Ученики сидели поджав ноги под себя на полу, устланном кошмами и циновками¹⁰⁷.

В истории развития культуры народов Востока мактабы и медресе играли роль распространителей арабской грамоты. Через эти учебные заведения распространялась классическая литература Востока. Произведения, например Низами и Навои, переводились на казахский, что имело большое значение для культурной жизни казахского народа. В конце 90-х годов XIX в. в некоторых мактабах и медресе начали вводиться общеобразовательные предметы.

Культура, получение образования и грамотности у казахского народа тесно переплеталось с аналогичными процессами у соседнего узбекского народа. Особенно это наглядно проявлялось в расширении и развитии мактабов и медресе. Однако длительные периоды кочевого и полукочевого образа жизни казахов не могли не отразиться на характере обучения в таких мектебах и

¹⁰⁵ Сабитов Н. Мектебы и медресе у казахов. - Алма-Ата: Казучпедгиз, 1950. С. 15.

¹⁰⁶ Там же. С. 20, 22, 23.

¹⁰⁷ ЦГА РКаз., ф. 45, оп. 2, д. 168, л. 16-18.

медресе, создавая ряд отличительных особенностей. Например, мактабы и медресе у казахов не имели специальных помещений, определенного срока обучения, твердого контингента учащихся и учителей. И это, безусловно, отражалось на общем качестве обучения казахских детей, их профессиональной ориентации.

YOSHLARNI BARKAMOLLIK VA SHUKRONALIK RUHIDA ARBIYALASHNING MUHIM OMILLARI.

Kendjayeva Zumrat Astanovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Yoshlar bu jamiyatdagi ijtimoiy-demografik guruh hisoblanib, inson umrining ma’lum bosqichida yashayotgan, etuklikning qaror topishi, kattalar olamiga kirish va unga moslashish kabi o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadigan tushunchadir. Yoshlik chegarasi beqaror va aniq ajratilishi qiyin, lekin soha mutaxassislari ko‘pincha uni 15-30 yillar orasi deb hisoblaydilar.

IMPORTANT FACTORS OF EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PERFECTION AND GRATITUDE.

Kendjayeva Zumrat Astanovna –

Researcher of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Abstract

Youth is a socio-demographic group in society, living at a certain stage of a person's life, defining maturity, entering the world of adults and adapting to it. The age limit is unstable and difficult to define, but experts in the field often consider it to be between 15 and 30 years old.

Yoshlar ayrim umumiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi: ular, odatda zamonaviy va bilimli; yangi kasblar va yangicha turmush tarziga intiluvchan; ijtimoiy jihatdan harakatchan qatlam. Yoshlarda qadriyatlarini qayta baholash, kattalarga nisbatan o‘zgacharoq, ya’ni ularda ehtiyojlar va ideallar, axloqiy me’yorlarni faol o‘zlashadi. Mazkur ijtimoiy guruhga shu toifa ichidagi muloqotga mo‘ljallanish xosdir. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida ta’lim turini tanlash va uni egallash, mehnat jarayoniga kirish, oilani shakllantirish, kasbiy jihatdan o‘sish va xizmat bo‘yicha ilgari kabilar asosiy muammolar bo‘lib hisoblanadi. Keyingi yillarda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ularning kasb tanlash, mehnatiga haq to‘lash, ish bilan ta’minlash bo‘yicha qator dolzarb vazifalar yuzaga chiqdi. O‘zbekistonda bu borada jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol yoshlarni tarbiyalash uchun ham 1991 yildayoq Yoshlarga oid davlat siyosatining zamonaviy talablarini o‘zida aks ettirgan qonun qabul qilindi [1].

Insonga juda ko‘plab beg‘ubor go‘zal xislat va fazilatlar berilgan. Ana shu ne’matlarning eng ulug‘i – bu shukronalik tuyg‘usi. Ne’mat - bu albatta moddiy

boyliklarning o'zidagina iborat emas, hayot ne'mati, jismdagi ichki va tashqi a'zolarining bir maromda ishlashi, ya'ni ko'zning ko'rishi, qulog'ning eshitishi, tilning ta'm bilishi, yurakning urib turishi, bularning barchasi albatta bebaho ne'mat bo'lib, bizlarni shukr qilishga undaydi. Shukronalik, tinchlik, hotirjamlik bir maromdagi maqbul hayot tarzi hamdir. Shuningdek shukronalik barqaror taraqqiyot poydevori hamdir. Shukronalik milliy ma'naviyatimizning uzviy jihatidir. Shukronalik tinchlik va barqarorlik mahsuli hisoblanadi. Shukronalik tarbiyasi ikki yo'nalishda amalga oshirib kelingan. Bu yo'nalishlardan birinchisi-davlat siyosatiga fuqarolar tomonidan namoyon etiluvchi e'tirof, turmushdan rozilikni ifoda etuvchi ijtimoiy munosabatlar tushunilsa, ikkinchisi odamlarning diniy e'tiqodini va ilohiy qudratga aqlan va qalban anglab sig'iniluvchi munosabat sifatida yuzaga chiqadi. Tarbiya orqali shukronalikni inson xarakterining belgisiga, fazilatiga aylantiruvchi harakat barcha davrlarning dolzarb masalasi bo'lib kelgan. Aholi turli qatlamlari orasida xususan yoshlar o'rtasida bugungi kungi hayotdan rozilik, shukronalikni tarbiyalash dolzarb ijtimoiy vazifalardandir. Milliy ma'naviyatimizda shukronalik keltirish insonning tarbiyalanganlik darajasini ham namoyon etib kelgan. Odamlarga yaxshilik qilish, mehr ulashish shukronalik xususiyatining tarkibiy jihatlaridandir. Zero shukronalik – bu tobelik emas, bu istak mayllarni jilovlashdir. U ruhiy iroda, sabr-qanoat, oqibat va saboq, salohiyat, yuksak madaniyat ifodasidir. Shukronalik insonning fikr-mulohazasi va hayotiy falsafasi, o'zini bag'ishlash qudrati. Shukronalik ayni vaqtda e'tiqod, mas'uliyat, barqarorlik omili. Shukronalik tuyg'usi bilan yashagan inson tafakkurida vazminlik, qiyosiy tahlil, mushohada, taftish, xulosa kabi fazilatlar shakllanadi.

Umrдан mamnunlik yondashuvini tarkib toptirish va mustahkamlashda tadrijiylik, bosqichma-bosqichlik, bosiq intilish, oqilona me'yor, muvozanatga rioya qilish muhim rol o'ynaydi. Zero xalqimizda «Narvonga ham asta chiqiladi», degan gap bor. Hech qachon unutmashimiz kerak, bu dunyoda hamma narsa asta-sekin, o'z yo'li bilan bo'ladi. Shuning uchun ham davlat siyosatiga yoshlar tomonidan beriluvchi e'tirof, turmushdan rozilikni ifoda etuvchi ijtimoiy munosabatlarida shukronalikning yuksalishi, barqarorlashuvida mamlakatimizda, islohotlarimizning tub mohiyati inson manfaatlariga qaratilganligini, eng muhimi ularni izchil, bosqichma-bosqich davom etayotganligini to'g'ri tushuntirish maqsadga muvofiqdir [2].

Xulosa shuki, bugun yoshlarda shukronalik kayfiyatini mustahkamlashda va albatta o'z navbatida shukronalik yoshlarda o'z-o'zidan qoniqish hissi bo'lmasligi uchun muhtaram Birinchi Prezidentimizning «Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?» degan savoli ustida o'ylash, amaliy ishlarni bajarish zarur. Zero Birinchi Prezidentimiz I.Karimov yoshlarga qarata: «Agarki qachon biz xohlagan zamon kelsa, ana o'shanda murodimizga etamiz, degan fikr bilan bemalol yuradigan bo'lsak, bilib qo'yinglar, bunday zamon hech qachon o'z-o'zidan kelmaydi. O'zimiz istagan zamon uchun kurashish, kerak bo'lsa, o'zimizni, butun borlig'imizni berishimiz lozim. Shunday intilish bilan yashasak, nafaqat o'z hayotimiz, balki kelajak avlodlarimiz hayotini, ularning ertangi yorug' kunini o'zimiz, o'z qo'limiz bilan barpo etgan bo'lamiz.» degan so'zlarining tub mazmun-mohiyatini to'g'ri anglab etish zarur [3].

Zero shukronalikning bosh manbai - bu Vatan mustaqilligi bo'lib, uning eng oliy ne'mat va ulkan imkoniyatlar manbai ekanligini yoshlarga tushuntirish, ularning butun

hatti-harakatlarini Vatan mustaqqiligini har tomonlama mustahkamlashga, xalqimizning tinch-osoyishta hayoti, sarhadlarimiz daxlsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan har qanday havf-xatardan ogoh bo‘lib yashashga, dunyoga ochiq ko‘z bilan qarab, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olishga o‘rgatish, shunday oliyjanob, bag‘rikeng xalqimizga, Vatanimizga farzandlik mehri, sadoqati bilan xizmat qilish eng oliy burch ekanligini tushuntirish bugun yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan har bir insonning vijdon ishiga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyot ruyxati:

1. Tohir Malik. Tanlangan asarlar. Odamiylik mulki. 3-kitob. Toshkent. “Sharq” NMAK. 2010. 690 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. «Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolar tarjimasini». «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi. 2022 yil (2013, 2017, 2019, 2021).
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. Toshkent, O‘zbekiston, 2015, 268 bet.

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’RIFATPARVARLIK HAQIDAGI
QARASHLARINING MILLIY TA’LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDAGI
ILMIY–AMALIY AHAMIYATI**

Kuvandikov Shokir Oblokulovich
SamDU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkisgon xalqi uchun «XX asr tongidan yangicha yashamoqni vujudga keltirish usullarini» izlashga, bu usullardan birinchisi sifatida mavjud ta’lim tizimini isloh qilib, o‘qitishning yangi (jadidcha) mazmunga ega bo‘lgan shaklini joriy qilishni hamda asosiy maqsadi sifatida o‘ziga xos bo‘lgan “ma’rifatparvar jamiyatni” yaratishdan iborat ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Shu nuqtai nazardan Mahmudxo‘ja Behbudiy maqsadga erishish uchun, avvalo, ta’lim-tarbiya sohasida islohot o‘tkazish, uni yangi davr ehtiyojlariga muvofiqlashtirish lozimligi yoritilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, Turkiston, yangi usul, maktab-maorif tizimi, milliy o‘zlikni anglash, jadid maktablari, yangi darsliklar.

**THE SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF MAHMUDHAJA
BEHBUDI'S VIEWS ON THE ENLIGHTENMENT IN REFORMING THE
NATIONAL EDUCATION SYSTEM**

Annotation

In this article, Mahmudhaja Behbudi points to the search for "ways to give rise to a new life from the dawn of the 20th century" for the Turkisgon people, reforming the existing educational system as the first of these methods, introducing a new (Jadid)

form of teaching, as well as creating an "enlightened society" unique in its main purpose. From this point of view, it was highlighted that in order to achieve the goal of Mahmudhaja Behbudi, it is necessary, first of all, to reform the educational sphere, to coordinate it with the needs of the new era.

Key words: Махмудхўжа Бехбудий, жадидчилик, маърифатпарварлик, Туркистон, янги усул, мактаб-маориф тизими, миллий ўзликни англаш, жадид мактаблари, янги дарсликлар.

Mavjud jamiyatni isloh qilish asosida, uni o'zgartirish ishlarini, xalqni yanada ma'rifatli qilishdan boshlash ham bir tarixiy zaruriyat hisoblanadi. Ma'rifat esa ta'lim tizimining mazmun-mohiyatini, shakl-shamoilini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha - ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz"¹⁰⁸. Tarixiy jarayonda bunday ishlarni amalga oshirishda bel bog'lagan M.Behbudiyning alohida e'tirof etish mumkin.

Ma'lumki, 1899-1900 yillarda Behbudiy haj safariga boradi. «Borish-kelishda Istanbul, Misrning katta shaharlariga kirib, undagi ba'zi eski-yangi maktablarni, ayniqsa Misrdagi «Jome' al-Azhar»ni ziyorat etdi. Qaytishda Misr va Istanbuldan turlik gazeta va kitoblar olib keldi. Bu muborak safar Behbudiyga anchagina ibrat va intiboh (g'aflatdan uyg'onish) bo'ldi»¹⁰⁹. Natijada, Turkistondagi barcha ziyolilar kabi Mahmudxo'ja Behbudiyning ong va tafakkurida ham keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Zotan, jamiyat yangilanish mohiyatini anglamaguncha, o'zgarishlar mazmunini tushunmaguncha va uni himoya qilmaguncha ko'zlangan maqsadga erishish mushkul. Jamiki kashfiyotlar, ilm-fan yutuqlari bevosita xalq umumiy saviyasi darajasiga va har bir shaxsning aqliy layoqatiga bog'liq. O'z fikriy tanballigini engish, o'zini o'zi ilm olish va olamni anglashga safarbar etish - insonning oliy sifatidir. Biroq qadimiy noyob xazina vorislari - Turkiston musulmonlarining keyingi avlodlari ilm-ma'rifatdan bebahra qolayoggandiki, Mahmudxo'ja Behbudiy bundan behad qayg'uradi, achchiq kuyunadi.

Behbudiy o'z navbatida zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirmaslik, yoshlarni ilg'or texnikaga asoslanuvchi kasb-hunarlarini o'rganishga yo'naltirmaslik qanday ayanchli holga olib kelishini musulmon Sharqi misolida isbotlaydi. "Bu mas'uliyatdan qutulmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy fanlar o'qumoq uchun targ'ib qilmoq kerakdur. Diniy ilm ila fanlarning o'rni maktab va madrasadur. Dunyoviy fanlarni o'rni hukumat maktablaridur..."¹¹⁰.

Mana shuning uchun ham makgab-madrasa tizimini isloh qilish, bu ishga kirishishdan avval ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadini aniq tasavvur etish lozim edi. Mahmudxo'ja Behbudiy "Bizga isloh kerak" sarlavhali maqolasida mazkur maqsadni quyidagicha ifodalab bergandi. "... Siz, muhtaram jamoa, bolalaringizni din va millatga

¹⁰⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. -Б.23.

¹⁰⁹Муъин Х. Махмудхўжа Бехбудий ҳазратларининг қисқача гаржимаи ҳоли. / Саидов Х. «Маърифат либосидаги озодлик». - Т., «Маънавият», 2000.- Б. 130.

¹¹⁰Бехбудий М. Миллатлар қандай таракхий этарлар. // «Самарқанд» гааегасиннш 1913 йил 30 июль №31- сони.// Танланган асарлар. Ж.1. - Тошкент: Академнашр, 2021. - Б.390-391 .

xizmat qilishlari uchun zamonaviy bilimlarni o‘rgatishga harakat qilishingiz kerak, din va millatga xizmat qilish esa fakat bilim va pul bilan bo‘lishi mumkin”¹¹¹.

Behbudiy tom ma’nodagi maktabga shunday ta’rif beradi: “Maktab - jannat va istiqbolning eshigi, maktab - ozod va sharofatning bog‘i va mevasi, maktab - dinning chirog‘i va ziyosi, maktab - jaholatga dushman qilichi, maktab - dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir”¹¹².

Mahmudxo‘ja Behbudiy yangi maktablar uchun ko‘llanma va darsliklar yaratish, ularni nashr qilishda ham ilmiy salohiyatiyu saxovat peshaligini namoyon etdi. «Taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi» yoki «Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo‘lur» deganida ham Behbudiyning dunyoqarashi davrga hamnafasligi, hatto undan ilgarilab ketganligini sezamiz.

Jadidlar omi xalq orasida ziyo tarqatishning hamma yo‘llaridan foydalanish lozim, deb hisoblardilar. Kutubxona ham bu ishda samarali vosita bo‘la olardi. Buni vaqtida anglagan Mahmudxo‘ja Behbudiy 1908 yili Samarqandda musulmon kutubxonasini tashkil etish fikrini axli ilm, aqroboyu ulamolar oldiga qo‘yadi. Lekin milliy ong va tafakkurni shakllantirish, rivojlantirish hamda mustahkamlash uchun maktab-maorif islohoti, nashriyot va kutubxonaning o‘zi etarli emasdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy asos solgan «Samarqand» gazetasi ham, «Oyina» jurnali ham ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Ularda millat va uning haq-huquqi, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda etkazib berishlari zarur”¹¹³, - degan so‘zlaridan kelib chiqqan holda M.Behbudiyning ma’rifatparvarlik haqidagi qarashlaridan mamlakatimizdagi milliy ta’lim tizimini isloh qilishdagi ilmiy- amaliy ahamiyati kattadir. Shu bois milliy ta’lim tizimini yaratatish va rivojlantirish masalasi “Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatni foydasi yo‘q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo‘q”¹¹⁴ligi qoidasiga asosangan holda olib borilishi kerakligida o‘z ifodasini topganligi bilan xarakterlanadi.

Адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021.

¹¹¹ Бехбудий М. Бизга ислох керак. // «Нажот» газетасининг 1917 йил 7 ноябрь. №18- сони// «Ёшлик», 1991, 10-сон. –Б. 42.

¹¹² Бехбудий М. Мактаб. // «Ойина» журналининг 1913 йил 11-сонидан 3. Ахророва табдили. - «Макгабгача тарбия», 1994, 5 - 6-сон. –Б. 36.

¹¹³ Мирзиёев Ш.М.Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри, - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2022. - Б. 223.

¹¹⁴ Бехбудий М. Тарих ва жуғрофия // Унинг ўзи. Танланган асарлар. 1-жилд.- Тошкент: Академнашр, 2021. - Б.330.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри, - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2022.
3. Бехбудий М. Бизга ислох керак. // «Нажот» газетасининг 1917 йил 7 ноябрь. №18- сони // «Ёшлик», 1991. 10-сон.
4. Бехбудий М. Мактаб. // «Ойна» журналининг 1913 йил 11-сонидан 3. Ахророва таъдиди. -«Макгабгача тарбия», 1994.
5. Бехбудий М. Миллатлар қандай тараққий этарлар. // «Самарқанд» гааегасиннш 1913 йил 30 июль № 31- сони. // Танланган асарлар. Ж.1. - Тошкент: Академнашр , 2021.
6. Бехбудий М. Тарих ва жуғрофия// Унинг ўзи. Танланган асарлар. 1-жилд.- Тошкент: Академнашр, 2021. - Б.330.
7. Муъин Ҳ. Макмудхўжа Бехбудий ҳазратларининг қисқача гаржимаи ҳоли. / Саидов Ҳ. «Маърифат либосидаги озодлик». - Т., «Маънавият», 2000.

МАКТАБГА ТАЙЙОРЛОВ GURUHLARIDA BOLALAR DIQQATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

M.N.Babakulova

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi.
(90) 502-58-83, m.babakulova@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabga tayyorlov guruhidagi 6-7 yoshli bolalar diqqatini rivojlantirishning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan. Mazkur yosh davrda diqqatning rivojlanishi, ixtiyoriy diqqatning o’sib borishi, bolaning intellectual salohiyatini rivojlantirishda diqqatning ahamiyati, shu jumladan, bolalarda o‘yin orqali diqqat va shu kabi boshqa psixik jarayonlarning rivojlanishi alohida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: diqqat, bilish jarayonlari, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, o‘yin, diqqatning kuchi, diqqatning barqarorligi, idrok, aqliy hislar

Abstract

This article provides information about the importance of developing the attention of 6-7-year-old children in the preparatory group for school. The development of attention in this young period, the growth of voluntary attention, the importance of attention in the development of a child's intellectual potential, including the development of attention through play and other similar mental processes in children.

Key words: attention, cognitive processes, voluntary attention, involuntary attention, game, power of attention, stability of attention, perception, mental sensations

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: «Maktabgacha ta’lim – ertangi kunimizga zamin»dir.

Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Maktabga tayyorlov

guruhi bolalarida ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq kichik yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida kun sayin paydo bo'ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o'yin faoliyatlarining xilma-xil bo'la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi. 6-7 yoshli bolalarda jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo'ysunish, qoidali o'yin shartlarini so'zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado etish kabi hollarda ixtiyoriy diqqat turining jadal rivojlanib borayotganidan darak beradi. 6-7 yoshli bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya'ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning ma'lum bir mashg'ulot ustida, ta'limiy faoliyatlarda, yoki biror bir qiziqarli o'yinlar ustida uzoq vaqt zerikmay soatlab o'ynay olishlari va bajarishlaridan bilishimiz mumkin.

Olti yoshli bolada ixtiyoriy diqqat o'sib boradi. Shuning uchun o'ziga yangi, notanish bo'lgan bilimlar axborotlardan iborat bo'lgan mashg'ulotlarga diqqat-e'tibor qilib o'tiradi. Kattalarning xatti-harakatlarini, ular bajarayotgan ishni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uning o'z maqsadi sari intilishi, mustaqilligi, jasoratligi bolaning iroda kuchidan kechinmalar rivojlangan bo'ladi. Ayni paytda bolaning yaxshi yoki yomon xatti-harakatlarning sezishi, go'zallikning idrok qilishi katta odamlarnikidan sifat va maqsad jihatdan farq qiladi. Ayniqsa, uning aqliy hislari mazmunan sayoz, davomiylik jihatdan beqarordir [E.G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. T.;2010. 234 b.]. 6-7 yoshli bolalarda avvalgi davrga nisbatan diqqatning ko'lami (hajmi) ancha kengayib boradi. Biroq bu yoshdagi bolalarda diqqat ko'lami kattalarnikiga nisbatan ancha tor bo'ladi. Masalan katta odamlar diqqatining ko'lami ayni vaqtning o'zida 5-6 narsani miyasiga singdira olsa, 6-7 yoshli bolalarda esa bir vaqtning o'zida 1-2 narsani yoki ma'lumotni miyasiga singdira oladi.

Bog'cha yoshdagi bolalar kattalarning yordami bilan suratni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qiliyotganlarida kattalar turli xil savollar bilan tahlil qilishga o'rgatishimiz lozim. Bunda asosan bolalar diqqatini:

- 1) Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
- 2) Suratning umumiy ko'rinishda har bir ta'sirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
- 3) Tasvirlangan narsalar o'rasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Tahlillarimiz natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat barqarorligini taminlash maqsadida quyidagi tavsiyalarni taklif etamiz;

- Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni interfaol va rangdor ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda olib borish;
- “Art terapiya”, “Musiqiy terapiya” mashg'ulotlarini kun tartibiga kiritish;
- Aynan diqqati beqaror bolalarni aniqlab ularning ismlarini mashg'ulot davomida tez-tez takrorlash;
- Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda reglamentga qat'iy rioya qilish;

So'z yakunida shuni alohida ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni asosiy va muhim jihati sifatida qarashimiz lozim. Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi

ahamiyati benihoya kattadir. Diqqat idrokning aktivligini oshiradi va uning mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Diqqatsiz hech narsani idrok qilish mumkin emas. Bolalarda diqqat jarayonini yanada rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'tkazish va ular bilan intellectual o'yinlarni o'ynash bu yosh uchun juda ahamiyatlidir. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni ilgari suradilar va bu maqsadlar ular faoliyatini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha" PQ-3261-son qarori
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T., 2012. – 196 b.
3. G'oziyev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik/E.G'oziyev; O'zR OO'MTV, M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. – 544 b.

SHAXS MA'NAVY KAMOLOTIDA SIYOSIY ETIKANING O'RNI

M.M.Allayarova.

O'z-Fin.Ped.I.dotsenti

Haqberdiyeva Sevinch.

Boshlang'ich ta'lim va gumanitar fanlar fakulteti, talaba.

Annotatsiya

Ushbu maqolada siyosat va axloq tushunchalarining o'zaro bir-biri bilan aloqadorligi, siyosiy etikaning jamiyat hayotida qay darajada ahamiyatga molik ekanligi va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlar haqida mulohaza yuritiladi. Jamiyat taraqqiyoti, yuksakligi, farovonligini uning ma'naviy yetukligi bilan belgilanishi, bu esa yangi avlodning siyosiy va axloqiy yetukligi bilan bog'liq ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Etika, axloqiy tamoyillar, korrupsiya, axloq, siyosat, muammolar, poraxo'rlik, etika tamoyillari.

THE ROLE OF POLITICAL ETHICS IN THE SPIRITUAL MATURITY OF A PERSON

Abstract: This article discusses the relationship between the concepts of politics and ethics, the importance of political ethics in public life, and the reforms being implemented to prevent corruption. It is explained that the development, height and prosperity of the society is determined by its spiritual maturity, which is related to the political and moral maturity of the new generation.

Jamiyat taraqqiyoti, yuksakligi, farovonligini uning ma'naviy yetukligidandir. Inson kamoloti, uning buyukligi ma'naviy darajasi bilan belgilanadi. Yetuk ma'naviyatga ega bo'lgan inson jamiyat muammolarini ma'rifati, aqli va zakovati bilan yechishga harakat qiladi. Lekin bunda inson axloqi barchasining asosiy mezonini

belgilaydi. “Axloq bizga bashariyatning haqiqiy vazifalari haqida ta’lim beradi”, - degan edi jadidchi allomalarimizdan biri Abdurauf Fitrat.(1)

Bugungi kunda mamlakatimizda barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistonimizda yoshlarning maynaviy kamoloti axloq va siyosat yetukligini ham taqozo etmoqda. Barchamizga ma’lumki, axloq va siyosat o‘zaro aloqadorlikdagi amaliy falsafaning bosh muammolaridan biridir. Axloq – inson, jamiyat, umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniyat kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisadir.

Siyosat va axloq o‘zaro bir-birini taqazo etadigan, yaxlit va ajralmas tushuncha sanaladi. Bugungi kunda bu tushunchalarning o‘zaro yaxlitligi, ularning qanday muammolarni qamrab olganligi, jamiyat boshqaruvida qanchalik ahamiyatga molik, zaruriy hodisa ekanligi haqida izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, akademik Oqil Salimov o‘zining “Siyosiy axloq va axloqiy siyosat” nomli maqolasida.”Yangi O‘zbekiston ijtimoiy davlati har bir fuqaro qadr-u qimmatini bilan, sha’ni, uning baxtli, saodatli hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy barkamol, g‘oyaviy yetuk, siyosiy axloqning axloqiy siyosat bilan sintezlashib borayotgani uning davlat sifatidagi fenomenidir zotan, bizning jamiyatimizning, davlatimizning yagona va birdan bir xaloskori axloq!”- deb takidlab o‘tadi. Tadqiqotchi olim ta’kidlanganidek, siyosiy axloq, axloqiy siyosat bu bir butun, yaxlit tizimdir.

Bu tushunchalar uyg‘unlashtirilmasa, jamiyatimizda turli illatlar avj olishi mumkin. Masalan, korrupsiya illati jamiyatda yuzaga kelgan axloq va siyosatning uyg‘unligining buzilishidir. “Korrupsiya bo‘lmasa, hammasi xalqqa va’da berganimizdek bo‘ladi”, - deb takidlab o‘tgan edi O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyev.(5)

Ma’lumki, bugungi kunda milliy va xalqaro huquqida tobora ko‘p namoyon bo‘layotgan muammolardan biri bu korrupsiyadir. Xususan, korrupsiya muammolari, uning yechimlari haqida izlanishlar olib borgan siyosiy fanlar doktori Baxtiyor Omonov “Korrupsiya va taraqqiyot: muammo va yechimlar” nomli maqolasida korrupsiya taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi xavfli jinoyat ekanligi, bu illatga qarshi kurashish tegishli organlargina emas, balki barchaning ishi bo‘lishi zarur ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etamiz”, - deb takidlaydi faylasuf olim.(4).

Buyuk sharq mutafakkir olimlaridan biri Abu Nasr Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida fozil (fuqarolik) jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri poraxo‘rlik deb qayd etgan edi. Shuningdek, korrupsiyaning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi masalalarini o‘rgangan Nikollo Makkiavelli uni yo‘talga qiyoslab: “Korrupsiyani ham yo‘talga o‘xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o‘tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin” , -degan edi. Bugungi kunda korrupsion holatlarni oldini olish, uni botamom yo‘q qilish borasida ko‘plab chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev Oliy majlis palatasining qo‘shma majlisidagi “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzuidagi ma’ruzasida jamiyatdagi korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etishning oldini olish chora-tadbirlari haqida alohida ta’kidlab o‘tadi.(4)

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan yangi islohotlarimizda

korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi va samarali huquqiy mexanizmlari yaratildi. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2017-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.(6) Unda korrupsion holatlarni oldini olish chora tadbirlari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning nima ekanligi, ularning salbiy illat sifatida jamiyat hayotida jiddiy xavf solishi haqida malumotlar berildi. Bu o‘z navbatida fuqarolarning siyosiy jarayonlarda axloqqa, axloqiy yetukligida siyosiy burchlarini ham anglashga yetaklaydi. Izlanishlarimiz tadqiqi shuni ko‘rsatdiki, koruppsiya faqat iqtisodiy muammo emas, balki ijtimoiy va siyosiy muammodir. Rahbar faoliyatidagi bu illat namoyon bo‘lsa jamiyatda siyosiy tuzum va barqarorlikka putur yetkaziladi, siyosiy mahdudlik yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, siyosat va axloq tamoyillarining uyg‘unligi jamiyat hayotida yetarli darajada shakllanishi bugungi globallashuv asrida juda muhim hodisa sanaladi. Agarda bugun o‘sib kelayotgan yosh avlodni buyuk va ulkan tariximiz bilan faxrlanish, milliy urf-odat va an‘analarimizga sadoqat, ota-onasi, yaqinlariga hurmat ruhida, ularni har tomonlama sog‘lom, siyosiy va axloqiy jihatdan yetuk va eng asosiysi vatanparvar qilib tarbiyalasak bugun jamiyatimizda dolzarb muammo sanalayotgan zararli illatlar sezilarli darajada kamayadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki rivojlangan, farovon Yangi O‘zbekiston davlatini barpo etish shu jamiyat a‘zolarining, shu yurtning ertasi hisoblangan yoshlarning qo‘lidadir.

Foydaanilgan adabiyotlar.

1. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. Tanlangan asarlar. 5-jild.T “Ma‘daniyat”, 2010 yil, 113-bet
2. E.Yusupov “Inson kamolotining ma‘naviy asoslari” “Universitet”, 1998, 38-bet
3. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi veb sayti.
4. Darslik. Toshkent: Cho‘lpon NM2U 2018. 116-bet.
5. Sh.Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent – O‘zbekiston”- 2016. 10-bet.
6. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi qonun. 2017-y 3-yanvar O‘RQ- 419-son.

JADID MA‘RIFATCHILIGI VA MILLIY UYG‘ONISHNING YANA BIR QATAG‘ON QURBONI

Majidov Sevinch Axtamovich-

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi

Fayzulla Xo‘jayev davlat va siyosat arbobi, Jadidchilar harakatining rahnamolaridan biri. Savdogar oilasida tug‘ilgan. Buxoro madrasasida 2-yil tahsil olgach, 1907-12-yillarda Moskvada xususiy maktabda o‘qigan. Buxoroga qayt-gach, 1912-yildan yosh buxoroliklar partiyasining, 1913-yildan partiya MKning a‘zosi bo‘ldi. Otasidan meros qolgan katta boylikni yangi usul maktablari ochishga, yosh buxoroliklar siyosiy faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlashga sarfladi. 1917-yildan

boshlab Xo'jayev va Fitrat partiyaning so'1 qanotiga boshchilik qilib, Buxoroda avval konstitutsion monarxiya, so'ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar.

Yosh buxoroliklar amir tomonidan ta'qib qilingach, Xo'jayev va uning safdoshlari Buxoroni tark etishga majbur bo'lishdi. Xo'jayev 1920-yil yanvarda Toshkentda tuzilgan inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Turkiston Markaziy byurosi raisi, «Uchqun» gazetasi muharriri (1920-yil aprel-sentabr)dir. 1920-yil 14-sentabrda BXSР hukumati - Xalq Nozirlar Sho'rosi tuzilib, Xo'jayev hukumat boshlig'i qilib saylandi. F. Xo'jayev BXSР tashqi ishlar noziri (1920-1922), harbiy ishlar noziri (1921-1924), ichki ishlar noziri (1922), BXSР Mehnat va mudofaa kengashi raisi (1922-1924). Shuningdek, Sharqiy Buxoro Inqilobiy harbiy kengashi raisi (1923-1924), SSSR Harbiy-Dengiz ishlari xalq komissarligining O'zbekiston SSR bo'yicha rasmiy vakili (1925-yildan)dir.

F.Xo'jayev «Yosh buxoroliklar» g'oyalari ruhidagi dasturiy hujjat - maromnomani tuzdi va nashr etdi, Xo'jayev rahbarligidagi «Inqilobchi yoshbuxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi» tashkiloti nufuzli siyosiy kuchlarni o'zida ifoda etmadi. U O'rta Osiyoni butunlay zabt etish va uni boshleviklar to'liq rahbar bo'lgan yangi davlat tarkibiga qo'shib olish uchun bolsheviklarning kurash vositasiga aylandi.

Fayzulla Xo'jayev rahbarlik qilgan yoshbuxoroliklarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan Buxoroda to'ntarish tayyorladilar va amir armiyasini parokandalash bo'yicha faol ishlar olib borishdi hamda mahalliy aholi orasida tashviqot ishlari yurgizishdi. «Tong» jurnali va «Qutulish» gazetasini nashr eta boshladilar. Respublika nozirlar kengashining raisi Fayzulla Xo'jayev Buxorodagi jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan. U yosh buxoroliklar partiyasi rahbarlaridan bo'lgan. Yevropa sivilizatsiyasini o'zlashtirgan edi. Hukumat raisligidan tashqari harbiy nozir, tashqi ishlar noziri bo'lgan. Yosh buxoroliklarning progressiv-demokratik g'oyalariga amal qilgan.

Buxoro rahbariyati 1921-yil mart oyida qator chet mamlakatlar hukumatlariga yo'llagan murojaatnomasida «Buxoro xalqi Yosh Buxoroliklar ta'sirida uyg'ondi», deb ta'kidladi. BKPni F.Xo'jayev «Sun'iy tuzilgan partiya», deb atadi. F.Xo'jayevning qat'iyati bilan Buxoro Chekasi tugatildi, tribunallar, siyosiy bo'limlar tomonidan fuqarolarni jazoga tortish vaqtinchalik to'xtatildi. Islom dini, masjid-madrasalar xizmati, ruhoniylarning faoliyat erkinligi tiklandi, yangi qoziliklar ish boshladi. 1924-yil yozida F.Xo'jayev aholining qashshoqlashganini e'tirof etib, bundan qutulish tadbirlarini izchil amalga oshirish zarurligini uqtirdi. F. Xo'jayev Rossiya tashqi savdo birlashmasini BXSРdan «hamma narsani olishga, ammo hech narsa bermaslikka qodir» deb aybladi. Natijada 1922-yil bahorida BXSРga bir qator qurilish materiallari, kerosin, neft, temir mollar, qog'oz, daftar, gugurt, kalishlar olib kelindi.

1924-yil may oyida F.Xo'jayev aholining turmush darajasi pasayganini e'tirof etdi. F.Xo'jayev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati qo'rboshilar bilan yashirin aloqa o'rnatib, muzokara asosida tinchlik yo'li bilan murosa qilishga intildi. Afsuski, F.Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro hukumati tarkibidagi milliy vatanparvar kuchlar (sobiq Yosh buxorolik jadidlar) bilan muxolifatdagi qurolli guruhlar yo'l boshchilari o'rtasida kelishuv amalga oshmadi. Bu totalitar rejim sharoitida amalga oshishi mumkin ham emas edi. Xo'jayev BXSРning mustaqil ichki va tashqi siyosat

yuritishiga, iqtisodiy islohotlar o'tkazish va demokratik erkinliklarni joriy qilishga alohida e'tibor qaratib, Sovet Rossiyasidan tashqari Eron, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy, Ozarbayjon, XXSR, shuningdek, Germaniya va Yaponiya bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. U talabalarni xorijga jo'natib o'qitishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan.

O'zbekiston SSR Inqilobiy qo'mitasi (Revkom) - Muvaqqat ishchi-dehqon hukumati raisi (1924-yil noyabr -1925-yil fevral), O'zSSR XKS raisi (1925-1937), SSSR MIK raislaridan biri. Xo'jayev o'z faoliyati davomida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy ravnaqiga xizmat qiluvchi tadbirlarni amalga oshirishga intildi. U VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi va O'zbekiston KPMKga nisbatan muxolifat mavqeida turgan "o'n sakkizlar guruhi" (1925-yil noyab.)ga xayrixoh bo'lgan. U bu guruhning rasmiy a'zosi bo'lmasa ham, aslida ularning g'oyaviy ilhomchisi edi. "Quloq"larni sinf sifatida tugatish siyosatini yoqlamagan. O'zbekistonda yoppasiga chigit ekilishi paxta yakkahokimligiga olib keladi, deb hisoblagan. O'zbekistonda zamonaviy sanoat inshootlari qurilishida tashabbuskor bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. Т. 1998. Б. 31
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар 1 жилд. Т.: Маънавият, 2000. Б.

INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA YANGI KONSTITSIYA – BENAZIR QADRIYAT KO'ZGUSI

Shamshiyeva Vazira Abdivaliyevna

Jizzax davlat pedagogika
universiteti Tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola inson qadrini yuksaltirishda jamiyatda demokratik tamoyillarning ro'yobga chiqarishning o'ziga hos hususiyatlari hamda inson qadrini ulug'lashda qadriyatlarni o'rni haqida bo'lib, muallif, inson va uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy munosabatlarda o'ziga xos darajalarga ega bo'lishi, uning ehtiyojlari va manfaatlari, qadr-qimmatini haqida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: Inson qadri fuqorolik jamiyati, ijtimoiy davlat, ijtimoiy manfaatlar, taraqqiyot strategiyasi, demokratik tamoyillar, inson huquqlari, inson manfaatlari.

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohatlar, shiddati hamda keng qamrovi bilan dunyoga yuz tutmoqda. Jahon hamjamiyati tomonidan yurtimizda olib borlayotgan islohatlar haqida so'z ketganda Yangi O'zbekiston degan iborani tilga olnayotgani, albatta mamlakatimizdagi o'zgarishlarga munosib bahodir. Bugun Yangi O'zbekiston jahon maydoniga kuchli salohiyat, munosib obru e'tibotga ega bo'lgan, har tomonlama obod farovon mamlakat sifatida e'tirof etilib, uning nufuzi tobora ortib bormoqda. Bugun yurtimizda inson qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqligni ta'minlash insoniylikning barcha tamoyillarni yuzaga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.¹¹⁵ Mamlakatimizda "Inson qadri uchun" degan ezgu

¹¹⁵ Saitkasimov A. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion qonuniyatlari. Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, SamDU, 2019

tamayilni ro‘yobga chiqatish, Konstutsiya va qonun ustivorligi, har bir fuqoroni tinch va havsiz xayot kechirishni ta‘minlash amalga oshirilayotgan islohatlarning tub mohiyatni tashkil etadi va davlatimiz siyosatda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston xalqi yuksak insoniy maqsadlar bilan, barqaror taraqqiyot, mustahkam tinchlik va farovon hayotga ershish, adolat hamda ekinlik tamoyillarga asoslangan demakiratik jamiyat barpo etish yolda bormoqda. Komil ishonch bilan ta‘kidlash lozimki, yurtimiz dunyo hamjamiyatning barcha ma‘rfiy davlatlari singari umumbashariy qadriyatlar qaror topadigan, inson qadri va huquqlari e‘zozlanadigan hamda bezavol ta‘minlanadigan davlat idoralari va ma‘nsabdor shaxslar xalq manfaatlari sadoqat bilan xizmat qiladigan, tom ma‘noda inson qadrini yuksaltirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyoning eng oliy ne‘mati betakror hilqati insondir. Aha shu haqiqatdan kelib chiqib, insonlarning iltimoij turmush uchun zarur va foydali bo‘lgan, ularning rivojlanshi uchun xizmat qiladigan, saroit yaratadigan barcha predmet hamda voqeyliklar qadiriya sanaladi. Atrofimizni qurshab turgan narsalar - ashyolar, insonlarning ularga bildiradigan munosabati bilan belgilanadi. Tabiyki, insonlarning manfaat va ehtiyojlarni qanoatlantirishga xizmat qiladigan intilish va maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadigan ne‘matlarga ijobiy, e‘zozli munosabat bo‘ladi.

Jamiyat hayotida mavjud turli-tuman qadiriyaatlarni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, diniy, milliy, ma‘naviy mazmunidagi qadiriyaatlarga ajratish mumkin. “Qadiriya” iborasi insonga, jamiyatga nisbatan berilib ta‘riflanganda muayan ma‘noga ega bo‘lshi, aniq mazmun kasb etishi mumkin. Zero qadiriya deganda, insoniyatga xizmat qiluvch, uning ehtiyoj va manfaatlarni qondiruvcahi jamiki moddiy hamda ma‘naviy ne‘matlar tushuniladi. Albatta, hech bir buyum yoki voqeylik inson va uning ehtiyojlardan alohida olib talqin etilganda biron-bir qadir-qimmatga ega bo‘maydi. Inson shaxsini ulug‘lashdek axloqiy, chuqur madaniy qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining bir qator moddalarda ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan Asosiy qonunimizning 13- moddasida shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, qadir-qimmat va boshqa huquqlari ajralmas huquqlari oliy qadiriya hisoblanadi”¹¹⁶.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Konstitusiyaning bayon etilish tili unda qo‘llanilgan iboralar ham milliy madaniyatning bevosita ifodasi va mahsulidir. Unda o‘zbek xalqining ko‘p asirlik tarxii taraqqiyot davomida shakillangan va sayqal toptirilgan madaniy qadiriyaatlari, axloqiy fazilatlari, tarxii va milliy a‘nanalari, sharqona donaligi va tafakkur xazinasi durdonalarni o‘zida mujassam huquqiy ifodasini topgan. Jahoda misilsiz madaniyat, tarix, siyosat, va fiqx yodgorliklari hisoblanmish “Temur tuzuklari” Navoiy “Xamsasi”, “Boburnoma”, “Zafarnoma” va boshqa

¹¹⁶ Mirziyoyev Sh.M. Millii taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B. 11.

manbalarning mazmuni Konstitutsiya matnga singdirilishi tahsinga loyiq va bu bilan fahirlanishimiz joizdir.¹¹⁷

Asosiy qonunimizda insonparvarlik, vatanparvarlik, itimoiy adolat, milliy g'urur, sahovatpeshalik bag'rikenglik kabi ko'plab qadriyatlar Abu Ali Ibin Sino, Abu Nasir Farobiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Jaloliy, Abdurazzoq Samarqandiy, Burxonidin Marg'iloniy, Boborahim Mashrab va boshqa ajdodlarimiz asarlardagi durdona fikirlar bilan hamohangdir.

Uyg'onish davri (rennessans) davrida insonparvarlikning bosh tamoyili "Inson hayotning qadrini dunyodagi jamiki ne'matlar birgalikda tashkil etadigan qiymatga tenglashtirib bo'lmaydi" degan g'oya qaror topdi. Yani inson olamning benazir xilqati, bebaho ne'mati ekanligini anglash iltimoiy ongning mulkiga aylandi. Bunday yondashuv, bunday g'oya va talqin dastlabki konstitusiyalardagi huquqiy va axloqiy talablarda o'z ifodasini topdi.

Hozirgi zamon konstitusiyalardagi insoning yashash huquqi, shu jumladan hali tug'ilmagan, lekin tug'lish haqida darak berib turgan insonning ham huquqlari xususida g'amxorlikni ifodalovchi normalar, o'lim jazosini cheklashga qaratilgan intilishlar o'sha insonparvarlik a'analarni davom etayotganini bugungi yorqin namoyishidir.

Uyg'onish davri markaziy g'oyasi - inson qadir-qimmatni himoya qilish, har bir shaxsning ichki salohiyati, iqtidori va butun imkoniyatlarni rivojlantirishdir. Mazkur g'oyalar zamonaviy konstitusiyalarning ajrlmas tarkibiy qismiga aylangan. Masalan, Germaniyaning Asosiy qonunda quydagi qoida e'lon qilnadi. "Har kim o'z shaxsini ekin rivojlantirish huquqiga ega, chunki u boshqalarning huquqini buzayapdi va konstitusiyaviy tuzumga yoki axloqiy qonunga qarshi bormayapdi." (2-modda, 1-qisim). Dunyoda mavjud konstitusiyalarning barchasi ularni ijod etgan xalqning, millatning siyosiy tafakkuri, ma'naviyati va madaniyatga uzviy bo'liqdir. Har bir konstitutsiya o'z mazmunida jamiyatning millatning ma'naviy-madaniy qadriyatlarini uning tarixan shakillangan a'analari, urf-odatlar va xusiyatni aks etiradi Xuddu shu ma'noda O'zbekiston Respublikasining Yangi konstitusiyasi ham xalqimiz tabiatiga xos barcha ma'naviy-madaniy qadriyatlarini, axloqiy fazillatlarni mujasam etgan. Ayni vaqtda, Konstitusiyaning o'zi o'zbek milliy madaniyatning mahsuli, uning tarkibiy qismidir.

Yangilangan Konstitutsiya O'zbekiston jamiyatining evolyutsion rivojlanishidan kelib chiqayotgan hayotiy zarurat bo'lib, bu ish mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir. Tariximizda ilk bora O'zbekiston - ijtimoiy davlat, deb belgilandi. Ya'ni, insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik - davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlandi.

Konstitutsiyada kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha davlat o'ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobarga ko'paytirildi.¹¹⁸

¹¹⁷ . Qodirov A., Narbayeva T. va boshq. Aziz va yagonamsan jonajon O'zbekistonim. -Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018. -B. 65. -B. 14. S.56.-B. 14. S.56.

¹¹⁸ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq

Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilandi. Ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarning o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi. Eng muhimi, oxirgi besh-olti yilda ijtimoiy davlatning asosiy talablari amalda qo'llanildi, xususan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi, "Monomarkaz"lar faoliyati yo'lga qo'yildi, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari tashkil etildi. Ishlayotgan pensionerlarga pensiyalar 100 foiz to'lanishga o'tildi.

Ijtimoiy davlatga xos yondashuvlar ta'lim sohasiga oid ko'plab modda va normalarda ham o'z ifodasini topdi. Ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshdi.

Jumladan, fuqarolarning oliy ta'lim muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilab qo'yildi.

Ma'lumot tariqasida aytish mumkinki, 2017 yilgacha oliygohlarda o'qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo'lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o'zgardi. Grantlar soni 2 baravar ko'payib, 40 mingtaga etdi. Magistratura uchun esa 5 baravar ko'paydi. Asosiy qonunda fuqarolarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilandi.

Nogironligi bor bolajonlarimizga o'z tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ko'zda tutildi. Shuning uchun, bunday imkoniyatlar inklyuziv ta'lim sifatida Konstitutsiyaga kiritildi. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarimizning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Bu qoidalar mamlakatimizdagi 685 ming nafardan ortiq o'qituvchilarning professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro'sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi taqdim etildi. Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, keyingi yillarda ko'plab nodavlat oliy o'quv yurtlari ochildi, xorijiy universitetlar filiallari soni ortdi, 41 ta davlat oliy o'quv yurtiga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

Yana bir muhim yangilik – davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi konstitutsiyaviy mustahkamlandi. Ushbu normaning kiritilishi jamiyatimizda oila mustahkamligi va mo'tabarligini barqaror ta'minlashga xizmat qiladi.

Endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta'lim berish, barkamol voyaga etkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish esa davlatning burchi sifatida belgilandi.

Konstitutsiyada har kimning mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish huquqi kafolatlandi. Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolarning ish haqlari miqdori shunchaki emas, aynan ularning munosib turmush kechirishini ta'minlashda, pirovard natijada aholi turmush darajasini yaxshilashda va mamlakatimizda ijtimoiy adolatni ustuvor qadriyatga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida atganda yurtimiz taraqqiyoti yo'lda oldimizga qo'yilgan ulug'vor maqsad va g'oyalarni amalga oshirish ,Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchunchi Rensanisga poydevor qo'yish, Vatanimiz taraqqiyoti , xalqimiz farovonligi va baxt –saodati yo'lda olib borlayotgan islohatlar davomiyligidan dalolat beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B. 11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Saitkasimov A. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion qonuniyatlari. Falsafa fanlari doktori dissertasiyasi avtoreferati. – Samarqand, SamDU, 2019.
4. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Qodirov A., Narbayeva T. va boshq. Aziz va yagonamsan jonajon O'zbekistonim. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018. –B. 65. –B. 14. S.56. – B. 14. S.56.
- 6.Odilqoriyev X . Konstitutsiya va fuqorolik jamiyati .-Toshkent ,2002

KURASHNI QADRIYAT SIFATIDA O'RGANISH ZAMON TALABI

Mamanova Aziza Abduxoliq qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti

Xudoyorov Ulug'bek Qaxramon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
G'allaorol xizmat ko'rsatish va servis texnikumi o'qituvchisi

Xo'jmatov Eldor

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Jismoniy madaniyat fakulteti tuzatori

Annotatsiya: Kurash – o'zbek xalqining milliy sport turi hisoblanadi. Mazkur maqolada kurashning milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida tutgan o'rni tahlil qilingan. Kurashning qadriyat ekanligi, uning tarbiyaviy ahamiyati muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: kurash, qadriyat, tarbiya, vosita.

Аннотация: Кураш - узбекский национальный вид спорта. В данной статье анализированно роль кураша в системе национальная и общечеловеческой ценности. Обсуждены кураш как вид спорта и его воспитательное значение.

Ключевые слова: кураш, ценность, воспитания, средства.

Annotation: The kurash – is uzbek national sport type. In this article role of the kurash in the system of national and panhuman values are analyzed. Kurash is type of sports and its educational significance are discussed.

Key words: kurash, value, education, implement.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar - insoniyat tomonidan qadrlanadigan qadriyatlar tizimidir. Qadriyatlar asrlar davomida e’zozlanib kelinadi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda turli vositalar va usullardan keng foydalaniladi. Bunday vositalar va metodlar sirasiga milliy sportimiz bo‘lgan kurashni kiritish mumkin. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalash va kamol toptirishda kurashning o‘rni kattadir. [2]

Tarixiy rivojlanish shuni ko‘rsatadiki, kurash qadimdan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vositasi sifatida qo‘llanilib kelingan. Qadimiy solnomalarda ko‘rsatilishicha eramizdan oldingi davrlarda ham kurash ommaviy musobaqalar tarkibidan munosib o‘rin olgan.

Tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladigan kurash o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biridir. Kurash azaldan polvonlarning jismoniy va ma’naviy etukligi namunasi sifatida qadrlangan. Kurash asrlar davomida insonning jismoniy va ma’naviy kamolotga erishish vositasi bo‘lib kelgan. O‘tmishda ajdodlarimiz kurashni “tarbiya maktabi” deb ataganlar. Insonning komilligi uning aqliy, ma’naviy va jismoniy jihatdan tarbiyalanganligi bilan belgilanadi. [3]

Mamlakatimizda kurashni rivojlantirish yuzasidan sayi-harakatlar jadal rivojlantirib borilmoqda. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 oktabrdagi “Kurash” milliy sport turini yanada rivolantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu Qarorda ko‘rsatilishicha kelgusida:

- kurashni uch bosqichli sport musobaqalari tarkibiga kiritish;
- kurash milliy sport turi markazlarini tashkil etish;
- kurash bo‘yicha respublika va xalqaro musobaqalarni doimiy asosda tashkil etish va o‘tkazish;
- jaxon standarti talablariga javob beradigan kurash kiyimlari va gilamlarini ishlab chiqishni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar belgilangan.

Kurash allaqachon ommaviy sport turlari qatoridan munosib o‘rin egallagan. Kurash bilan dunyo mamlakatlari o‘g‘il-qizlari muntazam shug‘ullanishmoqda. Ta’lim muassasalarida (O‘zbekiston, Hindiston kabilar) kurash fan sifatida o‘qitilmoqda. Kurashning ilmiy-uslubiy asoslari o‘rgatilmoqda. [3]

Kurash endilikda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlanib borishi tamoyillariga ko‘ra milliylikdan mintaqaviylikka va undan umuminsoniylikka o‘tdi. Kurash nafaqat milliy qadriyat, balki u butun dunyo xalqlariga xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyat darajasiga etdi. Zero, kurashning umuminsoniy qadriyat ekanligi uning tarixiy rivojlanish falsafasi va ma’naviy asoslarida o‘z aksini topgan.

Talim-tarbiyada milliy va umuminsoniy kadriyatlarni uygunlashtirgan xolda

olib borish barkamol avlod tarbiyasida yaxshi samora beradi. Kurash qoidalari - o'ziga xos tarzda shakllangan bo'lib, bugungi kunda ularning tarixiy asoslari saqlanib qolinmoqda. Unga ko'ra dastlab polvonlarning ismi-sharifi va ularing vatani tanishtiriladi. Bellashuvdan oldin polvonlar gilamga va raqibga nisbatan hurmat bildirib ta'zim qiladi. Kurash qoidalaridagi mazkur element o'zida katta ma'noni anglatadi.

Mualliflar kuzatishlari va tahlillari shuni ko'rsatadiki, polvonlarning raqibga, gilamga va tomoshabinlarga nisbatan hurmat bajo keltirib, ta'zim qilishi yuqori darajadagi hurmat ma'nosini bildirib sportda shaxs tushunchasining qadrlanishini anglatadi. Bu esa umume'tirof etgan axloq normalari talablariga to'laqonli mos kelib, insonparvarlikni o'zida mujassamlashtiradi.

Qoidalaridagi yana bir muhim ko'rsatkichlardan biri raqibga nisbatan qo'pollik ishlatmaslik, qoidaga zid hatti-harakatlar kilmaslikdir. "To'xta" ishorasidan so'ng kurashchi harakatni to'xtatishi xamda usullarni davom ettirmasligi qatiyan talab etiladi. Mazkur jixatlar qoidalarda o'z aksini topgan bo'lib, agar kurashchi qoidalarni buzsa hakam tomonidan ogohlantiriladi. Bundan ko'rinadiki, kurash eng avvalo tarbiya vositasi sifatida inson va uning shanini qadrlaydi. [6]

Kurashning qadriyat sifatidagi ahamiyati va o'rni faqatgina musobaqalarda emas, mashg'ulotlar jarayonida ham aks etadi. Murabbiylar mashg'ulotlar jarayonida kurashchilarni faqatgina jismoniy tayyorgarligini oshiribgina qolmay, ularni ma'naviy, axloqiy, va estetik tarbiyalab boradi. Tozalikka rioya qilish, kurash kiyimlarini, gilamni ozoda saqlash, mashg'ulotlar jarayonida tartib-intizomga rioya qilish, o'zaro hurmat ruhini shakllantirish va albatta, ustozlarga hurmatda bo'lish kerakligi kurashchilarga doimiy ravishda singdirib boriladi.

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi xalq pedagogikasi oldida turuvchi doimiy dolzarb vazifa hisoblangan. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoiti yoshlar tarbiyasiga alohida yondashuv va talablar qo'ymoqda. Hususan, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim masalalardan hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, kurash nafaqat qadriyat sifatida e'zozlanadi, balki, salbiy illatlarga qarshi kurashish va salomatlikni mustahkamlash vositasidir. Ushbu fikrlarni quyidagicha izohlash mumkin.

Bugungi kunda salbiy illatlar – kashandalik, ichkilikbozlik, narkomaniya, diniy ekstremizm va terrorizm kabilar dunyo xalqlarini tashvishga solmoqda. Mutaxassislarning xulosalariga ko'ra salbiy illatlarning bosh sababchisi bu bo'sh vaqtning ko'pligidir. Bizning fikrimizcha sport, xususan, kurash bilan muntazam shug'ullanish yoshlarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga yordam beradi. Mashg'ulotlardan so'ng shug'ullanuvchilar tabiiy ravishda dam olish va vaqtdan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Natijada yuqorida ko'rsatilgan salbiy illatlar ta'siriga tushib qolish imkoniyati yo'qoladi. Shu bilan birga mashg'ulotlarda muntazam ishtirok etish kurashchining salomatligi mustahkamlanishi va irodasi baquvvat bo'lishiga olib keladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov yoshlarga qarata "Biz xech kimdan kam emasmiz, kam xam bo'lmaymiz" degan fikrlari xam buni tasdiklaydi. Yani o'zbek xalki o'z milliy qadriyatlarini saqlagan va rivojlantirgan xolda umuminsoniy

qadriyatlari rivojiga xam o'z xissasini qo'shmoqda. [4]

Adabiyotlarni o'rganish va ilmiy-pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki kurash o'ziga xos sport turi. U faqatgina jismoniy bellashuv manzarasi bo'libgina qolmay, ma'naviy va axloqiy tarbiya vositasi hamdir. Shu sababdan kurash bilan shug'ullanuvchilar o'ziga xos ruhiy, ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega bo'ladi.

Kurashning yana bir o'ziga xos jihati uning tomoshabopligidir. Kurash musobaqalari jarayonida sportchilar tomonidan murakkab va jozibali usullar qo'llaniladi. Usullarning bajarilishi qanchalik murakkab bo'lasin, u sportchiga jismoniy va ma'naviy zarar etkazmaydi. Mutaxassislarning fikricha, kurash sport turlari ichida eng xavfsiz sport turi hisoblanadi. Kurash bellashuvlarining boshlanishidan to yakunigacha sportchilar o'zlarining ham jismoniy ham ma'naviy tayyorgarlik darajasini namoyish qilishadi. [5]

Kurash sportining ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish, uning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatidagi o'rnini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni beramiz:

- kurash inson jismoniy, ma'naviy va axloqiy tarbiyasi vositasi;
- kurash o'zining tarixiy rivojlanish xususiyatiga ko'ra uzoq davrni bosib o'tgan va xalq irodasi va intilishlari namunasi;
- qadimdan xalqimiz yoshlar tarbiyasida va ijtimoiy turmush-tarzida kurashdan keng foydalangan va uni asrab-avaylab kelgan;
- kurash o'zbek xalqi xayotida muhim o'rin tutib, milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan;
- kurash barcha xalqlar va mamlakatlar e'tiqodi, intilishlari va xususiyatlari mosligi sababli umuminsoniy qadriyat darajasida e'tirof etiladi;
- gumanizm, vatanparvarlik va halollik kurashning eng asosiy tayanch ustunlaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, kurash sport turi bo'lishi bilan birgalikda inson ma'naviy va axloqiy tarbiyasi vositasi hamdir. Kurash mashg'ulotlari va musobaqalari tom ma'nodagi falsafiy asoslarga ega. Uning muhim jihati shundaki, bunda shaxs birinchi o'ringa qo'yiladi. Shu sababdan ham kurash nazariyasi va amaliyotida inson va uning barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uyg'unlashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risi"dagi Konuni. Yangi tahriri, 2015 yil 4 sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantir chora- tadbirlari to'g'risida"gi Karori. 2017 yil 2 oktabr.
3. K.Yusupov. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. Toshkent-2005 yil. 7-8 betlar.
4. X.Bobobekov v.b. O'zbek kurashi dovrug'i.Toshkent-2002 yil, 42-bet.
5. S.Tursunov v.b. O'zbek milliy kurashi: tarixi va an'analari. Termiz – 2015. 86-bet.
6. B.Muhammedov, F.Ismoilov. Barkamol avlodni voyaga etkazish sirlari. Toshkent – 2011. 49- 50 bet.

ТЕМА ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ И ПАТРИОТИЗМА В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ

М.М.Нумановна профессор
философических наук СамГИИ

Аннотация. Данная статья посвящена анализу темы гражданственности и патриотизма в духовном наследии великого поэта, мыслителя и государственного деятеля Алишера Навои. Показана тесная взаимосвязь гражданской позиции поэта с его правовыми и нравственными взглядами.

Ключевые слова: гражданственность, гражданская позиция, личный пример, народ, справедливость, социальная политика, патриотизм

Алишер Навои относился к тем поэтам, в чьих трудах ярко выражена тема народности, в его произведениях представлена четкая формулировка гражданской позиции. Алишер Навои во всех своих произведениях подчеркивал значение личного участия каждого человека в жизни общества, призывал их быть честными, справедливыми, самоотверженными. Поэт внес большой вклад в развитие общественно-философской мысли того времени. В центре внимания его гуманистической философской концепции был человек с его интересами и потребностями. Исходя из своей философской концепции он выдвигал идеи о свободе личности и справедливого общественного устройства. Вершиной гуманистических идей Навои, главным образом облаченных в религиозную оболочку, было «идеальное» устройство государства.

Заслуга Алишера Навои состоит в том, что он развил традиции своего учителя Абдурахмана Джами и обогатил их в соответствии с социально-экономическими реалиями и условиями того времени. Но самое главное в социальной модели общественного развития Навои то, что он выдвигает альтернативные «идеальные» социальные идеи на основе дидактических примеров из истории. В частности, он идеализирует социально-политические порядки греческого завоевателя Александра Македонского. Устами великого полководца, Навои в своем произведении «Стена Искандара», рассказывает о существовании альтернативных социальных систем, где люди равноправны и свободны, пользуются плодами собственных трудов, обходясь при этом без государственных органов власти и чиновников.

В своих произведениях мыслитель выразил концепцию идеального государства, которая выражала чаяния и надежды тех общественных сил, которых не удовлетворяла существующая реальность тех времен. В них наиболее полно раскрываются взгляды мыслителя на человека как высшую ценность мироздания, получает свое обоснование идея необходимости создания достойных условий жизни, которые способствовали бы достижению счастья. Эти два аспекта гуманизма Навои — нравственный и политический, выражаются в социально-политической концепции, теоретически представляющей вполне завершенную систему политико-философских взглядов мыслителя на образ справедливого царя.

Гуманистическая идея - человек как высшая ценность - получает статус

социального идеала мыслителя Навои, лежащего в основе его философско-государственной концепции. Социально-политическое содержание гуманизма мыслителя состояло в утверждении идеала государства с упорядоченным общественным строем, поддерживаемым властью.

В основе социально-политической философии Алишера Навои лежит идея построения гармоничного и монолитного общества, основанного на принципах справедливости, равенства, самоуправления народа, которая была основным стержнем многих социально-политических учений великих мыслителей мира. Основные положения государственно-этического идеала Навои изложены в его произведениях «Смятение праведных» и «Стена Искандара», в которых Навои при помощи художественных образов как бы воплощает свои социальные идеалы, в особенности в образе и деятельности Искандара. Основная мысль в ней гласит о том, что мудрость и справедливость должны лежать в основе государственной деятельности правителей:

*Велик тот шах, который, словно щит
На страже правосудия стоит.
Как странник божий – лучший перл творца,
Так справедливость – лучший перл венца.
Велик, не знает равных среди царей,
Царь – сильный справедливостью своей. [3, с.33, 35]*

Навои не представлял общество без управления и контроля, без общенациональной политики, так как без них невозможно функционирование государства. Если не будет законов о воспитании, наказании, то в делах государства неизбежен, казнокрадство, социальные конфликты. Мыслитель признавал сложность создания государственного аппарата для решения социальных проблем общества. Искусство управления страной Навои называл «вершиной мудрости земной» [1, с.52], которое требует от государя незаурядных способностей, огромного знания и других достоинств. Не случайно, пишет мыслитель, правитель Древней Греции Файлакус (Филипп) посылает своего сына к знаменитому философу Аристотелю, чтобы тот научил его искусству управления страной.

Навои сам, будучи главой исполнительной власти в стране предпринял очень много попыток облегчить жизнь народа, помогал развитию талантов многих гениальных представителей искусства и науки. В 1480-годы за свой счет в Герате и в других регионах страны Алишер Навои построил несколько медресе, 40 рабатов (остановки для путников), 17 мечетей, 10 суфийских приютов (ханаках), 9 бань, 9 мостов. Поэт из своих личных сбережений тратил большую часть для развития науки, часто платил налоги за жителей страны, чтобы уберечь их от разорения и нищеты. Но очень часто его благотворительная деятельность, идеи и взгляды не нравились окружению правителя Хорасана, да и самому Хусейну Байкаре.

По мнению Навои, все социальные группы в обществе должны быть равны между собой. Ни одна не должна господствовать над другой. Глава государства должен следить за этим и быть гарантом социальной справедливости в обществе. Навои призывает различные слои общества консолидироваться, участвовать в

государственных делах, добросовестно выполнять свои обязанности и равноправно относиться к другим социальным слоям, сотрудничать с ними в духе согласия в деле процветания страны. Мыслитель призывает правителей тщательно изучать социальные нужды подданных, при необходимости советоваться с учёными - философами.

Мыслитель негативно относился к существующим методам управления государством, согласно которым правители стремились авторитарно управлять страной. Он призывал к коллегиальному стилю управления страной, подчёркивая достоинства формы коллективного управления - машварат.

Навои большое внимание и значение придавал рассудительности, совещательности, взвешенности в деле решения важных социально-политических задач. Только так, по мнению мыслителя, возможно выносить верные справедливые решения. Остановливаясь на отношениях правителя и служащих государственного аппарата, мыслитель призывает приближенных правителя поддерживать добрые деяния, помогать ему в выполнении кризисных задач. Если он проявляет алчность, приближённые должны направить правителя на правильный путь.

Трактовка справедливости как общегосударственной добродетели, на которой зиждутся устои человеческого общества, присуща и Навои. Справедливость у него служит для характеристики деятельного правителя, а также его нравственного облика.

Утверждение об избранности правителя богом для Навои служит дополнительным основанием для проявления властелинам земных требований. Обожествляя власть правителя-царя, мыслитель возлагает на него серьёзную социальную и политическую ответственность перед народом. Он называет шаха пастухом, призванным охранять стадо (народ) от волков (эксплуататоров), ибо Бог, сделав его избранником, возложил на него обязанность осуществлять свою волю - справедливость. Но в то же время, избранность шаха не отличает его от других людей, не даёт ему права исключительности и привилегии (гарантии отсутствия ответственности за содеянное во время своего правления), а напротив, как бы увеличивает его:

Молясь, аят Корана повторяй:

«Правитель, справедливо управляй!»

Ты помни, что судья в твоих делах –

Сам возвеличивший тебя аллах. [1, с.51]

Он призывает правителей к тому, что наказание за зло должно быть политикой шаха, а проявление человечности - методом его правления. Однако он не сводит справедливость к беспринципному милосердию, а требует, чтобы шах различал врагов и друзей, наказывая первых и поощряя вторых. Далее он советует правителям, чтобы они проявляли милосердие в своей деятельности, проявлять осмотрительность и проницательность, чтобы в его окружении не оказалось властолюбивых и жадных чиновников, способных разрушить справедливость и весь порядок, установленный в стране. Справедливость Алишером Навои интерпретирует как добро, а всякое зло – порождение несправедливости - рассматривается источником несчастья людей и всех

социальных изъянов, пороков, которые могут привести к общественно-политическим катаклизмам, гражданским войнам, восстаниям и вражде между различными социальными группами. Навои предупреждает, что шах, у которого нет справедливости и правосудия, разоряет народ и страну. Если шах направляет свою деятельность в сторону тирании, то тем самым он открывает двери большому злу.

В целом социальные взгляды Навои были прогрессивными по ряду характерных особенностей. Во-первых, он выступал с нескрываемой критикой существующих социально-политических порядков. Навои справедливо полагал, что причиной социальных конфликтов являются правящие слои общества. Во-вторых, социально - политические воззрения и идеи мыслителя имели дидактико-практическое значение, поскольку были понятны большинству населения страны. Его социальные идеи основывались на богатом политическом опыте работы в государственном аппарате. В-третьих, его социально-политические идеи были пронизаны глубоким гуманизмом, ибо в центре его мировоззрения был человек со всеми его достоинствами и недостатками. Ставя человека выше всех живых существ, возвеличивая, таким образом, человеческое право и достоинство, мыслитель не отрывал людей от реальной общественной среды. На наш взгляд именно в этом заключается суть гражданской позиции Алишера Навои, который до последнего боролся за счастье своего народа и благоденствие страны. В это можно увидеть суть патриотизма мыслителя, что должно быть стимулом для воспитания молодежи в духе любви к Родине. В целом необходимо констатировать, что социально-политические идеи и взгляды Алишера Навои сыграли позитивную роль в дальнейшем развитии общественно-политической мысли в Центральной Азии.

Библиография:

1. Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Смятение праведных. Том III. Т. 1968. 271 с.
2. Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Фархад и Ширин. Т IV. Т. 1968. 408 с.
3. Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Стена Искандара. Т VII. Т. 1968. 414 с.
4. Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Язык птиц. Т VIII. Т. 1968. 344 с.
5. Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Возлюбленный сердец. Т X. Т. 1970. 198 с.
6. Алишер Навои. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тарихи анбиё ва ҳукамо. 16 том. Т. Фан. 2000. 329 б.
7. Алишер Навои. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тарихи мулуки ажам. 16 том. Т. Фан. 2000. 329 б.
8. Алишер Навои. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Насойим ул-муҳаббат. 17 том. Т. Фан. 2001. 534 б.
9. Арипов М. Об отношении Алишера Навои к суфизму//Философские науки, 1986. №5.

10. Бертельс Е.Э. Избранные труды. М.: Наука, 1965. Т. 4: Навои и Джами. 499 с.
11. Ореховский О. И. О гражданственности и чести. Новое в жизни, науке и технике. – М.: Знание, 1975. – 58 с.
12. Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М. Бим-Бад. – М.: Большая Российская Энциклопедия, 2002. – 528 с.
13. Савотина Н.А. Гражданское воспитание: традиции и современные требования // Педагогика. – 2002. – № 4. – С. 39-44.

ZAMONAVIY AXBOROT MUHITIDA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY IMUNITETINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Muxammadiyeva Oliyana Narzullayevna

Termiz agrotexnologiyalar va
innovatsion rivojlanish instituti

f.f.d PhD dotsenti

oliya.muxammadiyeva@tiaid.uz

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalari, jumladan, internet tarmog'ida malumotlarning yoshlar ongiga manfiy tasirini oldini olish va ularning axborot oqimiga qarshi immunitetini shakllantirish borasida malumotlar va ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: globalashuv, axborot texnologiyalari tipologik xususiyat, iqtidor, yoshlar, talant, oila, jamiyat.

METHODS OF FORMING SPIRITUAL AND MORAL IMMUNITY OF YOUTH IN THE MODERN INFORMATION ENVIRONMENT

Abstract. The article provides information and scientific conclusions on how to prevent the negative impact of modern information and communication tools, including information on the Internet, on the minds of young people and how to build their immunity against the flow of information.

Key words: globalization, information technologies typological feature, talent, youth, talent, family, society.

Bugungi kun nigohida O'zbekistonning jahon hamjamiyat oldidagi mavqei har tomonlama ustuvordir. Buni nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy hayot darajasi, balki ma'naviy-ma'rifiy sohalarning tubdan isloh qilinayotganida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2019 yil 31 dekabrda e'lon qilingan Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ni misol qilishimiz mumkin. Konsepsiyada yoshlar tarbiyasida vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy imunitet, mehr-oqibatlilik, ma'suliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish lozim ekanligi aytib o'tilgan. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirish uchun umumta'lim maktablarida milliy g'oya tamoyillarini tarbiya jarayonlariga chuqur singdirish, o'quvchilarga milliy tarbiya asoslarini to'laqonli tushuntirish, ajdodlarimizning

tarbiyaga oid ta'limotlarini yoshlarga etkazishga qaratilgan "Tarbiya" fanining tashkil etilayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilm-fan taraqqiyoti va axborotlarning globallashuvi davrida mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining tub mohiyatini odamlarga tushuntirish, ularning jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashlariga erishish, jamoatchilikda ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga nisbatan pozitiv munosabatlarni shakllantirish, kishilarga etkazilayotgan axborot oqimini milliy taraqqiyot manfaatlariga mos o'zanga yo'naltirish, fuqarolarni yot mafkuralarning zararli ta'siridan himoyalash dolzarb vazifalardandir. Hozirgi kunda, internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining asosiy qismi yoshlar bo'lgani uchun - nomaqbul axborot xurujidan saqlanishimiz kerak. Chunki bunday ma'lumotlar milliy qadriyatlarimizga, urf-odatimizga, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosiga, tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim yoshlar beixtiyor axborot olish, shuningdek, tarqatish sub'ektiga aylanganini sezmagan holda, internetdan videolavhalar va milliy ma'naviyatimizga to'g'ri kelmagan ma'lumotlarni ko'chirib olib, do'stlariga tarqatmoqda. Globallashuv jarayonida axborot xuruji yoshlarimizning ongiga, jamiyat taraqqiyotiga, milliy mentalitetimizga tahdid solmoqda.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev shunday deydi: "...Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta'lim-tarbiya har - qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan etibor qaratilmoqda"[1]. Demak, mafkuraviy tahdidlarga qarshi to'g'ri ta'lim va tarbiya berib kurashish samarali hisoblanadi.

Mafkuraviy tahdidlar yoshlarimiz ongini zaharlashga qaratilgan bo'lib, ular ahloqiy buzuqlik, zo'ravonlik, individualizm, egotsentirizm g'oyalarini pinhona targ'ib qiladi. Ushbu tahdidlarning asosiy quroli Ommaviy axborot vositalari hamda butun dunyo o'rgimchak to'ri deb nom olgan "Internet" tarmog'idir. Mafkuraviy tahdidlarning nihoyatda keng qamrovli ekanligidan kelib chiqib, ularga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan mafkuraviy tarbiya orqali javob berish mumkin. Biz eng avvalo yoshlarimizga oqni qoradan - qorani oqdan ajrata olishi uchun etarli bilim berishimiz kerak, chunki yuksak salohiyatli, etuk ong va tafakkurga ega shaxsgina har qanday ma'naviy va mafkuraviy tahdidlarga qarshi tura oladi.

Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirigan bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin. Qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'z holiga tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga, qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va taffakur hukumron bo'lsa o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.[2, 335b]

Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna olish muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Internet bolalar va o'smirlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar kompyuter o'yinlari foydalanuvchilari, video va kino mahsulot iste'molchilari ularning jismoniy va ma'naviy - axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarga duch keladigan holatlar uchramoqda. Bu borada rivojlangan demokratik mamlakatlar

tajribasi alohida e'tiborga molik, ularda mazkur masalalar quyidagi vazifalar orqali hal etiladi:[4, 349b]

- yoshlar va bolalarni axborot makonida himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilikni rivojlantirish;
- media-savodxonlik, tarmoqda muloqot qilish odobini yuksaltirish;
- Internetda xavfsiz ishlashni qo'llab-quvvatlashning texnik mexanizmlarini yaratish;
- mazkur masalalarni hal etishda davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV keng ishtiroki va o'zaro hamkorligini ta'minlash va boshqalar.

Ma'lumki, Germaniyada ushbu masalalar "Yoshlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, "Inson qadr-qimmatini himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Teleradioeshittirish va telemediaxizmatlar sohasida yoshlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi davlat shartnomalari orqali tartibga solinadi. Nosog'lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan.[5, 15b] Jumladan, xalqaro amaliyotda "Kiber jinoyatlar to'g'risida"gi Konvensiya, "Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida"gi Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida"gi BMT Konvensiyasini, "Yoshlarni himoyalash to'g'risida"gi Germaniya, "Voyaga etmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida"gi Litva va "Bolalarning sog'lig'i va rivojlanishiga ziyon etkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida"gi Rossiya qonunlarini tilga olish mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qatori davlatimizning milliy qonunchiligida ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar ma'n etilishi", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish ta'qiqlanishi" belgilab berilgan. Tezkor Internet orqali qabul qilinayotgan, axborotlarning aksariyat foydalanuvchilari yoshlar hisoblanadi. Eng achinarli tomoni Daryo.uz. saytlari xabariga ko'ra, O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 milliondan oshdi. O'zbekistonda ta'lim portali hisoblangan ziyonet.uz, muloqot.uz va shu kabi jami saytlarda ro'yxatdan o'tganlar jamlanganda ham birgina ijtimoiy tarmoqqa kiruvchilar miqdoriga tenglasha olmasligi achinarli holatdir.[3, 3b]

Yoshlarda internetdan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish ularning mafkuraviy imunitetini mustahkamlashga global tarmoqda milliy axborot resurslarini ko'paytirish, yosh veb-ixtirochilarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, bu borada saytlar tomonidan turli tanlovlar sonini ko'paytirish, yoshlarni rag'batlantirish kabilar mazkur muammoning samarali echimi bo'la oldi.

Xulosa qilib shuni rivojlanib borayotgan O'zbekistonimizda yoshlarimizning bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan "notoza va noxolis" axborotlarning oldini olish, sara

ma’lumotlar topib foydalanishlari, xususan nosog‘lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to‘g‘ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo‘ladi. Internet madaniyatini avvalo kattalar, ota-onalar, asosiy o‘rinda pedagoglar o‘zlaridan boshlasalar yana ham yaxshi, kutilayotgan natijalarga erishish mumkin. Shunday ekan yoshlarga sog‘lom axborot muhitini yaratib, ular ma’naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 1-oktabr o‘qituvchi va murabbiylari bayramidagi tantanali nutqi Toshkent 2019
2. Милорадова Н.Г. Психология и педагогика: Учебник. – М.: Гардарики, 2016. – 335 с.
3. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 1309 w May 2021 www.oriens.uz
4. Шаповаленко И.В. Возрастная психология (Психология развития и возрастная психология). – М.: Гардарики, 2005. – 349 с.
5. “The new Psychology of Success” Carol S. Dweck phd from Stanford Universite 2014
6. “Exploring the Inner Landscape of a Teacher’s Life” Parker J. Palmer 2015
7. Narzullaevna, M. O., & Marjona, N. (2022). Gender Equality Guarantees Women's Rights And Opportunities. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 2, 33-36.
8. Muxammadiyeva, O., & Annaguliyev, J. (2023). The importance gender equality in government ruling. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 9, pp. 21-24).

O‘QUVCHI YOSHARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI BARQARORLASHTIRISH MAQSADIDA MASHQ QILISH MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Nizomov Behzod Raximjonovich

O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti

“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasida assistenti:

+998901032424 bnizomov24@gmail.com

O‘rinova Oqila Nizomiddinovna

O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti

“Jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha ta’lim” fakulteti

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi II-

kurs talabasi, “Sog‘lom hayot sari” ilmiy to‘garagi a’zosi:

+998917085809 oqilaurinova0@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘quvchi yosharda sog‘lom turmush tarzini barqarorlashtirish maqsadida mashq bajarish motivatsiyasi va unga ta’sir etuvchi omillar bilan bog‘liq asosiy ma’lumot va tushunchalar, fikr mulohazalar hamda tavsiyalar mujassam.

Kalit soʻzlar: jismoniy mashq, motivatsiya, mashq, harakat, sogʻlom turmush tarzi, oʻquvchi, oʻqituvchi, oila, salomatlik, shaxs.

Umumtaʼlim maktablarda taʼlimning asosiy vazifasi insonlarni ijodiy, intellektual va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan. Bu oʻquv jarayoni orqali oʻquvchilarga malakali, yaxshi shaxs boʻlib etishish, jamiyatda faol ishtirok etish, mehnatga ijobiy munosib boʻlishni oʻrgatadi va umr davomida taʼlim olish istagini uygʻotishdir. Jismoniy tarbiyada individual jismoniy tarbiya mashgʻulotlari va sogʻlom turmush tarzini qoʻllab-quvvatlash bilan bogʻliq ijobiy tajribalar taʼkidlanadi. Jismoniy tarbiyada oʻquvchiga koʻnikma, bilim va malakalar berish orqali ushbu maqsadlarni qoʻllab-quvvatlaydi, ular asosida sogʻlom turmush tarzini barqarorlashtirish mumkin.

Motivatsiya va uni targʻib qilish jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida hamohang tarza olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Motivatsiyani jismoniy tarbiyada koʻp jihatdan topish mumkin. Oʻquvchilarning baʼzilari oʻyinga bor kuchlarini sarflaydilar, boshqalari esa hech narsaga qiziqishmaydi. Boshqa tomondan, har xil sport holatlarida ayrim oʻquvchilar uchun ishtiyoq har xil boʻlishi mumkin. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi faoliyatining asosiy muammolaridan biri bu turli xil oʻquvchilarga guruhlarda motivatsiyani qanday targʻib qila olishidir. Ushbu maqolaning maqsadi mashqlar motivatsiyasi va unga taʼsir etuvchi omillar bilan bogʻliq asosiy maʼlumot va tushunchalarni taqdim etishdir.

Motivatsiya deganda nima tushuniladi? Motivatsiya atamasi lotincha *Movere* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, "harakat qilish" degan maʼnoni anglatadi. Motivatsiya tushunchasi uzoq tarixga ega boʻlib, dastlab motivatsiya koʻrinadigan xatti-harakatlar asosida oʻrganilgan. Soʻnggi oʻn yilliklarda motivatsiya tadqiqotlari asosan xatti-harakatlar ortidagi koʻrinmas psixologik hodisalarni oʻrganishga oʻtdi. Bular boshqalar qatorida qadriyatlar, munosabatlar, eʼtiqodlar maqsadlar va shu kabilardir.

Motivatsiya har doim shaxsning oʻzi baholanadigan yoki maʼlum bir qiyin ish standard yoki meʼyoriga erishishga harakat qiladigan maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyatda ishtirok etishi bilan bogʻliq. Bu, masalan, jismoniy tarbiya darsida jismoniy funktsiya testini oʻtkazish holati boʻlishi mumkin. Asosiy taxmin shundan iboratki, natija uchun shaxsning oʻzi javobgardir. Motivatsiyani xatti-harakatlarimizda ikki xil koʻrinishda koʻrish mumkin. Bu energiya manbai boʻlib, bizni maʼlum bir ishtiyoq bilan harakat qilishga majbur qiladi. Ikkinchidan, motivatsiya bizning xatti-harakatlarimizni boshqaradi. Maqsadga erishish uchun harakat qilsak, motivatsiya harakatlarimizni maqsadimiz tomon yoʻnaltiradi. Mashq qilish uchun yaxshi ragʻbatlantirilgan talaba jismoniy mashqlar mashgʻulotlarida harakat qiladi, boʻsh vaqtida ham mashq qiladi va umrining qolgan qismida sogʻlom turmush tarzini qoʻllab-quvvatlaydigan faoliyatni tanlaydi.

Oʻquvchining jismoniy mashqlarga boʻlgan ishtiyoqi qanchalik koʻp boʻlsa, u turli vaziyatlarda harakat qilishga undaydi. Shunga mos ravishda "pastdan yuqoriga" taʼsiri jismoniy tarbiya darslarida ragʻbatlantiruvchi vaziyatlarni yaratish orqali oʻqituvchi uzoq muddatda oʻquvchining oʻzini faol shaxs sifatidagi umumiy tasavvurini mustahkamlashi mumkinligini bildiradi. Ijobiy tajribalar orqali jismoniy faollik oʻquvchi shaxsining bir qismiga aylanadi. Jismoniy tarbiya oʻqituvchisi uchun

yana bir muhim muammo - bu mahorat darajasidan qat'iy nazar, barcha ishtirokchilar uchun imkoniyat yaratishdir.

Butun umr davomida mashq qilish motivatsiyasini yaratish ichki va tashqi omillarning kombinatsiyasini talab qiladi. Uzoq muddatda mashq qilish uchun motivatsiyani saqlab qolishga yordam beradigan ba'zi strategiyalar:

1. Haqiqiy va aniq maqsadlarni qo'ying: siz uchun shaxsan mazmunli bo'lgan aniq va erishish mumkin bo'lgan fitness maqsadlarini belgilang. Bu sizga ishlash va taraqqiyotingizni kuzatish uchun biror narsa beradi.

2. O'zingizga yoqadigan mashg'ulotlarni toping: o'zingizga yoqadigan va qiziqarli bo'lgan jismoniy mashg'ulotlarni tanlang. Raqsga tushish, piyoda sayr qilish yoki sport bilan shug'ullanish, o'zingiz yoqtirgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanish vaqt o'tishi bilan ularga qiziqish ehtimolini oshiradi.

3. Aralashtiring: Har xil turdagi mashg'ulotlar va mashg'ulotlarni sinab ko'rish orqali mashg'ulot tartibini xilma-xil va qiziqarli qilib bajarishga o'rganing. Bu zerikish va charchashning oldini oladi.

4. Kun tartibini yarating: kundalik tartibingizga mos keladigan muntazam mashqlar jadvalini tuzing. Barqarorlik odatni shakllantirish va uzoq muddatli motivatsiyani saqlab qolish uchun kalit hisoblanadi.

5. Yordam oling: O'zingizni qo'llab-quvvatlovchi do'stlaringiz, oila a'zolaringiz yoki mashg'ulot bilan shug'ullanayotgan do'stlaringiz bilan o'rab oling.

Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarda hayoti davomida jismoniy mashq bilan shug'ullanishda motivatsiyaning o'rni va ahamiyati, hamda uzoq davr mobaynida mashq qilish motivatsiyasini saqlab qolish uchun ayrim ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular bilan aniq maqsadga erishib sog'lom turmush tarzini me'yorlashtirishimiz mumkin.

Bular quyidagilardir:

1. Shug'ullanuvchi uchun haqiqiy va aniq maqsadlarni qo'yish.
2. Shug'ullanuvchi uchun yoqadigan mashg'ulotlarni topish.
3. Mashg'ulot tartibini xilma-xil va qiziqarli qilib bajarishga o'rganing.
4. Kun tartibini yarating: kundalik tartibingizga mos keladigan muntazam mashqlar jadvalini tuzing.
5. Artrofigingizni o'zingizni qo'llab-quvvatlovchi do'stlaringiz, oila a'zolaringiz yoki mashg'ulot bilan shug'ullanayotgan do'stlaringiz bilan o'rab oling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masharipov Y. Sport psixologiyasi. quv qullanma. T: 2016 yil
2. Masharipov Y. Umumiy va sport psixologiyasi. Xizmatlar qo'llanma. Samarqand 2017 yil
3. Eeshnazarov.J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshkarish T:2018 yil
4. A.Amirov., B.R.Nizomov., H.Musurmonov "Boshlang'ich sinflarda sport sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish" uslubiy qo'llanma Samarqand-2023 3-74 betlar.
5. Google-qidiruv sayti.

BUGUNGI YOSH AVLODNI BARKAMOL RUHDA TARBIYALASH MUAMMOLARI

Qo'chqarov Sobir Abdiraubovich

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti assistenti

tel: +998 (91) 555-25-10

email: qochqorovsobir268@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning bugungi yoshlarini barkamol ruhda tarbiyalash muammolari: yangicha, kreativ dunyoqarashga ega pedagoglarni tayyorlash va yosh avlod uchun barcha sharoitlarga ega maktablarni barpo etish xususida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, xalq ta'limi, pedagog-o'qituvchi, o'quvchi-yoshlar, kreativ, dekoratsiya, "fin ta'limi" andazasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi ta'lim tizimiga bag'ishlangan bo'lib, unda: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir"¹¹⁹, deb alohida belgilab qo'yilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni soha taraqqiyotida yangicha ufqlarni ochib berdi. Unda, jumladan, xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, moddiy-texnik va o'quv-metodik bazasini mustahkamlash, nodavlat umumta'lim maskanlari tarmog'ini yanada rivojlantirish, "Zamonaviy maktab" davlat dasturini tayyorlash kabi masalalar aniq belgilab qo'yilgan¹²⁰.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda yangi avlod pedagoglarini tayyorlashda muhim huquqiy asos bo'ladi. Qaror o'ta dolzarb va o'zaro uzviy bog'liq 3 ta vazifa – zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash masalalarini samarali hal etishni ko'zda tutadi.

Shu maqsadda azim Samarqandda O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika institutining ochilishi va faoliyatining yo'lga qo'yilishini muhim maqsad sifatida qabul qilishimiz mumkin. Shunga asosan endilikda "fin ta'limi" andazasida zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan, kreativ fikrlovchi yangi zamon pedagog-o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Inson tafakkurining quvvati va kengligi avvalo muallim tarbiyasiga bog'liq", degan so'zlari pedagog-o'qituvchilarning mashaqqatli, ayni vaqtda olijanob faoliyatiga berilgan yuksak

¹¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023). 50-modda.

¹²⁰ Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi". Toshkent, 2019. 354-355 betlar.

bahodir, desak, adashmagan bo‘lamiz¹²¹.

Eng avvalo, bugungi davr pedagoglarining dunyoqarashini yuksaltirish ustida ishlashimiz lozim. Xalq ta’limi tizimidagi pedagoglarning kamchiligi – o‘quvchi-yoshlar bilan munosabatidadir. Pedagog-o‘qituvchi dars mashg‘ulotida o‘zi ta’lim olgan davr muhitidan kelib chiqqan holda bugungi davr o‘quvchilari bilan muloqot qiladigan bo‘lsa ta’lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Pedagog-o‘qituvchi – “bizning davrimizda o‘qituvchilar qattiq olishardi”, “bizlarga o‘qituvchilar qattiq tanbeh berishardi” hamda “bizlarni, hatto, o‘qituvchilar keskin urushishardi, ota-onalarimizga etkazib bormas edik” – degan tushunchalardan butunlay voz kechishi lozim. Chunki, xohlaymizmi yo‘qmi, bugungi zamon o‘quvchisi bilan o‘tgan zamon o‘quvchisi davri butunlay boshqa-boshqa davr hisoblanadi.

Bugungi yosh ota-onalar farzandlarining bog‘cha yoshidan boshlab xorijiy tillarni o‘rganishiga alohida e’tibor qaratishmoqda! Bugungi ota-onalar farzandlarining qo‘shimcha darslar, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, to‘garaklarga qatnashishiga alohida e’tibor qaratishmoqda! Bugungi ota-onalar o‘z daromadlarining bir qismini farzandlarining qo‘shimcha mashg‘ulotlari uchun sarflashga alohida e’tibor qaratishmoqda!

Shundan kelib chiqqan holda pedagog-o‘qituvchilar har bir o‘quvchi-yoshga ta’lim-tarbiya berish jarayonida alohida kreativ yondashishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi!

Bugungi yosh avlod zamonaviy texnologiyalar asrida yashayotgan avlod hisoblanadi. Har bir o‘quvchining o‘z uyida zamonaviy texnologik vositalar etarli. Bugungi kunda har bir oilada televizor, kompyuter, telefonlar, internet xizmati, muzlatgich, sovutgich va hokazolar mavjud. Lekin o‘quvchi o‘z uyidan chiqib maktab sinf xonasiga borganda bu narsalardan uzoqlashib boradi. Maktabda o‘quvchi stol-stullar, doskadan iborat dekoratsiyalanmagan sinf xonasiga kirib keladi. Natijada o‘quvchida hech qanday sharoitga ega bo‘lmagan auditoriyaga nisbatan hurmat hissi yo‘qoladi. Deyarli bo‘sh auditoriyaning egasi, ya’ni o‘qituvchi yoki sinf rahbari o‘quvchining nazdida “e’tibor”ga sazovor emas!

Masalan, Finlyandiya maktablari mos ravishda keng mustaqillikka ega. Pokka Finlyandiya maktab jamoasining mustaqilligini quyidagicha ta’riflaydi: “Maktablar milliy va mahalliy ta’lim tashkilotlari tomonidan belgilangan tartiblar asosida boshqarilsa-da, maktab jamoasi ta’lim maqsadlariga qanday erishishlari bo‘yicha o‘zlari qaror qabul qilishadi”¹²². Maktablar qonun bilan belgilangan asosiy tartib va qoidalarga amal qilgan holda o‘zlarining boshqaruv tizimi va qarashlari asosida o‘qitish va o‘rganishni tashkil etish huquqiga ega. Bundan tashqari, ko‘p hollarda maktab byudjetini tasarruf etish, maktab uchun xaridlarni amalga oshirish va kadrlar siyosatini yuritish ham maktablar zimmasidadir¹²³.

Finlyandiya ta’lim ko‘pincha “bolaga yo‘naltirilgan” yoki “o‘quvchiga yo‘naltirilgan” deb qaraladi¹²⁴. Aslida ham ta’lim maktablar, o‘qituvchilar yoki ota-

¹²¹ Mirziyoyev Sh.M. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. Toshkent, 2019. 353 bet.

¹²² Pokka. “Special education plan”. 2015, 55.

¹²³ “Finnish Education in a Nutshell”. 2017, 12.

¹²⁴ Sahlberg. “Empowered Educators in Finland”. 2017, XIV.

onalar uchun emas, u – bolalar va yoshlar uchundir. Finlyandiyaliklar mamlakatdagi turli o‘zgarishlar yoki islohotlarni “bu bolalar yoki yoshlar uchun foydalimi?”, degan nuqtayi nazar bilan baholaydi. Pokka ta’kidlaganidek, “maktab direktorlarining o‘z faoliyatidagi asosiy maqsadi, boshqaruv yoki moliyaviy masalalardan oldin, mavjud holatda o‘quvchilar uchun eng yaxshi sharoitlarni ta’minlashdir”¹²⁵.

Agar bizning mamlakatimizda ham barcha maktablarning sinf xonalari va auditoriyalarini ta’lim sifatiga moslab dekoratsiyalashni amalga oshira olsak, bundan tashqari har bir sinf xonasiga zamonaviy texnologik, turmush uchun zarur bo‘lgan maishiy buyumlarni joylashtirsak (smart televizor, kompyuter, internet xizmati, muzlatgich, sovutgich va hokazolar) o‘sha sinf xonasi va auditoriyaga nisbatan o‘quvchida “hurmat” hissi paydo bo‘ladi. Buning ortidan o‘quvchi-yoshlarda sinf xonasi va auditoriya egasi – o‘qituvchi hamda sinf rahbariga nisbatan ham hurmat-e’tibor hissi oshishi turgan gap!

Ta’lim tizimida murakkab texnologik omillarga katta e’tibor qaratamiz-u, lekin oddiy turmush tarzi uchun zarur bo‘lgan, har bir o‘quvchi-yoshning har bir kuni va vaqti uchun kerakli bo‘lgan texnik va maishiy buyumlarning auditoriyalarda yo‘qligiga e’tibor qarata olmaymiz.

Masalan, oilada ota-ona farzandiga ertadan-kechgacha bir necha yumushlarni bajarishni buyuradi: yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, dars tayyorlash va hokazolar. Farzandlar ota-onasi buyurgan bu yumushlarni sidqidildan bajarishga harakat qilishadi. Nima uchun? Chunki, yuvinish joyida sharoit bor: yuvinish vositalari, issiq-sovuq suv va hokazolar. Dars qilishi uchun ham sharoit bor: kompyuter, internet, noutbuk, telefon, printer va hokazolar. Shuning uchun ham maktab yoshidagi yosh yigit-qizlarning barcha sharoitlar “sohibi” – ota-onalar buyurgan topshiriqlarni bajarish uchun sidqidildan harakat qilishi tabiiy holdir!

Tasavvur qiling, xuddi shunday sharoitlarni maktab hududi va sinf xonalarida ham ta’minlab bera olsak nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Bugungi kun yoshlari kechagi kun yoshlari emas. Bugungi kun yoshlari dunyoda qanday o‘zgarishlar, qanday yangiliklar, qanday voqea-hodisalar bo‘layotganligidan juda tezlikda xabardor bo‘layotgan yoshlardir. Smart televizorlar, internet orqali barcha yangiliklar, o‘zgarishlardan xabardor bo‘lib borishmoqda.

Shuning uchun ham mamlakatimiz taraqqiyoti uchun “kelajakka qo‘yilgan kapital” asosida ta’lim-tarbiya tizimida mana shunday jihatlarga alohida e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo‘lar edi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023).
3. Pokka. “Special education plan”. 2015.
4. “Finnish Education in a Nutshell”. 2017.
5. Sahlberg. “Empowered Educators in Finland”. 2017.

¹²⁵ Pokka. “Special education plan”. 2015, 31.

QORAQALPOQ XALQI DINIY E'TIQOTIDA TAVOF QILISH MASALALARI

Abatov Asqar Reymbaevich

Nukus davlat pedagogika instituti katta o'qituvchilari
askarays@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining e'tiqotida tavof qilish masalalarining tasfirlanishi, ularning mohiyati va rang-barangligi xaqida so'z boradi

Abstract

In this article, we will discuss the essence and meaning of the description of the question of Tawaf in the belief of the Karakalpak people.

Kalit so'zlar: tavof qilish, e'tiqod, din, asar, adabiyot, ta'rbiya, faktor

Keywords: tawaf, faith, religion, composition, literature, education, factor

Qoraqalpoq xalqining diniy e'tiqotida tavof qilish tushunchasi ko'p ishlatiladi. O'rta asr davrida o'rta Osiyo xalqlari jamiyatida ko'p dinlik ta'limotlar bo'lsada, mahalliy xalqning ko'pchiligi zardushtiylik diniga sig'inib olovga tavof qilgan. Sababi o't, olov maxalliy xalqning xayoti uchun g'oyat zarur bo'lib, usiz kun kechirish qiyin bo'lgan. Olov bilan aloqador urf-odatlar hozirgi qoraqalpoqlarda hanuz saqlangan. Qoraqalpoqlarda oyla boshlig'ini «o'tog'asi» deb ataydi. Tavof qilish arabcha «Tavof» so'zidan olingan bo'lib, muqaddas, tabarruk deb hisoblangan narsalarga sig'inish, joy atroflarini ziyorat etish mohiyatlarini bildiradi.[1;215] U to'g'ri ma'noda sanamlarga tavof qilish bo'lsa, o'timli ma'noda sig'inish, itoat, oyog'ida bosh urish, tan berish mohiyatlarini bildiradi. Tavof - Ka'ba atrofida aylanish jarayoni. Haj va umra marosimlari tarkibiga kiradi. Umra qiluvchilar 1 marta, hajga kelganlar 3 marta Tavof amalini ado etadi. Boshqa paytlarda ham, ayniqsa, juma kunlari va ramazon oyida, Makka axli va uning mehmonlari Ka'baga yuksak izzatehtrom yuzasidan uni tavof qiladi. Tavofning shartlari namozning shartlari kabidir. [2;21]

O'rta Osiyo xalqlarining, shuning ichida qoraqalpoq xalqining diniy e'tiqotida animizm, ruxlarga sig'inish, tavof qilish, tangrichilik, tabiyat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonat, o'simlik va jonsiz tanalarda rux, ong va tabiiy kuchlarning mavjudligi xaqidagi ta'limotni olg'a suradigan tushunchalar dastlabki diniy qarashlar hisoblanadi. Qoraqalpoqlar gaplashganda «tabinaman», «tavof qilaman»,-degan sozlarni juda ko'p ishlatadi.

Qoraqalpoq xalqi ogzaki va yozma adabiyotini tavof qilish masalalari juda ko'p uchrashadi. Masalan, «Edige» dostoni eng dastlabki kelib chiqishida kichik ertak, yo'qlov, afsonalardan boshlanib, keyin katta bir tarixiy jirga aylanib ketganligini, sababi, bunday ijodiy O'rta Osiyo xalqlarining epos yaratish tajribasida juda erta davrlardan saqlanib kelayotganligini anglash mumkin. Dostonda miflik ongning dastlabki arxaik bosqichlari totemizm qoldiqlari, olovga tavof qilish, tush ko'rish tavsiloti, arvoxnig kelishi, diniy etiqodning paydo bo'lish sirlari ilmiy jihaddan o'z echimini topadi.

Haqiqatda diniy ta'lim, diniy tushunchalarni bilish g'oyat zarur. Sababi ayrimlar yiliga bir marta qabristonni ziyorat qilishni din deb tushanadi. Ollohga sig'inishning o'rniga qablarni aylanib, ikkita qo'li bilan qabrni ushlab, keyin peshonasiga tekkizib ularga sig'inishadi. Daraxtlarga niyat qilib ip bog'laydi, havzalarga niyatini aytib tanga tashlaydi, boshiga ish tushsa qablardan najot izlaydi, balodan asraydi deb ko'z-munchoq, bo'ring tishini, tirnog'ini olib yuradi, omad keltiradi deb uyiga otning taqasi, asalarining uyasini taqib quyishadi. Bular dinimizda shirk hisoblanadi. Shirk bu Ollohga qaysidir narsani, ishlarda, ibodatda sherik qilish hisoblanadi, bu esa katta gunoh. «... Albatta shirk katta gunohdur» («Luqman» surasi, 13-oyat). Buyurilgan barcha yaxshi narsa-ibodat. Yaratgan turib, bandasiga, buyumlarga sig'inish-shirk.[3;4] Qablardi qo'l bilan tavof qilish, ushlab, o'pish, ko'zga surtish, tavof qilish ziyoratta harom ishlardan. Sababi, tavof qilish, sevish va ushlab nasroaniylarning odati [4;235].

Xaqiqatda Ka'bani tavof qilayotganimizda butun borliq kabi harakat qilamiz. Ya'ni Allohning barcha maxluqi zarradan to yulduzlar to'plamigacha Alloh taolaga hamd aytish yo'lida birlashadilar. Ka'bani tavof qilib aylanar ekanmiz, Odamdan Muhammad alayhimussalomlargacha bo'lgan payg'ambarlar qilgan ibodat aylanishini amalga oshiramiz. Ka'ba atrofida odamlar aylanishi hech ham to'xtamaydi. Qiyomat ham aynan Ka'bani aylanish istagida bo'lganlar qolmaguniga qadar qoim bo'ladi. [4;2] Tavof qilishda Ka'baga yaqinlashilgach, uning Qora tosh («Xajar al-asvad» yoki «Muqaddas qora tosh») joylashtirilgan burchagiga kelib, qo'lini unga qarata cho'zadi va imkoniyat bo'lsa o'padi. Ulug' shoirimiz O'zbekiston Qaxramoni, xalq shoiri I.Yusupov asarida dunyoga keltirgan o'zining onasini, kaaba bilan baravar ko'rib g'oyat yuqori baho, yuksak ta'rif beradi. Onaga tavof qilish, bu onaning qadrini, ahamiyatini yuqori ko'tarish maqsadida qo'llanilgan.

Yolvorinib men tavof qilsam,
Muxabbatga tavof qilaman,
Sen qo'l etmas armonimsan,
Seni doimo sog'inaman

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning diniy e'tiqodlarida tavof qilish, jon-ruxlarning borligiga ishonish, jonni ovqatlantirish, animizm masalalari hali ham izlanishni taqazo etadi, sababi ular xalqimizning urf-odatlarida, badiiy asarlari o'z ifodasini topgan.

ADABIYOTLAR

1. Z.Choriev «Tarix atamalarining qisqacha lug'ati» Toshkent Akademiya 2002
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tavof>
3. Tohir Shermurodov. «She'riyatda shirkning sharpasi». «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 1997-jil 22 avgust
4. Shamsuddin Bahauddinov «Kamil insan» Tashkent. «Maverennaxr» nashriyoti 2015.
5. Яхшиликов, Ж.Я, Н.Э Мухаммадиев. "Миллий гоё ва мафкура."

MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANISH ASPEKTIDA MEDIATA’LIM

Radjabova Manzura Xurramovna

O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti
Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “mediata’lim” va “mediamadaniyat” tushunchalarini o‘rganishda xorijlik olimlar qarashlari asosida yondoshiladi, shuningdek, ushbu tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi muhokama qilinadi. Maqolada mediata’lim natijalarini aks ettiruvchi mediamadaniyat darajasi turli yondashuvlar yuzasidan atroflicha ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: mediata’lim, mediamadaniyat, mediasavodxonlik, mediakompetensiya, mediamentalitet.

Аннотация: В данной статье к исследованию понятий «медиаобразование» и «медиакультура» применяется взгляды зарубежных ученых, а также обсуждается взаимозависимость этих понятий. В статье на основе разных подходов подробно рассматривается уровень медиакультуры, отражающий результаты медиаобразования. Эти подходы отражают взаимосвязь между рассматриваемыми нами понятиями и уровнем образования, который получает человек.

Ключевые слова: медиаобразование, медиакультура, медиаграмотность, медиакомпетентность, медиаменталитет.

Annotation: this article approaches the study of the concepts of “mediata’lim” and “mediamadaniyat” on the basis of the views of foreign scientists, and also discusses the interrelationships of these concepts. The article examines the level of mediamadaniyat reflecting the results of mediatalim in detail on different approaches.

Keywords: mediata’lim, mediamadaniyat, mediasavodkhanlik, mediacompetence, mediamentalitet.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda axborotlashayotgan jamiyatga o‘tish tizimini rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli axborotlar oqimi yuqori tezlikda butun dunyo bo‘ylab glaballashuv jarayonlarini tezlashtirib, yolg‘on axborotlar real hayot jarayonlariga zarar etkazmoqda. Ayrim soxta axborotlar tahdidlariga qarshi kurashish uchun kommunikatsiya qoidalariga e‘tibor qaratilsada, eng kuchli himoya bu mediasavodxon va mediamadaniyati kuchli bo‘lgan yoshlarni shakllantirishdir. Mediasavodxonlik, mediata’lim va mediamadaniyatni rivojlantirish ertangi taraqqiyot uchun har qachongidan ham muhimroq.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Agar biz O‘zbekiston axborot makonida milliy kontentni yaratishni qo‘ga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqib baho bermas ekanmiz, bu ishlarni xorijdan turib yaratilishiga imkon yaratib beramiz”¹²⁶.

Darhaqiqat, milliy kontent yaratish uchun bugungi kun yoshlarida o‘ziga xos tarzda mediasavodxonlik, mediata’lim va mediamadaniyatni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Mediata’limni o‘rganishdagi qarashlardan biri

¹²⁶ Sh.Mirziyoyev Vatan himoyachilar kuniga bag‘ishlangan tadbirdagi ma’ruzasi.2024yil 12 yanvar.

uni mediamadaniyat aspektida muayyan bilim manbaiga aylanishi uchun mediamadaniyat mazmunini etkazuvchi yo'l sifatida ko'rib chiqishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida "mediata'lim" tushunchasiga yagona yondashuv mavjud bo'lmaganidek, mediata'lim usullari va mazmuni bo'yicha ham yagona nuqtai nazar mavjud emas. Rus pedagogik ensiklopediyasi mediata'limni ommaviy aloqa vositalari va uning asosiy ko'rinishlarini o'rganishga qaratilgan pedagogika yo'nalishi sifatida belgilaydi. Bu yondashuv mediata'limning asosiy vazifasi sifatida "yosh avlodni zamonaviy axborot makonida hayotga tayyorlash, turli mazmundagi axborotlarni idrok etish, inson uni anglashga, uning psixikasiga ta'siri oqibatlaridan xabardor bo'lishga o'rgatish"ni ko'rsatadi.

YuNESKO hujjatlarida mediata'lim atamasi zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalarini o'zlashtirish nazariyasi va amaliyotini o'rgatish jarayonini bildiradi. Bu jarayon pedagogikaning maxsus, avtonom sohasiga kiradi.¹²⁷

Mediata'lim - bu ommaviy axborot vositalarining ta'lim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maqsadli va izchil harakatlar majmuidir. Mediata'lim - bu media kontent yaratish va ommaviy axborot vositalari orqali axborot qabul qilishni foydalanishni o'rganish jarayonidir. Ushbu yondashuv ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi muammolari ijtimoiy tarmoq chegaralaridan chiqib ketgan va ommaviy axborot vositalarining intellektual salohiyati masalasi eng keskin ko'tarilayotgan axborot asrining gullagan davrida eng dolzarb muammo hisoblanadi. Bugungi axborotlashayotgan jamiyat oldida turgan muhim vazifa axborot madaniyatini ya'ni mediamadaniyatini yaratishdir. Mediamadaniyat "shaxsning atrofdagi dunyoni ijtimoiy, axloqiy, psixologik, intellektual va badiiy jihatlarida har tomonlama rivojlantirish vositasidir".¹²⁸ Ko'pgina tadqiqotchilar mediamadaniyatining shaxsiy rivojlanishga ta'sirini ulkan kuchini tan olishadi, shu bilan birga ta'sirning har tomonlama xususiyatini ta'kidlashadi. Mediamadaniyat qabul qiluvchining kognitiv va hissiy jihatlariga ta'sir qilishi, uning dunyoqarashi, ijodiy va tanqidiy fikrlashi, estetik ongini shakllantirishga hissa qo'shishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan mediamadaniyat va mediata'lim tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Keling, mediata'lim darajalari va natijalarini aks ettiruvchi yondashuvlarga to'xtalib o'tamiz, mediata'lim darajalaridan biri mediamadaniyatidir. Bunda mediamadaniyat deganda biz moddiy va nomoddiy shaxsiy boyliklarning birligini tushunamiz. Biz ko'rib chiqayotgan tushunchalarning inson oladigan ta'lim darajalari bilan o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi bu yondashuv B.S.Gershunskiy va A.A. Nemrich asarlarida keltirilgan.

Jumladan, B.S.Gershunskiy ta'lim natijalarining umumiy pedagogik darajasi va mediata'lim o'rtasidagi bog'liqlikni qayd etadi. Muallif ta'lim natijalarining quyidagi umumiy pedagogik darajalarini aniqlaydi: savodxonlik, ta'lim, kompetensiya, madaniyat va mentalitet.¹²⁹ Shu bilan birga, muallif savodxonlik mezonini

¹²⁷ YUNESKO, 1984. Mediata'limi. Parij: YuNESKO. R. 8.

¹²⁸ Кириллова Н.Б. От медиакультуры к медиалогии. Журнал культуры. – 2011. – № 4 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.cr-journal.ru>

¹²⁹ Гершунский Б.С. Философия образования XXI века (в поисках практикоориентированных образовательных концепций) / 1998. - 432 с.

maktabgacha ta'lim bosqichi bilan bog'laydi; ta'lim mezoni asosiy o'rta ta'lim bosqichi bilan; kompetensiya mezoni o'rta maktab baholari bilan, madaniyat va mentalitet darajasi esa oliy ma'lumot darajasi bilan belgilanadi.

Mediata'lim darajalari va natijalariga yondashuvni A.A. Nemerichning tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Nemerich, mediata'lim tizimida quyidagi natijalarni belgilab berdi: "mediasavodxonlik - mediata'lim - mediakompetensiya - mediamadaniyat - mediamentaliteti".¹³⁰ Mediata'limning birinchi bosqichi natijasi maktabgacha ta'lim bosqichiga xos bo'lgan mediasavodxonlikdir. Mediata'limning ikkinchi bosqichida umumiy o'rta maktabda olingan mediata'lim natijasidir. Mediakompetensiyasi mediata'lim natijalariga erishishning navbatdagi bosqichi bo'lib, u umumiy o'rta ta'lim maktabida, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarining quyi bosqichlarida amalga oshiriladi.

Mediata'lim voqelikka hissiy va qadriyatlarga asoslangan qarash tajribasidan tashqari, olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llashga ijodiy yondashishni nazarda tutadi. Shu o'rinda mediaijodkorlik haqida aytib o'tish joizdir. Mediaijodkorlik - bu foto kontent, video kontent, audio kontentni ishlab chiqish va yaratish va hokazolar ko'rinishida namoyon bo'ladigan mediata'lim mahsulotidir.

Mediata'limning so'nggi bosqichini mediamadaniyati va mediamentaliteti egallaydi, uning rivojlanishi va uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida sodir bo'ladi. Shuningdek, kasbiy faoliyat jarayonida mediamadaniyat va mediamentalitetini shakllantirish amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish maktab o'quvchilari va talabalar bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli xil mediata'lim shakllari yordamida mumkin. Ushbu shakllarga quyidagilar kiradi: film, teleko'rsatuv qahramoni nomidan ma'ruza, maqola, intervyu, mini-senariy, hikoya tayyorlash ko'rinishidagi ma'ruzalar, suhbatlar, sharhlar, insholar, ijodiy ishlar. Vizual kommunikatsiyalar bilan ishlash, shuningdek, mediata'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, syujetlar bilan ishlash, kollajlar, plakatlar, suratga olish va hokazolarda ifodalanadi. Ushbu muammolarni hal qilish mediamadaniyatini atrofdagi dunyoning turli jihatlarini: ijtimoiy, axloqiy, psixologik, intellektual va badiiy jihatdan kompleks rivojlantirish vositasi sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi axborotlashgan jamiyatga o'tish davrida hech qaysi davlat ta'lim, fan, madaniyat sohasidagi millatlararo kommunikatsiyasiz taraqqiy eta olmaydi. Ayniqsa, siyosiy va iqtisodiy etakchilikni qo'lga olgan qudratli davlatlarning boshqa mamlakatlarga ta'siri kattadir. Ularning tarixi, madaniyati, siyosiy va iqtisodiy tizimi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini o'rganish, unga intilish kuchayib boradi. Mediata'limdan ko'zlangan asosiy maqsad mediasavodxonlikni va mediamadaniyatni shakllantirishdir. Chunki savodxonlikning aynan shu turi insonga mediamaydonda televideniye, radio, video, kinematograf, matbuot, internet, mediamadaniyatning tilini tushunishga, axborotlarni tahlil etish yo'li bilan qabul etishga, axborotlardan faol foydalanishga yordam beradi. Mediamadaniyatili odam sotsiomadaniy, siyosiy kontekstdagi medianing faoliyatini tahlil etish, baho berish qobiliyatga ega bo'ladi

¹³⁰ Немирич А.А. Медиаобразование в России: на пути к медиаменталитету / А.А. Немирич // Характер: проблемная область образования. - 2011. - № 2. - Страницы 21–27.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Sh.Mirziyoyev. Vatan himoyachilar kuniga bag'ishlangan tadbirdagi ma'ruzasi. 2024 yil.12 yanvar
2. YUNESKO, 1984. Mediata'limi. Parij: YuNESKO. R. 8.
3. Российская педагогическая энциклопедия / под ред. В.В. Давыдова. - М.: Большая Российская Энциклопедия, 1993. - 1160 с.
- 4.Гершунский Б.С. Философия образования XXI века (в поисках практикоориентированных образовательных концепций) 1998. - 432 с.
- 5.Немирич А.А. Медиаобразование в России: на пути к медиаменталитету. Характер: проблемная область образования. - 2011. - № 2. – Страницы 21–27.

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA TEXNOSFERANI YOSHLARGA YANGICHA FALSAFIY TUSHUNTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Amonov Rustam Samejonovich

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, yangilanayotgan O'zbekistonda texnosferani yangicha talqin etish hamda uni yosh avlodga tog'ri tushuntirish. Shuningdek, yoshlarda texnofobiya tushunchasini nima ekanligini o'rgatish, hamda ularda texnosferaning ochilmagan qirralarini falsafiy tahlil qilish orqali tushuntirish.

Kalit so'zlar: texnosfera, texnofobiya, Yangi texnikaviy makon, texnitsizm, vizual, konstruktiv, aqlli soha, integratsiyalashuv, differensialashuv, texnokratik.

Annotation

In this article, a new interpretation of the technosphere in the modernizing Uzbekistan and its correct explanation to the younger generation. Also, to share the concept of technophobia among young people and to explain to them the undiscovered aspects of the technosphere through a philosophical analysis.

Key words: technosphere, technophobia, New technical space, Technicism, visual, constructive, intelligent sphere, integration, differentiation, technocratic.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida "Texnitsizm" masalasini yoritish orqali texnosferani yangicha tushunish postulalaridan biri deb qarash uni yangi mazmun bilan to'lg'azadi.

Texnitsizm va texnofobiya - bu texnosferada texnologiya va texnik rivojlanishning qarama-qarshi xususiyatlarini mutlaqlashtiradigan texnologiyaga nisbatan munosabatning ekstremal shakllaridir. Texnofobiya - bu ilg'or texnologiyalar yoki murakkab elektron qurilmalardan qo'rqishni anglatuvchi falsafiy kategoriya hisoblanadi. Umuman olganda texnofobiya texnologik taraqqiyotdan qo'rqish demakdir. Sanoat inqiloblari davrida birinchi marta keng tarqalgan texnofobiya dunyoning turli jamoalarida kuzatiladi. Bu ba'zi bir guruh odamlarni o'z mafkurasini saqlab qolish uchun ba'zi zamonaviy texnologik ishlanmalarga nisbatan o'z pozitsiyalarini o'rnatishga harakat qiladilar va boshqalarni ham shunday qilishga

chorlaydilar. Ba'zi hollarda yangi texnologiyalar odamlarning odatiy e'tiqodlari yoki shaxsiy qadriyatlariga zid kelib qolganda ham shunday xatti-harakatlarni sodir etishga urinadilar.

O'zbekistonda "Yangi texnikaviy makon –texnosferani" yaratish masalasida faqat "Texnitsizm — texnofobiya" doirasida emas, balkim ulardan tashqariga chiqadigan zamonaviy texnikaga ham yangi munosabatni shakllantirish, va shu asosda sivilizatsion rivojlanishining boshqa, ya'ni texnogen bo'lmagan turiga o'tish, odamlar ongida "O'zbekona milliy texnikaviy dunyoqarashni" shakllantirish tomon yo'naltirishni ham taqozo etadi.

Texnitsizmni yangicha tushunish masalasi texnosferoadagi dizayn masalasini hal qilishda metodologik asossini bajaradi. Bu esa o'z navbatida texnika nafaqat texnologiya yoki materiallarning yangiliklari mavjudligini, balki ularning vaqt va shakl bilan murosaga kelishini ham nazarda tutadi. Boshqa tomondan qaraganda, ma'lum bir narsani vujudga keltirishda analitik faoliyatning bir qancha bosqichlarini bosib o'tadi, buning natijasida ustuvorlik obyektini ma'lum bir vaqtda zarur va tegishli idrok etish doirasiga mos keladigan asosiy atributlarni aniqlaydi.

Hozirgi vaqtda yuqori texnologiyalar o'z mahorati bilan ajralib turadi, chunki u o'zining barcha asosiy vizual, konstruktiv va nazariy tamoyillarini o'zida mujassam etgan. Bu ilm-fan, texnologiya, "aqli soha" materiallari, tuzilmalari va ishlanmalaridan foydalanish sohasidagi innovatsion loyihalarni aks ettiruvchi doimiy progressiv rivojlanishdir. Texnitsizmning barcha harakatlari ilg'or ishlanmalarni ularning hayotiga qo'shish orqali iste'molchilar uchun qulaylik va vaqtinchalik dolzarblik hissinii ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda texnosferani yangicha tushunishning yana bir jihatini texnosferani chuqurroq o'rganish va boyitishga qaratilgan gnoseologik omil – texnik ijod haqidagi nazariya hisoblanadi.

O'zbekistonda texnosfera haqida yangicha falsafiy qarashlarda ilgari suriladigan g'oya – bu texnosferani insoniylashtirishdan iborat bo'lmog'i kerak. Bu vazifani esa o'zbek milliy texnika falsafasi amalga oshiradi. Aslini olganda, o'zbek milliy texnika falsafasi, bu yangi fan sifatida texnosferaning madaniyat omili sifatidagi rolini aniqlab berishi bilan shug'ullanib, uning qonuniyatlarini ochib berishi kerak. Bunga sabab, qanchalik urinishlar bo'lsin madaniyat, texnika va texnologiyalar masalasi texnik fanlar tarafidan hal qilina olmaydi, afsuski texnika o'z doirasidan chetga chiqa olmaydi. Bu masalani echish uchun texnika fanlaridan biroz chekinib, etika, huquq, san'at, siyosat kabi fanlardan foydalanib, izlanish olib borish kerak bo'ladi. Yangi shakllangan texnika to'g'risidagi fan sifatidagi texnika falsafasi, texnologiya chegarasidan biroz chekinib, u texnika sohasida umumlashtirishning muayyan bosqichi. Texnologiyaning o'zi ham bir paytlar elementar texnika bo'lgan hunarmandchilikdan chekinib chiqqani kabi. Madaniyat nazariyasi texnika falsafasi, texnikani bilish nazariyasi, etika va estetika darajasiga ko'taradi va nihoyat, u "texnik dunyoqarash" deb bir butunlikka aylanadi.

Shuning uchun, bu falsafa texnosferaga qaraganda keng ko'lamlil va gumanitar tomonidan qarashni vujudga keltirishga yo'l ochib beradi.

Shu narsa aytishimiz kerakki, falsafa tarixida bilamizki, XXI asrning boshida tabiatshunoslikka oid fanlar jadal rivojlanib, uning natijasida falsafada evolutsiyaning

vujudga kelgan. Vaqt o'tib texnika ham falsafani yuksaklikka ko'tarib, rivojlanish darajasini oshirdi. Inson bilimi texnika va texnologiyalarni dastlabki yurishini osonlashtirgan.

Shunday qilib endi Yangilanayotgan O'zbekistonda texnika ilgari misli ko'rilmagan tezlik bilan falsafa ilmini, boshqa fan va bilim sohalari yo'llarini ochib berish vaqti keldi.

Shuning uchun, bugun O'zbek milliy texnika falsafasining muhim vazifalaridan biri texnosfera to'g'risida gumanitar tasavvurni hosil qilish va nafaqat ziyoli muhandislar o'rtasida, balki uni ijtimoiylashtirish zarur. Bu ishni amalga oshirishni eng qulay yo'li texnika falsafasini oliy o'quv yurtlarida majburiy fan sifatida o'tilishi kerak. Texnosferani insonparvarlashtirish yo'llari biri bu fan va texnikani ta'lim orqali berilishi va rivojlantirilishidir. Bu erda fan hayotning har tomonlamalilik teskarisi bo'lsa, texnosfera bu hayotdir. Lekin falsafani asl hayotga yo'naltirilgan taqdirda, hozirgi davrga singib ketgan texnosfera masalasini tadqiq qilishga to'xtalmasdan iloji yo'q. Bu ayni hayot haqiqatidir.

Yangilanayotgan O'zbekistonda texnosferaga nisbatan yangicha falsafiy dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari haqida Sh.M.Mirziyoyev: "ilm-fanning istiqbolli va yangi yo'nalishlarida: raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, robototexnika, biotexnologiya, mexanika, mashinasozlik, genetika, astronomiya, dasturlash, sanoat dizayni, kriminalistika sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish"¹³¹ orqali amalga oshirish vazifalarini yukladi.

Bulardan tashqari mamlakatimizdagi ilmiy-texnik holat va uni rivojlantirish tendensiyalari hamda so'nggi yillarda yurtimiz ilm-fanining sifati va miqdor jihatidan rivojlanishini o'rganish, mahalliy ilmiy salohiyatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash tahlil qilish borasida zarur choralar ko'riladi"¹³², -degan edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, mamlakatimizda shakllanib borayotgan texnosferaning intellektual asoslari, bir tomondan uning natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, keyingi rivojlanishi (integratsiyalashuvi va differensialashuvi) imkoniyati hisoblanadi. Manashu ishlarni amalda qo'llash uchun esa hamma ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-texnikaviy, moddiy-ma'naviy va madaniy hayotning rivojlanish qonuniyatlarini ko'rsatishda yaratilgan asos qilib olingan nazariya va amaliyotga qo'llashni uyg'unlashtirish orqali erishishimiz mumkin bo'ladi. Bularsiz mamlakatimiz aholisining ongida insonparvarlikka yo'naltirilgan texnosfera haqidagi yangi dunyoqarashni shakllantirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Кобяк, О. В. Соколова Г. Н. Техницизм и антитехнизм // Экономико-социологический словарь. — Минск: "Беларуская навука", 2014. — С. 531.

INTRODUCTION: World is a spiritual cosmic in which all the religion and culture preaches the human how to lead a successful life for getting peace within himself. Eastern civilization or Western civilization in which the aim of the human life is to live a successful life.

Man is the reflection of the past in which he leads his life from the experience what he has gained so far or from the experiences that has be gained and has conveyed to the next generation in the forms of oral or written form or history.

Buddhism: Desire is the cause for all miseries one must know how to control it otherwise life will become miserable is the principle of Buddha. He perches to the entire world how man must control himself from the desire to live a successful and happy life.

Hinduism: According to Hinduism the human is just an element to travel in this world. Human don't have rights to claim in this world. Human may be in the top of this food chain. But he is also a living things like other living beings. Human must life his life in search of spirituality.

Christianity: The virtue of sin is death and Death encloses all. So why human alone has to toil with all the sufferings and pain in this world. Human has to learn the life style from the nature. Human has to learn how to lead a happy life from the nature.

There are so many myths about spirituality. People speculate that a spiritual person does not enjoy his life and he has given away all materialistic pleasures of his life. But it is not true. Being spiritual does not mean that you have to be a monk; it means that you should not complain about what you don't have but you should be thankful for what you have. Many people anticipate that spirituality is a religious concept but the truth is that spirituality has nothing to do with religious beliefs and superstitions. It is not related to any religion. Religions teach us how to differentiate people on behalf of their caste, colour and status but spirituality teaches us how to be kind to everyone irrespective of caste. Religions give us riots and discrimination but spirituality provides us a peaceful environment.

It is very easy to identify a spiritual person. If a person is kind and gentle to everyone that means he is spiritual. A spiritual person does not blame others for his grief, his pain and his failures because a spiritual person knows that he is the sole cause of his circumstances. Being spiritual means self-assessment. When you come to know that you are the only reason of your grief or happiness then you have moved towards spirituality. People have to understand that they are the only person who can be their best friend.

Today's youth is feeling a lot of depression due to cut throat competitions in all sectors, unemployment, family and society's pressure, financial insecurities etc. Globally around 8, 00,000 people die due to suicide, around 970 million people are suffering from mental illness. These are the signs of mental disorder, the major cause of, the increasing number of mentally ill persons and suicides, is depression and lack of mental peace.

Nowadays youngsters are more ambitious and therefore they get depressed easily. Always remember a highly ambitious person cannot be happy and satisfied because he always wants more. Being ambitious is a good thing but excess of anything can be harmful. The article is not about being lethargic but about becoming a person who understands the value of eternal satisfaction over ephemeral happiness.

You can do nothing by dying but you can do a lot with this life. Suicide is not the solution it is a transfer of your grief to them who loves you very much.

CONCLUSION: Feel happy of what the life is given to you. Stop being a cry baby just be thankful for what you have. Every time you see someone in a more miserable condition than you; say thanks for not being in that condition; every time you see food in your plate; say thanks, every time you see clothes in your closet; say thanks, you have parents, family and a home to live say thanks, every day when you wake up say thanks for this new day.

Spirituality does not control your life it changes your life. Spirituality teaches you to connect with your soul. Spirituality gives you a chance to see inside you and explore your thoughts.

Work cited:

1. https://www.google.com/search?q=spritual+books+an+introduction&rlz=1C1GGRV_enUZ1107UZ1107&oq=sp&gs
2. <https://www.penguinrandomhouse.com/books/565779/introduction-to-the-spiritual-life-by-brant-pitre/>

**YOSHLARNI BAYNALMINAL RUHDA TARBIYALASH – BARQAROR
TARAQQIYOT OMILI**

Sharipov Shaxriddin Ziyadullayevich –
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida 150 dan ziyod milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 1992 yil yanvarda Respublika “Baynalmilal madaniyatlar markazi” tashkil etilgan. U jamiyatimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, milliy va umumbashariy an‘analarni ravnaq toptirish, ularning mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilishga baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, etnomadaniyat, milliy-madaniy markazlar, allomalar, madaniy aloqalar, til, millat, bag‘rikenglik, do‘stlik, hamkorlik, ta‘lim.

Abstract. More than 150 national cultural centers are operating in the Republic of Uzbekistan. In January 1992, the Republic "Center of International Cultures" was established on the initiative of the President of the Republic of Azerbaijan in order to coordinate the activities of these centers and provide them with practical and methodological support. He has been making a valuable contribution to peace and tranquility in our society, further strengthening of interethnic harmony, development of national and universal traditions, and wide promotion of their essence.

Key words: Central Asia, ethnic culture, national cultural centers, scientists, cultural ties, language, nation, tolerance, friendship, cooperation, education.

O‘zbekiston polietnik davlatlar qatoriga kiradi. Asrlar davomida bu erda o‘zbeklar bilan yonma-yon tojiklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, uyg‘urlar va boshqa ko‘pgina xalqlarning vakillari ahil va inoq yashab kelishgan. Shuni

aytish mumkinki, mamlakatimizning ko‘pmillatligiga xalqimizning ochiqko‘ngilligi va mehmondo‘stligi ham sabab bo‘lgan. Bu mintaqadan o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li esa iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy aloqalarning kengayishiga xizmat qilgan. Hozirgi kunda yurtimizda 150 dan ziyod milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 1992 yil yanvarda Respublika “Baynalmilal madaniyatlar markazi” tashkil etilgan. U jamiyatimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, milliy va umumbashariy an‘analarni ravnaq toptirish, ularning mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilishga baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Tashkil etilayotgan ko‘plab tadbirlar, konsert dasturlari, kechalar, festivallar, ko‘rik-tanlovlar, konferensiyalar Shular jumlasidandir. Masalan, “O‘zbekiston — umumiy uyimiz”, “Vatan yagonadir, Vatan bittadir”, “Qudratimiz — birlik va hamjihatlikda” kabi shiorlar ostidagi festivallar ko‘p millatli aholimizning chinakam do‘stlik bayramiga aylanib ulgurgan, desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Har yili milliy ayyomlarimiz ham markazimiz boshchiligida milliy madaniy markazlar bilan birgalikda munosib nishonlanmoqda. Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, bugun O‘zbekiston televidenie va radiosida 10 tilda (o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman, tatar, uyg‘ur, ozarbayjon) ko‘rsatuv va eshittirishlar olib boriladi. Gazetalar 10 tilda (o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz), jurnallar esa 8 tilda (o‘zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman) bosiladi. O‘rta va oliy ta’lim 7 tilda: o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish yo‘lida ta’lim sohasi ajralib turadi. Ta’lim- ijtimoiy hayotda kechadigan jarayonlarni o‘zida aks ettiradigan barometrdir [1, 68]. Bu jarayonda ta’lim yangi avlodning o‘zligini anglashida va ayni paytda jamiyatning faol ishtirokchisi bo‘lishida juda muhimdir. Bugungi kunga kelib, 10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 maktabda tojik tilida, 52 maktabda turkman tilida, 40 maktabda qirg‘iz tilida, 7 maktabda koreys tilida ta’lim berish yo‘lga qo‘yilgan [2, 360]. Masalan, bugungi kunda mamlakatimizda 40 ming nafardan ziyod ozarbayjon millatiga mansub aholi istiqomat qilayotgan bo‘lsa, ularning bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari, ilmiy salohiyatlarini namoyon etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ular orasida ko‘plab olimlar, fan doktorlari, davlat va jamoat arboblari bor. O‘zbek va turkman xalqlarini esa umumiy tarix, mushtarak madaniyat va qadriyatlar, o‘xshash til va urf-odatlar o‘zaro bog‘lab turadi. Mamlakatimizda turkman tilida dars beriladigan 44 maktab faoliyat yuritib, 8 mingdan ortiq bolalar ta’lim oladi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida turkman filologiyasi yo‘nalishida mutaxassislar, Ajiniyoz nomidagi Nukus institutida turkman tili o‘qituvchilari tayyorlanadi. O‘zbekiston ta’lim muassasalarida Turkmanistonning 720 fuqarosi tahsil oladi. Birgina Nishon, Mirishkor va Muborak tumanlarida 50 mingdan ziyod turkman millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Turkman milliy madaniy markazi viloyat bo‘limi tomonidan o‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro totuvlik, do‘stlik munosabatlarini yanada rivojlantirish maqsadida qator tadbirlar o‘tkazib kelinadi. Ayni paytda Qarshi davlat universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti va Toshkent axborot texnologiyalari

universiteti Qarshi filialida 70 nafarga yaqin talaba, Koson pedagogika-iqtisodiyot va Qarshi tibbiyot kollejlari 170 nafardan ortiq o'quvchi qo'shni Turkmanistondan kelib o'qiydi.

O'zbekistonda tojik tilida ta'lim beriladigan 245 ta maktab (ulardan 55 tasida darslar to'raligicha tojikcha tashkil qilingan) mavjud. To'rtta davriy matbuot nashri, beshta teledastur va 30 ta radio dastur tojik tilida taqdim qilinadi. Samarqand davlat universitetining akademik M.Osimiy nomidagi Tojikiston texnika universiteti bilan hamkorligi ta'minlangan.

Yurtimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan O'zbekiston fuqarolari qatorida turli millat vakillari davlat rivojiga qo'shgan hissasi uchun munosib ravishda taqdirlanib kelinmoqda. „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan 99 nafar o'zbekistonlik mukofotlangan. Shulardan 83 nafari o'zbeklar, 16 nafari mamlakatimizning ko'p millatli yagona oilasining boshqa millatga mansub vakillaridir. „Do'stlik“ ordeni bilan jami 2550 dan ortiq kishi mukofotlangan bo'lib, shulardan 1200 ga yaqini o'zbek va 1300 dan ortig'i mamlakatimizning turli millat vakillari hamda xorijiy davlatlar fuqarolaridir. „O'zbekiston Qahramoni“ unvoni 95 nafar kishiga berilib, „Oltin yulduz“ medali bilan taqdirlandi. Shulardan 81 nafari o'zbek millati, 14 nafari O'zbekistondagi boshqa millat va elat vakillaridi [3, 59]. 1992-yilda tashkil etilgan Litva madaniyat markazi jamiyat a'zolari yadro fizikasi bo'yicha mutaxassis, O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi, professor Vitautas Bigalis, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassom Algirdas Chatkauskas, Mirzacho'lni o'zlashtirishda fidokorona mehnat qilgan Gennadiy Dovidaytislar yurt ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Yurtimizda 1999-yil 10-iyundagi 2326-sonli Farmoniga asosan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'asis etilgan edi. Bu mukofotning 98 sovrindoridan 7 nafari qoraqalpoq, 2 nafari tojik, 1 nafari qirg'iz, 1 nafari qozoq va 1 nafari rus, jami 12 nafari turli millat vakillari ekani davlatimizning adolatli milliy siyosat, xalqimiz bag'rikengligining yorqin ifodasidir [4, 149].

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning qozoq millatiga mansub 600 dan ziyod fuqarosi yuksak davlat va unvonlariga sazovor bo'lgani ham ularning mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib, xalqimiz orasida hurmat qozonib, keng e'tirof etib kelinayotganining tasdig'idir. Yurtimizning Sirdaryo viloyatida bugungi kunda rus millatiga mansub Panyuxov, arman Sarkisov, nemis Gamburg, tojik Erkaboyev, qozoq Ukuboyev, mesxeti turk Pashali Agaliyev, qirg'iz Usmonov kabi iste'dod vakillari viloyat iqtisodiyoti va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqdalar [5, 4]. Xalqimizning birligi va jipsligini mustahkamlashga munosib hissa qo'shayotgan yana 20 nafardan ziyod tashabbuskor va fidoyi yurtdoshlarimizga Vatanimizning yuksak mukofotlari topshirildi. Ularning orasida Navoiy viloyati Konimex tumanidagi qoraqalpoq milliy madaniy markazi faoli Nurkul Bazarbayeva, Respublika baynalmilal madaniyat markazi direktorining o'rinborsari Sergey Mironov, Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani tatar milliy madaniy markazi raisi Anisya Gataullina, Sirdaryo viloyati rus milliy madaniy markazi raisi Faina Golubsova, Xorazm viloyati qozoq MMM raisi Po'latbek Izyumov, Jizzav viloyati koreys MMM raisi Oleg Kim, Farg'ona viloyati yahudiy MMM raisi Semyon Abdurahmonov, Toshkent shahridagi litva MMM raisi Lidiya Dovidaytis, Samarqand viloyatidagi nemis MMM raisi Natalya

Kayzer, Nukus shahridagi „Slavutich” ukrain MMM raisi Olga Mironets, Qashqadaryo viloyatidagi tojik MMM raisi Abdurasul Ergashev kabi yurtdoshlarimiz taqdirlandi [6, 303].

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik sohasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Bu borada dunyo davlatlariga o‘rnak bo‘ladigan darajadagi huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Adabiyotlar

1. Musayev O. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. –T.: „Istiqlol nuri”, 2016. 68-bet.
2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini „Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yil”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha”- ilmiy-uslubiy risola, T.: „Ma’naviyat”, 2017. 360-bet.
3. O‘zbekiston – umumiy uyimiz.-T.: „O‘zbekiston”, 2016. 58-59-betlar.
4. Ochirdiyev A. O‘zbekiston –bag‘rikeng diyor. -T.: „O‘zbekiston”, 2007. 149-bet.
5. Cho‘lda yaratilgan Guliston //Yagona oilada. Ijtimoiy siyosiy, madaniy-ma’rifiy jurnal, 2012. 4-bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -T.: „O‘zbekiston”, 2017. 303-bet.

MULTICULTURAL COMMUNICATION

Babayeva Shelale Rasim, PhD on Psychology

Azerbaijan University of Languages, Psychology Department
phone: +994552303203, email: shela357@yahoo.com

Key words: multiculturalism, communication, misunderstanding, cultural awareness

Abstract: Multicultural communication is a dynamic and essential aspect of contemporary society particularly in a globalized world where interactions between individuals from diverse cultural backgrounds are commonplace. This thesis is about intricacies and challenges of multicultural communication, highlighting the importance of understanding cultural differences in language, nonverbal cues, values and norms. Effective multicultural communication involves not only linguistic proficiency but also cultural sensitivity, empathy and the ability to adapt one’s communication style to accommodate diverse audiences. Though the case studies and theoretical frameworks, this thesis examines the impact of cultural differences on communication processes, including misinterpretations, stereotypes, and misunderstandings. By embracing diversity and promoting effective multicultural communication, individuals and organizations can build strong relationships.

Multicultural communication refers to the exchange of messages between people from different cultural backgrounds. Jeffrey Scott Mio [2], G.Hofstede [1], Milton Bennet [3] and others explored psychology of multiculturalism, multicultural

communication. It encompasses the ways in which individuals from diverse cultural backgrounds interact, share information, and understand one another. Here are some key aspects:

1. Cultural awareness: Understanding one's own cultural background as well as being aware of and respectful towards the cultural norms, values, and communication styles of others.

2. Verbal communication: Different cultures may have varying linguistic styles, accents, and dialects. Effective multicultural communication involves being mindful of these differences and adapting one's speech to ensure clarity and understanding.

3. Nonverbal communication: Body language, gestures, facial expression and other nonverbal cues can vary significantly across cultures. Being sensitive to these cues can vary significantly across cultures. Being sensitive to these cues and understanding their meanings is crucial for effective multicultural communication.

4. Listening skills: Actively listening to others from diverse cultural backgrounds is essential for building rapport and understanding. This involves not only hearing the words being spoken but also understanding the cultural context and underlying meanings.

5. Empathy and respect: showing empathy and respect, openness towards people from different cultural backgrounds fosters trust and mutual understanding. It's important to approach multicultural communication with a mindset of curiosity and willingness to learn.

6. Adaptability: Being adaptable and flexible in communication styles and strategies is necessary when interacting with individuals from diverse cultural backgrounds. This may involve adjusting one's tone, language, and behavior to accommodate cultural differences.

7. Awareness of stereotypes and bias: Recognizing and challenging stereotypes, biases, and prejudices is essential for fostering inclusive and effective multicultural communication. Being mindful of one's own biases and actively working to overcome them is key.

8. Conflict resolution: Conflicts may arise due to misunderstanding or cultural differences. Effective multicultural communication involves employing conflict resolution strategies that promote understanding, compromise, and mutual respect.

Overall, multicultural communication is about bridging cultural divides, fostering mutual respect and understanding, and building connections across diverse communities. It requires awareness, empathy, adaptability and a commitment to effective and inclusive communication practices.

One of my observations was at the university, where students should work on a project as a team. The students were from different cultural backgrounds. During a meeting, one team member, Ahmed, from a culture where it's considered respectful to avoid direct disagreement, listened silently. However, another team member, from a culture that values open discussion and debate, expresses her concerns about the proposed approach. Ahmed's silence might be interpreted as agreement, but his body language showed his disagreement. So, the team members asked his opinion directly. Ahmed, feeling respected and valued, shared his concerns, which lead to a fruitful

discussion where different perspectives are considered, and the team ultimately decides on more inclusive approach.

So, here effective multicultural communication involves:

1. Recognizing and respecting cultural differences in communication styles.
2. Being sensitive to nonverbal cues and body language.
3. Encouraging open dialogue and ensuring that all team members feel empowered to express their opinions.
4. Actively seeking clarification to prevent misunderstandings and promote inclusivity.

By navigating these cultural differences with empathy and understanding, the team can leverage its diversity to achieve better outcomes.

1. G.Hofstede. Cultural dimensions.
<https://my.liuc.it/MatSup/2016/A86047/3%20Multicultural%20schools.pdf>

2. Jeffrey Scott Mio and others. Multicultural psychology: understanding our diverse communities. Oxford University Press, 2012

3. Milton J.Bennet. Intercultural communication: A current perspective.
https://www.researchgate.net/publication/246501677_Intercultural_Communication_A_Current_Perspective

EXPLORING THE DISTINCTIVE FEATURES OF LEARNING MANAGEMENT SYSTEMS IN ENHANCING ACADEMIC WRITING IN HIGHER EDUCATION

Musoeva Aziza Botirovna

Samarkand state institute of foreign languages,
Associate professor (PhD), Email: musoevab@uwec.edu

Abstract

This article offers a comprehensive examination of Learning Management Systems, specifically Canvas, that supports university students, teachers, and researchers in coordinating learning and teaching activities. Proposing the implementation of this type of LMS in Uzbekistan would be beneficial, as recommended. This article provides a comprehensive analysis of the Learning Management System (LMS) and highlights the significance of Canvas in improving students' academic writing abilities. Uzbekistan's universities should consider implementing Canvas to better support students, professors, and researchers.

Keywords: LMS (Learning Management Systems), Canvas, academic writing, research competence, online learning, assessment, discussion board.

Introduction

While working as a visiting scholar at the University of Wisconsin Eau Claire in the United States of America, the concepts presented in this article were developed. As a visiting scholar and FEP finalist, my aim was to acquire valuable insights through practical experiences in the United States. Throughout the academic year of 2024, I accumulated a range of experiences and insights that led to the creation of this paper, emphasizing the importance of the LMS, specifically Canvas, in universities in

Uzbekistan.

Learning Management Systems are becoming a key method for structuring online learning and teaching activities. They provide educators with resources to generate, host, and oversee a variety of products for learners. The wide range of contemporary Learning Management Systems is vast and requires thorough study to make an informed decision. The article analyzes the efficiency and user-friendliness of the Canvas for both instructors and students.

Nowadays, educational institutions around the world are increasingly utilizing online platforms. In the past, traditional on-site learning was the norm, but in recent years, there has been a significant shift towards more flexible teaching and learning methods. Researchers have noted the transition from face-to-face to online education [1, 5]. The exclusive reliance on physical classrooms for knowledge sharing and lectures is no longer the only choice [2, 10]. As a result, educational institutions globally are focusing on delivering top-notch services in the digital realm.

According to PR Newswire, Canvas facilitates seamless integration of the material, tools, and services desired by instructors and students using accessible cloud-based technology. Canvas is the most user-friendly, configurable, versatile, and dependable learning platform, leading to quicker and more extensive adoption compared to other LMS options. Ultimately, investing in 21st-century educational technology simplifies the process of teaching and learning [3, 2].

Instructure, Inc. is a prominent software-as-a-service (SaaS) technology business that develops software designed to enhance users' intelligence. Instructure developed Canvas, Gauge, Arc, and Bridge with the goal of enhancing people's potential via technology. These tools allow businesses to design, deliver, and oversee interactive in-person and online learning events effortlessly. Instructure has facilitated connections between millions of teachers and learners at over 3,000 educational institutions and organizations globally [3, 1].

Educators must choose the suitable online platform or Learning Management Systems (LMS) to provide online lectures, lessons, and courses, and to engage with students and trainees. Currently, developers provide a diverse selection of Learning Management Systems (LMSs). UNESCO has recommended a selection of over 10 Learning Management Systems (LMSs) and up to 11 MOOC platforms [4, 1].

D. Turnbull et al. describe a Learning Management System as an online learning system used for creating, organizing, and displaying course contents [5, 10]. L. Reid views LMS as a course management platform that allows individuals to get education regardless of their physical location [1, 7]. An LMS generally streamlines and enhances the teaching and learning process. Educators have the ability to create versatile, engaging, and significant instructional activities and resources. Students may engage and cooperate with course participants from desktops or mobile devices.

Modern Learning Management Systems (LMSs) differ in their kinds and features, with some using cloud computing and not necessitating extensive programming expertise, while others are on-premises software that need particular programming abilities and database array proficiency [6, 260].

The University of Wisconsin Eau Claire utilizes the Canvas platform for many classroom operations. Teachers use it well, particularly in enhancing pupils' academic writing skills. The platform offers a diverse range of options to both educators and

students. Teachers often use discussion boards for generating ideas and giving homework, while students are often required to do research before providing responses. Students enhance their academic writing abilities and prepare to become proficient in research in the future.

Another crucial aspect of an LMS is overseeing learners' advancement and monitoring. It is achievable by using a proficient assignment system [7, 65]. Teachers need opportunities to create activities that align with their professional requirements. Common online assignments include of discussion boards, exams, quizzes, case-based tasks, wikis, portfolio development, and more [8, 17]. Canvas allows users to generate many forms of quizzes, exams, and debates.

Canvas developers provide the flexibility to build both scored and non-graded projects for individual students as well as groups of students. They respond in many formats, such as typing text, uploading movies, audios, files, or photographs as needed. Students may include online links to provide support for their work or offer supplementary information. The teacher is authorized to provide feedback on the work to each student in the form of text, a file, or media. When a teacher posts a remark, a student receives an email notification.

Canvas provides a variety of conversation features including threaded responses, mandatory posting before viewing replies, podcast feed integration, graded discussions, liking options, and adding tasks to student to-do lists. Participants can choose to share their responses through video and audio formats, which boosts online interaction and productivity. Moreover, Canvas is the sole platform that enables the submission of Google Apps assignments.

Canvas LMS developed discussion forums, partnerships, and conferences without grades. The collaboration entails utilizing web-based technologies like Google Docs for working together and sharing ideas. Canvas provides a unique peer-reviewed forum feature where students give feedback on each other's comments without giving grades. The LMS features a People tab where participants can view all individuals enrolled in the course, along with their profiles containing both professional and personal information [9, 185].

There is a growing need for educators to utilize many resources, and Canvas is dedicated to making it easier to connect with most of them. You may use programs like as Jam board, Flip Grid, Turnitin, Ed puzzle, and others. To improve the course material, one method is to integrate courses, presentations, websites, and other resources from Canvas Commons, which is a store of learning objects [9, 189].

Canvas provides two unique tools: Syllabus and Modules. This first choice is created to smoothly incorporate with different assignments, grades, and calendars. Teachers may simply connect to crucial components like Modules using the interactive features. Students are promptly provided with their timetables and deadlines at the beginning of the course, allowing them to organize their study more effectively. The curriculum is available on the Course Navigation Bar for the whole length of the course [9, 187].

Online educational resources are crucial for enhancing research skills and fostering research capabilities in instructors, professors, and university students, as shown by the study [10, 219].

This article explores the rationale for selecting the LMS Canvas in Uzbekistan,

outlining its functionality and user-friendly nature. This platform's major goal is to provide a gradual method for enhancing students' academic writing abilities. Canvas, an LMS used at institutions in Uzbekistan, aims to improve the lack of research quality and promote research across many disciplines. Its goal is to provide students and teachers with essential skills and information.

References

1. Reid, L. (2019). Learning Management Systems: The Game Changer for Traditional Teaching and Learning at Adult and Higher Education Institutions. *Global Journal of Human-Social Science: Linguistics & Education* 19 (2), 1-14.
2. Sims, L. (2021). Online Learning Equipment. *Effective Digital Learning*, 9-17. https://doi.org/10.1007/978-1-4842-6864-3_2
3. Canvas Used by Majority of the Top 25 Online Bachelor's Degree Programs Ranked by U.S. News World Report: Four of the top five online higher education programs use Canvas as their learning management system, PR Newswire, 2018.
4. UNESCO (2021). Distance learning solutions. [Online]. Available: <https://en.unesco.org/covid19/educationresponse/solutions>
5. Turnbull, D., Ritesh Ch., Jo L. (2019). Learning Management Systems: An Overview. *Encyclopedia of Education and Information Technologies*. Springer Nature. https://doi.org/10.1007/978-3-319-60013-0_248-1
6. Evangelista, E. (2021). A Hybrid Machine Learning Framework for Predicting Students' Performance in Virtual Learning Environment. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, 16(24), pp. 255–272. <https://doi.org/10.3991/ijet.v16i24.26151>
7. Mirzaee, A.R., Shabaninia, F. (2020). Review of E-Learning Modern Systems. *Interdisciplinary Journal of Virtual Learning in Medical Sciences* 4(2), 62-74.
8. Fuster, B. (2021). 9 Common Types of Assignments in Online Courses.
9. Khatser et al., (2022) Online Learning Through LMSs: Comparative Assessment of Canvas and Moodle. <https://doi.org/10.3991/ijet.v17i12.30999>
10. Musoeva, A. The importance of academic writing in improving students' research writing. International scientific and practical online conference "Modernity of humanitarian sciences teaching scientific directions", 218-221 pp.

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA SAN'ATNING O'RNI

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

“Alfraganus university”

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

+998990347902

ORCID: 0009-0002-8931-1341

Annotatsiya. Maqolada, san'atning yoshlarning ongi tafakkuriga ko'rsatadigan ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlari to'g'risida falsafiy fikr-mulohazalar yuritilgan bo'lib, san'atning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. San'at, estetik ong, go'zallik, postmodern san'at

Abstract. The article contains philosophical opinions about the positive and negative aspects of the influence of art on the minds of young people, and the specific characteristics of art are analyzed.

Keywords. Art, aesthetic consciousness, beauty, postmodern art.

Inson hayotida san'atning o'rni mavjud, san'at ijtimoiy ong shakli sifatida ham qadimiy xususiyatga, ham axloqiy-estetik mohiyatga ega. San'at insoniyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanadi, taraqqiy etadi, zamon bilan hamnafas yangi yo'nalishlari paydo bo'ladi. San'at tarixining paradigmalarida estetik mezonlar bir butunlikni tashkil etib, o'z davrining turli sohalarida namoyon bo'lgan. San'atda o'z davrining makon va zamon muammolari ham aks etgan, bir tarafdin o'z davri uchun xizmat qilgan, bir tomondan yangi estetik paradigmalar vujudga kelgan. Estetika tarixida beshta go'zallik paradigmalari shakllangan, har biri o'ziga xos uyg'unlik kasb etadi. Aytish mumkinki, san'atga e'tibor, uning imkoniyatlaridan unumli va maqsadli foydalanish dolzarbdir. Ayniqsa mamlakatimizda milliy g'oyani yoshlarning ongi tafakkuriga chuqur singdirishda, yoshlarda ijodkorlikni shakllantirishda, ularning qalbida vatanparvarlik, insoniylik, ma'naviyatni yuksaltirishda san'atdagi turli sohalariga, san'at yo'nalishlariga muhim vazifalar yuklatilgan.

Hozirgi kunda davlatimizda, Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan "aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish" belgilandi. [1.282] Mazkur strategik rejada belgilangan ustuvor vazifalardan ma'lumki, san'at har bir kishining ma'naviy, axloqiy, estetik ongi tafakkurini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Inson paydo bo'libdiki, go'zallikka shaydo, go'zallikdan bahramand bo'ladi, go'zallikni yaratadi, go'zallikni sevadi, go'zallikni qadrlab keladi. San'atdagi go'zallik insonni o'ylanishga, o'zligini anglashga, insoniy his tuyg'u, muxabbat, qalb pokligiga erishishga olib keladi.

Ammo, san'at kishi ongi tafakurida chuqur salbiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, postmodern san'at asarlari qoidalar va obyektlarsiz yoki oddiy cheklovlarsiz ishlaydi. Bu jarayon stilistik norma va usullarning xilma-xilligi bilan namoyon bo'ladi. Postmodern san'at asarida badiiy shakllar emas, balki bu shakllarning o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Diskret rasmlar va texnologiyalarni birlashtirish kun tartibiga manba yoki mualliflik g'oyasini olib keladi. [2.180]

Postmodern san'at o'zidan oldingi boshqa yo'nalishlardan badiiy yaratilishidan ko'ra uning yaratilish kechimiga; muallifga qaraganda o'quvchilar ommasiga; verbal (og'zaki)likka nisbatan vizuallikka ko'proq e'tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Postmodern san'at asarlari dunyoning betartib (xaos)ligi, boshboshdoqligi, o'tkinchi va ongsizligidan iborat postmodern manzarasini berish uchun ko'proq tasavvur, tush, ongsizlik singari holatlarni o'z tasvir obyekti va vositasiga aylantiradi.

Postmodern san'at asarlari erotik va pornografik informatsiyalarga boyligi, bir jinsdagilar orasidagi nikohlarni targ'ib qiluvchi yoki odatiy hol sifatida qaralishi, yalang'och erotizm singari g'oyalarni ham targ'ib qilishi bilan xarakterlanadi. Bu esa estetik ongning toptalishiga xizmat qiladi. Postmodernizm an'anaviy estetik qadriyatlarning qadrsizlanishi ortidan qadrsiz bo'lgan madaniy hodisalarga qadrlashga urinadi.

Postmodern ko'rsatuvlarning asosini ko'ngilochar shou xarakterli, tomoshabop va uzluksiz davomli sifatlari tomoshachilar auditoriyasining ruhiyatini ham o'zgartirib yubordi. Dunyoning globallashuviga olib kelgan texnik hamda axborot vositalarining shiddatli rivoji inson ruhiyati va estetik ongi tafaakurining ham globallashuviga olib keldi. (M.Xolbekov) [3.3]

Yangi tushunchalar paydo bo'lgan bugungi san'atda postmodernizm endi tez-tez eslanadigan falsafiy asosga aylansada, keng meqyosda ijro etiladigan yangi badiiy yo'nalishlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi jamiyat tomonidan postmodernizm san'atini idrok etishda uchraydigan muammolar hammaga ma'lum, madaniy eklektizmda namoyish etilgan zamonaviy asarlarning estetik bahosi shaxs estetik ongi va madaniyatining shakllanganlik darajasi bilan belgilanishi lozim, chunki, san'at o'zining oldiga quyilgan maqsadlarini qanchalik o'zgartirmasin, birinchi o'rinda inson manfaati yotishi lozim. San'atning asosiy vazifasi inson va uning ma'naviy, ruhiy olami muammolari bilan shug'ullanmas ekan, qanchalik ahamiyatli bo'lmasin, bunday san'at turlari ham, san'at yo'nalishlari ham amaliy ahamiyatini yo'qotib tarix sahifalariga aylanib boraveradi.

Xulosa qilib aytganda, san'at yoshlarning ma'naviy, axloqiy-estetik xususiyatlarini yuksaltirishga xizmat qilishi lozim. Birinchidan, san'at sohalari o'z majburiyatlarini sidqidildan bajarishlari, san'at va badiiy ijod qonuniyatlarini chuqur idrok etishlari, ya'ni san'atning immanent jihatlarini bilishi zarur, ikkinchidan, san'at sohalari va yo'nalishlarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish hamda amaliyotga taqdim etishda muvaffaqiyatga erish kerak, uchinchidan, san'atning salbiy va ijobiy ta'sirini sabab va oqibat aloqadorligida ilmiy tahlil qilish, ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Demak, san'atning barkamol avlod tarbiyasida muhim funksiyalarni bajarishi bu dalillangan reallikdir. San'at va go'zallik vositalarida yoshlarning ongi tafakkurini, ma'naviyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Tursunkulova Sh.T. San'at va estetik ongning sinergetik xususiyati. – S.: SamDCHTI, 2021. – 186 b.
3. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – T.: Mumtoz. 2013. – 3 b.

BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT MUTAXASSISLARINING O‘RNI.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası” professori:

Eshnazarov Jo‘raqul +998937221829

O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti
“Jismoniy madaniyat, Sport va maktabgacha ta’lim” fakulteti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi
II- kurs talabasi, “Sog‘lom hayot sari” ilmiy to‘garagi a‘zosi:
Isroilova Zebiniso Mamadiyor qizi

Kalit so‘zlar: jismoniy madaniyat, bolalar sporti, BO‘SM, boshlang‘ich ta’lim, umumta’lim maktab, sport o‘yinlari, jismoniy rivojlainish, mutaxassis, talyyorlash, ta’lim, ommaviy sport.

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar sportini rivojlantirish va yuksak mahoratli kadrlar tayyorlashda jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarining alohida o‘rni, murabbiy sport mashg‘uloti va musobaqasi jarayonida bolalar oldiga sport bilan bog‘liq bo‘lgan muammoli masalalarni qo‘yish va bu muammolarni echishda har bir bolaning o‘zini mustaqil izlanishiga odatlantirish, natijada sportchi sport sohasida yuqori ko‘rsatgichlarga erishish kabilar haqida fikr mulohazalar, tavsiyalar keltirilgan.

Abstract: in this article, the special role of physical culture and sports specialists in the development of children's sports and the training of highly skilled personnel, in the course of sports training and competition, the coach will present problematic issues related to sports to children and solve these problems. Opinions and recommendations are presented about how to accustom a child to independent research, as a result of which the athlete achieves high performance in the field of sports.

Key words: physical culture, children's sports, primary education, primary education, general education school, sports games, physical development, specialist, training, education, mass sports.

Bolalar sportini rivojlantirish va yuksak mahoratli kadrlar tayyorlashda jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarining alohida o‘rni bor. Chunki yosh bolalarning sportga bo‘lgan qiziqishlarini anglagan holda ularni sport turlariga yo‘naltirish vazifasi mutaxassis kadrlar tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sport sohalarida mutaxassislar tayyorlash masalasiga katta e‘tibor berilayotganligi bejis emas, albatta yurtimizda ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida ta’limga katta e‘tibor qaratilini kelinmoqda bu borada “Ta’lim tog‘risida”gi qonunning (yangi tahriri 2020 yil 23-setyabr) qabul qilinganligi, buning yaqqol misolidir. O‘zbekiston Respublikasi jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarini tayyorlash borasida O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya oliygohi jismoniy madaniyat fakulteti, Olimpiya zahiralari kasb-hunar sport kollejlarning salmog‘i katta bo‘lib, ularda har yili 1000 dan ortiq jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorlanmoqda. Bu bilim dargohlarida, umumta’lim maktablarida jismoniy madaniyat o‘qituvchilari, sport murabbiylari va darsdan tashqari vaqtlarda

ommaviy sport tadbirlarini o'tkazadigan mutaxassislar tayyorlanadi. Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular bir kechada 24-soat bo'lsa, shundan 15-16 soatini o'quvchilar bilan o'tkazadilar. Shuning uchun ham, o'quvchilar jismoniy madaniyat o'qituvchisi bilan kommunikativ aloqalar orqali musobaqalashib bormoqda. Masalaning boshqa tomoni shundaki, jismoniy madaniyat darslarida olgan bilimlarini sinfdan va darsdan tashqari vaqtlarda sport to'garaklariga qatnashib, mukammalashib turishlari o'quvchilarning sport mahoratlarini oshirishga ko'maklashib boradi. Bunda ham jismoniy madaniyat o'qituvchisining katta ahamiyati bor.

Jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorlayotgan bilim maskanlarida katta mas'uliyat yuklatiladi. Chunki keyingi yillarda viloyat, shahar va tuman qishloqlarida istiqomat qilayotgan bolalarni har tomonlama bilimli qilib tarbiyalash masalasi dolzarb kasb etdi. Buning uchun jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida, qishloqlarda yashayotgan bolalar xususiyatlarini hisobga olish, imkoniyati bo'lgan maktablar jismoniy madaniyat darslarini o'tishga bog'liq bo'lgan bilimlarni mutaxassislarga o'rgatib berishlari kerak. Aks holda, mashqlarni hamma umumiy tarzda olib borgan bilan maqsadga erisha olmaydi. Bugungi kunda bolalar sportini rivojlantirishga e'tibor berilayotgan bo'lsada, bunday holat hozirgi zamon talabiga javob bermaydi. Kadrlar o'z ishiga sodiqlik bilan xizmat qilmasalar, bu soha muammoligicha qolaveradi. Fidoyi deganda o'z kasbini va ishini sevgan holda tinimsiz ish olib borishni ko'ramiz va eng avvalo, turli tumanlarda g'olib bo'lgan o'quvchilarning milliy xususiyatlariga qarab mashqlarni me'yorlab borish maqsadga muvofiq.

Organizm o'zining tez o'sishi bilan farq qiladi. Shuning uchun tez sur'atda rivojlangan organizm mashqlarni oson o'zlashtira oladi. Shunday ekan, organizm mashqlarni oson va qiyin bajarishiga qarab ham o'quvchilar turli guruhlarga bo'linishi muqarrardir. Bunday holatda o'quvchilarning psixologik imkoniyatlari ya'ni ularning irodasi, kuchi, qiziqishi kabi jismoniy sifatlari, fazilatlar va imkoniyatlarini hisobga olish sportga yo'naltirishda maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun pedagogik mutaxassis kadrlar o'z ishlariga o'ta mas'uliyatli bo'lishi, hozirgi zamonaviy bilimlarni o'zlarida mujassam etishlari kerak. Bunda o'quvchilarning jismoniy rivojlanish xususiyatlarini doimiy ravishda o'rganib, ularni jismoniy tarbiyalash va sport turlariga shug'ullantirish bo'yicha rejalariga o'zgarishlar kiritib borishlari kerak.

Bugungi kunda jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorlaydigan o'quv dargohlari tomonidan har yili 1000 ga yaqin tayyorlanadigan kadrlar umumta'lim maktablarida etishmaydi. Agar, umumta'lim maktablarida, faraz qilaylik, haftasiga har bir sinfdan 4-5 soat jismoniy madaniyat darsi o'tkazalidigan bo'lsa, unda jismoniy madaniyat mutaxassisi, kadrlar etishmasligi muqarrar. Buning uchun har yili Oliy bilim dargohlarida qariyb 4-5 mingga yaqin jismoniy madaniyat o'qituvchilari tayyorlanganda umumta'lim maktablarini jismoniy madaniyat o'qituvchilari bilan ta'minlash mumkin bo'ladi. Ayni vaqtda 10-15% umumta'lim maktablarida sport razryadlari, maxsus ma'lumoti bo'lmagan sportchi mutaxassislar jismoniy madaniyat darslarini o'tib kelmoqda. Biz xohlaymizki kadrlar asosiy shaxs sifatida bolalar sportini rivojlantirishimizda muhim vosita bo'lib xizmat qilsin. Bu masalaning bir

tomoni. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, bu holat sinfdan va maktabdan tashqari sport ishlarini rivojlantirishda bolalar va o‘smirlar sport maktablari murabbiylari yordamida sport to‘garaklari, sport musobaqalarini amalga oshirib borishning o‘ziga xos muammolarini keltirib chiqaradi.

Bu qiyinchiliklar obyektiv va subyektiv sabablarga ega va o‘ylaymizki, ular asta-sekin bartaraf etiladi. Subyektiv qiyinchiliklarni engishda faqat yaxshi ko‘nikma, malaka va mumkin qadar har tomonlama bilim bo‘lishi kerak. Yuqorida keltirilgan subyektiv muammolarni bartaraf etish jarayoni biroz qiyinchilik bilan kechadi. Unda maxsus tarbiyaviy maqsad bo‘lib, yuqori sport mahoratini talab etadi. Obyektiv qiyinchiliklarni bartaraf etish esa ustoz – murabbiylar hamda joylarda ommaviy sport ishlarini yaxshi tashkil qilish, barcha imkoniyatlardan foydalanish bilan amalga oshiriladi. Maxsus pedagogik jismoniy madaniyat ma‘lumoti bo‘lganlarni shartli ravishda 1-guruhga, xuddi shunday ma‘lumoti, ya‘ni maxsus ma‘lumoti bo‘lmaganlarni 2-guruhga bo‘lamiz. Bizdagi ma‘lumotlarga ko‘ra, ommaviy sport ishlarini tashkil qiluvchilarda 45% ini 1-guruh murabbiylari tashkil qilsalar, 55% ni, jismoniy madaniyat o‘qituvchilaridan, 24-31% ni 2-guruhdagilar tashkil etishadi. Bunda ustoz-murabbiylarning tayyorgarliklari darajasini amaliyotda aniqlashda jismoniy mashqlarning qiyinchiligi, xarakteri hisobga olinadi. Birinchi guruhdagi ustoz-murabbiylar ikkinchi guruh, murabbiylarga qaraganda ancha zehni bo‘ladilar, chunki ikkinchi guruh ustoz-murabbiylari to‘g‘ri kelgan ishlarni bajarishga qaror qiladilar. Ana shuning uchun ham jismoniy madaniyat o‘qituvchilari tayyorlaganda ularning har tomonlama tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun sport pedagogik fanlarini yaxshi o‘zlashtirishlari shu bilan bir qatorda anatomiya, fiziologiya, jismoniy madaniyat nazariyasi fanlarini, aylanma tizimda sport mashqi jarayonini yaxshi bilishlari kerak bo‘ladi va hokazo.

Bolalar sportini rivojlantirishda sport moddiy-texnika bazasining ahamiyati katta. Bolalar o‘rtasida jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishda moddiy-texnika bazasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir sohada o‘zining moddiy-texnika bazasi bo‘lishi muhimdir. Ayniqsa, bolalar sportining 1-sinfdan 9-sinfgacha va kasb-hunar kolleklarining guruhlarida, bilim maskanlarida rivojlanishi doirasiga jismoniy madaniyat davlat dasturidan o‘rin olgan gimnastika, engilatletika, sport o‘yinlari (basketbol, futbol, voleybol, qo‘l to‘pi), kurash, suzish, harakatli o‘yinlar kiradi. Bu sport turlarini rivojlantirishda har har qaysi bilim maskanlari rejasi faqat qog‘ozda qolib ketishi natijasida bolalar sport to‘garaklari 10 yil ichida pasayib qoldi. Buning birinchi sababi shundaki, savdo do‘konlarida sotiladigan sport jihozlari haddan tashqari qimmatlashib, sotib olish muammosi paydo bo‘ldi. Ayrim sport jihozlarini pul ko‘chirish yo‘li bilan sotib olish mumkin. Ammo ayrimlarini pul ko‘chirish yo‘li bilan ham sotib olish mumkin emas. Chunki do‘konlarning ko‘pchilik qismi shaxsiy tijorat do‘konlariga aylantirilgan. Shuning uchun faqat naqd pulga sotib olish mumkin. Savdo va tijorat do‘konlari shaxsiy do‘konlarga aylanishi natijasida sport anjomlarini olish tizimi buzilib ketganini ko‘ramiz. Bizning bu yo‘nalishdagi tahlilimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasida bolalar sportini rivojlantirish muhitini yaratish har bir rahbarning muhim vazifasiga aylanishi kerak. Shuning uchun xalqimiz orasida shunday hikmatli so‘z bor: “Niholning o‘sishi bog‘bonga bog‘liq”. Sportning

rivojlanishi moddiy-texnika bazasiga bog‘liq deb yana bir karra eslatmoqchimiz. Oxirgi yillarda bolalar sportini rivojlantirishda, ayniqsa, bolalar bog‘chasida bu borada amaliy ishlarga qaratilgan keng ko‘lamli rejalar tuzilgan. Bugungi kunda respublikamizdagi bolalar bog‘chalarida 27 ta, jismoniy tarbiya va sport saroylarida 3453 ta turli o‘lchovlardagi ochiq sport maydoni, 144 ta turli hajmdagi yopiq inshootlar mavjud. Shunday sharoitlar umumta‘lim maktablarida qanday, degan savol tug‘iladi. Albatta umumta‘lim maktablari turli hududlarda joylashganligi bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Sport inshootlari deganda nimani tushunish kerak? Gap shundaki, Baxmal, Zomin, Nurota, Urgut, Qo‘shrabot, Chirchiq kabi tog‘ hududlarida joylashgan sport zallari zamonaviy bo‘lmaganligi sababli yosh sportchilarni sportga jalb qilish qiyinchilik tug‘diradi. Shunday bo‘lsada, imkoniyat topib sportga qiziqishi bo‘lgan yoshlarni hech bo‘lmaganda 50-60 % jalb qilish maqsadga muvofiq.

Har qaysi umumta‘lim maktabi sport maydoni uchun alohida joy ajratadi. Manashu maktablardagi jismoniy madaniyat va sport mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun alohida sport turlari bo‘yicha maydonlar tashkil etiladi. Sport maydonlarining o‘lchamlari maktabning sharoitiga qarab belgilanadi. Unda o‘quvchilar soni hisobga olinishi shart. Qishloq joylarda joylashgan sport maktablaridagi sport maydonlari qurilishi uchun er maydoni etarli.

Mamlakatimizga bolalar sportiga alohida e‘tibor berilmoqda. Bu o‘rinda jismoniy tarbiya va sport muhim rol o‘ynaydi. BO‘SMning sport inshootlari va ularga zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, jihozlar sportchilarga ust kiyim- boshlar bilan ta‘minlashda olg‘a siljishlar yuz berdi.

Futbol, engil atletika, kurash, tennis, baketbol, sharqona yakka kurashlar va boshqa sport turlari bo‘yicha iqtidorli murabbiylarni ko‘rik-sinovlardan o‘tkazish, ularning malakalarini davr talablari asosida takomillashtirishga kirishilmoqda. Samarqand tumanlaridagi shahar Xalq ta‘limi, “Yoshlik”, “Talaba”, “Sport uyushmalari” o‘z faoliyatlarini kuchaytirmoqda. Yana e‘tiborli tomonlaridan biri shundaki juda ko‘p BO‘SMda bolalarni sportga jalb qilishda joylarda o‘tkaziladigan turli xil musobaqalarni kuzatish, tanlab olingan bolalarni maxsus sinov-tajribalardan o‘tkazish, ularning sportga bo‘lgan havas-qiziqishlarini suhbatlar orqali bilish nazariy bilimlar hamda tushunchalarga ega bo‘lgan darajalarni aniqlash kabi eng zarur ijtimoiy-pedagogik jarayonlarga kirishilmoqda. Bu o‘z navbatida an‘anaviy jismoniy tarbiya va sport bayramlarni (chaqqonlik, nafosat, go‘zallik, “Balli yigitlar”, “Balli qizlr” “Quvnoq startlar”, “Olti kuz”) va sport turlariga (voleybol, basketbol, futbol va hokazo) bag‘ishlangan an‘analar o‘tkazish o‘quvchi-yoshlarning sog‘lom rivojlantirishiga va jismoniy baquvvat bo‘lishiga yordamlashmoqda.

Bolalarning maktabda jismoniy mashg‘ulot va sportning odam organizmiga ta‘sirini chuqur anglab etmasligi, o‘zi sevgan birorta sport turi bilan mustaqil mashq qilishni o‘rganmaganligi natijasida talabalik davrida ham jismoniy madaniyat normalarini topshirish jarayonida yaxshi yutuqlarga erisha olmaydi.

Xulosa. Murabbiy sport mashg‘uloti va musobaqasi jarayonida bolalar oldiga sport bilan bog‘liq bo‘lgan muammoli masalalarni qo‘yish va bu muammolarni echishda har bir bolaning o‘zini mustaqil izlanishiga odatlantirish lozim. Natijada sportchi sport sohasida yuqori ko‘rsatgichlarga erishishda, katta ehtiroslilik bilan yangi taktik musobaqalashish uslublarini izlaydi va qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshnazarov.J.E. “O‘zbekistonda jismoniy madaniyat tarixi va uni boshqarish” 2008 yil.
2. Yefimov A.S. Tarbiyachi shaxsini shakillantirish Samarqand SamDu nashiriyoti 1978 yil.
3. Raximov S.R “Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik qarashlari” Toshkent 1964 yil.
4. Raximov S.R “Pedagogicheskaya antologiya” O‘zbekiston Moskva 1986 yil.
5. Lex.uz “O‘zbekiston qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

SPORTNI JAMIYATDA YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI O‘RNI

Xasanov Dilmurod Xolmurod o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

O‘zbekiston, Chirchiq shahri

+998(90) 946-62-90

E-mail: dxasanov65@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sportning jamiyatdagi ahamiyati va yoshlarni sportga jalb etishning dolzarb muammolari tahlil etilgan. Muallif tomonidan sport jamiyatda nafaqat natijaga erishishda, balki ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan ham muhimligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Sport, jamiyatdagi o‘rni, tarbiya, rivojlantirish, vosita.

Abstract. This article analyzes the importance of sports in society and current problems of attracting young people to sports. The author revealed the importance of sports in the society not only for achieving results, but also for its social and educational significance.

Keywords. Sport, place in society, education, development, tool.

Hozirgi davrda sport insonlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Uni aholining barcha qatlamlarida bolalar, yoshlar, ayollar, qariyalar va jamiyatning boshqa qatlamlariga keng targ‘ib qilish masalasi tobora takomillashib bormoqda. Insonlar sportdan salomatliklarini mustahkamlash, chiniqtirish, jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, hamda bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida foydalanmoqdalar. Shu bilan birga hozirgi vaqtga kelib, sport mamlakatlar, davlatlar nufuzini oshirish, ularning xalqaro maydondagi darajasini oshirishda ham muhim ahamiyatlidir. Mamlakat sportchilari tomonidan xalqaro maydonlarda qo‘lga kiritilayotgan har bir g‘alaba tom ma’noda mazkur mamlakatning xalqaro maydondagi g‘alabasidir.

Ko‘pgina olimlar sportning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni, uning ahamiyati va sportni yoshlar orasida yanada keng targ‘ib qilishga doir fikrlarni har tomonlama yoritib berganlar. Unga ko‘ra jismoniy tarbiya bilan aqliy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Sport qisqa ma’noda, shaxsiy musobaqalashish, raqobatlashish degan mazmuni anglatadi. Yuqori natijalarga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, bunda ma’lum tartiblashtirilgan va qoidalarga solingan jismoniy

harakatlar bilan maqsadli shug‘ullaniladi, musobaqalarda ishtirok etiladi va ma’lum natijalar qo‘lga kiritiladi.

Sportning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bunda shug‘ullanuvchining vaqti mazmunli o‘tadi. Turli maqsadda organizmni chiniqtirish, natijaga erishish sport bilan shug‘ullanganda mashg‘ulot jarayonida va mashg‘ulotlardan so‘ng ham shug‘ullanuvchilarning vaqtlari bekorga sarflanmasligi aniqlangan. Turli toifadagi shug‘ullanuvchilarning bu boradagi fikrlari bunga isbotdir. Barcha holatda ham shug‘ullanuvchilar mashg‘ulot va mashg‘ulotlardan keyin vaqtlarini tejashlari, aniq rejalashtirilgan kun tartibi asosida faoliyat olib borishlarini aytib o‘tganlar. Mashg‘ulotlardan so‘ng asosiy vaqtlarini dam olish, turli kitoblar o‘qish bilan o‘tkazishlari bildirilgan.

Hozirgi kunda zamonaviy sport mashg‘ulotlari modeli hamda sport nazariyasi va amaliyoti tajribasida shug‘ullanuvchilarni irodaliy, qo‘rqmas, qat’iyatli, jasur, mard qilib tarbiyalash masalasi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Sport bilan shug‘ullanish jarayonida shaxsiy axloqiy xususiyatlarni tarbiyalash, axloq me’yorlari doirasida kamol topish masalalari mashg‘ulotlar jarayonining tarkibiy qismi sifatida o‘z aksini topadi. Murabbiylar, sport mutaxassislari mashg‘ulotlar jarayonida shug‘ullanuvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash ishlarini ham olib boradilar.

Sport mashg‘ulotlarida ta’lim, tarbiya va sog‘lomlashtirish vazifalari hal qilinadi. O‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, shug‘ullanish tartib-qoidalarini hurmat qilish, murabbiyning topshiriqlarini bajarish kabilar mashg‘ulot jarayonida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Jamoani hurmat qilish, murabbiy va jamoa rahbari tomonidan berilgan vazifalarni to‘liq amalga oshirish masalalari mashg‘ulotlar jarayonida sportchi tomonidan o‘zlashtiriladi, bu boradagi ko‘nikma va malakalar takomillashtirilib boriladi.

Xulosa. Olingan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda aniq bir xulosaga kelish mumkin. Demak, sport yoshlar tarbiyasida va mamlakatning ijtimoiy hayotida, uning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rnini, nufuzini oshirishda katta ahamiyatga ega. Agar mamlakatda sport bilan shug‘ullanuvchilar soni tobora ortib borsa, aholining ommaviy salomatlik darajasi ham yuksalib borishi kuzatiladi. O‘z-o‘zidan sport sohasida xalqaro maydonlarda erishilayotgan natijalar salmog‘i yuqori ko‘tarilib boradi. Bu mamlakatda yashaydigan insonlarning har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lishini ta’minlaydi deganidir. Shunday ekan, yoshlarni sportga jalb qilish zarurati tug‘iladi.

mHozirda dunyoda turli salbiy illatlar tobora kengayib, tomir otib bormoqda. Bunday holatlarning yuzaga kelayotganligiga sabab irodaning zaifligi, yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilinmaganligi bilan izohlash mumkin. Mazkur illatlarga qarshi kurashishning eng maqbul vositalaridan biri sport ekanligini takror va takror aytib o‘tamiz. Yoshlarni sportga jalb qilishning zarurati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedov.F.K., Utaev Z.M. “Sport - ijtimoiy-pedagogik omil sifatida” “ZAMONAVIY TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUAMMOLARI” Respublika ilmiy-amaliy anjumani toplami 25-26 sentyabr 2020 yil 25-bet.

2. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning mintaqaviy, pedagogik-psixologik, tibbiy-biologik muammolari. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. Jizzax-Toshkent 2009 y.

3. Xasanov, D. (2021). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA JISMONIY TARBIYA BO ‘YICHA UZLUKSIZ TA’LIMNING AHAMIYATI. «*ENGIL ATLETIKA SPORT TURLARINI RIVOJLANTIRISH VA SPORT MASHG‘ULOTLARINI TAKOMILLASH TIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI*» XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI.

4. Xasanov, D. (2020). INSONLAR HAYOTIDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI VA ROLI. “*O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasi menejerlarining kasbiy kompetentligini oshirish yo‘llari*”.

KUCH SIFATI VA UNI YOSHGA BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI

Xasanov Dilmurod Xolmurod o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

O‘zbekiston, Chirchiq shahri

+998(90) 946-62-90

E-mail: dxasanov65@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kuch sifati haqida umumiy tushunchalar va uni yosh bo‘yicha xususiyatlari tahlil etilgan. Muallif tomonidan kuch sifatini rivojlantirishda yuklamalar hajmini to‘g‘ri berish ahamiyatini ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy sifatlar, kuch sifati, yosh xususiyatlari, rivojlantirish, vosita.

Abstract. This article analyzes the general concepts of strength quality and its characteristics by age. The author also revealed the importance of the correct amount of loads in the development of the quality of strength.

Key words: Physical qualities, quality of strength, age characteristics, development, tool.

Kuch deganda mushakning zo‘riqish darajasi, shuningdek, tashqi qarshilik yoki og‘irlikka qarshi harakatlar darajasi bilan ifodalanadi. Mushak kuchining morfologik asosi mushak tolasidagi qisqartiruvchi oqsil miqdori, mushak tolalarining yo‘g‘onligiga bog‘liq.

Kuch sifatini yuzaga chiqarishda sportchining mushaklari asosiy ro‘lni o‘ynaydi. Mushak kuchining namoyon bo‘lishi, shuningdek, mushak tolalarining tezkor yoki sust turiga ham bog‘liq. Insonda oq tez qisqaradigan va qizil sekin qisqaradigan muskul tolalar mavjud. Agar mushaklarda tezkor tolalar ko‘proq bo‘lsa, inson yuqori sur‘atli tezlik-kuch harakatlarida maksimal quvvatni rivojlantirishga, portlash xususiyatiga ega bo‘lgan faoliyatni bajarishga qodir bo‘ladi. Sust qisqaruvchi turdagi tolalar ko‘proq bo‘lishi uzoq muddat mobaynida mushak zo‘riqishini saqlab turish imkonini beradi. Aynan shu kuch talab qilingan vazifalarni hal qilishga javob beradi. Bunday kishilarda kuch chidamliligi tezkorlikka nisbatan ancha baland bo‘ladi.

Muntazam mashg‘ulotlarda maksimal mushak kuchi mushaklarning mutlaq ko‘ndalang o‘lchami o‘lishiga anatomik belgilari bo‘yicha, shuningdek, faoliyatga jalb

qilingan asab-mushak harakat birliklarining safarbar etiladigan fiziologik zahiralari hisobiga ortib boradi. Turli og'irliklar ya'ni maksimal, katta, o'rta, kichik yuklamalar bilan shug'ullanishning dinamik rejimida rivojlantiriladigan zo'riqish maksimaldan kamroqbo'ladi. Demak, dinamik kuchning mutloq qiymatlari uni o'lchash mumkin bo'lgan sharoitlarda har doim maksimaldan bir-muncha kichikroq bo'ladi.

Kichik og'irlikdagi yuklamalar maksimal tana vaznning 10% dan kam bo'lganda kuchni rivojlantirishda maqsadga muvofiq kelmaydi. Ular mushak kuchini orttirish uchun zarur sharoit yaratmaydi, bu holatda mushak kuchining tayyorgarlik darajasini me'yoridan ortiq o'stirish ta'siri ya'ni effektivligi juda kichik hisoblanadi.

Kuchni rivojlantirish uchun qulay morfologik hamda funksional sharoit 9-10 yoshlarda yuzaga keladi. O'g'il bolalarda dinamik kuch mashqlariga yuqori sezgirlik 2 davrdan iborat bo'ladi: 9 yoshdan 10-12 yoshgacha va 14 dan 17 yoshgacha. Qiz bolalarda esa 11 yoshga kelib kuch chidamliligi 15-16 yoshli qizlarning ko'rsatkichlariga etib oladi. 7-10 yoshli o'quvchilarda turg'un kuchlanishlar toliqishning tez rivojlanishi bilan kechadi.

Maktablarda 5-8 sinflarning jismoniy tarbiya darslarida kichik og'irlikdagi yuklamalar (1-2 kg) bilan dinamik kuch mashqlari, arqonga chiqish, yuk tashish, to'ldirma to'p uloqtirish kabilardan muvaffaqiyat bilan foydalaniladi. 15-16 yoshda kuch chidamliligining ortishi munosabati bilan 2-3 kg li og'irliklar bilan o'tkaziladigan mashqlar soni ko'payadi (gantel), arqonga vaqtga qarab chiqish, musobaqa kurashish elementlari qo'llaniladi. Bu yoshdagi qizlarda kuch mashqlari nisbiy mushak kuchining kamayishi tufayli chegaralanadi. O'smirlar bilan o'tiladigan mashg'ulotlarda turg'un vaziyatlarni, dastlabki holatlarni, osilib, tayanib turishlarni talab etuvchi mashqlardan foydalanish lozim.

Bolalarni maksimal kuchning namoyish etilishi bilan bog'liq sport turlariga erta jalb etish o'zini oqlamaydi.

12-14 yoshlarda kuchni rivojlantirish, asosan, shug'ullanuvchining o'z tana massasi, to'ldirma to'plar, gantellar, gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Og'irliklar sifatida har xil og'irlikdagi toshlar hamda shtanga qo'llaniladi.

Jismoniy sifatlar shug'ullanish orqali rivojlantiriladi va barqaror ushlab turiladi. Vaqt o'tib jismoniy sifatlarni o'stirish uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlar to'xtatiladigan bo'lsa, birinchi o'rinda, tezlik qobiliyatlari, keyinroq kuch va oxirida uzoq muddatli faoliyatga chidamlilik qobiliyatlari susayadi. Sportchilarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, 5 oy davom etgan mashg'ulotlarni to'xtatish harakatlar maksimal sur'atining dastlabki darajasiga (tezkorlik) 4-6 oydan so'ng, mushak kuchi maksimal sur'atining dastlabki darajasiga 18 oydan so'ng, chidamlilikning xuddi shunday ko'rsatkichiga esa 2-3 yildan so'ng olib keladi. Jismoniy sifatlarni o'stirish murakkab jarayon hisoblanadi. Ulardan kuch sifatini rivojlantirish uzoq vaqt talab qiladi. Kuch sifatini rivojlantirishda yosh xususiyatlarni inobatga olgan holda yondoshish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Salamov R.S. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati". Darslik. 1 jild. T.,-2015. 296 b.
2. Matveev L.P. «Теория и методика физической культуры». Учебник. М.,-1991. 543 с.

3. Goncharova O.V. «Ësh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish». O‘quv qo‘llanma. T.,-2005. 176 b.

4. Xasanov, D. (2023). JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O‘RTA SINIF O‘QUVCHILARINING KUCH CHIDAMLILIGINI TARBIYALASH. *Scienceweb academic papers collection*.

BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARIDA KASBIY AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institute
Jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha ta’lim fakulteti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida asisstanti
Xoldorov Zoxid Abduvayitovich
[Email.zoxidjonxoldorov8@gmail.com](mailto:zoxidjonxoldorov8@gmail.com)
Tel:+99888 390 35 00

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi II-kurs talabasi, “Sog‘lom hayot sari” ilmiy to‘garagi a‘zosi:
Hasanov Nodirjon Nazirjon o‘g‘li +998908590309

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport o‘qituvchilarini tayyorlash muammosi ochib berilgan. Professor-o‘qituvchilar axloqiy fazilatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq mintaqamizdagi pedagogik jarayon oldiga nafaqat ta’lim tizimini inqirozdan olib chiqa oladigan, balki uni yangi darajaga ko‘taradigan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash vazifasi qo‘yilgan. Bo‘lajak mutaxassislarni yangi innvatsion texnologiyalardan xabardorlik bilan integral ravishda axloqiy fazilatlarga ham et‘ibor berilgan,

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, jismoniy tarbiya, innovatsiya, tayyorlik, kasbiy faoliyat.

INNOVATION TECHNOLOGY FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL MORAL QUALITIES IN FUTURE TEACHERS OF PHYSICAL CULTURE

Annotation. This article reveals the problem of training physical education and sports teachers. The pedagogical process in our region, which is associated with the development of the moral qualities of professors, is faced with the task of preparing physical education teachers for professional activities, who can not only bring the educational system out of the crisis, but also raise it to a new level. Future specialists are also given moral qualities in an integrated way with awareness of new innvational technologies,

Keywords: teacher, physical education, innovation, readiness, professional activity.

Oliy ta’limdagi sifat o‘zgarishlari oliy ta’lim tizimining maqsadlarini yuqori kasbiy mahorat bilan keng umumiy gumanitar dunyoqarashni uyg‘unlashtirgan mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi. SHu munosabat bilan oliy ta’lim tizimida integratsion jarayonlarning ustunligi yuzaga keladi, unda

gumanitar bilimlar etakchi rollardan biri hisoblanadi.

YUksak ma'naviyatli mutaxassislarni tarbiyalash, respublikamizda kadrlar tayyorlashni davr talablari darajasiga ko'tarish, ta'limning rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mexanizmini yaratish, uning mazmunini takomillashtirish, o'quvchi va o'qituvchilarda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha munosabat va qarashlarni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Xususan, bo'lg'usi jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy axloqiy sifatlari hamda ma'naviyatining ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi zaruriyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy axoloq tushungasining falsafiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlari, kasbiy axoloqning nazariy asoslari, uni shakllantirishning huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy qirralari hamda zamonaviy jamiyat ziddiyatlari masalalariga qaratilgan tadqiqot natijalari muhim ahamiyatga ega.

SHuning bilan birgalikda bo'lg'usi jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishga oid innovatsiyon texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish zarurati mavjud.

Jamiyat rivojlanishida turli xil davrlarda mehnat va kasb-hunarlarni o'rganish nazariyasi va amaliyoti, pedagog-o'qituvchilarni tayyorlash muammolari va echimlari bilan shug'ullanganlar. Masalan, ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy texnologiyalar masalasida turli zamon va makonlarda yashagan xorijlik olim va mutaxassislar Z.Bjezinskiy, G.Grachev, A.Zinoev, I.Zasurskiy, S.Kara-Murza, A.Karayani, K.Kalandarov, S.Rastorguev, R.Xarris, V.Druzin, I.Kolotilova, O.Petrich, R.CHaldini va boshqalar mafkuraviy kurash, yoshlarga xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlar, manipulyasiya jarayonlari, "Ommaviy madaniyat"ning globalashuvi, g'oyaviy kurashning turli jabhalarini tadqiq qildilar.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning innovatsiyon texnologiyasi nazariy tomonlarini ishlab chiqish va amalda sinab ko'rish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirish jarayoni.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik tizimi, mazmuni, samarali shakllari, uslublari, vositalari.

- bo'lg'usi jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning yangi pedagogik texnologiyalarini aniqlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi;

- bo'lg'usi jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning mazmuni, samarali shakl, vosita va ilg'or metodlari belgilab beriladi, amalda sinab ko'riladi;

- bo'lg'usi jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik texnologiyalari tanlanadi va amalda sinab ko'riladi;

- dars va darsdan tashqari sharoitlarda bo'lg'usi jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy axoloqiy sifatlarini shakllantirishning yo'llari va shart sharoitlari belgilanadi;

Vazifalarni hal qilish va tadqiqot farazini tekshirish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik va maxsus adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, universitetlarning jismoniy tarbiya kafedralarining

shaxsiyat muammolari bo'yicha tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish. jismoniy tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassisni shakllantirish, talabalar va o'qituvchilaridan so'rovnoma va anketa olish, o'z pedagogik faoliyatini retrospektiv tahlil qilish, modellashtirish, ekspert baholash usuli, gumanitar yo'naltirilgan mazmunning ishlab chiqilgan modelini aprobatsiya qilish va tuzatish bo'yicha pedagogik tajribalar o'tkazildi. Jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim, tajriba ishtirokchilarining harakatchanligini nazorat qilish testlari, statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik usullari qo'llanildi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismlarini bo'limlar bo'yicha umumiy kasbiy komponentning vakolatlari tizimi sifatida ko'rib chiqish mumkin:

Bo'limlar bo'yicha umumiy madaniy komponentning vakolatlari:

1. Umumiy madaniy bilimlar va uni xulq-atvorda amalga oshirish.
2. Pedagogik mahorat.
3. Pedagogik aloqa.

Keling, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlariga e'tibor qarataylik, unda professional komponent mavjud:

1. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining etikasi.
2. O'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini takomillashtirish; o'zini o'zi boshqarish.

O'qituvchining malakasini, jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatining tarkibiy qismlarini aniqlab, biz kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish bosqichiga o'tamiz. Ushbu bosqich o'qituvchilar tomonidan jismoniy madaniyat sohasidagi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi, ularsiz samarali faoliyat mumkin emas, o'qituvchining kasbiy o'sishi mumkin emas, talabalarning sog'lig'ini yaxshilash va talabalarning jismoniy madaniyat bilan shug'ullanish motivatsiyasini rivojlantirish. Samarqandni rivojlantirishda yosh avlod salomatligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Muvaffaqiyat rag'batlantiriladi - ledshilashga intilishning natijasi, erishishda maqsadi bilan qat'iy va to'liq ta'sir qiladi beremenigan shaxsiy xarakter asosida. Ta'lim va sport faoliyati bilan shug'ullanadigan talabalar asos sifatida qaror qabul qilishga qaror qilishdi, unga erisha uzoq so'rovnoma o'tkazishi kerak.

O'z-o'zini anglash, o'zini o'zi belgilash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi boshqarish jarayonlarini o'rganish uchun o'z-o'zini anglash testi qo'llanildi. Uning yordami bilan quyidagilar baholandi: o'quvchilarning istak va ehtiyojlariga munosabati, o'ziga ishonchi (o'zini o'zi anglashi); shaxsning ruhiy salomatligi, uning yaxlitligi, mustaqilligi va erkinligi (avtonomiya); o'quv va kasbiy faoliyatga, hayotga (ijodkorlikka) ijodiy munosabat; boshqalar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish qobiliyati (aloqa). Muvaffaqiyat motivatsiyasi - natijalarni yaxshilashga intilish, o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatlilik - butun hayotga ta'sir qiladigan asosiy shaxsiy xususiyatlardan biridir. Talabalarning jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida o'z taqdirini o'zi belgilashga tayyorligi, uni takomillashtirish yo'llarini izlash to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lib, unga erishish zarurligi to'g'risidagi

Tajriba oxirida jismoniy madaniyatning insonparvarlik qadriyatlarini ichkilashtirish: 1 - o'z-o'zini baholash va o'zini o'zi bilish, 2 - o'z taqdirini o'zi belgilash, 3 - o'zini o'zini tushunish va o'zini o'zi anglash, 4 - o'zini o'zi rivojlantirish.

o‘z-o‘zini takomillashtirish, 5- o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini tartibga solish (1-rasm).

Tajriba davomida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish sub’ektlar guruhlarida talabalarning shaxsiy fazilatlarining jiddiyligini aniqlash imkonini berdi. Aniqlanishicha, barcha tanlangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha tajriba guruhi talabalari sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni o‘zlarida sezishgan. ($P < 0.01$ darajasida) o‘z-o‘zini anglash, ijodkorlik va erishish istagi zarurati nuqtai nazaridan o‘zgarishlar sezilarli darajada edi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining imkoniyatlari dars o‘tkazishning namunaviy vositalari va usullaridan foydalanish bilan cheklanib qolmay, balki darslarga ijodiy yondashish, o‘quvchilarning yangi usullarini amalga oshirish imkoniyati yaratilganini ko‘ramiz faoliyati, jismoniy madaniyat o‘qituvchilari [1] kasbiy mahoratini oshirish esa. Uzlüksiz ta’lim tizimida malaka oshirish, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish orqali o‘qituvchi ushbu sohadagi yangi shakllanishlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hozirgi bosqichda jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy mahoratini oshirish masalasi mavjud. Jismoniy tarbiya tizimida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining o‘sishi butun o‘quv jarayoni davomida talabalarning salomatlik ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik jarayonidagi innovatsion texnologiyalarning aloqasi va uning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda, biz ushbu ikki komponent o‘zaro bog‘liqligini, ularni to‘liq ko‘rib chiqish kerakligini payqadik. Bu bizga uzluksiz ta’lim tizimida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish darajasini har tomonlama ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi.

Jismoniy tarbiya mutaxassisi malakasini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishni maqsad qilib, biz jismoniy tarbiya darslarida qo‘llanilmaydigan, ammo hamma ular haqida biladigan yoki g‘oyaga ega bo‘lgan bir qator fanlarni taklif qilmoqchimiz.

Ushbu sohada sifatli o‘zgarish uchun biz yangi yondashuvlarni qo‘llashimiz, Sovet dars tizimining mazmunini yangilashimiz kerak. So‘nggi 30 yil ichida yosh avlodning jismoniy tarbiyasi muammosini hal qilish orqa fonga surildi, jismoniy tarbiya va sport qadriyatlari almashtirildi. Zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq "jismoniy madaniyat" fanini o‘qitish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish yaxshi sinflarga olib keladi, bu erda o‘qituvchi jismoniy madaniyatga muhabbat uyg‘otishi mumkin [3; 4]. Ushbu tizimni o‘z amaliyotida qo‘llash orqali zamonaviy o‘qituvchi talabalarning motivatsiyasini oshiradi, talabalarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va sog‘lig‘ini yaxshilash bo‘yicha strategik vazifani amalga oshiradi.

1. Plyometrik mashqlar

2. Pilates-bu xavfsiz mashqlar to‘plami. maxsus tibbiy guruhlarda (tayyorgarlik guruhlari) va terapevtik jismoniy madaniyat guruhlarida (fizioterapiya) qo‘llash mumkin. U turli mushak guruhlarining moslashuvchanligi va kuchini rivojlantiradi, umurtqa pog‘onasi shikastlangan bemorlar uchun foydalidir, tanani yanada moslashuvchan va nozik qiladi, tanani mustahkamlaydi va ruhni shakllantiradi.

3. Fitnes texnologiyalari (cho‘zish, akva aerobika, step aerobika, Slayd, tana uchun bodibilding, jismoniy rivojlanishni tuzatish, ortiqcha vazn va boshqalar.),

callanetika3 [8].

4. Sharq amaliyotlari. Hatha YOga (nafas olish, muvofiqlashtirish asanasi) 4.

5. Crossfit—bu dasturga birlashtirilgan, minimal vaqt ichida ketma-ket ketma-ket bajariladigan va 5,6 [9] barcha mushak guruhlarini rivojlantirishga qaratilgan yuqori intensiv mashqlar majmuasi.

Jismoniy madaniyat sohasida kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil etishning innovatsion texnologiyalari sog‘lom odamning ijobiy imidjini yaratishga qaratilgan va ularni amalga oshirish zamonaviy jismoniy tarbiya o‘qituvchisining malakasi va ijodiy yo‘nalishiga bog‘liq.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalardan foydalanmasdan jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi darajasini oshirish mumkin emas. Uzluksiz ta’lim tizimida kasbiy tayyorgarlikni qismlarga bo‘lish mumkin emas, chunki bu o‘qituvchining o‘z faoliyatiga tor yo‘naltirilishiga, kompetensiyaning pasayishiga va eng muhimi, yosh avlodning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishining pasayishiga olib kelishi mumkin.

. Agar zamonaviy o‘qituvchi doimiy ravishda yangi texnologiyalarni izlasa, u o‘zini rivojlantiradi, o‘zini takomillashtiradi, bilim, ko‘nikma va malakalarni amalga oshirishning barcha tushunchalarida "o‘zlik" darajasini oshiradi, bu esa o‘z navbatida jismoniy tarbi talabalarning tizimli sog‘lomlashtirish samarasiga olib keladi.

Shuning uchun, agar zamonaviy o‘qituvchi doimiy ravishda yangi texnologiyalarni izlasa, u o‘zini rivojlantiradi, o‘zini takomillashtiradi, bilim, ko‘nikma va malakalarni amalga oshirishning barcha tekisliklarida "o‘zlik" darajasini oshiradi, bu esa o‘z navbatida talabalarning tizimli sog‘lomlashtirish samarasiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida " PF-5368-son farmoni. 2018 yil 5-mart.

2. 2019-2023 O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi 2019-yil 15-fevral.

3. A.O.Abdquddusov, H.F.Rashidov. Kasb-hunar pedagogikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. -T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2011.- 108 b. 3.

4. I.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Ilmiy jurnal.—T.: TDPU, 2004.—44 b. 4.

5. Xolboyeva G.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” “7-8 yosh bolalardaida» “SamDU” nashri darslik. 2020 y. 178 b.

6. Holboeva G. H. Nazarova D. Mechanisms of increasing the motor activity of children aged 5-6 ears on the basis of initial gymnastic exercises. // Scientific theoretical journal "Science to sport". 2020 Year Number 6. ISSN.2181-7804; 72-75.

7. Haydarov B.T., Holboyeva G.H., Theory and methodology of physical education. // Textbook Samarqand state university edition. 2020; 56-59.

8. Xolboeva G. Jismoniy tarbiya sohasi kadrlarini tayyorlashda kasbiy, gumanitar, mintaqaviy-milliy konseptual salohiyatni oshirish //Aktualnye problemy sportivnoy nauki. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 23-29.

9. Xolboeva, G. (2023). Jismoniy tarbiya sohasi kadrlarini tayyorlashda kasbiy, gumanitar, mintaqaviy-milliy konseptual salohiyatni oshirish. Aktualnye problemy

sportivnoy nauki, 1(1), 23-29.

10. Gulhayo Kholboevna Kholboeva Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6-7 years through initial gymnastics classes. Published 2021. Education, Medicine

11. Xolboeva.G.X. Haydarov.B.T. Tojiev.X.B. Methodology of the improvement of preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 Scopus. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569.

OMMAVIY MADANIYAT NIQOBI OSTIDA HARAKAT QILUVCHI MAFKURALAR HAMDA ULARNING YOSHLAR ONGIGA TASIRI

Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li.

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti
Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolamizda ommaviy madaniyatning harakatga keltiruvchi kuchi hamda vujudga keltiruvchi mafkuraviy negizi ochib berilgan. Shuningdek, uning yoshlar ongiga tasiri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mafkura, ommaviy madaniyat, omma, moddiy manfaat.

Abstract: In this article, the driving force of popular culture and its ideological basis are revealed. Also, its impact on the minds of young people is analyzed.

Key words: ideology, mass culture, masses, material interest Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlarning geostrategik, geosiyosiy hamda global xarakterlari bilan tuslanadi. Ommaviy madaniyat tushunchasi, g'arb modeli sifatida shakllangan hamda yoshlarni: erkinlikka, hurlikka, siyosiy, madaniy hamda ma'naviy sektalar asosida shakllangan mafkuralar yordamida boshqarishga urinishlar o'tgan asrning 60-70 yillarida Sobiq Sovet Sotsialistik Respublikalarida kurtak ocha boshlagan bo'lsa keyinchalik 80-90 yillarga borib barq ura boshlagan. Buning sababi esa davlat ichkarisidagi siyosiy represiyalar, inqiroz hamda tushkunlik kayfiyati buning asosini tashkil etgan.

Yuqorida aytganimizdek, SSSRni qurol kuchi bilan Sotsialistik rejimni mag'lub qilish mumkin emasligini payqab qolgan AQSH hamda g'arb davlatlari Sotsialistik Respublikalarga mafkura eksportini keng ko'lamda eksport qilish yo'liga o'tganlar.

Ommaviy madaniyat – bu madaniyat mavjudligini murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli. Ommaviy madaniyatni g'arb madaniyatni bilan bog'liq hodisa deb tushunish, shuningdek, uni g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan¹⁴⁶. Demak, yuqorida takidlaganimizdek, ommaviy madaniyat g'arbda kelib chiqqan degan xulosa berishimizga asos bo'lib xizmat qiladi ya'ni g'oyasizlik negiziga qurilgan qadriyatlarni mensimaydigan omma sanaladi.

Professorlar Yaxshilikov Juraboy hamda Muhammadiyev Nurmuhhammadlar ommaviy madaniyatni “ bu bir guruh boylikka o'ch odamlar tomonidan zamonaviy

¹⁴⁶ Falsafa qomusiy lug'at. –T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti”. 2004-yil. –B.313.

axborot-texnologiyalarning imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda axloqiy buzuqlik, zo'ravonlik, o'z manfaatlarini o'zgalar manfaatlaridan ustun qo'yish, "men"ni ulug'lash kabilarni aks ettiruvchi har xil o'ta sayoz madaniyat asarlarini moddiy va ma'naviy hayot tamoyillariga tashlab, ko'ngilocharlik bahonasida tijoratga asoslangan istemolchilikni yo'lga qo'yib xalqlarni o'z milliy qadriyatlariga asoslangan madaniyatdan judo qilish evaziga katta daromad topishga qaratilgan aksilmadaniyatdir"¹⁴⁷, deya tariflaydi.

Demak, yuqoridagilarga qo'shilgan holda shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki, asriy qadriyatlar asosida shakllangan ongu-shuuriga singan mafkuralarni parchalash hamda bu orqali mo'may daromad olish ilinjida tashkil topgan desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Sababi, qadriyatlar insonni kelajakka yo'naltiruvchi richak hisoblansa, bunday richagning bo'lmasligi hattoki mrxanik harakatni ham sodir etaolmaydi. Eng murakkab bo'lgan ijtimoiy harakatning oyog'iga bolta urush orqali millat hattoki davlatlarning ertangi umida bo'lgan yoshlarning maqsadsiz, g'oyasi va mafkurasiz harakatlanishi bu jamiyatni tanazullga etaklaydi.

Mediamakonning vujudga kelishi orqali bunday ommaviy madaniyatni targ'ib qilish juda ham osonlashgan. Misol uchun o'tgan asrning 70-90 yillariga kelib mediamaydonning vujudga kelishi. Bunda ommani o'ziga jalb qilish uchun turli yo'llardan foydalanish orqali bu yanada avj olgan.

Gustav Lebonning fikriga ko'ra, ommaning turlarini ikki guruhga bo'ladi. Bularga getterogen hamda gomogenga bo'linadi. Bizning fikrimizga ko'ra aynan getterogen omma tomonidan aynan ommaviy madaniyat targ'ib qilinadi, bu orqali esa, yoshlarni manqurtlashtirib o'z boyliklarini ortiradi. Sababi ommaviy madaniyat barcha sinf, sekta, qatlamlarning birdek shaxvoniy, ko'ngilochar o'yin-kulgu, yovvoyi hayvoniy va boshqa ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganligi bois ularning ehtiyojlarini to'la qoplaydi. Bu orqali, ulardagi g'oyaviy bo'shliqni o'zlarining qadriyatsizlikni targ'ib qiluvchi submadaniyatlarini tiqishtirishadi.

Gustav Lebonning ommani yuyidagich izohlaydi: "Ommaning holati yovvoyilar to'dasining ko'rinishiga juda yaqin. Odamlar o'zining jamoaviy ruhini shakllantirib olsagina, yovvoyi holatdan, omma holatidan xalq holatiga o'tishi mumkin"¹⁴⁸, deb hisoblaydi.

Demak, ommani xalq xoliga kelib emas aksincha yovvoyi hayvonlar to'dasi sifatida boshqarish anchagina oson ishligi va bu orqali o'zlarining yovuz hamda tuban maqsadlarini amalga oshirishni ko'zlash oqibatida vujudga kelgan desak bo'ladi. Yuqoridagi fikr hamda mulohazalardan kelib chiqqan holda biz quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

Birinchiidan, ommaviy madaniyat qadriyatsizlikni, mafkurasizlikni targ'ib qiladi;

Ikkinchiidan, mediamakonning vujudga kelishi ommaviy madaniyatning tezdda yoyilishiga yordam bergan hamda ommaviy madaniyatni targ'ib qilish quroliga aylangan;

¹⁴⁷ Yaxshilikov J. Muhammadiyev N. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2018-yil. –B.511.

¹⁴⁸ Gustav Lebon. Omma psixologiyasi. Tarajimon. Qudratov Rahimjon. –T.: "Yoshlar matbuoti". 2021-yil. –B.133.

Uchunchidan, ommaviy madaniyat pornografiya, shahvoniy tuyg'ularni targ'ib qilish orqali o'zini-o'zi moliyalashtiradi;

To'rtinchidan, ommani bir to'da hayvonlar sifatida boshqarishga qaratilgan mafkuraviy propagandaning mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Falsafa qomusiy lug'at. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti”. 2004-yil. –B.313.

2. Gustav Lebon. Omma psixologiyasi. Tarajimon. Qudratov Rahimjon. –T.: “Yoshlar matbuoti”. 2021-yil. –B.133.

3. Yaxshilikov J. Muhammadiyev N. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –T.: “Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2018-yil. –B.511.

4. ЯХШИЛИКОВ, ЖЯ, and Н.Э. МУХАММАДИЕВ. "Миллий гоё ва мафкура."

5. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4.1 (2024): 22-27.

6. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. "Aesthetic Features of the Formation of a Healthy Environment in the Upbringing of Children in the Family." *JournalNX* 6.04 (2020): 88-90.

7. Жўраев, Лукмон. "ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ ХУЛҚ-АТВОРИДА ТРАНСФОРМАЦИЯ." *Journal of Social Sciences* 1.02 (2022): 51-55.

8. Alikulov, Samar Abdurashidovich, and Ilhom Imomalievich Rizaev. "METHODOLOGICAL PROBLEMS OF RESEARCH OF SOCIAL SYSTEMS." *Theoretical & Applied Science* 2 (2020): 717-720.

9. Негматова, Шахзода, and Хасан Орипов. "Проблемы формирования интернет-грамотности среди молодежи." *Наука и образование сегодня* 5 (6) (2016): 37-39.

10. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "Komil inson falsafiy genezisida Abu Ali ibn Sino qarashlari tahlili." *barcha sohalar bo'yicha* (2023): 32.

YOSHLARNING KITOB SAVODXONLIGINI OSHIRISH - MILLIY MAFKURAVIY ONGNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI

Xudjaqulova Feruza Raxmatovna

NDPI Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: xudjaqulova87@mail.ru

+998913331813

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda yangi ma'rifiy jamiyatni bunyod etishda kishilarning, ayniqsa o'quvchi yoshlarning kitob mutolaasi va kitob savodxonligini, kitobxonlik madaniyatini oshirish davr talabi ekanligini va yoshlarning milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashda, ularning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Mafkura, yoshlar, kitobxonlik, milliy mafkura, g‘oya, g‘oyaviy-mafkuraviy hayot, mafkuraviy ong, mafkuraviy faoliyat, mafkuraviy munosabat, mafkuraviy bashorat, mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy maqsad, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy tajovuz, g‘oyaviy ziddiyat, g‘oyaviy qaramlik, gnoseologiya, jamiyat, ideosfera, ma’naviy dunyo, vosita, usul, ta’lim, tarbiya.

Annotation: In this article, in the creation of a new enlightened society in Uzbekistan, it is necessary to increase the book reading and book literacy of people, especially young students, and the culture of reading, and to educate young people in the spirit of national ideas and ideology, to form and develop their reading culture. directed.

Key words: Ideology, youth, reading, national ideology, idea, ideological-ideological life, ideological consciousness, ideological activity, ideological attitude, ideological prophecy, ideological situation, ideological goal, ideological policy, ideological aggression, etc. ideological conflict, ideological dependence, epistemology, society, ideosphere, spiritual world, tool, method, education, upbringing.

Jahon ilm-fanning hozirgi zamon ilmiy konsepsiyalarida o‘quvchi yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarda milliy mafkuraviy ongni shakllantirishning konstruktiv ahamiyati, uning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omili ekanligi, yoshlar mafkuraviy ongini rivojlantirishning mezonlari, ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning metodologik asoslari kabi ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda yoshlar qalbi va ongini egalashga qaratilgan harakatlar aholi, ayniqsa yoshlarda milliy mafkuraviy ongni shakllantirishning dialektik qonuniyatlarini, usul va vositalarini ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq qilish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda O‘zbekistonda yangi ma’rifiy jamiyatni barpo etish jarayonida o‘quvchi yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirishga yanada katta e’tibor qaratilmoqda. “Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish masalasiga alohida siyosiy-huquqiy, axloqiy-ma’naviy fenomen sifatida yondashishni talab etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishning falsafiy metodologik, konseptual asoslarini ilmiy tadqiq qilish zaruriyatini saqlab qolmoqda.

Yoshlarning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qolaveradi” [1.Mirziyoyev Sh.M 2021: 6.262].

Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarishda o‘quvchi yoshlarni kitob mutolaa qilishga qiziqtirish, kitob o‘qimagan yoshlarning milliy mafkuraviy ongi saviyasining past darajada shakllanishini yoddan chiqarish kerak bo‘ladi.

Xo‘sh, kitob nima? Bu savolga ikki xil, ya’ni biron bir buyum-narsa tariqasida

va falsafiy ma'noda javob berish mumkin. Buyum-narsa tariqasida: "Kitob – arabcha "yozilgan", "muqovalangan asar" degan so'zlardan olingan bo'lib, ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lgan bosma asardir" [2. O'zbek tilining izohli lug'ati 2006: 6.376].

Falsafiy ma'noda esa "kitob – bu moddiy va ma'naviy olamda yuz bergan va berayotgan narsa, voqea, hodisa, jarayonlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi, ularning boshqa narsalarga aylanib yangilanib borishi haqidagi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan, ularni ajdodlardan avlodlarga etkazib berishga xizmat qiladigan ilmiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan asardir"[3. Yaxshilikov J.Ya.,Muhammadiyev N.E 2018: 6.580].Odamzod paydo bo'libdiki, u doimo o'zini o'rab turgan borliqning sir-asrorlarini bilishga o'rinib kelmoqda. Shu asnoda to'plagan jamlab, kitob holiga keltirgan holda ajdodlaridan avlodlariga etkazib bermoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda kitob – bu ma'naviyat sarchasmasi, bilimlar xazinasidir.

O'zbekistonda yangi ma'rifiy jamiyatni bunyod etishda kishilarning, ayniqsa o'quvchi yoshlarning kitob mutolaasi va kitob savodxonligini, kitobxonlik madaniyatini oshirish davr talabi hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 12 yanvarda "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kommissiya tuzish to'g'risida" Farmoyish, 2017 yil 13 sentyabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini" oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida Qaror qabul qildi. Mazkur qarorda "aholining kitob mutolasini oshirish, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi belgilab berildi. Bular: xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish; joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda etkazib berish; milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish; farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish asosida aholining mutolaa madaniyatini yuksaltirish maqsadida: ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda, kitob o'qish odamning aqliy salohiyatini rivojlantirib, jamiyatda yuz berayotgan mafkuraviy jarayonlar ichidan oqini oqqa, qorasini-qoraga ajratish imkonini beradi va shu asosda yoshlarining mafkuraviy immunitetini shakllantirish va rivojlantirish, xullas ularning kasbiy axloqi va nafosatini o'stirishning asosiy omili– vositalaridan biri hisoblanadi. Xullas, kitob har qanday bilim sohasining ajralmas atributidir. Kitobsiz – ilm, ilmsiz – kitob bo'lmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, O'zbekiston, 2021 yil, 262-263 betlar.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.2.–T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.376.

3. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2018. – B.580.

TA’LIMNING O‘RTA BOSQICHIDA HARBIY TA’LIMNING O‘QITILISHI

Yoqubov G‘ulom

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogodika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda harbiy ta’lim tizimining o‘rta boshqichini yo‘lga qo‘yilishi, ta’limning o‘rta bosqichida harbiy ta’limning o‘qitilishi tahlil qilingan.

Abstract: This article analyzes the establishment of the middle management of the military education system in Uzbekistan, the training of military education at the middle stage of education.

Bugungi kunda mamlakatimiz harbiy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, uni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek, uni amalga oshirish uchun tegishli vositalar, yo‘nalish va texnologiyalarni tanlash va hayotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham mamlakat harbiy qudratini doimiy saqlash, uning harbiy imkoniyatlarini oshirish bilan birga, yuksak harbiy va bilim tafakkurga ega bo‘lgan kadrlarni bosqichma-bosqich tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’limning har bir bosqichida harbiy bilimlar o‘qitilishi, yoshlarda ilk harbiy tushuncha va ko‘nikmalar shakllantirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng ta’lim tizimining yangi tartiblarini ishlab chiqish boshlab yuborildi. 1992-yilga kelib esa O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Mudofaa ishlari bo‘yicha vazirligining 1992-yildagi 161-sonli qo‘shma buyrug‘i bilan mamlakatdagi mavjud barcha harbiy-kasbiy yo‘nalishdagi bilim yurtlari Xalq ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa milliy armiya va milliy qurolli kuchlar tizimini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarning samarasi o‘laroq dastlab 2007-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Harbiy akademik litseylar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-641-sonli qarori qabul qilingan edi¹⁴⁹. Mazkur qaror bilan O‘zbekiston Respublikasining bir qator viloyatlarida harbiy akademik litseylar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23-oktabrdagi “Harbiy akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish haqidagi”gi qaroriga muvofiq harbiy akademik litseylarga 2007-2008-o‘quv yilida 600 nafar 9-sinf bitiruvchilari qabul qilindi¹⁵⁰. Bunday harbiy akademik litseylarda 2008-yilda O‘zbekiston bo‘yicha Samarqand harbiy-qurilish yo‘nalishidagi akademik litseyi, Farg‘ona harbiy-texnika yo‘nalishidagi akademik litseyi, Urganch harbiy-yuridik akademik litseyi hamda

¹⁴⁹ Xalq so‘zi gazetasi. 2007. May. 98 (4251).

¹⁵⁰ Boymurodov Sh.T. O‘rta maxsus ta’limda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tayyorlash. Scientific progress. Vol.3. Issue 3. 2022. ISSN: 2181-1601. – Pp. 897.

Toshkent harbiy-telekommunikatsiya akademik litseylarda o‘smirlarga dastlabki harbiy ta’limning o‘rta bosqichi bo‘yicha ta’lim berildi.

Natijada 2010-yil 17-fevralga kelib esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Harbiy akademik litseylar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 21-sonli qarori qabul qilindi¹⁵¹. Qaror asosida “Harbiy akademik litsey to‘g‘risida”gi Nizom ham ishlab chiqilgan edi.

Mamlakat taraqqiyotining 2017-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan islohotlari sammarasi o‘laroq harbiy ta’limning o‘rta bo‘g‘inida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bu eng avval harbiy akademik litseylarning tashkil etilishi tartibi bilan bog‘liq edi. Xususan, yoshlarda ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan dastlabki kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishni nazarda tutadigan idoraviy oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash bo‘yicha samarali tartibni joriy etish maqsadida 2017-yil 16-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3216-son qarori harbiy akademik litseylar faoliyatida yangi sahifa ochdi. Mazkur qaror asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda asosiy e’tibor o‘quvchilarni ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan yuksak vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, dastlabki kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega aqlan va jismonan etuk etib tarbiyalash va Ichki ishlar vazirligining oliy ta’lim muassasalariga kirishlari uchun maqsadli chuqur tayyorlashga qaratilgan Ichki ishlar vazirligining jami 14 ta akademik liseyi tashkil etildi.

Mamlakat harbiy ta’lim bosqichlarida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, Vatanga, shuningdek, uning xalqiga sadoqat bilan xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng miqyosli ishlarni amalga oshirish 2017-yildan keyin boshlangan islohotlarda harbiy ta’limning o‘rta bo‘g‘iniga ham bir qator yangiliklarni olib kirdi. 2017-yilning 5-iyulida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatga asosan buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy-akademik litseylariga “Temurbeklar maktabi” nomi berildi. Mamlakatimizdagi 29 akademik litsey va kasb-hunar kollejida maxsus guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi¹⁵².

2019 yil 28 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘smirlarni harbiy - vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmatlari uchun kadrlar zahirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori talablariga ko‘ra Mudofaa

¹⁵¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ҳарбий академик лицейлар фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 21-сонли қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010 й., 6-7-сон, 51-модда.

¹⁵² Қодиров А.К. Маънан баркамол аскарлар - армиямиз кудрати. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти ахборотномаси. – 2018. – № 1. – В. 65-66.

vazirligi harbiy-yuridik yo‘nalishdagi Urganch akademik litseyi faoliyatini to‘xtatish hamda 2019/2020-o‘quv yilida o‘qishga kirgan o‘quvchilar amaldagi o‘quv dasturi bo‘yicha o‘qishni yakunlagandan so‘ng litsey faoliyatida o‘zgarish yuzaga keldi. Ya’ni, mazkur qarorga asosan 2021-yilda litsey o‘quvchilarining ta’lim jarayoni tugaganidan so‘ng, Urganch “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi faoliyati to‘xtatilgan edi¹⁵³.

2020-yil 18-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tizimida ham Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyini tashkil etish haqidagi qarori qabul qilindi¹⁵⁴. Natijada O‘zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini qo‘roqlovchi harbiy kadrlarni o‘smirlik davrdanoq tayyorlash maqsadida 2020-yil 11-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 473-son Qarori qabul qilindi¹⁵⁵. Qaror asosida Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida o‘quvchilarda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlarini chuqur hurmat qilish, ularda halollik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxsiy xislatlarini, shuningdek, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishi uchun xizmat qiluvchi “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi tashkil etildi¹⁵⁶.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston sharoitida ta’limning o‘rta bosqichda harbiy ta’lim muassasalari va ta’lim jarayonlarining amalga oshirilishi harbiy ta’lim sohasining muhim tarkibiy bo‘lagi sifatida e’tirof etiladi. Harbiy ta’lim tizimining o‘rta bosqichiga doir ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishda o‘ziga xos tizim shakllangan. Shu bilan birga, mustaqillikning dastlabki davrida harbiy akademik litseylarning sovet andozasi asosidagi o‘rta ta’lim bosqichidan milliy yo‘nalishga o‘tish davri sifatida belgilash mumkin. Ya’ni, harbiy akademik litseylar bino va o‘quv bazalarining mahalliyashtirilishi, mahalliy ta’lim va harbiy boshqaruv organlari hisobiga o‘tqazilishi bilan bog‘liq edi.

O‘zbekiston harbiy akademik litseylarida dars mashg‘ulotlarining olib borilishi va mazmuniga ko‘ra, bo‘lajak harbiy yo‘lni tanlagan o‘smirlarga nafaqat harbiy ta’lim berish balki, o‘quvchilarda yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy fikrlash hamda dunyoqarashni shakllantirish, davlatimiz manfaatlarini va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyor bo‘lish, har tomonlama kamol topgan, jismonan sog‘lom va ma’naviy etuk yosh avlodni tarbiyalash tizimini yaratishga qaratilgan davlat siyosatini faol va izchil o‘qitishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xalq so‘zi gazetasi. 2007. May. 98 (4251).
2. Boymurodov Sh.T. O‘rta maxsus ta’limda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tayyorlash. Scientific progress. Vol.3. Issue 3. 2022. ISSN: 2181-1601. – Pp. 897.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Harbiy akademik litseylar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 21-sonli

¹⁵³ Urganch «Temurbeklar maktabi» harbiy akademik litseyi faoliyati tugatiladi. Xalq so‘zi, 2021-yil. 7-aprel.

¹⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. <https://lex.uz/docs/4941482>. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2020-yil, 11-avgust.

¹⁵⁶ Xalq so‘zi. 2020-yil, 11-avgust.

qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 6-7-son, 51-modda.

5. Qodirov A.K. Ma'nan barkamol askarlar - armiyamiz qudrati. O'zbekiston 5. Urganch «Temurbeklar maktabi» harbiy akademik litseyi faoliyati tugatiladi. Xalq so'zi, 2021-yil. 7-aprel.

6. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. <https://lex.uz/docs/4941482>. Yangi O'zbekiston gazetasi. 2020-yil, 11-avgust.

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MUZEYLARNING O'RNI

Islamov Davron Abdushukurovich

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti assistenti

tel: +998 (97)289-81-15

email:davronislamov0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning bugungi xalqning ma'naviy dunyosini boyitish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muzeylarning o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Muzey, muzey pedagogikasi, A. Lixtvark, A.Reyxven va G.Froydental muzey auditoriyasi.

Abstract: This article provides information about the role of museums in enriching the spiritual world of the people of our country, educating the young generation in the spirit of love and loyalty to the Motherland.

Key words: Museum, museum pedagogy, A. Lichtwark, A. Reichven and G. Freudenthal museum audience.

Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga etkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Har qanday davlat taraqqiyot sari intilar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar va qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy. Ayniqsa bu borada muzeylarning o'rni beqiyosdir. Chunki muzeylar o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lib amaldagi qonun-qoidaga muvofiq ravishda saqlanadi va namoyish qilinadi. Muzeylar — tarixning sirli xilqatlarini o'zida mujassam etgan holda xalqlar madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi ko'prik hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqning ma'naviy dunyosini boyitish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda ham muzeylarning o'rni beqiyos. Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganish, ularni targ'ib etish va kelgusi avlodlarga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanib, uning vazifasi tarixiy hujjatlar, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, tabiiy boyliklardan namunalar jamlash va saqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganib ko'rgazmalarga qo'yish va keng xalq

ommasiga havola qilishdan iborat. Muzeylar aholining keng tabaqalari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib boradi. Muzeylar faoliyati xalqning tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishi, qo'lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma'naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida ommaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni ma'naviy kamolotga etkazishning eng etakchi vositalaridan hisoblanadi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, muzeylar bolalarni tarbiyalash jarayonidagi bebaho ko'makchi, ularni umuminsoniy qadriyatlar asosida barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, nafaqat o'z hayoti, balki yuzlab insonlar hayoti bilan birga yashashga o'rgatadi, yosh avlodni bunyodkorlikka da'vat etadi. Bunda muzey pedagogikasining o'rni katta.

Muzey pedagogikasi - pedagogika, psixologiya va muzeyshunoslikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan yo'nalishi hisoblanib, u dastlab tushuncha sifatida XX asr boshlarida Germaniyada shakllangan hamda ilmiy muomalaga kiritilgan. Muzey pedagogikasining hayotga tatbiq etilishi A. Lixtvark, A.Reyxven va G.Froydental nomlari bilan bog'liq. Avvaliga bu soha o'quvchilar bilan ishlashga mo'ljallangan muzey faoliyatining bir yo'nalishi sifatida talqin etildi. 1913-yilda A.Lixtvark birinchi marta muzeyning ma'rifiy maskan sifatidagi ahamiyati g'oyasini shakllantirdi va tashrif buyuruvchi bilan muloqotda yangi usullarni taklif etdi.¹⁵⁷ Muzeylarda maktab tizimidagi mashg'ulotlarni o'tish metodikasi ilk bor G.Froydental tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, u muzey muhitida ta'lim jarayonini tashkil etish uchun pedagogning zarurligini ta'kidlab, ushbu mutaxassisga "muzey pedagogi" nomi berilishini taklif qildi¹⁵⁸.

Jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sirni kuchaytirish uchun muzey bilan maktabni birlashtirgan G.Kol "Muzey va galereyalar o'z oldiga ta'lim maqsadini qo'ymas ekan, ular zerikarli hamda foydasiz muassasa bo'lib qolaveradi"¹⁵⁹, degan xulosaga keladi. G.Kolning bu fikri muzeylarning ta'lim faoliyati modelini shakllantirishni taqozo etdi.

Muzeydagi mashg'ulotlar muvaffaqiyatini G.Froydental quyidagi shart-sharoitlar bilan bog'laydi: muzeylarga har bir tashrif aniq o'quv maqsadiga ega bo'lishi; muzeyga tashrifni bolalarning maktab mashg'ulotlaridan charchagan paytda emas, balki u erdagi manbalarni idrok etishiga tayyor bo'lgan vaqtda uyushtirish; bolalargagina emas, kattalarga ham tinglash uchun og'ir bo'lgan obzorli ekskursiyalardan voz kechish; bolalarning mavzular bo'yicha mustaqil ijodlari (rasmlar, insholar, yaratgan modellari) muzeyga tashriflarining yakuni bo'lishiga erishishdir. G.Froydental bolalar bilan muzey ta'lim jarayonini tashkil etishga tayyor bo'lgan mutaxassislarni muzey pedagogi deb atagan holda, katta yoshdagi bolalarni texnika va maxsus muzeylar, kichik yoshdagi bolalarni esa o'lkashunoslik, tabiiy-ilmiy va badiiy muzeylar bilan tanishtirishdan boshlashni tavsiya etgan.

Muzey auditoriyasi kasbi, yoshi, dunyoqarashi va qiziqishlariga qarab, turli toifaga bo'linadi. Ular orasidagi eng faol auditoriya yoshlar hisoblanadi. Ularni ham turli guruhlarga bo'lgan holda, muzeyga jalb etish usullarini alohida ishlab chiqish

¹⁵⁷ Mavrulov A.A, Saidboboyev Z.A. Muzeyshunoslik. 2018. - T.: "Turon-Iqbol", 2018.-75 b.

¹⁵⁸ Делибалтова В.К, Бактыбаев Ж.Ш. Вестник КазНУ. Серия «Педагогические науки». №1 (41). 2014

¹⁵⁹ Mavrulov A.A, Saidboboyev Z.A. Muzeyshunoslik. 2018. - T.: "Turon-Iqbol", 2018.-75 b.

zarur.

XXI asr boshlariga kelib muzeylarda o'quvchi va talabalar bilan ishlash jarayonlari birmuncha faollashdi. O'quvchilar toifasi, o'z navbatida, yosh jihatidan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, boshlang'ich sinf, o'rta sinf o'quvchilari, litsey-kollej o'quvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasasi talabalari guruhlariga bo'linadi. Muzey mutaxassisleri yuqorida qayd etilgan har bir guruh bilan alohida muloqotga kirishadi. Bu davrda o'quvchi va talabalar bilan ishlash tajribasi yangi yo'nalishlarda takomillashtirilgan bo'lsa, maktabgacha ta'lim muassasalari bilan muloqot shakllari birinchi bor yo'lga qo'yildi. Sababi, bunday kichik yoshdagi auditoriya bilan ishlash XXI asrgacha O'zbekiston muzeylarida to'laqonli shakllanmagan edi. Albatta, maktab ta'tili vaqtida muzeylar kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar bilan to'lib ketishi sir emas. Yosh bolalarni muzeyga intilishi va qiziqishi doimiy bo'lib, ular turli tadbir ishtirokchilarining ko'pchilik qismini tashkil etib kelgan. Muzeylarda kichik auditoriya bilan ishlashning maxsus yo'nalishi va usullari deyarli rivojlanmaganligi sababli, odatda, o'qituvchilar muzeyga bolalarni asosan 5-sinf dan boshlab olib borar edilar. Ma'lumki, XX asr boshlaridan boshlab, ba'zi muzey va maktab muzeylarida 4 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun maxsus loyihalar ham bo'lgan. XX asrning 90-yillariga kelib esa, muzeylarda kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun tadbirlar o'tkazish ommaviy tus oldi. Lekin, hali bu yoshdagi auditoriya bilan ishlashning shakl va usullari bo'yicha pedagogik-psixologik bilimlar talab darajasida emas edi. Aslida bolalarni estetik ruhda tarbiyalash va ularning ma'naviyatini shakllantirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, aynan maktabgacha tarbiya muassasalarida yosh avlod tabiatdagi turli o'zgarishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni oladilar

Avvalambor, muzeyda maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning psixologik holati, ularning axborotni qabul qilish darajalarini o'rganishda, asosan bolalarda atrof-muhitni anglash, fikrlash va eslab qolish qobiliyatlari hisobga olinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga muzeyga tashrif jarayonida dastlab ekspozitsiyadagi ashyolarning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida suhbat o'tkaziladi. Shuningdek, kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun teatrlashtirilgan, izlanish olib borishga yo'naltirilgan hamda o'yin tariqasidagi mashg'ulotlardan foydalanish mumkin. O'yin tarzidagi suhbat orqali ekskursiyalar o'tkazishda ularning shakllanayotgan psixologik jarayonlarini o'rganib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va bu borada bolalarga zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish zarur. Muzey pedagogikasi kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar bilan ishlashning turli shakllari: viktorina, rebus va musobaqalar tarzida tashkil etishni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, bolalar uchun vazifa tariqasida "Mening shajaram", "Mening uyimdagi yodgorlik", "Uy bo'ylab sayohat" kabi mustaqil vazifalar yoki marshrut varaqalari orqali ijodiy topshiriqlar ham ijobiy natijalar beradi.

Maktab yoshdagi bolalarning muzeyga tashrifini ularning ruhiyatiga to'g'ri keluvchi muloqot ekskursiyalari orqali tashkil etish zarur. Bu borada o'quvchilarning qiziqtiruvchi omillardan kelib chiqqan holda, ularni 7-11 va 11-15 yosh tarzida alohida guruhlash mumkin. Ular bilan ishlashda didaktik o'yinlar, rivojlantiruvchi mashqlar, ijodiy topshiriqlar, munozara, suhbatlarning zamonaviy usullarini ishlab chiqish ijobiy natijalarni beradi. Muzey o'quvchilarga nafaqat turli hodisa va voqealarning sabablari

hamda tartiblari haqida bilimlarni berish, balki uni xotirada saqlash bilan bir qatorda, o‘z oldilariga qo‘yilgan savollarga mustaqil ravishda javob topishga o‘rgatishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda ularni voqea va hodisalarga nisbatan qarashlari muqim hamda mustahkam bo‘lmasligini e‘tiborga olib, bolalarga ko‘proq voqealardagi qahramonlar bilan birgalikda, aynan shu muhitga tushib harakat qilishi, his etishi uchun imkon yaratish kerak. Ularning ongida barcha personajlar ijobiy va salbiy (yaxshi va yomon)ga bo‘linadi. Shuning bilan birga, bolalar, masalan, rasmda tasvirlangan tabiatning ko‘rinishi yoki qahramonning holati va his-hayajonlariga katta e‘tibor qaratadilar. Tabiiyki, bunda ular, muhokama qilishlari va shaxsiy fikrlarini bildirishlari mumkin. 8-9 yoshdagi bolalar badiiy tushunchalar va axborotlarni o‘zlariga singdirib, badiiy obrazlarni sodda tahlil qiladilar.

Shunday qilib, qadimgi tarixdan guvohlik beruvchi asl osori atiqalarni saqlovchi muzey hozirgacha o‘zining qadrini yo‘qotmagan, insonni tarix va madaniyat dunyosiga olib kiruvchi maskan hisoblanadi. Ma’lum ma’noda muzey bolalarga atrof-muhitdagi rivojlanishning murakkabligi va davomiyligi haqidagi tassavurni beradi. Tarixiy va madaniy faktlar, mashhur nomlar, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari nafaqat bolalarning qalbida, balki xotirasida bir umrga qoladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston-strategiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston 2021. 464 b.
2. Mavrulov A.A, Saidboboyev Z.A. Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. / O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. - T.: “Turon-Iqbol”, 2018.-260 b.
3. Ismailova J.X., Nishanova K.S., Muxamedova M.S. Muzey va jamiyat. – T.: Chinor ЭНК, 2015. – 176 b
4. Delibaltova V.K, Бактыбаев J.Sh. Vestnik KazNU. Seriya «Pedagogicheskie nauki». №1 (41). 2014

ПРОБЛЕМА НАСИЛИЯ В ОБЩЕСТВЕ; СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Усанов Равшан Тураевич,

Кандидат философских наук, доцент кафедры «Культурологии»

Худжандского государственного университета имени

академика Б. Г. Гафурова (Худжанд, Таджикистан),

E-mail: ravshan-usanov@mail.ru

Тел: (+992) 92-727-86-83

Усанов Бахтиёр Равшанович,

докторант 3-курса Худжандского государственного университета

имени академика Б. Г. Гафурова (Худжанд, Таджикистан)

Аннотация. В статье говорится, что симптоматичными и тревожными являются различные формы насилия людей по отношению друг к другу. Понимание специфического, нетрадиционного характера форм насилия в

современных условиях, в существенной мере определенного разрушительной мощью насилия и зла, подводит к выявлению и той задачи, которая стоит перед человечеством в его борьбе за мир, справедливость и ненасилие. Однако решение этих фундаментальных проблем общего социального развития требует несравненно более длительного исторического периода, чем тот, который отпущен сегодня человечеству.

Внимание философов, историков и филологов Запада привлекали лишь отдельные стороны философии ненасилия. По мнению автора, некоторые аспекты философия ненасилия, особенно на фундаментальные основы человеческого бытия и ненасилия, проблемы решения человеческих споров и ненасилия, насилия и предотвращения всяких войн, с их возможными разрушительными последствиями для жизни человека и т.д. указывают Г.Шарп, Шарл Джин, М.Вебер, Е.Н. Керр, А.Раул и другие.

По мнению этих авторов признание ненасилия высшей ценностью нашего времени предполагает необходимость постоянного усилия мирового сообщества, государств, религий, конфессий и каждого конкретного индивида.

Ключевые слова: *справедливость, ненасилия, равенство, греческие философы, средневековья, толерантность, зло, война, религия, мир, сообщества*

Изучением и анализом проблемы ненасилия занимаются исследователи различных областей человеческой культуры и знания. Особенно активно проблемы ненасилия разрабатывались в истории западноевропейской философской и общественно-политической мысли.

Древнегреческие мыслители Сократ, Платон [16, 342], Аристотель выяснили общие диалектические законы совершенствования человека в единстве сакрального, нравственного, эстетического отношения человека к Сущему, Благу, Богу, составившие нравственную основу ненасилия.

В эпоху Средневековья идея ненасилия нашла отражение в теологической этике смирения (А. Аврелий, И. Эриуген, П. Абеляр) [2, 335], по существу представляющей собой концепцию непротивления, основанную на христианской заповеди «не убий». Социальная концепция ненасилия получила развитие в новоевропейской философии, где анализируемое явление стало связываться с пацифистскими идеями мира, с разработкой морально-правовых норм социальных взаимоотношений в обществе. В качестве социально-политической программы ненасилие обнаружило себя в учении «о вечном мире» И. Канта [10, 10]. Выступив против войны, И. Кант не просто предложил ей ненасильственные альтернативы, но главное, одним из первых заговорил о ненасильственном диалоге народов, а также предложил вполне реальную мирную программу, ставшую первым шагом на пути современного прагматического ненасилия.

В работах А.А. Гусейнова, Ш.Я. Амонашвили, А.С. Макаренко, В.А. Сухомлинского, В.А. Ситарова, В.Г. Маралова, А.Г. Козловой [7, 53-55], разработаны теоретические основы педагогики ненасилия, приемы и способы ненасильственных педагогических действий, описаны условия формирования ненасильственного отношения учащихся к окружающей действительности и к самим себе, представлена диагностика ненасильственного взаимодействия в

образовательном процессе.

Внимание философов, историков и филологов Запада привлекали лишь отдельные стороны этого феномена. Так, на некоторые аспекты этики ненасилия, особенно на фундаментальные основы человеческого бытия и ненасилия, проблемы решения человеческих споров и ненасилия, насилия и предотвращения всяких войн, с их возможными разрушительными последствиями для жизни человека и т.д. указывают Г.Шарп, Шарл Джин, М.Вебер, Е.Н. Керр, А.Паул [19, 200-207] и другие. В основном, по мнению этих авторов симптоматичными и тревожными являются различные формы насилия людей по отношению друг к другу. Понимание специфического, нетрадиционного характера форм насилия в современных условиях, в существенной мере определенного разрушительной мощью насилия и зла, подводит к выявлению и той задачи, которая стоит перед человечеством в его борьбе за мир, справедливость и ненасилие. Однако решение этих фундаментальных проблем общего социального развития требует несравненно более длительного исторического периода, чем тот, который отпущен сегодня человечеству. Признание ненасилия высшей ценностью нашего времени предполагает необходимость постоянного усилия мирового сообщества, государств, религий, конфессий и каждого конкретного индивида.

Большой вклад в изучение проблемы ненасилия и ненасильственной у цивилизatsii внес М.Л.Кинг [12, 168-181]. В его произведениях подробно раскрыты основные характеристики проблем ненасилия, в частности, он отмечает, что «ненасильственное сопротивление - это не метод для трусов, это сопротивление. Если кто-нибудь использует этот метод потому, что боится или просто потому, что у него не хватает орудий насилия, то он не настоящий сторонник ненасилия». Более того «основным моментом для характеристики ненасилия является то, что с его помощью не стремятся победить или унижить противника, но пытаются завоевать его дружбу и понимание» [13, 17]. Эти идеи М.Л.Кинга вдохновили и практически руководили ненасильственной борьбой американских негров за гражданские права.

В российской историко-философской и этической литературе, также как и в западно-европейской философской и политической литературе, проделана определенная работа по изучению теории ненасилия. Издан целый ряд монографий и сборников, в которых анализируются не только философские взгляды российских мыслителей прошлого, но и ряда ученых-теоретиков Западной Европы и Индии [18, 47].

Если Л.Н.Толстой выдвинул идеал любви как практическую основу общественного жизнеустройства, то В.С.Степин, анализируя особенности культуры техногенного мира, глобальных катастроф и опасностей, в рамках идей Л.Н.Толстого и М.Ганди, предлагает стратегию ненасилия как стратегию будущего для человечества, где указывает, что «важно, чтобы человечество от старых менталитетов техногенной цивилизatsии перешло к новому видению мира. Новый способ жизни в этом мире обязательно будет включать в себя стратегию ненасилия» [17, 199].

Невозможно не согласиться с этими выводами исследователя, поскольку

ненасильственная борьба является огромной силой в нашем несовершенном мире. Она дает людям возможность отстаивать свои требования, осуществлять значительные перемены, защищать свой образ жизни без опоры на элиту, обладающую властью, или на репрессивный аппарат.

Она основывается на понимании того, что политическая власть в конечном счете базируется на социальном сотрудничестве и действиях масс, но не на насилии.

После серий терактов в России, а также событий 11 сентября 2001 г. в Нью-Йорке и на острове Бали (Филиппины) многие российские исследователи стали всерьез заниматься вопросами насилия и ненасилия. Эти проблемы, анализируясь в ракурсе проблем этнополитического конфликта, терроризма и экстремизма, нашли свое отражение в работах Р.Г.Абдулатипова, Н.Н.Афанасьева, О.Белекова, Л.Н.Вдовиченко, В.Волкова, А.С. Грачева, А.А.Гусейнова, М.И.Дзлиева, И.Ильинского, Е.П. Кожушко, Н.Никулиной, Э.А.Паина [1] и др.

Такая же активность наблюдается среди индийских исследователей, которая связана с идеей М.Ганди [5, 65-66]. Великий духовный и политический лидер Индии Махатма Ганди считал, что в основу всей земной цивилизации был положен всеобъемлющий принцип ненасилия. Народ Индии применил сатьяграху, то есть ненасильственный метод борьбы за свою национальную независимость.

Ганди пришел к выводу, что существование человечества доказывает, что ненасилие превалирует над насилием. Превалирование ненасилия над насилием не является привилегией человеческой формы жизни. Это – существенная основа жизни вообще. Жизнь сама по себе, во всех ее формах есть асимметрия в сторону ненасилия, созидания. По замечанию Ганди, «если бы враждебность была бы основной движущей силой, мир давно был бы разрушен, и у меня не было возможности написать эту статью, а у вас - ее прочитать» [6,168].

Для Ганди ненасильственный ответ на насилие имеет огромное преимущество, он более достоин в нравственном плане. Он является вызовом насилию, формой борьбы с ним.

Что же касается анализа собственно теории ненасилия в истории персидско-таджикской культуры, то она в общей форме так же и в контексте той или иной концепции затрагивалась и частично анализировалась в обобщающих трудах Богоутдинова А.М., Диноршоева М., Ашурова Г., Олимова К., Одилов Н., Хазраткулова М., Рахимова С.Х., Ахмедова С., Рахимова М., Додихудоева Х., Садыковой Н.Н., Курбон Восеъ, Содикова А.У., Абдуллоева Ш., Шамолова А., Комилова Р.С., Мирзоева, Умедова М. и др. Особенно в работе Махмаджоновой М.Т. «Этические взгляды Джалолуддина Руми» [14], в отдельном параграфе под названием «Проблема свободы воли. Идея непротivления злу насилием» конкретно анализируется проблема ненасилия в творчестве Руми. Автор указывает, что в этике мыслителя ярко прослеживается концепция о не противодействии злу. По мнению автора, данная концепция имеет в восточной этической мысли глубокие корни, ибо в этике предшествующих веков чувство мести вызывало неодобрение, существовала тенденция не отвечать злом на зло [14]. С этими выводами автора невозможно

не согласиться, поскольку отношение ко злу как к испытанию, ответ на зло добром составляли гуманную основу этических воззрений таджикских мыслителей средневековья.

Анализируя непосредственно идеи о ненасилии в творчестве персидско-таджикских мыслителей в философском аспекте, мы особенно широко использовали труды отечественных исследователей, которые объектом своего изучения выбрали социально-философские стороны этой философской категории. Здесь можно назвать докторов философских наук Мухаммедходжаева А., Зиёева Х.М., Махмаджоновой М.Т. Бобоева М.Р., и Умедова М. Обращались мы и к «Истории таджикской философии. С древнейших времён до XV века», в который также изучаются, феномен ненасилия кратко и как этическая и педагогическая категория.

В Узбекистане глубокое изучение идея толерантности восточных мыслителей началось в 90-годах XX века. Ученые Узбекистана В.Каримова, А.Бегматов, Э.Каримова, З.Қодирова, А.Шарипов, Б.Фарфиев, С.Отамуротов, М.Хажиева, А.Саидов и другие изучали эту проблемы различными образом. Также, основываясь на принципах священной религии ислама, Корана, Хадис Шариф [20] и трудах наших предков и великих деятелей (А. Навои, А. Темур, аз-Замахшари, Абу Лайс ас-Самарканди, Имам ал -Бухари, Термези, Мотуруди и др.) показаны национальная, религиозная, политическая сторона толерантности. А.Очилдиев, М.Хажиева, А.Хасанов [15] всесторонне раскрыли онтологические и гносеологические аспекты толерантности. В 90- годах прошлого века такие ученые, как Э.Г.Каримова, Г.Н.Низомиддинов [11] анализировали общественное и нравственные аспекты толерантности. Среди ученых Узбекистан, посвященных анализу научных, философских интерпретаций исламского учения и принципов толерантности, - научные труды З. Исламова, К. Камилова, Н. Юсуповой, И. Р. Ходжамуродова и Ю. М. Якубова [4] играют важную роль. Книги по священным источникам буддизма, христианства и ислама, их богословские и научные комментарии в изучении различных диссертациях тоже ценима. Однако, необходимо отметить что, целенаправленное исследование философии толерантности в Узбекистане тоже не наблюдается.

Несомненно, имеются определенные успехи в изучении теории ненасилия в творчестве таджикских мыслителей средневековья. Вместе с тем, еще имеется много проблем в этой области, без серьезного исследования которых будет трудно воссоздать историю этической мысли таджикского народа. Так, все еще остается не исследованным вопрос о наличии, месте и роли этики ненасилия в истории философско-этической мысли таджикского народа. Нет единого мнения по поводу характеристики понятия ненасилия в Коране, сунне и других источниках этической мысли мусульманского Востока.

Спорным, на наш взгляд, является и бытующая в философской литературе точка зрения, согласно которой этика ненасилия является порождением европейского мышления, и она чужда для мусульманского мировоззрения, якобы «религиозный экстремизм» и «мировой терроризм», в первую очередь, связаны с исламским миром. Причины подобного подхода к религии ислам и творчеству мусульманских мыслителей заключаются не только в различных идейных и методологических установках исследователей, не только в отсутствии

анализа этой проблемы в трудах мыслителей этого региона, но и в искажении и игнорировании того неоспоримого факта, что не только Священная Книга мусульман, но и этическое наследие мусульманского Востока, всегда выступали за соблюдение нравственных заповедей, добра и справедливости, против терроризма, насилия и зла. Ярким примером этого могут послужить не только философские трактаты наших мыслителей, но и вхождение законов религиозной нравственности в государственную политику. Закон любви к Богу и к человеку как проявлению Бога на уровне земного бытия в течение тысячелетий является главной религиозной заповедью и нормой индивидуального и общественного поведения каждого последователя ислама.

Все еще не выработано однозначное решение вопроса о сущности этики ненасилия и проблемы антинасилия в творчестве не только таджикских мыслителей средневековья или позднесредневековья, но и мыслителей Ближнего и Среднего Востока в целом. Путь к решению данной проблемы должен лежать через тщательное изучение трактатов мыслителей Востока и их сопоставление с трудами философов Западных стран и других религиозных верований и конфессий.

Эти и другие спорные вопросы, на наш взгляд, безусловно, являются следствием слабой изученности или неизученности проблемы ненасилия в творческой деятельности наших мыслителей, или же игнорировании наличия идей ненасилия в их учениях.

Использованная литература:

1. Абдулатипов Р.Г. Этнополитические конфликты в СНГ: национальные механизмы разрешения. - М., 2000 и др.
2. Аврелий Августин, Абеляр Петр. Августин Аврелий. Исповедь: Петр Абеляр. История моих бедствий. Человек в исповедальном жанре. - М., 1991. - 335 с.
3. Азимов К.А., Сатыбекова С.К. У истоков гуманистической традиции общественной мысли народов Востока// Филос.науки, 1987, №3; Геюшев З. Этическая мысль в Азербайджане.-Баку:Гянджлик, 1968.
4. Бобоева М.Р. Теоретические основы педагогики ненасилия в контексте гуманистического воспитания подрастающего поколения. Дисс. канд. пед н. – Душанбе. 2020. Умедов М.Х. Идеи толерантности в учениях Фаридаддина Атгара и Джалаледдина Руми (философско-культурологический анализ). Дисс. док. филос. н. – Душанбе. 2022. Богоутдинов А.М. Очерки по истории таджикской философии. – Душанбе, 2014; М.
5. Ганди М. Моя вера в ненасилие//Вопросы философии. 1992. № 3.-С.65-66.
6. Ганди М. Сатьяграха//Ненасилие: философия, этика, политика.- М.,1993.-С.168.
7. Гусейнов А.А. Об этическом образовании // Вестник Российского философского общества. - 2003. - № 2. - С. 53-55 и др.
8. Диноршоев М.Д. Философия Насириддина Туси.-Душанбе: Дониш 1968.

9. Игнатенко А.А. Средневековые «поучения владыкам и проблематика власти//Социально-политические представления в исламе.-М.:Наука, 1987.
10. «К вечному миру» И. Канта. - М., 1989. - С. 10.
11. Каримова Э.Г. Ўзбек толерантлигининг этнорегионал хусусиятлари социологик ўрганиш. Фалс. фан. номз. дисс. автореф. – Т.: 2003. – 24 б.
12. King M.L. Stride Toward Freedom.- N.Y., 1958; Кинг МЛ. Паломничество к ненасилию//Этическая мысль. Научн-публ.чтения. 1991.-М.:Республика, 1992.-С.168-181; Его же. Любите врагов ваших//Вопросы философии. №3,1992.-С.66-67.
13. Кинг М.Л. Паломничество к ненасилию.-С.17.
14. Махмаджонова М.Т. «Этические взгляды Джалолуддина Руми», - Душанбе: Деваштич,2001.
15. Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. – Т.: Ўзбекистон, 2004. – 146 б.; Бағрикенглик – барқарорлик ва тараққиёт омили. / Масъул мух. А.Очилдиев. – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт матбаа бирлашмаси, 2007. – 132 б.
16. Платон. Соч. в 3 т. Т. 1. -М., 19. - С. 342
17. Степин В.С. Перспективы цивилизаций: от культа силы к диалогу и согласию-С.199.
18. Толстой Л.Н. Ни убий никого//Толстой Л.Н. Полн. собр. соч., Т.47.-М. 1937; Степин В.С. Перспективы цивилизаций: от культа силы к диалогу и согласию//Этическая мысль. Научн. публ. чтения. 1991.-М.:Республика, 1992,- С.182-199;
19. Шарл Джин. Ненасильственная борьба: лучшее средство решения острых политических и этических конфликтов//Этическая мысль. Научн. публ. чтения.-М., 1992.-С.200-207.
20. Куръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамаси ҳузуридаги Тошкент ислом университети; таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур. – Т.: «Тошкент ислом университети», 2014. – 624 б.

YOSHLARNI BARKAMOL RUHDA TARBIYALASH BARQAROR TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR.

Normuminov Ramziddin Xayitovich
O‘zbekiston-Finlandiya instituti
assistenti +998 93 333 30 93
ramziddinnormuminov18@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada barkamol avlod qanday bo‘lishi kerakligi haqida so‘z boradi. Maqolada yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalashda bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlar yoritib o‘tilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Barkamol inson, tarbiya, Amir Temur, tyutor, islohotlar, farmonlar, yoshlar siyosati

Abstract. The article talks about how a perfect generation should be. The article highlights the work being done to educate young people in a healthy spirit.

Key words: Perfect human being, education, Amir Temur, tutor, reforms, decrees, youth policy

Har qanday kishi kelajakni o‘ylab, ertangi kun umidi bilan yashaydi. Kelajak esa bu bevosita bugungi kun yoshlariga bog‘liq. Yoshlar bizni ertamiz. Kelajakda jamiyatimizni rivojlanishida sog‘lom muhit paydo bo‘lishida esa bevosita ta‘lim va tarbiyadan najot kutamiz. Yosh niholni qay tarzda ekib, qay tarzda o‘stirsak biz xuddi shunday hosil olamiz. Zero jadid adabiyotimizda muhim iz qoldirgan Abdulla Avloniy bobomiz ta‘kidlaganlaridek: “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot masalasiga aylanmog‘i lozim”. Har birimiz bu purma‘no fikrlarni salmog‘ini anglamog‘imiz lozim. Barcha rivojlangan davlatlar statistikasiga e‘tibor qaratar ekanmiz ularning hammasiga yoshlarga bo‘lgan e‘tiborning tarbiyaning ahamiyatini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatni rivojlanishida iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlanishi uchun yosh avlodga tarbiyaning to‘g‘ri va samarali usullaridan foydalanish zarur. Yoshlarimiz barkamol, aqlan etuk, sog‘lom bo‘lib tarbiyalanishida jamiyatimizning har bir a‘zosining o‘z o‘rni va roli mavjud. Zero, xalqimizda: “Bir farzandga etti mahalla ota-ona” kabi maqollar bugungi kungacha etib kelganligining boisi ham shunda. Zero iymon e‘tiqodi butun ziyoli insondan vayronkor g‘oyalar chiqmasligi aniq. Barkamol komil insonni tarbiya etishda ular kimlarning avlodi ekanliklarini eslatib o‘tish, ularga munosib bo‘lish zarurligini o‘qtirish lozim. Albatta, bizning yurtimizda qanchadan-qancha buyuk insonlar etishib chiqqan. Dunyoning nafaqat kuch qudrati balki adolatli siyosati bilan lol qoldirgan buyuk sarkarda bobomiz Amir Temurning jasoratlari va ibratli buyuk merosini e‘tirof etmaslikning iloji yo‘q. Amir Temur o‘zining "Temur tuzuklari" asarida: “Birlashmagan, o‘ziga va kuch qudratiga ishonchi bo‘lmagan yuz ming kishilik qo‘shinni, osongina engish mumkin”¹⁶⁰ - deya ta‘kidlab o‘tgan.

Biz yosh avlodni tarbiyalashda o‘zining bilim va salohiyatiga ishonadigan, kelajakka ishonch bilan boqadigan, etuk farzandlarni tarbiyalashimiz kerak. Bu bizning oldimizda turgan eng oliy vazifadir. Zero jadidchilarimiz Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Qodiriylar ham bunga astoydil bel bog‘lashgan. Yoshlarimiz bilim olishi, turli xil eskicha qarash va yot g‘oyalardan uzoq turishi uchun o‘zlarining aziz jonlari va bebaho vaqtlarini ayashmagani kuni kechagi tariximizdan ayon.

Jadidchilarimiz yoshlarni dunyo ilmlaridan xabardor bo‘lishlari, dunyo ta‘lim faoliyatini o‘rganib vatanimizda keng joriy etishga harakat qilganlar. Shu maqsadlarda qancha darslik va gazetalar nashrdan chiqdi. Yangi usuldagi maktablar ochildi. Bular jadidlarimiz yosh avlodni komillik sari etaklagan ishlardan o‘ndan birigina xalos.

Xo‘sh biz tarbiyalayotgan, mamlakat ertasini ishonmoqchi bo‘lgan barkamol avlod qanday bo‘lmog‘i lozim? Barkamol inson deganda nimalarni nazarda tutyabmiz?

Barkamol inson har jihatdan komillikka erishgan, o‘zida ijobiy jihatlarni kamol topdirgan, jamiyatdagi insonlarga va bo‘lib o‘tayotgan voqealarga befarq bo‘lmagan shaxsnigina biz barkamol inson deya olamiz. Qadiryat va an‘analarimizga sodiq, ularga hurmat bilan qaraydigan, ota-bobolar merosini asrab avaylaydigan, faqatgina o‘zini emas balki jamiyatdagi boshqa millat vakillariga ham hurmat va izzat ko‘rsata

¹⁶⁰ Hamdam Sodiqov “Amir Temur hayotidagi g‘aroyibotlar” tarixiy badialar. Toshkent-206

oladigan shaxslargina komillik darajasiga etadi. Aynan shu yoshlar mamalakat reytingini yuqori darajaga chiqara oladi.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq barkamol avlod ta'lim tarbiyasiga e'tibor yuqori pog'onaga ko'tarildi. Maktab darsliklarida "Vatan tuyg'usi", "Odobnoma" kabi fanlari o'tila boshlandi. Ushbu darsliklar asosida esa ona Vatanga muhabbat bunyodkor g'oyalar orqali yosh avlodga singdirila boshlandi.

Yoshlarni hozirgi vaqtda barkamol avlod qilib tarbiyalash uchun bir qator muhim qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Yurtimizda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda so'nggi yillarda tub islohotlar olib borilmoqda¹⁶¹

Maktabgacha ta'lim muassasalarining sonini va salmog'ining oshib borishi, ularda yoshlarni turli xil matematika, badiiy gimnastika, sog'lomlashtiruvchi to'garaklarning faoliyat olib borishi, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun qo'shimcha fan va sport to'garaklarining tashkil etilayotganligi, o'quvchilarning yuqori sinflarda kasb-hunarga o'rgatish kurslarining joriy etilganligi yuqoridagi qaror va farmonlarning ijrosini ta'minlamoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ham tub o'zgarishlar olib borilmoqda. Birgina oliy ta'lim muassasalarida kirish imtihonlarining tubdan o'zgarganligi test sinovlarining shaffof va adolatligi eng ko'zga tashlanadigan jihat bo'lsa, ta'lim jarayonida ham qator o'zgarishlar ro'y bergan.

Endigina talabalik safiga qabul qilingan talabaning yotoqxonaga bilan ta'minlanishi, ayrim imkoniyati mavjud bo'lmagan talaba yoshlarning yotoqxonaga uchun to'lovlarini davlat tomonidan to'lab berilishi, ta'lim jarayonida talaba yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularda yuzaga keladigan ta'lim sohasiga oid muammolarni bartaraf etish, hamda turli xil korrupsion holatlarni oldini olish maqsadida tyutorlik lavozimi joriy etilganligini ko'rishimiz mumkin. Talaba yoshlarning dars mashg'ulotlariga o'z vaqtida qatnashishi, darsdan so'ng ularning vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida turli xil badiiy kechalar, davra suhbatlari, ko'rik tanlovlar o'tkazilib kelinishi ham yoshlar vaqtini behuda sarflanishini oldini oladi, albatta¹⁶².

Pedagogika sohasida tahsil olayotgan talaba yoshlar mutaxassis sifatida ish o'rinlariga ega bo'lganlarida to'rt, besh yil davomida ish joyiga va ish o'rganish uchun vaqt sarflamasliklar, qolaversa, psixologik jihatdan pedagogik mahoratga ega bo'lishlari uchun maktablarda 4+2 dasturi asosida 3 yil davomida amaliyot o'tashlari belgilab qo'yildi. Bugungi kunda ular haftada 2 kun maktabda o'quvchilar bilan birga bo'lishi, ularga ta'lim tarbiya berish jarayonlarini bevosita kuzatishi, dars jarayonida o'quvchilar qiziqish va intilishlarini e'tiborga olish, darsda erishilgan yutuq va kamchiliklarni kuzatishlari, kelajakda esa o'z faoliyatida ushbu o'rganganlarini qo'llay olishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda bunday imkoniyat va shart-sharoitlar hadsiz.

¹⁶¹ Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-yuldagi qarori

¹⁶² Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 30-sentabrdagi 412-sonli buyrug'i. "Davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi na'munaviy nizom" 1-ilova 1-bet.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ularga faqat imkoniyatlar eshiklarini ochishimiz bilan bir qatorda, to'g'ri yo'ldan borishni, ularning huquq va erkinliklari bilan bir qatorda ona Vatan oldidagi burchlarini ham sofdillik va toza qalb bilan bajarishi lozimligini uqtirishimiz kerak. Bu bizning kelajak yoshlari oldidagi burchimiz hisoblanadi. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yoshlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, va albatta baxtli bo'lishlari kerak"¹⁶³ deya bejizga aytib o'tmaganlar.

TALABA- YOSHLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY OMILLARNING YUKSALTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Abdullaev Bahodir Ismailovich

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Urganch Ranch texnologiya

universiteti dekan o'rinbosari

+998 97 525 42 14

bahodirabdullayev@gmail.com

O'zbekiston, Xorazm viloyati Urganch shahri

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan yurish turish, xulq, odob, muomala va munosabat qoidalariga rioya qilishi axloqlilikning belgisi ekanligi, hamda bu boradagi an'ana va qadriyatlardan chekinish yoki ularni e'tiborga olmaslik esa axloqsizlik deb baholanishi ochib berilgan.

Kalit so'z: ma'naviy taraqqiyot, ilmiy texnik izlanishlar, ijtimoiy adolat, ideal jamiyat, komil inson, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, iymon e'tiqod, go'zal xulq va atvor, jamoaviylik, inoqlik, kamtarlik, saxovatpeshalik, tinchliksevarlik.

Abstract: In this article, it is revealed that every person's adherence to the rules of conduct, behavior, manners, behavior and attitude existing in the society is a sign of morality, and it is considered immoral to deviate from the traditions and values in this regard or to ignore them. .

Key words: spiritual development, scientific and technical research, social justice, ideal society, perfect human being, high spirituality, humanitarianism, patriotism, faith, good manners, collectivity, kindness, humility, generosity, peace-loving.

Ilmiy texnik bilimlar ham ma'naviy taraqqiyotning ob'ektiv qonunlari, talablari in'ikosidir. To'g'ri, ma'naviy merosimizda bu muammoni hal etishga o'rin topilmagan, ammo hozirgi davr ilmiy texnik izlanishlarni taqozo etadi; ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ilmiy texnik inqilob yutuqlaridan unumli foydalanish zaruriyatga aylangan. Shubhasiz, xalqimiz ma'naviy merosida ulug'lanadigan ijtimoiy adolat, ideal jamiyat, komil inson, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, iymon e'tiqod, go'zal xulq va atvor, jamoaviylik, inoqlik, kamtarlik, saxovatpeshalik, tinchliksevarlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik kabi fazilatlar o'lmas qadriyatlardir,

¹⁶³ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" –Toshkent:"Ma'naviyat", 2010

ularni o'zlashtirish va yosh avlod qalbiga singdirish burchimiz. Biroq ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv qonunlari, innovatsion rivojlanish talablari ma'naviy axloqiy omillar, mohiyatiga ko'ra, ajdodlarimiz yaratgan, ulardan meros bo'lib kelayotgan, xalqimiz va millatimiz mentaliteti, turmush tarzi, madaniy hayotidan joy olgan qadriyatlar hisoblanadi. Ularning turli manfaatlar va qiziqishlar bilan bog'liqligi ma'naviy axloqiy hayotda "men" va "biz" kategoriyalarini shakllantirgan. "Jamiyatda asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan marosimlar, an'analar, urf odatlar ham shaxs bilan jamoatchilik o'rtasida bo'ladigan axloqiy munosabatlarning ko'rinishi hisoblanadi. Shularga rioya qilish asosida individual "men" bilan kollektiv "biz" o'rtasidagi munosabatlar uyg'unlashadi" [1.79].

Ko'p adabiyotlarda Sharq ma'naviy axloqiy imperativlarida "biz" ustuvorlik qilishi ta'kidlanadi. Ushbu kommunitarizm an'ana darajasiga ko'tarilgani salbiy, konservativ hol emas, albatta. Ammo jamiyat taraqqiyotida hech qachon yo "men" yoki "biz" kategoriyasi mutlaq ustunlik qilmagan, ularni uyg'unlashtirmay yashash mumkin emas edi. To'g'ri, bu kategoriyalar, tasavvurlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi tabiiy holdir. Chunki "shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar rivoji faqat mushtarakliklardangina iborat emas. Bu munosabatlarda ziddiyatlar ham bo'ladi. Bu ziddiyatlarning asosi shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni anglash va shakllantirishdagi nomutanosiblikdir. Shaxs bu alohida odam. Jamiyat esa ana shunday alohida odamlarning muayyan maqsadlar asosida shakllangan birligidir. Ziddiyatlar jamiyat shaxsni, shaxs jamiyatni anglamasligi natijasida sodir bo'ladi. Shaxsiy xudbinlik yoki, aksincha, shaxs manfaatlarini butunlay soyada qoldirish natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlar katta ijtimoiy fojealarga ham masalan, ikki marta Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan Mariya Kyuri Skladovskaya hayotini oling. Betakror ilmiy qobiliyat egasi, daho ijodkor o'z qiziqishlariga, izlanishlariga shunchalik berilganki, hatto ayolda hech bo'lmaganida uchta to'rtta kuylak bo'lishi kerakligini o'yiga ham keltirmaydi. Uning "men"i poloniya, radiy izlashda. U ushbu izlanishlarida mudom yakka qolishni istaydi. Eri, Per Kyuri, u ham Nobel mukofoti sovrindori, bilan hamkorligigina unga huzur, hayotidan qoniqish beradi. Buni ijodiy (ijobiy) egoizm deyish mumkin, ammo baribir egoizm-da [2]. Buyuk ijodkorlarning ko'pchiligi u yoki bu qusurlarga, o'z "men"ini ulug'lashdek takabburlikka berilishgan [3]. Innovatsion tafakkurda ijod talvasasiga berilish uchraydi, ammo bu ham chin ixtirochilarga xosdir. Yangilik yaratish dardi va zavqi "men"ni faollashtiradi, uni goho yon atrofdagilarga raqib qilib qo'yadi. Katta ijodkorlardagi odamovilik, davralarni, olomoni va hashamlarni yoqtirmaslik shu sabablidir. Bu xislatlarni Beruniy, Ibn Sino, mutasavvuflarda ham uchramiz. "Men" faqat g'arb ijodkorlarigagina taalluqli emas, uni deyarli barcha yirik shaxslar fazilatlarida kuzatamiz. Biroq Sharq an'analari "men"ni mudom o'ziga imtisol etib kelgan, "biz" doirasidan chiqish hatto o'ta qobiliyatli shaxslarda ham kamdan kam uchraydi. Bizning fikrimizcha, shu o'rinda Sharqda ilmiy texnik tafakkur etarli rivojlanmaganining boisi yotadi. Bu hatto E.Yusupovning quyidagi o'rinli fikrlarida ham ko'zga tashlanadi: "Ijtimoiy axloqiy burch va mas'uliyat, deb yozadi hurmatli olimimiz, ba'zan insonning shaxsiy manfaatlariga zid kelib qoladi. Inson ba'zan ijtimoiy axloqiy burch va mas'uliyatning bir qismi bo'lgan an'analar, urf odatlarni ham chetlab o'tishga intiladi. Ijtimoiy muammolar doirasida muayyan an'analarni chetlab o'tishga intilish hissiyot va

ehtiroslar ta'sirida bo'lgan yoshlarda ko'proq uchraydi. Ular ba'zan muayyan ijtimoiy, axloqiy muhitga moslashishdan ko'ra, uni o'ziga moslashtirishga moyil bo'ladilar. Sevgi, muhabbat bobida ham ba'zan ota ona, jamoatchilik fikrini e'tiborga olmay o'z niyatiga etishga intilish hollari bo'ladi, hissiyotlar ba'zan kishini to'g'ri yo'ldan ozdirib yuboradi. Ba'zi odamlar jamoatchilik fikri bilan shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etish yo'llarini topa olmaganida o'z joniga qasd qilishga qadar etib boradi". [4.79]. Olimning fikrlaridan ma'lum bo'ladiki, yoshlarning ma'naviy hayoti jamoatchilik fikriga muvofiq kelishi, "biz" talablarining in'ikosi bo'lishi kerak. Shaxsiy manfaatlarni jamoatchilikka baxsh etish ma'naviy kamolot belgisi sifatida qaraladi. Sharqona traditsionalizm shaxsning o'z doirasidan tashqariga chiqishiga yo'l bermaydi, uni ma'naviy axloqiy imperativlar chegarasida ushlab turadi. Bu yaxshimi yoki salbiy holmi? Ijobiy hol bo'lsa, yaxshi jihatlari nimalardan iborat, agar salbiy hodisa bo'lsa, bu jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi? Bu jihatlarning mavzuga, innovatsion tafakkurga nima aloqasi bor? Birinchi savol bo'yicha akademik E.Yusupov quyidagi fikrlarni bildiradi: "Axloq, deb yozadi olimimiz, har bir shaxs o'zini boshqalar oldida burchli va mas'uliyatli deb his qilishining natijasidir. Shunga asoslanib axloqiy kamolot inson o'z hayoti, faoliyati jarayonida asrlar davomida shakllanib kelgan ma'naviy qadriyatlarni anglashi, ularga tayanishi va rivojlantirishidir deb xulosa qilish mumkin. Asosiy masala har bir xalq qanday axloqiy merosga ega ekanligidagina emas, balki yangi avlodlar ularga qay darajada amal qilayotgani va rivojlantirayotganidadir. Shu sababli ham har bir shaxs jamiyatda mavjud bo'lgan yurish turish, xulq odob, muomala va munosabat qoidalariga rioya qilishi axloqlilikning belgisi hisoblanib kelgan. Bu boradagi an'ana va qadriyatlardan chekinish yoki ularni e'tiborga olmaslik esa axloqsizlik deb baholangan. Axloqsizlik "men" bilan "biz" o'rtasidagi mutanosiblik buzilishi, ziddiyat paydo bo'lishidir" [5.80]. Ma'lum bo'ladiki, asrlar davomida shakllangan qadriyatlar shaxs xatti harakatlarini belgilab beradi, ularga amal qilish axloqlilik, ularni buzish axloqsizlik sifatida baholanadi. "Men" bilan "biz" o'rtasidagi asrlar davomida o'rnatilgan mutanosiblik buzilishi mumkin bo'lmagan qat'iy axloqiy imperativga aylantiriladi. Ma'naviy axloqiy nuqtai nazardan bu fikr e'tiborlidir, biroq uni insonning barcha xatti harakatlariga, shu jumladan, ijodiy faoliyatiga, innovatsion izlanishlariga ham ko'chirish xavfi mavjuddir. Agar Sharqda insonning deyarli barcha faoliyati ma'naviy axloqiy imperativlarga muvofiq o'lchanib kelganini eslasak yuqorida xavf asossiz emasligini payqaymiz. Shu bilan birga mazkur fikrning, ma'naviy axloqiy imperativning ijobiy tomoni ham mavjud. G'arbda ro'y bergan ilmiy texnik inqilob asrlar davomida shakllangan an'analarni rad etdi, insonning intellektual kuchini, ilmiy salohiyatini ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi yagona omil deb bildi. Natijada G'arb sivilizatsiyasi ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi, insonni tabiiy muhitga mutelikdan xalos qildi, turmushini farovon, fikrini erkin va imkoniyatlarini keng, rang barang va zavqli qildi. Ammo G'arb asosiy qadriyat sifatida sig'inadigan boylik, pul, farovonlik, E.Fromm e'tirofiga ko'ra, "dunyoni ag'dar to'ntar qiluvchi, barcha tabiiy narsalarni va inson sifatlarini o'zgartiruvchi va yakson qiluvchi universal vajlarga aylandi" [6.315]. Bunda ilmiy texnik inqilob va u tug'dirgan hayotiy ideallar, turmush va fikrlash tarzi muhim rol o'ynadi. Ilmiy texnik inqilobning global ekologik, demografik, ma'naviy inqirozlarni keltirib chiqargani esa umume'tirof etilgan va u insoniyatni halokat

yoqasiga olib kelib qo‘ygan. Ilmiy texnik tafakkurni rivojlantirishga mukkasidan ketib berilishning ushbu fojiali oqibatlarini innovatsion taraqqiyotga ko‘chmasligi zarur. Buni avvalo ma’naviy axloqiy an‘nalarimiz, Sharqona traditsionalizm to‘xtatishi, oldini olishi mumkin. Ma’naviy axloqiy imperativlar bilan innovatsion tafakkur o‘rtasidagi dialektik aloqalarning shartligi aynan shu joyda namoyon bo‘ladi. Bu yuqoridagi birinchi hamda ikkinchi savolga javobdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Hayotda axloq manfaatga emas, balki manfaat axloqqa bo‘sunishi lozim. Agar manfaat axloqdan ustun deb qaralsa, kishilar barchaga ayon bo‘lgan oddiy haqiqatni ham inkor etish yo‘liga o‘tib oladilar. Odamzod orasida shundaylar bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘ladi. Tarbiyaviy ishlarning dolzarbligi ham shunday sabablar bilan belgilanadi”. [7. 81] Ilmiy texnik tafakkur, kashfiyotlar ma’lum bir manfaatlar nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kuzatiladi. Yirik metsenatlar u yoki bu ilmiy texnik ixtirolarni qo‘llab quvvatlaganlarida o‘zining moddiy imkoniyatlarini kengaytirishni ko‘zlaydilar. Bu intellektual dunyoda keng tarqalgan an‘anadir. Demak, innovatsion kashfiyotlarning umumma’naviy axloqiy imperativlarga, talablarga zid kelish xavfi mavjud. Metsenatlar manfaatlarining umumma’naviy imperativlar, talablardan ustun kelishi jamiyatdagi barqarorlikka, ittifoqqa va adolat tamoyillariga bir kunmas bir kuni zid keladi, bu ijtimoiy hayotda bezovtalik uyg‘otmay qolmaydi.

Adabiyotlarning ro‘yxati:

1. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. Toshkent: Universitet, 1998. 79 b.
2. Qarang: Kyuri Ye. Mariya Kyuri. Perevod s frans. Izd. 3 e. Moskva: Atomizdat, 1973.
3. Qarang: Таупные страсти великих. Moskva: AST: Zebra Ye, 2008.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. Toshkent: Universitet, 1998. 79 b.
5. O‘sha asar. 80 b.
6. Qarang: Fromm E. Искусство быт. Moskva: AST, 2014. S.315
7. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. Toshkent: Universitet, 1998. 81 b.

ПРАВСТВЕННО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АБУ АБДУЛЛЫ РУДАКИ

Дилфуза Вахобова

докторант, преподаватель кафедры «Исламская история и источниковедение, философия» Бухарского государственного университета
dilfuzavaxobova72@gmail.com

Аннотация. Данная научная работа обсуждает нравственно-воспитательное значение общечеловеческих ценностей в духовном наследии великого персидско-таджикского поэта Абу Абдуллы Рудаки. Рудаки, известный своими философскими стихами и мудрыми изречениями, оставил наследие,

которое вдохновляет нас к размышлениям о нравственности, справедливости и человеческих ценностях. В данной работе будет проанализировано, какие именно ценности Абу Абдулло Рудаки выделял и как их восприятие может повлиять на формирование нравственного сознания и воспитание человечества.

Ключевые слова: Рудаки, духовное наследие, общечеловеческие ценности, нравственное воспитание, поэзия.

Введение: Абу Абдуллах Рудаки – выдающийся персидский поэт и мыслитель IX века, чьи творения оказали глубокое влияние на развитие персидской литературы и культуры в целом. В своих стихах Рудаки затрагивал широкий спектр тем, включая любовь, природу, философию и нравственность. В данной работе мы сосредоточимся на нравственно-воспитательном значении общечеловеческих ценностей, выраженных в духовном наследии Рудаки, и их роли в современном мире.

Обсуждение:

Человеческие ценности в поэзии Рудаки: В творчестве Рудаки часто прослеживаются универсальные человеческие ценности, такие как честность, милосердие, доброта и справедливость. Он подчеркивал важность этих ценностей для достижения гармонии и благополучия в обществе. Еще один путь искоренения человеческих пороков и устранения несправедливости нашел Абу Абдулло Рудаки-это проповедь этических идеалов. Один из них- дружба. Поэт ставит очень высоко дружбу между людьми, считает общение с друзьями лучшим благом в жизни, а разлуку с ними - самым горестным переживанием:

Нет большей радости в мире,

Чем видеть лица друзей

Нет горя для сердца горше,

Чем расставание с достойными друзьями. [6, 186 с]

Распространенная таджикская пословица о друге и недруге нашла такое воплощение в стихах Рудаки:

Не наживай врагов, ибо один враг -

Это много, а друзей, будь их тысячи, - мало. [6, 186 с]

С идеей дружбы в стихах Рудаки непосредственно связана трактовка отношения к врагу. Поэт учит даже к личным врагам относиться миролюбиво, ласково:

С тем, кого я знаю как врага своего,

Как злоумышленника против моей чистой души,

В любом случае я буду дружелюбен

И буду говорить с ним спокойно. [6, 187 с]

Рудаки призывает сторониться подлых и мерзких людей:

Как бы ни лелеял ты змею.

Стоит только прийти ей хоть раз в ярость -

и тебя постигнет возмездие.

Несомненно, подлый человек обладает природой змеи,

Старайся не иметь дела с подлым. [6, 187 с]

Нравственное воспитание через поэзию: Стихи Рудаки могут служить мощным средством нравственного воспитания и формирования мировоззрения

у читателей. Их глубокие мысли и жизненная мудрость способны вдохновлять нас к добрым поступкам и осмысленной жизни. В поэзии Абу Абдуллы Рудаки есть стихи осуждающие человеческую алчность и корысть, призывающие к воздержанию, те стихи, идеи которых пронизывают всю персидско-таджикскую дидактическую литературу X-XX вв.

Доколь ты будешь твердить,
Что и богатые и нищие скупы?
Если ты сам перестанешь быть алчным,
Тогда и узнаешь, что люди щедры. [6, 188 с]

Корыстолюбию поэт противопоставляет воздержанность, довольство малым. Рудаки учит, человек не должен завидовать тому, чего у него нет, а должен жить вольно и свободно, радостно и весело:

Довольствуйся тем, что дано тебе, живи справедливо,
Не отягощай себя оковами притязаний, живи вольно.
Не завидуй тому, кто лучше тебя не тужи,
Гляди на того, кто хуже тебя, живи весело. [6, 189 с]

В поэзии Рудаки непосредственно связано с рассмотренными нами идеями и признание жизненного опыта человека как главного и истинного его наставника. Опыт, по мнению поэта, является главным средством для преодоления трудностей и препятствий, и Рудаки призывает человека по мере возможности учиться у жизни:

Тот, кто не выучился у жизни,
Не научится ни у какого наставника. [6, 168 с]

В поэзии Абу Абдуллы Рудаки признание жизненного опыта главным и важным наставником человека, непосредственно связано идеей большой значимости знания. Жизненный опыт поэт признает средством для преодоления препятствий, а знание - светочем, стражем человека. У Рудаки знание и жизненный опыт не только органически связано и взаимообусловлены: знание идет из опыта и опыт временно становится светочем сердца для познания самой жизни:

С тех пор как существуют мир и люди,
Не было еще человека, который не нуждался бы в знаниях.
Мудрые мужи во все времена
На всех языках мира законы знаний
Собирали и хранили,
И высекли их на камнях.
Знания-это блистающий светоч в сердце,
А также броня на твоём теле от всех бед. [6, 168 с]

Поэт отмечает потребность человека в знании во все времена и говорит, что мудрецы разных народов всегда собирали сокровища знания. Он призывает овладевать знаниями. Говоря иначе, сели выражения «знания — это... светоч в сердце» и «броня... от бед» мы воспринимаем как обозначение сокровищ знаний, то можно определенно сказать, что Рудаки не признает ни религиозных, ни иных помех на пути приобретения знания. Рудаки считает, что, если человек не стар и не болен, он должен стремиться овладеть знаниями:

Нет сокровища лучше знания,
Покуда можешь, иди и собирай это сокровище. [6, 169 с]

Абу Абдулло Рудаки считал основой процветания личности не богатство, власть а здоровье, добрый нрав, добрую славу, разум и знание. Великий поэт связывает жизнь, судьбу человека и возможность управлять ими с обществом, с деятельностью самого человека, а старание и активность человеческую считает единственным средством устранения препятствий в жизни. Поэтому он призывает:

Тебе надо стараться не откладывать дела,
Надо стремиться к делам и не жалеть сил. 6, 172 с]

Изучение духовного наследия Рудаки помогает нам понять и ценить универсальные человеческие ценности, которые остаются актуальными и важными для современного общества. Поэтому важно сохранять и передавать его наследие будущим поколениям.

Заключение: Сегодня, в эпоху глобализации и разнообразия культурных традиций, ценности, выраженные в творчестве Рудаки, могут играть важную роль в содействии культурному диалогу и межкультурному взаимопониманию. Нравственно-воспитательное значение общечеловеческих ценностей, выраженных в духовном наследии Рудаки, нельзя переоценить. Его стихи и мысли продолжают вдохновлять и учить нас, напоминая о важности доброты, честности и мудрости в нашей жизни.

Литература (References):

1. Аълохон Афсаҳзод. ОДАМУШШУЪАРО РӮДАКӢ. Душанбе. Адиб. 2008 г
2. Бадеъуззамон Фурузонфар. Сухан ва суханварон, Техрон, ч. 1, 1308.
3. Брагинский И. С. Абу Абдаллах Джафар Рудаки. — М.: Наука, 1989.
4. Бертельс, Е.Э. Персидская поэзия в Бухаре X в. / Е.Э.Бертельс. —М.-Л.: Изд-во АН 1935. —70 с
5. Брагинский, И.С. О мастерстве Рудаки / И.С.Брагинский // Из истории таджикской и персидской литератур. —М.: Изд-во «Наука»,1972. —С.173-242.
6. Мирзоев А. М. Рудаки. Жизнь и творчество. М.: Наука, 1968. с 122-123
7. Муллоахмад М. Рудаки ва Рудакишуносон. (Мачмуаи маколаҳо). Душанбе. 2012. С.155-160
8. Рудаки и 1000 лет персидской поэзии (Материалы международной конференции, г. Алматы, 4-5 ноября 2008 г.) 2017. С.384 -390
9. «Рудаки и расцвет персидско-таджикской поэзии»/ Р. Хади-заде. Рудаки и поэты его времени: сборник статей. -Л.: Советский писатель, 1985.- 272с
10. Тагирджанов А. Т. «Рудаки: Жизнь и творчество. История изучения». - Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1968,
11. Таърихи адабиёти Эрон (Аз Сомониён то Салчукиён), Техрон, 1318, сах. 41
- 12.Iran. viii. Persian literature (2) Classical Архивная копия от 18 октября 2020 на Wayback Machine // Iranica

13. The Encyclopedia of Islam, New Edition. Leiden: Brill Publishers, 2019
https://en.wikipedia.org/wiki/Iran_VIII_Persian_literature_Classical

14. Ходизода, Р. Рўдакӣ ва мухити адабии ў /Р. Ходизода// Аз Рўдакӣ то имрўз. – Душанбе: Адиб, 1988. С.39-53.

MAHALLA YOSHLARINING FALSAFIY DUNYOQARASHINI OSHIRISHDA TA’LIMNING O’RNI

G‘aybullayeva Laylo Safarboyevna,
SamDChTI tadqiqotchisi

Annottatsiya

Maqolada mamlakatimiz ravnaqida muhit tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan mahallada yoshlarning falsafiy dunyoqarashini rivojlantirishda mavjud muammolar va ularning echimiga doir qarashlar ilmiy tadqiq etilgan. Bugungi kunda o‘shirib kelayotgan yosh avlod qalbida vatanparvarlik ruhiyatini kuchaytirishda falsafiy tafakkurning zarurligi ta’lim tizimi bilan uyg‘un holda tadqiq etilgan. Unda yoshlarning falsafiy dunyoqarashi shakllanishi bevosita mahalladagi ijtimoiy qadriyatlar negizida qaror topib borishi ta’limning samaradorligi bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: falsafiy dunyoqarash, ta’lim texnologiyalari, global muammolar, madaniyat, jamiyat, falsafiy tafakkur, ta’lim, fan, axloq, mulohaza.

Abstract

In the article, the existing problems in the development of the philosophical worldview of young people in the neighborhood, where the environment is educationally important for the development of our country, and the views on their solution are scientifically researched. The necessity of philosophical thinking in strengthening the spirit of patriotism in the hearts of the young generation growing up today has been researched in harmony with the educational system. It revealed that the formation of the philosophical worldview of young people is directly related to the effectiveness of education, based on the social values of the neighborhood.

Key words: philosophical outlook, educational technologies, global problems, culture, society, philosophical thinking, education, science, ethics, reflection.

Mahalla o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ijtimoiy makoni bo‘lib, unda yoshlarining falsafiy dunyoqarashini milliy qadriyatlar ruhida shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni chuqur va serqirra sanaladi. Ta’limda yoshlarning intellektual, axloqiy va hissiy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan keng ko‘lamli tajriba va o‘zaro ta’sirlarni real voqelik bilan uyg‘unlashtirish ijobiy samara beradi. Jamiyatda yoshlar falsafiy dunyoqarashni ta’lim bilan kengaytirishda mahalla ham o‘zining alohida roliga ega bo‘lib, ularga bilim berish jarayonida tanqidiy fikrlashni o‘rgatish, axloqiy mulohazalarini milliy fuqarolik tuyg‘usi bilan bog‘lash ertangi kelajakka xizmat qiladi. Mahallada yoshlar falsafiy dunyoqarashini o‘shirib borishida ta’limning muhim o‘rinlaridan biri bu tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Bu borada davlatimiz rahbari fikr bildirar ekanlar “Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha

o'ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh ijobiy tashabbus" kabi dasturlarimiz aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o'ynamoqda. Buning natijasida yuzlab tuman, shahar va qishloqlarning me'moriy qiyofasi tubdan yangilanmoqda. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida bo'layotgan katta o'zgarishlar ham sizlarga yaxshi ma'lum" [2.349]. Turli mavzular va istiqbolli rejalar bilan shug'ullanish orqali yoshlarda isbotlangan dalillar bilan voqelikni baholashni o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ulardagi tanqidiy faoliyat o'zlarining asosli qarashari negizida qadriyatlarini rivojlantirishga undaydi, hayotga o'ychan va shubhali yondashuv uchun asos yaratadi. Yoshlarda rag'batlantiradigan va intellektual qiziqishni rivojlantiradigan muhitni yaratish orqali ta'lim yosh shaxslarga borliq, axloq va jamiyat haqidagi falsafiy bilimlarni o'rganish imkonini beradi.

Mahallada yoshlarni ta'lim olishlarida axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirib borish, ularni to'g'ri bilim oshiga o'rgatish, zamonaviy ilmlar haqida chuqur fikrlashga undash hal qiluvchi rol o'ynaydi. Axloqiy masalalarda mahallada munozaralar va mulohaza yuritish orqali o'quvchilar o'zlarining ijtimoiy qarashlarini boyitadilar, o'z harakatlarining boshqalarga ta'sirini hisobga oladilar, shaxsiy va ijtimoiy sharoitlarda axloqiy xulq-atvorning ahamiyatini tushunadilar. Ta'limning bu jihati nafaqat bilimli, balki kuchli axloqiy kompasga ega bo'lgan shaxslarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga zamonaviy hayotning murakkabliklarida halollik va rahm-shafqat bilan harakat qilish imkonini beradi.

Bir-biriga bog'langan bugungi dunyoda mahalla yoshlarini global muammolar va madaniy xilma-xillik haqida o'rgatish ularning falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Global istiqbollarni o'zida mujassam etgan ta'lim yosh shaxslarga kengroq jamiyatdagi o'z o'rnini tushunishga yordam beradi va global muammolarga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otadi. Turli madaniyatlar, tarixlar va jamiyat tuzilmalarini o'rganish orqali talabalar ko'proq empatik va ochiq fikrli bo'lib, falsafiy izlanishlar va adolatli dunyoni targ'ib qilish uchun juda muhim bo'lgan fazilatlarga ega bo'lishadi. Mahalla yoshlarining falsafiy dunyoqarashini yaxshilashda ta'limning roli bilan hamjamiyat ishtiroki va xizmat ko'rsatish imkoniyatlari ajralmas hisoblanadi. Jamiyatga foydali loyihalarda ishtirok etish orqali talabalar o'z bilimlarini real sharoitlarda qo'llaydilar, bu esa ularning ijtimoiy adolat, fuqarolik mas'uliyati va umumiy farovonlikka hissa qo'shish qiymati haqidagi tushunchalarini boyitadi. "Shu maqsadda, mahallalarda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlariga, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga subsidiyalar beriladi"[1. 145]. Bu tajribalar nafaqat falsafiy tamoyillarni amalda qo'llashni kuchaytiribgina qolmay, balki yoshlar va ularning jamoalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, tegishlilik va maqsad tuyg'usini rivojlantiradi.

Mahalla yoshlarining falsafiy tafakkurini takomillashtirishda ta'limga e'tibor qaratish masalalarini hal etish o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish metodologiyasi, jamoatchilik ishtiroki va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ko'p qirrali yondashuvni o'z ichiga oladi. Maqsad – yoshlarda nafaqat bilim beradigan, balki tanqidiy fikrlash, axloqiy mulohaza yuritish va reflektiv fikrlashni rag'batlantiradigan o'quv muhitini shakllantirish. Bu sa'y-harakatlar jamiyatga ijobiy

hissa qo‘sha oladigan har tomonlama barkamol shaxsni etishtirish uchun juda muhimdir. Buguni kunda ta’limda namunaviy o‘quv dasturida falsafa va tanqidiy fikrlashga e’tibor berilmaganligi asosiy muammolardan biridir. Maktablarda ko‘pincha istiqbol uchun muhim deb hisoblangan fanlarga ustunlik beradi, falsafani tanlash yoki darsdan tashqari mashg‘ulot sifatida chetlab o‘tadi. Buni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalari falsafiy tafakkurni yoshlikdan boshlab asosiy o‘quv dasturiga kiritishi kerak. Ushbu integratsiya yosh bolalar uchun hikoyalar orqali falsafani o‘rgatish, rasmiy falsafiy munozaralar va katta yoshdagi talabalar uchun axloqiy munozaralarga o‘tishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday mazmun yoshlarni savol-javobga, mulohaza yuritishga va turli masalalar bo‘yicha o‘z qarashlarini shakllantirishga undaydi, izlanish va mulohaza yuritish madaniyatini tarbiyalaydi. Ko‘pincha eslab qolish va standartlashtirilgan testlarga tayanadigan an’anaviy o‘qitish usullari falsafiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun samara bermaydi.

Yoshlar o‘rtasida tarbiyaviy yo‘nalishni shakllantirish va falsafiy tafakkurni rivojlantirishda mahallaning o‘rni katta. Mahalla bilan maktablar, jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish o‘quvchilarga ekologik bilim, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat va fuqarolik mas’uliyati kabi falsafiy tadqiqotlar uchun real dunyo kontekstlarini taqdim etishi mumkin. Jamiyatda yoshlarning ishtirokini turli nuqtai nazardan tan olish va baholash ham ta’lim muhitiga katta hissa qo‘shadi. Mahalla yoshlari dunyoqarashini kengaytirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni serqirra va terandir. Ta’lim, keng ma’noda, nafaqat rasmiy maktab ta’limini, balki jamiyatdagi norasmiy ta’lim tajribalarini ham o‘z ichiga oladi. U mahalliy atrof-muhit va undan tashqaridagi keng, murakkab dunyo o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarga turli madaniyatlar, jamiyatlar va global muammolar haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Yoshlar falsafiy dunyoqarashini shakllantirishda tanqidiy fikrlashni tarbiyalash, axloqiy mulohazani targ‘ib qilish, jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantirish ijobiy samara beradi. Yoshlarda ta’lim orqali rivojlangan falsafiy dunyoqarash nafaqat bilim olish, balki mehr-oqibatli va dunyoni ijobiy o‘zgartirishga intilgan shaxslarni shakllantirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda katalizator vazifasini o‘taydi, ularga o‘z mahallalari chegarasidan chiqib, jahon hamjamiyatiga kirishish imkonini beradi. Dunyoning xilma-xilligi va murakkabligini chuqurroq tushunish va qadrlashni rivojlantirish orqali ta’lim yosh shaxslarni tobora o‘zaro bog‘liq bo‘lgan dunyoda harakat qilish va hissa qo‘shish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va hamdardlik bilan qurollantiradi. Ta’lim orqali kelajak yosh avlod nafaqat global muammolarni tushunishga, balki yanada adolatli, barqaror va tinch dunyoni yaratishda faol ishtirok etishga tayyor turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 145-bet.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –T.: 4-jild, O‘zbekiston, 2020. 449-bet.

YOSHLARNING AXLOQIY-MA'NAVIY BUZILISHLARINI TIPOLOGIK JIHATDAN ILMIY-TADQIQ ETISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY JIHATLARI

Dusmanov Sh.A.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: ilmiy maqolada hozirgi sharoitda ёshlar o'rtasida axloqiy nizolarning kelib chiqishi orqali,ularning axloqiy-ma'naviy buzilish muammosi jihatdan tadqiq qilingan holda "axloqiy-ma'naviy buzilish tipologiyasi" tushunchasi iste'molga kiritilib ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek ёshlarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: ёshlar,axloq,axloqiy nizo, tip, tipologiya, tipologik, axloqiy-ma'naviy buzilish,axloqiy-ma'naviy buzilish tipologiyasi.

Abstract: the scientific article provides a socio-philosophical analysis of the origin of moral disputes among young people in a modern context, by including the concept of "typology of moral and spiritual frustration" in consumption, studied from the point of view of the problem of their moral and spiritual degradation. Recommendations of scientific and practical importance for the prevention and elimination of moral and spiritual disorders among young people are also given.

Keywords: youth,ethics, moral conflict, typology, moral and spiritual violation, typology of moral and spiritual degradation.

XXI asrga kelib dunёning g'oyaviy-mafkuraviy manzarasida bo'laётgan tezkor o'zgarishlarning kelib chiqishiga individ, shaxs, jamoa, ёlat,millat,xalqlar o'rtasida ehtiyojlarni qondirish maqsadida manfaatlar to'qnashuvining kuchayib borishi ko'pgina odamlarning axloqiy-ma'naviy buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli axloqiy-ma'naviy buzilish hodisasining kuchayib,ko'payib borishi ularni tipologik¹⁶⁴ jihatdan muayyan tip¹⁶⁵larga ajratib tadqiq qilishni taqozo etmoqda. Ushbu tushunchalarning mohiyatidan kelib chiqqan holda "axloqiy ma'naviy buzulish tipologiyasi" tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Axloqiy-ma'naviy buzilish tipologiya¹⁶⁶si - bu manfaatlar to'qnashuviga kirishaётgan odamlarning moddiy va ma'naviy ne'matlarni o'zlashtirib olish jaraёnida

¹⁶⁴ Типологик - нарса ва ходисалар типига хос бўлган;типологияга алоқадор,оид;муайян нарса ва ходисаларга оид белгиларнинг умумийлигини,муштараклигини аниқлашга,белгилашга асосланган.// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.IV.– Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008. - Б.107.

¹⁶⁵ Тип[юнонча typos – белги,из; намуна,шакл] 1. Муайян бир тур(гурух)даги нарсаларнинг муҳим белгиларига эга бўлган намунаси,шакли,моделли. 2. Ижтимоий,касбий,ахлоқий ва бошқа белгиларнинг умумийлигига кўра бирлашадиган кишиларнинг ёрқин вакили.// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.IV.– Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008. - Б.106.

¹⁶⁶ Типология [юнонча typos – белги,из; намуна,шакл,+logos-фан,таълимот]. Объектлар тизимини қисмларга ажратиш ва уларни умумлашма модель ёки тип ёрдамида гуруҳлаштиришдан иборат илмий метод// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.IV.– Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008. - Б.107.

kechaëtgan ijtimoiy ziddiyatlar tufayli kelib chiqadigan umuminsoniy axloqqa zid hatti-harakatlarini muhim belgilariga qarab qismlarga ajratgan holda tizimlashtirishdir. Aslida, bu tushunchani birinchidan, axloqiy-ma'naviy buzilishning ob'ektlarini qismlarga ajratish va ularni umumlashtirish; ikkinchidan, ularning muhim xususiyatlarni, aloqalarni, funktsiyalarni, munosabatlarni, vaqt birligi ichida mavjud bo'lgan va ajratilgan ob'ektlarning tashkil ëtish darajalarini qiësiy o'rganish; uchinchidan, ularni tavsiflash va taqqoslash mezonlarini aniqlovchi ilmiy metod turi sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki, mazkur tushuncha, shunchaki oddiy kuzatishga ëmas, balki ilmiy falsafiy tafakkurning axloqiy-ma'naviy bo'zilish ob'ektlarning o'xshashliklari va farqlarini aniqlashga, ularni aniqlashning ishonchli usullarini izlashga tayanadi va nazariy jihatdan ishlab chiqilgan shaklda o'rganilaëtgan tizim tuzilishini namoyish ëtishga, o'rganilaëtgan ob'ektni gnoseologik jihatdan ilmiy bashorat qilishga imkon beradigan omillar, uslub va vositalarni aniqlab olishga xizmat qiladi.

Axloqiy-ma'naviy buzilishni tipologik jihatdan quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

I. Ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi tufayli sodir bo'ladigan axloqiy nizolar sababli paydo bo'lgan va bo'laëtgan axloqiy-ma'naviy buzilishlar.

Ma'lumki, bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo ëtish borasidagi sa'y-harakatlar muayyan qiyinchiliklarni engib o'tish orqalikechishi tabiiy hol hisoblanadi. Ayniqsa, davlat mulkining yakka hukmronligiga asoslangan ijtimoiy tuzumni inkor qilgan holda, mulk shakllarining xilma-xilligiga asoslangan milliy demokratik tuzumni qaror toptirish jaraënida raqobatga kirishaëtgan fuqarolarimizning ijtimoiy ongida muayyan o'zgarishlar hosil qilishi, jumladan, ularning axloqiy qadriyatlarga amal qilishlarida, shuningdek boshqa o'zaro kundalik munosabatlarida ayrim ijtimoiy ziddiyatlarga xos bo'lgan axloqiy nizolarning kelib chiqishi haëtning ëzilmagan qonunlari qatoriga kiradi.

Zero, shunday ëkan nizo nima, degan savol tug'iladi? "Nizo – bu arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida bahs, tortishuv; janjal, to'qnashuv, kurash"¹⁶⁷ degan ma'noni anglatadi. Demak, nizo – bu o'zaro kelishmovchilik ëki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovat natijasida tug'ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoqdir. Nizolarni keltirib chiqaruvchi sub'ektlar nifoqchilar deb ataluvchi kimsalardan tashkil topgan bo'ladi. Nifoqchilar deb ësa odamlar o'rtasiga nifoq¹⁶⁸ tashlovchi, jamoani buzuvchi, ta'lim-tarbiyani izdan chiqaruvchi ikkiyuzlamachi, munofië, riëkor, mug'ambir g'alamis kishilarga aytiladi. Shunga ko'ra axloqiy nizolar deb nifoqchilar tomonidan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siësiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy haëtidagi ziddiyatlar tufayli kishilarning bir birlariga nisbatan keltirib chiqariladigan kelishmovchilik, tushunmovchilik, toqatsizlik, mas'uliyatsizlik, ikkiyuzlamachilik, munofiqlik, riëkorlik, mug'ambirlik, tilëg'lamachilik, xushomadgo'ylik kabi illatlar sehriga berilib g'ayriinsoniy hatti-harakatlar sodir ëtishlariga aytiladi.

¹⁶⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.Ш.– Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриëти, 2007. - Б.37.

¹⁶⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.Ш.– Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриëти, 2008. - Б.42.

Birinchi tip. Ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi sababli kelib chiqqatgan axloqiy nizolarning axloqiy-ma'naviy buzilishlarni keltirib chiqaruvchi ob'ektlarni tipologik jihatdan quyidagi tiplarga:

1) mulkni davlat tasarrufidan chiqarish vaqtida davlat va xususiy mulk tarafdorlari o'rtasida kelib chiqadigan o'zaro axloqiy nizolar tufayli davlat mulk agasi bilan xususiy mulk agasi o'rtasida yuz beradigan;

2) mulkdorlarning bozordagi o'zaro raqobatlari natijasida hosil bo'ladigan axloqiy nizolar sababli kelib chiqadigan;

3) ishlab chiqaruvchi, vositachi hamda iste'molchilar o'rtasida yuz beradigan axloqiy nizolar oqibatida sodir bo'ladigan;

4) biron shaxsning ruhiy-ma'naviy dunesida, axloqiy holatlarida, oilasida, ichki kechinmalarida, ish joyida, do'stlariga bo'lgan munosabatlarida yuz beradigan axloqiy nizolar tufayli kelib chiquvchi axloqiy-ma'naviy buzilishlarga ajratish mumkin..

Ikkinchi tip. Aholining turli qatlamlari o'rtasida yuz beradigan axloqiy nizolar tufayli kelib chiqadigan axloqiy-ma'naviy buzilishlar.

Bularga:

1) yoshlarning kasbiy-axloqiy buzilishlari;

2) har qanday yo'llar, vositalar bilan hattoki hujjatlarni soxtalashtirib bo'lsa ham, aholining nochor qatlamlari ehtiijlarini oshkor qilmaslik;

3) halol mehnat qilib risq topaetgan oilalarni badnom qilishga bo'lgan urinishlar;

4) g'ayriqonuniy tarzda arzimagan huquqbuzarlik uchun jinoyat ishlarini ko'zgatish natijasida kelib chiqadigan;

5) fuqarolarni g'ayriqonuniy tarzda yuqumli kasalliklarni tarqatishda (SPID), ushlab turish tufayli sodir bo'ladigan axloqiy-ma'naviy buzilishlarni kiritish mumkin .

Uchinchi tip. Joylardagi vaziyatni bo'yab ko'rsatish uchun ataylab notinch oillar, tartib buzarlari va jinoyatchilarni hisobdan yashirish orqali kelib chiquvchi axloqiy nizolar sababli sodir bo'ladigan rahbarlar, katta va kichik boshliqlar faoliyatidagi axloqiy-ma'naviy buzilishlar.

Bularga quyidagilarni: a) g'arazli maqsadlarga erishish eki hududda mavjud ahvolni bezab ko'rsatish uchun tartib buzarlarni qayd etmaslik; b) jabrlanuvchini qo'rqitish orqali uni shikoyat arizasini qaytarib olishga undashga qaratilgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar; v)jabrlanuvchining ustidan ig'vo qilish, uning sirlarini fosh qiluvchi har xil hujjatlarni oshkor qilish bilan qo'rqitish va shu bilan aybdorning ustidan qilaetgan arzini, guvohliklarini xastpo'shlash oqibatida kelib chiquvchi axloqiy-ma'naviy buzilishlarni kiritish mumkin..

3. "Xudo yasovchilik" sehriga berilib axloqiy-estetik jihatdan muomala madaniyati etarli darajada rivojlanmagan mutasaddi rahbarlar, boshliqlar, etakchilar bilan aholining turli qatlamlari o'rtasida yuzaga keladigan axloqiy nizolar tufayli sodir bo'ladigan axloqiy-ma'naviy buzilishlar. Bularga: xizmat burchiga, o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan qarash, xizmat mas'uliyatini his qilmaslik; fuqarolarga eki xizmat jamoalari a'zolariga nisbatan qo'rslik qilish; kasb sirlarini, qonunlarni bilmasdan, bilsa ham ularni mensimasdan andishasizlik bilan odamlar taqdiriga befarq qarash, ularning

ustidan kulish, ularni masxaralash, urish, so‘kish, ularga nisbatan har xil baqir-chaqilar qilish sababli kelib chiquvchi axloqiy-ma’naviy buzilishlarni daxldor qilish mumkin.

To‘rtinchi tip. Mutasaddi rahbarlar tomonidan kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, o‘qitish va ta’lim-tarbiya berish borasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tufayli kelib chiqadigan axloqiy nizolar sababli sodir bo‘ladigan axloqiy-ma’naviy buzilishlar.

Bularga quyidagilar kiradi:

– ma’lumoti bo‘lmagan odamlarni ishga olish, ularni jamoa faoliyatini ta’minlaydigan muhim sohalarga ishga tayinlash tufayli kelib chiqadigan axloqiy nizolar;

– rahbarlik lavozimlariga tayinlashda xodimlarning ishni bilishi, qobiliyatlarini hisobga olish o‘rniga tanish-bilishlar, qarindoshlarni tayinlash, mahalliychilik qilish oqibatida kelib chiqadigan axloqiy nizolar;

– o‘qitish, malaka oshirish, ta’lim-tarbiya berish ishlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, ya’ni muntazam bilim bermaslik, hujjatlar, buyruqlar, qaror va farmonlarni o‘z vaqtida barcha xodimlarga ma’lum qilmaslik, tarbiya ishlaridagi kamchiliklardan ko‘z yumish, o‘z vaqtida munosabat bildirmaslik, jazolash va rag‘batlantirish usullaridan noto‘g‘ri foydalanish tufayli kelib chiqadigan axloqiy-ma’naviy buzilishlar. Shu bilan axloqiy-ma’naviy buzilishlar tipologiyasini yakunlangan deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Типологик - нарса ва ҳодисалар типига хос бўлган;типологияга алоқадор,оид;муайян нарса ва ҳодисаларга оид белгиларнинг умумийлигини,муштараклигини аниқлашга,белгилашга асосланган.// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.IV.– Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008. - Б.107.

2. Тип[юнонча *typos* – белги,из; намуна,шакл] 1. Муайян бир тур(гурух)даги нарсаларнинг муҳим белгиларига эга бўлган намунаси,шакли,моделли. 2. Ижтимоий,касбий,ахлоқий ва бошқа белгиларнинг умумийлигига кўра бирлашадиган кишиларнинг ёрқин вакили.// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.IV.– Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008. - Б.106.

3. Типология [юнонча *typos* – белги,из; намуна,шакл,+*logos*-фан,таълимот]. Объектлар тизимини қисмларга ажратиш ва уларни умумлашма модель ёки тип ёрдамида гуруҳлаштиришдан иборат илмий метод// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.IV.– Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008. - Б.107.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.III.– Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2007. - Б.37.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.III.– Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2008. - Б.42

**GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIY KAMOLOTINI
TA'MINLASHNING IJTIMOIIY VA MA'RIFIY
XUSUSIYATLARI**

Akbar Saitkasimov

Jizzax davlat pedagogika universiteti "Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi"
kafedrası professori, falsafa fanlari doktori

Jahongir Ismoilov

Jizzax viloyat ichki ishlar boshqarmasi mayori,
Samarkand davlat chet tilar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv davrida yoshlar ma'naviy kamolotini ta'minlashning ijtimoiy va ma'rifiy xususiyatlari, yoshlarimizni globallashuvning murakkab sharoitida jamiyatdagi ma'naviy tarbiya jarayonlaridagi hatti-harakatlarini ta'minlash borasida ilmiy fiklar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Globallashuv, yoshlar, ma'naviyat, ma'rifat, ma'naviy kamolot, milliy yuksalish, ma'naviy tarbiya, mafkuraviy tahdid.

Abstract. This article describes the social and educational features of ensuring the spiritual maturity of young people in the era of globalization, scientific opinions on ensuring the actions of our youth in the process of spiritual education in society in the complex conditions of globalization.

Key words. Globalization, youth, spirituality, enlightenment, spiritual maturity, national growth, spiritual education, ideological threat.

Xalqimizning tarixiy-ma'naviy, milliy qadriyatlarining chuqur ildizlari va milliy yuksalish g'oyalarini yoshlar qalbiga singdirish orqali ularning Vatanga munosib fuqaro bo'lishga mas'uliyatlari oshadi. Chunki ma'naviy qadriyatlar yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur va iftixor yo'lida tarbiyalaydi. Shuning bilan birgalikda yoshlarda Vatanni his qilish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, kelajagi uchun doimiy ravishda qaygurish kabi xislatlarni ruyobga chiqaradi. Yoshlar qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa yaratuvchilik, kurashchanlik va tashabbuskorlik xislatlari paydo bo'ladi.

Shuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti va istiqboli uchun jon kuydirishning mazmun mohiyatini yoshlar ma'naviy barkamolligi, uning har tomonlama aqliy, intellektual qobiliyatlari, bilim va salohiyati bilan belgilanadi. Bu borada Vatanimiz tarixiga oid "Mustakil O'zbekiston tarixi" kitobida quyidagicha mulohaza kilingan: "Biz tarixning aynan burilish davrida yashamoqdamiz. Ana shu burilish nuqtasining o'ziyoq tafakkurimizni, tor dunyoqarashlarimizni, har tomonlama chegaralab qo'yilgan tushunchalarimizni o'zgartirishni taqoza etmoqda. Uzoq yillar davomida bir qolipdagi hayotdan beixtiyor olis o'tmishni eslashga, uni o'rganishga, o'zligimizni anglashga kuchli ehtiyoj tug'ildi. Ichki bir tabiiy kus million-million kishilar qalbida mudrab yotgan tuyg'ularni harakatga keltirib yubordi. Natijada odamlarning hayotga munosabati o'zgarib, o'z taqdiri bilan bog'lik bo'lgan zamin istiqbolini o'ylashga zarurat sezmoqda"¹⁶⁹.

¹⁶⁹ Жураев Н., Файзуллаев Т. Мустакил Ўзбекистон тарихи. 3 т. Т. "Шарк". 2000 й. 12-13 б.б.

Yoshlar ma'naviy mi'naviy barkamol inson sifatida tarbiyalashda:
mamlakatimizga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllantirish;

yoshlarni vatan ravnaqi va yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashga tashabbuskor bo'lishga;

vatanni sevish, uni ko'z qorachig'idek asrash. unga fidoiylilik bilan xizmat qilishga chaqirishga;

o'tmishiga oid qadriyatlarni e'zozlash, yurtimizda bugungi kundagi kishilarning bunyodkorlik va yaratuvchilik faoliyati asosida vujudga kelgan moddiy ashyolar va ma'naviy salohiyatni avlodlarga yetkazishga;

vatan uchun jonini qurbon qilgan shaxslarni xotirasini doimo yod saqlashga yoshlarni ilhomlantirish.

Yoshlarimizni bugungi globallashuv davrining murakkab sharoitida jamiyatdagi ma'naviy tarbiya jarayonlaridagi hatti-harakatlarini eng avvalo yuksak axloq va odob, sharqona vazminlik, ota-bobolarimizga xos bo'lgan mulohazakorlik, eng qiyin va murakkab sharoitlarda ham o'z shaxsiy manfaatidan umumdavlat va umumxalq manfaatlarini ustun qo'yish, jamoa bo'lib, ahil-inoq, tinch-totuv yashash kabi insoniy fazilatlarini o'zlashtirishiga qaratish muhim hisoblanadi. Yoshlarda vijdon amri, o'zlikni mukammal anglash va aql-idrok ta'sirida o'z jonajon mamlakati ravnaqi, tinchligi va farovonligi uchun mas'ullik hissi, teng xuquqli fukarolik burchi oliy darajadagi vijdon va iymon ishiga aylanishi muhimligi kun tartibiga qo'yilmoqda.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarimiz uchun birmuncha mafkuraviy tahdidlar mavjudligini ham qayd etish lozim. Globallashuv davrida mafkuraviy vaziyat ham ancha chigallashib, dunyoda turli kuchlarning o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida yoshlarga ta'sir etish uslublari rivojlanib bormoqda. Ularning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin: diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, giyohvandlik, ommaviy madaniyat, odam savdosi, kosmopolitizm, ludomaniya, missionerlik, prozelitizm, nigilizm, zo'rovonlik, neofashizm, shovinizm, egosentrizm, individulizm, OITS, starizm (yulduzlarga ko'r-ko'rona taqlid), vandalizm (madaniy va moddiy yodgorliklarni vayron qilish), axloqsizlik, fohishabozlik, behayolik, bir jinsli nikohlar, xepining (vahshiyona ko'ngil ochishlar).

Tadqiqotlarga ko'ra, internetda 2 mlrd.ga yaqin veb-saytlar majudligi aniqlangan. Shulardan 12 foizi inson axloqini buzishga qaratilgan yoki ularni tashuvchi bo'lib xizmat qilar ekan. 10 mingdan ziyod veb-saytlar o'zini o'zi halok qilish va zo'rovonlikka asoslanganligini ko'rish mumkin. Bugungi kunda dunyoda internet foydalanuvchilar soni 6,16 mlrd.ga yetgan. Bu esa, yer shari aholisining 64,4 foizi internetdan foydalanadi, deganidir. Har yili internet foydalanuvchilar 2 foizga yaqin o'sib borishi kuzatilmoqda. Ko'rinib turganidek, an'anaviy ma'lumot almashishlar va texnologiyalar va OAVlar o'rnini raqamli texnologiyalarga bo'shatib bermoqda.

Mazkur omillarning kuchayib borayotganligi yoshlarning destruktiv g'oyalar ta'siridan doimiy ravishda saqlanishini ta'minlash lozimligini keltirib chiqaradi. Ta'kidlashicha, "Ma'naviy tahdid va axborot xuruji yanada kuchayganligi sir emas. Yoshlar ongi va qalbini egallash yo'lida kurash davom etayotgani barcha jabhalarda bo'lgani kabi o'quv yurtlarida ham, aholining turli qatlamlarida ma'naviy-ma'rifiy va

mafkuraviy targ'iboti ishlarini yangi bosqichga ko'tarishni davr taqozo qilmoqda"¹⁷⁰[2, 11-bet]. Jamiyatda yoshlar avlod tarbiyasi, ularning ijtimoiy va ma'naviy hayotda munosib o'rin topishi borasidagi chora-tadbirlar, keng qamrovli dasturlarning jadal ravishda olib borilishi taqozo etiladi.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlarning bunyodkor hatti-harakatlari bilan birgalikda vayronkorlikka bo'lgan intilishlari ham yuzaga qalqib chiqmoqda. Bu nafaqat tashqi, balki ichki munosabatlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Vayronkor g'oyalarga qarshi kurashda avvalo kishilarning ogohliligi, hushyorligi, bunyodkor g'oyalarning birligi zaruriyati vujudga kelmoqda. Bu kurashda milliy o'zlikni anglash, vatanga munosib fuqaro bulish ishonchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

“Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda"¹⁷¹, deyiladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy saviyasini ko'tarish, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini yanada o'stirish borasida joylarda turli xil tadbirlar va uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish lozimdir. Jumladan:-

“Ijtimoiy-siyosiy barkarorlik –jamiyatni siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy isloh kilishni amalga oshirishning asosi”, “Etnik, madaniy va diniy bag'rikenglik – O'zbekistonning ma'naviy yuksalish manbai”, “Yoshlar va islom” mavzularida aholi orasida, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ilmiy-amaliy seminarlar, davra suhbatlari o'tkazib borish;

- Yoshlarda mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga faol munosabatni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda “Islohotlar va Yangi O'zbekiston taraqqiyoti” mavzuida munozaralar, davra suhbatlari uyushtirish;

- Joylarda, mahallalarda, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari, ijodkor ziyolilar va yoshlar faollari ishtirokida “Yoshlar, oila va mahalla hamkorligi”, “Ma'rifatli yoshlar – Yangi O'zbekiston kelajagi” mavzuida turkum uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazish;

- Mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishda ma'naviy

¹⁷⁰ Махмудов Р. Ижодий тарғиботчи масъулияти ва ташвиқот мажбурияти. –Тошкент, Innovatsiya-Ziyo, 2022. –Б.11.

¹⁷¹ Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги bosqichga kўtariш tўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, №ПҚ-3160, 28 июль 2017 йил. www.president.uz

barkarorlikni ta’minlashning ahamiyati, bu borada yoshlarning ijtimoiy faolligini yorituvchi turkum o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ommabop nashrlar chop etish ishlari samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Juraev N., Fayzullaev T. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. 3 t. T. “Sharq”. 2000 y. 12-13 b.b.
2. Mahmudov R. Ijodiy targ‘ibotchi mas’uliyati va tashviqot majburiyati. – Toshkent, Innovatsiya-Ziyo, 2022. –B.11.
3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-3160, 28 iyul 2017 yil. www.president.uz.

**JAMIYAT RIVOJIDA BARKAMOL SHAXSNI TARBİYALASHDA
MA’NAVIYATNING TUTGAN O‘RNI**

Jumayeva Dildora Junaytovna,

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Barkamol avlodni tarbiyalash g‘oyasi ham milliy, ham umumbashariy mazmun-mohiyatga ega, u insoniyatni ma’naviyat va ma’rifatga, yuksak barkamollikka, ezigulikka olib boruvchi olijanob g‘oyadir [1].

- 7.Торгаутова Ш.А. - Хрестоматия. «Положение» Карамола 1885 г., съезда биев и почетного казаха - Абая (Ибрахим) Құнанбайұлы (1886) с комментариями: хрестоматия / Алматы: ЭДП хуб (Идипи Хаб); Москва: Ай ПиАр Медиа, 2023 Общий объем - (3,4 п.л.) 61 стр. Заключен договор с компанией ЭДП хаб №023/23К от 30.05.2023 на издание вне конкурса.

O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ AHOLISINING AGRAR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI

To‘xtayev H.

Samarqand viloyati hokimining o‘rinbosari,
falsafa fanlari nomzodi, dosent

Annotatsiya: ilmiy maqolada qishloq aholisining urf-odat,an’ana va metalitetlari,turmush tarzidan kelib chiqqan holda agrar madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xos bo‘lgan omillari yoritilib,agrar madaniyat tushunchasiga falsafiy ta’rif berilgan va uni shakllantirish uchun normativ-hujjatlar qabul qilish bo‘yicha tavsiflar berilgan.

Kalit so'zlar: agrar, madaniyat, agrar madaniyat, qishloq, qishloq aholisi, tibat, inson, urush omillari, paxta yakka hokimligi, fermer, klaster.

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ISSUES FORMATION OF AGRICULTURAL CULTURE RURAL POPULATION IN UZBEKISTAN

Abstract: the scientific article highlights unique factors in the formation of agrarian culture based on customs, traditions and lifestyles of rural residents, gives a philosophical definition of the concept of agrarian culture, and describes the adoption of normative documents for its formation.

Key words: agricultural, culture, agricultural culture, village, villagers, tibat, man, war factors, cotton monopoly, farmer, cluster.

O'zbekiston xalqining tarixiga nazar tashlasak, ularning asrlar osha ziroatchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan muntazam ravishda shug'ullanib kelganligining guvohi bo'lamiz. Shu davrlar ichida bu o'lka agrar mamlakatlar qatoridan joy olib, shu sohani rivojlantiri bo'yicha katta yutuqlarni qo'lga kiritishgan. Masalan, katta kanal va ariqlar qazib sug'orma dehqonchilikka asos solganlar. Natijada, bashoqli ekinlar, meva-chevalardan mo'l hosil olganlar. Ularni yil bo'yi saqlashning milliy usullarini o'ylab topishganlar. Shularni sotib hayot kechirganlar.

O'zbekistonda qishloq aholisining agrar madaniyatining shakllanishi, rivojlanishining o'z tarixi bor. Shu nuqtai nazardan qaraganda uni eng qadimgi, qadimgi, o'rta asr, yangi va eng yangi davrlarga bo'lib tadqiq qilish mumkin. Shu davrlar ichida qishloq aholisining agrar madaniyati hosilasini izdan chiqaruvchi hodisalar juda ko'p bo'lgan. Bularni tabiiy omillar, inson omillari va urush-bosqinchilik omillariga bo'lish mumkin.

Bularga:

1) tabiiy omillarga suv toshqinlari, yer qimirlashlar, qurg'oqchilik, katta yong'inlar, chigirtkaxo'rlik, hashoratlar hujumi;

2) inson omillariga esa podsholar, beklar, to'ralarning dehqonlar mehnatini hurmat qilmasdan har xil qarorlar, qonunlar chiqarishi, soliqlarning ko'payishi, yuqumli kasalliklar, ayniqsa "qora o'lat"ning avj olishi, ekinzorlarga, omborlarga ehtiyotsizlik yoki atayin o't qo'yishlar;

3) Ahamoniy, Grek-Makedon, Arab, Mo'g'il, Rus bosqinchilari tomonidan qilingan tajavvuzlar orqali vayronaga aylantirilgan qishloqlar, ekin dalalari, suv inshootlarining izdan chiqishi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Sobiq sovetlar davrida aholining agrar madaniyatli oliy ma'lumotli qishloq xo'jaligi mutaxassilarni tayyorlash evaziga kuchaytirildi. Biroq, mamlakatda "paxta yakka hokimligi" o'rnatildi. Paxtadan mo'l hosil olish uchun dalalar zaharli ximikatlar bilan ishlov berildi. Bunday holat qishloq aholisining genafoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada jigar kassalliklariga chalinganlarning soni haddan tashqari ko'payib ketdi. Qishloqlarda ekologik muhit izdan chiqa boshladi.

Mustaqillikdan so'ng qishloqdagi vaziyatni tiklash uchun harakatlar boshlanib ketdi. "Paxta yakka hokimligiga" barham berildi, ekin dalalarini zaharli ximikatlar bilan ishlov berish taqiqlandi, ayniqsa maktab bolalarini qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilish to'xtatildi. Qishloq xo'jaligi sohasini oqilona tarzda rivoltantirish bo'yicha katta

islohotlarni amalga oshirish boshlandi. Fermerlar, klasterlar tashkil etildi. Yer odamlarga mulk qilib berila boshlandi. Bundan ko‘zlangan maqsad mamlakatni agrar davlatdan, agrar industrial davlatga aylantirib aholi sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Qishloq aholisining agrar madaniyatini shakllantirish haqida gap borar ekan, avvalo uning zamirida ma‘naviy an‘analarni o‘rganish muammosi yotadi. Aynan shu yerda xalqning an‘anaga bo‘lgan munosabat, ma‘lum bir mentalitet turi, boshqaruv shakllari va turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan madaniyatning asosi nimada degan haqida savol tug‘iladi.

Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligi madaniyatini O‘zbekiston xalqi madaniyatining ajralmas qismi sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni tan olish kerakki etadi.

Qishloq xo‘jaligidagi ko‘plab muammolarning ildizi o‘tmishga borib taqaladi. Bu yerda biz agrar madaniyat tarixni bilmasdan turib, uning genezisi va evolyusion rivojlanish tendensiyalarini aniqlay olmaymiz.

Mamlakatimiz aholisining agrar rivojlanish tarixida an‘anaviy dehqonchilik va chorvachilikda agrotexnika vositalari va texnikasi, to‘plangan ishlab chiqarish tajribasining barcha ahamiyati bilan tabiat tomonidan berilgan mehnat vositalari: yer, insonning jismoniy imkoniyatlari, hayvonlarning tortishish kuchi, shamol va suv energiyasi ustunlik qilib keldi. Aynan ular birinchi navbatda iqtisodiy faoliyat va atrof-muhitni boshqarish usullarini aniqladilar. Muayyan hududda dehqonchilik tizimlari va hattoki ekin qurollari turlarini tanlash, qishloqdagi xo‘jalikturli tarmoqlari o‘rtasidagi munosabatlar butunlay ularning irodasiga bog‘liq bo‘lib qolgan edi. Shuningdek, ular turar-joy va ko‘chirishning tabiatini, kundalik hayotni va foydalaniladigan hududni tashkil qilishni aniqladilar. Demak, ushbu masalalarni ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq qilish nafaqat amaliy nuqtai nazardan, balki nazariy jihatdan ham muhimdir.

Xo‘sh, shunday ekan agrar madaniyat nima degan savol tug‘iladi? “Agrar” atamasi lotincha agrarius- yerga, dalaga oid, degan so‘zdan olingan bo‘lib, birinchidan, yer-suv, yerga egalik va yer-suvdan foydalanishga oid; ikkinchidan, sanoatiga nisbatan qishloq xo‘jaligi ko‘proq rivojlangan¹⁹¹, degan ma‘noni anglatadi.” Madaniyat” atamasi esa arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “sivilizatsiya”, xususan jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui¹⁹², degan ma‘nolarni bildiradi (Uning hozirgi kunda 500 dan ortiq ta‘rif va tavsiflari bor). Shunga ko‘ra agrar madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin. *Agrar madaniyat deb qishloq aholisining yerga ishlov berish orqali mo‘l hosil olish, saqlash va realizatsiya qilish jarayonida an‘na, urf-odat, ishlab chiqarish ko‘nikmalari va ish uslublarida, mehnatga va tabiiy muhitga bo‘lgan munosabatlarida qaror topgan ijtimoiy ong shakllarining namoyon bo‘lish tizimlarining majmuasiga aytiladi.*

Qishloq aholisining agrar madaniyatini shakllantirish zarurati haqida davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev:” Iqtisodiyot sohasidagi eng muhim vazifalarimizdan biri – bu agrar sohani yanada isloh qilish va modernizatsiyalashdan iboratdir. Qishloq

¹⁹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.2 - Т.: “ Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. - Б.521.

¹⁹² Минзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи наشري. – Тошкент:”Ўзбекистон” нашриёти, 2022, - Б.159.

xo‘jaligi iqtisodiyotning eng qadimiy, hech qachon o‘z o‘rni va ahamiyatini yo‘qotmaydigan tayanch tarmoqlaridan biridir”¹⁹³, - deb yozgan edi. Demak, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning eng harakatlantiruvchi kuchi – bu bugungi kunda 18 milliondan ortiq bo‘lgan qishloq aholisidir. Ularning agrar madaniyatini shakllantirish, mamlakatimizni jahonda eng kuchli agrar industrial davlatlardan biriga aylantirish demakdir. Bu vazifani amalga oshirish uchun “Qishloq aholisining agrar madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish” degan qonun qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

BOBURIYLAR SALTANATI TA’LIM TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Azizqulov Akram Abduraxmonovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dosent.

E-mail: a.azizkulov@mail.ru

To‘g‘izov Nurullo Xudoyorovich

Sh.Rashidov nomidagi SamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bobur va boburiy hukmdorlarning Hindistonda markazlashgan imperiyaga asos solishlari va uni ma’naviy-madaniy jihatdan yuksaltishga qaratgan faoliyatlarining falsafiy metodologik tahlili bayon etiladi. Shuningdek maqolada boburiy hukmdor Akbarshohning ta’lim tizimidagi islohotining mazmuni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Bobur, boburiy hukmdorlar, Akbarshoh, maorif, ta’lim, islohot, ma’naviy yuksalish, madaniy taraqqiyot.

NEW APPROACHES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM OF THE BABURIAN KINGDOM

Abstract: This article describes the philosophical and methodological analysis of the activities of Babur and the Babur rulers, who founded a centralized empire in India and aimed at improving it spiritually and culturally. The article also highlights the content of Babur ruler Akbar Shah's reforms in the education system.

Key words: Babur, Babur rulers, Akbar Shah, education, education, reform, spiritual growth, cultural development.

Boburiylar sulolasi hukmronligi Markaziy va Janubiy Osiyo sivilizatsiyasida alohida o‘rin tutadi. Afg‘oniston, Hindiston va Pokiston tarixining muhim qismi sifatida e’tirof etiladigan bu sulola tarixi tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan sohaga aylangan. Bobur Mirzoning Hindistonda yangi davlatga asos solishi va uning vorislari tomonidan tarqoq xalqlarni birlashtirib qudratli imperiya tashkil etilishi, o‘lkada ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi hind tarixchilari tomonidan puxta o‘rganilgan [1.408]. Boburiylar saltanati tarixiga oid ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lib,

¹⁹³ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Иккинчи нашр. – Т.: О‘zbekiston, 2022. – Б. 261.

ular orasida hind tarixchisi L.P.Sharmaning “Boburiylar saltanati “ asari alohida ahamiyat kasb etadi.

Biz hind tadqiqotchisining boburiylarni Hindistonda ilm-fan va ta’lim tizimini isloh etishdagi hissalariga doir mulohazalarini falsafiy metodologik jihatdan tahlil etishga harakat qilamiz. Hindistonda ilm-fan rivojidadagi boburiylar xizmatini bayon etar ekan L.P. Sharma shunday deydi: “Boburiylar hukmronligi davrida rejali va bir xil tizimdagi ta’lim o’choqlari tuzilgan bo’lib, yoshlarni o’qitish ishlari, asosan, yakka tartibda yoki madrasalarda olib borilardi. Mudarrislar va madrasalarga shahar sadrining tavsiyasiga ko’ra davlat tomonidan moddiy yordam va mukofotlar berilardi. Musulmon bolalari maktab va madrasalarda, hind bolalari esa “patshala” (9 yillik maktab) va “vidyapist” (kollej)larda o’qir edi. Shohlar (Boburiylar) o’zlari yaxshi savodli bo’lganliklari uchun maorif va madaniyatni rivojlantirishga katta e’tibor berar edilar. Ularning hammasi olim-u ulamolalar fozul-u kiromlarni avaylab, ularga ko’p g’amxo’rlik ko’rsatardilar. Shuning uchun ham saltanatda olimlarga muhtojlik sezilmagan. Va ilmiy asarlar ham o’sha davrda ko’plab yaratilgan. Qolaversa, ilmiy, badiiy asarlar bir necha tillarda yaratilardi” [2.151].

Markaziy Osiyoda ikkinchi Renessansiga asos solgan, Samarqand va Hirotida ilmiy tadqiqot markazlari – akademiylar tashkil etib ularni boshqargan temuriylardan bo’lmish boburiy podshohlar Hindiston zaminida o’z faoliyatlarini ilm-fan va madaniy taraqqiyotga homiylik qilishdan boshladilar. Buni hind tarixchisii quyidagicha bayon etadi: “Boburiy shohlarning birinchisi bo’lmish Boburning o’zi yirik olim edi. U Dehlida madrasa qurdirib, bu ilm dargohida geografiya, matematika, va astronomiya hamda diniy fanlar o’qitilishi ta’minlandi. Uning o’g’li Xumoyun ham Dehlida madrasa tikladi. Bu paytlarda diniy ilmlar, islom nazariyasi o’qitilishiga ko’proq e’tibor berilardi” [2.151]. Hindistonni zabt etib nihoyatda qisqa muddatda, atiga 4 yil hukmronlik qilgan Bobur Dehlida madrasa qurdirib ham tabiiy ilmiy ham diniy bilimlar olishga imkon beradigan ta’lim maskanlarini barpo etadi. Boburning vorisi Xumoyun hukmronligi davrida Hindistonda kechgan beqaror va tahlikali, qaltis vaziyatlarda ham ilm-fan rivojiga e’tibor susaymadi.

Boburning Hindistonda markazlashgan qudratli davlat tuzish orzusini nabirasi Akbarshoh amalga oshiradi. Hukmdor Akbarshohni hind tarixchilari buyuk imperiya barpo etgan qahramon sifatida e’tirof etadilar. Uning ta’lim tizimini isloh qilishga oid tadbirlarini tarixchilar quyidagicha bayon etadilar: “Akbarshoh davriga kelib faqat diniy fanlargina emas, balki dunyoviy fanlar ham o’qitilishiga zarurligi sezilib qoldi. Shuning uchun ham u musulmon va hind maktab-madrasalarida barcha dunyoviy fanlarni, jumladan, matematika, geografiya, tarix, siyosatshunoslik va astronomiya kabi fanlarni o’qitishni yo’lga qo’ydi. Maorif tizimini takomillashtirishga ham ko’p e’tibor berildi” [2.151].

Akbarshoh nafaqat qudratli imperiya yaratadi, balki mamlakatda ta’lim sohasida eng muhim islohotlarni amalga oshiradi. “Akbarshoh shunday talab qo’yar edi: “Talaba hamma narsani o’zi tushinib olishni o’rganishi, muallim esa uni bir ozgina yordam berib turishiga erishish lozim”” [2.151]. **XXI ta’lim tizimida innovatsion ta’lim texnologiyasi deb ataladigan bu g’oyani to’rt yarim asr avval Hindistonda boburiy Akbarshoh qo’llagan edi.**

“Akbarshohning bu niyatlariga qay tarzda erisha olganiga u hukmron bo’lgan

davrda ko‘plab maktab va madrasalar ochilgani, jamiyatga ko‘plab olim-u ulamolar, fozil-u fuzalolar yetishtirib bergani, xalqning turmush faravonligiga va madaniyati boshqa davrlarga qaraganda ancha yuqori darajaga ko‘tarilganidan ham ishonch qilsa bo‘ladi” [2.152]. Hind tarixchilarining mazkur xulosasi Akbarshoh tomonidan amalga oshirilgan ta’lim islohotlarining muvaffaqiyatni anglatadi.

Barcha boburiy hukmdorlar mamlakatda ilm-fan taraqqiyoti va ta’lim tizimining ravnaqiga alohida e’tibor qaratganligini L.P.Sharma quyidagicha izohlaydilar: “Jahongir davrida ham hind va musulmon maktab, ta’lim-tarbiya o‘choqlari gurkirab rivojlandi. Avrangzeb davrida esa ko‘proq musulmon maktabi va madrasalariga e’tibor kuchaytirildi. Dehli, Agra, Fotehpur, Sekri, Laknov, Guvalyor, Kashmir, Allohobod, Lohur, Jonpur, Sialkot va boshqa shaharlar musulmonlarning asosiy ilm markazlariga aylantirildi. Maktab va madrasalarda o‘qitish ishlari fors tilida olib borilar edi. Ular orasida ayrim fanlarni o‘qitish borasida juda katta tajribaga ega bo‘lib, mashhur bo‘lib ketganlari ham oz emasdi. Masalan, Laknovdagi Farajgi Mahal madrasasi qonunshunoslik ilmini o‘qitishda mashhur edi. Dehlidagi Shoh Valiulloh madrasasi mantiq ilmini, Sialkotdagi madrasa esa sarfu nahv(grammatika) ilmini o‘qitish bo‘yicha tengi yo‘q sanalardi” [2.152]. Bu boburiylar davrida oliy ta’lim tizimi – madrasalarda ixtisoslashishi jarayonini anglatadi.

Mamlakatda mantiq, tilshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarga hamda musulmon va hind ilohiyotshunosligiga ixtisoslashgan ta’lim va ilm markazlari vujudga keladi. Madrasalarning nufuzini bayon etar ekan hind tarixchilari shunday deydi: “Madrasaning shuhrati unda dars beradigan mudarris va muallimlarning obro‘si bilan o‘lchanar edi. U paytlarda imtihon olish odat tusiga kirmagan bo‘lib, o‘qishga qabul qilish va o‘qitish talabani ustoziga bog‘liq bo‘lgan. Talabani bilimi qaysi maktab yoki madrasada o‘qigani va qaysi muallim o‘qitgani bilan belgilangan. Madrasani bitiruvchilariga o‘qigan fani sohasiga qarab uch xil daraja berilardi. Mantiq va falsafa ilmini o‘rganganlarga “fozil” unvoni, diniy ilm o‘rganganlarga “olim” unvoni va adabiyot fanini o‘rganganlarga “qobil” unvoni berilar edi” [2.152].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ma’rifatli shoh va shori Bobur zurriyotlari ham ma’rifatli bo‘lib, Hindistonda madaniy taraqqiyotga katta hissa qo‘shdilar. Natijada imperiyada ma’naviy va madaniy hayot gurkirab rivojlandi. Boburiylarning, xususan, Akbarshohning maorif tizimidagi islohoti hind madaniy taraqqiyotida nodir fenomen bo‘lib qoldi. Shu bois hind tarixchilari boburiy hukmdorlarni milliy qahramon sifatida e’tirof etadilar. Vatandoshimiz Bobur va boburiylarni Hindiston tarixida bunday yuksak e’tirof etilishi, har birimizga yuksak iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Neru, Djavaxarlal. Otkrytie Indii. - Moskva: Inostrannaya literatura, 1955. – S.408.
2. L.P.Sharma. Boburiylar saltanati / Ingliz tilidan G‘.Sotimov tarjimai. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. –B.168.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. - 368 b.
4. Nizomiddinov N.G. Buyuk boburiylar tarixi (XVI—XIX asr). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. - 516 bet.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ULUSH VA KASRLARNI O‘RGATISH METODIKASI

Mardanov E. M.

Ўzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini mudiri, dotsent.

Begimov X.X.

S. Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universiteti dotsenti, Tojikiston respublikasi

Burxonov K.T.

Akademik B. G‘afurov nomidagi Xujand davlat universiteti dotsenti, Tojikiston respublikasi

Shodiyev Faxriddin

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti.

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflar matematika ta’limi maktab ta’limining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Boshlang‘ich matematika kursning asosiy yzagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Boshlang‘ich sinflar matematika ta’limida bolalar mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan birgalikda, ularda t‘yg‘ri, aniq, qisqa matematik nutqni ystirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ulushlar va kasrlar mavzusini yrganish metodikasi boshlang‘ich sinf matematikasida asosiy yrinni egallaydi. Ulush mavzusini boshlang‘ich sinflarda, ikki turga bulib tanishtirish maqsadga muvofiq b‘ylib, ulush kasrning asosiy fundamenti hisoblanadi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflar ta’limida ulush va kasrlarni yrgatish usullari aniq misollar va dalillar vositasida yoritilgan.

Tayanch s‘ymlar: boshlang‘ich ta’lim, kasr, metodika, ulush, masala, Bolalar.

Boshlang‘ich maktabda ulushlar va kasrlar bilan dastlabki tanishishni 5-sinfda kasrlarni yrganishga tayyorgarlik sifatida qarash lozim. T‘yrt yillik boshlang‘ich maktabning 3-sinfi dasturida sonning ulushini va ulushiga k‘yra sonning yzini topish ulushlarini topishga doir masalalar yechiladi.

Ulush va kasr nima? «Ulush» va «Kasr» tushunchalari bolalar uchun odatdan tashqari tushunchalar b‘yladi. Bu tushunchalarni yzlashtirib olish uchun yqitishni t‘yla k‘yrsatmali qilish zarur. Amaliyotda eng k‘yp qog‘oz tasmalar, chiziqlar, kasr sanog‘i silindrlari q‘yllaniladi.

Yqitishning birinchi bosqichida bu k‘yrsatma q‘yllanmalardan foydalanishning kamchiligi shundaki, b‘ylishdan keyin qolgan, masalan, qog‘oz tasmalar b‘ylaklarining yzlari shakli b‘yicha dastlabki tasmalarga yxshash b‘ylib, ularni yana butun birlik sifatida qabul qilish mumkin. Shu sababli dastlabki vaqtlarda shunday narsalarni olish kerakki, ularning b‘ylaklari shakli b‘yicha butun narsadan farq qilinsin va ularni butun narsa sifatida qabul qilish mumkin b‘ylmasin. Bunday narsalar doiralar, qilish mumkin b‘ylmasin. Bunday narsalar doiralar, kvadratlar, t‘yg‘ri t‘yrtburchaklar, uchburchaklar b‘ylishi mumkin. Lekin fvqat geometrik figuralarning yzidan foydalanish haddan tashqari bir xillikka olib keladi, kartoshka, olma, turp va boshqa k‘yrsatma

qy’llanmalardan foydalanish kerak. Qog‘oz tasmalar, chiziqlar, chyplar kabi kyrsatma qy’llanmalardan foydalanishda ularni shunday qyyish kerakki, narsaning tagida uning qismlari bylaklari tursin va bolalar narsaning butun va kasr qismlari orasidagi farqni kyrib tursinlar.

Ulush nima? Agar berilgan ob’ektni (narsani, narsalar typlamini) bir necha teng bylaklarga bylish mumkin bylsa, u holda bu bylaklarning har biri ob’ektning (narsaning, narsalar typlamning) ulushi deb ataladi.

Ulush ikkita natural son va chiziqcha yordamida yoziladi: $\frac{1}{2}$; $\frac{1}{3}$; $\frac{1}{5}$

Chiziqcha ostidagi son ob’ekt nechta bylaka bylinganligini, chiziqcha ustidagi son esa bunday bylakdan bitta (ulush) olinganligini bildiradi.

Kasr (yo ki kasr son) deb shunday natural sonlar juftiga aytiladiki, ulardan chiziqcha ostiga yozilgani ob’ekt nechta teng bylaka bylinganligini, ikkinchisi, chiziqcha ustiga yozilgani esa hosil bylgan ulushlardan nechtasi olingan ligini bildiradi: $\frac{3}{4}$ $\frac{7}{8}$.

Ulushning va kasrning ta’riflarini solishtirish ulush kasr sonning xususiy holi ekanligini kyrsatadi.

Ulush tushunchasining kiritilishini yquvchilarga bunday kirish suhbatini yordamida asoslab berish zarur: «qarang», bolalar, manna bu bir bosh sarimsoq piyoz.

Agar uning ustki pystini olib tashlasak, bir nechta «tishchalarni» yoki ulushlarni kyramiz, agar apelsinning pystini archisak, u 10 ta ulushga oson bylinadi.

Darsning maqsadi: $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{8}$ bilan kyrsatmali tanishtirish, ulushlarni yqish va yozishni yrgatish; ulushlarni taqqoslashga yrgatish.


Kyrsatma qy’llanmalar: rangli qog‘ozdan tayyorlangan diametri 10 sm 4-ta doira, rangli qog‘ozdan tayyorlangan uzunligi 10 sm va eni 1 sm bylgan 4 ta qog‘oz tasma, rangli qog‘ozdan tayyorlangan tomoni 10 sm bylgan 4 ta kvadrat, albom varag‘i.

Darsning borishi (kirish suhbatiga qarang).

Yqituvchi: mening qylimda ikkita doira bor (tayyorlab qyyilgan typlamdan ikkita bir xil rangli doirani kyrsatadi). Doiralarni bir xilligini qanday tekshirib kyrisish mumkin? (Doiralarni bir-birining ustiga qyyish kerak. Ular ustma-ust tushdi, demak, bir xil.) Butun doirani varaqqa yelimlab yopishtiramiz. Ikkinchi doirani ikkita teng bylaka bylamiz. Buning uchun doirani bylaklari hamma nuqtalari bilan ustma-ust tushadigan qilib bukamiz. Doirani qirqamiz. Nechta bylak hosil byldi? (Ikkita bylak.) Bular qanday bylaklar (Teng). Har bir bylak doiraning ikkidan bir bylagi yoki doiraning yarmi deb ataladi. Qalamni va doiraning yarmini oling. Biz yangi sonlarni yozishni yrganamiz. Gorizontl chiziqcha narsani teng bylaklarga bylganimizni bildiradi.

Chiziqcha ostiga, doirani nechta teng bylaka bylganimizni (2-ta) yozamiz, chiziqcha ustiga esa necha bylak olganimizni (1-ta) yozamiz. Bunday yozuvni hosil qildik: $\frac{1}{2}$ (quyidagini bildiradi: doiraning ikkidan bir ulushi yoki doiraning yarmi).

Doiraning yarmini mendagi sxemaga yxshatib qog‘ozga yopishtiring (1-rasm).




1-rasm

Yana bitta doira oling, ung teng ikkiga buklang va yana teng ikkiga buklang. Endi yoying. Doirani nechta teng b̄ylaka b̄yldik (t̄yrtan). Har bir b̄ylak t̄yrtadan bir ulush deb ataladi. T̄yrtan bir ulushni qirqib oling va qog‘ozga yelimlab yopishtiring. Yozamiz: $\frac{1}{4}$. Bu yozuvni ȳqing (doiraning t̄yrtan bir ulushi). Qisqacha bunday aytiladi: doiraning choragi. Doiraning sakkizdan bir ulushini hosil qilish b̄yicha ish ham shunga ȳxshash ȳtkaziladi. Mustahkamlash kvadratni teng b̄ylaklarga b̄ylish va ularda $\frac{1}{2}$; $\frac{1}{4}$ $\frac{1}{8}$ ni yozish yordamida mustahkamlanadi.

Shundan keyin bolalar 10 sm uzunlikdagi qog‘oz tasmani oladilar va unda chizg‘ich yordamida 2 sm dan q̄yib chiqadilar.

Ȳqituvchi: Tasmanii necha b̄ylaka b̄yldingiz (5 ta b̄ylaka). Har bir b̄ylak qanday ȳqiladi? (Tasmaning beshdan bir ulushi). Butun tasmada nechta beshdan bir ulushlar bor? (5 ta.)

Ȳndan bir ulushlar bilan ham ish shunga ȳxshash ȳtkaziladi. Darsning s̄yngida ȳqituvchi ulushlarga b̄yilingan figuralarni k̄yrsatadi, ȳquvchilar esa bu ulushlarni k̄ychirib oladilar (2-rasm).



2-rasm

Ulushlarni doskada tez yozish va ularni t̄yg‘ri ȳqish uchun jadval tayyorlab olish mumkin (3-rasm). Jadvaldagi kichik ch̄yntakcha uchun 1, ..., 9 raqamli kartochkalar va katta ch̄yntak uchun kvadrat, doira, uchburchak, t̄yg‘ri t̄yrtburchak nomlari yozilgan kartochkalar tayyorlab q̄yilgan.

Butun $\frac{1}{4}$ ulushi



3-rasm

Y̅quvchi kerakli kartochohalarni oladi, ch̅yntaklarga soladi va ulushni y̅qiydi. Bunday ishda y̅qituvchi ulush bu biror narsaning b̅ylagi ekanligiga bolalarning e'tiborini qaratadi.

3 sinfning navbatdagi matematika darsida sonning ulushlarini topishga doir masalalar yechiladi. Mehnat darsida tayyorlangan sxema amaliy mashqlarda tayanch b̅yladi.

Y̅qituvchi: sxemaga qarang, doiraning t̅yrtadan bir ulushini qanday hosil qilish mumkin? (Doirani t̅yrtta teng b̅ylakka b̅ylish kerak.) 8 ta kvadratni sanab oling. 8 ta kvadratning $\frac{1}{4}$ ulushini qanday hosil qilish mumkin? (8 ta kvadratni 4 ga teng b̅ylaka ajratish kerak). Ajrating. Chorakda nechta kvadrat hosil b̅yladi?


(2 ta kvadrat). Javobni qanday hisoblab topish mumkin? (Bunday qilish kerak: $8:4 = 2$).

Doska oldida ishlash. 15 ta daftar ol. Bu daftarlarning uchdan bir qismini shkafga q̅yy. Uchdan bir qismini qanday topish mumkin?

(Daftarlarni uchta t̅ypga baravardan qilib ajratish kerak). 15 ning $\frac{1}{3}$ ini qanday hisoblash kerak? (Bunday qilish kerak: $15:3=5$). Xulosa: sonning ulushini b̅ylish bilan topiladi.

O'quvchilarda ulush tushunchasi shakllangandan so'ng qo'yidagicha mashqlarni bajarishni mustaqili ish sifatida berish mumkin.

1. Bu figuralarning har biri nechta teng b̅ylaka b̅ylingangini sanang. Figuraning shtrixlangan ulushining nomini ayting (5-rasm).



5-rasm

2. Qaysi biri katta: $\frac{1}{5}$ mi yoki $\frac{1}{10}$ mi? Doiraning $\frac{1}{10}$ ini hosil qilish uchun doiraning $\frac{1}{5}$ idan nechta olish kerak? Butun doirani hosil qilish uchun $\frac{1}{10}$ doiradan nechta olish kerak?

3. Birda $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{8}$, $\frac{1}{10}$ dan necha marta bor ?

4. Qovun 6 kg. $\frac{1}{2}$ qovun necha kg?

5. Agar velosipedchi bir soatda 20 km y̅l bosgan b̅ylsa, u $\frac{1}{4}$ soatda necha kilometr y̅l bosadi?

6. Maktab darvozasidan maktab eshigigacha 50 m.

Ўқувчи бу масофанинг $\frac{1}{5}$ қисmini ўтди. U yana qancha yurishi kerak.

Bolalar mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda tўg'ri, aniқ, qisqa matematik nutqni ўstirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir.

Bu boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

Rivojlanayotgan ta'lim haqida gapirganda ish faqat bilish qobiliyatlarini (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, nutq) rivojlantirish- dagina iborat, deb ўylash xato fikrdir.

Boshlang'ich matematika kursining asosiy materiali natural sonlar va asosiy kattaliklar matematikasidir.

Bolalarni sonlar va arifmetik amallar bilan tanishtirish matematikadan dastlabki darslarda berilgan ikki buyum tўplamlarining birlashmasiga, ikki tўplam elementlari orasida moslik ўrnatishga va buyumlarning berilgan tўplamlari qismini ўrnatishga amaliy mashq qilish bilan tayyorlanadi.

Dasturning arifmetik qismiga bolalarni kasrlar bilan dastlabki tanishtirish ham kiradi. Bu masalaga nisbatan kam vaqt ajratilgan, chunki tegishli temalarning hajmi ham uncha katta emas. Dastur bolalarda miqdorning ulushlari haqidagi, ularning teng qismlarga bўlish bilan hosil bўlishi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishni talab qiladi. Bolalar ulushlarni taqqoslashni, kattalikning berilgan qiymatidan berilgan ulushini topishni va teskari masalani yechishni (ulushning berilgan qiymati bўyicha izlanayotgan kattalikning qiymatini topishni) bilishlari kerak. Bunday masalalar kўrsatmalilik asosida yechiladi.

Ulushlar va kasrlar mavzusini ўrganish metodikasi boshlang'ich sinf matematikasida asosiy ўrinni egallaydi.

1. Ulushning mazmunini bolalarga hamma tomonlama ўrgatish kerak.
2. Ulush mavzusini boshlang'ich sinflarda, ikki turga bulib tanishtiradi. Sondan ulush topish, ulushdan son topish.
3. Ulush kasrni asosiy fundamenti hisoblanadi.
4. Kasrni taqqoslash usul bilan tanishtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алгебра. Ўрта мактабнинг 6-синфи учун дарслик. –Тошкент: 1986. - 124 бет.
2. Бегимов Ҳ.Х., Рабиев С.М., Раҷабов Т.Б., Файзуллоев А.М., Шукурзода Х.А., ва дигарон. Назария ва практикуми методикаи таълими математикаи синфҳои ибтидоӣ . – Душанбе: 2024. - 665 с.
3. Бегимов Ҳ.Х., Иззатуллоев К., Раҷабов Т.Б., Давлатов Т., Начмуддинова А. Математика. (Китоби дарсӣ). – Душанбе: 2024. - 295 с.
4. Бикбаева Н.У. ва бош. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. - Тошкент: Ўқитувчи. 1996 . – 510 бет.
5. Бурҳонов. Қ.Т. ва бош. Математика курси асослари. - Хужанд , 2012 .- 216 бет.
6. Погорелов А.В. Геометрия. Ўрта мактабнинг 6-10 синфлари учун ўқув кўлланма. - Тошкент:1989.- 235 бет
7. Стойлова Л.П., Пышкало А.М. Основы начального курса математики. - М.: Просвещение, 1988. - 320 с.

8. Шодиев Т. Аналитик геометриядан қўлланма. Тошкент: 1973.-211 бет.

YOSHLARDA RAQOBAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI

Shakarov Jasurbek Shavkat o‘g‘li

SamDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: O‘zbekistonda raqobat madaniyatini rivojlantirishning ma’naviy-ma’rifiy asoslarini belgilash, milliy taraqqiyot va iqtisodiy farovonlikka xizmat qiluvchi oqilona raqobat madaniyatini shakllantiruvchi usul va vositalarni ishlab chiqish va bu vositalarning ta’sir doirasini kengaytirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: raqobat madaniyati, ma’naviy va ma’rifiy asos, ta’lim, tarbiya, axloq.

Jamiyatda raqobat madaniyatini shakllantirish xususida mulohaza yuritilar ekan, bu muammoning yechimi, konstruktiv omillari yuzasidan muayyan tavsiyalarni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Bizningcha har qanday madaniyat ma’lum bir jamiyatda shakllanadi, shu jamiyatning ma’lum bir tartiboti, qonun-qoidalari, qadriyatlari, asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan muayyan atributiv ma’naviy-ma’rifiy asoslaridan oziqlanibgina taqaqqiy etadi. Raqobat madaniyatining shakllanishi va tarqiyotida ham muayyan jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy asoslari muhim o‘rin tutadi. Jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy asoslari orqaligina raqobat madaniyati shakllanadi. Mazkur ma’naviy-ma’rifiy asoslar raqobat madaniyatining ham ma’naviy-ma’rifiy asoslari hisoblanadi. Har bir xalqning ma’naviyati ham, ma’rifati ham u yashab o‘tgan tarixiy davr, evolyutsion taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib boradi. “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q” [2; 4] dir. Demak, raqobat madaniyati buyuk tarixda shakllangan ma’naviy-ma’rifiy asoslardan oziqlanadi.

Avvalo, ma’naviyat tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mazkur tushunchaga falsafiy ilmiy va adabiyotlarda juda ko‘p marotaba ta’rif berilganligining o‘ziyoq, ma’naviyat hamisha, har bir davrda diqqat markazida bo‘lib kelinganligidan dalolatdir. Bugungi kunda mamlakatimizda ham ma’naviy-ma’rifiy soha davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari Sh.Mirzoyoyev ta’biri bilan aytganda, “Biz yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yaxshi anglaymiz. Mening nazarimda. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”¹⁹⁴. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib shuni ta’kidlaymizki,

² Мирзиёев Ш. Эркин ва обод, демократик жамиятни барчамиз биргаликда барпо этамиз.// Миллий тарақ-қиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1.- Т.: Ўзбекистон, 2017.- Б.134.

tadqiqot obyektimiz hisoblangan raqobat madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ikkala ustunga ham aloqadordir. Ya'ni ham iqtisodiy, ham ma'naviy ustunni mustahkamligi raqobat madaniyatining qay darajada takomillashganligi orqali belgilanadi. Shuni ta'kidlashimiz o'rinliki, hozirgacha raqobatning, asosan, iqtisodiy ustun bilan aloqador jihatlari tadqiq etilgan. Demak, jamiyatning taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy ustunlardan biri ma'naviyat ekan, raqobatning ma'naviy asoslari, madaniyatlilik jihatlari va xususiyatlari ham o'rganilishi bugungi zamonaviy jamiyat talablaridan biri hisoblanadi. Faylasuf olimlarimiz J.Yaxshiliev va N.Muhammadiyevlar ta'kidlashlaricha, "Ma'naviyat eng umumiy ma'noda ruhga yaqinlashish yoki qo'shish demakdir" [4; 241]. Demak, ma'naviyat, avvalo, ruh va qalb bilan bog'liq inson introvertiv (ichki) olamining kamolotidir. Shu bilan birga jamiyatning ham ichki, motivatsion, regulativ, maqsadga yo'naltiruvchi, haqiqat yo'lini ko'rsatuvchi asosiy quvvat manbaidir. Raqobat madaniyati esa ana shu quvvat manbaidan oziqlanadi, shakllanadi, rivojlanadi. Agarki, bu quvvat beruvchi asos mustahkam tomirlarga ega bo'lsa, uning asosida shakllangan har qanday madaniyat ham mustahkam va har qanday sinovlarda bardoshli bo'ladi. Shu o'rinda mamlakatimizda raqobat madaniyatini shakllanishidagi eng muhim ma'naviy asoslarga quyidagilarni kiritib o'tishni lozim deb hisobladik:

- Din;
- Tarbiya;
- Axloq;
- Ma'naviy meros;
- Qadriyatlar;
- San'at;
- Adabiyot;
- Ijtimoiy muhit;
- Axborot.

Raqobatning ma'naviy va ma'rifiy asoslari xususida mulohaza yuritish ekanimiz, yuqorida asosan ma'naviy asoslarni qayd etib o'tdik. Vaholanki, raqobat madaniyatining shakllanishida muayyan ma'rifiy asoslarga ham tayaniladi. Aslida ma'naviy va ma'rifiy asoslarni bir-biridan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular bir-birini to'ldirib, o'zaro birgalikdagina mavjud bo'la oladi. Ma'naviy asoslarsiz, ma'rifat, ma'rifiy asoslarsiz ma'naviyatni shakllantirib bo'lmaydi.

Raqobat madaniyatining ma'rifiy asoslari deyilganda bizningcha, ilm-fan, ta'lim, innovatsiya, texnologiya kabi nazariy tafakkur tarsi mahsullarini tushunish mumkin. Ilm-fan raqobat madaniyatini shakllantiruvchi eng mukammal va mustahkam asos bo'la oaldi. Ilmli, zamoviy fan yutuqlari bilan qurollangan har qanday raqobatlashayotgan tomon hamisha g'olibdir. Uni yengish juda mushkul. U o'zining ilmi bilan har qanday muammoni yehcadi, har qanday to'siqdan o'ta oladi. O'zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz" [1; 235]. Zero ilm bu ezgulik yo'li, muammolar yechimi, inson hayot farovonligini ta'minlash manbaidir. Shuningdek oqilona ilm-fan oqilona ta'lim orqaligina amalga oshadi. Demak, ta'lim jarayoni ham

raqobat nadaniyati shakllanishining ma’rifiy asosi hisoblanadi. Ta’lim orqali bilim shakllanadi, bilim olish uchu esa muayyan tarbiya va axloq lozim bo‘ladi. Buyuk allomalarimizdan biri hisoblangan Abu Rayxon Beruniyning quyidagi mulohazalari ham fikrimizning yorqin dalilidir. “Ilm olish dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta’lim va tarbiya bir butunlikni ko‘rsatadi, faqat shu borliqqa amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi” [3; 36]. Demak madaniyatli, adolatli, halollikka asoslangan raqobatni shakllanishida muayyan jamiyatdagi ma’naviy va ma’rifiy asoslar birdek ahamiyatli hamda muhimdir. Bu esa mamlakatdagi milliy ma’naviyat taraqqiyotiga ham ta’sir etadi, uning yuksalish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib fikr yuritganda:

Birinchidan, jamiyatda raqobat madaniyati shakllanishi va taraqqiy etishida muayyan ma’naviy va ma’rifiy asoslar ta’sir etadi. Raqobat madaniyati din va axloq, tarbiya, ma’naviy meros, qadriyatlar, san’at va adabiyot kabi bir qancha asrlar sinovidan o‘tgan yuksak ma’naviy asoslar zamirida shakllanadi, taraqqiy etadi, rivojlanadi.

Ikkinchidan, madaniyatli raqobat muayyan ta’lim, ilm va fan, innovatsion o‘zgarishlar, texnologik yutuqlar, zamonaviy ilmiy-nazariy tafakkur tarzining yuksalishi orqaligina qaror topadi. Bu esa raqomad madaniyati shakllanishining ma’rifiy asoslari hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Иккинчи нашр. – Т.: O‘zbekiston, 2022. – Б. 261.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. (Ikkinchi nashr) – Т.: Ma’naviyat, 2010. – В. 4.
3. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2 - жилд – Т.: Фан, 1965. – Б.36.
4. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Falsafa. Darslik. Samarqand: SamDU, 2021. – В. 241.

СЕГОДНЯ И ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И ДОЛГА

Туратов Шухрат Бахромович

Джизакский политехнический институт, доцент,
заведующий кафедрой «Общественные науки», к.э.н. (Кандидат наук)

Ключевые слова: Новый Узбекистан, правовое государство, демократическое общество, Конституция Республики Новый Узбекистан, Нравственное сознание, гражданский долг, ответственность, правосознание.

Аннотация: В данной статье подробно освещены подходы к формированию нравственного сознания и гражданского долга.

Сегодня создание правового демократического государства в нашей стране является политической и конституционной целью развития общества. Построение правового государства в условиях независимости и рыночных

отношений является важной общественно-политической задачей в области государственного строительства и продвижения демократии. В процессе строительства правового государства в Узбекистане большое внимание уделяется повышению правового сознания и культуры граждан, усилению их гражданской ответственности. В этой связи, как подчеркнул лидер страны, “всем нам ясно, что реформа - это обновление и изменение, более глубокое чувство ответственности за эффективность работы”. Поэтому не секрет, что эффективность всех экономических и политических реформ в нашей стране сегодня связана с формированием образа жизни с чувством гражданской ответственности у каждого нашего гражданина. По сути, ответственность – это способность человека полностью понимать пользу каждого действия и продукта своей деятельности для себя и других. Человек, чувствуя ответственность, всегда тщательно планирует свою работу, заранее может представить ее последствия и способен мобилизовать все свои силы и потенциал для достижения необходимого результата. Если обратить внимание на интеллектуальную ответственность в нашем обществе, то философский словарь определяет ее как «характеристику человека в соответствии с высокими нравственными требованиями, просвещенного человека, воплощающего в себе национальные и общечеловеческие ценности, добродетели, знания, свою сферу, семью, сообщество, люди. Понятие, означающее, что он осознает свой долг перед страной, народом и мобилизует свою жизнь и труд на выполнение этого долга. К интеллектуальной ответственности. создает в человеке чувство мобилизации на благородные цели»

В развитии общества мы можем взять на себя ответственность не только за интеллектуалов, но и за лидеров. “ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЛИДЕРА является одной из основных характеристик культуры лидера и выражает его ответственность за определенную сферу. Она отличается от ответственности отдельного человека, сотрудника. Поэтому ответственность руководителя всегда считается важной. Прежде всего ответственность – это глубокое понимание совести, веры, долга каждого человека перед обществом, обществом и Родиной. В целом ответственность – это чувство ответственности за задачу руководителя. Ответственный руководитель, прежде всего, требователен к себе и другим”.

Кроме того, на особом месте по своей значимости стоит долг, который в обществе является синонимом ответственности. “Долг – это понятие выражает моральную ответственность и обязанность человека по отношению к требованиям семьи и других подобных структур. осознание того, что их исполнение есть внутренняя духовная необходимость. Характерной чертой этого в структуре моральных категорий является то, что источником этого морального качества является человек, и оно проявляется в отношении человека к обществу и различным его структурам. Категория долга возникает в связи с такими моральными категориями и понятиями, как ответственность, чувство преемственности, совесть, поведение. понятие, описывающее моральный облик человека. Долг действителен как моральная категория только тогда, когда он выбран свободной волей. Гражданский долг также имеет важное значение в регулировании поведения инкона, а долг по своей сути представляет собой

отношение определенного человека к обществу, государству и личности, обязательства перед ними. Гражданский долг напрямую связан с понятием гражданской ответственности. В жизни общества, в общественной деятельности граждан, в основе каждого поведения гражданина важное значение имеет понятие долга, прежде всего, такое понятие долга, как отцовство, материнство и т.д. сыновняя почтительность, регулирующая отношения, важна в общественном развитии. Нравственное сознание важно для выполнения гражданами своего гражданского долга в жизни общества, а сама мораль представляет собой совокупность уникальных правил регулирования отношений между людьми в жизни общества как социального явления. Нравственное сознание создает возможность личности ориентироваться на свои интересы в интересах общества, определять свои жизненные цели, интересы, обязанности и ответственность в интересах общества. Мораль представляет собой ценности универсального значения, такие как признание прав других, справедливость, честность, доверие, лояльность, умение ладить с другими и умение вести себя в обществе. Единицей нравственности является икон, ее мерилom и судьей является только совесть. Совесть обладает способностью оценивать поведение личности в жизни общества. Сознательный человек обладает справедливостью, верностью долгу и честью. Чувство совести инкона, прежде всего, требует от него относиться к другим с чувством долга и ответственности. Мораль – это социальный процесс, который формируется и совершенствуется в ходе жизни общества. В заключение можно сказать, что правовое воспитание и гражданская ответственность молодежи сегодня могут быть достигнуты только путем формирования ее правосознания, развития правовой грамотности, систематического осуществления правового воспитания и правовой пропаганды. Эти процессы, правосознание молодежи, становящейся ответственной перед обществом, будут формировать в ней законопослушность, воспитывать совершенных людей с высоким уровнем правовой культуры.

Список использованной литературы

1. Мирзиёев Ш.М. Новая стратегия Узбекистана.-Ташкент, Узбекистан,2021 г.
2. Инновационные факторы повышения общественного влияния в повышении правовой культуры. Материалы республиканской научно-практической конференции. - Джизак, 2021 г.
3. Одилкориев Х., Якубов Ш. Национальная правовая система и правовые ценности. Монография. - Ташкент, СМИ-АЗИЯ, 2000,
5. Туратов Ш.В. Формирование гражданской ответственности перед молодежью: важный фактор устойчивого развития компании в Узбекистане //Журнал юридических исследований и исследований. Нововведение вашего издания. - Пуна, Махараштра, Индия, Том 6, выпуск 1 - ISSN 2455-2437. Февраль 2020. Стр.46-49. 5. Туратов Ш.В. Формирование гражданской ответственности у молодежи – залог осуществления сегодняшних и завтрашних реформ // Американский журнал социальных наук и образовательных инноваций. ISSN 2689-0992. Том 3, выпуск 05, - США, 2021. Стр. 182-185.

6. Туратов Ш.Б. Формирование гражданской ответственности у молодежи – основа стабильной и благополучной жизни в Узбекистане // Вестник научных исследований Самаркандского государственного университета. – Самарканд, 2020. – №2. – Б.46-49 (09.00.00; №3).

7. Туратов Шухрат Бахромович. Факторы гражданской ответственности за развитие общества // В «Международной многопрофильной конференции «Тех-Фест-2021», опубликованной в базе данных Conference International, проходящей онлайн из Бостона, США, 3 октября 2021 г. стр. 9-12

IJTIMOYIY LOYIHALAR VA BOSHQARUV TIZIMINING OZARO ALOQADORLIGI

Tagayev Kamol Kamilovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Rahbar ijtimoiy qiyofasiga ta'sir ko'rsatuvchi qudratli omillardan biri jamoatchilik nazoratining shakllanganligi darajasi bilan bog'liq. Jamoatchilik nazorati mavjud jamiyatda rahbar o'zining har bir hatti harakati uchun jamiyat oldida javob beradi. Bunday javobgarlik rahbardan o'z fazilatlarini kengroq namoyon qilishni, mavjud kamchiliklarini qat'iy nazorat ostida saqlashni talab etadi.

Kalit so'zlar: jamiyat, rahbar, professional faoliyat, shaxs tarbiyasi.

SOCIAL PROJECTS AND MANAGEMENT SYSTEM OZARO RELATIONSHIP

Abstract

One of the powerful factors affecting the leader's social image is related to the level of public control. In a society where there is public control, the leader is accountable to the society for each of his actions. Such responsibility requires the leader to show his qualities more widely, to keep his existing shortcomings under strict control.

Key words: society, leader, professional activity, personal education.

Rahbarga muayyan shaxsiy javobgarlikning yuklanganligi ham uning ij-timoiy qiyofasida iz qoldiradi. Mehnat natijalari uchun shaxsan javobgarligini chuqur his etgan rahbar o'z faoliyatini, korxonaga ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tanqidiy tahlil qilib, xolis baholab borishga odatlanadi, qat'iy tartib-intizomga rioya qiladi va qo'l ostidagi xodimlardan ham shuni talab etadi.

Jamiyatdagi kasbiy mobillik darajasi bilan rahbar ijtimoiy qiyofasi o'rtasida ham bevosita aloqadorlik mavjud. Ijtimoiy ahamiyati yuqoriroq bo'lgan lavozimni egallash imkoniyati professional faoliyat samarasi bilan bog'liqligiga qat'iy ishonch hosil qilgan rahbar nafaqat kasbiy mahoratini oshirishga, balki aqliy, axloqiy, huquqiy saviyasini ham yuksaltirishga intiladi, o'z faoliyatini chuqur tahlil qiladi va aniqlagan kamchiliklarini bartaraf etishga urinadi.

Rahbar ijtimoiy qiyofasi jamiyatdagi rahbarlik faoliyatining huquqiy asoslari

ta’sirida shakllanadi. Rahbar ijtimoiy xislat va fazilatlari, e’tiqodi, faoliyatining asosiy prinsiplari, hayotiy pozitsiyasi jamiyatda yaratilgan rahbarlik faoliyatining huquqiy asoslari ta’sirida shakllanadi. Bu asoslardagi kemtikliklar, ularning yemirilishi, obro’sizlanishi yoxud zamon talablaridan ortda qolishi avtomatik ravishda rahbar ijtimoiy qiyofasiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

